



**IQTIDORLI TALABALAR, MAGISTRANTLAR, TAYANCH
DOKTORANTLAR VA DOKTORANTLARNING**

“TAFAKKUR VA TALQIN”

MAVZUSIDAGI

**RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI
ILMIY-AMALIY ANJUMAN TO‘PLAMI
(II QISM)**

BUXORO 2022 yil, 23 may

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
MAGISTRATURA BO‘LIMI**

**IQTIDORLI TALABALAR, MAGISTRANTLAR, TAYANCH
DOKTORANTLAR VA DOKTORANTLARNING**

TAFAKKUR VA TALQIN

**mavzusida Respublika miqyosidagi
ilmiy-amaliy anjuman to‘lami
(II qism)**

Buxoro 2022-yil, 23-may

Tahrir hay'ati:

O.X.Xamidov	Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
R.G'.Jumayev	Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent
A.A. Turayev	Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
D.R. Djurayev	Fizika-matematika fanlari doktori, professor
S.Q. Qaxxorov	Pedagogika fanlari doktori, professor
M.Y. Ergashov	Kimyo fanlari nomzodi, professor
S. Bo'riyev	Biologiya fanlari doktori, professor
B.N.Navro'z-zoda	Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
D.S. O'rayeva	Filologiya fanlari doktori, professor
T.H.Rasulov	Fizika-matematika fanlari doktori, (DSc)
SH.SH.Olimov	Pedagogika fanlari doktori, professor
A.R.Hamroyev	Pedagogika fanlari doktori, (DSc)dotsent
M.B.Ahmedova	Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent

Mas'ul muharrir:

A.A. Turayev – magistratura bo'limi boshlig'i f.-m.f.f.d., (PhD) dotsent

Musahhih:

S.B.Shamsiddinova – bosh muharrir

T.Sh.Ergashev – dekan muovini

D.R.Rahmatova – magistratura bo'limi uslubshunosi

O.G'.To'rayev –birinchi bosqich tayanch doktorant

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24-yanvardagi Oliy majlisga yo'llagan murojatnomasi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2020 yil 7- fevraldagi 56-F-son farmoyishiga hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil 4-maydagi № 3/19-04/05-26 son xatiga

asosan ushbu Respublika ilmiy-amaliy anjuman tashkil etildi. To'plamda iqtidorli talabalar, magistrantlar, tayanch doktorantlar va doktorantlarning ilmiy izlanishlari, tajriba almashish, sohalarda amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish va bu boradagi takliflarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-amaliy va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mazkur to'plamga kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni, statistik ma'lumotlar hamda bildirilgan fikr va mulohazalarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar

MUQADDIMA

O`zbekistonda fan va ta`lim tizimida amalga oshirilayotgan samarali islohotlar, yoshlarimizning ta`lim olishlari uchun yaratilayotgan qulay sharoitlar natijasida fanning barcha tarmoqlarida faoliyat ko`rsatayotgan oliy ma`lumotli, yuqori malakaga ega xodimlarning ulushi ortib bormoqda. 2022-yilning "Inson qadrini ulug`lash va faol mahalla yili" deb e`lon qilinishi bugun biz yurtboshimiz rahnamoligida ulug' niyatlar bilan boshlagan Uchinchi Renessans davrida mamlakatimizda yoshlar orqali ulkan intellektual boylik yaratishga, xalqimizning hayotini va sihat-salomatligini yaxshilashga va kelgusi avlodlarga o'zimizdan munosib meros qoldirishga xizmat qiladi. Inson qadri esa ta`lim va tarbiya bilan yuksaladi. Ta`lim – bu muayyan xalqning oliy istiqbol maqsadini yuzaga chiqarishga ko`makchi bo`ladigan yuksak insoniy xazinadir. U millatni oliy maqsad yo`lida birlashtiradi, Barcha sa'y-harakatlar, intilishlar, bunyodkorlik faoliyatining zahirida ta`limning hissasi katta. Har bir iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlar, mamlakatning huquqiy, siyosiy, mafkuraviy yuksalishida ta`limning va ta`lim beruvchi shaxsning o`z ulushi bor. Millatning oliy maqsadi, rivojlanish marra-lari, mo`ljallarini aniqlovchi mayoq ham shubhasiz, ta`limdir.

Kelajak insonini tarbiyalashda biz, avvalo, jamiyat taraqqiyoti tendensiyalarini va ayni paytda milliy ma`naviyatimiz xususiyatlarini hisobga olib, sifatli ta`lim berishga, talabalarning yetuk kadr bo`lishlari uchun ularni amaliyotda qo`llay olishlariga zamin yaratishimiz darkor. Har bir sohada, jumladan, ta`limda o`sish, taraqqiyot bo`lishi uchun yangilik bo`lishi kerak, qayerda yangilikka intilish bo`lsa, shu yerda taraqqiyot bo`ladi. Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimiga qilayotgan e`tiborimizning natijasiga bog`liq. Shu ma`noda yurtimizda ta`lim jarayonini zamonaviylashtirish, ilmiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish prinsiplari va qo`llab-quvvatlash shakllari, ilmiy g`oyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ilmiy-tadqiqot shakllarni yuksaltirish, xalqaro hamkorlik va chet el investitsiyalarini jalb etish, ilmiy kadrlarning salohiyatini jahon

talablariga xos va mos rivojlantirish, ularning ijtimoiy-huquqiy himoyasi, fan, ta'lim va amaliyot uyg'unligini ta'minlash kabi masalalar yechimiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Nur – Sharqdan bo'lgani kabi, ilm va salohiyat nuri ham Buxoroyi Sharifdan ekanligi, hanuzgacha mana shu e'tirof va e'tiborga loyiq amallar qilinayotgani quvonarlidir. Ajdodlarning munosib vorisi bo'lish uchun intilayotgan viloyatimiz yoshlari davlatimiz taraqqiyotiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shish uchun fanning turli yo'nalishlarida ilmiy faoliyatlarini rivojlantirmoqdalar. Shu ma'noda, ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada rivojlantirish uchun oliy ta'lim muassasalarida konferensiyalar tashkil etilmoqda. Ilmiy ishlar, xulosalar xalqaro miqyosda e'lon qilinmoqda. Ushbu to'plamda ilm-fanda ustozlarning davomchilari bo'lgan, har sohada peshqadam mutaxassis bo'lish uchun intilayotgan bakalavr, magistratura, doktorontura tahsil oluvchilarining ilmiy qarashlari, professor-o'qituvchilarning ilmiy xulosalari o'z ifodasini topgan.

Keltirilgan maqolalar yosh tadqiqotchilarning izlanishlarining ilk samarasi bo'lib, bu natijalarni ommalashtirish, yosh tadqiqotchilarning o'zlarining ilmiy faoliyatlari yo'nalishlari bo'yicha hamkor korxonalar va o'z sohasining yetuk olimlari bilan tanishishlariga imkoniyat yaratish lozim. yirik loyihalar ishlab chiqishlari, fan va ishlab chiqarish hamkorligining samarali ko'rinishlarini yuzaga keltirishlari mazkur to'plamni tayyorlashning asosiy maqsadi bo'lib hisoblanadi. Ilmiy to'plam materiallari ta'lim muassasalari o'qituvchilari, korxonalar va tashkilotlarning mutaxassislari hamda yosh ijodkorlar uchun amaliy qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Kelajakda BuxDUning izlanuvchan ilm talabalari orasidan o'z ilmiy maktablariga ega bo'lgan olimlar, nufuzli xalqaro oliy dargohlarda dars bera oladigan ustozlar, xalq xo'jaligining fidoiy xodimlari, jamiyatimizga kerakli kadrlar yetishib chiqishiga ishonamiz.

O.X. Xamidov

Buxoro davlat universiteti rektori, i.f.d., professor.

OLIV TA'LIM TIZIMIDA MAGISTRRLARNING O'RNI

A.A.Turayev

Buxoro davlat universiteti magistratura bo'limi boshlig'i,

f.-m.f.f.d., (PhD), dotsent.

Annotatsiya: maqolada oliy ta'lim muassasalaridagi o'qitish tizimi haqida umumiy ma'lumotlar hamda magistrnlarning oliy ta'limda tutgan o'rni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim muassasalari, o'qitish tizimi, bakalavr, magistratura, magistr, o'quv dasturlari.

Magistr so'zi lotincha magistratus so'zidan olingan bo'lib boshliq degan ma'noni bildiradi. Magistr akademik darajasi oliy ta'lim tizimigagi ikkinchi bosqichidir. MASTERS - bakalavr darajasidan keyingi oliy kasb-hunar ta'limi bosqichi talabaning ilmiy yoki kasbiy faoliyatiga nazariyani chuqurroq rivojlantirish va amaliy tayyorlanishini ta'minlaydi. Bu oliy ta'limning ikkinchi bosqichi, ammo unga kirish uchun birinchi darajani olish juda zarur. Shaxs ta'lim jarayonini to'liq tugatgandan so'ng magistr darajasi hisoblanadi. Bolonya tizimi joriy qilinishidan oldin bakalavrlar va mutaxassislik darajasini olgan shaxslar magistrlik dasturiga bepul murojaat qilishlari mumkin¹.

Ilgari oliy ta'limdagi o'qish "uzluksiz" ta'lim deb yuritilib, o'qish muddati 5 yilni tashkil qilgan. 2011 yildan boshlab O'zbekiston Boloniya o'qitish tizimiga o'tib, "uzluksiz" ta'lim ikki qismga ajratildi. Bakalavr (bakalavrda o'qish muddat 4 yil) hamda magistratura(o'qish muddat 2 yil) etib belgilandi.

Bakalavr darajasi oliy ta'limning birinchi, asosiy darajasi, magistratura ikkinchi darajadir (alohida holat - bu zamonaviy mutaxassis bo'lib, u birinchi bosqichdan boshlanadi, mutaxassis bitiruvchi esa magistratura bitiruvchisi sifatida ko'rsatiladi). Magistratura tanlagan faoliyat sohasiga tizimliroq yondashishdan tashqari, boshqa martaba istiqbollari ham mavjud.

Magistratura ta'lim dasturlari nazariyani chuqurroq o'zlashtirish va talabaning ilmiy yoki kasbiy faoliyatga amaliy tayyorgarligini ta'minlaydi.

Magistraturaga oliy malakali o'qituvchilar - fan doktorlari, fan nomzodlari rahbarlik qilishadi. Birinchi semestrda boshlab har bir magistraturaga qabul qilingan magistrantga fan doktorlari yoki nomzodlari orasidan ilmiy rahbar tayinlanadi. Magistrant ilmiy tadqiqot yo'nalishini tanlaydi va magistrlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Shuningdek, ta'lim jarayonida magistrlar pedagogik kompetensiyalarga ega bo'ladilar – bakalavrlardan farqli o'laroq, magistrlar oliy o'quv yurtlariga dars berish huquqini qo'lga kiritishadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq oxirgi uch yilda oliy o'quv yurtiga o'qishga kirish kvotalar sezilarli darajada oshirilib, 2019/2020-o'quv yilida bakalavrlarni tayyorlash bo'yicha kunduzgi ta'lim shakliga 80430 nafar abituriyentlar qabul qilingan bo'lsa 2020/2021-o'quv yilida 103575 nafarni, 2021/2022-o'quv yilida esa ushbu ko'rsatkich 113530 nafarni tashkil qilib, bitiruvchi yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 2016-yildagi 9 foizdan 2020-yilda 25 foizga oshirildi. Mazkur ko'rsatkichni joriy yilda 28 foizga yetkazildi. Oliy ta'limga o'qishga kirish qamrovini oshirish o'z navbatida dars beradiga professor-o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi. Buning yechimi sifatida oliy ta'limga dars berish huquqini beruvchi magistrnlarni tayyorlash kvotalari ham bosqichma bosqich oshirildi. 2019/2020-o'quv yili 7695ta, 2021/2022 o'quv yili uchun 10425 ta, 2021/2022 oquv yili uchun 12900 ta kvotalar ajratildi (1-jadval).

Magistr darajasini olgan mutaxassis o'z imkoniyatlaridan foydalanmas ekan, uning bakalavr bitiruvchisidan farqi qolmaydi. Ko'pchilik nega ma'ruzalarda qatnashish kerakligini tushunmaydi, agar bakalavr darajasidan so'ng darhol ish topsa. Shaxs rahbarlik lavozimlarini egallash huquqiga ega bo'lishi uchun unga magistr darajasi kerak. Bir qator mutaxassisliklar bo'yicha ishga joylashish uchun siz ikkinchi darajali oliy ma'lumotni olishingiz kerak. Bundan tashqari, magistrlik darajasi dastlab tanlangan emas, balki boshqa mutaxassislik bo'yicha ta'lim olish uchun tugatilishi mumkin. Bakalavrni tugatgandan so'ng aspiranturaga borishim

kerakmi? Har bir inson ushbu qarorni shaxsan o'zi qabul qiladi.

1-jadval

T/r	O'quv yili	Bakalavrlar tayyorlash bo'yicha ajratilgan kvota (nafar)			Magistrlar tayyorlash bo'yicha ajratilgan kvota (nafar)
		Kunduzgi ta'lim shakliga	Sirtqi ta'lim shakliga	Kechki ta'lim shakliga	
1	2019/2020	80 430	19 985	1 985	7 695
2	2020/2021	103 575	31 350	5 025	10 425
3	2021/2022	113 530	37 675	6 550	12 900

Bakalavrni past darajadagi ta'lim deb aytish obyektiv adolatsizlik bo'ladi. Ammo magistraturaga o'qishga kirishni xohlamasdan oldin, aspirant uchun quyidagi imkoniyatlar haqida o'ylab ko'ring: Siz yetakchi lavozimlarni egallashingiz, har ikkala oliy ma'lumot talab qiladigan mutaxassisliklarda ishlashingiz mumkin bo'ladi. Kasbiy o'sish yuqori raqobat sharoitida ham tezkor bo'ladi. Siz juda ko'p foydali va chuqur nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lasiz. Agar siz mutaxassislikni xato bilan tanlaganingizni anglagan bo'lsangiz, magistratura sizga uni o'zgartirish huquqini beradi. Stipendiya va boshqa ijtimoiy kafolatlar (yotoqxonadagi joy va boshqalar) yana bir necha yilga uzaytiriladi. Sizda aspiranturaga qabul qilish va oliy o'quv yurtlariga o'qituvchilik uchun ochiq yo'l bo'ladi. Sizning diplomingiz xalqaro miqyosda tan olingan. Doktorlik dissertatsiyasi uchun ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar o'tkazish imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Adabiyotlar

1. Usmanova Nasiba Yunusovna. (2021). Classification Characteristics Of Financial Investments, Factors And Methods Of Influence On Investment Activity. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES, 2(2), 90-94. Retrieved from <https://cajotas.centralasianstudies.org/index.php/CAJOTAS/article/view/77>

2. Usmanova Nasiba. (2022). Innovative Economic Development of Uzbekistan:Trends and Prospects. The Peerian Journal, 5, 175–179. Retrieved from <https://www.peerianjournal.com/index.php/tpj/article/view/123>

I-SHO'BA

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR

70220301– Tarix (yo`nalishlar va faoliyat turi bo`yicha)

XIX ASR O'RTALARI – XX ASR BOSHLARIDA ROSSIYADA ILM-FAN VA TEXNIKA TARAQQIYOTI

R.N.Tursunov

O'zMU, t. f. n., dots

U. Ibodullayeva

BuxDU Tarix (faoliyat va turlari bo`yicha).

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr o'rtalari XX asr boshlarida Rossiyada fan va texnikaning rivoj topishi, bu davrdagi buyuk ixtirolar hamda kashfiyotlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Fan-texnika, kashfiyotlar, M. Butlerov, D. Mendeleyev, radio, I. Pavlov, harbiy dala xirurgiyasi, elektr sham.

Fan mohiyatan global, xalqaro hodisa bo'lib, uning yutuqlari butun insoniyat taraqqiyotiga ta'sir qiladi. XVI asrning atoqli mutafakkir Fransua Bekon bejizga ilm-fanga “Bilim – kuchdir” deb ta'rif bermagan edi. Fan jamiyatni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyot yo'liga olib boruvchi asosiy kuch hisoblanadi. Rossiyaning tarixiga bir nazar tashlasak ilm-fanning naqadar taraqqiy etganini ko'rishimiz mumkin. Buning tasdig'i buyuk olim M. V. Lomonosovning XVIII asr o'rtalarida “Rus xalqining sharafi fanlarda o'z qobiliyati va o'tkirligini ko'rsatishni talab qiladi” degan jumllarida o'z ifodasini topadi. ¹

1861 yilda krepostnoylikning bekor qilinishi rus xalqining madaniy rivojlanishiga katta turtki bo'lib xizmat qildi. XIX asrning ikkinchi yarmida sobiq serflar bozor munosabatlari va sanoat ishlab chiqarishida faol ishtirok etdilar, bu

¹ www.council.gov.ru // Матвиенко Валентина Ивановна || Наука и технологии - ключевые факторы развития России.

esa ularning ta'lim olish masalasini keskin ko'tardi. Bu davrda ziyolilar safi sezilarli darajada o'sdi. Bosma nashrlar, kitoblar, gazetalar, jurnallar paydo bo'ldi. Xalqning ijtimoiy, madaniy yuksalishi uchun musiqa, rassomlik, adabiyot sohalari faol rivojlandi. Buning natijasida XIX asrning ikkinchi yarmida bilimli yosh avlodning ilmiy faoliyatga qiziqishi tubdan o'zgardi. O'quv jarayonlarida yaxshi natijalarga erishgan universitet bitiruvchilari Yevropa davlatlariga amaliyot o'tash uchun imkoniyatlariga ega bo'ldilar.

Rossiyada bu davrlar jahon darajasidagi kashfiyotlar bilan belgilanadi. XIX asr oxiri Rossiya tarixida kimyoning oltin davri sifatida nom qoldirdi. Rossiyalik olimlar moddalarning kimyoviy tuzilishi nazariyasi ustida ko'plab tadqiqotlar olib bordilar. Shunday olimlardan biri A. M. Butlerov bo'lib, bu olim kimyoviy tuzilish nazariyasini ishlab chiqdi va uni formulalar shaklida ko'rsatish usulini taklif etdi. Hozirda ham fanda aynan shu usuldan foydalanilmoqda. Tabiatning asosiy qonunlaridan biri – kimyoviy elementlarning davriy jadvali 1869 yilda buyuk rus olimi D. I. Mendeleev tomonidan kashf etildi. Mendeleev davriy jadvali nafaqat elementlarning o'rnini aniqlash, balki o'sha davrda noma'lum bo'lgan yangi elementlarning mavjudligini bashorat qilish, hattoki ularning xossalari va atom og'irligini aniqlash imkonini beruvchi qonuniyatlar haqida ham tushuncha berdi. Bu davriy jadval XX asrda yaratilgan atomning tuzilishi va kimyoviy evkivalentlik tabiati haqida tasavvurga ega bo'lishga yordam berdi.

XIX asr o'rtalari XX asr boshlarida tibbiyot va biologiya fanlari ham bir xil sur'atlarda rivoj topdi. Mahshur rus olimlaridan biri N. I. Pirogov harbiy dala xirurgiyasiga asoschisi hisoblanib, jarrohlikda anatomik va eksperimental yo'nalishga asos soldi. Qrim urushi yillarida u birinchi marta jang maydonidagi operatsiyalar paytida behushlik va qattiq gips qo'llagan. Pirogovning 4 jildli "Topografik anatomiya" nomli atlas bo'lib, bu asar butun dunyoda katta shuhrat qozongan.² Biologiya sohasida esa I. M. Sechenov va birinchi rus Nobel mukofoti laureati I. P. Pavlovlar muvaffaqiyatli faoliyat olib bordilar. I. M. Sechenov rus

² Ларин А. А. История науки и техники – Харьков: "ХПИ", 2018. – С. 213

tibbiyotshunosi bo'lib, Rossiyada fiziologiya maktabi va psixologiyada bosh miya refleksleri to'g'risidagi ta'limotga asos soladi. I. P. Pavlov esa inson xatti – harakati negizida bosh miya qobig'ida yuz beradigan moddiy fiziologik jarayonlar yotishini butun dunyoga isbotlab berishga muyassar bo'ldi. Zamonaviy immunologiyada esa yana bir Nobel mukofoti laureati hisoblangan I. Mechnikov organizmlarni mikroblardan himoya qilish haqidagi ta'limoti bilan dunyo tarixida o'z nomini qoldirdi.

XIX asrning 80-yillari oxirida radioto'lqinlarning kashf etilishi radioni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qildi. 1895 yilda mashhur rus olimi A. S. Popov o'zining birinchi radio qabul qilgichini ixtiro qiladi va uni xalqqa namoyish etadi. 1899 yilda u Qora dengiz flotining manevrlarida 20 kmdan ortiq masofada radio aloqasini o'rnatishga muvaffaq bo'ldi. Radio dastavval Rossiya armiyasi va flotida joriy etiladi. Keyinchalik boshqa davlatlar ham radiodan foydana boshlaydi. Misol uchun, 1900 yil boshida Finlandiya ko'rfazida qutqaruv operatsiyalari paytida radio aloqasi a'lo darajada ishlatilgan. 1901 yilda esa radio to'lqin uzatish diapazoni 150 kmga yetgan. Popov tomonidan ixtiro qilingan radio XX asrning birinchi yarmida eng muhim ommaviy axborot vositasiga aylanadi. Radar, radioastronomiya, radionavigatsiya kabi ilmiy – texnik sohalarning yaratilishiga asos bo'ladi. Bu ulkan muvaffaqiyat tufayli Rossiyada Popov hech qachon unutilmadi. Muassasa, korxonalar, ilmiy-texnika jamiyatlari, muzeylar va hattoki kichik sayyoralardan biri Popov nomi bilan ataldi. Afsuski Popovga bu g'alabani tiriklik chog'ida ko'rish nasib etmadi. 1905 yillardagi fojiali to'qnashuvlar uning uchun bevaqt o'lim bilan yakunlandi.³

Bu davrda elektrotexnika sohasida ham muhim ixtirolar qilindi. Jumladan, P. N. Yablochkov 1876 yilda elektr sham deb nomlangan yoy chiroqni ixtiro qildi. Uning zamondoshi bo'lgan A. N. Lodigin esa cho'g'lanma chiroq ixtirochisi sifatida butun dunyoga tanildi. Yablochkov o'z hayoti davomida yana bir taniqli rus elektrotexnigi V. N. Chikolev bilan ham tanishadi. Chikolev ham Yablochkov

³ Н. Борисова. Александр Степанов Попов – триумф и трагедия ученого // “ Страницы истории ”. 2019. – С. 71.

singari ajoyib ixtirochi qobiliyatlariga ega bo'lgan. U Rossiya elektrotexnika tarixida o'zining ommalashtirish faoliyati bilan sezilarli darajada iz qoldirdi. Chikolev tashabbusi bilan 1880 yilda “Elektr energiyasi” nomli jurnal nashr etila boshlanadi. Bu jurnal hozir ham mavjud va o'z faoliyatini to'xtatgani yoq.⁴

Shuni xulosa qilish mumkinki, Rossiyada XIX asr o'rtalari XX asr boshlarida fan va texnika sohalari rivojlanishda o'zining yuksak cho'qqisiga erishdi. Sanoat ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi tarmoqlari sezilarli darajada o'sdi. Lomonosov ta'kidlaganlaridek, rus xalqi o'zining ilmi, ixtirolari bilan butun dunyoga tanila oldi. Buning natijasida esa Rossiya dunyoning ilg'or va yetkachi davlatlaridan biriga aylandi.

Adabiyotlar:

1. [www. council. gov. ru](http://www.council.gov.ru) // Матвиенко Валентина Ивановна || Наука и технологи - ключевые факторы развития России.
2. Ларин А. А. История науки и техники – Харьков : “ ХПИ”, 2018. – 213с
3. Н. Борисова. Александр Степанов Попов – триумф и трагедия ученого // “ Страницы истории ”. 2019. – 71 с
4. Капцов Н. А. Павел Николаевич Яблочков (1844 -1894). – М. : Государственное издательство технико – теоретической литературы, 1944. – 10 с

“АКАДЕМИК А. МУҲАММАДЖОНОВ – БУХОРО ТАРИХИ ТАДҚИҚОТЧИСИ”

Ҳ. Ҳ. Тўраев,

Тарих ф. д. Профессор

А. В. Собиров,

*БухДУ, “Тарихишунослик ва тарихий тадқиқотлар” мутахассислиги
магистранти*

Аннотатсия: Ушбу мақола тарих фанлари доктори академик Абдулахад Раҳимжонович Муҳаммаджоновнинг сермазмун ҳаёти ва

⁴ Капцов Н. А. Павел Николаевич Яблочков (1844 -1894). – М. : Государственное издательство технико – теоретической литературы, 1944. – С. 10.

фаолиятига бағишланади. У Бухоро, Тошкент шаҳарларининг тарихий ёшини аниқлашга ўз ҳиссасини қўшган. Бу ҳақдаги фикр – мулоҳазалар “Қадимги Бухоро” асарида ўз аксини топган.

Бундан ташқари Бухоро воҳасининг иригация тарихини “Қуйи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи” асарида жуда яхши ёритиб берган.

Унинг илмий меросида қадимги Пойканд шаҳри тарихи ҳақидаги қимматли фикрлар ва маълумотлар ўрин олган.

Калит сўзлар. Зарафшон воҳаси, Моҳандарё археологик экспедитсияси, суғорилиш тарихи, водий, археологик маданият, Варахша, Замонбобо, Қизилқир, Хатар қудуғи, Амударё, Археология институти.

Бухоро археологияси тарихига муҳим ҳисса қўшган тарихчи олимлардан бири тарих фанлари доктори академик Абдулаҳад Раҳимжонович Муҳаммаджоновдир. Буюк таиҳчи шарқшунос ва археолог А. Р. Муҳаммаджонов 1956- йилда устоз Я. Ғ. Ғуломовнинг тавсияси билан танловда қатнашиб, Тарих ва археология институтига ишга ўтади. Айни шу йилдан бошлаб олим ўзининг археолог сифатидаги фаолияти бошланади. Ўтган асрнинг 1950- йилларидан бошлаб устоз Я. Ғ. Ғуломов раҳбарлигидаги Моҳандарё, Гужайли, Гурдуш, дарёлари атрофидаги археологик экспедитцияларда қатнашади.

Мазкур археологик қазималар натижасида бир қатор монография ва рисоалар чоп этади. Уларга мисол қилиб “ Бухоро водийсининг суғорилиш тарихи” (1980); История орошения.

Бухоро водийсининг суғорилиш тарихи (1980); История орошения Бухарского оазиса (с древнейших времен до начала XX в.) (1988); Узбекистан тарихи. (1994); Темур ва темурийлар салтанати. (1996), Бухоро шаҳри 2500 ёшда (археологик лавҳалар ва тарих) (1998);

А.Муҳаммаджонов археологик тадқиқотларни Я.Ғуломовнинг раҳбарлигидаги гуруҳдан бошлайди. XX асрнинг 50-70 йилларда қадимги

Зарафшон воҳаси ерларида, хаваскор археолог дустлари билан биргаликда археолог сифатидаги фаолиятини бошлади. Албатта бу ишларда Я.Ғуломов бошчилигида археология соҳасида олиб борилган катта ишлар ҳам қўл келди⁵.

XX асрнинг 50-60 йилларда Я. Ғуломов ва В. Шишкин раҳбарлигида қатар махсус экспедициялар ташкил этилиб, Фарғона водийсида Қува, Ахсикат; Бухорода Замонбобо, Барахша ва Кизилкир; Самарқандда Афросиёб, Сурхондарёда Болаликтепа каби ёдгорликларда қўп йиллик казишлар бошлаб юборилди⁶. Ўз навбатида бу экспедициялар натижасида топилган археологик ёдгорликларни урганиш жуда катта қуч ва етук мутахассис кадрларни талаб қиларди.

Абдулахад Муҳаммаджонов устози профессор Я. Ғ. Ғуломов бошлиқ Махондарё археологик экспедиция таркибида Катнашиб, Зарафшон воҳасида археологик тадқиқотлар олиб борган. Махондарё археологик экспедицияси - 1950-1970 йиллар мобайнида Зарафшон воҳасида проф. Я. Ғ. Ғуломов бошчилигида утқазилган булиб, экспедиция таркибида: Я. Ғуломов, А. Муҳаммаджонов, А. Аскарров, У. Исломов, ва С. Раҳимовлар қатнашганлар. 1961 йил Махондарё буйлаб олиб борилган текширишлар Хатар қудуғигача, 1964 йили эса экспедиция таркиби тадқиқотларини Амударёгача етказди. 1964 йилда мазкур экспедиция таркибида: Я. Ғуломов, А. Муҳаммаджонов, А. Аскарров, С.Ғайзийев, М. Юнусов, З. Каримов ва Н. Кундряшевлар қатнашганлар⁷. Махондарё археологик экспедициясида қўзланган мақсад археологик жихатдан Зарафшоннинг қуйи Қисмини узлаштириш тарихини урганиш билан бирга, Зарафшон дарёсининг қадимги узанларининг узлатирилиши ва сув оққан ҳамда қуриб қолган даврларни ҳам аниқлаш ва

⁵ Я. Ғуломов. « О работе Махандарьинского археологического отряда в 1963 году». “Ўзбекистонда ижтимоий фанлар” 1964-йил № 1;Х. Зиёев Тарих институти 60 ёшда. Тошкент 2003, 4- бет;

⁶ Х. Зиёев. Тарих институти 60 ёшда. Тошкент 2003, 4-бет

⁷ Гулямов Я. Ғ. О работе Махандарьинского археологического отряда в 1963 года. // О. Н. У. 1964 г. №1 65 с;А. Муҳаммаджонов «О научнопедагогической деятельности академика АН УзССР Я. Ғ. Гулямова». Я. Ғуломов таваллудининг 80- йиллигига бағишланган илмий конференция материаллари тўплами. Т-1988-йил

дарё ўзани бўйлаб жойлашаган ёдгорликларни ўрганишдан иборат бўлган⁸. Бу экспедиция натижасида, А. Р. Мухаммаджонов узининг “Қуйи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи (Қадимги замондан то XX аср бошигача)” номли йирик асарини чоп эттирди. Мазкур китобда Ўрта Осиёда, хусусан Зарафшон водийсининг суғорилиши тарихи, жой номлари, ҳудудда мавжуд сув иншоотлари, мақбаралар ва географик объектларнинг номларини учратишимиз мумкин. А. Мухаммаджонов 1965-1986 йилларда Ўзбекистон Фанлар академияси Тарих ва археология институтида катта илмий ходим, булим мудирини (суғорилиш тарихи булими, Қадимги ва урта асрлар тарихи булими), 1980-1983-йилларда Археология институти директори лавозимларида фаолият олиб борди⁹. 1996-йилда Ўзбекистон Фанлар академияси Тарихинститути директори (1996-1998), 1998-2003 йилларда Ўзбекистон Фанлар академияси шарқшунослик институтида бош илмий ходим, 1997-2005 йиллар “Ўзбекистонда ижтимоий фанлар” журналининг бош муҳаррири лавозимларида ишлади¹⁰.

А. Мухаммаджоновнинг “Қуйи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи” (1972); “Ўзбекистоннинг қадимги гидротехника иншоотлари” (1997)» “Ўзбекистоннинг қадимги деҳқончилик воҳалари тарихидан”(1964), “Қадимги Бухоро (Археологик лавҳалар ва тарих)” (1976), “История орошения Бухарского оазиса” (1978) каби китоблари, “Ўзбекистон тарихи маданияти материаллари” сериясида нашр этилган тўпламлардаги “Водоизмерительные сосуды” (1965), “К изучению древнего русла Махандарьи” (1964), “Изучение древнего водохранилища Гиштбанд в Джоме” (1966), “Даргомская плотина и крепость в Раватходже” (1972), “О землях древнего орошения Бухары” (1975) каби маколалари тарихий

⁸ Ибрагимов Р. Абдулахад Мухаммаджоновнинг Ўзбекистонда тарих фанига қўшган хиссаси// Анъанавий талабалар Республика конференцияси материаллари. Тошкент. Университет. 2018 й

⁹ Х. Зиёев. Тарих институти бо ёшда. Тошкент 2003, 18-бет

¹⁰ Ўзбекистон тарихчилари. 1 жилд (библиографик маълумотнома). Т. ; Фан ва технология, 2012. 154-155-бетлар;

манбалар ва архив ҳужжатлари асосида ишончли далиллар асосида ёзилганлиги билан қимматлидир.

Мазкур китоб ва мақолаларда олим Самарқанд вилояти, қуйи Зарафшон ва Бухоро воҳаларида қадим замонлардан то XX асргача бўлган суғоришнинг пайдо бўлиши ва суғориш техникасининг ривож топиши ва тадрижий такомилли, ўтмишда воҳалардасуғорилган экин майдонларининг ўрнини аниқлаш тарихини ёритган. Бу каби тадқиқотлар тарихий манбалар, археологик қазилмаларни текширишдан кейинги далиллар, архив маълумотлари ва маҳаллий дала материаллари асосида ёзилганлиги билан мақтовга сазавордир.

Умуман олганда, А. Р. Муҳаммаджонов кўп йиллик илмий фаолияти давомида Ўзбекистон тарихида археология ва манбашунослик фанлари ривожига катта ҳисса қўшган тарихчи, шарқшунос ва археолог олимлардан бири сифатида ўзига хос ўрин тутди. Атоқли олим томонидан олиб борилган илмий тадқиқот ишларида халқимиз томонидан бунёд этилган тарихий- маданий мерос, хусусан, турли даврларда бунёд этилган миллий меъморчилик намуналарини ўрганишга алоҳида эътибор қаратилган. Муаллиф томонидан бу борада нашр этирилган илмий ишлар фикримизга асос булади.

O'ZBEKISTON-GERMANIYA O'RTASIDA SAVDO VA DIPLOMATIK ALOQALAR

D.T.Ziyodullayev

BuxDU, Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turlari bo'yicha)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Germaniya va O'zbekiston o'rtasidagi diplomatik aloqalar va savdo aylanmasining bugungi rivoji haqida qisqacha so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Germaniya, O'zbekiston, savdo, sotiq, diplomatik, muzokara, yaxshilash

2019 yilning may oyida bo'lib o'tgan hukumatlararo muzokaralarda Germaniya 2019 va 2020 yillarga O'zbekistonga moliyaviy va texnikaviy hamkorlik uchun jami 123,8 million evro miqdorida mablag' ajratishga roziligini qayd etdi. Germaniyaning majburiyati aholining yashash sharoitlarini to'g'ridan-to'g'ri va sezilarli darajada yaxshilashga va boshlangan islohotlar jarayonini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan, shuning bilan birga asosiy urg'u sog'liqni saqlash va barqaror iqtisodiy rivojlanishga beriladi.

Sog'liqni saqlash sohasida asosiy e'tibor qishloq aholisi shart-sharoitlarini yaxshilashga, shu jumladan viloyat kasalxonalarini modernizatsiya qilishga qaratilgan. Galdagi muhim sohalar bu reproduktiv salomatlik, ona va bola salomatligi, sil kasalligiga qarshi kurash va shifokorlar va tibbiy texnik xodimlarning malakasini oshirish. Ikkinchi yo'nalish „Barqaror iqtisodiy rivojlanish“ sohasidagi hamkorlik aholi uchun ish o'rinlari va daromad olish imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan.¹¹

Bundan tashqari O'zbekiston Germaniyaning rivojlanish maqsadidagi hamkorligi doirasida qator chegaralararo mintaqaviy loyihalarda, jumladan, huquqiy davlatchilik, sifat infratuzilmasini isloh etish, savdo, tabiiy resurslardan barqaror foydalanish, kasbiy tayyorgarlik va giyohvandlikning oldini olish sohalarida ishtirok etmoqda. Ushbu mintaqaviy dasturlar tajriba almashish va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan.¹²

Joriy yilning 6-mart kuni O'zbekiston bilan Germaniya o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganiga 28 yil to'ldi. O'tgan vaqt mobaynida ikki mamlakat o'rtasida yuqori darajadagi siyosiy muloqot yo'lga qo'yildi, mustahkam huquqiy baza yaratilib, parlamentlararo, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar hamkorlik ko'lamini kengayib bordi. Hozirgi paytda samarali munosabatlarni izchil rivojlantirish barcha yo'nalishlarda teng huquqlilik va o'zaro manfaatli sheriklik ruhida davom etmoqda.

¹¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_%E2%80%94_Germaniya_munosabatlari

¹² <https://taschkent.diplo.de/uz-uz/themen/wirtschaft/-/1599976>

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashish jarayoni jadal tus oldi. Yetakchi xorijiy davlatlar bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli munosabatlar o'rnatilishi yosh respublikamiz suverenitetini mustahkamlash, milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, barqaror iqtisodiy rivojlanish, erkin demokratik davlat qurishda muhim rol o'ynadi. 1991 yil 31 dekabr kuni respublikamiz mustaqilligini tan olgan Germaniya mamlakatimiz uchun ana shunday ishonchli sheriklardan biriga aylandi. Ikki mamlakat o'rtasida diplomatik munosabatlar 1992 yil 6 mart kuni o'rnatildi. O'ttiz yil davomida Germaniya bilan hamkorlik barcha sohalarni qamrab olib, ko'p qirrali ahamiyat kasb etdi. Bugungi kunda 140 dan ortiq hujjat ikki tomonlama munosabatlarning mustahkam huquqiy asosini tashkil qilmoqda.

Bugungi kunda davlatlararo siyosiy muloqot yuqori darajada olib borilmoqda. Bunda shu kunga qadar amalga oshirilgan yuqori darajali to'rt tashrif muhim o'rin tutmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil yanvar oyida Germaniya Federativ Respublikasiga ilk rasmiy tashrifi, shuningdek, Germaniya Federativ Respublikasi Federal Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayerning o'sha yilning may oyida mamlakatimizga rasmiy tashrifi munosabatlarning joriy bosqichida yangi ufqlar ochdi.¹³

Germaniya keng jamoatchiligi fikriga ko'ra, oliy darajadagi ushbu tashriflar ko'p qirrali va uzoq muddatli hamkorlikka yangi sur'at baxsh etdi. – Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil boshida Germaniyaga tashrifi nafaqat siyosiy muloqot, balki turli sohalar, jumladan, ilm-fan va ta'lim sohasidagi aloqalarni yanada mustahkamlashga imkon berdi, – deydi Berlindagi Yevropa menejment va texnologiyalar maktabi prezidenti Yorg Roxol. – Biz O'zbekiston bilan hamkorlik natijalaridan mamnunmiz va uni yanada kengaytirish tarafdorimiz.

O'zbekiston va Germaniya global hamda mintaqaviy muammolar bo'yicha konstruktiv hamkorlikni BMT va YeXHT kabi xalqaro tashkilotlar doirasida olib bormoqda. Yangi ruhdagi hamkorlikda parlamentlararo, shuningdek, hukumatlar

¹³ https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_%E2%80%94_Germaniya_munosabatlari

va idoralar o'rtasidagi aloqalar muhim o'rin tutmoqda. Xususan, Germaniya Bundestagi bilan hamkorlik qilish maqsadida 2016 yilda Oliy Majlis Qonunchilik palatasida “O‘zbekiston – Germaniya” guruhi tashkil etildi. O‘z navbatida, Germaniya parlamentida 1994 yildan buyon “Germaniya Federativ Respublikasi – Markaziy Osiyo” guruhi faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ikki tomonlama munosabatlarning hozirgi kun tartibini muhokama qilishning samarali mexanizmi O‘zbekiston va Germaniya tashqi ishlar idoralari o‘rtasidagi muntazamlik kasb etgan siyosiy maslahatlashuvlarda namoyon bo‘lmoqda. Germaniyaning Konrad Adenauer va Fridrix Ebert jamg‘armalari, hamkor mamlakat Adliya vazirligi huzuridagi Huquq sohasida xalqaro hamkorlik jamg‘armasi, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati ko‘p yillardan buyon O‘zbekistonda muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelmoqda. Birgalikda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda qo‘shma loyihalar amalga oshirilmoqda. Xususan, aloqalar fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, huquqshunoslik, sud-huquq va axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida jadal rivojlanmoqda.

Savdo va investitsiya yo‘nalishidagi sheriklik O‘zbekiston bilan Germaniya hamkorligida ustuvor jihatdir. Mamlakatlarimiz o‘rtasida savdo-sotiqda eng ko‘p qulaylik yaratish tartibi amal qiladi. 2019 yil o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 980 million dollardan oshdi. Savdo va investitsiya bo‘yicha hukumatlararo ishchi guruh hamda O‘zbekiston – Germaniya ishbiarmonlar kengashi ikki mamlakat ishbiarmon doiralari manfaatlarini ilgari surishda muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Bu o‘zining kutilgan natijalarini bermoqda va Germaniya biznes doiralari tomonidan haqli e‘tirof etilmoqda.

Xususan, Germaniyaning “DLG International GmbH” xalqaro qishloq xo‘jaligi jamiyati katta eksperti Alfons Gobelning qayd etishicha, O‘zbekistonda investitsiya jozibadorligini oshirish borasidagi sa‘y-harakatlar tahsinga loyiq. Amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning natijalari sheriklik aloqalarini qishloq xo‘jaligi sohasida yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shu sababli

Germaniya kompaniyasi O'zbekistondagi sheriklari bilan uzoq muddatli asosda hamkorlik qilishga tayyor.

Bugungi kunda O'zbekistonda germaniyalik sarmoyadorlar ishtirokida 100 dan ortiq korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Mamlakatimizda Germaniya konsernlari tomonidan qator xalqaro loyihalarning amalga oshirilayotgani investitsiya sohasidagi samarali hamkorlikka yorqin misoldir. Bular orasida "MAN" kompaniyasi bilan birgalikda zamonaviy yuk mashinalarini ishlab chiqarish, "CLAAS" va "Lemken CLAAS" brendi ostidagi qishloq xo'jaligi texnikalarini mahalliy lashtirishdagi qo'shma loyihalar, "Knauf" bilan sheriklikda qurilish materiallari tayyorlash, "Deutsche Kabel" bilan kabel va sim mahsulotlari ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilganini alohida ahamiyatga ega.¹⁴

Germaniya yirik biznesi vakillari 2018 yilning may oyida ikki tomonlama iqtisodiy hamkorlik doirasida ilk bor O'zbekistonga tashrifi ham qurilish materiallari ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi texnikasi, avtomobilsozlik, kimyo va elektrotexnika, bank sektori, turizm va xizmat ko'rsatishda samarali loyihalar bo'yicha muzokaralar olib borish uchun sharoit yaratdi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish bo'yicha hukumat tomonidan aniq chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, – deydi Leybnits nomidagi o'tish davri mamlakatlarida qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti direktori Tomas Glauben. – Qishloq xo'jaligini tartibga solishning bozor mexanizmlariga bosqichma-bosqich o'tilayotgani sohani taraqqiy ettirishga, qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishga va qishloq xo'jaligiga investitsiyalar hamda yangi texnologiyalarni jalb qilishga yordam beradi. O'z navbatida, biz ham O'zbekiston tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga tayyormiz.

Dunyoda mamlakatlar hamkorligining bugungi bosqichida xalq diplomatiyasi mexanizmlaridan keng foydalaniladi. Bu samarali yondashuv O'zbekiston – Germaniya aloqalarida ham ustunlik kasb etadi. Xususan, Toshkent va Berlin, Buxoro va Bonn birodarlashgan shahar maqomiga ega. Bu samarali

¹⁴ <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-va-germaniya-prezidentlari-kop-qirrali-hamkorlikni-kengaytirish-masalalarini-muhokama-qildilar>

madaniy muloqotni ta'minlash, ta'limda o'ziga xos almashuvlar, barqaror rivojlanish bo'yicha loyihalar ro'yobiga xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar

https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_%E2%80%94_Germaniya_munosabatlari

<https://taschkent.diplo.de/uz-uz/themen/wirtschaft/-/1599976>

<https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-va-germaniya-prezidentlari-kop-qirrali-hamkorlikni-kengaytirish-masalalarini-muhokama-qildilar>

https://dunyo.info/uz/site/inner?slug=o%E2%80%98zbekiston_%E2%80%93_3_germaniya_diplomatik_munosabatlar_o%E2%80%98rnatilganiga_28_yil_to%E2%80%98ldi-OWY

ITALIYA UYG`ONISH MADANIYATINING FRANSIYA VA ANGLIYA MAMLAKATLARIGA TA`SIRI

N.B.Elmurodova

Tarix (yo`nalishlar va faoliyat turlari bo`yicha)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Italiyada uyg`onish davri madaniyatining rivoji, ushbu madaniy jarayonlarni qo`shni Fransiya va Angliya davlatlari madaniy taraqqiyotiga ta`siri masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so`zlar: gumanizm, renessans, madaniyat, shaharlar, burjuaziya, ijtimoiy qarashlar, antik davr, ritorika

XIV-XV asrlarda vujudga kelgan Italiya “Renesansi” (uyg`onish) dunyo madaniyatiga gumanizimning yuzlab atoqli shoir va yozuvchilarini, olimlar va san`at arboblari yetkazib berdi. Jumladan, o`rta asrning so`ngi, yangi zamonning birinchi shoiri deb nomlangan Dante Aligeri (1265-1321), Francheska Petrarka (1304-1374), Jovanni Bokachcho (1313-1375), Leonardo Brunini (1369-1444), Lorenzo Valla (1407-1457), Florio Biondo (1388-1468), Jotto (1266-1337), Mazachcho (1401-1428), Filippo Brunelleski (1377-1446), Leon Kattista Alberti

(1404-1472) kabi o'nlab adabiyot va san'at namoyondalari yetishib chiqdi. Bular ilk uyg'onish davri vakillari bo'lib, Italiyaning Florensiya, Rim, Neapol, Milan, Venetsiya kabi shaharlarida ijod etishgan. Ayniqsa, Florensiya Italyan uyg'onishining asosiy markazlaridan biri edi. Aynan Italiyada uyg'onish madaniyatining vujudga kelganligi tasodifiy emasdi¹⁵. Italiya shaharlarida shahar madaniyatining rivojlanishi, me'moriy obidalar va binolar qurilishi, burjuaziyani vujudga keltirib, kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlariga o'tilishni, savdosotiq aloqalarining o'sishi, boshqaruvdagi demokratik tamoyillar, o'rta asrlarda unutilgan qadimgi Yunoniston va qadimgi Rim madaniyatini tiklashga kirishilishi, gumanizm g'oyalari yoyilishi kabi tamoyillar Renesansning poydevori bo'lgandi. Italiya Renesansi namunalari bo'lgan "Do'zax", "Mashxar", "Jannat" kabi poemalar (Dante Aligeri), "Dekameron" (Jovanni Bokachcho), 12 kitobdan iborat "Florensiya tarixi" (Leonardo Bruni), "Konstantin armug'oni" (Lorenza Valla), "Rim imperiyasining qulashidan boshlangan tarix" (Flavio Biondo) kabi asrlar tezda Yevropa mamlakatlari bo'ylab tarqaldi. Uyg'onish madaniyatining o'ziga xos xususiyati shundan iborat ediki, endi asarlar lotin tilida emas, italyan, fransuz, ingliz tillarida yaratila boshlandi. Real hayot va ko'z o'ngidagi inson haqida yozish jonli shaxslar suratini chizish, haykalini yaratish, hayotdagi zavq-shavqni madh etish ushbu madaniyatda muhim yo'nalish hisoblanadi¹⁶.

Italiya uyg'onish madaniyati Fransiya va Angliyaga o'z ta'sirini o'tkazdi. O'sha davrda Italiyadan o'rnak olib Fransiyada san'at namoyondalari, tarixchilar saroyga taklif qilinardi. Ular Fransiya tarixini fransuz tilida yaratib berish bilan mashg'ul bo'lib, "saroy tarixchilari" deb atalgan. Fransuz tarixchilari o'z asarlarini italyan gumanistlaridan o'rnak olib yaratgan. Shuningdek, Italiyadan Fransiyaga me'mor, rassom, musiqashunos qo'shiqchi, haykaltaroshlar, texnik-injenerlar taklif etilgan. Bu davrda (XIII-XV asrlarda) Fransiyada bino qilingan me'moriy obidalar va tasviriy san'at namunalari aksariyati Italyan fuqarolari nomi bilan bog'liq¹⁷.

¹⁵ Мультимедийная энциклопедия. "АРТ". История искусства. - М.: Омикрон, 1996. – С. 168.

¹⁶ Гастев А.А. Жизнь замечательных людей. - М.: изд. Полит издат, 1980. – С. 129.

¹⁷ Возинкая Т.Я. Искусство, История. Флоренция. – Минск: "Лимарчус", 1997. – С. 137.

Hatto Fransiya qiroli Lyudovik XI (1281-1333) davrida yaratilgan “Fransiya katta xronologiyasi” ni yangidan yozish uchun keying qiroli Lyudovik XII Italiyadan Parijga italyan tarixshunoslarini taklif etgan. Fransiyada gumanizim madaniyati va tarixiga hissa qoʻshgan Filipp de Kollin (1447-1551), Pavl Emil (Polya Emil) asli Yevropadan (Italiya) dan taklif qilingan. U Lyudovik XII saroyida turib 1516-1539 yillarda “Fransuzlar faoliyati oʻn kitobda” nomli asarlarini yozgan. Fransiya insonparvarlik tarixshunosligida oʻziga xos oʻringa ega boʻlgan Jak Ogyust de Bu (1533-1617) “Men yashagan davr tarixi” kitobini italyan tarixchisi Paolo Jovio asariga taqlidan yaratgan. U diniy shaxs, dinga sidqidildan itoat etuvchi sifatida Italiyan gumanisti Gvichgardiniga taqlid qilgan¹⁸.

Ingliz gumanizmining birinchi namoyondalari hisoblangan Polidor Vergiliy (1470-1555), Uilyam Kemden (1551-1623), eng yirik faylasuf Frensis Bekon (1561-1626) kabilar ijodida italyan gumanizmi taʼsiri yaqqol sezilib turgan. F.Bekon italyan tarixchisi Gvichchaddini singari ritorika va etikadan toza siyosiy uslubda ijod qilgan. Biroq u Gvichchaddinidan farqli oʻlaroq moliya-iqtisod, huquq va siyosat haqida koʻproq fikr mulohaza bildirgan, din masalasiga kelganda italyan gumanistlari singari dinga qarshi fikr bildirmaslik va sukut saqlashga daʼvat etgan. Manbalarga murojaat qilishda Makiavelli va Tivichchardini qarashlari izidan borgan¹⁹.

Xullas, Italiya Renesansi Fransiya va Angliya gumanizmi rivojlanishiga oʻzining katta taʼsirini oʻtkazgan. Shuningdek, bu davr ijtimoiy qarashlari va mafkurasi ushbu kichik tadqiqot ishimizda tarixiy dalillar va adabiyotlar qiyosiy tahlili orqali atroflicha tadqiq qilingan.

Adabiyotlar

1. Возинкая Т.Я. Искусство, История. Флоренция. – Минск: “Лимарчус”, 1997. – 237 с.
2. Гастев А.А. Жизнь замечательных людей. - М.: изд. Полит издат, 1980. – 169 с.

¹⁸ Радунская И. Предчувствия и свершения. - М.: Наука, 1995. – С. 172.

¹⁹ Любимов Л. Искусства западной Европы. - М.: изд. Наук, 1975. – С. 233.

3. Любимов Л. Искусства западной Европы. - М.: изд. Наук, 1975. – 321 с.
4. Мультимедийная энциклопедия. “АРТ”. История искусства. - М.: Омикрон, 1996. – 247 с.
5. Радунская И. Предчувствия и свершения. - М.: Наука, 1995. – 253 с.

ADOLAT VA IYMON USTUNI ME'MORI

F.I.Ergashov

Buxoro davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada buxoro amirligining mashhur hukmdori bo'lgan Amir Shohmurod haqidagi manbalarda bildirilgan fikrlar va ularning qiyosiy tahlili haqida so'z boradi. Amir Shohmurodning o'z davrida amalga oshirgan islohotlari, o'z davri uchun yaratgan adolat yo'li tasavvufiy hayoti yuzasidan tarixchi manbashunoslar va tadqiqotchilarning fikrlaridan badiiy iqtiboslar asosida ilmiy tahlil berilgan.

Kalit so'zlar: Ahmad Donish, Umar ibn Abdulaziz, Porso, qozi, adolat, Muhammad Hakimxon, Mulla olim Maxdum hoji, Andalusiya, Ash-Shotibiy, Masjidi kalon. T. Burnashev, Mirzo Salimbek, Islomobod

Tariximizga nazar solsak biz unda adolat va jaholat sohibi bo'lgan hukmdorlar

siyomosiga yuzlanamiz. Sharq dunyosida mavjud bo'lgan davlatlar tarixida

Tasavvuf yo'nalishida bo'lgan hukmdorlar ham asosiy o'rin egallab, unda Buxoro amiri Shohmurod alohida o'rin egallab. Bunda sharqshunos olim Abdusattor Jumanazarning Amir Shohmurodga bergan ta'rifining o'zi bu o'rinning yaqqol misolidir. Unda sharqshunos olim “U xorijlik sayyohlar kelib tomosha qiladigan ulkan inshootlar qurdirmagan. Ammo o'z davrida buyuk e'tiqod, mustahkam iymon binolarini barpo qilgan “²⁰- deb tarif beradi. Ma'rifatparvar olim Ahmad Donish amir Shohmurodni ummaviylarning sakkizinchi xalifasi Umar ibn Abdulazizga qiyoslab, uning faoliyatini va darveshona turmush tarzini

²⁰ Jumanazar A. K Buxoro ta'lim tizimi tarixi. Toshkent: Akadem nashr, 2017. -s. 592

maqto'v bilan baholab “U amirlik qalamini kambag'allik kiyimi bilan bezadi. Jahon bog'idan dushmanlik va yomonlikni tomiri bilan sug'urib tashladi va adolat nihollarini o'tqazdi”²¹ deb ulug'laydi. “Amiri ma'sum” begunoh amir nomi bilan yuritilgan Amir Shohmurod yoshligidan xudojo'y, porso (pokiza) bo'lib, darveshlik jamoasi targ'ibotchisidan biriga aylandi. Ahmad Donish keltirgan bir rivoyatda shunday hikoya qilinadi: “Bir gal Shohmurod Samarqandga kelib, bir necha kun o'sha yerda qolib ketadi. Sarflaydigan puli qolmagach bor bisoti bo'lgan bitta po'stinni bir kambag'al mulla sotib olibdi. Ertasiga xaridor po'stinni qaytarib olib kelib ”po'stinning aybi bor ekan “ deb savdoni bekor qilmoqchi bo'lganida, Shohmurod qozi hukmini so'raydi, chunki u pullarni allaqachon sarflab qo'ygan va qaytargani puli qolmagan edi. Bu yerda butun boshli davlat hukmdori bo'lgan Shohmurodning qoziga yuzlanishini adolat mezonining bir ko'rinishi deb olsak bo'ladi. Bu voqeani biz xalifa Umarning bir adolatiga qiyoslasak bo'ladi. Bunda o'z xalqi ahvolidan xabar olishni xoxlagan xalifa Umar oddiy xalq qiyofasida yurganda chekka hududdagi qorong'ulikdan bir nurga ko'zi tushadi. Mulozimlari bilan shu nur tomon borishganda bir beva ayol go'daklarini uxlatib qozonda tosh pishirib o'tirganiga guvoh bo'ladi. Ayoldan nega bunday qilayotganini so'rashganda ayol bolalarim ovqat pishiryapti degan ovunch bilan uxlab qolishlari uchun pishiryapman deb javob beradi.

Buni ko'rgan xalifa Umar ayoldan “Sen o'z hukmdoringdan rozimisan “ deb so'raydi. Ayol men avvalo ollohdan va olloh menga bergan hukmdorimdan roziman. Lekin hozirgi ahvolimni inobatga olsam hukmdorim xalqining ahvolidan to'liq xabardor emas deb o'ylayman” deydi. Shundan so'ng xalifa sukut bilan ortiga qaytadi va o'z yelkasiga bir qop unni ortadi, qo'lga yog' va yeguliklar olib yo'lga tushadi. Buni ko'rgan sahobalar xalifani “ shu ishni biz bajaraylik, xizmatkorlar bajarsin”- deb yalinsalarda xalifa “ Yoq bu mening o'zim uchun qilgan adolatimdir”- deb barcha yukni o'z yelkasida eltadi va “Mening yelkamdagi

²¹ To'rayev H. Buxoro tarixi: o'quv qo'llanma. Buxoro: Durdona, 2020. -s. 592

yuk aslida xalqimning yukidir, bu yukni unutmasligim uchun ham bu yumushni o'zim bajaraman"- deya yo`lda davom etadi. Biz aynan shu adolatni amir Shohmurod adolatini o`zaro qiyoslab olsak, haqiqatdan Amir Shohmurodning xalifa Umarga o`xshash jihatlarini ko`rishimiz mumkin. Muhammad Hakimxon o`zining “Muntaxab ut-tavorix” asarida Amir Shohmurodning insoniy fazilatlari islohotlari haqida tarixiy manbalarda uchramaydigan nodir ma`lumotlarni keltiradi. Mulla Olim Mahdum hoji o`zining “ Tarixi Turkiston” asarida Shohmurod haqida fikr yuritib “ Shohmurodbiy ziyoda so`fiy, Xudoga yaqinlashish yo`lini tutgan va taraqqiyparvar, shariat targ`ibotchisi, taomi o`z kasbi halolidan edi” - deb yozadi. Manbalarda Amir Shohmurod islom fiqhshunosligi murabbiysi sifatida ham e`tirof etilgan. U madrasalarda xanafiy mazhabi bo`yicha dars mashg`ulotlari olib borgan. Burhoniddin Marg`iloniyning “ Al-Hidoya” Bayzoviyning “Kitob usul-ad-din” asaridan va Andalusiyalik Ash-Shotibiyning asarlaridan foydalangan. Amir Shohmurodning olim, shayxlarga hurmati yuqori bo`lgan. Xalifa Xudoyidot amirning taklifi bilan Pirmastdan Buxoroga ko`chgan. O`z davrida Amir Shohmurodga ilm bergan xalifa Niyozquli Masjidi Kalonga imom xatib vazifasiga tayinlangan. Amir Shohmurodning o`zi ham ijodkor bo`lib, fiqhga doir kitoblar yozgan. U tasavvuf g`oyalari bilan sug`orilgan “ Ayn fi hikmat” (Donishmandlik asoslari)” asarini yozgan. Hanafiya mazhabiga doir “ Fatavayi ahli Buxoro” (“Buxoro ahliga fatvolar”) to`plamini tuzgan. 1795-yilda Buxoroga kelgan Rusiya fuqorosi T. Burnashev shunday yozadi: “Uning saroyida zarracha dabdaba yo`q edi... Xalq unga alohida ehtirom bilan munosabatda bo`lardi. Uni Muhammad shariatiga haqiqiy amal qiluvchi va hatto avliyo darajasida bilishardi. ” Tarixchi va davlat arbobi Mirzo Salimbek o`zining “ Tavoroxi muttaqadimin va muttaaxirin” asarida Amir Shohmurod Marv yaqinida Islomobod shahrini qurganini aytib o`tadi.

Adabiyotlar:

1 Jumanazar A. K Buxoro ta`lim tizimi tarixi. Toshkent: Akadem nashr, 2017. - s. 592

2 To`rayev H. Buxoro tarixi: o`quv qo`llanma. Buxoro: Durdon, 2020. -s. 592

3 Yo`ldoshev N. Buxorodagi ayrim avliyolar tarixi. Buxoro: Buxoro, 1993. -s. 144

4 Zamonov A. , Abdukarimov J. (2020). Buxoroning darvesh hukumdori haqida ba`zi mulohazalar (O`tmishga nazar)

5 Rajabov Q. K. Amir Shohmurod yoxud “Amiri ma`sum” (Buxoro mavjlari nashri)

XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA G‘ARB MAMLAKATLARIDAGI GEOSIYOSIY AHVOL

F.M.Muzaffarova,

BuxDU, Tarix (yo`nalishlar va faoliyat turi bo`yicha)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada xx asrning ikkinchi yarmida g‘arb mamlakatlaridagi geosiyosiy ahvol va geosiyosiy munosabatlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ingliz-amerika va sovet geosiyosiy nazariyalari, kontinental geosiyosiy markazlar, yevropa kontinentalizmi, geosiyosiy meros.

XX asr insoniyat tarixida ziddiyatlarga to‘la, ikkita jahon urushini boshidan kechirgan, davlatlar taqdirida, dunyoning siyosiy xaritasida juda katta o‘zgarishlar sodir bo‘lgan asr hisoblanadi. Bilamizki Ikkinchi jahon urushi tugaganidan so‘ng dunyoda shitob bilan qurollanish poygasi avj olib ketadi, xususan XX asr 2-yarmida dunyo davlatlari taqdirida geosiyosiy muammolar ham o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga yetib qoladi. Ikkinchi Jahon urushi tugaganidan keyingi o‘n yillikda jahon geosiyosiy maktablari asosan ingliz-amerika va sovet geosiyosiy nazariyalari ta’siri ostiga tushdi. Ayni chog‘da yevropaning ulkan klassik geosiyosiy maktabi, aytish mumkinki, butunlay e’tibordan tushdi. Bu shu bilan bog‘liq ediki, urush vaqtida nemis geosiyosatchisi Haus Hoferning natsist rejim bilan hamkorlik qilgani va umuman, Gitlerning mafkurachisi sifatida maydonga chiqqani Germaniya geosiyosiy fanini yomon otliq qilibgina qolmay, Yevropadagi barcha geosiyosiy maktablarning nufuziga jiddiy zarba berdi. Bundan tashqari, Yevropa qit’asining yetakchi maktablari vakillari – Germaniya, Italiya va

Fransiyaning olimlari urush davomida dushman lagerlarda bo'lgani uchun bir-biriga qarshi kurashdilar[1]. SHvetsariya va Belgiya olimlari bo'lsa, mumkin qadar betaraf qolish uchun o'z ijodini “muzlatib” qo'yishdi. SHunday qilib, Yevropa geosiyosatchilari urush vaqtida Kontinental geosiyosat og'ir zarba olib, amalda inqirozga uchragani sababli, barbod etilgan obro'sini tiklash va o'z statusini qaytarish uchun ko'p yillar mobaynida jiddiy ilmiy kuch-g'ayrat sarflashga majbur bo'ldi. 1950 yillardan boshlab Yevropaning ba'zi mamlakatlarida asta-sekin geosiyosiy tadqiqotlarga qo'l urildi. Xususan, Fransiya, GFR, Italiya, Belgiya va boshqa mamlakatlarda oldingi va zamonaviy kontinental va atlantik nazariyalardan jiddiy ravishda farq qiladigan asarlar chop etila boshlandi. Ko'p o'tmay Fransiya va G'arbiy Germaniya jamoatchiligi yangi geosiyosiy maqsadlar, xususan Yevropani birlashtirish g'oyasi haqida so'zlay boshladi, bu esa yangi kontinental geosiyosiy markazlar va oqimlar faoliyatiga turtki berdi. XX asrning 50-yillarida Belgiya, GFRda, ayniqsa, ashaddiy “kontinentalchi” SHarl de Goll prezident (1958-1969) etib saylangach, Fransiyada geosiyosiy tadqiqotlar yuksalish davriga qadam qo'ydi. Fransiya–Germaniya hamkorligi kuchaydi. Istiqbolda “Atlantikadan Uralgacha Yevropa” barpo etish to'g'risidagi geosiyosiy rejalar haqidagi fikr-mulohazalar jamoatchilik orasiga keng yoyildi. De Goll Yevropani to'la suveren strategik qit'a hududi, bu erdagi davlatlarni bo'lsa, yagona blok tarkibida deb bilardi. Uning bu fikri keyinchalik geosiyosiy adabiyotlarda “Yevropa kontinentalizmi” geosiyosiy konsepsiyasi degan nom oldi. SHu konsepsiyaga muvofiq, 60-yillarda Fransiya bilan G'arbiy Germaniya o'rtasida siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy ittifoq tuzildi. 50-60-yillarda yevropalik geosiyosatchilar AQSHning tadqiqot loyihalariga borgan sari ko'proq jalb etila boshladi[2]. Geosiyosiy maktablar orasida urush oqibatida uzilib qolgan aloqalar tiklandi. Yevropa olimlarining geosiyosiy tushunchalari ingliz-sakson yondashuvining majburiy normalaridan asta-sekin ozod bo'la boshladi va bor e'tibori bilan, AQSHni u yoki bu darajada Yevropa geosiyosiy konsepsiyalari mualliflari bilan hisoblashishga majbur qildi. XX asrning 50-yillarida Belgiya, GFRda, ayniqsa,

ashaddiy “kontinentalchi” SHarl de Goll prezident (1958-1969) etib saylangach, Fransiyada geosiyosiy tadqiqotlar yuksalish davriga qadam qo‘ydi. De Goll Amerika geosiyosatchilarining atlantizm g‘oyasiga va shu asosda AQSHning Yevropada o‘tkazayotgan siyosatiga qarshi bir qancha amaliy odimladi. Fransiya AQSH mutlaq hukmronlik qilayotgan NATOdan chiqdi va barcha yo‘nalishlarda o‘z strategik mudofaasini ta‘min qilgan maxsus geosiyosiy doktrinasini ishlab chiqdi[3]. Fransiya SSSR bilan munosabatlarini qayta ko‘rib chiqdi va yaxshiladi. Fransiya–Germaniya hamkorligi kuchaydi. Istiqbolda “Atlantikadan Uralgacha Yevropa” barpo etish to‘g‘risidagi geosiyosiy rejalar haqidagi fikr-mulohazalar jamoatchilik orasiga keng yoyildi. De Goll Yevropani to‘la suveren strategik qit‘a hududi, bu yerdagi davlatlarni bo‘lsa, yagona blok tarkibida deb bilardi. Uning bu fikri keyinchalik geosiyosiy adabiyotlarda “Yevropa kontinentalizmi” geosiyosiy konsepsiyasi degan nom oldi. SHu konsepsiyaga muvofiq, 60-yillarda Fransiya bilan G‘arbiy Germaniya o‘rtasida siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy ittifoq tuzildi. 50-60-yillarda yevropalik geosiyosatchilar AQSHning tadqiqot loyihalariga borgan sari ko‘proq jalb etila boshladi[4]. Albrext Haus Hoferdan keyin Yevropa geosiyosatchilarining bir qanchasi – K.Vovinkel, E.Obst, A.Grabovski va shu singlarilar bu g‘oyaga murojaat qildilar va gumanistik kontinental geosiyosatni rivojlantirishga salmoqli hissa qo‘shdilar[5]. Agar “Yevropa kontinentalchilari” urushgacha bo‘lgan davrda geosiyosatning chegaralarini makon ehtiyojlari doirasida davlatlarning kengayish zaruriyati bilan bog‘lagan bo‘lsalar, urush tugaganidan so‘ng – bu qatorga antropologik va sotsiologik omillarni ham qo‘shib, inson va uning ehtiyojlarini geosiyosatning asosiy omili sifatida baholay boshladilar. Ko‘ryapmizki, nemis geosiyosatining bu yangi yo‘nalishi oldingi klassik nazariyalardan tubdan farq qiladi. Mazkur davrda geosiyosatning yangi yo‘nalishi yaratuvchilaridan biri, nemis geosiyosatchisi G.Fleyg Yevropada “geosiyosiy meros” deb nomlangan yangi nazariyani taklif qildi. Muallif 1953 yilda chop etilgan “G‘oliblarning geosiyosiy merosi” nomli maqolasida ilgari surgan g‘oyaga ko‘ra, inson tabiatan shunday yaratilganki, u hamisha atrofidagi

“bo'sh yerlarga” egalik qilgisi keladi va bu yerlarga joylashishga intiladi. Bu fikrni u shu bilan asoslaydiki, Germaniya mag'lub bo'lib Markaziy Yevropa yerlaridan chiqib ketganidan so'ng, bu yerlarga G'arbning boshqa g'olib o'lkalari ega chiqdi, Gitler va militarist Yaponiyaning ta'siri ostida bo'lgan hududlarni o'z ta'siri ostiga oldi. Boshqa tomondan, jahon sotsialistik sistemasi SSSR rahbarligida “bo'shab qolgan yerlar”ni egallab, bu yerlarda sotsialistik rejimni barpo etdi[6]. Shunday qilib, urushdan keyin kontinental geosiyosat maktabi yo'qotgan obro'sini tiklash maqsadida klassik geosiyosatchilarning bosqinchilarga xizmat qilgan “makon siyosatidan” voz kechdi va o'z e'tiborini inson va uning ehtiyojlariga qaratdi. XX asrning 60-70-yillarida bu maktab vakillari davlatning rivoji uchun mutlaqo makon zarurligi haqida endi hech so'zlamay qo'yidilar, balki inson ehtiyojlari, uning ruhiy quvvati, makon va jamiyat orasidagi ichki aloqalarning siyosiy va ijtimoiy manfaatlaridan kelib chiqa boshladilar. Chunonchi, nemis olimi R.Hitsder hozirgi geosiyosat inson huquqlari va ehtiyojlarining gumanitar kontseptsiyasi sifatida rivojlanishga mayl ko'rsatmoqda, deb yozadi. U qayd qildiki, hozirga vaqtda G'arbda inson huquqlari va erkinliklari asta-sekin markaziy geosiyosiy shiorga, jamiyat hayotida asosiy omilga aylanmoqda va ham G'arb, ham Sharqda keng yoyilib bormoqda. Ko'ryapmizki, “ichki” geosiyosatchilar geosiyosatning faqat ulkan geostrategik masalalarni o'rganuvchi fan sifatida taqdim etilishiga qarshi chiqib, bu ilm davlatning ichki va tashqi siyosiy masalalarini tadqiq etishini ta'kidlaganlar.

Adabiyotlar:

1. Маккиндер Х. Географическая ось истории // Геополитика. Антология, М., 2006, с.244-255.
2. Нартов Н.А., Нартов В.А. Геополитика, М., 2007, с.100-101.
3. Колосов В.А., Мироненко Н.С. Геополитика и политическая география. М., 2005, с.79-80.
4. Spykman N. America`s Strategy World Politiks. Hamdem, 1942, p.41.

5. Дугин А.Г. Основы геополитики. Геополитические будущее России. М., 2000, с.62-63.

6. Мэхэн А.Т. Влияние морской силы на историю: 1660-1783. М., 1941; Геополитика. Антология. М., 2006, с.221-243.

MIGRATIONS JARAYONLARINING QOZOG‘ISTON O‘ZBEKLARI HAYOTIGA TA‘SIRI

L.A.Ahmadova,

BuxDU “Jahon tarixi” kafedrasida magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada migratsion jarayonlar davrida Qozog‘istonda yashayotgan o‘zbeklar hayotida kechgan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Migratsiya, Qozog‘iston, o‘zbek, qozoq, diaspora, chegara, milliy davlatchilik, demografiya, Orolmandlar, Afg‘oniston, aholini ro‘yxatga olish, turkistonlik.

1989 yilda SSSR da, ya’ni aholini ro‘yxatga olish paytida o‘zbeklar ushbu Respublika aholisining 2. 08 foizdan oshmasdi. Qozog‘iston mustaqillikka erishganidan so‘ng, qozoq xalqining milliy o‘zligini anglashi, milliy davlatchilikning asoslarini qurish va asriy urf-odatlarini tiklash tendensiyasi kuchayib, qozoq millatining salmog‘ini oshirishga tomon amaliy qadamlar qo‘yildi. 1989-1999 yilga qadar o‘tgan 10 yillik davrida Qozog‘istonda qozoqlar salmog‘i 50 foizdan oshib bu rasmiy hujjatlarda 53, 4 foiz va 56 foiz kabi turli raqamlarda ifodalanadi²². 1999 yildagi Qozog‘istondagi aholini ro‘yxatga olish ma’lumoticha, 52, 5 foiz qozoqlar o‘z vatanida istiqomat qilib, bu raqam XX asr boshlarida 59, 2 foizgacha ko‘tarilgan deb qayd etiladi²³. Umumjahon Qozoq Assotsiatsiyasi ma’lumoticha Qozog‘istondan tashqaridagi boshqa mamlakatlardan

²² Несипбаева К. Р. Исторические аспекты возникновения и формирования узбекской диаспори на территории Казахстана//Ярасславский педагогический вестник. -2012. №1. -Том 1. Гуманитарные науки, - Стр. 57-61.

²³ Расулов Б. , Акбарова М. М Қозоғистон сурғунидаги эски қишлоқлик бир оила тақдири// илмий хабарнома. -Андижон, 2009. -№1. -Б. 50-53.

43 tasida 5 million sonli qozoq millati vakillari istiqomat qilib kelmoqda. Ushbu raqam Qozog'iston qozoqlari bilan birga er yuzi qozoqlarining 30-35 foizini tashkil etib 80 foiz xorijlik qozoqlar O'zbekiston, XXR va Rossiyada istiqomat qiladilar. Jumladan, O'zbekistonda 1, 5 mln (ayrim ma'lumotlarda 2 mln ortiq), XXR salkam 2 mln, Rossiyada 1 mln yaqin, Mo'g'ulistonda 83 ming, Turkmanistonda 74 ming, Turkiyada 12 ming, Qirg'izistonda 10 ming, Eronda 5 ming qozoqlar muhojirlikda yashashadi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra Afg'onistonda 440 ming qozoqlar bor. SHuninfdek, qozoq jamoalari Saudiya Arabistonida hamda Evropa mamlakatlarida ham oz sonli bo'lsada tarqalganlar. Qozog'iston mustaqilligi yillarida muhojirlikda istiqomat qilayotgan qozoqlarni asl vatani Qozog'istonga qaytarish borasida ancha saloqli ishlar amalga oshirildi. Sharq mamlakatlaridagi (Turkiya, Afg'oniston, Saudiya Arabistoni, Eron, x. h) hamon o'zlarini qozoq deb emas, balki Turkistonlik tarzida tanishtirishadi. Chunki, sovet hokimiyati yillarida Markaziy Osiyodan muhojirlikka mahkum etilgan turkiy millatlar o'zbek, qozoq, turkman, qirg'iz, qoraqalpoqlar millat ajratmay o'zlarini tanishtirishda "turkistonlik"-deb javob berishni maqul ko'rishgan. Turkiya Respublikasida ular shaxsini tasdiqlovchi rasmiy hujjatga dastlab: "Turkiston ko'chman muhojiri" – deb yozilgan bo'lsa hozirda "Turkiya fuqarosi" deb ko'rsatilgan. Qozog'istonga 1991-2000 yillarda (10 yil davomida) 1996 yil 31 dekabrda Qozog'iston Prezidenti tomonidan imzolangan "qozoq diasporasini" qo'llab-quvvatlash haqida davlat dasturi, 1998 yilda e'lon qilingan "Migratsiya haqida" Qonun va boshqa bu boradagi qo'shimcha aktlar asosida "yaqin" va "uzoq" xorijdan 200 ming qozoq migrantlari kirib keldi. Qozog'iston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi "migratsiya va demografiya masalalari bo'yicha agentlik hamda "jahondagi qozoqlar Assotsiatsiyasi" bilan hamkorlikda bu borada tizimli ishlar amalga oshirildi. Qozog'istonga ko'chib o'tgan muhojir qozoqlarga er-mulk berildi ular soliqlardan vaqtinchalik ozod qilinib ayrimlariga ish boshlash uchun kredit ajratildi. Ishga joylashish olim va shoirlarning kitob hamda asalarini

chop etish choralari ko'rdi²⁴. Qozog'sitonga ko'chgan qozoqlar asosan Mo'g'uliston, XXR, Eron, Afg'oniston va Turkiya kabi davlatlardan bo'lib, bunday migrantlar “Orolmandlar – deb atalgan”. Orolmandlardan 1999-2000 yillarda 500 ta oilani, 2001 yilda 600 ta oilani, 2002 yilda 1500 ta oilani Qozog'istonga ko'chisi kuzatiladi²⁵. Keyingi yillarda orolmandlarning ko'chib kelishi kamaydi, ko'chganlarning esa bir qismi maishiy turmush, ishsizlik omillari tufayli azaliy joylarga qaytib ketishdi. Orolmandlar orasida ham ayrim ziddiyatli jihatlar mavjud edi. Afg'oniston, Eron, XXRdan Qozog'istonda ko'chgan Orolmandlar arab imlosida yozib shu imloda o'qishsa Turkiyadan ko'chganlar lotin imlosida savod chiqargan edi. Qozog'istonda esa kiril imlosi amal qilardi. Bu kabi omillar ham madaniy-ma'rifiy jarayonlarga to'la qonli kirib ketilishida migrantlarda muammolar tug'dirdi. Yuqoridagi holatlar tahlil qilinarkan. Qozog'iston Respublikasi mustaqil sub'ekt sifatida o'z davlatchiligi boshqaruvini qo'lga kiritganidan keyin ushbu mamlakatdagi o'zbeklar hayotida ham o'zgarishlar ro'y berdi.

Davlatlar o'rtasidagi chegaralarning o'rnatilganligi, Respublikada fuqarolik haqida qonun, til haqida qonun kabilarning e'lon qilinganligi har bir Respublikaning Mustaqillik deklaratsiyasi qabul qilinib, milliy valyuitaga ega bo'lishi kabi omillar tufayli O'zbekiston o'zbeklari bilan Qozog'iston o'zbeklari munosabatlarida to'siq uzoqlashuv jarayonlari kechmadi deb bo'lmaydi. SSSR mavjud bo'lib turgan yillarda O'zbekiston va Qozog'iston o'zbeklari, O'zbekiston qozoqlari va Qozog'iston qozoqlari o'rtasida qavm-qarindoshchilik, qudandachilik, to'y tomoshalarida uchrashuvlar xalq o'yinlari (uloq, fesrtival, anjumanlar) da erkin har qanday chegaralarsiz bordi keldilar mavjud edi. Mustaqillik yillarida maxsus chegara postlaridan o'tish ruxsatnoma talab etilishi va chaqiruv kabi to'siqlarning qo'yilganligini etirof etish kerak. Qozog'istonga

²⁴ Расулов Б. М. Ўзбекистонда коллективлаштириш жараёнидаги сиёсий катагонлар ва сургун қилинган деҳқонлар аҳволи (1929-1956 йиллар). Т. , “Шарк”, 2012 йил. -368 бет.

²⁵ Пономарёва Э, Рудов Т. Межетнические отношения как фактор. Нестабильности в странах сентиральной Азии края дуги нестабильности: Балкани - сентральной Азия: -М. : 2010. -Стр. 190-199.

ko'chgan orolmandlar orasida O'zbekistondagi qozoqlar ham borligi ayni paytda Qozog'istondan O'zbekistonga ko'chgan o'zbeklar bilan bog'liq bir qadar muammolar ham yuzaga kelganligi qayd etish o'rinlidir. Umuman olganda sovet hokimiyatining so'ngi yillarida 1989-1991 yillarda Markaziy Osiyoda mustaqil yangi davlatlar vujudga kelganidan so'ng dastlabki 10 yillikda migratsion jarayonlar tezlashib to'liqinsimon tus oldi. Ta'kidlash joizki ushbu jarayonni barcha Respublikalardagi milliy o'zlikni anglashning o'sishi millatlar aro munosabatlardagi ayrim salbiy tendensiyalar va to'qnashuvlarning yuz berib turishi tub jo'y millat vakillarining faollashuvi natijasida vujudga kelgan bazan milliy mahdudlikni keltirib chiqargan noxush holatlar MDH Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi do'stona yaxshi qo'shnichilik munosabatlarida siyosiy muvozanatni barqarorligiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Markaziy Osiyo Respublikalari o'rtasidagi chegara masalalarida demarkatsiya va delemitatsiya masalalarida yakuniy kelishuvga kelinmaganligi milliy ozchiliklardagi aholi holatga va milliy osoyishtalik o'z joyida ishonch hamda barqarorlik yashash holatiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Biroq Qozog'iston va O'zbekiston munosabatlaridagi boshqa markaziy Osiyo Respublikalariga nisbatan barqaror bo'lgan munosabatlar milliy to'qnashuvlarga olib kelmadi.

Adabiyotlar

Несипбаева К. Р. Исторические аспекты возникновения и формирования узбекской диаспори на территории казахстана//Яраславаский педагогический вестник. -2012. №1. -Том 1. Гуманитарные науки, -Стр. 57-61.

Расулов Б. , Акбарова М. М Қозоғистон сурғунидаги эски қишлоқлик бир оила тақдири// илмий хабарнома. -Андижон, 2009. -№1. -Б. 50-53.

Расулов Б. М. Ўзбекистонда коллективлаштириш жараёнидаги сиёсий катағонлар ва сургун қилинган деҳқонлар аҳволи (1929-1956 йиллар). Т. , “Шарқ”, 2012 йил. -368 бет.

Пономарёва Э, Рудов Т. Межэтнические отношения как фактор. Нестабильности в странах сентиральной Азии края дуги нестабильности: Балкани - сентралной Азия: -М. : 2010. -Стр. 190-199.

G'ARBIY TURKISTON HUDUDINING RUS-INGLIZ MUNOSABATIDA TUTGAN O'RNI

M.M.Raxmatov

Tarix (yo'nalishlar va mamlakatlar bo'yicha)

mutaxassisligi magistranti

Turkiston o'lkasi qadimdan yirik geografik obyekt hisoblanadi norasmiy jihatdan bir necha qismlarga bo'linadi shulardan biri “G‘arbiy Turkiston” atamasi inglizlar tomonidan kiritilgan. Turkiston atamasini fors va afg'onlardan o'zlashtirganlar va 18-19-asrlarda bu iborani ilmiy geografik terminologiyaga kiritganlar ham aynan ular edi. Rossiyada ham, G‘arbiy Yevropada ham bu hududini Kichik Buxoro va Buyuk Buxoro nomlari bilan ataganlar.

Buyuk davlatlar ko'plab mustamlakalarni egallaydilar 19- asrda Buyuk Biritaniya va Chor Rassiyasi bir masalada yaniy Afg'onistan hududi masalasida bir necha bor nizoga boradilar bunga sabab esa 1858-yilda Hindistonni to'liq egallagan ingliz hukumati Afg'onistan orqali O'rta Osiyoga yurish qilish rejalarini tuza boshlaganida edi²⁶.

Chor Hukumati esa 1865- yilda Toshkentda mustahkam joylashgan endilikda 3 davlat Buxoro amirligi Qo'qon va Xiva xonliklarini egallash va Afg'onistan orqali Hindiston chiqish iloji bo'lsa Hind dengizida bandargohlar qurish rejaları bor edi bu rajalarning amaliyotga tadbig'i esa uzoq kuttirmadi va tez orada ingliz hukumati Afg'onistan ga harbiy harakatlarni amalga oshirdi

²⁶ Киняпина Н. С. , Бलिएв М. М. , Дегоев В. В. Кавказ и Средняя Азия во внешней политике России (вторая половина XVIII в. - 80-е гг. XIX в.). М. , 1984; -С. 127.

G'arbiy Turkiston deyilgan esa aynan Afg'onistonning Janubiy rayonlari ham kiradigan hudud tushuniladi bundan tashqari bu hududga Tojikistonning janubiy Turkmaniston kasbiy dengizigacha bo'lgan qismi kiradi.

19-asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyoning bir qismi qo'shib olingandan keyin 1867 yilda chor hukumati tomonidan tashkil etilgan, markazi Toshkentda bo'lgan Turkiston general-gubernatorligi rejalarning amaliyotga tadbig'ini kuchaytirgan bu paytda inglizlar 2-ingliz afg'on urushini boshladilar 1878 yilga inglizlar 36 ming kishilik armiyani Kobul va G'aznaga hujum qildi bundan xavotirga tushgan Chor hukumati 1879-yil Lazerov boshchiligidagi kichikroq bo'limmani yuboradilar ammo tajribasiz Lazerov mag'lub bo'ladi vaqtida qarshi Ingliz qo'shinlari bu safargi yurushda ham mag'lubiyatga uchraydilar.

1880 yildan boshlab Chor hukumati tajribali General Skabelovni Turkmanlar yurishiga qo'mondon etib tayinlaydi Skabelov Qo'qon xonligining egallanishida tajriba orttirgan o'ta shafqatsiz qo'mondon edi²⁷.

1881- yilda Ko'gtepani egallaydi 5 yildan ortiq davom etgan yurishlardan so'ng 1885 yilda Kushka qal'asi egallanishi bilan Turkmanlar yeri to'liq egallanib bu hududda Kaspiy orti viloyati tuzildi bu aynan G'arbiy Turkiston hududining egallanishini anlatadi.

Afg'onistangaingliz hukumati jami 3 marta yurish qildi har uchallasida mag'lubiyatga uchragan inglizlar O'rta Osiyo xonliklari orzusidan butunlay voz kechishga majbur bo'ldilar.

19 asr davomida Hirotda joylashib olgan Ingliz hukumatining josuslik agentlari jami 22 marotaba Xiva va Buxoro hukmdorlaring qabulida bo'lib ularning inglizlarga xayrihohligini oshirishga urundilar ko'pincha ular savdogar qiyofasidagi harbiylar edilar jumladan: Jems Ebbot, Charles Ips, Stoddart, Konnoli, aka uka Endueskiylar shular jumalsidandir²⁸.

²⁷ Sultonov Sh. " O'zbekiston tarixi" T. : 2014-y. 69–b.

²⁸ Бернс А. Путешествие в Бухару. М. , 1850, стр. 221

Kaspiy orti viloyati Turkiston general-gubernatorligining eng muhim harbiy strategik ahamiyatga ega o'lkasiga aylana boshladi sababi chegara viloyat ekanligi hamda Eron va Afg'onistan hukumatlariga bosim o'tqazish uchun ham o'ta qulay edi. Ikki Buyuk davlatlar o'rtasida qolgan Afg'onistan hukmdorlari ikki davlat o'rtasidagi nizoli vaziyatdan oqilona foydalangan va o'zining siyosiy mustaqilligini saqlab kelgan ayniqsa Omonullaxon davrida bu o'zining yaqqol ifodasini topgan.

Chor hukumati Kaspiy dengizidan Eron orqali foydalanishdan voz kechishiga ham aynan G'arbiy Turkiston hududlari to'liq egallanishi sabab bo'lgan dengizning ikkala qirg'og'ida ham o'zining bandargohlarini tuza olgan edi.

20 asrda esa Afg'oniston ikki davlat o'rtasidagi chegara vazifasini bajaruvchi o'lkaga aylangan edi. Keyingi davrda esa Afg'onistonning hukmronligiga kelgan shaxslar yangi davlat SSSR bilan hamkorlikda ish olib borishni maqul ko'rganlar

1918 yil aprel oyida Rossiya Turkistoni hududida Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi tashkil topdi. 1924-1925 yillarda O'rta Osiyo sovet respublikalari milliy-davlat chegaralanishidan so'ng Turkiston hududida sovet respublikalari tashkil topdi. Shu bilan birga, G'arbiy Turkiston atamasi O'rta Osiyo nomi bilan almashtirila boshlandi, rasmiy matbuot uni faqat to'rtta O'rta Osiyo Sovet respublikalari: Turkmaniston, O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston hududlari deb atagan. Shunday qilib, O'rta Osiyo hududida – O'rta Osiyo va Qozog'istonda yangi geografik nomenklatura paydo bo'ldi.

Adabiyotlar

1. G. To'rayeva " 17 19 asrlarda O'rta Osiyo masalasida ingliz rus raqobati". Buxoro- 2021
2. Бернс А. Путешествие в Бухару. М. , 1850, стр. 221
3. Хидоятлов Г. А. Из истории англо-русских отношений в Средней Азии в конце XIX в. (60-70-е гг.)
4. Киняпина Н. С. , Блиев М. М. , Дегоев В. В. Кавказ и Средняя Азия во внешней политике России (вторая половина XVIII в. - 80-е гг. XIX в.). М. , 1984;

5. Sulstonov Sh. " O'zbekiston tarixi" T 2014

2005-YIL O'ZBEKISTON VA AQSH MUNOSABATLARINING YOMONLASHUVI. ROSSIYA BILAN YAQINLASHUV

A.A.Jabborov

Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turlari bo'yicha)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonning Andijon voqealari sababli AQSh bilan munosabatlarining sovuqlashishi va hukumatning Rossiya bilan aloqalarni yanada kengaytirish uchun olib brogan say-harakatlari masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Andijon voqealari, senzura, strategik sheriklik to'g'risidagi shartnoma, 2005-yil 14-noyabr.

2005-yilning eng unutilmas voqealaridan biri bu shubhasiz Andijon fojeasi bo'ldi. 12-may kuni 23 ta tadbirkorning 1 yildan buyon nohaq qamoqda saqlanayotganligi va buning natijasida ko'plab odamlarning ishsiz qolishi sababli tinch aholining namoyishiga sabab bo'lgandi. Namoyishchilar Bobur maydonida to'planib, sud hukmi natijalarini kutishgan. 12-maydan 13-mayga o'tar kechasi bir guruh "Akromiylar" Andijon mahkamasiga bostirib kirib, mahbuslarni ozod qilishga va harbiy qismlarga hujum qilib, qurol-yarog'larni egallashga harakat qilishadi. Bu esa hukumatning namoyishchilarni qurol yordami bilan tarqatishiga sabab bo'lib, natijada ko'plab insonlar halok bo'ladi. Rasmiy Toshkent ushbu qirg'inda 180 nafar inson halok bo'ganligini ta'kidlasa, guvohlarning bergan ma'lumotlariga qaraganda halok bo'lganlarning soni bundan ham ko'p bo'lgan. Otishma natijasida bir guruh namoyishchilar qo'shni Qirg'iziston Respublikasiga qochib o'tishadi, keyinchalik esa BMT ko'magi bilan Ruminiya, Shvetsiya va boshqa shu kabi davlatlarga chiqib ketishga majbur bo'lishadi. 2001-yildagi AQShdagi terrorchilik hujumlaridan keyin kuchaygan AQSh-O'zbekiston aloqalari 2005-yilgi Andijon voqeasi tufayli o'zining past nuqtasiga yetdi. Andijon voqealari

ustidan qat'iy tergov talabi bilan chiqqan va O'zbekistonni qattiq tanqid qilgan AQSh Qarshi-Xonobodagi harbiy bazasidan ayrildi. O'zbek matbuotida Amerikaga qarshi tashviqot kuchaytirildi. AQSh O'zbekistondagi siyosiy tuzumni yemirishga uringanlikda ayblandi. Iroqdagi urushni ikki yil oldin qo'llab quvvatlagan O'zbekiston parlamenti AQShni bosqinchilikda aybladi. O'zbekiston tashqi ishlar vazirligining bir amerikalik diplomatni mamlakatdan chiqarib yuborganligiga javoban, AQSh ham bir o'zbekistonlik diplomatni Vashingtondan chiqarib yubordi. O'zbekiston yanada tashqi siyosatda yopiqroq siyosat yuritishga harakat qila boshladi. 2005-yil davomida O'zbekiston hukumatining mustaqil va chet el matbuoti hamda nodavlat tashkilotlarga nisbatan tazyiqi kuchaydi. Demokratik qadriyatlarni targ'ib qiluvchi INTERNEWS va IREX kabi xalqaro hukumat, nodavlat tashkilotlar hamda OZODLIK va BBC kabi xalqaro radiostansiyalar siyosiy bosim ostida O'zbekistondagi idoralarini yopishga majbur bo'ldilar. So'z erkinligi yo'lida kurashgan faol matbuot xodimlari panjara ortiga tashlangan.

2000-2003-yillarda O'zbekistonda faoliyat yuritgan Amerika elchisi Jon Herbst uch ishni amalga oshirganligini aytadi: Davlat departamenti, Pentagon va Markaziy Razvedka Boshqarmasini O'zbekiston bilan hamkorlik qilishini ta'minlash. "Osama bin Ladin katta muammo edi. U qo'shni Afg'onistonda edi. Unga qarshi kurash, terrorizmga qarshi chora-tadbirlar O'zbekiston bilan strategik sheriklikni real tarzda yo'lga qo'yishni talab etar edi"²⁹, -deydi Herbst.

O'zbekiston Amerikadan biroz uzoqlashgach, Rossiya bilan munosabatlarni yangi bosqichga ko'tarishga harakat qildi. Andijon voqealaridan 1 yil ilgari, ya'ni 2004-yil 16-iyun kuni Islom Karimov Oqsaroyda SHHT sammiti munosabati bilan O'zbekistonga tashrif buyurgan Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan uchrashdi. Muzokaralar yakunida Prezidentlar O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida strategik hamkorlik to'g'risidagi shartnomaga imzo chekdilar.

Mazkur bitimning birinchi moddasida: O'zaro xavfsizlikni ta'minlash, global tahdid va davlatlarga qarshi harakat qilish, mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlash, siyosiy, iqtisodiy va gumanitar sohalardagi hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan strategic sherikchilik O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi munosabatlarni uzoq muddatli va har taraflama rivojlantirishning kuchli asosini shakllantiradi deb yozilgan edi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov 2005-yil 10-iyun kuni Oqsaroyda Rossiya Federatsiyasining "Politika" jamg'armasi prezidenti Vyacheslav Nikonov rahbarligidagi delegatsiya a'zolarini qabul qildi.

Delegatsiya azolari Andijon shahrida bo'lib jamoatchilik vakillari bilan uchrashdilar. 2005 yil 13 may kuni sodir etilgan fojeali voqyealarning guvohlari va terrorchilar tomonidan garovga olinganlar, fojea qurbonlarning oila azolari bilan suhbatlashdilar. Delegatsiya Toshkentda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar insitutining (SMTI) mutaxassislari bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurish akademiyasi professor o'qituvchilari bilan uchrashdilar. Delegatsiya rahbari V. Nikonov "Bazi xorijiy ommaviy axborot vositalarida Andijonda sodir bo'lgan fojeali voqealar qurbonlari soniga oid raqamlar oshirilib yuborilgan", -deb takidlagan edi.³⁰

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2005-yil 28-29 iyun kunlari Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning taklifiga binoan amaliy tashrif bilan Moskva shahrida bo'ldi.³¹

2005 yil 14 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov rasmiy tashrif bilan Rossiya Federatsiyasi bo'ldi. Muzokaralarda Islom Karimov va Vladimir Putin xalqaro tashkilotlar, jumladan, Yevroosiyo Iqtisodiy hamjamiyati va Shanxay Hamkorlik Tashkiloti doirasidagi aloqalar bilan bog'liq masalalarni muhokama qildilar, mintaqaviy va xalqaro muammolar yuzasidan fikr almashdilar.

³⁰ Rossiya delegatsiyasining uchrashuvlari. //Xalq so'zi;2005 yil, 11 iyun.

³¹ A. Boboyev. O'zaro hamkorlikni yanada mustahkamlash yo'lida. //Xalq so'zi;2005-yil, 30 iyun.

Muzokaralar yakunida Prezidentlar Islom Karimov va Vladimir Putin O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federasiyasi o'rtasida ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma imzolashdi. Shuningdek ikki mamlakat Savdo sanoat palatalari o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi bitim, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi bilan Rossiya Federasiyasi Narkotik aylanishni nazorat qilish bo'yicha federal xizmati o'rtasida narkotik vositalarning, psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashda hamda prekursorlarni nazorat qilishda hamkorlik to'g'risidagi bitim imzolandi³².

Mamlakatimiz rahbari Rossiya Federasiyasiga jo'nab ketishidan oldin ommaviy axborot vositalarga bergan intirvyusida imzolanishi rejalashtirilgan Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma haqida to'xtalib :

"Avvalo bu shartnoma o'ta muhim va masuliyatli masala-ikki tomonlama harbiy- texnikaviy aloqalarni yuqori va ishonchli asosda rivojlantirishni, qurolli kuchlarni barpo etish, ularni qurollantirishda o'zaro ko'mak va yordamni nazarda tutadi. O'zingiz bir tassavur qiling: bu shartnoma kuchga kirishi bilan O'zbekistonga qarshi qaratilgan har qanday g'arazli va yovuz hamla, shuningdek bizning hududimizga bostirishga bo'lgan urinishlar o'z-o'zidan Rossiyaga qarshi qo'l ko'tarish bo'lib hisoblanadi va, tabiiyki, dunyodagi eng qudratli davlatlardan biri bo'lmish bu mamlakatni befarq qoldirmaydi va bordiyu shunday holatlar sodir bo'lsa, ikki davlat rahbariyati bamaslahat tegishli qaror qabul qilish va zarur choralar ko'rish imkoniga ega boladi"-deb takidladilar³³.

Rossiya Prezidenti V. Putin, o'z navbatida ta'kidlaganidek, "Shartnoma ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarni mutlaqo yangi sifat darajasiga ko'taradi. Rossiya va O'zbekiston mintaqada barqarorlik va taraqqiyotga erishish yo'lida kuchlari, zaxiralari, ulkan gumanitar salohiyatlarini birlashtirmoqda"³⁴.

Adabiyotlar

³² A. Boboyev. O'zbekiston va Rossiya ittifoqchi davlatlar. //Xalq so'zi;2005-yil, 15 noyabr.

³³ O'zbekiston va Rossiya ittifoqchi davlatlar. //Xalq so'zi;2005-yil, 15 noyabr.

³⁴ //“народное слово” ;2005-yil, 23 noyabr.

2. Karimov I. A. Inson, uning huquq va erkinliklari-oliy qadriyat. T. 14-Toshkent. : "O`zbekiston", 2006. - 280 b.

Boboyev A. O`zaro hamkorlik yanada mustahkamlash yo`lida. //Xalq so`zi; 2005-yil, 30 iyun.

Boboyev A. O`zbekiston va Rossiya ittifoqchi davlatlar. //Xalq so`zi; 2005-yil, 15 noyabr.

Kanapiyanova ZH. The US and Russia policy toward Central Asia in the framework of the geopolitical theory. Kazakhstan: "Euroasian Research Journal", July 2020. Vol. 2, No. 2

**MIRZO SIROJIDDIN HAKIM-MA`RIFATPARVAR, SAYOHATCHI,
JURNALIST VA TABIB**

R.S.Himmatov,

Buxoro davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Respublikamiz kutubxonalari va qo'lyozma fondlari tarkibida taqiqotchilar tomonidan yetarli darajada o'rganilmagan va ilmiy-ommaviy muomilaga kiritilmagan bir qancha asarlarimiz mavjud. Shu kabi manbalarni aniqlash va ular borasida maqolalar e'lon qilish orqali yana bir bor ajdodlarimiz ilmiy merosi va hayot saboqlarini o'rganish amaliy ahamiyat qasb etadi. Quyida ma'rifatparvar inson Mirzo Sirojiddinning hayoti va ilmiy merosi to'g'risida ma'lumotlarni keltirib o'tamiz.

Kalit so`zlar: Jadidchilik, Yosh Buxoroliklar, sarrof, tarix, arifmetika, she`riyat, sayohatchi, Sabzavor, Mashhad, Xuroson, Buxoroi Sharif, Turon, Oyna

20-asr boshlarida O`rta Osiyo yerlarida, jumladan, Buxoroda ham jadidchilik harakati avj oldi, uning asosiy maqsadi mamlakat maktab va ta`limni isloh qilish, yangi matbuot va adabiyotlarni tarqatish, siyosiy va madaniy madaniyatni shakllantirishdan va asosiysi xalqni uyg`otishdan iborat edi. Jadidchilik harakatining mashhur namoyandalaridan biri, "Yosh Buxoroliklar" harakati a`zosi, o`z davrining eng ko`zga ko`ringan, bilimdon kishilaridan biri

Mirzo Siroj Hakim edi. Mirzo Siroj 1877-yil 23-oktabrda Buxoroning Ismoilxo'ja mahallasida sarrof va savdogar oilasida tug'ilgan. Uning otasi hoji Abdurrauf Mirzoxurd juda boy va Buxoroda taniqli shaxs edi. U yolg'iz o'g'lining ta'lim olishini, faoliyatini davom ettirishini orzu qilardi. Shu bois u besh yoshidanoq o'g'lini ilm-fanga, san'atga yo'naltirishga alohida e'tibor bergan. Yosh Sirojiddin maktab va madrasa ilmlarini o'rgangach, ustozlari qo'lida axloq, tarix, adabiyot, arifmetika, geografiya, matematika, fors, turk, arab, rus, fransuz tillarini puxta o'rgandi. Shu bilan birga, u she'riyatga mehr qo'ydi, uning ilk she'rlari Buxoro adabiy doirasi tomonidan yaxshi kutib olindi. U voyaga yetkach dastlabki faoliyatini otasining kichik bir sarroflik do'konida boshlab keyinchalik o'zi mustaqil ravishda paxta savdosi bilan shug'ullangan.

U ish yuzasidan Marg'ilon, Andijon, Jizzax, Toshkent, Chimkent, Jambul kabi shaharlarga ko'p sayohat qiladi, mahalliy turmush tarzi bilan tanishadi. Mirzo Siroj Sadridin Ayniy va Munzim tavsiyasi bilan Sadri Ziyon xonadonida o'z davrining mashhur kitobi – Ahmad Donishning “Navodir-ul-vakoe”si bilan tanishadi. Qori Rahmatullohi Vozehning “Savoneh-ul-masolik va farosix-ul-mamolik”(“Yo'llarning qulayliklari va mamlakatlarning masofalari”) (1887) asarini o'qish va turli xil savdogar va sayohatchilardan Rossiya imperiyasi, Usmonlilar davlati, Eron, Hindiston, Afg'oniston va ayniqsa Yevropa mamlakatlari ko'p ma'lumotlarni eshitishi yosh Sirojiddin qalbida sayohat orzusini uyg'otadi.³⁵ Mirzo Siroj 1902-1909-yillarda Yevropaning ko'plab mamlakatlarida, xususan, Avstriya, Vengriya, Bolgariya, Serbiya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Germaniya, Rossiya, Polsha va Eron kabi Sharq mamlakatlarida savdo qilgan. Afg'oniston, Turkiya, Arabiston, Hindiston va boshqalarga sayohat qilgan. Mirzo Siroj 1902 yil 5 iyunda Buxoroda uchrashgan Avstriya shahzodasining taklifini bajarish bahonasida Yevropaga olti oylik safarga o'tlanadi. Turkman cho'li orqali Krasnovodskka, u yerdan Kaspiy dengizi bo'ylab Bokuga, u yerdan Tiflis va Batumiga boradi. Qora dengiz orqali Turkiyaga kelib, Samson va Istanbul

³⁵ Inoyatov.S. Matbuotchi, Tabib va jahongashta sayyoh// Buxoronoma. 50 son.- Buxoro, 2020- 4 bet.

shaharlarini aylanib chiqdi. U yerdan Vena, Sofiya, Budapesht, Vena, Berlin, Parij, London, Bern, Marsel, Milan, Varshava, Moskvaga boradi va Ryazandan temir yo'1 orqali Buxoroga qaytadi.

Mirzo Sirojning ikkinchi safari 1903 yilning mart oyida bo'lgan. Bu safar u Eronning bir qator shaharlari, jumladan Mashhad, Nishopur, Xuroson, Sabzavorga sayohat qilib, 1905 yil 16 iyunda vataniga qaytib keladi. Bu safar davomida u Eronning Sabzavor shahrida sakkiz oy qoladi. Keyin Hirot, Kobul va Mozori Sharifdan o'tadi. Sabzavor shahri haqida shunday deydi: “Sabzavor Xurosonning qudratli va obod shaharlaridan biridir. Shahar havosi juda yoqimli. Xurosonning boshqa shaharlariga nisbatan toza va ozoda. Sabzavorda bug'doy, arpa, paxta ko'p. Paxta va jun savdosi ham yuqori. Ko'plab mahalliy va xorijiy korxonalar mavjud. Sabzavardagi savdogarlarning aksariyati g'arbliklar, ya'ni ular Eronning boshqa shaharlaridan ochish uchun kelgan. Rossiya hukumati va Tabrizning ham yirik bizneslari bor. Ular g'alla, yog' va shakar, choy va boshqalarni sotadilar, paxta va jun sotib oladilar. Sabzavor paxtasi Xurosonning boshqa shaharlaridan afzaldir”. Eronning boshqa bir shahri Mashhadda u biznes bilan shug'ullanishini aytadi: “Mahshadda ko'proq sayr qildim, oxiri zerikib ham ketdim va bir ish bilan shug'ullanishim kerakligini angladim. O'zimdagi pul, Qo'qondagi tijorat mollari va Xitoy bankining biletlari va boshqalarini keltirib, bu yerda arzon bo'lgan paxta va terilarni sotib oldim.

Olgan narsalarimni Sabzavor, Nishopur va boshqa hududdan kelgan tijoratchilarga berdim, shu bahona Nishopurga ham borib sayr qildim”³⁶ Mirzo Siroj 1905-yil iyulidan 1909-yil oxirigacha davom etgan uchinchi safari chog'ida Eron, Afg'oniston va Hindistonning qator shaharlarida bo'ladi. Eslatib o'tamiz, Mirzo Siroj Hakim Eronda 1905-1911 yillardagi inqilobning bevosita guvohi bo'lgan. 1903 yilda Erondagi mashhur Tehron tibbiyot kolleji (hozirda Tehron tibbiyot universiteti)ga o'qishga kiradi. Uni tamomlab, kollejda o'qituvchilik va Mozandaron shahar kasalxonalarining birida vrachlik faoliyatini olib boradi. Tez

³⁶ Мирзо Сирожиддини Хаким. Тухафи ахли Бухоро. – Душанбе: «Ирфон», 1984. С. 103.

orada, Eronda “doktor Mirxon” nomi bilan mashhur bo'ladi. Ko'p vaqt o'tmay, uning dovrug'ini eshitgan Afg'oniston amiri Xabibullaxon Mirzo Sirojiddinni ishga taklif etadi, u yerda doktor Sobir nomi bilan faoliyat yuritib shuhrat qozonadi. Mirzo Siroj 1909 yil dekabr oyida vataniga qaytgach, Buxoroda yevropacha kasalxona ochadi va odamlarni yangicha davolashga kirishadi. Turli mamlakatlarga sayohat qilish, rivojlangan davlatlarning taraqqiyotini ko'rish, matbuoti bilan tanishish, boshqa xalqlar maorifchilarining asarlarini o'qigan Mirzo Sirojiddining qalbida o'z yurtini tanazzuldan qutqarish va xalqni ma'rifatli qilish orzusini uyg'otadi. Shuning uchun u “Yosh Buxoroliklar” harakatining faol ishtirokchisi bo'ladi. Mirzo Sirojiddin uzoq yillik safarlari davomida ko'rganlari va xotiralarini “Tuhfai ahli Buxoro” (“Buxoro ahlining tuhfalari”) nomli asarida yozib qoldigan. 1910 yilda muallif asarni qo'lyozma nusxasini yozib tugatgan va 1912 yilda esa Kogon bosmaxonasida toshbosma nusxasi nashr etilgan. Asarning qo'lyozma nusxasi fors tilida yevropa qog'ozida yozilgan. Jami bo'lib, 193 sahifani o'z ichiga oladi, uning o'lchami 13x20.

yaxshi holatda, kirish va xotimasi bilan to'liq saqlangan. “Tuhfai ahli Buxoro” muallifning Yevropa va Sharq mamlakatlariga qilgan uzoq sayohatlari haqida juda sodda va ravon tilda hikoya qiladi va tarixiy, geografik, iqtisodiy, siyosiy va madaniy ahamiyatga ega. Mirzo Siroj nafaqat ajoyib shoir va yozuvchi, balki mohir publitsist va jurnalist ham edi.³⁷ U birinchi tojik tilidagi gazeta «Buxoro sharif»ning asoschilaridan biri bo'lib, ularning sahifalarida ijtimoiy xarakterdagi she'r va maqolalari bilan chiqqan. Bu gazeta 1912 yilda Buxorolik yana bir ma'rifatparvar Mirzo Muhiddin bilan birgalikda Kogon(Yangi Buxoro)da chop etilgan. Mirjalol Yusufzoda muharrirligi ostida 1912 yilning 14 iyuliga qadar haftada bir marta, keyinchalik esa haftada to'rt marta nashr etiladi. 1912 yilning iyulidan “Buxoroi Sharif”ga ilova tarzida eski o'zbek (turkiy) tilida “Turon” gazetasi nashr qilina boshlandi. “Turon” dastlab ilova tarzida haftada ikki marta chop etilgan, o'sha yilning sentyabridan esa mustaqil nashr sifatida faoliyat yurita

³⁷ D.Jamolova. Ahmad Donishning vorisi// Tafakkur. 2 son-Toshkent, 2018-86-87 betlar

boshlagan. Har ikki gazeta 2600 (“Buxoroi Sharif” — 800, “Turon” — 1800) nusxada nashr etilgan. “Buxoroi sharif” gazetasi oradan bir yil o'tib, 153-sonidan so'ng yopib qo'yiladi. Mirzo Sirojiddin “Buxoroi Sharif”ning ilk sonlaridan boshlab “Hakim Buxoriy” taxallusi bilan maqolalar e'lon qilib boradi. Masalan, “Ro'znomaning ba'zi foydalari” maqolasida gazetalar xalq dunyoqarashini o'zgartirishi, kitob mutolaasi, qanday yashashni o'rganish, dunyo yangiliklari va xalqlari ahvolidan xabardor bo'lish uchun eng muhim vosita ekanini ochib beradi.

Mirzo Sirojiddinning masnaviy usulida yozgan “Yod bod” (“Yodda bo'lsin”) nomli she'ri 1913 yilda “Oyina” jurnalining 2-sonida chop etiladi. Muallif o'z chiqishlarida tarixiy tafakkurni shakllantirish masalasiga alohida e'tibor qaratadi, allomalar yurti bo'lgan Markaziy Osiyoda ilm nufuzi pasayib ketgani, aholini savodli qilishdagi kamchiliklar va ta'lim tizimidagi muammolarni jiddiy tanqid qiladi. “Biz o'tmishda qanchalik rivojlangan edik, sivilizatsiya bobida o'zimizga yarasha o'rinda edik, taraqqiyparvarlik, ilm-fan kashfiyoti, davlatchilik rivojida ham ilg'or edik. Biz hozir g'aflatdamiz, ilmdan uzoqlashdik. Bizning tanazzulimiz ta'lim va ilmni kuchsizlanganligidandir”, deb achinib yozadi. Buyuk ajdodlarimizga munosib avlod bo'lish uchun tarixdan to'g'ri saboq chiqarishimiz, ilm-fanni rivojlantirish, kitob o'qish lozimligini bayon etgan. Shuningdek, gazetada “Hifz-us-sihat” sarlavhasi ostida tibbiyot va salomatlikka oid 30 dan ortiq qimmatli maqolalar e'lon qilingani buxoroliklar salomatligini muhofaza qilishga katta hissa qo'shgan. Mirzo Siroj “Buxoro Sharif” nashri orqali bir qancha jadid arboblari, jumladan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurrauf Fitrat, Abduqodir Muhiddinov va boshqalar bilan yaqindan tanishdi. Aytish joizki, Mirzo Sirojning she'r va maqolalari Buxoroga qo'shni davlatlarning Eronning “Navbahor” va “Tus”, Turkistonning “Samarqand”, “Oyna” gazetalarida ham chop etilgan.

Mirzo Siroj 1913-yilda to'rtinchi marta sayohat qiladi, lekin yo'lda uning kasalligi kuchayib, 1913-yil 21-dekabrda Eronning Rasht shahridan Buxoroga qaytib keladi va 1914-yil yanvar oyi o'rtalarida sil kasalligi tufayli vafot etadi.

O'rta Osiyoning yangi rahbari, "Oyina" gazetasi bosh muharriri Mahmudxo'ja Behbudiy Mirzo Siroj vafotidan so'ng o'zining "Ziyo olim" jurnalining 48-sonida "Safarning o'n to'qqizinchi jumasi" deb ta'ziya bildirdi. Shuningdek, Mirzo Siroj vafoti munosabati bilan "Oyna" jurnalining 14-sonida Sadridin Ayniyning qayg'uli marsiyasi chop etiladi. Xulosa qilib aytganda, XX asr boshlarida Buxoro amirligida yashab ijod qilgan Mirzo Sirojiddinning ma'rifatparvarlik qarashlari va uning "Tuhfai ahli Buxoro" asari komil inson tarbiyasida muhim o'rin egallaydi.³⁸

Adabiyotlar

1. Inoyatov.S Matbuotchi, Tabib va jahongashta sayyoh// Buxoronoma. 50 son.- Buxoro, 2020 4 bet.
2. Мирзо Сирожиддини Хаким. Тухафи ahli Бухоро. – Душанбе: «Ирфон», 1984. С. 272.
3. D.Jamolova. Ahmad Donishning vorisi// Tafakkur. 2 son-Toshkent, 2018-86-87 betlar.

O'ZBEKISTON VA FRANSIYANING O'ZARO IQTISODIY HAMKORLIGI

Yu.A.Shukrullayev

Buxoro Muhandislik Texnologiya institute dotsenti, tarix fanlari nomzodi.

N.B.To'rayeva

*Buxoro davlat universiteti. (Tarix yo'nalishlar va faoliyat turi
bo'yicha mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mustaqillikdan keyin O'zbekiston va Fransiyaning iqtisodiy hamkorlik aloqalarining o'rnatilishi va bu hamkorlikning mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishiga qo'shgan hissasi yoritildi.

Kalit so'zlar :hamkorlik,iqtisod ,Parij xartiyasi, firma ,elchixona ,kompaniya ilmiy tadqiqot .

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, milliy manfaatlarga mos mustaqil tashqi siyosat yuritish imkoniga ega bo'ldi.

³⁸ Inoyatov.S Matbuotchi, Tabib va jahongashta sayyoh// Buxoronoma. 50 son.- Buxoro, 2020 4 bet

Respublikamiz xalqaro hamjamiyatning teng huquqli a'zosiga aylandi. O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan ko'p tomonlama faol tashqi siyosatni amalga oshirish davlatimiz mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish va xalq turmushini

yaxshilashning zarur sharti va g'oyat muhim vositasidir''³⁹deb ta'kidlagan edi birinchi prezidentimiz Islom Karimov. Mustaqillik biz uchun tashqi siyosat bobida yangi sahifa ochdi.O'zbekiston tashqi siyosat sohasida Markaziy Osiyo davlatlari ichida eng tashabbuskori va faoli sifatida o'zini namoyon qilmoqda.O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi munosabatlar 1992-yil o'rnatilgan bo'lib ,1992-yil iyundan boshlab Fransiyaning O'zbekistondagi elchixonasi ,1995-yildan boshlab O'zbekistonning Fransiyadagi elchixonasi faoliyat olib bormoqda.⁴⁰Fransiya O'zbekistonning Yevropadagi muhim sheriklaridan biri hisoblanadi. 1993 yil 28-30 oktabr kunlari O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimovning Fransiya qilgan tashrifi chog'ida mamlakatimiz rahbarining Parij Xartiyasini imzolashi ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarga asos solgandi.⁴¹ Birinchi prezidentimiz I.Karimov va Fransiya Prezidenti F.Mitteran boshqa rahbarlar hamda jamoatchilik vakillari bilan do'stona suhbat yuritdi va samarali muzokaralar yuritdi.F.Mitteran qabul marosimida nutq so'zlab :''Hozirgi siyosiy vaziyatda Markaziy Osiyoda yetakchi o'rinni egallab turgan mustaqil O'zbekiston sharq bilan g'arb o'rtasida ishonchli ko'pri bo'lishi mumkin. Ko'p asrlik tarix teran analarga ega bo'lgan insoniyatni faxriga aylangan allomalarni yetkazib bergan O'zbekiston doimo fransuzlarning diqqatini tortib kelgan .Bu tashrifdan keyin shuni ishonch bilan aytish mumkinki ,mamlakatimiz biz uchun yanada yaqin bo'lib qoldi⁴². Safar natijasida Parijda O'zbekiston Respublikasi o'rtasida ,,Do'stlik hamkorlik to'g'risida ''shartnoma

³⁹ Karimov I. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. - T.: O'zbekiston, 1996. B.48

1

⁴⁰ Jo'rayev Q. O'zaro hamkorlikning yangi davri: (O'zbekiston Fransiya tarixiy aloqalari). Adolat-2008.-5-oktabr.- N40:-B38

⁴¹ Xalq so'zi. 1993-yil 1-noyabr. B.4.

⁴² O'zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O'zbekiston tarixi. - T.: ,,Sharq'', 2000. B.252.

madaniyat ilmiy texnikaviy hamda maorif sohasida hamkorlik qilish to'g'risida bitim, sarmoyalarni o'zaro rag'batlantirish va himoyalash to'g'risida bitim imzolandi. Parij Xartiyasining imzolanishi Respublikamizda demokratiyaning yanada rivojlanishi O'zbekistonning Yevropaning boshqa taraqqiy etgan mamlakatlar bilan yanada yaqinlashuvi uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shundan so'ng Fransiyaning o'sha paytdagi prezidenti F.Mitteran eng rivojlangan yetti davlat orasida birinchi bo'lib, O'zbekiston Respublikasiga davlat tashrifi bilan keldi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.Karimovning 1996 yil 21-24 apreldagi tashrif ikkitomonlama munosabatlarni yangi pog'onaga ko'tardi. I.Karimovning Fransiya respublikasi prezidenti J.Shirak bilan uchrashuvida ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarni yanada rivojlantirish muhokama etilgan⁴³. Bu uchrashuvlarda imzolangan turli shartnoma va konvensiyalar hamda turli moliyaviy protokollar ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy, ilmiy, madaniy aloqalarni kengayib borishiga zamin yaratgan. O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi o'zaro Tovar

aylanmasi 2003 yilda 72'3 mln .AQSH dollar, shun –dan eksport 24mln, import 48.3 mln. Dollarni tashkil etadi. Eksportda paxta tolasi 74,4%, to'qimachilik mahsuloti 13,6%, kimyo mahsuloti 8,8 agrosanoat majmuasi mahsulotlari 2,9%ni import da esa elektronika va elektr uskunalari 26,2%, kimyo mahsulotlari 13,6% maishiy texnika 7,9%, transport vositalari 5,6%, oziq -ovqat mahsulotlari 3,6%ni tashkil etdi.⁴⁴

2003-yilda O'zbekistonda Fransiyaning 14 kompaniyai (jumladan ;''Elf-akten''neft Kimyo konserni, ''Textip''firmasi va boshqalar) va ikki banki (Kredi Kommersial de Frans'' va ''Sosiete Jeneral'') ishladi. Bundan tashqari O'zbekistonda 15 qo'shma korxonalar, 100%fransuz sarmoyasi bilan ikki korxonalar faoliyat olib boradi. 2004yilning 14-16 yanvarida O'zbekiston va Fransiya savdo

⁴³Karimov I.A.O'zbekistonning siyosiy –ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari.- T.:O'zbekiston,1995.B.332.

⁴⁴ O'zbekistonning yangi tarixi.uchinchi kitob.Mustaqil O'zbekiston tarixi.-T.;''Sharq'',2000.B.323.

iqtisodiy hamkorlik hukumatlararo komissiyaning ikkinchi majlisi bo'lib o'tdi. Ikki davlat hamkorligi rejalarga muvofiq "Societe Jeneral" bankining kredit hisobiga "Buxoro viloyatida suv ta'minotini yaxshilash" dasturi (8,1 mln .AQSH dollar) amalga oshiriladi va 2 ta ,, Boing767-300

EK" samolyoti (187,9mln AQSH dollari) sotib olindi⁴⁵ O'zbekiston Milliy banki bilan Fransiyadagi yirik ,,Kredit Kommersian de Frans" banki

o'rtasida bitim imzolandi,unda Buxoroda neftni qayta ishlash zavodi qurish loyihasini pul bilan ta'minlash ko'zda tutildi.Taniqli "Elfakiten"neft_kimyو kon- serni ,,Texnip" firmasi va boshqa kompaniyalar bilan Buxoroda neftni qayta ishlash zavodi qurilishiga kelishildi. Natijada ushbu zavod 1997-yil 22-avgustda ishga tushdi. Bugungi kunda korxonada benzin ,kerosin,suyultirilgan gaz, dizel yoqilg'isi kabi mahsulotlar ishlab chiqara boshladi.Zavod qurilishi jarayonida 262mln AQSH dollari o'zlashtirildi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, mamlakatimiz istiqlolning dastlabki davrlaridanoq o'z milliy

manfaatlariga mos keladigan puxta tashqi siyosiy yo'lini tanlash ,jahon hamjamiyatiga qo'shilish xorijiy davlatlar bilan siyosiy ,iqtisodiy diplomatik aloqalarni rivojlantirishga e'tibor berdi. Chunki Yevropa davlatlariga yo'l asosan Fransiya orqali o'tadi.

Adabiyotlar

2.Jo'rayev .Q.O'zaro hamkorlikning yangi davri.Adolat.2018,38-bet.

3.Xalq so'zi.1993.1-noyabr.4-bet

4.O'zbekistonning Yangi Tarixi.Uchinchi kitob.Mustaqil o'zbekiston tarixi.

T.:''Sharq''

2000,252-b.

5.Karimov .I. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy

tamoyillar. T.O'zbekiston.1995,332- 323 bet

⁴⁵ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.T.9.-T.;''O'ME'',2005.B.3243

**O'RTA OSIYO HUDUDIDAGI ILK DAVLATLARNING VUJUDGA
KELISH JARAYONI: QADIMGI BAQTRIYA HUDUDIDA
DAVLATCHILIK ASOSLARINING SHAKLLANISHI**

N.N.Ismatova,

BuxDU, Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turlari bo'yicha)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: O'rta Osiyo mintaqasidagi Baqtriya davlati eng qadimgi davlatlardan biri hisoblanib, u o'zining uzoq o'tmishi va boy tarixi bilan dunyo olimlari e'tiborining markazida bo'lib kelgan. Ushbu maqolada O'rta Osiyo hududida ilk davlatlarning vujudga kelishida Baqtriya davlatining tutgan o'rni, mavjud bo'lgan davri va uning tarixi adabiyotlarda qanday yoritilganligi haqida ochib beriladi.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, Baqtriya, Sug'd, Avesto, V.V Bartold, V.M Masson, Esxil, Ktesiy, "Ming shaharlar davlati", "Bayroqlari doim baland hilpirab turadigan davlat"

Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanib borayotgan go'zal Vatanimiz tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Shu sababli biz har birimiz uchun Vatanimiz bosib o'tgan uzoq tarix yo'lini tarixiy dalillarga asoslangan holda bayon qilish, uning ochilmagan sahifalarini yoritish dolzarb muammoga aylangan.

Qadimgi Baqtriya davlatchilik tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Ahamoniylar davlati vujudga kelguniga qadar ushbu davlat bo'lgan yoki bo'lmaganligi xususidagi munozaralar tarix fanining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ahamoniylar imperiyasiga qadar Baqtriya podshohligining mavjud bo'lganligini "Bahlika" to'g'risidagi hind manbalari isbotlaydi. E.A. Grantovskiy ushbu qadimgi hind manbasining miloddan avvalgi V asrdan oldingi davrga oidligini aytib, "Bahlika" terminini Avestodagi "Baxtis", qadimgi fors manbalaridagi "Baxtris" yoki "Balx-Baxl" so'zlari bilan taqqoslaydi va ushbu termini ishonch bilan Baqtriya bilan bog'laydi. So'nggi yillarda ushbu manba

haqiqatdan ham Ahamoniylar imperiyasiga qadar Baqtriya podsholigining mavjud bo'lganligini ko'rsatadi⁴⁶.

Qadimgi yunon mualliflarining Baqtriya haqidagi ma'lumotlariga asoslanib, XIX va XX asrda qator olimlar (V.Geyger, E Raysh, T.Noldeke, J.Prashek keyinroq, V.V. Bartold, S.P. Tolstov, M.M. Dyakonov, V.M. Masson) O'rta Osiyoda Ahamoniylarga qadar Qadimgi Baqtriya davlat uyushmasi bo'lganligini qayd qiladilar.⁴⁷

Baqtriya geografik chegarasini janubda Hindikush, shimolda Sug'diyona, g'arbda esa Marg'iyonagacha belgilash mumkin. "Avesto" da Baqtriya (Baxdi) "bayroqlari (doim) baland hilpirab turadigan" ya'ni shon shavkat o'lkasi sifatida tilga olinadi. Yunon manbalarida Baqtriya "Ming shaharlar davlati" deb atalgan.

Gerodotning "Tarix" asarida Baqtriya xalqi tushunchasi ma'lum bir etnik birlikni birlashtirgan bo'lishi mumkin. Gerodotning ushbu asarida "Xalq" ma'nosini beruvchi "etnos" so'zi 145 marta tilga olinadi va faqat ikki joydagina bu so'z baqtriyaliklarga nisbatan ishlatiladi⁴⁸.

Gerodotdan avval "Baqtriya xalqi" tushunchasini Esxil o'zining "Forslar" degan tragediyasida yosh baqtriyalik jangchilardan Tenagon va Aritom kabi ismlar tilga olingan. Ular Salamin jangida halok bo'lib, shu orolda dafn qilingan. "Baqtriya xalqi halok bo'ldi" deb Esxil o'z asarida xulosa qilgan. Yana bir qadimgi tarixchi Strabon Baqtriyani "oriylar o'lkasining javohiri" sifatida ta'riflaydi.

Avestoning "Videvdot" kitobidagi ro'yxatda Baqtriyaning Sug'ddan keyin tilga olinishi, qadimgi fors yozuvlarida Sug'dning Baqtriyadan so'ng sanab o'tilishi, ular orasida hududiy chegara mavjudligi, O'rta Osiyo aholisining hududiy joylashuvi alohida daryolar, tog'lar, voxa va dashtlar bilan bog'langanligi haqida yoritilgan. Knidlik Ktesiy (mil.av. 430-354 y), sitsiliyalik Diodor (mil.av. 90-21 y) va boshqa antik davr mualliflarining bergan ma'lumotlarida aytilishicha, Baqtriya

⁴⁶ Эшов Б.Ж. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т.: "Янги аср авлоди", 2012. –Б.52.

⁴⁷ Аскарлов Ахмадали. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Т.: "Ўзбекистон", 2015. –Б.181.

⁴⁸ Сағдуллаев А. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. – Т.: "Ўқитувчи", 1996. –Б.35.

qadimda qudratli va boy davlat bo'lgan. Unga qarshi Ossuriya podshosi Nin hujum qilib, uning poytaxti Baqtra shahrini uzoq vaqt qamalda saqlaydi, ammo qal'ani ola olmaydi. Nihoyat, Semiramida (uning xotini) hiyla ishlatib, shahar qal'asiga kirib olgach, Baqtra shahri taslim bo'ladi. Jangda Baqtriya podshosi Oksiart halok bo'ladi, Nin Baqtriyaning juda boy oltin va kumushdan iborat xazinasini egallaydi. Bundan tashqari Ktesiy "Persika" asarida Qadimgi Baqtriya davlatining aholisi ko'p sonli bo'lganini, Baqtriyaning turli – tuman istehkomlari va qal'alari bo'lganligini yozib qoldirgan⁴⁹.

Mil.av.VII-VI asrlar Baqtriya jamiyatida hududiy bo'linish shakllanib, aholining o'troqlashuv jarayonlari yanada kuchayadi. Ko'hna shaharlar qishloq xo'jalik atroflariga ega bo'lib, qal'alar paydo bo'ladi, muhim savdo yo'llari bo'ylarida tayanch istehkomlar barpo etiladi. Turli binolar bunyod etishda mudofaa inshootlarning ahamiyati yetakchi o'rin egallaydi.

Adabiyotlar

1.Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Т .: “Ўзбекистон”, 2015. –Б.181.

2.Эшов Б.Ж.Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т .: “Янги аср авлоди”, 2012. –Б.52.

3.Сагдуллаев А. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. – Т .: “Ўкитувчи”, 1996. –Б.35.

4.Сагдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. – Т .: “Университет”, 2004. –Б.64.

⁴⁹ Сагдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. – Т .: “Университет”, 2004. –Б.64.

**AMERIKA QO'SHMA SHTATLARI VA O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI O'RTASIDAGI HAMKORLIK ALOQALARI
TARIXI (1991-2021 yy).**

A.M. Abduzokirov,

Tarix (yo'nalishlar va mamlakatlar bo'yicha) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: maqolada Amerika qo'shma shtatlari va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlik haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, hamkorlik, Amerika-O'zbekiston savdo palatasi, Nyu-Yorkda BMT Bosh Assambleyasi.

“O'zbekistonning yangi qiyofasi”—aynan ushbu sarlavha keyingi ikki yil davomida mamlakatimizda kechayotgan yangilanish jarayonlariga, amalga oshirilayotgan islohotlarga jahon hamjamiyati hamda yetakchi xorijiy davlatlar rahbarlarining e'tirofini o'zida to'liq aks ettirmoqda.

Darhaqiqat, o'tgan qisqa vaqt davomida jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida amalga oshirilgan tub o'zgarishlar mamlakatimizning yangi qiyofasini yaratib, xalqaro maydonda O'zbekistonning nufuzi va salohiyatini yanada oshirdi. Amalga oshirilayotgan islohotlarning dastlabki natijalari, mintaqamizda o'zaro ishonch va yaxshi qo'shnichilik munosabatlarining mustahkamlanishi, jahondagi rivojlangan davlatlarning mamlakatimizga bo'lgan qiziqishi va xayrixoxligini oshishiga sabab bo'ldi.

1992-yil 19-fevral kuni O'zbekiston va AQSh o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatilgan kun sifatida tarix sahifalariga bitilgan⁵⁰. Shu kuni ikki davlat tashqi siyosat mahkamalari o'rtasida xatlar almashinuvi o'zaro samarali hamkorlikning izchil rivojlanishiga zamin yaratdi.

Bugungi kunda O'zbekiston-AQSh muloqoti xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari va normalari, ikki davlatning suvereniteti, mustaqilligi va hududiy yaxlitligini hurmat qilish, bir-birlarining manfaatlari hamda demokratik qadriyatlarga sodiqligini hisobga olgan holda amalga

⁵⁰ Usmonov Q. O'zbekiston tarixi. Milliy istiqlol davri. -T.: “O'qituvchi”, 2003. –b. 86.

o'shirilmoqda. Mamlakatlar o'rtasidagi sermazmun siyosiy muloqotlar muvaffaqiyatli hamkorlikka xizmat qilmoqda.

2018 yil 15-17 may kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning AQShga birinchi rasmiy tashrifi bo'lib o'tdi va uning yakunlari bo'yicha O'zbekiston va AQSh o'rtasidagi strategik sheriklikning yangi davri boshlangani haqida qo'shma bayonot qabul qilindi.

2020 yil 2-3 fevral kunlari AQSh Davlat kotibi Maykl Pompeo O'zbekistonga tashrif buyurdi va Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilindi. Tashrif doirasida u Toshkentda bo'lib o'tgan «Markaziy Osiyo – AQSh» (C5 + 1) vazirlar uchrashuvida ham qatnashdi⁵¹.

Toshkent va Vashingtonda muntazam ravishda bo'lib o'tayotgan siyosiy maslahatlashuvlar chog'ida O'zbekiston-Amerika munosabatlariga oid dolzarb masalalar muhokama qilinmoqda.

AQSh Kongressi bilan hamkorlik O'zbekiston-Amerika munosabatlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. 2018 yil avgust oyida AQSh Kongressi Vakillar palatasida O'zbekiston bo'yicha Kokus shakllantirildi.

O'zbekiston Respublikasi va Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasidagi savdo munosabatlarini yanada rivojlantirish bo'yicha katta imkoniyat mavjud. O'zaro tovar ayirboshlash hajmi oxirgi paytda 61,2 foizga o'sdi va bu ko'rsatkich 2019 yil yakunlari bo'yicha 580 million dollardan oshgan. AQShning General Motors, Hyatt, Hilton, General Electric, John Deere, Boeing, Honeywell, Exxon Mobil, Coca-Cola va boshqa kompaniyalari O'zbekiston bilan faol hamkorlik qilib kelayotgani fikrimizni tasdiqlaydi.

1993 yilda tashkil etilgan Amerika-O'zbekiston savdo palatasi ikki mamlakat ishbiarmon doiralari o'rtasida samarali muloqotni amalga oshirishda muhim rol o'ynamoqda⁵². Ushbu tashkilot muntazam ravishda biznes forumlar va kooperatsion birjalarni o'tkazib, potensial sheriklar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqani mustahkalashga xizmat qilmoqda.

⁵¹ <https://www.gazeta.uz/oz/2020/11/21/usa-uzbekistan/>

⁵² O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'lida (Usmonov Q., G'aniev D.) -T., "O'zbekiston", 1994. –b. 102.

Amerika Qo'shma Shtatlari ko'pgina iqtisodiy hamda boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha sayyoramizdagi yetakchi mamlakat bo'lib qolmoqda: masalan, 2017 yil yakunlari bo'yicha yalpi ichki mahsulot 18 trillion dollardan oshdi. AQSh dunyoning eng diversifikatsiyalashgan postindustrial iqtisodiyoti bo'lib, unda yuqori ishlab chiqarish kuchiga ega innovatsiyalar tarmog'i ustun ahamiyatga egadir. Mamlakat ilmiy-texnikaviy taraqqiyot natijalarini industriyaga tatbiq etish, o'z kashfiyotlariga litsenziyalarni eksport qilish, ixtiro hamda eng yangi ishlanmalar borasida yetakchi davlat sanaladi. Amerika yalpi ichki mahsulotining katta qismi bir necha yillardan buyon xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlari hisobidan shakllanib kelayapti.

O'z navbatida, Markaziy Osiyoning yuragida joylashgan, mintaqaning barcha mamlakati va Afg'oniston bilan chegaradosh bo'lgan O'zbekiston izchil o'suvchan iqtisodiyot hamda katta iste'mol bozoriga va tabiiyki, barcha qo'shni davlatlar bozoriga chiqish yo'liga egadir. Arzon, biroq yuqori malakali ishchi kuchi hamda jadal rivojlanayotgan infratuzilmaga ega bo'lgan respublika o'ta istiqbolli sarmoyaviy sherik hisoblanadi.

Shuning uchun Toshkent va Vashington o'zaro munosabatlarda savdo-iqtisodiy almashuvlarni kuchaytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda. 1993 yildan buyon savdo munosabatlarida eng qulay sharoit yaratish rejimi amal qilayapti. 2006 yili imzolangan AQSh — Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida savdo va sarmoyalar bo'yicha doiraviy bitim (United States — Central Asia Trade and Investment Framework Agreement, TIFA) ham o'zaro amaliy aloqalarni rivojlantirishga ko'maklashayotir.

2017 yil sentyabr oyida Nyu-Yorkda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasi doirasida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev AQSh biznes doiralari vakillari bilan qator samarali uchrashuvlar o'tkazgani barobarida, Amerikaning yuzdan ziyod yetakchi kompaniyalari ishtirokida O'zbekiston — AQSh biznes forumida ham qatnashdi. Tadbir yakuni bo'yicha AQSh kompaniyalari bilan neft-gaz va neft-kimyó jabhasi, mashinasozlik, elektrotexnika

sanoati hamda fuqaro aviatsiyasi sohalarini qamrab olgan, umumiy qiymati 2,6 milliard AQSh dollariga teng bo'lgan yirik hujjatlar to'plami imzolandi. 2017 yil fevralda xuddi shunday biznes forumi Toshkentda ham o'tkazilgan edi.

Qo'shma dasturlar va turli jabhalardagi loyihalarni ilgari surishda Amerika — O'zbekiston savdo palatasining hissasini alohida aytib o'tish joiz. 1993 yili tashkil topgan mazkur assotsiatsiya ikki mamlakat ishbilarmon doiralari o'rtasida ishonchli ko'prik vazifasini o'tamoqda.

2019 yil iyun oyida Toshkentda birinchi marta AQSh savdo vaziri V.Rossning tashabbusi bilan 13 ta yirik Amerika kompaniyasi ishtirokida savdo vakolatxonasi tashkil etildi.

Davlatlarimiz o'rtasidagi madaniy va gumanitar hamkorlik ham izchil sur'atlarda rivojlanmoqda. Bu boradagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy hujjat— 2010 yilda qabul qiligan ilmiy-texnikaviy hamkorlik to'g'risidagi hukumatlararo bitimdir. Shuningdek, Toshkent va Sietl, Buxoro va Santa-Fe birodarlashgan shaharlar hisoblanadi.

Ta'lim sohasida O'zbekistondagi qator oliy ta'lim muassasalari J.Xopkins universiteti, Vashington, Indiana, Kaliforniya va Ogayo shtatlaridagi oliy o'qsv yurtlar bilan aloqalar o'rnatgan.

Ta'kidlash joizki, 2019 yil sentyabr oyida Toshkentda Webster universitetining filiali ochildi. Bu MDH mamlakatlaridagi Amerika universitetining birinchi to'laqonli filiali bo'ldi.

Shubha yo'qki, O'zbekiston hamda AQSh o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarning hozirgi darajasi tomonlar salohiyati va intilishlariga to'la javob bermaydi. Yaqinda Prezident Shavkat Mirziyoyevning Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining o'rta muddatli istiqbolda asosiy xorijiy sheriklar bilan tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy hamkorligini rivojlantirishdagi ustuvor yo'nalishlarda bu borada bir qator aniq-ravshan chora-tadbirlar ko'zda tutilgan.

Xususan, o'zbek iqtisodiyotini modernizatsiyalash, kadrlar tayyorlash hamda inson kapitalini rivojlantirish, jumladan, AQShning sarmoyaviy va

maslahat ko'magini jalb etish yo'li bilan respublikaning Jahon savdo tashkilotiga kirishi masalalarida Qo'shma Shtatlar bilan hamkorlikni kengaytirish nazarda tutilgan.

Xalqimiz hamda kelgusi avlod farovonligini ta'minlash yo'lida milliy iqtisodiy tizimni sifat jihatidan yangilash, tarmoqlarni jadal va barqaror rivojlantirish, ayniqsa, iqtisodiyotni yuqori texnologiyalar asosida ravnaq toptirish bo'yicha O'zbekiston ko'zlagan rejalar nazarda tutilganda, bularning barchasi naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Usmonov Q. O'zbekiston tarixi. Milliy istiqlol davri. -T.:, "O'qituvchi", 2003.
2. O'zbekiston Respublikasi: mustaqil davlatning bunyod bo'lishi. -T.:, "O'zbekiston", 1992.
3. O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'lida (Usmonov Q., G'aniev D.) -T.:, "O'zbekiston", 1994.
4. Lafasov M.F. O'zbekiston Respublikasining xalqaro aloqalari. -T.:, 2015.

JANUBIY KOREYA RESPUBLIKASI VA O'ZBEKISTON O'RTASIDAGI DIPLOMATIK MUNOSABATLAR TAHLILI.

O.U.Davronov

Tarix (yo'nalishlar va mamlakatlar bo'yicha)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Mamlakatimiz qadimdan Turon, Turkiston nomlari bilan mashhur bo'lib, ushbu o'lka ming yillar osha sharqu-g'arbni iqtisodiy-siyosiy, madaniy ijtimoiy jabhalarda bir-biri bilan bog'lab, yaqinlashtirib kelayotgan strategik ahamiyati beqiyos bo'lgan mashhur Karvon yo'llari tutashgan hududda joylashgandir. Bunday omil o'lka xalqlarining o'zlariga qo'shni bo'lgan, shuningdek uzoq hududladagi millat va elatlar bilan bevosita yaqinlashish hamda assimilyatsiya jarayoniga yo'l ochib berdi. Davlatlar va xalqlar o'rtasida savdo

ishlari bilan bir qatorda diplomatik, siyosiy aloqalar ham rivojlana bordi. Madaniyatlar almashinuvi, din, til jihatdan xalqlarning yaqinlashuvi har jabhada ko'zga tashlanadi. Shunday ekan bunday manfaatli aloqalar hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so'ng ham tashqi aloqalar qay darajada muhim ekanligi inobatga olinib O'zbekistonga qo'shni bo'lgan, shuningdek xorijiy hamda Osiyoning turli davlat va elatlari bilan yaqinlashish siyosati olib borilmoqda. Ayniqsa Osiyo xalqlari bilan manfaatlar mushtarakligi, til va din jihatdan yaqinlik bu davlatlar bilan tashqi aloqalarni mustahkamlashga katta yordam beradi. Buni birgina Osiyoning sharqida joylashgan Koreya misolida ko'rishimiz mumkin.

Koreya (koreyscha Choson — Tonggi tarovat) — Sharqiy Osiyodagi mamlakat. Asosan, Koreya yarim oroli va uning materikka tutashgan qismida hamda 3,5 mingga yaqin orolda joylashgan. Koreyani sharqdan Yapon dengizi, g'arbdan Sariq dengiz o'rab olgan janubdan Koreya bo'g'ozini Yaponiyadan ajratib turadi. Dengiz chegaralari 8,7 ming km. Shimolida Xitoy va Rossiya Federatsiyasi bilan chegaradosh davlatdir⁵³. Dunyodagi g'oyalar urushining ta'sir doirasiga tushib qolgan yaxlit Koreya davlati 1948-yilga kelib rasman ikki davlatga bo'lindi. Mamlakat hududi 38-paralleldan qoq ikkiga ajratilib ikki mustaqil davlatga ajraldi. Shu bilan bu ikki davlat ikki tomonga qarab keta boshladi. Davlatlarning nomlanishi ham juda antiqa. Janubiy Koreya rasman Koreya Respublikasi deb nomlansa, Shimoliy Koreya demokratiyadan asar bo'magan holda Koreya Xalq Demokratik Respublikasi (KXDR) degan jarangdor nomni bexijolat qabul qilib oldi. KXDR butunlay yopiq mamlakat boshqa davlat muxbirlari bu mamlakatda erkin faoliyat olib bora olmagani kamlik qilgandek, internet deyarli uzib qo'yilgan⁵⁴. Janubiy Koreya esa butun dunyo bilan do'stona diplomatik aloqalarni o'rnatib kelmoqda.

⁵³ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005). Birinchi jild. Toshkent-2000. B-608.

⁵⁴<https://kun.uz/uz/news/2018/11/25/korea-bir-millat-ikki-davlat-70-jillik-ziddiat>

Koreya Rerpublika 1991-yil 30-dekabrda Osiyo — Tinch okean mintaqasi davlatlari orasida birinchi bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini tan oldi. O‘zbekiston bilan Koreya Respublikasi o‘rtasida 1992-yil yanvarda diplomatiya munosabatlari o‘rnatilgandan keyin siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda keng hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yildi. Mamlakatimiz rahbari Islom Karimovning 1992, 1995, 1999-yillarda Koreya Respublikasi ga va Koreya Respublikasi prezidentining 1994-yilda O‘zbekistonga rasmiy tashriflari chog‘ida imzolangan hujjatlar o‘zaro hamkorlikning huquqiy poydevorini yaratdi. 1999-yilda o‘zaro tovar aylanmasi hajmi salkam 526,8 mln. AQSH dollariga yetdi. Koreya Respublikasi O‘zbekistondan paxta tolasi, ip gazlama, kalava ip, elektr asbob-uskuna, xom teri, ipak, kimyoviy o‘g‘it olib, O‘zbekistonga transport vositalari, elektr va mexanik jihozlar, qora metall, kauchuk va rezina mahsulotlari, bo‘yoqlar, turli xil jihoz va apparatlar, to‘qimachilik mahsulotlari yuboradi.

So‘ngi yillarda O‘zbekiston va Janubiy Koreya strategik hamkorligi yangi bosqichlarga kirib bormoqda, buning yorqin misolini O‘zbekiston Respublikasi president Sh. Mirziyoyev taklifiga binoan Koreya Respublikasi president Mun Chje In 2019-yil 18-aprel kuni davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi. Ushbu tashrif davomida Koreya Respublikasi prezidenti o‘z nutqida “Koreya Respublikasi Buyuk Ipak yo‘li tamadduni o‘chog‘i bo‘lgan O‘zbekistonga bo‘lgan qiziqishi toboro ortib bormoqda. O‘ylaymanki, o‘tgan yili joriy etilgan vizasiz tartib va bu yildan aviareyslar soni oshirilgani tufayli kelajakda fuqarolarimiz o‘rtasida bordi-keldi yanada ko‘payadi. Bundan tashqari, mamlakatimiz qadim an‘ana va madaniyatga ega. Umid qilamizki, bu o‘zaro almashinuvlar va muloqotni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi⁵⁵”-degan fikrlarida ham ko‘rishimiz mumkin. Mun Chji Inning ushbu davlat tashrifi doirasida tashkil etilga O‘zbekiston-janubiy Koreya biznes forumida Koreya Respublikasining 150ta kompanyasi va tashkilotidan 350 dan ortiq vakillar qatnashdi. Umumiy qiymati 12 milliard

⁵⁵ M.Elmuurodov. O‘zbekiston va Janubiy Koreya munosabatlari alohida strategik darajasiga ko‘tarildi: O‘zbekiston Respublikasi president Sh. Mirziyoyev taklifiga binoan Koreya Respublikasi president Mun Chje In 18-aprel kuni davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi// “Xalq so‘zi”. 2019-yil 20-aprel. 80-son.

dollardan ziyod bitim va kelishuvlarga erishildi. 2019-yil holati bilan Mamlakatimiz iqtisodiyotidagi Janubiy Koreya investitsiyalarining umumiy hajmi 7 milliard dollardan oshdi. Mamlakatlarimiz BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida bir-birini qo'llab-quvvatlab kelmoqda. O'zbekiston Koreya Respublikasining global xavfsizlikni ta'minlash borasida katta ahamiyatga ega bo'lgan, Koreya yarim orolidagi o'zaro hamjihatlikni mustahkamlashga yo'naltirilgan tinchliksevar siyosatini ma'qullab kelmoqda.

O'z navbatida, Koreya Respublikasi 2018-yilda O'zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan "Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash" hamda "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyalarini qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Bir so'z bilan aytganda bu ikki mamlakat o'rtadagi masofa qanchalik uzoq bo'lmasin bir-biri bilan qalban yaqin davlatlar deb atashimiz mumkin.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005). Birinchi jild. Toshkent-2000. –b.608.
- 2.<https://kun.uz/uz/news/2018/11/25/korea-bir-millat-ikki-davlat-70-jillik-ziddiat>
3. M.Elmurodov. O'zbekiston va Janubiy Koreya munosabatlari alohida strategik darajasiga ko'tarildi: O'zbekiston Respublikasi president Sh. Mirziyoyev taklifiga binoan Koreya Respublikasi president Mun Chje In 18-aprel kuni davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi// "Xalq so'zi". 2019-yil 20-aprel. 80-son.
4. Valeriy Xan. Koreya tarixi. T.: Baktrea press, 2013. -B.126.

QIRG'IZISTONDAGI O'ZBEKLAR: TARIXIY TAHLIL

Sh.Q.Ismoilov

Tarix (yo 'nalishlar va mamlakatlar bo 'yicha)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: O'zbek millati haqli ravishda sayyoramizdagi eng qadimgilardan biri hisoblanadi. O'zbekistonning o'ziga xos madaniyati sivilizatsiyalar avvalida shakllana boshlagan va ming yillar davomida jiddiy o'zgarishlarga duch kelgan. O'zbek xalq, O'zbekiston Respublikasi aholisining asosiy qismini tashkil etadi. Tarixiy manbalarda keltirilgan 92 o'zbek urug'lari nafaqat O'zbekiston hududida, balki butun O'rta Osiyo hududlarida tarqalgan. Bu 92 o'zbek urug'lariga mo'g'ullar istilosidan oldingi va istilo davrida hamda shayboniylar davrida kelgan etnik guruhlar ham kiradi⁵⁶. Shuningdek, O'rta Osiyoda qadimdan yashab kelayotgan chig'il, yag'mo, usun, tuxsi, xalach va boshqalar turkiy etnik guruhlar ham 92 o'zbek elati tarkibiga kirgan⁵⁷.

O'zbeklar nafaqat O'zbekiston, balki O'rta Osiyodagi eng ko'p sonli xalqdir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra 2021-yil holatiga ko'ra O'zbekistonda (36 million), Tojikistonda (2,5 million ko'proq), Qirg'izistonda (2.5 million kishi), Qozog'istonda (600 mingdan kishi), Turkmanistonda (900 mingdan ko'proq) kishi yashaydi. Bundan tashqari, Afg'onistonda (8 milliondan 9 milliongacha), Rossiyada (800 ming kishi), Saudiya Arabistonida (550—600 ming kishi), Xitoyda (13 ming kishi, 1998-yil), Turkiya, Olmoniya, AQShda ham o'zbeklar yashaydi. O'zbeklarning umumiy soni 45-50 milliondan ortiq (2022 yil 15-may). O'zbeklar o'zbek tilida so'zlashadilar. O'zbeklar turli davrlarda tarixning turli shart-sharoitlari, injiqliklari natijasida turli mamlakatlarga tarqalib ketgan yoki azal-azaldan O'rta Osiyoning turli mintaqalarida yashab kelmoqda. Buning yorqin misoli o'zbeklar Qirg'izistonning asosan janubiy qismlarida azaldan yashab kelgan. Tarixda janubiy qirg'izistonning siyosiy iqtisodi, madaniy sohalarida o'zbeklar katta o'rin tutgan. O'shning 3000 yillik tarixini oladigan bo'lsak har bir davrda o'z

⁵⁶ Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. –Тошкент, 2001 й. 86-бет

⁵⁷ Ўзбегим. – Тошкент, 1992 й. 115-бет

o'rniga ega. Miloddan keyingi arablarni olamizmi yoki Temuriylar davlatini olamizmi, Qoraxoniylar davrini olamizmi Qo'qon xonligini. O'zbeklarning bu erdagi tarixiy me'moriy obidalari talaygina yaqin tarixdagi o'zbek halqining qahramoni shox va shoir davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur O'sh shahri markazidagi sulaymon tog'ining choqqisiga o'zining hujrasini bunyod qilgan va O'sh shahriga tez-tez kelib turgan. Bu erda ijod ham qilgan o'zining „Boburnoma“ asarida shunday deydi O'sh shahri Andijondan 40 charirim uzoqlikda joylashgan shahar aholisi mehmon do'st, savdogor, hunarmand deydi. O'sh aholisining milliy tarkibi haqida lom-lum demaydi chunki bunga hojad bo'lmagan Andijon aholisi singari hammasi o'zbeklar bo'lgan negaki Boburni hechqanday to'aqinliklarsiz kutib olgan va hechqanday ixtiloflar bo'lmagan. Bobur etti uxlab tushiga kirmagan hozirgi holatlar o'zbeklarning bo'linib ketishi. Qirg'iziston O'zbeklari aholining ko'pligi bo'yicha ikkinch o'rinni egallaydi⁵⁸. 1924-yil O'rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishi o'tkazilishi natijasida 1924-yil 14-oktabrda RSFSR tarkibida Qoraqirg'iz muxtor viloyati tashkil etildi, ungacha bo'lgan davrda janubiy Qirg'iziston Qo'qon xonligiga qarashli bo'lgan. 1925-yil 25-mayda Qoraqirg'iz muxtor viloyati Qirg'iz muxtor viloyatiga, 1926-yil 1-fevraldan Qirg'iziston ASSR ga, 1936-yil 5-dekabrda SSSR tarkibidagi ittifoqdosh respublikaga aylantirildi. 1990-yil dekabrda Q. Respublikasi deb ataldi. 1991-yil 31-avgustda respublika Oliy Kengashi Q.ni mustaqil, suveren, demokratik davlat deb e'lon qildi. 1993-yil 5-maydan Qirg'iz Respublikasi deb nomlandi. Ruslarning 1920-yillarda olib borgan statitikasiga qaraganda birgina O'sh shahrining aholisi 90 % o'zbeklar, qolgani ruslar bo'lgan⁵⁹.

Sovetlar chizgan chegaralar bois bugun millionlab o'zbeklar qo'shni mamlakatlarda ozchilik millatga aylanib qolishgan.

Qayerdadir odamlar bundan xursand, boshqa joyda doimiy qo'rquv ostidalar. Uchinchi bir yurtdagi o'zbeklar o'z huquqlari uchun kurashishmoqda,

⁵⁸Qirg'iziston etnik tarkibi: ruslar kamaymoqda, o'zbeklar ko'paymoqda, archived from the original on 2016-06-04

⁵⁹Русский язык как этнокоммуникативный компонент дву- и многоязычия в Кыргызстане / Орусбаев А.. — Бишкек: КРСУ, 2003. — С. 12, 60-61. — 226 с. (rus.)

qaysi birida esa O'zbekiston davlatining chetdagi o'zbeklar taqdiriga bu qadar bee'tiborligini tushunolmay hayratdalar.

Markaziy Osiyodagi barcha hukumatlar bugun yetakchi millat nomi, madaniyati, tili va qadriyatlari asosida yangi mustaqil davlatchilikni tuzatish va mustahkamlashni yo'lga qo'yimoqdalar. Bu esa ko'p millatli ayni yurtlarda azaldan yashab kelgan, biroq endi aqalliyatga aylangan milliy jamoalarni dabdurustdan o'z yurtida ikkinchi darajali fuqarolarga aylantirib qo'ydi. Bu esa o'sha xalqlar orasida yashayotgan ozchilik xalqlarda ertangi kunga bo'lga ishonchning kamayishiga, o'z taqdiridan qo'rqich yashash kabi holatlarni keltirib chiqarmoqda. Bu fikrlarga ko' ham misollar qidirmasdan 20210-yil voqealarini eslash kifoya qiladi.

2010 yilning iyun oyi Qirg'izistonning janubi O'sh va Jalolobod tumanlarida. Mahalliy qirg'izlar va o'zbeklar o'rtasida etnik mojaro chiqdi. "O'sh voqealari" nomi bilan tarixga kirgan ushbu nizo oqibatida 500 ga yaqin inson halok bo'ldi. Jarohatlanganlar soni mingdan, qo'shni O'zbekistonga qochib o'tganlar soni esa yuz mingdan oshdi. Bundan tashqari 3,5 mingdan ortiq ko'chmas mulk vayron qilindi. Shundan atiga 275 tasi davlatga tegishli, qolgan katta qismi esa mahalliy aholining boshpanasi edi⁶⁰.

Adabiyotlar

1. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. –Тошкент, 2001 й. 86-бет
- 2.Ўзбегим. – Тошкент, 1992 й. 115-бет
- 3.Qirg'iziston etnik tarkibi: ruslar kamaymoqda, o'zbeklar ko'paymoqda, archived from the original on 2016-06-04
- 4.Русский язык как этнокоммуникативный компонент дву- и многоязычия в Кыргызстане / Орусбаев А.. — Бишкек: КРСУ, 2003. — С. 12, 60-61. — 226 с. (rus.)

⁶⁰ <https://qalampir.uz/uz/news/ush-vok-ealari-uzbeklar-k-irgini-uchun-k-amalishi-mumkin-bulgan-otunbayeva-uzi-kim-37520>

5.<https://qalampir.uz/uz/news/ush-vok-ealari-uzbeklar-k-irgini-uchun-k-amalishi-mumkin-bulgan-otunbayeva-uzi-kim-37520>

O'ZBEKISTONNING MINTAQAVIY XAVFSIZLIK BORASIDA SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI BILAN ALOQASI

D.T.Jabborova,

Tarix(yo'nalishlar va mamlakatlar bo'yicha)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda Shanxay hamkorlik tashkilotining tashkil topishi va uning O'zbekiston bilan mintaqaviy tinchlikni taminlash borasidagi o'zaro harakatlari haqida bayon etiladi.

Kalit so'z :Shanxay hamkorlik tashkiloti [SHHT], Shanxay ruhi, terrorizm, ekstrimizm, Mintaqaviy aksilterror tashkiloti[MATT], geosiyosat

O'zbekiston mustaqillikka erishgach o'z konstitutsiyasi, gerbi, bayrog'I va madhiyasiga ega bo'ldi. Chunonchi o'zining ichki va tashqi siyosatidagi yo'lini ham tanlab oldi va shu yo'lda og'ishmasdan rivojlanib va yuksalib bormoqda.O'zbekiston tashqi siyosati haqida so'z borar ekan SHHT haqida gapirmaslikning iloji yo'q chunki bu tashkilot nafaqat O'zbekiston tashqi siyosatiga balki mintaqa hayotiga uzviy bogliqdir⁶¹. Zero SHHT ga ishonch O'zbekistonning birinchi prezidenti Islom Karimov g'oyalarida ham o'z aksini topgan. "Aminmanki, SHHT ning keying muvofaqiyatli rivojlanishi birinchi navbatta mintaqa , aholisi farovonligining barqaror o'sishini taminlash borasida real, aniq, va amaliy natijalarga erishishga qaratilgan maqsadlarimizga bog'liq. Mintaqadagi xalqlar bizning hamkorlikdagi harakatlarimiz mevalarini tatib ko'rgan taqdirdagina, SHHT tashkilot sifatida yanada jozibador bo'ladi"⁶². Marhum prezidentimizning ushbu fikrlari yil sayin o'zining nechog'li haqiqat ekanligini isbotlab kelmoqda. Mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev SHHT haqida tashkilot o'z taraqqiyotining prinsipal jihatdan yangi bosqichda ekanligini va

⁶¹ Nuriddinov E O'zbekiston:eng yangi tarix. -T.:Asr.2010.568- bet

⁶² Karimov I.A.Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga,hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq.Tom12.2004.342-bet

umumiy qadriyatimiz, birgalikda rivojlanishga intilishimiz, madaniyatlar xilma xilligiga hurmatimiz ifodasi sifatida “Shanxay ruhiga” alohida to'xtalib o'tgan va uning ahamiyati bugun har qachongidan dolzarbligini aytgan. Chunki hozirgi integrallashuv davrida bu nihoyatda muhimdir.

Shanxay hamkorlik tashkiloti bu- mintaqaviy xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlik masalalari bilan shug'ullanuvchi 2001- yil 15-iyunda Qozog'iston, Rossiya, Xitoy, O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston davlat rahbarlarining uchrashuvida tuzilgan tashkilotdir. Bu tashkilotning poydevori dastavval Qozog'iston, Xitoy, Tojikiston, Rossiya va Qirg'iziston davlat rahbarlari uchrashuvida vujudga kelgan “Shanxay beshligi” tashkilotiga borib taqaladi⁶³. Ushbu beshlikdan SHHT tuzulgunigacha bo'lgan davr oralig'ida ham salmoqli ishlar amalga oshirilgan, Jumladan 1996- yilda chegaradosh mamlakatlar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlash, 1997-yil qo'shma chegarada qurolli kuchlar va qurol-yarog'larni qisqartirish haqida bitimlar imzolangan bo'lsa, 1998-yildan yuqorida namlari zikr etilgan mamlaktlar o'zaro hamkorlikda mintaqaviy xavfsizlik va ko'p tomonlama iqtisodiy hamkorlikni taminlashga alohida e'tibor bera boshladilar.

Shanxay hamkorlik tashkilotining asosiy maqsad vazifalarini quyidagilar tashkil etadi:

-a'zo davlatlar ortasida o'zaro do'stlik, ishonch va yaxshi qo'shnichilik muhitini mustahkamlash ;

-siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy, shuningdek, xavfsizlik, energetika, transport, turizm, atrof-muhitni muhofaza qilish

-boshqa ustuvor sohalardagi samarali hamkorlikni rivojlantirishdan iborat;

O'zbekiston tashqi siyosatida SHHT sari dastlabki qadamlar “Shanxay beshligi” tashkilotining 2000-yil Tojikistonning Dushanbe shahrida bo'lgan sammitida kuzatuvchi sifatidagi ishtirokidan boshlanadi. Ushbu sammitda Shanxay beshligi negizida ko'p jabhalarni o'zida mujassam etgan tashkilot tuzish to'g'risida

⁶³ Vatan mustaqilligi biz uchun-kuch qudrat va ilhom manbai, tarraqiyot va farovonlik asosi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2021-yil 31-avgustda so'zlagan maruza. www.prezident.uz

takliflar o'rtaga tashlandi. O'zbekiston ham o'z miliy manfaatlaridan va Markaziy Osiyo mintaqasidagi harbiy- siyosiy vaziyatni inobatga olib SHHT ta'sischilaridan biri sifatida ishtirok etish to'grisida qaror qabul qilqdi va 2001-yil iyun oyida Shanxayda bo'lgan sammitda O'zbekiston ham SHHT ga a'zo bo'ladi. Aynan shu sammitda SHHT ning maqsad va prinsiplarini o'z ichiga olgan deklaratsiya va Terrorizm, ayirmachilikva ekstremizmga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiya qabul qilindi. Ushbu konvensiyaning O'zbekiston va unga mintaqadosh davlatlar a'zo bo'lgan tashkilot tomonidan qabul qilinishi bu sohadagi masuliyatlarini yana bir karra oshirdi desak bo'ladi. Mintaqaviy tinchlikni ta'minlash tashkilotning asosiy vazifalaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Shu asnoda 2004-yil 1-yanvardan Toshkentda Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi tashkil etildi. Bu tuzilma almashish, chegara va bojxona qo'mitalarining, maxsus xizmatning hamkorligini muvofiqlashtirish vazifalarini bajaradi. Tuzilma tarkibida kengash va ijroqo'm faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, kengashga 6 davlat maxsus xizmatlari rahbarlarining vakillari kiritilgan. Ijroqo'mda esa o'zaro tasdiqlangan lavozim o'rinlariga muvofiq SHHT ga a'za davlatlardan vakillar ishlaydi. Bu tuzilma qizqacha qilib MATT deb ham aytiladi. O'zbekiston mintaqadagi tinchlikva osoyishtalikka juda jiddiy qarashi 2004-yildagi sammitda SHHT ga Afg'oniston rahbarining ilk bor mehmon sifatida taklif etish haqidagi tashabbusida yana bir bor namoyon bo'ldi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki ulkan iqtisodiy geosiyosiy salohiyatga ega davlatlarning bir tashkilot atrofida birlashishi kelajak uchun juda keng imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga tashkilotning nufuzini va xalqaro obro'sini oshirib mintaqada xavfsizlikni taminlashda ijobiy omil bo'lib xizmat qiladi. O'ylaymanki kelajakda SHHT ning tarkibi, qamrovi yanada ortib nafaqat mintaqada balki dunyoda tinchlikni taminlashga hissa qo'shadigan tashkilotga aylanadi.

Adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2016-y

2.Karimov.I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq.Tom 12.2004.342-bet

3.Vatan mustaqilligi biz uchun-kuch qudrat va ilhom manbai, tarraqiyot va farovonlik asosi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2021-yil 31-avgustda so'zlagan maruza.www.prezident .uz

4.Nuriddinov E. O'zbekiston: eng yangi tarix. -T:Asr.2010.568-580 betlar

BUXORO VA SIBIR XONLIGI SAVDO-IQTISODIY MUNOSABATLARDAGI ASOSIY MAHSULOTLAR

R.R.Raxmatov,

Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turlari bo'yicha)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi Sibir xonligi, uning Buxoro bilan mavjud bo'lgan vaqtdagi siyosiy jarayonlar, ular o'rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlar va savdo munosabatlaridagi asosiy savdo mahsulotlari tarixiy manbalar asosida ilmiy tahlil qilinib, atroflicha yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Sibir xonligi, Buxoro, Kuchumxon, arxeologik tadqiqotlar, savdo, mol ayrboshlash, tayyor va yarim tayyor mahsulotlar, savdogarlar

Buxoro va Sibir xonligi o'rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlar Kuchumxon hukumronligi davrida kuchayib, Sibir xonligi qulagandan keyin ham qariyb ikki asr mobaynida buxoroliklar Sibir hududlaridagi savdo-iqtisodiy aloqalarda asosiy ustun mavqega ega bo'lganlar. Savdodagi asosiy mahsulotlar esa, har ikki mintaqada mavjud iqlimiy-mintaqaviy xususiyatlardan kelib chiqib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasidan kelib chiqib tayyorlangan mahsulotlar tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Tyumen va Sibir xonliklari hududlari asosan cho'l-dasht, o'rmon-dasht va o'rmonli hududlardan iborat bo'lganligi uchun, ushbu hududlarda yashagan aholining ma'lum bir xo'jalik turlarga

ixtisoslashganligi va ichki, tashqi savdoda yuritgan xo'jalik turidan kelib chiqib mahsulot tayyorlaganligini ko'rishimiz mumkin⁶⁴. Masalan, Sibir xonligi hududlarida savdo-sotiq munosabatlaridagi asosiy mahsulotlar chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik, ovchilikning ma'lum bir tarmoqlari asosiy xo'jalik turlaridan kelib chiqib tayyorlangan. Chorvachilikning yirik va mayda tuyoqlilari (qoramol, qo'y, echki), bug'uchilik va shunga ixtisoslashgan hunarmandchilik xo'jalik turlari, dehqonchilikning bug'doy va arpa yetishtirish sohalari ovchilikning asosan mo'yna va charm berishga ixtisoslashgan turlari, shuningdek, baliqchilik rivojlanganligi tarixiy adabiyotlarda keltirib o'tilganligining guvohi bo'lish mumkin⁶⁵.

Sibirda ovchilik va cho'l-dasht mintaqalarida chorvalikning asosiy xo'jalik tarmoqlari ekanligi sababli, charm mahsulotlardan tashqari ovlangan yoki uy xo'jaligi hayvonlari suyaklaridan tayyorlangan hunarmandchilik mahsulotlari ham savdo-sotiq ishlarida asosiy o'rinda turgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan it, sharqiy Sibir bug'usi, yovvoyi to'ng'iz, ayiq, bo'ri, tulki, suv qunduzi suyaklaridan tayyorlangan hunarmandchilik buyumlari ichki va tashqi savdoda ko'plab foydalanilgan mahsulotlar bo'lganligi manba va adabiyotlarda keltirib o'tilgan⁶⁶.

Sibir hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi, tovar-pul shaklidan ko'ra, ayrboshlash orqali savdo-sotiqni amalga oshirish birinchi darajada turganligini ko'rishimiz mumkin. Ayrboshlash mahsulotlari barcha xo'jalik turlari bilan shug'ullanuvchilar bilan amalga oshirilgan bo'lsada, ovchi xo'jaliklar bilan doimiy ravishda ayrboshlash usuli qo'llanilgan deb hisoblashga barcha asoslar mavjud. Mol ayrboshlash mahsulotlari sifatida asosan ayiq, tulki, bo'ri kabi yovvoyi-yirtqich hayvonlar terisi, turli jonivorlar terisi (birinchi navbatda bug'u)ga, shuningdek, olmaxon, quyon kabi

⁶⁴ Самигулов, Г.Х. Южное Зауралье (первая треть XV- конец XIX века) / Г.Х. Самигулов, Д.Н. Маслюженко, М.В. Моисеев // История Южного Урала: в 8 т. Т. 6. Челябинск: Издательский центр ЮУрГУ, 2019. – С. 33.

⁶⁵ Вилков О.Н. Ремесло и торговля Западной Сибири в XVII в. - М.: Наука, 1967. – С. 127.

⁶⁶ Вилков О.Н. Ремесло и торговля Западной Сибири в XVII в. - М.: Наука, 1967. – С. 167., Файзрахманов Г.Л. История сибирских татар (с древнейших времен до начала XX века). Казань, Изд-во "Фэн", 2002. – С. 63.

mayin mo'ynali jonivorlar mo'ynasiga, otlar va hunarmandchilik mahsulotlariga ayrboshlanganligi tarixiy adabiyotlarda bir necha marta keltirib o'tilganligini ko'rishimiz mumkin⁶⁷.

Buxoro xonligi hududlarida Sibirdan olib ketiladigan mahsulotlarning turlari u qadar ko'p bo'lmaganligi tarixiy adabiyotlarda qayd etib o'tilgan. Shuningdek, Buxoroning Sibir hududlari bilan savdo qilishi o'ta foydali ham bo'lganligi qayd etilgan. Olib ketilayotgan mahsulotlarning asosiy qismini teri (hali ishlov berilmagan charm) mahsulotlari va bir qismini ishlov berilgan charm mahsulotlari tashkil etgan. Bundan tashqari turli momiq yungli jonivorlarning (olmaxon, quyon, tulki, korsar, suvsar) mo'ynalari Buxoroda tayyorlanadigan chakmon va xalatlarning yoqasi engiga tikish uchun, bosh kiyimlari tayyorlash uchun olib ketilgan bo'lsa, oziq-ovqat mahsulotlaridan baliq Sibirda ko'p ovlansa-da asosan ichki savdoda foydalanilgan. Uzoq va issiq havoda baliqning buzilib qolishi tashqi savdo uchun muhim ahamiyatga ega bo'lmaganligini ko'rsatadi. Oziq-ovqat mahsulotlaridan Sibir o'rmonlari mahsulotlari bo'lgan o'rmon yong'og'i, maymunjon, malina kabi mevalarining quritilganlari olib ketilgan⁶⁸.

Sibir hududida daryo va ko'llar ko'p bo'lib, ularda baliq va turli ov qilinadigan jonivorlar ko'p bo'lgan. Baliq va baliqchilik (qisqichbaqa, qunduz, suvsar) mahsulotlari ko'plab ovlangan. Baliq nafaqat oziq-ovqat mahsuloti, balki savdoda ayrboshlash vazifasini ham bajargan⁶⁹. Ammo, Sibirdan baliq mahsulotlarini Buxoroga qadar olib kelishning imkoniyati deyarli bo'lmagan.

Sibirdan asosan qayta ishlanmagan va yarim ishlangan savdo-hunarmandchilik mahsulotlari Buxoroga olib ketilgan bo'lsada, Buxorodan ham Sibir hududlariga ko'plab mahsulotlar olib kelingan. Sibir hududlarida to'qimachilik sohasining u qadar rivojlanmaganligi, to'qimachilik mahsulotlari,

⁶⁷ Самигулов, Г.Х. Южное Зауралье (первая треть XV- конец XIX века) / Г.Х. Самигулов, Д.Н. Маслюженко, М.В. Моисеев // История Южного Урала: в 8 т. Т. 6. Челябинск: Издательский центр ЮУрГУ, 2019. – С. 287.

⁶⁸ Файзрахманов Г.Л. История сибирских татар (с древнейших времен до начала XX века). Казань, Изд-во “Фэн”, 2002. – С. 328.

⁶⁹ Вилков О.Н. Ремесло и торговля Западной Сибири в XVII в. - М.: Наука, 1967. – С. 201., Файзрахманов Г.Л. История сибирских татар (с древнейших времен до начала XX века). Казань, Изд-во “Фэн”, 2002. – С. 143.

turli gazlamalarni Sibir erlariga etib sotishdan buxorolik savdogarlar katta foyda olganlar. Tarixiy manba va adabiyotlarga tayanib, tadqiqotchilar Sibir xonligi hududlariga buxorolik savdogarlar asosan turli to'qimachilik matolari va zeb-ziynat buyumlari olib kelib sotishdan katta daromad olishlarini keltirib o'tganliklariga oid ma'lumotlarni uchratish mumkin⁷⁰.

Sibir hududlari tarixi bilan shug'ullangan G.N.Potanin keltirgan ma'lumotlarning birida, Sibirda yashovchi bir shaxsning Buxorodan kelgan savdogardan sotib olgan narsalari ro'yxati keltirilgan bo'lib, ushbu ro'yxat ham Buxoro savdogarlarining Sibirga olib borib sotgan mahsulot turlarini aniqlab olishga imkon beradi. Demak buxorolik savdogardan sibirlik shaxs sotib olgan mahsulotlar; 7 arshin (0,71 sm ga teng uzunlik o'lchovi) qizil movut, 7 ta ot egari ostidan tashlanadigan xitoy matosi, bir pub chakmon uni, 3 ta ipak kalava, chakmon, ot, chelak va korsak (cho'l-dasht hududlarida yashovchi tulkingning turi) sotib olingan⁷¹. Ushbu ro'yxatdan ham anglash mumkinki, Buxorodan asosan Sibirga ipak va paxta matosi materiallari, zeb-ziynat buyumlari olib borib sotilgan. Ammo, bizning fikrimizcha bu mahsulotni oddiy sibirlik aholi sotib olishi qiyin bo'lib, buxorolik savdogarlar asosan o'rtahol va yuqori tabaqa vakillari ehtiyoji uchun xizmat qiladigan mahsulotlarni keltirib sotganlar deb xulosa qilish imkonini beradi. Sibirga buxorolik savdogarlar olib keladigan mahsulotlarning barchasi ham Buxoroda tayyorlanmagan. Buxoroga kelgan boshqa mamlakat savdogarlari yoki o'zlari boshqa mamlakatlarga borib olib kelgan mahsulotlarni ham buxoroliklar Sibir hududlariga yuqori foyda ko'rish uchun olib kelib sotganlar. S.S.Tixonov izlanishlarida bu xususda to'xtalib o'tilgan bo'lib, Buxoro savdogarlari Hindistondan oltin va kumush mahsulotlari va ma'danlarini, Buxoro va Eron hududlaridan tanga pullari, matolarning turli tumanlari, ya'ni oddiy paxta matosidan to'qilgan materiallar, yarim ipak kimxob matolar, sarpardalar, qora va

⁷⁰ История, экономика и культура средневековых тюрко-татарских государств Западной Сибири : материалы IV Всероссийской (национальной) научной конференции (Курган, 30–31 октября 2020 г.) / отв. ред. Д. Н. Маслюженко, С. Ф. Татауров. – Курган: Изд-во Курганского гос. ун-та, 2020. – С. 9.

⁷¹ Потанин Г.Н. Материалы для истории Сибири. – М.: В Университетской Типографии, 1867. – С. 18. – 338 с.

kulrang Buxoro qorako'li, Badaxshon feruza toshlari (minerali), Hindiston dokalari, ipak va yarim ipak kimxob va zarbof matolar kam miqdorda bo'lsada Sibirning yuqori tabaqa vakillari uchun keltirilgan⁷².

Buxoro xonligi hududlarida xo'jalikning chorvachilik, dehqonchilik va hunarmandchilik turlari rivojlanganligi sababli, Sibirga olib boriladigan mahsulotlar ham aynan shu xo'jalik turlari asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar tashkil etgan. Sibir hududlari va qozoq dashtlari orasida qatnovchi mahalliy sibirlik savdogarlar Buxoroda etishtiriladigan tuyalarga ehtiyojlari katta bo'lgan.

Buxorolik savdogarlarga imkoniyat yaratilishini H.Ziyoev quyidagicha izohlaydi: "Sibir savdo yo'lining uzoqligi va noqulayligi tufayli Rossiyaning markaziy joylari bilan iqtisodiy jihatdan yaxshi bog'lanmagan edi. Buning ustiga Rossiya o'zining chekka o'lkalarini jumladan, Sibirni zarur mollar, ayniqsa, gazlama, kiyim-kechaklar bilan etarli darajada ta'minlashga qodir emasdi"⁷³.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Buxoro va Sibir xonliklari mavjud bo'lib turgan davrlarda ikki mintaqa o'rtasida savdo munosabatlari rivojlanib, asosiy savdo mahsulotlari sifatida mintaqalarning iqlimiy va tabiiy sharoitidan kelib chiqib yuritilgan xo'jalik turlari va ularda etishtiriladigan mahsulotlar bo'lgan. Shu sababli, Buxoroga qayta ishlanadigan yoki yarim qayta ishlanadigan mahsulotlar ko'plab kelgan bo'lsa, Sibirga asosan zeb-ziynat buyumlari, ipak va paxtadan to'qilgan turli matolar olib ketilgan. Sibirni Moskva davlati istilo qilish jarayonida Buxoro savdogarlariga ehtiyoj oshib, ularni Sibirdagi imtiyozli qatlamga aylanishiga va yanada ko'plab buxoroliklarni Sibirga borib o'rnatishlariga zamin hozirlagan.

Adabiyotlar

⁷² Тихонов С.С. Великая и малая Бухарии и русские города Западной Сибири в XVII-XVIII веках. // Средневековые тюрко-татарские государства. 2018. № 10 – С. 96.

⁷³ Зиёев Ҳ. Сибирий, Волга ва Урал бўйларидаги ўзбеклар (Энг қадимги даврлардан XX аср бошларигача)=Ўзбеки в Сибири, Повольже и Приуралье (С древних времен до начала XX века) / Масъул муҳаррир: А.Шарафуддинов. – Т.: Шарқ, 2003. – Б. 21.

Самигулов, Г.Х. Южное Зауралье (первая треть XV- конец XIX века) / Г.Х. Самигулов, Д.Н. Маслюженко, М.В. Моисеев // История Южного Урала: в 8 т. Т. 6. Челябинск: Издательский центр ЮУрГУ, 2019. – С. 33.

Вилков О.Н. Ремесло и торговля Западной Сибири в XVII в. - М.: Наука, 1967. – С. 127.

Вилков О.Н. Ремесло и торговля Западной Сибири в XVII в. - М.: Наука, 1967. – С. 167., Файзрахманов Г.Л. История сибирских татар (с древнейших времен до начала XX века). Казань, Изд-во “Фэн”, 2002. – С. 63.

Самигулов, Г.Х. Южное Зауралье (первая треть XV- конец XIX века) / Г.Х. Самигулов, Д.Н. Маслюженко, М.В. Моисеев // История Южного Урала: в 8 т. Т. 6. Челябинск: Издательский центр ЮУрГУ, 2019. – С. 287.

Файзрахманов Г.Л. История сибирских татар (с древнейших времен до начала XX века). Казань, Изд-во “Фэн”, 2002. – С. 328.

Вилков О.Н. Ремесло и торговля Западной Сибири в XVII в. - М.: Наука, 1967. – С. 201., Файзрахманов Г.Л. История сибирских татар (с древнейших времен до начала XX века). Казань, Изд-во “Фэн”, 2002. – С. 143.

История, экономика и культура средневековых тюрко-татарских государств Западной Сибири : материалы IV Всероссийской (национальной) научной конференции (Курган, 30–31 октября 2020 г.) / отв. ред. Д. Н. Маслюженко, С. Ф. Татауров. – Курган: Изд-во Курганского гос. ун-та, 2020. – С. 9.

ANTIFASHISTIK KOALITSIYANING TASHKIL TOPISHI

(1941-yil 22-iyundan 1-oktabrgacha davr oralig`ida)

M.M.Qurbanov

Tarix (yo`nalishlar va faoliyat turlari bo`yicha)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ikkinchi jahon urushi 1939-yil 1-sentabrda Germaniya Polshaga bostirib kirdi, 3-sentabrda Angliya va Fransiya Germaniyaga urush e`lon

qilishdi. 1939-yil sentabrdan 1941-yil iyunga qadar Germaniya Polsha, Daniya, Lyuksemburg, Belgiya, Niderlandiya, Fransiyaning katta qismini bosib olgan edi. Germaniya fashistik hukumatini yakson qilishga qodir kuchlar mavjud bo`lsa-da, ammo ular birlashmadi. Natijada Buyuk Britaniya, AQSH, SSR o`z davlatlarining tichligini saqlash maqsadida Germaniya bilan aloqalarining yomonlashmasligi uchun pasifistik siyosat yuritishdi. Shunday bo`lsa-da, Germaniyaning SSRga ham hujumi bu uch davlatni yaqinlashishiga, ittifoq tuzib antifashistik koalitsiya tuzishga undadi. Tom ma`noda Germaniya SSRga qilgan hujumi natijasida o`ziga o`zi unga qarshi chiqqan kuchlarning ittifoqini tuzilishiga zamin yaratdi.

Kalit so`zlar: “Oq reja”, antifashistik koalitsiya, diplomatik yozishmalar, “Atlantika xartiyasi”, London konferensiyasi, deklaratsiya, ittifoq, shartnoma, kelishuv, Moskva konferensiyasi, kollabaratsionizm.

Tarix noaniq fan bo`lib, bir qarashda hech qanday o`ziga xos jozibaga ega emasdek ko`rinadi. Ammo vaqt o`tishi bilan bizning tarix to`g`risidagi tasavvurlarimiz o`zgarishlarga uchraydi. Inson psixologiyasi konservativ bo`lib, dastlabki o`rgangan bilimlarimizni, qarashlarimizni o`zgartirishni istamaymiz va buni ko`p hollarda majburan amalga oshiramiz. Tarixiy haqiqatga yetishishimiz uchun ayrim hollarda inson ishonmaydigan faktlarni izlab topishimiz zarur. Bunga mavjud obyektlarga boshqa burchakdan qarashimiz kerak. Ushbu maqolamda Ikkinchi jahon urushida antifashistik koalitsiyaning vujudga kelishining yangi qirralarini izlab topishga harakat qildim. 1939-yil 11-aprelda Gitler boshchiligidagi hukumat Polshani bosib olish uchun “Oq reja” nomli maxfiy kod ostida reja tuzishdi va uni Gitler tasdiqladi. “Oq reja” ga ko`ra Polsha qisqa vaqt ichida bosib olinishi kerak edi. Berlinda Polshaning ittifoqchilari hisoblangan Angliya va Fransiya amalda hech qanday yordam ko`rsata olmasliklariga ishonchlari komil edi. 1939-yil 31-avgust kechasi Gimler buyrug`iga ko`ra provokatsiya uyushtirilib, Germaniyaga tegishli bo`lgan Gleyvis shahridagi radiostansiya polyak askarlari tomonidan bosib olinib, polyaklarni Germaniyaga qarshi umumiy urushga chaqirdi deb jahon ommasiga murojaat qilishdi. 1939-yil 1-sentabrda soat 04:45 daqiqa

o'tganda nemis-fashist qo'shinlari Polsha hududiga hujumga o'tdi⁷⁴. 1941-yil 22-iyundan to 1941-yil oktabr oyiga qadar bo'lgan davr SSR, Angliya va AQSH davlatlari o'rtasida o'zaro munosabatlarning iliqlashishi va antifashistik koalitsiyasining vujudga kelishida alohida ahamiyat kasb etdi. 1941-yil 22-iyun soat 03:07 daqiqada Qora dengiz floti admiral S.K.Timoshenko dengiz tomonidan begona samolyotlar uchib kelayotgani haqida harbiy bo'limga xabar beradi. 03:30 daqiqada G'arbiy okrug shtabi boshlig'i general V.Ye.Klimovskiy Belarussiya hududiga nemis aviatsiyasi hujumi haqida xabar beradi.⁷⁵ Germaniyaning urush e'lon qilmay SSR hududiga bostirib kirishi natijasida antifashistik koalitsiyaning vujudga kelishi uchun qulay vaziyat vujudga keldi. Fashistik Germaniyaning hujumi boshlangach, ushbu xabar Angliyaga yetib borishi bilan bosh vazir U.Churchill SSRni har tomonlama qo'llab-quvvatlashini ma'lum qildi. 1941-yil 22-iyun soat 12 kunduzgi vaqtda SSRning Angliyadagi elchisi I.M.Mayskiy Angliya harbiy vaziri R.E.Iden bilan uchrashadi. Uchrashuv paytida R.E.Iden I.M.Mayskiyga Angliya bosh vaziri U.Churchill bilan uchrashganligini va U.Churchill Germaniyaning SSRga urush e'lon qilishi vaziyatni o'zgartirmasligi, aksincha, urushga qat'iy kirishish vaqti kelganligini, Fransiyani egallab turgan nemis qo'shinlarini ayamay bombardimon qilinayotganligini, hujum natijasida 29 ta nemis mashinasi yo'q qilinganligini, SSRga yordam berish maqsadida g'arbiy frontda aviatsiya hujumlarini kuchaytirish orqali sharqiy frontdan nemis qo'shinlarini chalg'itishni, shu orqali SSRga yordam berishini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, Angliyaning SSRdagi elchisi hisoblanmish St.Kripps I.M.Mayskiyga qo'ng'iroq qilib, Angliya har qanday iqtisodiy va harbiy yordam berishga tayyor ekanligini, bu to'g'risida SSR murojaat yuborishi bilanoq ushbu masalani ko'rib chiqish uchun istalgan vaqtda uchishga tayyor ekanligini ma'lum qiladi⁷⁶.

1941-yil 22-iyun kechasi U.Churchill radiodan chiqish qildi – “Biz oldimizga yagona maqsad qo'yganmiz . Biz Gitler va fashistik hukumatni to'liq

⁷⁴ В. В. Курасова.Всемирная История. Т. X. М: Мысль, 1965. С. 17-18.

⁷⁵ Г.К.Жуков. Воспоминания и размышления. М: Агентство печати Новости, 1985. С. 8.

⁷⁶ Документы внешней политики. 22 июня 1941 — 1 января 1942. Т. XXIV / Министерство иностранных дел Российской Федерации. — М.: Междунар. отношения, 2000. С.10.

yo`q qilishga ahd qildik. Hech narsa bizni bu yo`limizdan qaytara olmaydi. Hech narsa. Biz hech qachon muzokaralar olib bormaymiz, biz hech qachon Gitler va uning bandalari bilan muzokaralar o`rnatmaymiz..... biz natsizmga qarshi kurashayotgan har qanday insonga va davlatga yordam beramiz..... shu asnoda, Rossiyaga va rus xalqiga qo`limizdan kelgan barcha yordamni ko`rsatishga tayyormiz. Biz barcha dunyodagi do`stlarimizni biz tanlagan yo`lni tanlashlarini va undan og`ishmay, qat`iy qadam bilan oxirigacha borishlarini so`rab qolamiz”⁷⁷.

U.Churchill vujudga kelgan siyosiy vaziyat o`ta qaltis ekanligini to`kik tushunib yetgan edi. Antikommunizm tarafdori bo`lgan U.Churchill vaziyatni to`g`ri baholab, SSR bilan yaqinlashish siyosatini yuritdi va bu Angliyani halokatdan saqlab qolgan tashqi siyosatdagi eng to`g`ri yo`l edi. O`z chiqishida U.Churchill –“Gitler SSRni mag`lub etmoqchiligining sababi shundaki, agar SSRga qarshi urushda g`alaba qozonsa, barcha asosiy qo`shinini va aviatsiyasini sharqiy frontdan olib bizning orollarga tashlashni ko`zlagan. U bu rejasini qishgacha amalga oshirmoqchi va AQSH floti va aviatsiyasi yordamga yetib kelgunga qadar Angliyani bosib olmoqchi... Shuning uchun SSRga solinayotgan xavf bu Angliyaga va AQSHga solinayotgan xavfdir ,”⁷⁸ – deb ta`kidlaydi. Aslini olib qaraganda, Angliyaga va uning domenionlariga, koloniyalariga fashistik Germaniya tomonidan xavf solinmaganida, u hech qachon SSR bilan yaqinlashmagan, SSR bilan fashistik Germaniyaga qarshi ittifoq tuzmas, hatto AQSHni SSRga yordam berishga undamas edi. Xavfli raqibga qarshi kurashda Fransiya, Niderlandiya, Belgiya kabi davlatlarning yordamidan ayrilib qolgach, Angliya yakkalanib qoldi. Bunday vaziyatda unga SSR bilan dunyo bozorlarini egallashda asosiy raqibi bo`lmish AQSH bilan ittifoq tuzish havodek zarur edi.

Bir paytning o`zida AQSHda ham insonparvar kuchlar antifashistik koalitsiyani tashkil etish, fashizmga qarshi kurashishda yakka-yakka tartibda emas, balki birgalikda hamjihatlikda kurashish kerakligini tushunib yetgan kuchlar ham

⁷⁷ Герберт Фейс Черчилль. Рузвельт. Сталин. Война, которую они вели, и мир, которого они добились «Центрполиграф», 2003. С.8.

⁷⁸ История дипломатии. Т. 4. М., 1975. С. 186.

bor edi. AQSH dengiz harbiy vaziri F.Noks F.D.Ruzveltga 1941-yil 23-iyunda yozgan xatida – “Gitlarga 6 haftadan 3 oygacha Rossiyani egallashiga vaqt ketadi. Mening nazarimda biz bu uch oylik vaqtdan unumli foydalanib, Germaniyaga qaqshatgich zarba berishimiz zarur, qancha tez biz hujum boshlasak, shuncha yaxshi,”—deb yozgan edi. Bu fikrni AQSH harbiy kuchlari boshqarmasi ham qo'llab-quvvatlaydi, harbiy vazir G.Stimson, ichki ishlar vaziri G.Ikes , moliya vaziri G.Morgentaular ham qo'llab - quvvatladilar. G.Ikes 23-iyunda F.D.Ruzveltga yozgan xatida – “Agar biz hoziroq jangga kirishmasak, bizning navbatimiz yetganda yakka o`zimiz, biror bir ittifoqchisiz qolishimiz mumkin,”—deb yozgan edi. 23-iyun kuni AQSH hukumati nomidan davlat kotibi S.Uelles : “AQSH hukumatining fikriga ko`ra, gitlerizmga qarshi har qanday kurash, har qanday birlashgan kuch, ularning kelib chiqishidan qat`iy nazar german hukumatining qulashiga olib keladi, bu esa bizning himoyamiz va xavfsizligimizni ta`minlaydi. Gitler armiyasi hozirgi paytda Amerika kontinenti uchun asosiy xavf hisoblanadi,- deb ta`kidlagan edi. 24-iyunda F.D.Ruzvelt o`z chiqishida AQSH SSRga yordam berishga tayyorligini bildirdi. AQSHning Moskvadagi sobiq elchisi Josef Devis, Ruzveltning sodiq tarafdorlari bo`lmish senator Pepper, Smit, Grinlar SSRni qo'llab-quvvatlashni so`rab Ruzveltga murojaat qilishadi. Senator Pepper 22-iyunda : “Prezident ertagayoq SSRga qarzga yoki ijaraga qurol-aslaha yetkazib berish to`g`risida qonunni qabul qilishi kerak. Biz Gitlerni yakson etishimiz darkor, aks holda u bizni yakson etadi” –deb ta`kidlaydi. Senator Grin : “Gitlarning SSRga hujumi Germaniyaning SSR bilan imzolagan shartnomalari hech narsaga arzimasligini AQSHga isbotladi. SSRga hujumi bizni Germaniya bilan hech qanday shartnoma imzolash kerak emasligiga o`rgatdi. Biz SSRga Germaniyaga qarshi urushda har qanday choralar bilan yordam berishimiz shart,” – deb ta`kidlagan edi. 1941-yil 24-iyunda AQSH hukumati SSRning pul fondi qayta ochilganligini ma`lum qildi. 26-iyulda “neytralitet” to`g`risidagi qonun SSRga joriy etilmasligini ma`lum qiladi. Bu SSRga harbiy qurol-aslaha, texnika-texnologiyalarni kreditga yoki naqd pul evaziga xohlagancha sotib olish huquqini

berar edi. 1941-yil 29-iyunda Moskvaga harbiy-strategik qurollarni, texnikalarni yetkazish masalasini muhokama qilish uchun AQSHning SSRdagi elchisi Steyngard keladi. SSR AQSHdan qanday qurollar kerakligi qayd etilgan ro'yxatni Vashingtonga yuboradi. Natijada, 1941-yil iyul oyida AQSHdan SSRga 6.5 mln.doll miqdordagi tovarlar yuboriladi. 1941-yil Ruzvelt SSRga darhol katta miqdordagi harbiy-texnik qurollarni yuborilishi haqida buyruq berdi. 31-iyulda sovet missiyasini Ruzvelt kutib oldi. Qurol-aslaha ta'minotiga bag'ishlangan muzokaralar natijasida AQSH SSRga 200 dona "P-40" rusumli qiruvchi samolyotlarni yetkazishga va'da berdi. Ushbu muzokarada uch davlat o'rtasida konferensiya tashkil etish zarurligi masalasi ham ko'rib chiqildi⁷⁹. 2-avgustda SSRning AQSHdagi elchisi K.A.Umanskiy va AQSH davlat kotibi vazifasini bajarayotgan S.Uelles o'rtasida AQSH-SSR savdo shartnomasini u imzolangan 1937-yil 4-avgustdagi shartlari asosida yana 1942-yil 6-avgustga qadar uzaytirish haqida notalar almashinildi. 1941-yil 4-avgustda SSR rahbari I.V.Stalin AQSH prezidenti F.Ruzveltga xabar yuboradi. Unda Angliyaning Finlyandiyaga ta'sir o'tkazganligi sababli fin hukmron doiralari orasida Germaniyadan uzoqlashish va neytralitet e'lon qilish masalalari ko'rib chiqilayotganligini aytadi. Shu munosabat bilan F.Ruzveltdan Finlyandiyaga AQSH ham o'z ta'sirini o'tkazsa, Finlyandiya SSR bilan yarashishini, chegara hududlardagi da'volari voz kechishini aytib murojaat qiladi⁸⁰.

Angliya ham bu paytda SSR bilan faol elchilar almashti. 1941-yil 8-iyulda Angliya SSRga S.Krippsni elchi qilib yuboradi. S.Kripps Stalin bilan uchrashadi. Uchrashuv davomida har ikkala tomon o'z takliflarini muhokama qilishadi⁸¹. 1941-yil 12-iyulda SSR va Buyuk Britaniya o'rtasida Germaniyaga qarshi urushda birgalikda harakat qilish to'g'risida shartnoma imzolanadi. SSR va Buyuk Britaniya o'rtasida quyidagi shartlar asosida shartnoma imzolandi: 1. Har ikkala davlat gitlerchilar Germaniyasiga qarshi hozirgi urushda bir-biriga yordam

⁷⁹ История дипломатии. Т. 4. М., 1975. С. 187-188-189, 198-199-200..

⁸⁰ Документы внешней политики. 22 июня 1941 — 1 января Д63 1942. Т. XXIV / Министерство иностранных дел Российской Федерации. — М.: Междунар. отношения, 2000. С.214-215.

⁸¹ А.Д.Богатуров. Системная история международных отношений. Т. I. М., 2000. С. 242.

berishga va har qanday vosita bilan qo'llab-quvvatlash majburiyatini olishadi. 2. Har ikkala davlat urush davomida Germaniya bilan muzokaralar olib bormaslikka, tichlik shartnomasini o'zaro kelishmay turib, separat shartnoma imzolamaslik majburiyatini olishadi⁸².

1941-yil 9-12-avgust kunlari Nyufaunlend orolidagi Arjentiya buxtasida AQSH prezidenti F.Ruzvelt va Angliya bosh vaziri U.Cherrill o'rtasida imzolangan "Atlantika xartiya"si antifashistik ittifoqning vujudga kelishida turtki bo'ldi. Unda har ikkala davlat urushdan so'ng hech qanday yangi hududlarga da'vo qilmasligini, o'z davlatlarining chegaralarini kengaytirishga harakat qilmaslik majburiyatlarini olishdi. Urushda fashistik davlatlar ustidan g'alaba qozonish uchun barcha davlatlar birlashish kerakligi, g'alabadan so'ng xalqlarning suveren huquqlari ta'minlanishi, ularning hududlariga daxl etmaslik, xalqlarga o'zlari istagan davlat boshqaruv tizimini tanlash huquqini berishni, erkin dengiz savdosi bilan shug'ullanishni va shu orqali kam rivojlangan xalqlarning iqtisodiy o'sishining ta'minlanishi, xalqaro erkin savdo-sotiq munosabatlarini o'rnatishni, chegaralarning daxlsizligini ta'minlash masalari xartiyada o'z aksini topdi. SSR 1941-yil 24-sentabrda Londonda tashkil etilgan Ittifoqchilar konferensiyasida "Atlantik xartiyani" imzoladi.⁸³ Shundan so'ng uch ittifoqchi davlat 1941-yil 29-sentabrdan 1-oktabrga qadar Moskva konferensiyasiga yig'ilishdi. Ushbu konferensiyada AQSH va Angliya o'zlariga SSRga harbiy-texnika, qurol-aslaha, ishlab chiqarish uskunalari yetkazib berish mas'uliyatini olishdi. Bu majburiyat 1942-yil 30-iyunga qadar bajarilishi o'zaro kelishib olindi. Unga ko'ra, har oy SSRga 500 ta tank va 400 ta samolyot yetkazilish belgilandi. SSR ham o'z navbatida ittifoqchi davlatlarga xomashyo mahsulotlarini yetkazish majburiyatini oldi. AQSH 1941-yil 7-noyabrda SSRga 1 mlrd.doll ga teng summada AQSHdan qurol-aslaha sotib olishi uchun qarz yoki ijara(lend-liz)ga foizsiz pul ajratish to'g'risida qonunni imzoladi⁸⁴. Moskva konferensiyasi 1941-yilda imzolangan va

⁸² А.Д.Богатуров. Системная история международных отношений. Т. II. Документы. М., 2000. С. 207.

⁸³ История дипломатии. Т. 4. М., 1975. С. 206-207-209.

⁸⁴ История дипломатии. Т. 4. М., 1975. С. 210-211-212-213.

antifashistik koalitsiyani vujudga kelishida asos bo'lib xizmat qildi. Bu uch davlat umumiy dushmanga qarshi birgalikda kurashishda yakka holda emas, jamoa bo'lib kurash yo'lini tanlashi 2-jahon urushi tarixida tub burilish yasadi. Umumiy dushmanga qarshi kurashish va g'alaba qozonish maqsadi bu uch davlatni birlashtirdi. Germaniyaning SSRga hujumidan so'ng butun dunyo demokratik kuchlari nafaqat o'z davlatining mustaqilligi uchun kurashish, balki SSRni himoya qilish uchun kirishishdi. 1941-yil iyun-oktabr oylarida olib borilgan yozishmalar, uchrashuvlar natijasida antifashistik koalitsiya vujudga keldi. Bu koalitsiyaga 50 dan ortiq davlatlar qo'shilishdi. Ular o'z mustaqilligi yo'lida kollabaratsionistik siyosatdan voz kechib AQSH, SSR va Angliyaga qo'shilib, umumiy dushmanga qarshi urushga amaliy kirish vaqti yetganini tushunib yetishishdi. Bu uch davlat o'rtasidagi koalitsiya nafaqat o'z davlatlarini, balki shu negizda butun dunyoni fashizmga qarshi kurashga ruhlantira oldi. Antifashistik koalitsiyaning maqsadi fashistlar Germaniyasi va uning ittifoqchilarini tezda mag'lub etish, fashizmni yo'q qilish, SSR hududini, Yevropa xalqlarini fashistik qullikdan ozod etish, har bir davlatning suverenitetini tiklash va mustahkamlash edi va u o'z maqsadiga erishdi.

Adabiyotlar:

1. В. В. Курасова.Всемирная История. Т. X. М: Мысль, 1965. С. 17-18.
2. Г.К.Жуков. Воспоминания и размышления. М: Агенство печати Новости, 1985. С. 8.
3. Документы внешней политики. 22 июня 1941 — 1 января Д63 1942. Т. XXIV / Министерство иностранных дел Российской Федерации. — М.: Междунар. отношения, 2000. С.10, 214,215.
4. Герберт Фейс Черчилль. Рузвельт. Сталин. Война, которую они вели, и мир, которого они добились «Центрполиграф», 2003. С.8.
5. История дипломатии. Т. 4. М., 1975. С. 186, 187, 188, 189, 198, 199, 200, 206, 207, 209, 210, 211, 212, 213.

6. А.Д.Богатуров. Системная история международных отношений. Т. I. М., 2000. С. 242.

7. А.Д.Богатуров. Системная история международных отношений. Т. II. Документы. М., 2000. С. 207.

“AVESTO”DA DEHQONCHILIK AN’ANALARI

M.M.Yo‘ldoshev

BuxDU magistranti

M.B. Qurbonova.

BuxDU, t.f.n, dotsent

Annotatsiya: Maqolada “Avesto”asarida dehqonchilik an’analari va ularning tavsifi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: “Avesto”, sivilizatsiya, yerning meliorativ holati, bahorgi shudgor, magik niyat

Tarixdan ma’lumki, insoniyat sivilizatsiyasining qadimgi markazlari paydo bo’lishi va rivojlanishida dehqonchilik madaniyati muhim omil bo’lgan. Dunyo sivilizatsiyasining qadimiy markazlaridan biri bo’lgan Sharqda dehqonchilik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi sug’orma dehqonchilikka asoslanganligi bilan ajralib turadi. Avestoshunos olim A. O. Makovelskiyning yozishicha, "vastriofishuyant" iborasi yasalishiga ko‘ra murakkab so‘z bo‘lib uning birinchi tarkibiy kismi yirik shoxli qoramol cho‘poni, ikkinchi qismi esa mayda shoxli chorva cho‘poni ma’nolarini bildirgan. Ushbu ikki so‘zning qo‘shilishidan keyinchalik dehqon so‘zi paydo bo’lgan". "Vendidod" va "Visperad"ning alohida qismlarida yerga ishlov berish, ekin ekish, yerning meliorativ holatini yaxshilashga oid qator yo‘l-yo‘riqlar bayon qilingan. Jumladan, "Vandidod"ning uchinchi fargardi, 4-bandida Zardushtning Axura Mazdaga qarata "zamini hammadan ko‘ra baxtiyorroq bo’lgan dunyodagi uchinchi joy qayer?" — degan savoliga javob tariqasida Axura Mazda: "Ey Sipiytmon Zardusht! Bunday joy bir Ashavan hammadan ko‘ra ko‘proq bug’doy, yog’ va mevali daraxtlar ekan, odamlar quruq yerlarga suv chiqargan, suvli yerlarni shudgor qilgan zamindir"- deb javob bergan.

Shuningdek, "Vendidod"da ta'kidlanishicha, uzoq vaqt ekilmagan va omoch tegmagan zamin baxtsizdir. U omochni orzu qiladi. Bunday zamin balog'at pallasiga kirgan sohibjamol qizdir. Bu oila qurish, qiz farzand ko'rishni xoxlagani singari, haydalmagan yer ham qo'shchini kutadi".⁸⁵

Xalqimiz dunyoqarashi va dehqonchilikka oid an'anaviy xo'jalik mashg'ulotida hozirgacha ushbu qarashlar bilan bog'liq ayrim ko'rinishlar saqlanib qolgan bo'lib buni bevosita etnografik ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Jumladan, o'zbeklarda yerni haydash, uni ekishga tayyorlash, suv keltirish, zamin bag'rida yetishtirilgan hosilni yig'ib olish savob, dehqonchilik eng sharaflilik mashg'ulot hisoblanadi. Ayniqsa, dehqonchilik mavsumini boshlanishi o'ziga xos tantana tarzda nishonlangan bo'lib, XX asrning birinchi choragigacha respublikamizning qator mintaqalarida bahorgi shudgor oldidan "is chiqarish" marosimi o'tkazilgan. Har bir oilada ayollar bo'g'irsoq cho'zma ("is") pishirishgan. Qozonda moy yaxshi qizitilib, so'ngra unga xamir tashlangan. Go'yoki, marhumlar shu moy qizishini eshitib, ruhlari shod bo'lishib, qarindosh-urug'larga omad tilashadi. Yerni haydashdan oldin ho'kizlarning shoxlari va bo'yinturig'ini yog' bilan moylaganlar. Ho'kizlarni yomon ko'zdan asrasin, deb tumorlar taqilgan. Keksalarning ta'kidlashlaricha, mazkur odat zaminida uning shoxlari moylanib, baquvvat bo'lgan ho'kiz yil bo'yi hormay-tolmay ishlasin, - degan magik niyat mujassamlashgan. Dastlabki egat olish yoki urug' sepishni oila yoki qishloqdagi hurmatli keksalar boshlab berishgan.

"Avesto"da yozilishicha, "kimda-kim bug'doy eksa, u Ashaxni (Haqiqat) ekadi. U Mazda dinini yana va yana ko'kartiradi. U Mazda dinini yuzlab hamdu sano, nazru niyoz va o'n minglab qurbonliklar quvvatlantirgandek qudratli qiladi. Qachonki egatlarda urug' yetilsa, devlar o'rinlaridan ko'chadilar. Qachonki bug'doy gurkirab ko'karsa devlar daxshatlardan titray boshlaydilar. Qachonki bug'doy un bo'lsa, devlar nola chekadilar. Qachonki bug'doy xirmonga uyulsa,

⁸⁵ «Avesto». Gohlar. Yasna. 51-goh. A.Mahkam tarjimasi. -T.: Sharq, 2001.98-b.

devlar nobud bo'ladilar. Qay bir xonadonda bug'doy bosh chiqarsa u xonadonga devlar yaqinlasha olmaydilar. Qay bir xonadonda bug'doy ombori bo'lsa go'yo qizdirilgan temir devlar bo'ynini chirmab tashlaydi".⁸⁶ Ko'rinadiki, "Avesto" paydo bo'lgan davrda g'alla ekish, don yetishtirish, umuman, dehqonchilik madaniyati yetarli darajada rivojlangan ekan.

Biz o'zbek xalqining an'anaviy turmush tarzi bilan bog'liq qarashlar va marosimlarni kuzatar ekanmiz, yer, don va nonga bo'lgan o'ziga xos hurmat-ehtiromni turli-tuman udumlar va marosimlarda hozirgacha saqlanib kelayotganligini ko'rishimiz mumkin. Farg'ona vodiysi o'zbeklari orasidagi xalqona qarashga ko'ra bug'doy, olma, qovun, anjir va rayhon dastlab jannatda o'sgan. Shu bois ushbu o'simliklar va mevalar doimo e'zozlangan. Ayniqsa, xalq orasida erga bug'doy sepish eng xayrli amallardan biri sanalgan va bug'doy ekilgan maydonlarni oyoq osti qilish gunoh hisoblangan. Qolaversa bug'doydan tayyorlanadigan taomlar ham alohida qadrlangan. Jumladan, bahorda ilikuzildi paytida ayollar tomonidan namlangan bug'doyni ko'klatib sumalak tayyorlash va qolaversa bir marta sumalak tayyorlangan uyda yetti yil mobaynida har yili bir marta sumalak pishirish udumlari hozirgacha davom etib kelmoqda. Shu o'rinda xalqimizning nonga bo'lgan hurmat-e'tiborini alohida ta'kidlab o'tishimiz lozim. Asosiy xo'jalik mashg'ulotlaridan biri dehqonchilik bo'lgan o'zbek xalqida non azaldan asosiy va tansiq iste'mol mahsulotlaridan bo'lishi bilan birga non bilan bog'liq qator marosimlar va urf-odatlar shakllangan. Jumladan, non hech qachon oyoq ostiga tashlanmagan. Nonni bosish og'ir gunoh hisoblangan. Bundan tashqari kelinni kuyovnikiga kuzatishda boshiga non qo'yish odati bo'lgan. Farg'ona vodiysi o'zbeklari qadimiy odatga ko'ra g'alla somonini hech qachon o'choq va tandirga yoqishmagan. Chunki donni-nonni yoqish og'ir gunoh deyiladi. Axborotchilarimizning ta'kidlashlaricha, non bor joyga turli ins-jinslar va yovuz kuchlar yaqinlashmas ekan. Shu bois yomon ko'zdan, yovuz kuchlardan asrovchi vosita sifatida, yangi tug'ilgan chaqaloqni yoki xatna qilingan bolaning yostig'i

⁸⁶ H. Homidov. "Avesto" fayzlari. – T.: 2001.96-b.

ostiga boshqa qator magik xususiyatga ega buyumlar bilan birga non qo'yilgan. Xorazmda non bo'laklarini tumor qilib taqilgan va non uchun xamir tayyorlab qo'yilgan yerga (masalan, tandir oldiga) jin, parilar yaqinlashmaydi deyiladi.

Shunday qilib, "Avesto"da mehnat faqat moddiy ne'matlarni yaratish manbai sifatida nazarda tutilmasdan, balki insonga manfaat, foyda, obro'-izzat, rohat-farog'at keltiradigan mo'jiza nuqtayi nazaridan baholanadi. Shuning uchun ham ajdodlarimiz noz-ne'mat vositalari-chorva mollari go'sht-sut berish, ulardan turli-tuman oziq-ovqatlar tayyorlash mumkinligi, terisi kiyim-bosh vazifasini o'tashi, bug'doy va boshqa o'simliklar tayyor oziq-ovqat o'rniga o'tishi bilan qimmatli ekanligini tushunib yetganlar.

Adabiyotlar

H. Homidov. "Avesto" fayzlari. – T.: 2001.

«Avesto». Gohlar. Yasna. 51-goh. A.Mahkam tarjimasini. -T.: Sharq. 2001.

YEVROPA ITTIFOQINING GERMANIYA TASHQI SIYOSATIDA TUTGAN O`RNI

R.N.Tursunov,

O`ZMU, tarix fanlari nomzodi, dotsent

X.X.Nishonova,

BuxDU, Tarix (faoliyat va turlar bo'yicha).

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Germaniyaning Yevropa Ittifoqidagi rolini o'rganishga nazariy yondashuv, Ittifoqdagi yetakchi mavqei haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Germaniya, Yevropa Ittifoqi, xalqaro taraqqiyotga ko'maklashish, tashqi siyosat.

Yevropa Ittifoqi — Yevropaning 27 davlatidan iborat siyosiy va iqtisodiy birlashmadir. Uning tarixi 1957-yilga, 6 Yevropa davlatlari orasida imzolangan Rim bitimi va undan so'ng paydo bo'lgan Yevropa Iqtisodiy Hamkorligiga borib

taqaladi. Yevropa Ittifoqi 1992-yilda imzolangan Maastrixt shartnomasiga binoan tuzilgan va 15 davlatni o'z ichiga olgan. 2005-yilda Ittifoqning birinchi yirik kengayishi yuz berdi. Unda Ittifoqga 10 ta yangi davlatlar qo'shildi. Ikki yildan so'ng ular soniga Bulg'oriston hamda Ruminiya davlatlari qo'shib, hozirgi davrga qadar Yevropa Ittifoqi 27 davlatlardan iborat.

Yevropa Ittifoqining muhim hamda yirik a'zolaridan biri - Germaniya Federativ Respublikasidir. Qit'adagi eng ko'p aholiga ega va ayni paytda Evropaning markazida joylashgan iqtisodiy jihatdan kuchli davlat sifatida birlashgan Germaniya, birinchi navbatda, Evropa integratsiyasi jarayonida ishtirok etishdan va ularni yanada rivojlantirish va kengaytirishdan manfaatdor.

Jonli Yevropa Germaniyaning milliy manfaatlariga javob beradi. Integratsiya jarayoni tinchlik, farovonlik va xavfsizlik uchun munosib asos ekanligini isbotladi. Yagona siyosat tufayli Germaniya o'zi uchun kuchli sheriklar topdi, shuningdek, dunyoda hurmat va obro'ga erishdi. Nemislar uchun qo'shnilar va butun dunyo bilan tinch manfaatlar muvozanatini saqlash Yevropa integratsiyasining muvaffaqiyatli retseptiga aylandi.⁸⁷

2007-yilning birinchi yarmida Germaniyaning Yevropa Ittifoqiga raisligi buni yana bir bor ta'kidladi. Federal kansler Merkel va tashqi ishlar vaziri Shtaynmayer institutsional inqirozni yengish uchun Yevropadagi vakolat va ishonchdan mohirona foydalangan. Germaniya Lissabon shartnomasi uchun asos yaratdi va Yevropa Ittifoqining qarorlar qabul qilish, Yevropa Ittifoqi siyosati va institutlarini shakllantirish qobiliyatiga oid muhim masalalar bo'yicha barcha Yevropa Ittifoqi davlatlarining ma'qullanishini ta'minladi.

Yevropa Ittifoqida barcha a'zo davlatlar navbatma-navbat raislik qiladi va bunday rahbarlik muddati hamma uchun bir xil - olti oy. Biroq, Germaniyaning Yevropa Ittifoqining boshida turgani bu uyushma uchun odatiy hol emas, aksincha, ahamiyatli.

⁸⁷ А. Синдеев Двусторонние отношения США и ФРГ: из прошлого в будущее (дата обращения – 14.12.2019)

Gap shundaki, Germaniya Yevropa Ittifoqidagi eng qudratli va nufuzli davlatdir. Birinchidan, bu birlashgan Yevropadagi eng ko'p aholiga ega mamlakat. Germaniya aholisi 82 million kishi. - Yevropa Ittifoqi fuqarolarining oltidan bir qismini tashkil qiladi. Ikkinchidan, Germaniya Yevropadagi eng kuchli iqtisodiyotga ega. Germaniyaning yalpi ichki mahsuloti 3 trillion dollardan oshadi va faqat AQSh iqtisodiyoti (YaIM - 10 trillion dollar) va Yaponiya (YaIM - 6 trillion dollar) hajmi jihatidan kattaroqdir.⁸⁸

Uchinchidan, Germaniya Yevropa Ittifoqining donor davlatidir. Uning Yevropa byudjetidagi ulushi eng katta bo'lib, mamlakat nemislar ishonganidek, birlashgan Yevropa g'aznasiga ko'p to'laydi, lekin kam oladi. To'rtinchidan, Yevropa integratsiyasining boshida turgan Germaniya integratsiya jarayonlarini boshqarishda ulkan tajribaga ega va boshlangan raislik uning tarixidagi o'n ikkinchisi bo'ladi.

Germaniyaning Yevropa Ittifoqiga raisligining olti oylik dasturi doirasida iqtisodiyot, ijtimoiy xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida Lissabon o'sish strategiyasini amalga oshirishni davom ettirish YeI faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Jumladan, ichki bozorni yaratishni yakunlash kabi jihatlar; raqobatbardoshlikni va innovatsiyalar imkoniyatlarini oshirish; o'sish va barqarorlikka yo'naltirilgan moliyaviy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirish; teng imkoniyatlarni ilgari suruvchi Yevropa ijtimoiy modelini yanada rivojlantirish; yangi ish o'rinlarini yaratish; samarali boshqarish va keraksiz ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish; barqaror energiya ta'minoti; tadqiqot, bilim va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash; atrof-muhit muhofaza qilish; integratsiyalashgan dengiz siyosatini ishlab chiqish.

Yevropa siyosiy hamkorligi rivojlanganidan beri Germaniyaning Yevropa Ittifoqidagi vazifalaridan biri Yevropa Ittifoqining jahon siyosatidagi rolini oshirishdan iborat. Germaniyaga ko'ra, yangi turdagi tahdidlar oldida Yevropa

⁸⁸ К.Гройтер Что изменится в ЕС с уходом Великобритании(дата обращения - 17.12.2019)

Ittifoqi a'zolarining xavfsizligi umumiy vazifadir. Jahon siyosiy sahnasida Yevropa Ittifoqining ovozi unga a'zo davlatlar ovozidan ko'ra ko'proq og'irlik qiladi. Germaniya tashqi siyosati Yevropa Ittifoqidan manfaatlarni ifodalash uchun ustun va vosita sifatida deyarli boshqa hech bir davlat qila olmagan tarzda foydalangan. 20-asr nemis tarixi fonida Yevropadagi hamkorlar bilan hamkorlik samarali faoliyat uchun **imkoniyat** ochdi.³

Ta'kidlash joizki, Germaniyaning Yevropa Ittifoqiga nisbatan siyosati ittifoqning salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, u umumiy tashqi va xavfsizlik siyosatini faollashtirish va umumiy mudofaa tizimini rivojlantirishni o'z ichiga oladi va bu siyosat butun Yevropa hamjamiyatining e'tirofiga sazovor bo'ldi.⁸⁹

Adabiyotlar

1. Синдеев. А Двусторонние отношения США и ФРГ: из прошлого в будущее // <https://elibrary.ru/item.asp?id=15545757> (дата обращения – 1⁹⁰4.12.2019)

2. Гройтер К Что изменится в ЕС с уходом Великобритании// <https://carnegie.ru/2018/05/14/ru-pub-76339> (дата обращения - 17.12.2019)

3. Басов. Ф Германия в ЕС: от экономического локомотива к политическому лидерству//<https://cyberleninka.ru/article/n/germaniya-v-evropeyskom-soyuze-ot-ekonomicheskogo-lokomotiva-k-politicheskumuliderstvu> (дата обращения - 14.12.2019)

⁸⁹ Ф. Басов Германия в ЕС: от экономического локомотива к политическому [germaniya-v-evropeyskom-soyuze-ot-ekonomicheskogo-lokomotiva-k-politicheskumuliderstvu](https://cyberleninka.ru/article/n/germaniya-v-evropeyskom-soyuze-ot-ekonomicheskogo-lokomotiva-k-politicheskumuliderstvu) (дата обращения - 14.12.2019)

O'RTA ASR G'ARBIY YEVROPASI SHAHARLARI VUJUDGA KELISHI VA IJTIMOY –IQTISODIY TAVSIFIGA DOIR

U.U.Odinayeva,

Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turlari bo'yicha)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada G'arbiy Yevropada shaharlarning vujudga kelish jarayonlari, shaharlarning ijtimoiy –iqtisodiy holati, vujudga kelish jarayonlaridagi feodal jamiyat bilan munosabatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar :Shahar, sen'or, feodal, imtiyoz, ijtimoiy –iqtisodiy, munosabatlar yer egaligi ,erkinlik , krepostnoy ,ijtimoiy qatlam, tabaqa

O'rta asrlar davrining IX-X asrlaridan boshlab G'arbiy Yevropada shaharlarning vujudga kelish jarayonlari sodir bo'la boshlagan. Shaharlar paydo bo'lishi, ijtimoiy –iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi mahsuli bo'lib, shaharlar ularning qiyofasi,rivojlanishi,sen'orlarga qarshi kurash jarayonlari uzoq tarixiy jarayonni o'z ichiga olgan. Ushbu jarayonlar katta va keng, shuningdek,yaxshi o'rganilmagan ilmiy muammo bo'lganligi sababli ,biz ushbu mashqimizda X-XV asrlarda G'arbiy Yevropada vujudga kelgan shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga umumiy tafsiv berishga harakat qilamiz.

Shaharlar vujudga kelishi bilan iqtisodiy jihatdan hunarmandchilik markazlariga aylanib borgan. Shuningdek ,garchi shaharliklar ham aslida feodalga bo'ysunsada,krepostnoy zulm bir qadar xalos bo'lgan deb aytish mumkin.Buning natijasida krepostnoy dehqonlarni shaharlarga kelishini kuchaytirib yuborgan. Feodal zulmi bir qadar yengil,eng asosiysi hunarmandning erkin mahsulot ishlab chiqarish va savdo qilish tartibi krepostnoylarni shaharga chorlagan.Chunki,shaharlar ustidan sen'orlarning nazorati ko'p hollarda nominal ahamiyat kasb etgan. Shaharlarning sen'orlarga qarshi kurashi jarayonida shaharlar siyosiy ,harbiy hokimiyatni shuningdek, daromadlarni erkin tasarruf qilish

huquqini qo'lga kiritganlar⁹¹. Bu feodal davr uchun muhim ijtimoiy-iqtisodiy yutuqlardan biri bo'lgan deb xulosa qilish mumkin .

Tovar ishlab chiqarishning erkin rivojlanishi xususiy mulkni va xususiy ishlab chiqarishni to'liq erkin bo'lishini talab qilardi. Ammo, shaharliklarni o'rta asrlar sharoitida tabaqaviy bo'linishi to'liq shaxsiy erkinlikni bersada, ishlab chiqarish va xususiy mulkchilikda barchani tengligini anglatmagan. O'rta asr shaharliklarning ijtimoiy identifikatsiyasi, byurgerlik masalalari murakkab, to'layechimini topmagan muammolardan biri bo'lib, hozirga qadar bahsli bo'lib qolmoqda. Ustalar, shogirdlar, mayda do'kondorlar, savdogarlarni olimlar feodal jamiyat tabaqasi yoki ijtimoiy guruh deb nomlash masalasida hanuz bahs olib bormoqdalar. O'tgan asrning 60-80 yillarida, B.B.Stolitskaya – Tereshkovich shahar hunarmandlarini feodal jamiyatning to'liq bo'lmagan sinf sifatida baholaydi. Shuningdek, hunarmandlar muhitining tabaqalanib borgan sari, hunarmandlar tabaqasi o'zining yaxlitligini yo'qotib borgan deb hisoblaydi. Shuningdek, savdogarlarning turli qatlamlardan iboratligi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishga yondashuv turlicha bo'lganligi sababli ularni sinf sifatida ko'rib chiqishga sabab yo'q deb qaragan⁹².

Feodal davrda shaharlarning mavjud bo'lish asosiy sharti unda mehnat va ayirboshlash konsentratsiyasi vujudga kelib, muhim ijtimoiy tuzilmaga aylanganligi va barcha sohalarda dominat iqtisodiy vazifalarni bajarganligi sabab bo'lgan. “O'rta asr G'arbiy Yevropa sivilizatsiyasida shahar” asarining ikkinchi tomida “O'rta asrlar shahri bu eng avvalo savdo va hunarmandchilik markazi⁹³”- ekanligi keltirib o'tilgan. Yuqorida keltirilgan fikr mulohaza o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada tom ma'nodagi shaharlarning vujudga kelganligini shubha ostiga qoldiradi deb hisoblashga barcha asoslarimiz mavjud. Taniqli olim A.L.

⁹¹ Стам С.М. *Средневековый город и развитие социальной структуры феодального общества // Классы и сословия средневекового общества / под ред. З.В. Удальцовой.* – М. 1988. – С. 44.

⁹² Стоклицкая-Терешкович В.В. Социальная природа средневекового бюргерства XIII–XVII вв. - М.: Наука, 1979. – С. 49.

⁹³ Город в Средневековой цивилизации Западной Европы. Т. 2. Жизнь города и деятельность Горожан. – М. Наука, 1999. – С. 231.

Yastrebitskaya ma'lumotlarida, G'arbiy Yevropada X-XI asrlarda vujudga kelgan shaharlar tom ma'nodagi shahar bo'lmay ,embrional – shahar (shakllanayotgan) qiyofaga ega bo'lgan⁹⁴ligi bilan bog'liq ma'lumotlarni keltirib o'tilganligini ko'rishimiz mumkin. Tarixiy adabiyotlarda G'arbiy Yevropa shaharlari vujudga kelishi va sen'orlardan ma'lum bir erkinliklarning olinish jarayonlari tahlil qilingan bo'lib ,barcha o'rta asr shaharlariga xos bo'lgan va birinchi galda feodaldan olishga harakat qilingan imtiyozlari orasida keng tarqalgani bu savdo imtiyozlari bo'lib, bu shahar va uning aholisi asosiy maqsadini tushunib olish imkonini beradi⁹⁵. Shaharlar uchun eng avvalo ularni oziq- ovqat va kundalik zaruriy mahsulotlar bilan ta'minlaydigan , shuningdek,ularning hunarmandchilik mahsulotlarini sotib oladigan qishloqlar zarur bo'lib, taniqli olim S.M.Stam keltirgan ma'lumotlarda , G'arbiy Yevropada XI-XIII asrlarda vujudga kelgan shaharlar yarim agrar xarakterga ega bo'lib, keyingi asrlarda savdo – hunarmandchilik markazlariga aylangan⁹⁶. Bu xususda o'zbekistonlik olim T.Salimov ham ma'lumot berib , shaharlarning o'ziga tegishli yeri va yaylovlari bo'lganligini keltirib o'tgan⁹⁷. Bu esa shaharlarni qishloqlardan ajralish jarayonini uzoq davom etganligini ko'rsatadi . G'arbiy Yevropa shaharlarida erga egalik qilish masalasi yuzasidan olimlar o'rtasida yakdil xulosaga kelinmagan . Germaniya, Flandriya, Fransiya, Italiya va Angliya shaharlari tarixini o'rgangan olimi Ye.B. Tushina , XII-XIV asrlarda G'arbiy Yevropa shaharlarida yerga egalik qilish muhim ahamiyat kasb etgan degan xulosaga kelgan.Ayniqsa, Italiyada shahar va shaharliklarning yerga egalik qilish an'anasi antik davrdan buyon shakllanganligini keltirib o'tgan⁹⁸.

⁹⁴ Ястребицкая А.Л. Средневековая культура и город в новой исторической науке. Учебное пособие. - М.: Интерпракс, 1995. - С. 16-17.

⁹⁵ Город в средневековой цивилизации Западной Европы. Т. 1. Феномен средневекового урбанизма. - М.: Наука, 1999. – С. 29.

⁹⁶Стам С.М. Некоторые актуальные вопросы изучения истории средневекового города // Средневековый город. – Саратов, 1981. Вып. 6. – С. 9.

⁹⁷ Салимов Т. Жаҳон тарихи (Европа мамлакатлари. V-XV асрларда). – Т.: Университет, 2014. - Б. 109.

⁹⁸ Тушина Е.В. Городское землевладение // Город в средневековой цивилизации Западной Европы. - М.: Наука, 1999. Т. 2. - С. 284.

Shaharlarning vujudga kelishi va erkin ishlab chiqarish va savdo huquqidan tashqari feodal votchina mulkidan alohida ajralib chiqish, shaxsiy va turli huquqiy erkinliklarni qo'lga kiritish borasidagi urinish shaharni boshqarish borasidagi ichki kurashlar bilan ham birgalikda olib borilgan. Zamonaviy tarixshunoslikda G'arbiy Yevropa o'rta asrlarda vujudga kelgan shaharlari ikki muhim ahamiyat kasb etganligini ko'rish mumkin. Birinchisi, shahar natural- feodal qishloqdan farqli o'laroq tovar-pul munosabatlari, shaxsiy erkinlik, yangi xarakterga ega bo'lgan xususiy mulkchilik, boshqaruv va huquq, markaziy hokimiyat bilan doimiy aloqa kabi progressiv elementlarni o'zida nomoyon etsa, ikkinchi tomondan, shaharlar feodal jamiyatning bir qismi bo'lib, sen'orlarni pul bilan ta'minlab turuvchi feodal jamiyatning bir bo'lagi bo'lib qolgan. Shahar feodal rentani qayta taqsimlaydigan markazga aylanib, munitsipial boshqaruv tartibi, shahar ichidagi tabaqachilik, huquqiy tashkilotlarning tuzilishi va vazifasi feodal jamiyat qobig'idan chiqib keta olmagan⁹⁹. Shahar qanchalik imtiyoz va erkinliklarga ega bo'lmasin feodal jamiyatning bir qismi bo'lib qolavergan. G'arbiy Yevropada XI-XV asrlarda vujudga kelgan shaharlar mana shu xususiyatlari bilan antic davrning bevosita davomi bo'lmay o'ziga xos murakkab tuzilishga ega bo'lgan. Bu davr shaharlari eng avvalo iqtisodiy munosabatlar asosida vujudga kelgan¹⁰⁰.

O'rta asr Yevropa shaharlari vujudga kelgan dastlabki davrda ular agrar munosabatlardan to'la chiqib keta olmagan. Shuningdek, darhol ijtimoiy-iqtisodiy, savdo aloqalari markaziga aylana olmagan. Shaharlarning sen'orlarga qarshi kurashi shahar ichidagi kurashlar bilan birga olib borilgan. Erkinlikka erishgan shaharlar ham feodal jamiyatning bir bo'lagi bo'lib qolavergan deb xulosa qilishimiz mumkin.

Adabiyotlar

⁹⁹ Сванидзе А.А. Город в период развитого феодализма (XI–XV вв.) // История Европы / под ред. Е.В. Гутновой. Т. 2. – М.: Наука, 1992. – С. 231.

¹⁰⁰ Стам С.М. Некоторые актуальные вопросы изучения истории средневекового города // Средневековый город. – Саратов, 1981. Вып. 6. – С. 11.

Город в средневековой цивилизации Западной Европы. Т. 1. Феномен средневекового урбанизма. - М.: Наука, 1999. – **390 с., ил**

Город в Средневековой цивилизации Западной Европы. Т. 2. Жизнь города и деятельность Горожан. – М. Наука, 1999. – **345 с., ил.**

Салимов Т. Жаҳон тарихи (Европа мамлакатлари. V-XV асрларда). – Т.: Университет, 2014. – 296 б.

Сванидзе А.А. Город в период развитого феодализма (XI–XV вв.) // История Европы / под ред. Е.В. Гутновой. Т. 2. – М.: Наука, 1992. – **808 с.**

Стам С.М. Некоторые актуальные вопросы изучения истории средневекового города // Средневековый город. – Саратов: 1981. Вып. 6. – С. **6-13.**

Стам С.М. *Средневековый город и развитие социальной структуры феодального общества // Классы и сословия средневекового общества / под ред. З.В. Удальцовой.* – М. 1988. – **40-49.**

Стоклицкая-Терешкович В.В. Социальная природа средневекового бюргерства XIII–XVII вв. - М.: Наука, 1979. – **176 с.**

Ястребицкая А.Л. Средневековая культура и город в новой исторической науке. Учебное пособие. - М.: Интерпракс, 1995. - **416 с.**

Тушина Е.В. Городское землевладение // Город в средневековой цивилизации Западной Европы. - М.: Наука, 1999. Т. 2. - С. **282-289.**

**TARIX FANI O‘QITUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATINI
OSHIRISHDA HAMKORLIK STRATEGIYALARIGA ASOSLANGAN
DARSLARNI TASHKIL ETISHNING AMALIY AHAMIYATI
 (“1918-1939 yillarda Polsha” mavzusi misolida)**

U.F.Xayrullayev,

BuxDU, magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Jahon tarixining “1918-1939 yillarda Polsha” mavzusini o‘qitishda tarix fani o‘qituvchilariga hamkorlik strategiyalariga asoslangan darslarni tashkil etish metodlari tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: innovatsion muhit, hamkorlik strategiyalari, davriy matbuot organlari, Buxoro mahalliy matbuoti, grafik organayzerlar, “Konseptual jadval”, “Venn texnologiyasi”, “T-chizma”, “Klaster”.

Tarix fani o‘qituvchilarining dars mashg‘ulotlarida o‘z metodik tayyorgarliklarini takomillashtirib borishlari bugungi kunning eng zarur va dolzarb jarayonlaridan biridir. Bu borada tarix o‘qituvchilarining nazariy va amaliy tayyorgarligi, ta'lim amaliyoti variativligi, innovatsion muhitda texnika vositalaridan foydalanish, kompleks rivojlanish, multimedia tasvirli ma'lumotlarni qo‘llash, dars jarayonida hamkorlik strategiyalaridan foydalanish globallashtirish sharoitida tarix fani o‘qituvchisining komponentligini oshirishning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, tarix fani o‘qituvchilari har bir dars mashg‘ulotlar (ma'ruza, seminar, aralash dars)ni zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalar asosida ta'limiy, tarbiyaviy hamda keng qamrovli tashkil etishga mas'ul hisoblanadi. Shuningdek, ta'lim beruvchi sifatida faqat o‘quv materiallarini taqdim etish bilangina cheklanmasdan ta'lim oluvchi shaxsini ijtimoiylashtirish va o‘zini-o‘zi namoyon qilish hamda madaniy muhit bilan muloqotga tez kirisha olishga o‘rgatishi kerak. Natijada ta'lim oluvchi shaxs tarix fani ma'lumotlari orqali o‘zlarining ijtimoiy, kasbiy, shaxsiy muammolarini osongina yechishga qodir bo‘lishi lozim.

Mazkur maqolada yuqorida qayd etilgan barcha pedagogik va metodik omillarni inobatga olib, dars mashg'ulotlari samaradorligini yanada oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan tarix fani o'qituvchisiga qo'shimcha materiallardan hamda hamkorlik strategiyalaridan foydalanish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Jahon tarixi" fani o'quv dasturida¹⁰¹ Sharqiy Yevropa davlatlaridan biri - Polsha tarixini o'rganish uchun ham mavzular ajratilgan. Shuningdek, "1918-1939 yillarda Polsha" mavzusi bo'yicha darslik va o'quv-metodik majmualarda yetarli ma'lumotlar mavjud. Biroq dars samaradorligini yanada oshirishni o'z oldiga maqsad qilib olgan o'qituvchi darsning yangi mavzuni bayoni bosqichini ikki qismga ajratishi lozim. Darsning birinchi bosqichida mavzuning dolzarbligi, maqsadi va vazifalari qayd etilgach, nazariy ma'lumotlarni yetkazishga asoslangan ikkinchi qismda qo'yidagi qo'shimcha materiallarni taqdim etilishiga tavsiya beriladi.

1917-1930 yillarda Turkiston mintaqasida chop etilgan davriy matbuot organlari sahifalaridan mazkur mavzu uchun qo'shimcha va muhim ma'lumotlar olish imkoniyati mavjud. Jumladan, 1920-1930 yillarda Buxoroda nashr yuzini ko'rgan "Buxoro axbori" va "Ozod Buxoro" gazetalarda¹⁰² Polshaning Birinchi jahon urushidan keyingi yillarda olib borgan tashqi siyosati hamda iqtisodiy va madaniy ahvoriga oid ko'pgina maqola va xabarlar mavjud.

Yangi mavzu bayoni bosqichida o'qituvchi yuqorida keltirilgan qo'shimcha materiallarni tanishtirganidan so'ng, hamkorlik strategiyalarning eng ommaviy texnologiyalari hisoblangan "Konseptual jadval", "Venn texnologiyasi", "T-chizma", "Klaster" kabi grafik organayzerlar orqali o'quv mashg'ulotini mustahkamlash bosqichi uchun qo'yidagi tavsiyalar beriladi[7]:

¹⁰¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2017 yil 28 avgustdagi 607-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Jahon tarixi" fan dasturi. –Toshkent. 2017. – B 36

¹⁰² "Buxoro axbori" gazetasi BXS Markaziy Ijroiya Qo'mitasi matbuot organi bo'lib, 1920 yil 9 sentyabrdan 1923 yil oktyabrgacha chop etilgan.


Bu haqda qarang: Rahmonov K. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tarixi matbuot sahifalarida. Monografiya. -Toshkent, "ABU MATBUOT - KONSALT", 2012 y. B 127

“Konseptual jadval” dasturi orqali “1918-1939 yillarda Polsha” mavzusidagi muammoli voqeyeliklarning sabab va omillari, uning yechimi, tegishli yakuniy xulosalar asosida amalga oshiriladi. “Venn texnologiyasi” asosidagi qiyoslash uslubi orqali “Polsha” va “SSSR” davlatlariga xos bo‘lgan umumiy belgilar tahlil etilishi, “Klaster” usuliga “Nemislashtirish siyosati” tushunchasini kengroq mulohaza qilinishi zarurligi vazifasidan kelib chiqib, talabalar 3 guruhga ajratiladi. Har bir guruhga yuqoridagi vazifalar tushuntiriladi va alohida topshiriq varaqalari tarqatiladi.

Konseptual jadval” orqali muammoli voqeyeliklarning sabab va omillari, uning yechimi xulosa orqali izohlanishi kerak.

Muammoning mazmuni	Sabab va omillari	Muammoni ng yechimi	Xulosa
1. Qanday omillarga asoslanib, Polsha 1918-1939 yillarda Sharqiy Yevropada ulkan salohiyatga ega davlatga aylandi?			

2-guruh uchun topshiriq: talabalarga “Klaster” dasturi orqali o‘rganilayotgan mavzudagi “Nemislashtirish siyosati” tayanch tushunchasi bo‘yicha yangi ma’lumotlarni qayd qilish vazifasi beriladi.



3-guruh uchun topshiriq: talabalar “Venn diagrammasi” orqali Germaniya, SSSR, Polsha iqtisodiyotiga xos umumiy belgilarni qiyosiy tahlil qiladilar.

1)* Germaniya iqtisodiyoti 2)* SSSR iqtisodiyoti 3)* Polsha iqtisodiyoti



A)*

B)*

Har bir guruh topshiriqni bajarib, varaqalarni o‘qituvchiga taqdim etadi. Fikrlar muhokama qilinadi, o‘qituvchi tomonidan xulosalanadi, yangi mavzuni mustahkamlash bosqichi yakunlanadi.

Ikki jahon urushi oralig‘ida Polsha tarixini mavzuni samarali tashkil etish uchun mahalliy matbuot materiallaridan foydalanish va grafik organayzerlarni joriy qilishning amaliy ahamiyati bo‘yicha quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi:

Birinchidan, Polsha tarixi (1918-1939 yillar)ni o‘rganishga qaratilgan qo‘shimcha manbalar ko‘p, shuningdek, G‘arb badiiy adabiyoti durdonalarini ham talabaga tavsiya berilishi mumkin. Biroq ulardan tanqidiy va ijodiy tahlil asosida

foydalanishni talabalarga o'qituvchi tomonidan aniq ko'rsatmalar taqdim etilishi lozim.

Ikkinchidan, “1918-1939 yillarda Polsha” mavzusidan qo'shimcha bilimlar berish orqali talabalar ongida bugungi kundagi polyak-o'zbek do'stligi tarixi chuqur ildizlarga, ya'ni Amir Temur davriga borib taqalishi haqida ularda kengroq tasavvur hosil qilish zarurdir.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2017 yil 28 avgustdagi 607-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan “Jahon tarixi” fan dasturi. –Toshkent. 2017. – B 36

2. “Buxoro axbori” gazetasi BXS Markaziy Ijroiya Qo'mitasi matbuot organi bo'lib, 1920 yil 9 sentyabrdan 1923 yil oktyabrgacha chop etilgan. Gazeta o'zbek tilida, isloh qilingan arab imlosida, sarg'ish rangli o'rtacha sifatdagi qog'ozda, haftada 1-2 marta, 1500-2000 nusxada chiqarilgan. 1923 yil 16 oktyabrdan “Ozod Buxoro” nomida gazeta nashr qilina boshlangan. Bu gazeta 1930 yil oktyabr oyigacha chiqib turgan. Gazetalarning to'liq taxlamlari bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi (O'zbekiston MDA) va Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro viloyati markaziy kutubxonasida saqlanmoqda. Bu haqda qarang: Rahmonov K. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tarixi matbuot sahifalarida. Monografiya. -Toshkent, “ABU MATBUOT - KONSALT”, 2012 y. 175 bet.

3. Buxoro axbori. 133-son, 1923 yil 11 fevral.

4. Buxoro axbori. 132-son, 1923 yil 5 fevral; 133-son, 1923 yil 11 fevral; 137-son, 1923 yil 1 mart; 144-son, 1923 yil 17 mart.

5. K. Rahmonov. “Tarix fani bo'yicha innovatsiya va interfaol metodlarni tadbiq etish” (uslubiy qo'llanma). Buxoro-2020. –B. 96.

MANG'ITLAR SULOLASI DAVRIDA BUXORO AMIRLIGI

S.Zaripova,

BuxDU, Tarix (faoliyat va turlar bo'yicha).

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Maqolada XVIII asrning 1-yarmida Buxoro xonligidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, ashatarxoniylar sulolasining inqirozi, Mang'itlar sulolasi vakillarining hokimiyatga kelishi, xonlikning amirlik deb e'lon qilinishi, Rossiya bilan Buxoro amirligi o'rtasidagi savdo-sotiq va elchilik aloqalari, Muhammad Rahimxon, Doniyolbek, Shomurod va Nasrulloxon hukmronligi davri haqida ma'lumot berilgan.

„Turon“ diyoringing ajib bir gavhari bo'lgan Buxoro o'lkasi o'zining 3 ming yillik tarixi davomida ko'plab sulolalar boshqaruvi ostida bo'ldi. Jumladan Shayboniylar, Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonlik markaziga aylandi, o'ziga xos rivojlanish yo'liga kirdi. Lekin XVIII asrning 30-40-yillarida Buxoro xonligida vaziyat yomonlashdi.

Buxoro xonligi chuqur ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tanazzulga uchragandan so'ng, endi bu davlatning tugashi va yangi davlatning boshlanishi tarix taqozosi edi. Muhammad Rahimxonning 1756-yil 16-dekabrda Buxoro taxtini rasmiy ravishda egallashi yangi sulolaning hukmronligiga asos solib, Buxoro bundan keyin amirlik deb atala boshlandi. Muhammad Rahimxondan so'ng hokimiyatni egallagan Doniyolbiy otaliq hukmronligi davrida ham o'zaro urushlar davom etib, bir qator viloyatlar (Karmana, O'ratepa, Nurota, Sherobod, Boysun)da mahalliy hukmdorlar markazga bo'sunmaslikka harakat qilishgan. Buning ustiga Doniyolbiy otaliqning qo'shin ta'minoti uchun qo'shimcha soliqlarning joriy etishi vaziyatni og'irlashtirib yubordi va 1784-yilda qo'zg'alon ko'tarilishiga talab bo'ldi. Oqibatda Doniyolbiy otaliq hokimiyatni o'g'li Shohmurod (1785-1800)ga topshirishga majbur bo'ladi. Chhunki poytaxt aholisi o'rtasida Shohmurodning obro'-e'tibori ancha baland edi. Shohmurod 1785-yilning 9-iyunida o'zini Buxoroning amiri deb e'lon qildi hamda otasining „Amir –ul umaro“ degan

unvonini qabul qildi. O'zining 15 yillik hukmronligi davrida amir Shohmurod mustaqil ichki va tashqi siyosat olib borishga harakat qilib, mamlakat ichki hayotini, iqtisodiy ahvolini yaxshilash maqsadida pul islohoti o'tkazgan va sof kumushdan tanga zarb qildirgan. Buxoroda Mang'itlar sulolasi hukmronligining dastlabki davrida Buxoro va Rossiya munosabatlarida elchilik va savdo aloqalari ham muhim ahamiyat kasb etib, har ikki tomondan elchilik almashinuvi davom etdi. O'z davrida va keyingi zamonda amir Shohmurod „Amiri ma'sum“ (begunoh amir) va „Umaroiy Soniy“ („Ikkinchi Umar“), „G'oziy“ unvonlari bilan tilga olingan. Uning vafotidan keyin Buxoro amirligi taxtini 1778-yilda Buxoroda tavallud topgan o'g'li Haydar egalladi. Amiri Sayyid nomini olgan Amir Haydarning onasi ashtarxoniyalardan sanalgan Abulfayzxonning qizi Bonu Shams edi. Amir Haydar hukmronlik qilgan davrda Buxoroda ilm-fan, xususan, tarix va islom ilmlari rivojlangan. Ahmad Donishning yozishicha, Amir Haydar davrida madrasalarda tahsil olish uchun Istanbul, Kobul kabi shaharlardan ko'plab qo'lyozma kitoblar olib keltirilgan. Amir Haydar 1826-yil vafot etib, Buxoroning Jo'ybor mavzesidagi Eshoni Imlo qabristonida, otasi Shohmurod oldida dafn qilingan. Movarounnahr tarixchilari amir Shohmurod va Amir Haydar hukmronligi davri Buxoro amirligining kuchaygan, gullab-yashnagan yillari ekanligini yozib qoldirganlar.

1826-yilda taxtiga o'tirgan Nasrulloxon 1806-yilning 1-iyunida Buxoro shahrida tavallud topgan. M.M. Solovev 1841-1842-yillarda rus ekspeditsiyasi bilan Buxoroda bo'lar ekan, Nasrulloxon shaxsi to'g'risida shunday deb yozgan edi: „Ayyor, xiyonatkor va hayratlanarli darajada tilyog'lamachi Nasrulloxon oldindan holi otasi tirikligidayoq taxtni egalashda qo'llab-quvvatlashga qodir bo'lgan maslakdoshlarini turli xil qimmatbaho sovg'a-salomlar bilan va shirin so'lar bilan o'ziga og'dirib olgan edi. To'laqonli hokimi mutloq bo'lishga harakat qilgan ekan, u hokimiyat boshqaruvini hech kim bilan bo'lishishni xoxlamas edi. Shu bilan birga xudojo'y odam edi“¹. Xanikov² esa o'z asarlarida Nasrulloxonning taxtga kelishini Rossiyada Nikolay Romanovning taxtga kelishiga qiyoslab o'tgan.

Nasrulloxon hukmronligi davrida islom qonun-qoidalariga og'ishmay amal qilgan. Mamlakat ichki ahvolini butunlay o'z nazorati ostiga olib, eng asosiysi o'zining ichki dushmanlarini bartaraf eta olgan.

Buxoro amirligidagi mang'itlar sulolasi hukmdorlari (1747-1920)

1. Muhammad Rahimbiy- (1747-1758)

2. Doniyolbiy-(1758-1785)

3. Amir Shomurod- (1785-1800)

4. Amir Haydar- (1800-1826)

5. Amir Husayn – 1826-yil, 2,5oy

6. Amir Umar -1826-yil, 4 oy

7. Amir Nasrullo-(1826-1860)

8. Amir Muzaffar-(1860-1885)

9. Amir Abdullahad- (1885-1910)

10. Amir Olimxon-(1911-1920)

Xullas, O'zbekiston davlatchiligi tarixida Buxoro amirligi davlatining ham o'z o'rnini va mavqeyini bo'lib, Mang'itlar hukmronligi davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda qator yuksalishlar bo'lib o'tdi. Ammo, mamlakat iqtisodiy jihatdan qudratli va siyosiy jihatdan mustahkam emas edi. Ko'p hollardagi iqtisodiy tanglik, siyosiy beqarorlik, o'zaro nizolar XIX asrning ikkinchi yarmida davlatning katta hududlarini Rossiya tomonidan bosib olinishiga sabab bo'ldi.

Adabiyotlar

1) Саидкулов Т. Очерки историографии истории народов Средней Азии. Т. 1992. Стр.136.

2) Мирзо Олим Махдуми хожи, Тарихи Туркистон, Т., 2008, 174--175 б.

3) Мунис ва Огахий, Фирдавс ул--икбол Т., 2010, 153--170 б.

4) Н. Ханьков., Описание Бухарского Ханства, Спб., 1843 , 228 --230 с.

5) Ибрат. ФАРГОНА тарихи, Мерос, 1991 294 --б.

6) Огахий,Зубдату--Т-таворих,2009,131 174 б.

7)М.Содиқов Бухоро ва Афғонистон яқин утмишда//Мозийдан садо,2008 , 1 --сон,43--б.

BUYUK IPAK YO`LI – TURIZMNI RIVOJLANTIRISH OMILI

A.A.Gulyamov

Tarix (yo`nalishlar va faoliyat turi bo`yicha)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm sohasining hozirgi davrda rivojlangan sohalar sirasiga kirib, mamlakatlar iqtisodiyotining ijobiy rivojlanishiga salmoqli hissa qo`shayotganligi, yurtimizda ham shu sababli turizmga keng yo`l ochib berilayotganligi va qadimgi Buyuk Ipak yo`lining o`rganilishi turizm rivojiga ta`siri masalalari tahlil qilingan.

Kalit so`zlar: Turizm, biznes, karvon yo`llari, valyuta, nodir mahsulotlar.

O`zbekiston yangi XXI asrga shaxdam qadamlar bilan kirib keldi. XXI asr – turizm va sayyohlik asri bo`ladi deb bashorat qilinmoqda. XXI asrda turizm o`zining salmoqli hissasi bilan respublika budjetida katta o`rin egallashi kutilmoqda. Bunga respublikamizda har tomonlama imkoniyatlar va asoslar yetarli. Faqat zamonaviy milliy turizmni rivojlantirish strategiyasini hayotga tatbiq etib, turizm sohasini yuqori pog`onalarga ko`tarish imkoniyatini yaratishimiz kerak. O`zbekistonda turizm yangi soha hisoblanmaydi, bu soha qadimdan mavjud bo`lgan, faqat bizning oldimizda turgan vazifa milliy turizmni yangicha strategiya asosida rivojlantirish va istiqbolini belgilashdir. Ayrim mamlakatlarda turizm sohasi juda ham barqaror rivojlanib bormoqda va ularning har yillik o`sish sur`ati 8%-10% gacha boradi. Bu esa mamlakat turizm sohasining yoki milliy turizmning qanchalik darajada mamlakatlar iqtisodiyoti tizimida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Respublikamiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev turizm sohasini rivojlantirish va uning imkoniyatlaridan samarali foydalanish dolzarb vazifalardan biri ekanligini alohida ta`kidlab, “Turizmni davlat siyosati darajasiga ko`tardilar”.

Rivojlangan mamlakatlarda turizmdan olinadigan valyuta tushumlari butun eksport hajmining 10-35% ni tashkil qiladi. Turizm sohasi uchun jadal rivojlanish xos bo'lib, qator mamlakatlarda yillik o'sish sur'atlari yuqoriligi (24% gacha) bilan tavsiflanadi.

Dunyo yaralganidan buyon insoniyat rivojlanishi uchun turli xil o'zaro munosabatlar va aloqalar zarur omil bo'lgan. Qadimgi transkontinental aloqalar bronza davrida ayniqsa rivojlangan. Chunki bronza qotishmasini tayyorlash uchun kerak bo'ladigan mis, qalay, qo'rg'oshin, rux singari nodir metallar odatda bir mintaqada uchramaydi. Shu sababli bronza davrida yashagan insonlar bu metallarga ega bo'lish uchun o'zaro aloqa yo'llarini rivojlantirishgan. Masalan, O'rta Yer dengizi mintaqasidagi asosiy mis konlari Kipr orolida mavjud bo'lib, mis asosan shu yerdan olib ketilgan. Orol nomi ham yunoncha "Cupros" ya'ni "Mis" ma'nosini anglatadi. Xuddi shunga o'xshab qadim zamonlarda Afg'onistondan O'rta Osiyo hududi orqali shimol tomonga qalay va qo'rg'oshin, Ural tog'lari etaklaridan esa janubiy o'lkalarga mis tashib o'tilgan. Bu haqida arxeolog Y.F.Buryakov Samarqand viloyatidagi Nurafshon tumani hududidagi o'sha davrga mansub eski metallurgiya markazlarini o'rganib, shu xulosaga kelgan.¹⁰³

Aynan o'sha davrlardan boshlab O'rta Osiyo mintaqasi muhim ahamiyat kasb eta boshlagan. Jumladan, Vatanimiz O'zbekiston Osiyo qit'asining markazida, ikki daryo oralig'ida joylashgan bo'lib, Afrika, Oltoy, O'rta Yer dengizi bo'ylari, Hind daryosi vohasi, Yevropa qit'asi, Ural tog'lari va Ural daryosi bo'ylarini bog'lab turuvchi o'ziga xos chorraha, ko'prik vazifasini bajargan.

Ma'lumki qadimdan turli xalqlar va mamlakatlar bir-birlari bilan elchilik savdo-sotiq aloqalarini, madaniy siyosiy va ilmiy aloqalarni yo'lga qo'yganlar. Tabiiyki bunday hamkorlikni yo'lga qo'yishda mamlakatlarni bog'lab turgan karvon yo'llari asosiy rol o'ynagan. Jumladan, miloddan avvalgi 3-2 ming yillikda

¹⁰³Hasanov A.O. Buyuk ipak yo'li me'morchiligi.(Monografiya).-T.: "Fan va texnologiya", 2016, 3 b.

vujudga kelgan qadimgi La'l yo'li miloddan avvalgi IV-V asrda Kichik Osiyoni Eron bilan bog'lab turgan Shoh yo'li, miloddan avvalgi II asrda ochilgan Buyuk ipak yo'li kabilar xalqlar o'rtasidagi aloqa vositasi bo'lib kelgan.

Bunday yo'llarning eng asosiysi Buyuk ipak yo'li hisoblanadi. Qadimda va o'rta asrlarda bu yo'l Sharq va G'arbni bog'lagan. U mamlakatlar o'rtasida nafaqat savdo balki ilmiy madaniy siyosiy aloqalarni bog'lashga xizmat qilgan. Yo'l bo'yida qo'rg'on va shaharlar, bozorlar karvonsaroylar bunyod bo'lgan. Shu jihatdan bu yo'l Osiyo va Yevropa xalqlarning hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Biroq asrlar davomida yer yuzida bo'lgan iqtisodiy siyosiy o'zgarishlar fan texnika yangiliklari bu yo'lning ahamiyatini pasaytirdi.

Miloddan avvalgi VIII-V asrlarda Buyuk ipak yo'lining Choch, So'g'd, so'ngra Poykent, Marv bo'ylab Eron Xurosonga eltuvchi shimoliy qismi muhim ahamiyat kasb etgan. Ipak bu paytda uch buyuk davlat: Vizantiya imperiyasi Sosoniylar Eroni va Turk xoqonligi o'rtasidagi iqtisodiy raqobat maydoniga aylangan. Biroq bu ipak yoli uzoq vaqt mavjud bo'lmagan, chunki VI asrning 2-yarmida Xitoy ipak ishlab chiqarish bo'yicha monopol huquqdan mahrum bo'lgan, asr oxirida Vizantiya shu qadar ko'p ipak yetishtirar ediki uni Xitoydan keltirishga ehtiyoj qolmagan. Vizantiya ipak sanoati barpo etilishi va uni Kavkaz va O'rta dengiz mamlakatlariga tarqalishi bilan Buyuk ipak yo'lining tarixi tugaydi.¹⁰⁴ Keyingi asrlarda Mo'g'ullar saltanati, Temuriylar davrida Sharq bilan G'arbni bog'lovchi karvon yo'li bo'lgani haqida ko'plab ma'lumotlar mavjud bo'lsada lekin "Ipak yo'li" nomini shartli ravishda qo'llash mumkin, chunki yo'lning ahamiyatini ipak emas boshqa Tovar va maqsadlar belgilar edi.

O'zbekiston ipak yo'lining markazida bo'lganligi sababli Sharq va G'arb o'rtasidagi tijoratda faol ishtirok etgan. XI asrda O'rta Osiyoga sayohat qilgan arab sayyohi Abu Hamit al Qarnatiyning guvohlik berishicha bu yerdan karvonlar Eron va Arab davlatlariga to'xtovsiz qatnab turgan. Xorazmliklar qovunlarni maxsus tayorlangan qo'rg'oshin g'iloqlarda xalifaga olib borar ekanlar, Samarqand qog'ozi

¹⁰⁴ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashryoti. 2-jild. 2002. -B.320-321.

Buxoro gazlamalari butun Sharqqa tarqalgan. Temuriylar zamonida karvonlar qatnovi keng yo'lga qo'yilib xafsizligi taminlangan.¹⁰⁵

O'rta Osiyo hududida bevosita dengiz portlariga olib chiqadigan suv yo'llari mavjud bo'lmaganligi sababli O'zbekiston uchun quruqlik yo'llari juda muhim sanaladi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov bunday degan edi: "...O'zbekiston o'zining go'zal tabiati, ko'hna shaharlari, me'moriy obidalari, betakror qadimiy madaniyati, fe'li keng, mehmondo'st kishilari bilan hamisha o'zga yurt odamlarini o'ziga tortib kelgan. Bu yurt orqali juda qadim zamonlardan boshlab turli mamlakatlarga savdo karvonlari o'tgan. Amudaryo va Sirdaryolar orasidagi bu ajib jannatmakon diyor tillarga tushgan. O'zaro savdo va madaniy aloqalar shaharsozlik va me'morchilik rivojini yanada yuqori bosqichga ko'targan".¹⁰⁶

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng jahon hamjamiyatida o'z munosib o'rnini egalladi. Shuningdek, xorijiy mamlakatlar bilan quruqlik va havo transporti aloqalariga keng yo'l ochib berilayotganligi davlatimiz mavqeyining kundan kunga oshib borayotganligini ko'rsatadi. Birgina turizm sohasining rivoj topib borayotganligi, yurtimizga kelayotgan sayyohlar sonining tobora ortib borayotganligi ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Bugungi xalqaro integratsiya jarayonlarida qadim savdo yo'llarini tiklash zaruriyati tug'ulmoqda. Buyuk ipak yo'lining tiklanishi davlatlarni iqtisodiy ma'naviy, siyosiy jihatdan yaqinlashtirishi ayon.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini Xalqaro talablarga mos ravishda rivojlantirishda xususiy turistik korxonalarining faoliyat doirasini yanada kengaytirish va ularning samaradorligini oshirish borasida talaygina siljishlarga erishilmoqda. Hozirgi kunda, mamlakatimizda 750 dan ortiq kichik va o'rta biznes subyektlari, 10 dan ortiq xususiy turistik korxonalar turizm sohasida faoliyat ko'rsatayotganligini ko'rish mumkin.

¹⁰⁵ Muhammadiyev N. Dunyoga ochilgan yo'llar // Xalq so'zi. 1999.-28-may.

¹⁰⁶ Qodirov B.A. Davr talablariga mos avtoturizm me'morchiligi. // Sog'lom avlod uchun // 1999, 2-son-6-7 b.

Hozirgi davrda iqtisodiyotimizni rivojlantirish, aholini ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilashda raqobat, sifatli xizmat, ayniqsa, yangi ish o`rinlarini ochish muhim rol o`ynashini bilamiz. Shu sababli har qanday yangi iqtisodiy-ijtimoiy tarmoqlar, yangi ish o`rinlari ochish imkoniyati va undan samarali foydalanish davr talabi bo`lib kelayotganidan xabarimiz bor albatta. Turizm sohasi jahondagi eng ko`p foyda keltiruvchi biznes ko`rinishlaridan biriga aylangan. Turizm jahonning qariyb barcha rivojlangan hamda rivojlanayotgan davlatlar bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi bo`lib, dunyoning ko`pgina qoloq mamlakatlarida ham tezkorlik bilan rivojlanib borayotgan tarmoqqa aylandi. Turizm sohasi jahon xo`jaligining transport, aloqa, savdo-sotiq, qurilish industriyasi, qishloq xo`jaligi, iste`mol mollari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari bilan chambarchas holda rivojlanib, jahon iqtisodiyotida o`z o`rniga ega bo`lmoqda. Iqtisodiyotimizda turistik resurslardan samarali foydalanishda sohada yangi ish o`rinlari ochish katta ahamiyatga ega. XX asr 90-yillarining boshlaridan hozirgi kunga qadar mazkur sohaga kiritilgan investitsiyalarni o`rtacha yillik o`sish sur`ati 30 foizni tashkil etdi. Hozirgi vaqtda har 16 ish o`rnidan biri turizm tarmog`i zimmasiga to`g`ri keladi. Jahon eksportida turizm neft va neft mahsulotlari hamda avtomobillar eksportidan so`ng uchinchi o`rinni egallaydi.¹⁰⁷

Adabiyotlar

Балабанов И.Т., Балабанов А.И. Экономика туризма. М.: Финансы и статистика, 2000. –С.3.

Muhammadiyev N. Dunyoga ochilgan yo`llar // Xalq so`zi. 1999.-28-may.

O`zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashryoti. 2-jild. 2002. - B.320-321.

Hasanov A.O. Buyuk ipak yo`li me`morchiligi. (Monografiya).-T.: “Fan va texnologiya”, 2016, 156 bet.

Qodirov B.A. Davr talablariga mos avtoturizm me`morchiligi. // Sog`lom avlod uchun // 1999, 2-son.

¹⁰⁷ Балабанов И.Т., Балабанов А.И. Экономика туризма. М.: Финансы и статистика, 2000. –С.3.

70220303 Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari (mamlakatlar bo'yicha)

O'ZBEKISTON – ROSSIYA MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHGA KO'TARILISHI

Y.M.Choriyev,

*Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari
(mamlakatlar bo'yicha) mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Rossiya Federatsiyasi Hukumati o'rtasida 2013-2017-yillarga mo'ljallangan iqtisodiy hamkorlik dasturi Xalq so'zi gazetasida yoritilishi haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: Parlamentlar, xavfsizlik sohasida hamkorlik, biznes doiralari, hukumat, Xalq so'zi gazetasi.

O'zbekiston qog'ozda mavjud bo'lgan kelishuvlar va o'zaro manfaatli loyihalarni nafaqat tezroq amalda ro'yobga chiqarish, balki istiqbolli yo'nalishlarda hamhamkorlikni kengaytirish niyatida ekanligini "Xalq so'zi" gazetasining har bir sahifasida uchratishimiz mumkin. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil aprel oyida Rossiyaga davlat tashrifi chog'ida Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan muzokaralar yakunlariga ko'ra, avval hech kuzatilmagan hajmda -16 milliard AQSh dollarilik 55 ta bitim imzolangani ushbu maqsadning amaliy ifodasi bo'ldi.¹⁰⁸ Davlatimiz rahbari qayd etib o'tganidek, har ikki tomondan bo'layotgan intilishlar hamkorlik aloqalarimizni yangi amaliy mazmun, maqsadli vazifalar, aniq dastur va loyihalar bilan boyitadi. Hozirgi kungacha erishilgan amaliy natijalarga qarab aytish mumkinki, 2017 yil apreldagi tashrif, hech shubhasiz, muhim tarixiy ahamiyat kasb etdi va ikki tomonlama aloqalarda burilish nuqtasiga aylandi. O'zbekiston va Rossiya munosabatlarining yangi bosqichi rasmiy Moskva va Toshkent o'rtasidagi siyosiy muloqotlarga ishonch baxsh etdi. Mazkur tashrif amalda davlatlarimiz uchun

¹⁰⁸ <https://www.gazeta.uz/oz/2021/11/19/rf/>

deyarli barcha darajada va har bir dolzarb yo'nalish bo'yicha hamjihatlikda harakat qilish uchun kuchli turtki berdi, O'zbekiston va Rossiya yetakchilari erishgan kelishuvlar o'tgan yil natijalariga muvofiq, tomonlarga savdo-iqtisodiy, siyosiy va madaniy-gumanitar sohalarda, shuningdek, xavfsizlik masalalarida amaliy natijalarga erishish imkonini bergan izchil, turli darajalarda birgalikdagi harakatlar uchun asos bo'ldi. Hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha maxsus ishlab chiqilgan "yo'l xaritasi"ni hayotga tatbiq etish asnosida har ikki tomon hukumatlar, parlamentlar va biznes doiralari o'rtasida o'zaro birgalikdagi harakatlarni faollashtirdi, qolaversa, hududlar darajasida aloqalarni yo'lga qo'yish jarayoni boshlandi.¹⁰⁹

Qayd etish joizki, O'zbekiston-Rossiya munosabatlarining so'ngi ikki yilida mamlakatlarimiz hamkorlikning ko'plab sohalarida ijobiy natijalarga erishdi.

Birinchidan, O'zbekistonning Rossiya bilan aloqalari butun majmuyining asosini o'zaro manfaatli savdo-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi. Kooperasiyani chuqurlashtirish bo'yicha ikki mamlakat tomonidan qo'yilgan qadamlar O'zbekiston va Rossiya savdo aloqalariga yangi sur'at bag'ishladi. Xususan, 2017-yilda ikki tomonlama savdo aylanmasi 20 foiz o'sdi va 5 milliard dollarga yetdi, ayni paytda Rossiya investitsiyasi hajmi 8,5 milliard dollardan oshib ketdi. Shu tariqa, Rossiya O'zbekiston tashqi savdo hajmida aloxida o'rin tutgan holda, respublikamiz uchun muhim savdo-iqtisodiy sherik maqomida ekanini yana bir bor tasdiqladi. Oxirgi ikki yilda biznes-missiyalar soni sezilarli ravishda oshdi, bu jarayonlarning geografiyasi kengaydi. 2017-yilda O'zbekiston Rossiyaning 70 ta mintaqasi bilan aloqa o'rnatdi, yurtimizga Rossiyaning 30 subyektidan 24 ta biznes-delegatsiya tashrif buyurdi va ularda 200 dan ziyod Rossiya kompaniyalari vakillari qatnashdi. Tarmoqlar bo'yicha tahlil qilsak, O'zbekistondan Rossiyaga eksport qilinayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun "yashil yo'lak"ni ishga tushirish, metallni qayta ishlash, kompozit materiallar tayyorlashni yo'lga qo'yish,

¹⁰⁹ <https://uzlidep.uz/uz/news-of-party/10700>

shuningdek, avtomobil sanoati va boshqa sohalardagi korxonalar o'rtasida hamkorlik o'rnatishga erishildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan joriy yil 9-iyunda Sindaodagi uchrashuvi chog'ida ta'kidlaganidek, O'zbekiston Rossiyaning barcha kompaniyalari bilan va hamma yo'nalishda ishonchli, jiddiy, aniq ish olib bormoqda. Bundan bir yil avval hamkorlik yo'nalishini faqatgina neft-gaz sohasi tashkil qilgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib mamlakatlarimiz o'zaro aloqa o'rnatmagan sohaning o'zi qolmadi hisob. Rossiya tarafidan O'zbekistonda AES qurilishining boshlanishi ikki davlat munosabatlarida yangi yo'nalishga asos solmoqda. Shubhasiz, atom energetikasini rivojlantirish yurtimiz energetika sektori uchun yaqin yillarda eng dolzarb masalalardan biri bo'ladi. Respublika Markaziy Osiyoda o'z AESiga ega bo'lgan birinchi mamlakatga aylanadi.

Ikkinchidan, O'zbekiston va Rossiya hamkorligi uchun raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sohasi nihoyatda istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Boisi ikki mamlakat ham deyarli bir vaqtning o'zida davlat uchun muhim sanalgan axborot texnologiyalarini (IT)ni joriy etish bo'yicha dasturni amalga oshirishga kirishmoqda. Xususan, 2018-yilda Rossiyada "Raqamli iqtisodiyot" hukumat dasturi tasdiqlanib, uch yillik tadbirlar rejasi ishlab chiqildi. O'z navbatida, raqamlashtirishning yangi bosqichiga kirib kelayotgan O'zbekistonda joriy yil "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilindi, mamlakat Prezidentining AKT sohasini takomillashtirishga qaratilgan qarorlari hayotga tatbiq etildi. Ikki mamlakat tomonidan mazkur sohada belgilangan maqsadlarni birgalikdagi sa'y-harakatlar asosida amalga oshirish mumkin bo'ladi. Raqamli iqtisodiyot, texnoparklar faoliyatini yo'lga qo'yish, pochta aloqasini takomillashtirish, jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassislar malakasini oshirish va IT-mutaxassislarni tayyorlash shular jumlasidandir. Ushbu vazifalarni to'laqonli ro'yobga chiqarishning imkoniyati bor.

Zero, O'zbekiston va Rossiya kadrlar tayyorlash jabhasida hamkorlik qilish uchun allaqachon mustahkam poydevorga egadir.

O'zbekiston hamda Rossiya pozitsiyalari o'xshashligi Markaziy Osiyoda barqarorlikni saqlash va mustahkamlash hamda Afg'oniston Islom Respublikasidagi vaziyatni tinch yo'l bilan hal etish masalalarida ham kuzatilyapti. 2017-yil fevralda

bo'lib o'tgan Moskva anjumanining mantiqiy davomi sifatida O'zbekiston afg'on hukumati va boshqa xalqaro ishtirokchilar bilan hamkorlikda joriy yil 26-27-mart kunlari Afg'oniston bo'yicha "Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik" mavzuyidagi Toshkent konferensiyasini o'tkazdi.¹¹⁰

Mazkur tadbir uning barcha qatnashchilari Afg'onistonda Tinchlik jarayonining asosiy prinsiplarini qabul qilish hamda Afg'oniston Islom Respublikasi va qurolli muxolifat bilan to'g'ridan-to'g'ri muzokaralarni yo'lga qo'yish mexanizmini ishlab chiqishga intilish borligini namoyon etdi. Konferensiya chog'ida Rossiya Federatsiyasi Tashqi ishlar vaziri Sergey Lavrov qayd etib o'tganidek, Rossiya Federatsiyasi O'zbekiston rahbariyatining o'z vaqtida ilgari surgan tashabbusini har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi.

Umuman olganda hozirgi kunda O'zbekiston - Rossiya munosabatlari yangi ufqlar sari harakatlanmoqda, ikki davlat o'rtasidagi aloqalar uchun xos bo'lgan "strategik sheriklik va ittifoqchilik" ta'rifi bugungi kunning xolis, sof haqiqatidir.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Rossiya Federatsiyasi Hukumati o'rtasida 2013-2017-yillarga mo'ljallangan iqtisodiy hamkorlik dasturi
2. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/11/19/rf/>
3. <https://uzlidep.uz/uz/news-of-party/10700>
4. <https://lex.uz/docs/-2740760>

¹¹⁰ <https://lex.uz/docs/-2740760>

**XX ASR 30-80-YILLARIDA BUXORO VILOYATIDA CHOP
ETILGAN MAHALLIY GAZETALAR TARIXIY MANBA SIFATIDA**

I.Jalilov,

Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari

(mamlakatlar bo'yicha) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalardagi ma'lumotlarning o'rganilishi natijasida BXSR faoliyati davomida amalga oshirgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy ishlar haqida ma'lumotlar o'rganilib, “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetolari tarixiy manba sifatida muhim ekanligi keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: “Kolesov voqeasi”, “Buxoro axbori”, “Ozod Buxoro”, “Vaqf ishlari haqidagi loyiha”, “Markaziy revkom”, “Xalq hukumati”.

O'zbekiston milliy davlatchiligi taraqqiyotida 1920-1924 yillarda mavjud bo'lgan Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) muhim tarixiy bosqich ekanligi ayni haqiqatdir. Biroq BXSR tarixini o'rganishda davriy matbuotning manba bo'la olishi mavzusi tadqiqotchilar nazaridan chetda qolib kelayotir. Yuqoridagi fikrdan kelib chiqib ta'kidlash joizki, “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalarining BXSR tarixini o'rganishdagi o'rni va roliga alohida tadqiqot bag'ishlash har jihatdan o'zini oqlaydi. “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalarida BXSRdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarning turli sohalari hisoblangan hukumat boshqaruv tizimi, aholi soni, ijtimoiy tarkibi, xalq salomatligi, xotin-qizlar muammosi, harbiy-ma'muriy islohotlar, paxtachilik, qorako'lchilik, ipakchilik, milliy hunarmandchilik, soliq va bank tizimlari, pul muomalasi, narx-navo, maktab va maorif tizimi, madaniy oqartuv muassasalari faoliyati, tashqi aloqalar va hokozolar haqida muhim ma'lumotlar mavjud.¹¹¹

“Buxoro axbori”ning 1920 yil 9 sentabrda bosmaxonadan chiqqan 1-sonida “Maqsad va maslak” nomli muharririyat tomonidan bosilgan yirik maqolada: “Gazetaning maqsadi buxoroliklarga inqilobimizning va uning amallarini,

¹¹¹ Amonov U. “Buxoroyi Sharif” ro'znomasi. 2007 yil

sabablarini, uning qoida va fazilatlarini bir suratda tushuntirmakdan iboratdur... Shu barobar kelajak ishlarining saodat va iqboli yo'linda rag'bat etib, Buxoroning obodlig'ig'a xizmat yetmak" kabi fikrlar mavjud. "Buxoro axbori" gazetasi o'rniga 1923 yil oktabr oyi o'rtalaridan boshlab "Ozod Buxoro" gazetasi chop etildi. Yangi gazeta haqidagi rasmiy xabar "Buxoro axbori"ning 211-soni (1923 yil 7 oktabr)dayoq "O'quvchilar diqqatiga!" nomli e'lon ostida ma'lum qilindi .

"Buxoro axbori" va "Ozod Buxoro" gazetalarida BXSrdagi iqtisodiy jarayonlar va o'zgarishlar, uning yangicha tarixiy sharoitdagi huquqiy asoslari haqida ma'lumotlar beruvchi muhim manbadir.¹¹²

"Buxoro axbori" va "Ozod Buxoro" gazetalaridagi "suv muammosi" bilan bog'liq maqola, xabarlar, hukumat qarorlari tahlil qilinarkan, respublikaning dastlabki yillarida bu masalaga e'tibor kuchli bo'lib, 1921-1922 yillarda esa bu haqida ma'lumotlar kamroq keltirilganligi mamlakatdagi siyosiy va harbiy vaziyat bilan bog'liqdir. 1924 yilda respublika viloyatlarida paxta ekiladigan maydonlar nisbati (tanob hisobida) gazetaning «Bu yil bizda paxtachilik ishlar nomli sarlavha ostidagi maqolada aniq keltirilgan. Manbalar ma'lumoticha, hukumat qancha tirishmasin izdan chiqqan paxtachilik sohasini o'zi tuzgan istiqbolli rejalar va loyihalar asosida tiklay olmagan. Mamlakatda paxta hosili Birinchi jahon urushidan oldingi darajaga ko'tarila olmaydi. 1923 yil kuziga kelib ekin ekiladigan yerlarning 80 foiziga urug' qadalgan va hosildorlik darajasi ham past bo'lgan. Gazetalarning ma'lumoticha, , BXSrdagi xo'jaligida paxtachilik sohasidan keyin g'allachilik tarmog'i muhim o'rin tutganligi anglashiladi. Biroq respublika aholisini o'zi yetishtirgan g'alla bilan ta'minlay olmagan. Bu haqida «Buxoro axbori» gazetasida yozilishicha: «Buxoro hukumati tomonidan turli joylardan oling'on bug'doy (200.000 pud) Buxorog'a kelmakda. 44 vagon Peterskiydan, 21 vagon Orenburg va Orskdan Buxorog'a uzatilib, hozirda 6 vagon yetib kelg'on»; «Volganakdiyot» shirkati vositasi bilan Krasnovodskka 2 paroxod bug'doy kelg'on. Qishloq xo'jaligining muhim tarmoqlaridan biri - chorvachilik bo'lib,

¹¹² Radjapov Q. Buxoro xalq Respublikasi: Monarxiyadan demokratiya dastlabki qadamlari. (1920-1924) T. Sharq 1999

uning qorako'chilik tarmog'i haqida gazetalarda ko'plab maqolalar uchraydi. Chorvachilikning holati ham respublika yillarida amirlik davri darajasiga ko'tarilmaganligi maqola va xabarlardan ayon bo'ladi. Masalan, «1890 yilda butun mamlakatda turli nayel qo'y hamda echkilar 800.000 adad bo'lsa, 1916 yilda 2,5 mln.ga qadar oshg'ondur. Bugun (1923 yil) qo'y va echkilar soni 500.000 dan ortiq emasdur, ya'ni 1916 yilga nisbatan 5 barobar kamayib ketg'on»,- deb yoziladi. «Buxoro axbori»da. «Ozod Buxoro»ning 7-sonidagi «Buxoroda qorako'chilik ishi» maqolasidan esa: «20- asrning boshlaridan 1913 yilg'a qadar amirlikda har yili 1.500.000-2.000.000 donagacha qorako'l teri yetishtirilg'on. 1920 yilg'a kelib, bu raqam 200.000 donaga tushib qolg'on. Faqatgina 1922 yilda bu sohada biroz jonlanish bo'lib, 800.000 dona qorako'l terilar yetishtirilg'on», - tarzidagi ma'lumotlarni o'qish mumkin. Mazkur maqola va xabarlar bilan tanishilar ekan, qorako'chilik inqiroziga sabab, qo'ylar sonining kamayishi, ichki urushlar tufayli qorako'l terilarining xorijga chiqarish keskin qisqarishi, ularga davlat tomonidan yuqori boj belgilanishi omillaridan voqif bo'linadi. 1920-1922 yillarda qorako'l terisi yetishtirishdan daromad olmagan turkmanlar oddiy qo'ylardek ularni so'yib yo'qotganligi, xususiy tadbirkorlar esa o'z mollarini Afg'oniston orqali Angliya bozorlariga yashirin ravishda chiqarganliklari bilan bog'liq qimmatli ma'lumotlar keltiriladi. «Buxoro axbori» va «Ozod Buxoro» gazetalarning bir qator sonlaridagi qishloq xo'jaligi maxsulotlari narxi bilan bog'liq ma'lumotlar orqali aholining turmush darajasi pasayib, narx-navo oshib ketganligidan xabardor bo'linadi. Ma'lumotlar orqali aholiniig turmush darajasi pasayib, narx-navolar oshib ketganligidan xabardor bo'linadi. Yukoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, 3 yil davomida asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narxi muttasil o'sib borgan, pulning qadrsizlanishi jarayoni kuchaygan. Xulosa o'rnidan shuni ta'kidlab o'tish lozimki, «Buxoro axbori» va «Ozod Buxoro» gazetalari ma'lumotlaridan kelib chiqib, 1920-1921 yillarda BXSRda yangicha tarixiy sharoitda respublika iqtisodiy tizimining huquqiy asoslarini yaratish va yo'lga qo'yish uchun hukumat tomonidan amaliy harakatlar

olib borilgan.¹¹³ «Buxoro axbori» gazetasi Buxoro Xalq Respublikasining ichki va tashqi sohada olib borgan siyosati, o'z davrining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy jarayonlari va muammolari yaxshilash masalasida hukumat tomonidan amalga oshirgan masalalarini o'nlab ruknlar ostida imkon qadar xolisona hamda tanqidiy ruh bilan yoritishga erishdi desak adashmaymiz. Shuningdek, mazkur manbalarda BXSР faoliyatida 1921-1922 yillarda qizil askarlar bilan «bosmachilar» (sovet rejimiga qarshi qurolli harakat ishtirokchilari) o'rtasidagi kurash tufayli xalq xo'jaligini tiklash, uni rivojlantirish, yangi reja va loyihalarni amalga tadbiiq qilish imkoniyati bo'lmaganligi haqida ham ma'lumotlarni bilib olishimiz mumkin. Shu bilan birga ushbu yillar BXSРda iqtisodiyotning bir qadar mustaqil rivojlanish jihatlari ham kuzatiladi. 1923-1924 yillarda esa Markaz BXSР iqtisodiyotini barcha tarmoqlarini o'z izmiga sekin-asta bo'ysindira bordi.

Adabiyotlar

1. Amonov U. "Buxoroyi Sharif" ro'znomasi. 2007 yil
2. Radjapov Q. Buxoro xalq Respublikasi: Monarxiyadan demokratiya dastlabki qadamlari. (1920-1924) T. Sharq 1999
3. Alimova D. O'zbekiston tarixi (1917-1991)10-sinf o'quvchilari uchun darslik. T. Sharq 2004

“BUXORO HAQIQATI” VA “BUXORONOMA” GAZETALARI

TASNIFI

A.A.Jo'raboyev,

Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari

(mamlakatlar bo'yicha) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro viloyatining davriy matbuot organi hisoblangan-“Buxoro haqiqati” “Buxoronoma” gazetasi nafaqat O'zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyodagi qadimiy nashrlardan ekanligi haqida so'z boradi.

¹¹³ Alimova D. O'zbekiston tarixi (1917-1991)10-sinf o'quvchilari uchun darslik. T. Sharq 2004

Kalit so'zlar: Oshkoralik, Buxoronoma, davriy matbuot organi, “Ozod Buxoro”, gazeta.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillik yillaridagi milliy o'zlikni anglashga bo'lgan istak va intilish o'zbek xalqining haqqoniy tarixini yaratish masalasini kun tartibiga qo'ydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev **Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga bayram tabrigida** “Biz jamiyatimizda oshkoralik, adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashda, huquqiy demokratik davlat asoslarini mustahkamlashda sizlarga, sizlarning bilim va iste'dodingizga tayanamiz”¹¹⁴, deganlari ham bejizga emas, albatta. O'zbekiston tarixida Buxoro vohasining XX asrning 30-yillardan 90-yillarga qadar bo'lgan tarixi muhim tarixiy davr ekanligi ayni haqiqatdir. Ushbu tarixiy davrni yoritishda tarixchi olimlar tomonidan yozilgan ilmiy adabiyotlardan tashqari, davriy matbuot ham muhim manba bo'lib xizmat qila oladi. Ushbu manbalar orasida “Buxoro haqiqati”, “Buxoronoma” ro'znomalari alohida o'ringa ega. Buxoro viloyatining davriy matbuot organi hisoblangan “Buxoro haqiqati” “Buxoronoma” gazetasi nafaqat O'zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyodagi qadimiy nashrlardan biridir. Ikkinchidan bu joyda xalq baxt iqboli, yurt farovonligi, tariximizning bardavomligi uchun bilim va mahoratini, kuch qudratini ayamagan F.Xo'jayev, A.Fitrat, S.Ayniy, A.Cho'lpon, Y.Muqimov, T.Hamid kabi davlat arboblari, o'tkir publitsistlarning izlari bor. “Buxoro haqiqati” gazetasi 1938-yilda O'zbekiston Kommunistik partiyasi komiteti va xalq deputatlari Buxoro viloyati soveti organi sifatida tashkil etilgan etilgan. “Buxoro haqiqati” gazetasi “Buxoro axbori” (1920-yil 28-iyundan 1923- yilgacha), “Ozod Buxoro” (1923-1928), “Buxoro proletari” (1928-1938) gazetalarining davomchisi sifatida faoliyat yuritgan. “Buxoro haqiqati” gazetasi tashkil topgan vaqtda tahririyat hozirgi Shahriston bozorining g'arb tomonidagi kichik bir binoda joylashib, tahririyatda o'sha davrda 40 dan ziyod ziyod kishi ishlagan. “Buxoro haqiqati” gazetasining dastlabki bosh muharriri 1938-1940-yillarda Otaxon Toshxo'jayev

¹¹⁴ <https://xs.uz/uz/post/prezident-tabrigi-matbuot-va-ommavij-akhborot-vositalari-khodimlariga>

bo'lgan. Gazeta 2 jilddan, A-4 sahifadan iborat bo'lib, 42x62sm, haftada 5 marta nashr qilingan.¹¹⁵ Gazeta asosan urushgacha bo'lgan besh yillik qurilishlar davrida viloyat iqtisodiyoti asosini yaratish, qishloq xo'jaligini rivojlantirish, irrigatsiya inshootlari va sanoat korxonalarini qurilishlariga oid masalalarni yoritgan bo'lsa, ikkinchi jahon urushi yillarida otashin so'zi bilan buxoroliklarning vatan mudofaasiga, g'alabani yaqinlashtirishga da'vat etgan. Gazetaga Y.Muqimov bosh muharrir, T.Hamid bosh muharrir o'rinbosari bo'lgan yillar, o'tgan asrning 50-yillari oxiri 60-yillari boshlarida matbuotda tub o'zgarishlar sodir bo'lib, gazeta katta hajmda, A-2 shaklda nashr qilina boshlandi.

Gazetada bu davrda tajribali jurnalistlar ko'pchilikni tashkil etgan. Jumladan, Shukur Hasanov, G'ulom Kenjayev, Muhammad Baqoyev, Murod Hakimov, Habib Abdullayev, Axror Bahromov singari ijodkorlarning nomi gazeta sahifalarida munosib joy olgan.¹¹⁶ Shoir Murod Xalilov gazetada ishlagan davrda o'zining yorqin ijodkorligi bilan tanilgan. Shoir Amu-Buxoro mashina kanali qurulish qahramonlariga bag'ishlangan ocherklar to'plami, tabiiy gaz konlarida mehnat qilgan buxorolik Ergash Ochilov haqidagi dostoni shoirni butun ommaga tanitdi. Shoir Aminjon Shukurov o'n yildan ziyod vaqt mobaynida "Buxoro haqiqati" tahririyatida sa'noat, qurilish va transport bo'limini boshqarib, viloyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy o'zgarishlarini har bir sonida mufassal yoritib borgan. "Buxoro haqiqati" tahririyatida ishlagan jurnalist Nusrat Ashurov va Hoshim Qodirovlar felyeton ustalari sifatida gazetxon xotirasida qolishgan. Kasbiga sodiq bu mohir qalam sohiblari tanqidiy materiallari uchun nohaq bosim va taqiblarga uchragan bo'lsalar ham haqiqat yo'lidan qaytmaganlar. XX asr 60 yillar boshiga qadar moddiy texnik bazasi tamomila izdan chiqqan bo'lib, katta hajmdagi nashr eskirgan texnika asbob uskunalariga ega bosmaxonada chop etilgan. 1958-yil kuz oyida gazeta hayotida yangi davr boshlandi. Ya'ni moddiy texnik jihatdan eskirgan matbaa sohasida o'zgarishlar bo'lib, Moskva, Toshkent bosmaxonalarida ishlatilib

¹¹⁵ Shonli 60 yil // Buxoro haqiqati.1980-yil 12-iyul.

¹¹⁶ Muqimov Y. Ming ta'zim // 20.000-uchrashuv "Buxoronoma" gazetasi 20.000-soni chiqqaniga bag'ishlangan publitsistik risola. Buxoro, 2007. - B. 5.

eskirgan chop etish mashinasi yetkazib berilgan.¹¹⁷ Gazetaga mustaqillikgacha bo'lgan davrda Abdurahim Nurmuhammedov (1940-1958), Yo'ldosh Muqimov (1958-1961), Obloqul Egamov (1961-1966), Xomidjon Mo'minov (1966-1970), Toshpo'lat Hamid (1970-1980), Umid Sattorov (1980-1983), Ahmadjon Nurmuhammedovlar bosh muharrirlik qilganlar.

Mustaqillik yillarida Toshpo'lat Ahmedov (1993-1996), va Nusratillo Naimovlar (1996-2002) bosh muharrirlik qilganlar.¹¹⁸ Mustaqillik sharofati bilan gazeta sifat darajasi o'zgarib kompyuterlashtirish joriy etildi. 1997-yilning 1-senabridan boshlab tahririyat to'la ravishda kompyuter texnologiyasiga o'tdi. Gazetaning mazmun mundarijasini va tezkorligini oshirish maqsadida O'zA bilan elektron aloqa yo'lga qo'yilib, har qanday materialni bir necha daqiqada Toshkentdan qabul qilish va to'g'ridan-to'g'ri gazeta sahifalariga joylashtirish joriy etildi. 1998-1999-yillarga kelib tahririyat nafaqat Buxoro, balki Navoiy, Qashqadaryo, Xorazm viloyat jurnalistlari uchun o'ziga xos tajriba maktabiga aylandi. “Бухарский вестник” viloyat gazetasi, tuman va shahar gazetolari va viloyat bosmaxonasi xodimlari Buxoro tahririyatidan tajriba o'rganib ilg'or texnologiyalarni o'zlarida joriy etishdi. Gazetaning adadi ellik ming nusxadan oshdi. “Buxoro haqiqati” gazetasi 1999-yil 4-dekabrda boshlab “Buxoronoma” nomi bilan chop etilmoqda. “Buxoronoma” - Buxoro viloyati hokimligining ijtimoiy, siyosiy gazetasidir. Gazeta Buxoro shahrida haftada ikki marta o'zbek tilida chiqadi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyingi davrda “Buxoronoma” shaklan va mazmunan tubdan o'zgarib, Buxoro viloyati hayotini har vaqtdagidan yaxshiroq yoritishga harakat qilmoqda. Gazeta istiqlol mafkurasini shakllantirish, yosh avlodni iymon e'tiqodli, vatanga sadoqatli qilib tarbiyalash, bozor munosabatlarini rivojlantirish, qishloq xo'jalikda islohotlarni amalga oshirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, Buxoro shahrini obodonlashtirish va undagi asori atiqalarni asrab-avaylash mavzulariga doimiy

¹¹⁷ Niyozmurodov A. Istiqlol bergan imkoniyat // 20.000-uchrashuv “Buxoronoma” gazetasi 20.000-soni chiqqaniga bag'ishlangan publisistik risola. Buxoro, 2007. - B.7.

¹¹⁸ Niyozmurodov A. Istiqlol bergan imkoniyat // 20.000-uchrashuv “Buxoronoma” gazetasi 20.000-soni chiqqaniga bag'ishlangan publisistik risola. Buxoro, 2007. -B. 8

e'tibor bermoqda.¹¹⁹ Gazeta mustaqillik davrining yirik korxonasi bo'lgan Buxoro neftni qayta ishlash zavodi qurilishida muxbirlar lavozimi tashkil qilib, ikki yil mobaynida qurilishning borishini muntazam yoritib turdi. Buxoro shahriningning 2500 yillik yubileyi oldidan turkum maqolalar berdi. “Buxoronoma” gazetasi o'zining 20000 soni chiqishi munosabati bilan 2007- yilda “20000-son uchrashuv” nomli ilmiy publitsistik risola va 2010-yilda gazetaning 90 yillik tarixiga bag'ishlangan “Tarixga muxrlangan 90 yil” nomli kitobi nashr qilingan. Tahririyatda iqtisodiyot, ijtimoiy masalalar, huquq hamda xatlar va ommaviy ishlar bo'limlari ishlab turibdi.

Adabiyotlar

1. Muqimov Y. Ming ta'zim // 20.000-uchrashuv “Buxoronoma” gazetasi 20.000-soni chiqqaniga bag'ishlangan publitsistik risola. Buxoro, 2007.
2. Niyozmurodov A. Istiqlol bergan imkoniyat // 20.000-uchrashuv “Buxoronoma” gazetasi 20.000-soni chiqqaniga bag'ishlangan publitsistik risola. Buxoro, 2007.
3. Naimov N. Buxoronoma. O'zbekiston milliy ensklopedyasi. B. 2. - T.: O'zME nashriyoti, 2005.
4. Shonli 60 yil // Buxoro haqiqati.1980-yil 12-iyul.
5. <https://xs.uz/uz/post/prezident-tabrigi-matbuot-va-ommavij-akhborot-vositalari-khodimlariga>

“ABDULLANOMA” ASARINING TARIXSHUNOSLIK FANIDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

S.A.Aslonov,

*Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari
(mamlakatlar bo'yicha) mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” asarini ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: “Tarixi Buxoro”, “Sharafnomayi shohiy”, qo'lyozma nusxa.

¹¹⁹ Naimov N. Buxoronoma. O'zbekiston milliy ensklopedyasi. B. 2. - T.: O'zME nashriyoti, 2005. - B. 271

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev 2020-yil 25-dekabrda yoshlar forumidagi ishtiroki, so'zlari va tashabbuslari navqiron avlodga katta motivatsiya bag'ishlagan edi. Prezidentimiz o'z so'zlarida “Ulug' allomalarimiz, o'zlarining olamshumul kashfiyot va ixtirolarini sizning yoshingizda – ayni kuchga to'lgan navqiron chog'larida amalga oshirganlar. Siz ham, buyuk ajdodlardan ibrat olib, hayotda mo'jizalar yaratishga astoydil intilishingiz kerak”,¹²⁰ – deya ta'kidladi. Shu o'rinda Buxoro farzandi Hofiz Tanish Buxoriyning ilmiy me'rosini dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Hofiz Tanish Buxoriy XVI asrda yashab ijod qilgan. U Buxorolik shoir va tarixchi sanaladi. U 1549-yil mansabdor oilada tug'iladi va otasi Mir Muhammad al Buxoriy xonlikning nufuzli kishilaridan biri bo'lib, 1550-yil Koshg'arga ketib o'sha yerda vafot etadi. Hofiz Tanish Buxoriy esa o'z davrining ma'lumotli kishilaridan bo'lib, u 1584-yil Abdullaxonning amaldorlaridan biri Qulbobo ko'kaldoshning tavsiyasi bilan hukumdorning xizmatiga shaxsiy voqeanavis, tarixchi bo'lib o'tadi. Hofiz Tanish Buxoriy “Abdullanoma” yoki “Sharafnomayi shohiy” asari bilan tarixda qolgan shaxsdir. Kitobda O'zbekiston, Qozog'iston, shuningdek Afg'oniston va Eronning XVI asrdagi ijtimoiy - siyosiy tarixi ham bayon qilingan bo'lib, bu xalqlar o'rtasidagi madaniy, siyosiy, savdo, diplomatik munosabatlar haqida qimmatli ma'lumotlar keltirib o'tadi. Undan tashqari, asarda Buxoro xonligi bilan Eron, Hindiston, Qoshg'ar va Rossiya o'rtasidagi munosabatlar haqida ham ma'lumotlar keltirib o'tadi.

Hofiz Tanish Buxoriy asarini XVI asrning 80 yillarida yozib tugallaganligi haqida zamondoshlaridan Mutribiy aytib o'tadi. Shuningdek Mutribiy bu asarning oxirgi qismini xonning buyrug'i bilan qozi Poyanda Zominiy yozgan deb keltirib o'tadi. “Sharafnomayi shohiy” muallifning rejasiga ko'ra asar muqaddima, ikki qism yoki maqola va xotimadan iborat qilib yozishni xohlagan. Muqaddimada Allohning madhu va hamdu sanosi, homiy, hukumdor Abdullaxonning shaniga aytiladigan tavsiflar, Abdullaxonning ota bobolari, qadimda Markaziy Osiyoda

¹²⁰ <https://mintrans.uz/news/prezident-yoshlarga-azhdodlardan-ibrat-olib-hayotda-mozhizalar-yaratishga-astoydil-intilishingiz-kerak>

hukumronlik qilgan turk-mo'g'ul qavmlari, Chingizxon va uning avlodlari haqida ma'lumot keltirgan. Birinchi maqolada Movoraunnahrda 1533-1583-yillarda sodir bo'lgan voqealar keltirilgan. Ikkinchi maqolada esa O'zbekiston, Qozog'iston va qo'shni davlatlarda yuz berishi mumkin bo'lgan voqealar keltirib o'tilgan. Xotimada esa Abdullaxonning ajoyib fazilatlari, u bilan bir davrda yashagan shayxlar, vazirlar, amirlar, va shuningdek Abdullaxon zamonida qurilgan binolar haqida ma'lumot keltirib o'tishni xohlagan. Lekin asar yozilishi o'zgargan, ya'ni birinchi va ikkinchi reja qo'shib yozilgan, xotima esa muallifning bevaqt o'limi tufayli yozilmay qolgan. Muallif asar muqadimasida keltirishicha Narshaxiyning "Tarixi Buxoro", shayxulislom Sayfiddin Abubakr Abdullo Balxiyning "Fazoili Balx", Istaxriyning "Kitobi masolik ul-mamolik", Juvayniyning "Tarixi Jahonkushoyi", Rashiduddinning "Jome ut-tavorix", Mirxondning "Ravzat us-safo", Sharfiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Mirza Muhammad Haydarning "Tarixi Rashidiy" kabi asarlardan foydalanib asarni yozadi.¹²¹

XVI asrda sodir bo'lgan voqealar saroyda muntazam foydalanadigan kundalik daftar, sodir bo'lgan siyosiy ijtimoiy masalarni o'zi guvohi bo'lib, 70-80-yillar oralig'idagi ma'lumotlarni o'zi ketirib o'tadi. "Sharafnomayi shohiy" da Firdavsiy, Rudakiy, Sa'diy, Kamoliddin Binoiy, Mushfiqiy, "Qur'oni karim" oyatlari va shunga o'xshagan buyk shaxslarning she'riy parchalari keltirilgan. Kitobda siyosiy voqealar bilan birga ijtimoiy, iqtisodiy mavzularga doir ma'lumotlar ham keltirib o'tilgan. Shu jumladan soliq, iqto, suyurg'ol, xiroj, ixrijot, tog'ar, kabi davlat tayanch birliklari ham keltirib o'tilgan. Ushbu asarning qo'lyozma nusxalari ko'p, asl matinning uchdan ikki qismi Sank-Peturburglik olimi M. Salohutdinova ruscha tarjimasi bilan chop tgan. Kitob 1942-1952-yillari Sodiq Mirzayev va oxirgi qismi Y.Hakimjanovlar tomonidan 60-yillar o'zbek tiliga tarjima qilindi. Biroq 1-2-jildlari zarur tuzatishlar, tadqiqot izohlari bilan 1966 va 1969-yillarda B. Ahmedov tomonidan chop etilgan. 3-4-jildlarini 1995-1997-yillarda chop etadi. "Abdullanoma" ning ikkinchi kitobida Movoraunnahr va

¹²¹ Ахмедов Б.А. Узбекистан хал клари тарихи манбалари. Тошкент. 1991.

Dashti Qipchoqda to'rt yil 1579-1583-yillarda bo'lib o'tgan siyosiy voqealar hamda Abdullaxonning Badaxshon, Ko'lob, Hirotni buysundirishi bilan bog'liq voqealar haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Bizga ma'lumki, Abdullaxon 1567-1576-yillari og'ir kurashlardan so'ng, Movoraunnahrni batomom birlashtirishga muvofiq bo'ladi. Shu o'rinda mustaqil markaziy davlat aparatini o'rnatishga muvofiq bo'ladi. Shuning uchun ham Abdullaxonning yurishlari zo'r ko'tarinki ruhda tasvirlangan. Shu o'rinda bu yurishlarni kitobida saroyni osoyishtaligini ta'minlash uchun qilingan kurashlar deb takidlaydi. Biroq asarda keltirilgan voqealarni diqqat bilan e'tibor bersak, muallif oddiy xalqning bu yurishlardan behisob aziyat chekkanligini guvohi bo'lamiz. Asarda bo'ysunmagan shahar va qishloqlarning bo'ysunmaganlarini qirib tashlanganligi va mol-mulklari talon taroj qilinganliklari haqida ko'pgina ma'lumotlar uchraydi. "Abdullanoma" ning Sodiq Mirzayev tarjimasiga asos bo'lgan nusxasi to'liq bo'lmay, 1583-yil voqealari bilan tugallangan, jumladan asarning Sank-Peturburg, Boku va Dushanbada saqlanadigan nusxalari 1584-1588-yillar voqealarini ham o'z ichiga oladi.¹²²

Asarning 1584-1588-yillarda Badaxshon, Ko'lob va Hirotning Buxoro xonligi qo'shib olinishi, movoraunnahr va Xorazmning ana shu yillar ichidagi ijtimoiy-siyosiy ahvolini o'z ichiga olgan qismi Sank-Peturburg va Boku nusxalari asosida arab va fors tiliga Yunusxo'ja Hakimjonov tarjima qilgan. "Abdullanoma" asari haqiqatdan bizga tarixda bo'lib o'tgan voqealar haqida haqiqatni yoritib bergan asardir. Shu jumladan, bu kitobni qancha ko'p o'qilmasin undagi voqaelardan yanada yangi tarixiy jarayonlarni aniqlashga musharaf bo'lamiz. Darhaqiqat asar Abdullaxonning buyrug'i bilan yozilganligini yoddan chiqarmasligimiz lozim, negaki bu asarda keltirib o'tilgan voqealar, albatta, Abdullaxonning olib borgan siyosatini qay darajada yuksakligi hamda, tarixiy voqealarning ketma-ketligi aniq qilib berilgan. "Abdullanoma" asari har jihatdan mukammal yozilgan tarixiy manbadir. Abdullaxonning tasnifi albatta asarda ajoyib

¹²² Ахунова М., Лунин Б.В. История исторической науки в Узбекистане Т. Фан, 1970. 220 б.

qilib, yoritib berilgan. Shuningdek asarda o'sha davr zamon bilan qaraydigan bo'lsak, oddiy xalq qiynalganligini ham Hofiz Tanish Buxoriy o'z asarida keltirib o'tadi. "Abdullanoma" asari haqida bir qancha olimlar ham tadqiqotlari jarayonida uning mukammalligini va uning o'sha davr zamon ruhida yozilganini haqiqatni yoritilishi boshqa asarlarga nisbatan salmoqli o'rinda turganligini ham ta'kidlab o'tadi. Asarda Abdullaxonning taxtga kelishi jarayonida siyosiy vaziyat qay darajada bo'lganligi haqida ko'p ma'lumot uchramaydi, biroq Abdullaxonning viloyat va shaharlarga qilgan yurishlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Darhaqiqat tarixiy voqealarning jarayoni hamda Dashti Qipchoqdagi elchilik aloqalari, Badaxshon elchilik aloqalari haqida ham ko'pgina ma'lumotlar batafsil yoritib berilgan.

Adabiyotlar

1. Ахмедов Б.А. Узбекистан хал клари тарихи манбалари. Тошкент. 1991.
2. Ахунова М., Лунин Б.В. История исторической науки в Узбекистане Т. Фан, 1970. 220 б
3. <https://mintrans.uz/news/prezident-yoshlarga-azhdodlardan-ibrat-olib-hayotda-mozhizalar-yaratishga-astojdil-intilishingiz-kerak>

ASHTARXONIYLAR DAVRIDA YOZILGAN “ABULFAYZXON TARIXI” ASARI O'ZBEK TARIXSHUNOSLIGINING MUHIM MANBASI

Sh.Yusupova,

Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari

(mamlakatlar bo'yicha) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarixiy manbashunoslikda juda qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan Abdurahmon Tole'ning "Abulfayzxon tarixi" asari qadimiy va muhim manbaligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Feodallar, xonlik, Farg'ona biyligi, Cherkasskiy (Davlat Girey) ekspeditsiyasi.

XVII-XVIII asr boshlari tarixini bayon etuvchi Muhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullanoma”, Muhammad ibn Muhammad Zamon Buxoriyning “Muhit ut-tavorix” (Tarixlar dengizi), Abdurahmon Tole'ning “Abulfayzxon tarixi”, Muhammad Yusuf Munishiyning “Muqimxon tarixi” asarlari shu davrning mahsulidir. Bundan tashqari Mahmud ibn Vali (“Bahr-ul asror”), Xoja Samandar Termiziyning “Dastur al-muluk” asari, Mir Muhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullanoma”, Muhammad Vafo Karmanagiyning “Tuhfat ul-xoniy”, Abdurahmon Davlatning “Tarixi Abulfayzxon” kabi tarixiy asarlari yaratildi.

Bu xususida Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning “Hamma o‘z tarixini ulug‘laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo‘q. Bu merosni chuqur o‘rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak”,¹²³ - deb aytgan so‘zlari buning yaqqol dalili hisoblanadi.

Davrlarchilgimizning eng zaiflashuv paytiga asos solgan qo‘g‘irchoq hukmdor, zaif va notavon Buxoro xoni bo‘lgan bu shaxs hukmdorlik qilgan davr O‘rta Osiyoning siyosiy, ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy inqirozi jarayoni kechgan davrdir. Abulfayzxon feodallar oldida oddiygina hukmdor bo‘lib, Abdurahmon Tolening “Tarixi Abulfayzxon” asarini o‘qish jarayonida uning mamlakat hayotida hech qanday ta’sirga ega bo‘lmaganini yaqqol anglaymiz. Mamlakat 20-yillardan boshlab alohida hududlarga bo‘linib keta boshladi. Dastavval Ibrohim kenagas Samarqandda va Shahrisabzda bosh ko‘tarib, mustaqil xonlik e‘lon qildi. Bu davlat yarim mustaqilligini 1859-yilgacha saqlab, birlik yo‘lida katta to‘siqqa aylangan fasod uyasi edi. O‘ratepada yuz qabilasi o‘z hukmini o‘rnatdi. Hisor, Qobodiyon, Badaxshon mahalliy sulolalar qo‘liga o‘tib ketdi. Amudaryo janubidagi viloyatlar Vali Muhammadxon avlodlari qo‘lida to‘plandi. Keyinchalik alohida xonliklarga aylandi. Ahmadshoh davrida afg‘on istilochilariga yemak bo‘ldi. Farg‘ona Ubaydulloxon soniy zamonasi oxiridayoq mustaqillik da‘vo qildi. Shoxrux biy ming ismli kimsa separatizm yo‘liga o‘tdi. Uning avlodi Abdurahimbiy mustaqil

¹²³ <https://zamin.uz/uz/ozbekiston/46734-mirziyoyev-mamlakatimizdagidek-boy-tarix-bobolarimizdek-buyuk-allomalar-hech-qayerda-yoq.html>

Farg'ona biyligini tuzib parchalanishni boshladi. Feodallar orasida haqiqiy urush ketar, mamlakat xonavayron, hukmdor arki esa qon qusishni boshlagan davr edi. Xon qabohat yo'lini tanladi. Bisotidagi barcha 8 o'g'lini qatl etishga buyurdi. Birginasi omon qoldi, xolos. O'zi qo'g'irchoq xon bo'la turib boshqa mamlakatlar ichki ishiga aralashishga harakat qildi. Misol uchun Rossiyaning Xivaga 1717-yilda yuborgan Cherkasskiy (Davlat Girey) ekspeditsiyasining xon Sherg'oziy tomonidan tor-mor qilinishini hazm qila olmay, Rossiya podshosiga hamdardlik bildirdi. Abulfayz yordami bilan 1715-yili o'z mamlakatidan quvilgan shahzoda Shoh Temur ibn Musaxon 1722-yili Orolbo'yida isyon qilib, xon deya o'zini e'lon qildi va Xiva xonligi ikkiga bo'linib, yanada qiyinchilikka tushdi. Keyinchalik Xiva Eron tomonidan ishg'ol etilib, avvalgi nufuzini butunlay yo'qotdi. Abulfayzxon hukumatini ag'darishga uringan Rajab sulton va Ibrohimbiy 1723-yili qozoq-qo'ng'iroq va qoraqalpolardan foydalanishga qaror berdilar. Bu mudhish fojealarga olib kelishini xayollariga ham keltirmadilar. O'sha asrning daxshatli armiyasini tuza olgan ko'chmanchi qalmoqiya bir vaqtning o'zida ham qozoq ham qoraqalpoq ham turkmanlar va o'zbeklar ustiga yurib, ularni xonavayron qildilar. Toshkent va Turkistonni qalmoq askarlari vayron qildilar. Toshkentning tub aholisi kamayib, qozoqlar va jung'orlar nufuzi oshdi. Hozirda ham shaharning asl aholisi qisman Chorsu atrofida yashab, atrof hududlardan ko'chib kelganlar bilan aralashib ketgan. Jung'oriya zulmida qolgan och, qochoq, ko'chmanchi qozoq va qoraqalpoqlar Ibrohimbiy da'vati bilan Movarounnahrda kelib 7 yil davomida bu hududdagi barcha shahar va qishloqlarni odamdan holi, dala va ekinzorlarni don-undandan nari qildilar. Tarixchi olim Beysembiyev yozishicha o'sha yillar mo'g'ul istilosida bo'lgani kabi daxshatli edi. Buxoroda aholi yashaydigan faqat 2 mahalla qolgan, Samarqandda 1735-yili birgina shayxdan boshqa odam yashamagan.¹²⁴ Ko'chmanchilar dehqonchilik maydonini toptadilar natijada ochlik boshlandi. Ocharchilik butun mintaqaga tarqalgan va 12000 o'zbek va tojik Hindistonga ko'chib ketgan. Natijada 1740-yil Nodirshohning zambaraklari mintaqani forslar

¹²⁴ Ефремов Ф. Десятилетнее странствование. –М., 1950. – С. 26

zulmiga osongina tashladi. Samarqand va Buxoro shahriga ko'plab eroniylar ko'chib kelishdi. Bu siyosatni amir Shohmurod ham qo'lladi. Shohmurod 1785-yillardan so'ng 40 000 eroniyni shaharlarga joylashtirdi. Amir Nasrulloh ularni davlatning eng yuqori lavozimlariga qo'ydi. Natijada shahar aholisi tarkibida turkiyzabonlar kamayib, bu ikki qadimiy shahar fors-tojik aholisi qo'lida qoldi. Hatto Suxaryova aytishi bo'yicha shaharga keyinchalik kelgan turkiylar ham ko'p sonli erondan kelganlar ta'sirida tojiklashib ketishgan va hozir ularning avlodlari o'zini tojik, vatanini Tojikiston, qardoshini Eron deya noto'g'ri fikrlamoqda. Chingiz avlodlari hukmronligining so'nggi davri keldi. Rus rassomi Vereshchagin 1868-yilda bunday degan edi “Endilikda bu mintaqada Chingiziylar davri o'tdi”. Bu fikrlar 100 yil keyin aytilgan bo'lsa-da, ammo biz so'zlayotgan davrda ham Chingiziy xonlarning hukmronligi tugab borayotgan edi. Abulfayz 1747-yili qon qusdi.

1806-yili Abulg'oziy V Xiva taxtini Muhammad Rahimga topshirdi (Firdavs ul iqbol). Mintaqamiz istilochilar zarbasiga uchradi. Butun Osiyodagi XVIII asr inqirozining eng salbiy ko'rinishi Movarounnahrda kuzatilindi.¹²⁵ 1740-yili qizilbosh eroniylar o'zbek davlatchilik asoslarini tor-mor qildi. Jung'oriya Xiva hamda Buxoro xonlarini qaramlikka undadi. Qozoqlar yashashga joy, qoraqalpoqlar kiyishga kafan, qo'qonliklar dehqonchikka maydon, turkmanlar ko'pkariga ot topa olmay qolgan zamonlar edi. Xorazmning XII-XIII asrda imperiya bo'lganini avlodlar allaqachon unutgan edilar. Taxt o'yinchoq bo'lib qoldi. Inoqlar hukmida bo'lgan xonlar oyiga yangilanib turdi. 1760-yillar Xorazm tarixidagi eng qora davrlardan biri edi. Norbo'tabiy davrida Qo'qon gullayotganida Buxoro va Xiva ochlik va ko'chmanchilar dastidan dod demoqda edi. Ocharchilik bu hudud aholisini holdan toydirdi. 1760-yillarda turkman avboshlari Xorazmga yopirildilar. Ular qo'lga tushgan barcha joylarni xonavayron qildilar. Muhammad Amin inoq Buxoroga qochdi. Xorazmliklar ham Orol tomonga va Buxoroga ommaviy ko'cha boshlashdi. O'sha davrda Munis yozishi bo'yicha Urganchda bor

¹²⁵ Tarixiy manbashunoslik. Tuzuvchilar: A.A. Madraimov, G.S. Fuzailova. – T.: Fan, 2006.

yo'g'i 10-20 xonadon yashagan va juma namozida bor yog'i 3 kishigina qatnashgan ekan. Odamxo'rlik holati ham yuz bergan. Misol uchun shahar atrofida 3-4 ayol ko'zga ko'ringan qariya va bolani tutib, ularning go'shtini yeyishgan. Buxoro atroflarida Munisning ma'lumoticha qo'ng'iroq qabilasidan bo'lgan sarbozlar odam go'shtini kabob qilayotgan bir guruh yo'lto'sarlarni ko'rib ularni qilichdan o'tkazgan. Hatto o'z qo'shnisining bolasini so'yib yeyish holatlari bo'lgan. Bu daxshatli xotiralar tariximizning bir qismidir. Nihoyat Muhammad Amin Xivada qisman tartib o'rnatdi. Buxoroda amir Shohmurod shariatni tikladi. Qo'qonda Olimxon o'zini xon deb e'lon qildi. Ammo bu uch davlatning alohidaligi keyingi asrda yangi istilochilarga qo'l keldi xolos. Rossiya mintaqani 5 qismga bo'lib, ig'vo urug'ini sochdi. Avlodlar endilikda yer suv talashib o'zlarining mag'lubiyatga olib kelgan qora tarixlarini unutmogdalar.

Adabiyotlar

1. Tarixiy manbashunoslik. Tuzuvchilar: A.A. Madraimov, G.S. Fuzailova. – T.: Fan, 2006.
2. Ефремов Ф. Десятилетнее странствование. –М., 1950. – С. 26
3. <https://zamin.uz/uz/ozbekiston/46734-mirziyoyev-mamlakatimizdagidek-boy-tarix-bobolarimizdek-buyuk-allomalar-hech-qayerdayoq.html>
- 4.

XORAZMSHOHLAR DAVRIDA BUXORODA ILM – FANNING RIVOJLANISHI

B.Muyiddinov

Tarixshunoslik va manbashunoslik, tarixiy tadqiqot usullari mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazmshohlar davlatida ilm – fan o'choqlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi, yuksalishi madaniyat markazlarining vujudga kelishi va unda Xorazm tarkibiga kiruvchi shaharlarning yuksak va beqiyos o'rni borligi, ayniqsa, Buxoro shahri ilm– fanning markazi bo'lishi va bir

qancha buxorolik allomalarning fan va madaniyatga hissa qo'shganligi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Xorazmshohlar, Buxoro, ilm – fan markazlari, Xizonatul-kutub, Qosim Abu Muhammad Buxoriy, Al-Hakim Abu Ja'far ibn Muhammad Buxoriy, astronomiya, tabobat, kotiblar, Otsiz, ilm – fan homiylari, Bag'dod, mudarris.

Xorazm hududi moziydan boshlab ilm - fan, adabiyot, san'at va madaniyat rivoj topgan yurt bo'lib, ilm – fani yuksak taraqqiy qilgan davlat bo'lganligi bilan bir qatorda jahon ilm – fan va sivilizatsiyasi rivojiga ham ulkan hissa qo'shganligi bilan birga ham e'tirofga sazovordir. Tarixiy manbalarni o'rganar ekanmiz, xorazmshohlar davlati xalqaro maydonda katta obro' va e'tiborga sazovor bo'lganligining shohidi bo'lamiz.

Xorazmshohlar davlatida madaniyat, adabiyot va san'at ayniqsa Takash va Muhammad hukmronlik qilgan davrlarda rivoj topdi. Gurganchda Otsiz Xorazmshoh tashabbusi bilan qayta tiklangan Akademiyaga asosan filologiya (ilmi adab, ilmi naxv), falsafa, ilohiyot (teologiya), fiqh (islom huquqshunosligi), tabiiy fanlar, ilmi ziroat (dehqonchilik), tibbiyot, riyoziyot va falakaiyot, me'morchilik, suv inshootlari (to'g'onlar, chig'irlar, koriz-qanotlar), kemasozlik, temirchilik va boshqa hunarmandchilik turlari (duradgorlik, misgarlik, kulolchilik, kunchilik va h.k.) nazariy asoslari va amaliyoti haqida ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi¹²⁶. Va ayniqsa Xorazmda tabobat yaxshi rivojlangan bo'lib, markazlardan biri edi¹²⁷. Otsiz asosiy e'tiborni mamlakat hududlarini kengaytirishga, birinchi navbatda, Sharq va G'arb mamlakatlari bilan savdo-sotiq ishlarini rivojlantirishga qaratdi. Buyuk Ipak yo'li karvonlari xavfsizligi ta'minlanishi xorijiy savdogarlarning Gurganch sari oqimini yanada kengaytirdi, mamlakat bozorlari chet el mollari bilan to'lib-toshib ketdi. Takashning ilm toliblarini bilimli va ma'rifatli qilish maqsadida ko'plab madrasalar, masjidlar, kutubxona (dor ul-kutub) lar va jamoat

¹²⁶ Masharipov O. Xorazmno'ma //T.: Xorazm nashriyati — 2007. – 223 b.

¹²⁷ Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi (davri, madaniy ha'et, manbalar) // T.: Fan nashriyati - 1999.- 39 b.

binolari qurdirgani, hatto ba'zi madrasa talabalarini pul va oziq-ovqat, kiyim-kechak bilan ham ta'minlab turgani tarixdan ma'lumdir¹²⁸. O'sha davrda yirik ilmiy va madaniy markazlardan biriga aylangan Gurganj va Katda ma'naviyatning bunday rivojida mahalliy olimu-adiblar, shoirlar bilan bir qatorda xorijiy yurtlardan Xorazmga kelib yashab, ijod qilgan olimu fozillar va shoirlarning ham hissasi katta bo'lgan, albatta¹²⁹. Xorazmning ilm – fani yuksalishida Xorazm davlati tarkibiga kiruvchi shaharlarning ham o'rni beqiyos hisoblanadi. Ayniqsa, Buxoro shahri ilm fan markazi bo'lishi bilan bir qatorda o'z bag'rida bir qancha allomalarni yetishtirganligi bilan ham ajralib turadi. XIII-asrda Buxoroning Dehqon tumanida “Xizonatul-kutub” “Dorul-fuqaro” – xalq kutubxonasi ochilgan bo'lib, bu yerda nodir qo'lyozmalar saqlanar edi¹³⁰. Xorazm va Xuroson shaharlarida mumtoz fors she'riyati namunalari uslubiyoti asosida turkiycha she'rlar yozilgan, arabcha va forscha asarlar turkiychaga ham tarjima qilingan. Shunday qo'lyozma nodir asarlar esa Buxoroda saqlangan va bu esa Buxoroning Xorazmshohlar davlatida tutgan o'ring yuqori ekanligidan dalolat beradi. Bu davrda Buxoroda bir qancha yirik allomalar yashab, ijod qilgan. Shulardan biri Al-Haqiq Abu Ja'far ibn Muhammad al-Buxoriy bo'lib, (1156 - yil vafot etgan) qadimgi donishmandlik ilmining bilimdoni bo'lgan¹³¹.

Minhojiddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Umar ibn Abul - fath al - Buxoriy — kotib va tarixchi Zahiriddin Muhammad ibn Umar al - Buxoriy an - Navjobodiy Buxoro viloyatidagi Navjobod qishlog'idan chiqqan bo'lib, Bag'dodda mudarrislik qilgan¹³². Bag'doddagi al— Mustansiriya madrasasi kutubxonasida hozir ham uning mashhur “Kashf al - ibhamli - daf'al - avxom” (Vahimalarni daf etish yo'llarini kashf etuvchi kitob) to'plami saqlanmoqda¹³³. Mazkur madrasa kutubxonasida hozirgi paytda ham Toxo ibn Ibrohim ibn Ahmad ibn Is'hoq Shayx

¹²⁸ <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/322>

¹²⁹ <https://historykhorezm.uz/nine-fifteenth-centuries>

¹³⁰ Буниёдов З. Ануштагин Хоразмшоҳлар давлати (1097-1231) //.-Т.: Ф. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашр., 1998.-155 б.

¹³¹ Машарипов О. Хоразм тарихидан саҳифалар // Т.: Ўзбекистон нашриёти, 1994 йил.- 116 б.

¹³² Машарипов О. Хоразм тарихидан саҳифалар // Т.: Ўзбекистон нашриёти, 1994 йил.- 116 б.

¹³³ Буниёдов З. Ануштагин Хоразмшоҳлар давлати (1097-1231) //.-Т.: Ф. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашр., 1998.-158 б.

imom Zayniddin Abu Bakr al - Buxoriyning (1252 - yil oktyabrda vafot etgan) Uning 20 jildga yaqin asarlari saqlanmoqda.¹³⁴ Abu Muhammad al - Qosim al - Buxoriy (1160-yilda tug'ilgan). Uzoq yillar Buxoroda ijod qilgan. Abu Muhammad g'azal, qasidalar yozgan. U ko'pgina kitoblar muallifi ham hisoblanadi. Abul-Mafohir Muhammad ibn Muhammad ibn Abdul-Jalil Umariy kotib al-Buxoriy al-Xorazmshohiy. Laqabiga ko'ra, Muhammad Umariy Xorazmshoh (Otsiz) saroyida kotiblik qilgan. Abul-Hasan Bayhaqiy bu haqda yozadi: "U imomi buzrug va amiri kabir sa'dud davla vaddin, sohibi usul va va fuzul, hayrul-islom va muslimin, arjumandi hukamo va salotin, afsahul olamiyn... Xorazm va Xurosonning ulamoi kiromlari ning yetakchisi edi, alhamdulillah!"

Qosim Abu Muhammad Buxoriy (1160-yilda tug'ilgan). Uzoq yillar Buxoroda yashab, ijod qilgan. Yoqut Hamaviy yozishicha, uni mu'tazila mazhabida deb ayblashgan, u esa barcha buxoroliklar kabi, hanafiya mazhabida ekanligini yozgan. Juda ko'p asar, jumla dan Abul-A'lo al-Marriyning "Saqt az-zand".

Utbiyning "Tarixi Yaminiy" asarlariga sharhlar ham yozganligini manbalar tasdiqlaydi. Buxoroning mashhur mudarrislaridan yana biri Muhammad Umar ibn Muhammad Qutbiddin ibn Umar al-Ansoriy-al-Aqliy al-Buxoriy edi (1200-yilda vafot etgan). Al-Aqliy al-Buxoriyning ustozlari Qosim ibn Ali ibn al-Asoqir va Badriddin Abulxayr ibn al-Mu'ammara at-Tabriziy edilar. U Buxorodagi eng obro'li shayx mudarrislardan edi. Madrasa mudarrisligi obro'li mansab bo'lib, ba'zan iste'foga chiqqan yuqori martabali amaldorlar mudarris bo'lib ishlar edilar¹³⁵. Sulton yangi madrasalar qurilishini odatda taniqli din arboblari topshirar edi. Masalan, Xurosondagi bir madrasa qurilishi muftiy va imom Aziziddin Alp Balxiyga, Nishopurdagi bir madrasa qurilishi – muftiy va mudarris imom Faxriddin Abu Sobit Abdulaziz ibn Abduljabbor Kufiyga topshirilgan.

¹³⁴ Машарипов О. Хоразмнома //Т.: Хоразм нашриёти — 2007. – 230 б.

¹³⁵ <https://hozir.org/reja-xorazmshohlar-davrida-ilm-fan-va-sanat-rivojlanishi.html>

X-XIII asrlar davomida Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari, Eron, Ozarbayjon, O'rta va Kichik Osiyo xalqari bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lib kelganlar. Bag'dod, Sheroz, Tabriz, Buxoro, Samarqand kabi mashhur shaharlar madaniyat va taraqqiyotning markazi bo'lib, o'zlarining ko'zga ko'ringan olimlari, shoirlari hamda fan va madaniyat o'choqlari bilan ham butun dunyoga tanilgan edilar.

Adabiyotlar

1. Буниёдов З. Ануштагин Хоразмшоҳлар давлати (1097-1231) // Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашр., 1998.-256 б.
2. Машарипов О. Хоразм тарихидан саҳифалар // Т.: Ўзбекистон нашриёти, 1994.- 234 б.
3. Машарипов О. Хоразмнома //Т.: Хоразм нашриёти — 2007. – 420 б.
4. Хоразмшоҳ Жалолиддин Мангуберди (даври, маданий ҳаёт, манбалар) // Т.: Фан нашриёти - 1999.- 106 б.
5. <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/322>
6. <https://historykhorezm.uz/nine-fifteenth-centuries>
7. <https://hozir.org/reja-xorazmshohlar-davrida-ilm-fan-va-sanat-rivojlanishi.html>

BUXORO MUZEYI TARIX BO'LIMIDA SAQLANAYOTGAN O'RTA ASRLARGA TEGISHLI ARTEFAKTLAR VA ULARNING TARIXIY MANBA SIFATIDAGI O'RNI.

D.A.Saidova,

Tarixshunoslik va manbashunoslik, tarixiy tadqiqot usullari mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro muzeyi Tarix bo'limidan o'rin olgan o'rta asrlar davriga oid artefaktlar haqida umumiy ma'lumot va ularning o'rta asrlar davrini o'rganishda tarixiy manba sifatidagi o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: Buxoro muzeyi, Varaxsha, Poykent, Buxoro, tarixiy artefaktlar, o'rta asrlar davri.

Buxoro muzeyi Tarix bo'limi muzeyi qo'riqxonaning Ark qal'asi hududida joylashgan bo'lib, yirik bo'limlaridan biri hisoblanadi. Tarix bo'limi uch qismdan ya'ni **Arxeologiya**, Tarix va Jome' masjididan iborat. Tarix bo'limida eng qadimgi davrlardan to XX asrning ikkinchi yarmiga qadar mavjud bo'lgan artefaktlar o'rin olgan. Ular xronologik tartibda joylashtirilgan. Bo'limdagi artefaktlarni alohida turlarga ajratadigan bo'lsak ular arxeologiya, numizmatika, etnografiya va boshqa turdagi tarixiy ashyolarga bo'linadi. Ko'pgina tarixiy ashyolar soha mutaxassislari tomonidan chuqur o'rganilgan. Masalan, arxeologlar, numizmatlar, etnograflar va muzeyshunoslar tomonidan o'z yo'nalishiga qarab ularning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan. Bo'limdagi artefaktlarning manba sifatidagi o'rni deyarli o'rganilmagan. Ilmiy tadqiqot jarayonida shu narsa ayon bo'ldi-ki, tarixchilarimiz o'rta asrlar davri Buxoro vohasi, shahar, qishloqlari va aholisi haqida ma'lumot berayotganda Buxoro muzey qo'riqxonasining Tarix bo'limida saqlanuvchi artefaktlarga tayanishgan. Ushbu bo'limda asosan Varaxsha, Poykent, Buxoro shahri, Qiziltepa va qisman Buxoroning boshqa arxeologik hududlaridan topilgan devoriy bezaklar, uy-ro'zg'or buyumlari, qo'lyozma va numizmatikaga oid artefaktlar o'rin olgan. Tarixni o'rganishda arxeologik, etnografik manbalar va ma'lumotlarning ham o'rni katta. Ular qatoriga qadimgi aholi manzilgohlari, shaharlar xarobalari, mozor va qo'rg'onlarning qoldiqlari, aholi turmushi va xo'jaligida ishlatilgan buyumlar, mehnat va jang qurollari, turli-tuman ro'zg'or ashyolarini kiritish mumkin. Tarix bo'limida juda ko'plab turli xildagi moddiy manbalar mavjud bo'lib, ular o'rta asrlar tarixini o'rganishda alohida ahamiyatga ega. Bo'limdagi artefaktlar Buxoro vohasida tashkil topgan shaharlar va ular aholisining turmush tarzi haqida muhim bo'lgan ma'lumotlarni yetkazadi. Ilk o'rta asrlar davriga tegishli bo'lgan artefaktlar asosan Varaxsha va Poykent shahar xarobalaridan topilgan. Varaxsha shahar xarobalarida V.A.Shishkin 1937-39 yillarda tadqiqot ishlarini olib bordi. Arxeologik qazishmalar paytida topilgan "Qizil xona", "Sharqiy xona"¹³⁶, saroyning ikkinchi qavatidan topilgan ganch

¹³⁶ В.А.Шишкин. Варахша. Москва. 1963г.152 бет.

o'ymakorligi bezaklari Varaxsha shahrini butun dunyoga mashhur qildi. Chunki, "Qizil xona"dagi fillarga mingan jangchilarning afsonaviy hayvonlar bilan olib borayotgan jang tasviri, "Sharqiy xona"dagi mahobatli taxtga o'tirgan podsho tasviri, ganch o'ymakorligi bezaklarida geometrik, o'simliksimon, afsonaviy odamlar, jonzotlar tasviri, pannolarning topilishi, Buxoro vohasi islomgacha yuqori madaniyatga ega bo'lganligini tasdiqlaydi. Uy-ro'zg'or buyumlaridan iborat bo'lgan kosa, piyola, ko'za va boshqa turdagi idishlar sopoldan ishlangan. Bu turdagi buyumlarning ko'plab topilishi, o'sha davr hunarmandchiligida sopol asosiy o'rinni egallaganligidan dalolat beradi. Ilk o'rta asr sopol buyumlardagi bezaklar oddiy uslubda bo'lgan, ayrimlarida esa umuman bezak uchramaydi. 60-70 yillardagi Varaxsha shahrida olib borilgan qazilma ishlari o'rta asr shaharlarini o'rganishda juda ko'p ma'lumot berdi. Varaxsha shahrida o'tkazilgan qazilmalar O'rta Osiyoda XI-X asrlarda turli binolarning qurilishi, tartibi, tarhi, bezalishi, qurilish materiallari, turli hunarmandchilik xonalarining qanday jihozlangani, hashamatli saroylarning go'zalligi o'sha davrda saqlanib qolgan turli bezak buyumlari, idishlar, uy-jihozlari, oltin, kumush va turli qimmatbaho toshlardan ishlangan bezaklar, to'quvchilik asboblari qoldiqlari haqida ma'lumot beradi-ki, bular hammasi o'sha davr san'atining yuqori darajada bo'lganligidan dalolat beradi¹³⁷. Bo'limdagi X-XI asrlarga tegishli sopol buyumlarning bezash ishlarida o'zgarishlar sodir bo'la boshlaydi, bu esa o'z navbatida Buxoro vohasi kulolchilik san'ati taraqqiy etganligini ko'rsatadi. Uy-ro'zg'or buyumlariga rang-barang naqshli bezaklar berila boshlangan¹³⁸. Ayniqsa murakkab turdagi o'simliksimon naqshlardan foydalanish keng tarqalgan. Bu ekspozitsiyadagi IX-X asrlarga tegishli Afrosiyobdan va Buxorodan topilgan sopol kosalarda yaqqol ko'zga tashlanadi¹³⁹. Asosan yashil, jigar rang, qora va sariq ranglardan foydalanilgan. Bu yerda yana Buxoro-Samarqand maktabining, uning badiiy bezak majmuining belgilovchi xususiyatlaridan biri qush va hayvonot olami unsurlaridan tashkil

¹³⁷ Музаффар Хайруллаев. Ўрта Осиёда илк уйғониш даври маданияти. Тошкент. "Фан" 1994 йил. 28 бет.

¹³⁸ Бухоро музейи, инв № 16397/22, 16340/22, 16325/22.

¹³⁹ Бухоро музейи, инв №6006/22, 23478/22

topgan ramziy naqshli buyumlarni ham ko'rish mumkin. Masalan, ekspozitsiyadagi bir sopol buyum markazida tovusning tasviri keltirilgan¹⁴⁰. Kulolchilik san'atida uzoq muddatli rivojlanish natijasida yuzaga kelgan naqshlar majmui, badiiy an'analar, birinchidan ijtimoiy ongning mazkur shakliga xos hamda turli tarixiy davrlarda umumiy bo'lgan tomonlarni, ikkinchidan, xalqning avloddan avlodga o'tadigan o'ziga xos mahalliy jihatlarini, uchinchidan muayyan maktab va yo'nalish uchun xos bo'lgan tomonlarni o'ziga qamrab oladi.

Tarix bo'limi ekspozitsiyasida ilk o'rta asrlar ganchkorlik san'ati haqida ma'lumot beruvchi bir qancha artefaktlar mavjud. Bu artefaktlar 1938-1954 yillarda Varaxshadagi arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan Buxorxudotlar saroyi qoldiqlarining namunasi hisoblanadi. Artefaktlarda odam, hayvon, o'simliksimon va geometrik shakllarning o'yma namunalarini ko'rish mumkin. Masalan, bo'limdagi VII-VIII asrlarga oid ganch bo'laklarida uzum yoki uning bargi tasvirining tushirilganligi, bu o'sha davr ganchkorlik san'atida o'simliklar orasida uzum tasviridan ham keng foydalanganliklaridan dalolat beradi. Tarix bo'limida saqlanayotgan VI-VII asrlarga oid оид останаонлар¹⁴¹ arxeolog G.V.Shishkina tomonidan Poykent shahar xarobasidan topilgan va o'rganilgan. Otashparastlarda suv, havo, yer va osmon muqaddas hisoblanganligi tufayli ular murdaning suyaklarini alohida ajratib, maxsus idishlar-assuariylarga solib alohida xonalarga saqlashgan¹⁴². Bu xonalar naus (dahma) deyilgan. Umuman olganda bu artefaktlar qadimgi Poykent shahar aholisining ilk o'rta asrlar ya'ni arablar istilosi davrigacha bo'lgan diniy e'tiqodlarini ifodalashda juda katta ahamiyat kasb etadi. VI-VII asrlarda zardushtiylik, buddaviylik, xristianlik, moniylik va shomoniylilik kabi bir nechta mahalliy dinlar mavjud bo'lgan. Poykentdan ostadonlarning topilishi, bu yerda aholining ko'pchiligi zardushtiylik diniga e'tiqod qilganligidan darak bermoqda.

¹⁴⁰ Бухоро музейи, инв № 2296, инв№16324/22.

¹⁴¹ Бухоро музейи, инв № 17097/22, инв№16302/22.

¹⁴² Муҳаммад Аҳмедов. Ўрта Осиё меъморчилиқ тарихи. Тошкент. "Ўзбекистон" 1995 й. 29 бет.

Bo'limning yana bir diqqatni jalb qiluvchi tarixiy ashyolaridan biri bu X asrga tegishli ko'pburchak konus shaklidagi haykalchalardir¹⁴³. Xom ashyosi gagatdan bo'lgan bu haykalchalar Ark hududida olib borilgan, Ye.G.Nekrasova va O.B.Obelchenkolarning arxeologik tadqiqotlari jarayonida topilgan. Ulardan stol o'yini uchun foydalanilgan. Arab xalifaligi davrida bu o'yin "shatranj" nomi bilan ommaviylashgan. IX asrda yashagan arab olimi va shatranjchisi al Adliyning yozishicha, shatranjdagi inson tafakkurini cheklagan shashxoldagi xollarning tushishiga qarab yurish (shashxol)ning bekor qilinishi va bu o'yinning rivojlanishida O'rta Osiyo xalqlari muhim rol o'ynagan. Abu Rayhon Beruniyning "Hindiston", Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai Sa'dayn va majmai bahrayn", Alisher Navoiyning "Majolis un nafois", "Lison ut-tayr", Zahriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" va boshqa tarixiy asarlarda shaxmatga (shatranj) oid qimmatli ma'lumotlar bor. Amir Temur davrida kuchli shatranjchilar Samarqanda to'planishgan. Buxorodan topilgan shatranj donalarining topilishi X asrda Somoniy hukmdorlari orasida ham bu o'yin keng tarqalganligidan dalolat beradi.

Arablar bosqiniga qadar bo'lgan tarixiy ashyolarda islomga xos bo'lgan an'ana uchramaydi. Islomga qadar bo'lgan davrda Tarix bo'limi artefaktlarida asosan amaliy san'at bezaklarida inson, hayvon va o'simlik tasvirlarini juda ko'p uchratamiz. Islom kirib kelganidan keyingi davrlardagi me'morchilik va kulolchilik buyumlaridagi suratli bezaklar o'rnini yozuvli va islom an'analariga xos naqshli bezaklar egallaydi¹⁴⁴. Bu holat ayniqsa X-XI asrlarga tegishli artefaktlarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

O'rta Osiyoda islom nafaqat mustahkamlanibgina qolmay, balki ilmiy-madaniy jihatdan ham taraqqiy eta boshladi. Yangi binolar turlari vujudga keldi. Jumladan masjidlar, minoralar, maqbaralar, madrasa, karvonsaroy, sardoba, xonaqoh, dorush-shifo (kasalxona) kabi yangi turdagi binolar, turar joylar, hammomlar shu kabi boshqa binolar shahar va qishloqlarda hamda boshqa aholi

¹⁴³ Бухоро музейи, инв № 7891 н/всп,1-10.

¹⁴⁴ Абдуллаев.Н.У. Ўзбекистон санъати тарихи. Тошкент. 2007 йил. 69 бет.

punktlari oralig'ida ko'plab qurildi¹⁴⁵. Bo'limda Mag'oki Attor masjidi XII-XIII asrlar, Maschiti Kalon, Toqi telpakfurushon XIV asr, Sarrafon hammomi XVI-XVII asrlar va Buxoroning ayrim maqbaralariga tegishli o'rta asr me'morchilik bezaklari aks etgan devor bo'laklarini ko'rish mumkin.

Ekspozitsiyada shayboniylar davriga tegishli me'moriy bezak parchasi ham o'rin olgan. Jumladan, shayboniylardan Abdullaxon II davriga oid devoriy bezak parchasi¹⁴⁶. Uning yozuvlari oq rangda bo'lib, ostki fon moviy rangda, saqlanish holatiga qarab shuni aytish mumkin-ki, o'sha davr qurilish ishlarida va bezash ishlarida sifatli xom ashyolardan foydalanilgan.

Xulosa qilib shuni aytish kerak-ki, Tarix bo'limi artefaktlari Buxoro vohasining o'rta asrlardagi ijtimoiy-madaniy hayoti to'g'risidagi bilim va tasavvurlarni boyitish bilan birga, ushbu davr tarixini o'rganish uchun qo'shimcha manba bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

Шишкин В.А. Варахша. - Москва: Наука, 1963. 152 б.

Хайруллаев М. Ўрта Осиёда илк уйғониш даври маданияти. - Тошкент: Фан, 1994. 28 б.

Муҳаммаджонов А.Р. Бухоро шаҳри 2500 ёшда. - Тошкент: Фан, 1998.

Абдуллаев.Н.У. Ўзбекистон санъати тарихи. –Тошкент: 2007. 69 бет.

Аҳмедов М. Ўрта Осиё меъморчилиқ тарихи.- Тошкент: Ўзбекистон, 1995. 29, 34 б.

¹⁴⁵ Муҳаммад Аҳмедов. Ўрта Осиё меъморчилиқ тарихи. Т. "Ўзбекистон". 1995 йил. 34 бет.

¹⁴⁶ Бухоро музейи, инв № 6076 вр.хр.

ASHTARXONIYLAR DAVRI TARIXINI YORITISHDA “DASTUR UL-MULUK” ASARINING O’RNI

D.Hamroyeva,

Tarixshunoslik va manbashunoslik,

tarixiy tadqiqot usullari mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ashtarxoniylar davri O'zbekiston tarixining XVIII asr o'rtalariga qadar bo'lgan davrda muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy manbashunoslikda bugungi kunda ushbu davrga oid turli ko'rinishdagi yozma manbalar nashr etilgan bo'lib, ularning har biri tariximizni yoritishda o'z o'rniga ega.

Kalit so'zlar: Ashtarxoniylar, Buxoro xonligi, Ubaydullanoma, Abdurahmon Tole', Tarixi Muqimxoniy, Dastur ul-muluk, Bahr ul-asror, Matlab ut-tolibin.

XVII-XVIII asrning birinchi yarmida Markaziy Osiyo xonliklarida qarama-qarshi va murakkab tarixi jarayonlar ichgan. Ularni o'rganishda bu davr oralig'ida yaratilgan manbalar mahalliy muarrixlarning asarlari, Markaziy Osiyo hududiga XVI-XIX asrning birinchi yarmida tashrif buyurgan elchilar, sayohatchilar va boshqalarning xotiralari muhim o'rin tutadi.

XVII-XVIII asr boshlari tarixini yorituvchi Muhammad Amin Buxoriyning "Ubaydullanoma", Abdurahmon Tole'ning "Abulfayzxon tarixi, Muhammad Yusuf Munshiyning "Tarixi Muqimxoniy, Muhammad ibn Muhammad Zamon Buxoriyning "Muhit ut-tavorix", Mahmud ibn Valining "Bahr ul-asror do manoqib ul-ahyor" (Oliyjanob kishilarning jasorati haqidagi sirlar dengizi), Abulabbos Muhammad Tolib "Matlab ut-tolibin, (Toliblar matlabi) asarlari muhim tarixiy manba hisoblanadi. Bundan tashqari Hoji Mir Muammad Salimning "Silsilat us salotin" (Podshohlar silsilasi), Xoja Samandar Termiziyning "Dastur ul-muluk" (Podshohlar uchun dastur), Muhammad Vafo Karmanagiyning "Tuhfat ul-xoniy", asarlari ham bu davr tarixini yoritishda alohida o'rin tutadi.

“Dastur ul-muluk” (“Podshohlarga qo’llanma”) nomli qimmatli asarning muallifi XVII asr tarixchisi Xoja Samandar Termiziy bo’lib, uning to’g’risidagi ma’lumotlar deyarli kam. U haqidagi ma’lumotlar asosan “Dastur ul-muluk”ning

o'zida, shuningdek muallifga zamondosh bo'lgan mashhur shoirlardan Muhammad Ba'di ibn Muhammad Sharif Samarqandiy Malihning "Muzakkir ul-asxob" antologiyasida mavjud. Muallifning haqiqiy ismi so'nggi vaqtlargacha noma'lumligicha qolgan edi. "Dastur u-muluk" va Malihning "Muzakkir ul-asxob" asarlarida uning faqat taxallusi – Samandar ko'rsatilgan edi. Bu taxallus unga uning tilining o'tkirligi, o'zishiga jiddiy yondashganidan berilgan bo'lishi kerak. Faqatgina "Muzakkir ul-asxob" asaridagina Xoja Samandarning asl ismi Muhammad Baqo berilgan¹⁴⁷. Muallif hayotining aniq sanasi hali to'liq o'rnatilmagan edi. U uzoq umr ko'rgan degan asoslar ham bor. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, Xoja Samandar taxminan 1638-yil Termizda sayyidlar oilasida tavallud topgan bo'lib, 1740-yilgacha Qumqo'rg'onda yashab o'tgan. Ashtarxoniylerden Abdulazizxon (1055 – 1091/1645 – 1680) saroyida tarixchi (voqeanavis) lavozimida ishlagan. U Abdulazizxonning Buxoroga kirib kelgan xorazmiylarga qarshi yurishida ishtirok etgan. Xoja Samandar Subhonqulixon (1091 – 1114/1680 – 1702)ning Balxga 1097/1685, 1104/1693 va 1107/1695-yillarda amalga oshirgan uchta yurishining ishtirokchisi bo'lgan. Shuningdek, Xoja Samandar elchilik vazifasini ham amalga oshirgan. U Subhonqulixon tomonidan Samarqandning isyonkor hukmdori Xo'jaquli bilan unixon bilan yarashishga ko'ndirish maqsadida muzokaralar olibborish uchun ikki marta vakil qilib yuborilgan edi. Bularning barchasi haqida muallifning shaxsan o'zidan, uning Balxga 1107/1695-yilgi yurishida ishtirok etishi to'g'risida esa Xoja Samandarga zamondosh bo'lmish Muhammad Amin ibn Muhammad Zamonning "Muhit at-tavorix" nomli tarixiy asaridan bilish mumkin. Bizning zamonimizgacha olimning ikki muhim asari yetib kelgan. Bulardan biri "Dastur ul-muluk" va ikkinchisi "Anis ulfuqaro" ("Faqirlar do'sti") nomi bilan mashhur bo'lib, 1735-yili yozilgan. Malihning so'zlariga ko'ra, "Dastur ul-muluk" Xoja Samandarning ilk yirik asari bo'lishi mumkin¹⁴⁸. Ushbu asar, muallifning so'zlariga

¹⁴⁷ Xoja Samandar Termiziy. Dastur ul-muluk. M.: «Nauka», 1971, 3-4-b

¹⁴⁸ Madraimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008, 234-b

qaraganda, qandaydir yoshodamning iltimosi bilan yozilgan edi. Iltimos esa qandaydir nufuzli kishidan kelibchiqqan, zero muallif uning iltimosiga qarshi chiqqan olmagan. Asar Subhonqulixoniga bag'ishlangan. U 1106/1694 – 95-yillarda tuzilgan bo'lib, unda ushbu yillar voqealari haqidagi hikoyalar mavjud.

1890-yil sobiq Fanlar Akademiyasining Osiyo muzeyida A. L. Kunning to'plamlari orasida Xoja Samandar Termiziy asarini o'z ichiga olgan qo'lyozma ham mavjud bo'lgan. K. G. Zaleman birinchi bo'lib Kun to'plamidagi qo'lyozmalar ro'yxatini nashr qilganida ushbu asarni qayd etdi. Zaleman asar, muallif nomi va vaqtini ham keltirib o'tdi. O'shandan keyin asar tadqiqotchilar e'tiborini o'ziga tortmadi. Sababi asar nomi va tuzilishi (boblar ro'yxati) uning etika-didaktik mazmundagi asar deb qaralishiga sabab bo'lgan. M.A.Salohiddinovaning so'zlariga ko'ra, bu asar tadqiqotchilarni SSSR FA sharqshunoslik institutining fors va tojik qo'lyozmalari qisqa katalogini tuzish vaqtida qiziqtiradi, chunki asarning uchdan ikki qismini tarixiy mazmundagi ma'lumotlar tashkil etadi. 1964-yil Eron filologiyasi bo'yicha IV Butunittifoq ilmiy konferensiyasida "O'rta Osiyo tarixi bo'yicha yangi manba" mavzusida ma'ruza o'qildi. Ushbu ma'ruzada "Dastur ul-muluk" ning muallifi haqida qisqa ma'lumotlar berilib, asarning tarixiy manba ekanligini tushuntirishga harakat qilindi.

"Dastur ul-muluk" asari Orta Osiyoning XVII asr adabiyoti boyligi hisoblanadi. U nafaqat etika-didaktik asar sifatida, balki Buxoro xonligining XVII asr so'nggi choragidagi muhim voqealar o'z aksini topgan tarixiy manba sifatida ham ahamiyatlidir.

"Dastur ul-muluk"ning kirish qismida berilganidek, muallif bu asarni avvalo 21bobdan tuzmoqchi bo'lgan, etika-didaktik mazmundagi 20 bob hamda Subhonqulixon boshqaruvi va uning hukmronligining birinchi o'n yilligi voqealari haqidagi so'nggi 21-bobni qo'shmoqchi bo'ldi. O'z navbatida muallif mazkur bobni 4 qism (maqola)ga bo'lmoqchi edi. Keyinchalik yozish davomida Xoja Samandar bir necha marta asarning dastlabki rejasini o'zgartirdi. Unga yana bir

bob – “Ishq-muhabbat haqida” nomli bob qo'shdi va uni 20-bob sifatida kiritdi. Ko'zda tutilgan “Olamning o'zgaruvchanligi to'g'risida” nomli 20-bobni esa oxiriga joylashtirdi va u 22-bobni tashkil etdi. 21-bobni esa oldindan mo'ljallangan 4 qismga qo'shib kengaytirdi. Shu tariqa asar 22 bobni o'z ichiga oladi.

“Dastur ul-muluk”da Buxoro xonligida 1092/1681 dan 1106/1694-95-yillar oralig'ida sodir bo'lgan voqealar xronologik davomiylilikda tasvirlangan. Biroq shuni qayd etish lozimki, ushbu asarda bu yillarda muallif ko'rgan yoki eshitgan barcha voqealar ham o'z aksini topmagan. Masalan, “Muhit at-tavorix” va “Tarixi Muqimxoniy” ma'lumotlariga ko'ra, Balx hukmdori bo'lgan Subhonqulixon o'zining hukmdor akasi Abdulazizxonning hajni amalga oshirish niyati haqida eshitib, qo'shini bilan Buxoroga yo'l oldi va Qarshini egallagach, xon bilan muzokaralar olib bordi. Lekin “Dastur ul-muluk”da bu haqida tilga olinmaydi. Xoja Samandar esa bu haqida eshitmasligi mumkin emas, chunki bundan oldin uxorazmliklarning Buxorodan quvg'ini davrida Abdulazizxon huzurida bo'lgan. Shunday fikrga kelish mumkinki, o'z asarini Subhonqulixonga bag'ishlagan Xoja Samandar atayin bu haqida yozmagan.

“Dastur ul-muluk”da quyidagi siyosiy voqealar bayon etilgan: Xiva xoni Anushaxonning Buxoro xonligining markaziy shaharlariga bosqini (1092/1681, 1095 – 1097/1683 – 1686), Subhonqulixonning Balxga ikki marta yurishi (1096/1685 va 1104/1693), Subhonqulixon qo'shinining Xurosonga Bolo-Murg'ob qal'asini egallash uchun yurishi (1100/1688 – 89), isyonkor rahbarlarning Subhonqulixonga qarshi g'alayoni va shu bilan bog'liq Xiva xoni Anushaxonning o'g'li Erengxonning Qorako'l shahrining tumanlariga hujumi. Mazkur voqealar yuqoridagi “Muhit at-tavorix” va “Tarixi Muqimxoniy” tarixiy asarlarida o'z aksini topgan. Biroq, Xoja Samandar bu asarlarda yozilmagan ko'plab aniqliklarni keltirib o'tadi. Shuningdek, Xiva xoni Anushaxonning Buxoroga 1092/1681-yili bosqini hamda uning Abdulazizxon tomonidan bu shahardan quvg'in qilinishi nafaqat “Dastur ul-muluk”da, balki “Tarixi Muqimxoniy” va “Muhit at-tavorix”dajuda batafsil yoritilgan. Ammo bu vaqtda Abdulazizxon huzurida

bo'lgan Xoja Samandar keltirib o'tgan ma'lumotlaridan biz Buxoroning xorazmiklarninghujumiga qarshi yaxshi himoyalanmaganligini hamda Abdulazizxon tarafida bo'lmish kurash ishtirokchilari haqidagi ko'plab ma'lumotlarni, shu bilan birga yuqoridagi tarixiy asarlarda bo'lmagan bir qator aniqliklarni bilib olishimiz mumkin. Boy asl material "Dastur ul-muluk"ning 21-bobidagi ikkinchi va uchinchi qismlarida ifodalangan bo'lib, ularda muallif Anushaxonning Buxoro xonligining asosiy shaharlariga 1096 – 1097/1684 – 1686-yillardagi bosqini haqida gapirib o'tadi. "Tarixi Muqimxoniy"da bu voqealarga kam joy ajratilgan. "Muhit attavorix"da esa material ko'p bo'lsa ham, ammo "Dastur ul-muluk"da keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda ancha kam. Xoja Samandar tomonidan Anushaxonning Buxoro xonligidagi ittifoqdoshlari, so'nggi bor Shahrisabzning egallanishi, uning Qarshini egallash yo'lidagi urinishi va bir qator harbiy harakatlar to'g'risida bergan ma'lumotlari yuqorida tilga olingan tarixiy manbalarda butunlay uchramaydi. Muallif 1100/1688 – 89-yilgi voqealar, shuningdek Subhonqulixonning Balxga yurishi hamda Bolo-Murg'ob qal'asini egallash uchun qo'shinining yurishini yozganda boshqa manbalarda uchramaydigan qiziq ma'lumotlarni keltirib o'tadi.

Xoja Samandar Termiziyning "Dastur ul-muluk" asari Buxoro xonligining XVIIasrdagi ijtimoiy-siyosiy ahvolini, shuningdek, Buxoro bilan Xiva xonliklari o'rtasidagi siyosiy munosabatlarni o'rganishda katta ahamiyatga ega. Asarda o'zaro kurashlar, oily martabali mansabdorlar orasida keng tarqalgan buzuqlik, poraxo'rlik, zulm va mehnatkash xalqning og'ir ahvoli haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Xulosa qilib aytganda, Xoja Samandarning "Dastur ul-muluk" asarining tarixiy qismi biz uchun ikki munosabatlarda muhim: bir tomondan, unda boshqa manbalardagi ma'lumotlarni to'ldiruvchi O'rta Osiyoning XVII asr oxiri tarixi bo'yicha qimmatli ma'lumotlar mavjud bo'lsa, ikkinchi tomondan unda o'sha davr Buxoro jamiyatining (to'g'rirog'i birinchi nabatda yuqori jamiyat) turmush tarsi hamda urf-odatini yorituvchi asl faktlar keltirib o'tiladi.

Adabiyotlar

1. Tarixiy manbashunoslik .A.A.Madramimov, G.S.Fuzailova. Toshkent Fan,2006
2. Xoja Samandar Termiziy. Dastur ul-muluk. M.A. Salohiddinovaning fors tilidan qadimgi qo'lyozma fasimelisi. M. Nauka. 1971
3. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi VIII tom
4. w.w.w.scientificprogress.uz
5. w.w.w.ziyonet.uz

BUXORO AMIRLIGI KIYINISH MADANIYATI O.OLUFSEN TADQIQOTLARIDA

F.Z.Sirocheva,

*Tarixshunoslik va manbashunoslik,
tarixiy tadqiqot usullari mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada daniyalik harbiy ofitser va tadqiqotchi Ole Olufsenning XIX asr oxirida Buxoro amirligiga sayohati davomida amirlik madaniy hayoti, xususan amirlik aholisining mavsumiy kiyim-kechaklari, ayollar va erkaklarga xos bo'lgan kiyinish tarzi haqida to'plagan ma'lumotlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Sharqiy Buxoro, G'arbiy Pomir, jun, mo'yna, yaktak, etnografiya, Daniya Qirollik geografiya jamiyati, harbiy ofitser.

Xalq turmushining har qanday sohasi kabi o'zbek milliy kiyimini o'rganish o'zbek xalqining etnik tarixi va madaniyatini, uning boshqa xalqlar bilan o'zaro aloqalarini tadqiq etish bilan chambarchas bog'liqdir. U moddiy va ma'naviy yodgorliklar ichida xalqlarning milliy o'ziga xosligini aks ettiruvchi va etnik belgilarini ko'rsatuvchi mezondir¹⁴⁹. Kiyimlarda urf-odatlar, ijtimoiy munosabatlar, mafkuraning ba'zi bir elementlari, diniy e'tiqod, nafosat va estetik normalar o'z aksini topgan. O'rta Osiyo, xususan Buxoro amirligi doimiy tarzda

¹⁴⁹ Sodiqova N. "O'zbek milliy kiyimlari. XIX-XX asrlar" G'.G'ulom nashriyoti – Toshkent.: 2006 –B.8.

Yevropa mamlakatlari nigohida bo'lgan. Ular yerli aholining turmush tarzi, tili, madaniyati, kiyinish tarziga yuqori qiziqish bildirishgan. Shunday tadqiqotchilardan biri Daniya Qirollik geografiya jamiyatining kotibi, sayyoh va harbiy ofitser Ole Olufsendir. U O'rta Osiyoga bir necha bor yirik ekspeditsiyalar uyushtirgan. Ushbu ekspeditsiyalarning natijasi o'laroq quyidagi asarlarni yaratgan¹⁵⁰: “Buxoro amiri va uning davlati”, “Buxoro shevasining lug'at boyligi”, “Noma'lum Pomir bo'ylab”, “Buxoro va Samarqand arxitekturasi” kabilar shular jumlasidandir. U o'zining tadqiqotlarida amirlik hayotini kompleks o'rganishga harakat qilgan, jumladan uning Buxoro amirligi kiyim-kechaklari haqida yozib qoldirgan ma'lumotlari o'lka etnografiyasi, madaniyatini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlarda aholining mavsumga hamda mavqega qarab kiyinishidagi farqlar yaqqol ochib berilgan.

Buxoroda jazirama yoz mavsumining uzoq davom etishi tufayli, bu hududda kiyinish asosan shu faslga qarab moslashtirilgan; qisqa davom etuvchi qish mavsumida aholining nochor qatlami sovuqqa chidashga majbur bo'lishgan. Biroq Sharqiy Buxoro tog'laridagi pasttekisliklar va quyi vodiylar iqlimi bilan G'arbiy Pomirning baland vodiylari iqlimi keskin farq qilganligi tufayli, hududga qarab yengilroq, bahavo yoki og'ir, qalinroq kiyinish zaruratini tug'dirgan. Sharqiy Buxoro hududlarida kiyim-kechak uchun jundan foydalanilmagan, biroq baland tog'li hududlarda jun asosiy kiyim-kechak matosi hisoblangan, vohaning quyi shaharlarida qish qahratonidagina boy qatlam vakillari tomonidan mo'ynadan kiyim matosi sifatida foydalanilgan, biroq bu turdagi kiyim-kechaklar baland tog'li hududlarda yil davomida kiyilgan¹⁵¹.

Kiyinish tartibi Yevropa kiyinish madaniyatidan butunlay farq qilgan. Asl kiyimlar cho'ntaklar, tugmalar va ilgaklardan deyarli xoli bo'lgan (ya'ni bo'lmagan), vaqti-vaqti bilan kamarlar ishlatilgan. Erkaklarning yozgi kiyim-kechaklari ko'ylak va oq paxtadan tayyorlangan yaktakdan iborat bo'lgan, chetlari rangli, asoson qizil jiyaklar bilan bezatilgan. Yaktak biroz pastga tushgan, ko'p

¹⁵⁰ https://en.wikipedia.org/wiki/Ole_Olufsen

¹⁵¹ Olufsen O. “Emir of Bukhara and his country” William Heinemann– London.: 1911 – B.469.

ham uzun bo'lmagan va yenglari juda tor bo'lgan. Ko'ylak oq rangdagi, paxtadan tayyorlangan shim ustidan tushib turgan. Shim ip bilan belga bog'langan, ko'ylak ustidan odatda to'piqqacha tushadigan rangli matoli to'n kiyilgan. Uning bo'yindan to oyoqqacha qismi ochiq bo'lgan, hoshiyalariga mayin ip tikilgan. Ko'krak qismni bog'lab qo'yish uchun 2 ta ip bo'lgan. Qirtishlangan bosh kichik uchli paxta qalpoq (kalapo'sh) bilan qoplangan, uning hamma joyi rangli iplar bilan tikilgan, Makkada bo'lganlar (hojilar) uchun yashil rangli iplar bilan tikilgan. Kalapo'sh atrofiga salla o'ralgan, dastlab uning uzunligi 14 fut¹⁵² bo'lgan, hozir esa 50 futga yetkazilgan¹⁵³. Salla bu chin musulmonda doim bo'lishi kerak bo'lgan kafan hisoblangan. Chiroyli o'ralgan salla Buxoroda muhim ahamiyat kasb etgan, iloji boricha katta salla o'rash nafislik belgisi sanalgan. Buxoroliklar tomonidan "Salla katta, lekin pul yo'q" maqoli ham ishlatilgan. Dastlab oq salla mullalar tomonidan kiyilgan va bu ularning maxsus imtiyozi borligini ko'rsatib turgan, biroq keyinchalik oq salla rasmiylar va amaldorlar tomonidan ham kiyilgan. Boshqalar, ya'ni oddiy fuqarolarga ko'k yoki qizil chizikli sallalar va kiyimlar kiyishga ruxsat etilgan. Amir va uning yuqori tabaqa amaldorlari oltin yoki kumushdan ishlangan, juda chiroyli ko'rinadigan sallalar o'rashgan. Choponni mahkamlash uchun uzun, o'rama rangli ro'moldan (ro'pokcha) foydalanilgan. Aniq aytadigan bo'lsak, ro'mol bel atrofiga bog'langan, yevropada esa bunday ro'mollar (ro'molcha) cho'ntak ichida saqlanadi. Oddiy mehnatkash aholida salla sifatida o'rashga shu ro'moldan boshqa hech narsa bo'lmagan va ular ro'molni faqat ayrim marosimlardagina bog'lashgan.

Yozda oddiy Buxoro fuqarosi yuqorida nomlari keltirilgan kiyimlardan boshqa kiyimlar kiyimagan, eng kambag'allar esa tananing na u yoki bu qismini yopadigan eski lattalarni osib yurishgan. Buxoroda qoida shundayki, kimki qanchalik boy va martabasi qanchalik yuqori bo'lsa, qishda va yozda shuncha ko'p kiyim-kechak kiyardi va ularning kiyimlaridagi mato hamda bezaklar ham farq qilardi, tabiiyki yuqori tabaqa vakillari va rasmiylarning kiyimlari a'loroq

¹⁵² Fut – ingliz uzunlik o'lchov birligi. 1 fut 30.48 sm ga teng.

¹⁵³ Olufsen O. ko'rsatilgan asar, -B.472.

bo'lgan¹⁵⁴. Bu farqlar yaqqol ko'rinmasa-da, biroq har bir kishi Rais bilan muammo kelib chiqmasligi uchun ham o'z chegarasini bilardi, chunki Rais qoidani buzgan kishilarga nisbatan jarima solishi mumkin edi.

Odatda, juda boy fuqarolar 2 ta chopon kiyishardi, birining ustidan boshqasi kiyilgan, amirning amaldorlari shubhasiz shunday kiyinishgan, agar Buxorolik kishi uyiga mehmon chaqirsa imkoniyatlariga qarab 4, 5 yoki 6 ta chopon ham kiya olgan. Chunki deb yozadi Olufsen o'z asarida: “Men bir kuni ogohlantirmasdan Buxoro devonbegisining uyiga borganimda, u ikkita oddiy chopon kiyib o'tirardi, ammo odatiy kiyim-kechaklarini almashtirib kelgach, uzoq salomlashuvdan so'ng, xizmatkoriga bir nechta yaxshi choponlardan olib kelishini buyurdi va menga murojaat qildi: “Qadrli mehmon, men bularni sizning tashrifingiz uchun kiyaman”. Asta-sekin u ipak tog'ga aylanib, zo'rg'a o'tirdi”¹⁵⁵. Agarda oltin bilan bezatilgan baxmal choponlar boshqalari ustidan kiyilsa, ularning tagidan shoyi choponlar kiyilgan. Shoyi sotib olishga qurbi yetmaganlar sirlangan kanopdan tayyorlangan choponlar kiyishgan, chunki ular ham yangiligida to'kilib turgan. Yuqori martabali kishi doim choponlarga burkanib yurgan, choponlarning yengi qo'l uzunligidan deyarli 2 barobar uzun bo'lgan va biror bir muhim ish qilishga imkon bermagan. Yozda bu choponlarni kiygan kishi ter ostiga g'arq bo'lgan va juda sekin harakatlangan; yuqori tezlikda yurish esa haqiqatda past tabaqa vakilligi belgisi bo'lgan. Bir kuni Olufsen do'sti Buxoro elchisi Mirza Abdul Qodir Bek bilan bozorda ketayotganida, uning qo'lidan ushlab unga shoshilish kerakligini aytdi, u doimgidek jilmayib rad etdi va shivirlab dedi: “Tez yurmang, yo'qsa bozordagilar bizning yuqori toifa vakillari ekanligimizni bilishmaydi.

Boy xonadonga mansublik belgisi kishining etik kiyishida ham namoyon bo'lgan, yanada aniq aytadigan bo'lsak, u poshnasiz uzun charm paypoqqa o'xshagan; oyoq kiyim uzunligi tizzagacha yetgan va u kalish ichiga tiqilgan(

¹⁵⁴ Сухарева О.А. Уникальные образцы среднеазиатской одежды XVII в. // Традиционная культура народов и Средней Азии. Л. Наука, 1970.

¹⁵⁵ Olufsen O. “Emir of Bukhara and his country” William Heinemann– London.: 1911 – B.474.

bundan ma'lum bo'ladiki, sayyoh mahsi haqida gapiryapti) va ular (ya'ni mahsilar) odatda turli xil rangdagi parcha (mato turi) yoki jun mato bilan bezatilgan. Boy rasmiylar va Buxoro amiri oltin yoki kumush parcha bilan bezatilgan mahsilarni tez- tez kiyishgan, uyga hamda masjidga kirishda kalishlar eshik oldida qoldirilgan. Shaharlarda juda kamdan-kam hollarda mahalliy aholi tomonidan yevropaliklarga o'xshab qora charmli yoki oshlangan sariq teridan tikilgan etiklar ham kiyilgan. Ular o'zining nihoyatda baland va uchli poshnasi bilan yaqqol ko'zga tashlangan, poshna ba'zida bug'uning shoxidan yasalgan. Etikning ba'zida juda keng yoki juda uchli panja qismi juda noqulay bo'lgan. Paypoq yoki jurab juda kamdan-kam kiyilgan, faqatgina Pomir vodiysining ba'zi joylaridagina ko'plab turli xil naqshlar tushirib to'qilgan uzun junli paypoqlar kiyilgan; aksincha turkmanlar kabi boshqa xalqlar to'piqqacha yetuvchi kalta paypoqlar kiyishgan. Paypoq o'rniga charm mahsi yoki etik kiyishdan oldin oyoqni uzun paxta tasmalari bilan o'rashgan, ba'zan oyoqni hech narsa bilan o'ramay tog'ridan-to'g'ri kalish kiyishgan.

Taqinchoqlardan qo'lga uzuk taqilgan, har bir boobro' inson tomonidan kamida 1 ta lazurit ko'zli uzuk taqilgan, bu uzuk feruza kabi ko'k ko'zga ega bo'lib, nafaqat yomonliklardan asraydi deb qaralgan, balki asosan uzukda ismi o'yib yozilgan shaxs uchun shartnomalar, bitimlar va boshqa turdagi hujjatlar tuzishda muhr vazifasini ham o'tagan, shunday holatdagina hujjat qonunan kuchga kirgan. Chunki aholining juda katta qismi yoza olmagan, juda kamchilik yozishni eplay olgan. Mahalliy buxoroliklar turli toshlar bilan bezatilgan ko'p sonli kumush, oltin yoki jezdan yasalgan uzuklar taqishgan. Ularning ko'pchiligi qo'pol ishlangan va ko'pincha o'ta noqulay o'lchamda bo'lgan.

Sayyoh, tadqiqotchi Olufsen kitobida qayd etilgan ma'lumotlarni o'zi uchratgan va suhbatda bo'lgan oddiy mahalliy xalq vakillari hamda amaldorlar og'zidan yozib olgan. Olim tomonidan keltirilgan ma'lumotlar XIX asr oxiri – XX asr boshlarida amirlik aholisi qiyofasini tasavvur qilishda imkon yaratadi.

Adabiyotlar:

Olufsen O. “Emir of Bukhara and his country”. - London: William Heinemann. 1911, B.469.

Sodiqova N. “O'zbek milliy kiyimlari. XIX-XX asrlar”. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 2006, B.8.

Сухарева О.А. Уникальные образцы среднеазиатской одежды XVII в. // Традиционная культура народов Передней и Средней Азии. Л. Наука, 1970.

Olufsen O. “The Second Pamir – Danish expedition” ”. - London: William Heinemann. 1904, B.260.

Vamberi A. “The Turkish people”. – Leypsig.1885

https://en.wikipedia.org/wiki/Ole_Olufsen

BUXORO AMIRLIGINING SHARQ MAMLAKATLARI BILAN MUNOSABATLARI TARIXI VA TARIXSHUNOSLIGI

F.A.Hamroyev,

*Tarixshunoslik, manbashunoslik va taixiy
tadqiqot usullari mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab amirlik maqomi bilan Buxoro davlatini boshqargan mang'itlar sulolasida hokimiyatni boshqargan shaxs amir, mamlakat esa amirlik deb yuritildi. Oldingi sulolaning davlat boshqaruviga ma'lum bir o'zgarishlar kiritilib, ichki va tashqi siyosatga muayyan o'zgarishlar ham ko'zga tashlana boshlandi. Bu mamlakat ichkarisidagi vaziyat, atrofdagi qo'shni mamlakatlar, avvalo, Sharq mamlakatlari bilan, xususan, Eron, Afg'oniston, Hindiston davlatlari bilan tashqi aloqalar, elchilik munosabatlari, savdo-sotiq olib borishida yaqqol sezildi.

O'rta Osiyo bilan, shu jumladan, Buxoro amirligi bilan qiziqib borayotgan Rossiya va Angliya kabi yirik davlatlarning tashqi siyosatida Buxoro amirligi aloqa o'rnatish masalasi muhim ahamiyat kasb eta boshladi. O'zlarining

bosqinchilik rejalarini amalga oshirishdan ancha avvalroq har ikkala davlat tomonidan ham Buxoro amirligining qo'shni Sharq davlatlari bilan munosabatlarini turli xil yo'llar bilan (elchilik, sayyohlik, savdo karvoni orqali) o'rganishga zo'r berib harakat qilindi. Hattoki josuslikka ham qo'l urildi.

Buxoro amirligi XIX asr davomida qo'shni bo'lgan Afg'oniston, Eron, Hindiston kabi davlatlar bilan savdo-sotiq va elchilik munosabatlarini yo'lga qo'ygan edi. Buxoro amirligi yon qo'shnisi bo'lgan Qo'qon xonligi va Xiva xonligi bilan ham muayyan darajada (unchalik ko'p bo'lmasa-da) savdo sotiq aloqalarini olib borgan.

Rossiyadagi sharqshunoslik akademiyasidan 1843-yilda Buxoro amirligini o'rganish maqsadida kelgan N.Xannikov degan sharqshunos ma'lum muddat Buxoroda bo'lgan hamda uni iqtisodiy, geografik va etnik, siyosiy (boshqaruvini) jihatdan o'rgangan, Buxorodan ketgach Sankt-Peterburgda o'zining “ Описание Бухарского Ханства”¹⁵⁶ (1843-yil) degan kitobini yozgan edi.

1831-1833-yillarda ingliz sayyohi Aleksandr Barns Buxoroda bo'ladi va Angliyaga kerakli ma'lumotlarni yig'adi 1841-1842-yillarda O'rta Osiyoga Butenov boshchiligidagi Rossiya missiyasi keladi. Ammo ushbu Butenov missiyasining Buxoro amiri bilan savdo va diplomatik shartnoma tuzish yuzasidan olib borgan muzokaralari ijobiy natija bermaydi.¹⁵⁷

Afg'onistonning o'z mustamlakasiga aylantirib olishga urinayotgan inglizlar bir necha bor o'z elchilarini Buxoroga jo'natib amirdan Shahrizabzni o'z hukmdoriga (Iskandar Vallokaga) qaytarishni va Karki qal'asini afg'onlar boshqaruviga topshirishini talab qilishdi. Afg'on elchilari izidan kelgan o'n kishilik ingliz elchilari guruhi esa Afg'oniston bilan Buxoro o'rtasida tinchlik o'rnatib berish evaziga Xiva xonligi va Buxoro amirligi chegaralaridagi Qorako'l va Chorjo'y qal'alarini afg'on amiri Do'stmuhammadxonga berishni talab qildi.

¹⁵⁶ Описание Бухарского Ханства. Спб, 1843. Стр 228- 230

¹⁵⁷ Т. Саидкулов “Очерки историографии истории народов Средней Азии” Т.Ўқитувчи 1992 ;

Uzoq ikkilanishlardan kegin Amir Nasrulloxon qat'iy qarorga keldi va rad javobini berdi.¹⁵⁸

XX asrning 90-yillaridan boshlab bugungacha Markaziy Osiyo va Rossiya tarixchilari tomonidan ham Buxoro Amirligi tarixi masalalarini qamrab olgan o'nlab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi, ularning ko'pchiligi bevosita Buxoro amirligi tarixiga bag'ishlangan bo'lsa, ayrimlarida O'rta Osiyo xonliklari tarixini tadqiq qilish jarayonida amirlik tarixi masalalariga ham ma'lum darajada to'xtalib o'tgan. Shu paytgacha o'rganilgan masalalarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, Buxoro amirligidagi elchilik masalalari, xususan, Buxoro amirligiga nisbatan Rossiya hamda Angliya imperiyalari tomonidan amalga oshirilgan diplomatik missiyalar tarixini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

XIX asr davomida Buxoro amirligi turli xil tovarlarini, xususan, Qorako'l terisini chiqarib turgan.¹⁵⁹

Buxoro amirligining elchilik va savdo-sotiq munosabatlariga bag'ishlangan tadqiqotlar ichida Д.Н Лагофет ning “Бухарское ханство под русском протекторатом” б СПб 1911; П.И Демезин va И.В Виткевич, “Затиски о Бухарском Ханстве” М, 1983, ; Т. Саидкулов “Очерки историографии истории народов Средней Азии” Т.Ўқитувчи 1992 ; Х. Н. Бобобеков, Англо-русское соперничество в Средней Азии XIX век, Т, 2006; Т. Т. Сафаров, XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asr boshlarida Ўрта osiё savdo йўллари. Номзодлик диссертацияси Т. 2009; М. Содиков, Бухоро va Афғонистон якин ўтмишда. Мозийдан садо, 2008, 1-сон; М. М. Соловиев. Экспедиция в Бухари в 1841-1842 гг при участии натуралиста А. Лемано М-Л, 1936 va boshqalarni ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir.¹⁶⁰

¹⁵⁸ М. Содиков. Бухоро va Афғонистон якин ўтмишда. Мозийдан садо, 2008, 1-сон;

¹⁵⁹ Т. Т. Сафаров, XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asr boshlarida Ўрта osiё savdo йўллари. Номзодлик диссертацияси Т. 2009;

¹⁶⁰ Б.Т. Мирзакулов. Бухоро тарих зарварақларида. Тошкент, Lesson PRESS, 2016, 198-2016

Adabiyotlar

Описание Бухарского Ханства. Спб, 1843. Стр 228- 230

Т. Саидкулов “Очерки историографии истории народов Средней Азии” Т.Ўқитувчи 1992 ;

М. Содиқов.Бухоро ва Афғонистон яқин ўтмишда. Мозийдан садо, 2008, 1-сон;

. Т. Сафаров, XIX асрнинг иккинчи ярми-XX аср бошларида Ўрта осийё савдо йўллари. Номзодлик диссертацияси Т. 2009;

Б.Т.Мирзакулов. Бухоро тарих зарварақларида. Тошкент, Lesson PRESS, 2016, 198-2016

SOMONIYLAR DAVRIDA BUXORODA DAVLAT BOSHQARUVI (IX-X ASRLAR)

A.G'ulomov,

Tarixshunoslik va manbashunoslik,

tarixiy tadqiqot usullari mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'rta Osiyoda IX – X asrlarda hukm surgan Somoniylar sulolasi davrida davlat boshqaruvi, devonlar faoliyati viloyat va shahar boshliqlari faoliyati, sud tizimi, amaldorlarni davlat xizmatiga qabul qilishdagi talablar, harbiy boshqaruv va Ismoil somoniyning davlat boshqaruv tizimida olib brogan islohotlari, Nizomulmulkning „Siyosatnoma” va Narshaxiyning „Buxoro tarixi” asarida somoniylar davridagi davlat boshqaruvi haqida fikr yuritildi.

Kalit so'zlar: Amir, devon, vazir, rais, kax, Romiton, Varaxsh, Eskijet, kedxudo, kediverlar, rustak, dargoh , mirg'azab, ustod , g'ulomlar, g'uzlar, xaylboshi, hojib, shokirlar, qozikalon, qozilar, muftiy

Somoniylar boshqaruvi yirik yer egalarining qudratli tabaqasi vujudga kelishi bilan nishonlandi. Chunonchi, Ko'xiston turk qullari avlodlari bo'lgan saljuqiylarning zig'irpoya mulki edi. G'ulomlar, harbiy xizmatga kirib, oliy harbiy lavozimlarga erishgan qullar yer sotib olishlari va yerli bo'lishlari mumkin edi.

Ulardan biri-Alp Tegin qo'lida Xuroson va Movarounnahrda besh yuz qishloq, har bir shaharda qasr, g'oyat katta foyda keltirib turgan karvonsaroy, serdaromad hammom bo'lgan. Shu munosabat bilan somoniylar davri xujjatlarida,, atoqli dehqonlar'', ,, baquvvat dehqonlar'' degan iboralar tez-tez uchrab turardiki, bular yirik dehqonlarni anglatardi.¹⁶¹

Shu munosabat bilan ,kax''- mulkdor knyazlar istiqomatgohi so'zi paydo bo'ladiki, bu Buxoro mulkdorlari buxorxudotlar saroyiga, Romiton yaqinida joylashgan Varaxsh qishlog'idagi ular raqiblari vardatxudot saroyiga, Eskijet qishlog'idagi Sahl ibn Ahmad Daguniy saroyiga va Buxoro janubiy qabog'idagi Shams al-Mulk saroyiga o'xshaydi. Shu bilan birga,, ko'shk'' so'zi ham keng tarqalib, bu uyi bo'lgan yer mulkini anglatardi. Ular tevaragida xizmatkorlar va jangchilar- shokirlar uylari joylashardi.

Harbiy noib huzuridagi grajdan ma'mur, boshliq huzuridagi amaldor hisoblangan yangi sotsial tip,, kedxudo'' paydo bo'ladiki, o'z yaqin kishilari-, kediverlar'' yashaydigan uy egasi bo'lgan bu odam qo'shinlar osh-ovqati va anjomlari to'g'risida o'ylashi kerak edi.

Ko'pincha dehqonlar aristokratiyasining saroyda yashagan vakili bittagina qishloqqa ega bo'lardi, goho ko'p qishloqlarga (rustak) egalik qilish hollari uchrab ham turardi.

Ismoil davrida markazlashgan kuchli hokimiyat tarkib topib, unda viloyat amaldorlarini hukmdorning o'zi shaxsan tayinlardi. Ismoil ayrim muhim lavozimlarni meros bo'lib qoladigan qilib, bu bilan sadoqatli davlat xizmatchilari tabaqasini yaratdiki, mahalliy hokimiyat shular qoida to'plangan edi. Ularga avvalo raislar- shahar boshliqlari va ularning yaqinlari kirib, ular endi mahalliy zodagon urug'lari vakillaridan tayinlanadigan ularning lavozimlari meros etib qoldiriladigan bo'ldi.¹⁶²

Somoniylar Movarounnahr va Xurosonda mustaqil davlat tuzish uchun, avvalambor, kuchli markazlashgan hokimiyat tuzish kerakligini yaxshi

¹⁶¹ Xidoyatov G.A „Mening jonajon tarixim''-Toshkent „O'qituvchi'' 1992.- Bet. 95-96

¹⁶² Xidoyatov G.A „Mening jonajon tarixim''-Toshkent „O'qituvchi'' 1992.- Bet. 95-96

tushunishgan. Bu, ayniqsa, Ismoil Somoniy davrida kunning dolzarb masalasiga aylangan edi. Yirik yer egasi bo'lgan Ismoil, birinchi navbatda, mahalliy zodagonlar va savdogarlarning manfaatlarini ko'zlab ish tutdi. Davlatning iqtisodiy kuch-qudratini oshirish, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi uchun keng shart-sharoitlar tug'dirib berish lozim edi. Shu maqsadda Ismoil katta va yaxshi qurollangan, saralangan qurolli kuchlarni tashkil qilishga kirishdi. U, ayniqsa, turk g'ulomlaridan iborat qismlarni tuzishga katta e'tibor berdi. Natijada, somoniylar davlati tez orada musulmon Sharqidagi markazlashgan kuchli davlatga aylandi. Mamlakatning qudratini mustahkamlash maqsadida Ismoil Somoniy bir qancha islohotlar o'tkazdi. Mana shunday islohotlardan biri davlatni boshqarish ma'muriyatini joriy qilish bo'ldi. Bu ma'muriyat dargoh (amir saroyi) va devon (davlat idorasi, vazirliklar) dan iborat bo'lgan.¹⁶³

Davlatni boshqaruvchi oliy hukmdor amir unvoniga ega edi. Ismoil Somoniy o'z davrida markazlashgan davlat boshqaruvi tizimini joriy etgan edi. Somoniylar davlati majmuini mustahkamlashda Nuh II Somoniyning ma'rifatli vazirlari Abuabdullo Muhammad Jayhoniy va Abufazl Muhammad Bal'amiylarning xizmatlari katta bo'lgan. Somoniylar hukmronligi davrida bosh vazir lavozimiga asosan shu ikki sulola vakillari tayinlangan. Davlat majmui dargoh (amir saroyi) va devon (vazirliklar, davlat idorasi) ga bo'lingan.

Narshaxiyning ma'lumot berishicha, Nasr II Somoniy davrida Buxoro registonida davlatdagi o'nta devonga atab maxsus o'nta bino qurilgan.

Somoniylar davlatida quyidagi devonlar faoliyat ko'rsatgan:

Devoni vazir (bosh vazir devoni). Bu devonga qolgan barcha vazirliklar bo'ysungan. Bosh vazir devonibarcha ma'muriy, siyosiy, xo'jalik va harbiy mahkamalarni nazorat qilgan.

Devoni mustavfiy (moliyaviy ishlar devoni). Bu devon davlatning barcha moliyaviy ishlarini bajargan va nazorat qilgan. Devon xazinador tomonidan boshqarilib, uning ixtiyorida hisobchilar, munshiy va kotiblar, daftardorlar bo'lgan.

¹⁶³ B. Eshov „O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi“ Toshkent „Yangi asr avlodi“ 2019.-Bet. 272-273

Devoni amid al-mulk yoki al-rasail (Rasmiy hujjatlar devoni). Bu devon davlat ahamiyatiga molik bo'lgan barcha hujjatlarni tuzish va ishlab chiqish bilan shug'ullangan. Shuningdek, bu devon chet davlatlar bilan bo'lgan diplomatik munosabatlarni ham nazorat qilgan.

Devoni sohib ash-shurot (harbiy ishlar devoni). Bu devon davlatning butun harbiy ishlarini nazorat qilgan, jumladan, amirning shaxsiy qo'shini (gavardiyasi) ni boshqargan. Ushbu devonboshining yordamchisi – ariz bo'lgan. U mahkama va uning boshlig'i, amir qo'shini xazinasini bilan shug'ullangan. Qo'shinga bir yilda to'rt marta maosh to'langan. Bu devon xarbiy intizomni ta'minlab turgan.

Devoni sohib al-borid (xat-xabarlar nazoratchisi devoni). Ushbu devon markazda qilingan muhim qarorlar, xujjatlar, xabarnomalarni viloyat va shaharlarga yetkazish bilan shug'ullangan. Bu devonning viloyatlardagi boshlig'i faqat markazga bo'ysungan. Bu devon xodimlari viloyat va shaharlarda bo'lib turadigan, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan voqealarni markazga yetkazib turgan. Shuningdek, bu devon davlat elchilari, viloyat va shaharlar hokimlari ustidan maxfiy nazorat o'tkazgan.

Devoni muxtasib (bozorlar va ko'chalar, shariat qonun-qoidalariga rioya qilishini nazorat qiluvchi devon). Bu devon xizmatchilari iladigan asosiy ish shahar va qishloqlarda, ko'cha va bozorlarda tartib-intizomni, tosh-tarozini nazorat qilganlar. Aholi tomonidan shariat qonun-qoidalariga rioya qilishning nazorati ham shu devon zimmasiga yuklatilgan. Ushbu devonboshi mirg'azab (xodim) lari bilan barcha shaharlarda faoliyat ko'rsatgan.

Devoni mamlakati xos (davlat ish boshqaruvchisi devoni). Bu devon saroy ta'minoti bilan bog'liq sarf xarajatlarni nazorat qilgan. Muhim davlat ishlari va , ayniqsa, xazina kirim-chiqimini nazorat qilish ham shu devon zimmasida bo'lgan.

Devoni vaqf (vaqf yerlari devoni) . Masjidlar, madrasalar, umuman, diniy muassasalar ixtiyorida bo'lgan yer-suv, mol-mulk kabilarni boshqargan.¹⁶⁴

¹⁶⁴ B. Eshov „O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi“ Toshkent „Yangi asr avlodi“ 2019.-Bet. 272-273

Devoni qozi az-ziyo (qozilik ishlari devoni). Bu devonni davlatning bosh qozisi boshqargan. Devon barcha viloyatlar va shaharlardagi qozilar faoliyatini nazorat qilib turgan.

Yuqorida sanab o'tilgan devonlarning barchasi (sohib al-borid devonidan boshqa) mahalliy hokimlar va oliy markaziy hokimiyatga bo'ysungan takidlash lozimki, somoniylar davrida mahalliy boshqaruv tizimi ham samarali faoliyat yuritgan. Viloyat boshqaruvchilari-hokim, shaharlar boshqaruvchilari esa rais deb yuritilgan. Viloyatlar hokimlari ko'p hollarda hukmron sulola vakillaridan va katta ta'sirga ega bo'lgan yirik zodagonlardan tayinlangan. Somoniylar davrida amaldorlarni davlat xizmatiga qabul qilishda ma'lum bir talablar: davlat tili hisoblangan arab tilini mukammal bilish, islomiy huquq-fiqh meyorlaridan to'liq xabardorlik , tarix, adabiyot kabi ilmlardan boxabarlik, hisob- kitob ishlarida bilimdonlik va boshqalar mavjud bo'lib, bu markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga xizmat qilardi. Davlat boshqaruvida harbiy-ma'muriy amaldorlarning mavqelari nihoyatda katta edi. Shuningdek X asrda musulmon ruhoniylari ham katta obro'ga ega edilar. Movarounnahrda asosan islom dininig xanafiylik mazhabi tarqalgan bo'lib, dindorlar boshlig'i ustod (keyinchalik shayxulislom) somoniylar davlatida katta mavqega ega bo'lgan. Somoniylar davlatida sud ishlari shariat qonun-qoidalariga asoslangan bo'lib, ular qozilik devoni tomonidan boshqarilgan. Sud jarayonidagi ishlar qozikalon, qozilar, mufti, raislar tomonidan amalga oshirilgan. Viloyat va shahar qozilari qozikalonga bo'ysungan. Davlatga har bit viloyat va shahar hukmdorlari ko'ngillilardan iborat qo'shin saqlagan. Ko'ngillilar, odatda, ozod va boy dehqonlarning o'g'illaridan iborat bo'lgan. Ko'ngillilar harbiy holat vujudga kelgan vaqtda albatta yig'ilgan. Ular viloyat va davlat daromadi hisobiga saqlangan. Davlat hududlari viloyat qo'shinalari va g'oziylarning qismlari bilan qo'riqlangan.¹⁶⁵

Nizomulmulk o'zining ajoyib,, idora etish kitobi''- „Siyosatnoma'' asarida somoniylarning saroy gvardiyasi (saralangan qo'shini) haqida mufassal hikoya

¹⁶⁵ B. Eshov „O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi'' Toshkent „Yangi asr avlodi'' 2019.-Bet. 272-273

qiladi. Bozordan sotib olingan g'ulomlar (yosh yigitlar) ning ko'pchiligi g'uzlar (turkmanlar) dan iborat bo'lgan, ular somoniylar saroyidagi gvardiya otryadiga olinib, o'z xizmatining birinchi yilini otga minish huquqidan mahrum bo'lib, piyoda askar sifatida o'tkazar edi. Aks holda jazolanishlari mumkin edi. Bu vaqtda turk g'ulomlari ip-gazlamadan tikilgan oddiy kiyim-bosh- zandani kiyar edilar. Ikkinchi yilda g'ulomga oddiy yuganli ot berilar edi, uchinchi yilda uning belida uni boshqalardan ajratib turadigan kamar-qorachur bo'lardi, g'ulom beshinchi yilda yaxshi kiyim-bosh va yulduz bilan bezatilgan yugan olardi, yettinchi yilda, agar u hech qanday gunoh ish qilmagan bo'lsa, visak boshi, yani „chodir boshlig'i amalini olar edi. Chodir boshlig'i uch kishiga boshchilik qilardi. G'ulom o'z amalini bildirish uchun kumush bilan tikilgan baland qora kigiz qalpoq va Ganjada tikilgan qimmatbaho poyabzal kiyardi. Juda qobiliyatli g'ulomlar xaylboshi-otliq o'trayd boshlig'i, keyinchalik esa hojiblik amalini olishlari mumkin edi.¹⁶⁶

Nizomulmulk o'zining „Siyosatnoma“ asarida g'ulomlar hojiblikka erishgandan so'ng -, „Uning shoyistaligi va hunari, shijoati hammaga ma'lum bo'lganidan so'ng ulug' ishlar qo'lidan kelardi, odamlar va xudovandi bo'lgan shohiga do'st bo'lardi, to o'ttiz besh yoshga to'lgunicha amirlik unvonini bermasdilar va viloyatlarga ham hokim etmasdilar“ –deb yozib qoldirgan edi.¹⁶⁷

Abu Bakr Muhammad ibn Jafar an-Narshaxiy o'zining „Buxoro tarixi“ asarida: „Abdulmalik ibn Nuh ibn Nasr ibn Ahmad ibn Ismoilning davrida uning vaziri va „Kitobi Yaminiyning“ muallifi xudo rahmat qilgur Ahmad ibn Hasan al-Utbiy uning go'ri Darvozayi

Mansur mahallasida, xon hammomining yonidadir, madrasa ro'parasiga juda yaxshi bir masjid bino qildi va shu masjid tufayli o'sha mavzu kamol topdi“ deb yozib qoldirgan edi.¹⁶⁸

Adabiyotlar

1. Narshaxiy „Buxorov tarixi“ Toshkent . 1966. 160 bet

¹⁶⁶ J.Barakayev, Y.Haydarov „Buxoro tarixi“ Toshkent „O'qtuvchi“ 1991. Bet 41-42

¹⁶⁷ Nizomulmulk „Siyosatnoma“(Siyar ul-mulk) Toshkent „Yangi asr avlodi“ 2019. Bet 126

¹⁶⁸ Narshaxiy „Buxorov tarixi“ Toshkent „Kamalak“ 1991. Bet-106

2. Narshaxiy „Buxorov tarixi” Toshkent „Kamalak” 1991. 106 bet
3. Nizomulmulk „Siyosatnoma”(Siyar ul-mulk) Toshkent „Yangi asr avlodi” 2019. 126 bet
4. J.Barakayev, Y.Haydarov „Buxoro tarixi” Toshkent „O’qtuvchi” 1991. 143 bet
5. B. Eshov „O’zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi” Toshkent „Yangi asr avlodi” 2019. 424 bet
6. Xidoyatov G.A „Mening jonajon tarixim”-Toshkent „O’qituvchi” 1992.- 303 bet
7. B.Mirzaqulov „Buxoro tarix zarvaraqlarida” Toshkent „Lesson press” 2016. 262 bet
8. V.G. Saakov „ Istoriya Buxari” Toshkent „ sharq” 1996. 174 bet
9. Azamat Ziyoy „ O’zbek davlatchiligi tarixi” Toshkent „Sharq” 2001. 366 bet
10. Ziyodulla Muqimov „O’zbekiston davlati va huquqi tarixi” Toshkent „Adolat” 2003. 277 bet

BUXORODA VUJUDAGA KELGAN ILK GAZETA TARIXIDAN

G.Teshayeva,

Buxoro davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Millat ma’naviyatini isloh etish, insonlarni ma’rifatga chorlash, uxlab yotgan tafakkurni uyg’otishning muhim omili sifatida matbuot XX asrning boshlarida juda muhim ahamiyat kasb etgan. “Buxoroyi sharif” gazetasi ham mana shu intilishlar natijasi o’laroq vujudga kelgan. Mazkur maqolada “Buxoroyi sharif” gazetasining tashkil topish tarixi, gazetaning muassislari, XX asrning boshlarida va mustaqillik yillaridagi faoliyati haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so’zlar: XX asr boshlarida Buxoroda matbuotchilik, “Buxoroyi sharif” gazetasi, Levin bosmaxonasi, “Buxoro inqilobi tarixiga oid materiallar” risolasi,

milliy matbaachilik, ozarbayjon gazetchilik tajribasi, mustaqillik g'oyalari, "Turon" gazetasi.

Buxoro viloyati tashkil topish arafasida viloyatda va uning tarkibidagi tumanlarda ham mustaqil gazetalar tashkil qilina boshlandi. Bugungi kunda Buxorodagi matbuot tarixi va uning manbaviy ahamiyatini o'rganish dolzarb vazifa sanaladi. Buxoro viloyatida bir qancha mahalliy gazeta va jurnallar mavjud. Ularning har biri ma'lum bir sohaga yoxud ommaviy mavzularga daxldor ma'lumotlarni berib boradi.

Buxoro viloyatida chiqadigan shunday nashrlardan biri "Buxoroyi sharif" gazetasi hisoblanadi. "Buxoroyi sharif" Buxoro vohasida vujudga kelgan dastlabki milliy matbuot hisoblanadi. Mazkur gazetaga jadidlar tomonidan asos solingan bo'lib, Kogon shahrida 1912-yil 11-martdan 1913-yil 2-yanvargacha tojik tilida chiqqan. Gazeta Levin bosmaxonasida nashr etilgan. Abdulvohid Burxonov Mirzo Sirojiddinov bilan hamkorlikda Buxoroda kundalik gazeta tashkil qilish g'oyasini ilgari surdi. Buxorolik Muhitdin Mansurov kattagina mablag'ni gazeta tashkil qilishga safarbar etadi. N.Naimov ma'lumotiga ko'ra, Buxoroda noshirlik tajribasini yo'lga qo'yish maqsadida Bokudan taniqli jurnalist Jamol Yusufzoda taklif qilingan. 1912-yilning 25-martida Kogonda Levin bosmaxonasida "Buxoroyi sharif"ning birinchi soni nashr etilib yashirin yo'llar bilan poytaxtda, viloyat va tumanlarda tarqatildi. Buxoroda matbuot tarixi mana shu kundan boshlangan¹⁶⁹.

"Buxoroyi sharif" gazetasi to'g'risida Sadriddin Ayniy 1926-yilda Moskvada o'zbek tilida nashr etilgan "Buxoro inqilobi tarixiga oid materiallar" risolasida shunday yozadi: "Buxoroyi sharif shul holkim kundalik 4 oy davom qildi. Lekin bu orada Buxoro qishloqlari va atrof viloyatlarining ko'p aholisi o'zbekligi nazarga olinib "Buxoroyi sharif" idorasi ostida haftada ikki marta "Turon" ismida turkcha bir gazeta chiqarmoqqa qaror berildi. Turonning birinchi soni 1912-yilning 14-iyul kuni nashr qilindi. Shunday qilib haftada 4 qatla

¹⁶⁹ Naimov N. Buxoro matbuotining tug'ilishi / Tarixga muhrlangan 90-yil."Buxoronoma" gazetasining 90 yilligiga bag'ishlanadi. –Buxoro, 2010. –B.20.

“Buxoroyi sharif”, 2 qatla “Turon” chiqa boshladi”¹⁷⁰. “Buxoroyi sharif” gazetasiga asos solingan sanadan 4 oy o‘tib, ya’ni 1912-yil 14-iyul “Turon” gazetasining 1-soni nashr qilindi. Jamol Yusufzoda rahbarligi ostida gazeta nashrida muayyan tajriba to‘plab ulgurgan Mirzo Sirojiddin “Turon” gazetasiga o‘zi muharrirlik qilgan. Umumiy rahbarlik esa Abdulvohid Burxonov tomonidan amalga oshirilgan. "Buxoroyi sharif" gazetasiga ozarbayjonlik yozuvchi va journalist Mirzo Jalol muharrirlik, Mirzo G'affor bosh kotiblik qilgan.

Gazeta dastlab haftasiga olti marta, keyin uch marta nashr etilgan. Jami 153 son chiqqan. "Buxoroyi sharif" gazetasi 1913-yil 12-yanvarda Rossiya bosh siyosiy boshqarmasi tomonidan taqiqlangan. O'sha davrda gazeta sahifalaridan islomiy ahkomlar, ilm-fan, tijorat hamda iqtisodiy yangiliklar, ma'rifatni targ'ib etuvchi maqolalar o'rin olgan. Bundan tashqari, gazetada mahalliy shoir va yozuvchilarning asarlaridan parchalar, jahon adabiyoti namunalari e'lon qilingan.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, 1992-yil yanvar oyidan gazeta faoliyati qayta tiklandi. Hozirgi kunda “Buxoroyi sharif” gazetasi ma’rifiy, huquqiy, ijtimoiy, ma’naviy va reklama-axborot haftanomasi sifatida faoliyat ko’rsatadi. Gazeta har payshanba kuni bosmadan chiqadi. Muharrir – Abbos Ibodullayev.

Xulosa o‘rnida aytganda , XX asr boshida Buxorodagi jadidlarning xalq ongini uyg‘otishga qilingan harakatlari natijasi o‘laroq, Buxoro amirligida 1912-yilda “Buxoroyi sharif” gazetasi tashkil topgan. “O’sha davrda mahalliy gazetalar ehtiyoj, zarurat bois dunyoga kelgandi. Shu bois ham qisqa fursat ichida haqiqiy ma’noda qo‘lma qo‘l bo‘lib ketdi. Ayniqsa, gazetalarda dumadagi deputatlarning ish jarayonidagi sustkashlik, madrasalarning qoloqligi, zamonaviy ta’lim-tarbiyadan uzoqlashib ketganligi kabi dolzarb mavzularda maqolalar berilishi chor mustamlakachilarini cho‘chitib qo‘ydi”¹⁷¹. Ushbu gazeta ham Turkistonda bu davrda nashr etilgan rasmiy rus tilidagi gazetalardan farq qilgan. Xususan, rasmiy

¹⁷⁰Naimov N. Buxoro matbuotining tug‘ilishi / Tarixga muhrlangan 90-yil. "Buxoronoma" gazetasining 90 yilligiga bag'ishlanadi. – Buxoro, 2010. –B. 21.

¹⁷¹ <http://kh-davron.uz/kutubpxona/uzbek/umid-bekmuhammad-ozbek-matbuoti-tarixidan-lavhalar.html>

matbuotda siyosiy voqealar xaspo'shlab, xalq qo'zg'olonlari oddiy to'polon sifatida aks ettirilgan bo'lsa, Buxorodagi milliy matbuot nashrlarida esa mahalliy aholi hayotiga doir muammolar o'z aksini topib, masalalar umummilliy manfaatdan kelib chiqqan holda qo'yilgan. “Buxoroyi sharif” gazetasi qisqa muddatda chop etilgan bo'lsa-da, omma ongini uyg'otishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan.

Adabiyotlar

O'zME. Birinchi jild. –Toshkent, 2000.

Naimov N. Buxoro matbuotining tug'ilishi / Tarixga muhrlangan 90-yil. “Buxoronoma” gazetasining 90 yilligiga bag'ishlanadi. – Buxoro, 2010. –B.21.

<http://kh-davron.uz/kutubpxona/uzbek/umid-bekmuhammad-ozbek-matbuoti-tarixidan-lavhalar.html>

“TARIXI SALIMIY” TALQINIDA 1918-YIL MART VOQEALARI

Z.B.Bo'stonova,

Tarixshunoslik va manbashunoslik, tarixiy tadqiqot usullari mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro tarixchisi, shoir, diplomat va davlat arbobi bo'lgan Mirza Salimbekning(1850-1930) “Tarixi Salimiy” asari asosida Buxoroda 1918-yil mart oyida ro'y bergan voqealar haqida qisqacha ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Mirza Salimbek, “Tarixi Salimiy”, Kolesov voqeasi, jadidlar, yosh buxoroliklar, Utkin, memuar, ultimatum, Qiziltepa bitimi, Ziyovuddin

XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Buxoro amirligi ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o'rin tutgan Mirza Salimbek- davlat va jamoat arbobi, tarjimon, tarixchi, shoir va mohir diplomat edi.

Mirza Salimbek ibn Muhammad Rahim 1850- yilda Buxoro shahrining zodagon oilasida tug'ilgan. Uning ajdodlari Buxoro amirligining yuqori davlat mansablarida ishlagan ilmi mutafakkir kishilar bo'lganlar.¹⁷²

Tarixchining asosiy ahamiyatga ega bo'lgan memuar asar hisoblanmish "Tarixi Salimiy" asari yagona nusxada qo'lyozma shaklidir. Bu qo'lyozma Buxoro amirligining oxirgi yillarini aks ettirgan. Mirzo Salimbek mazkur asarni 1917-1920-yillar davomida yozgan bo'lib, qo'lyozmaning bir necha joylarida o'zi guvohi bo'lgan tarixiy sanalarni sharhlab bergan¹⁷³. Sadriddin Ayniy, Fayzulla Xo'jayev, Fitratlarning Buxoro amirligi to'g'risidagi yozgan tarixiy voqealari Mirzo Salimbekning mazkur memuar asari kabi voqealarni to'liq aks ettirmaydi.

Buxoroda yosh buxoroliklarning olib borgan targ'ibotlari hamfikrlari orasida, shahar ichida kezib yuruvchi nochor va kambag'allar orasida, soldatlar orasida o'z tarafdorlarining yetishib chiqishiga ijobiy natija berdi. Ularning bu targ'ibotini Turkiston o'lkasining Buxoro bo'yicha vakili qo'llagan¹⁷⁴. Bu tashkilot 1917-yil dekabrda tuzilgan bo'lib, uning tarkibiga V.P.Utkin, N.Preobrajensko va B.Bardjanovlar a'zo bo'lgan. Ular "Buxorodagi ishlar haqida ma'lumot bermadi" deb Buxoro ustidan bosim o'tkazish siyosatini davom ettira boshladilar. Yosh buxoroliklar va mahalliy bolsheviklar 1917-yil dekabrda zarur maslahatlarni olish uchun o'z vakillarini Toshkentdagi Turkiston Xalq Komissarlari soveti raisi F.Kolesov huzuriga yubordilar va qurolli to'qnashuvga tayyorgarlik ko'rishni boshladilar.

Kolesov yozadi: 1918-yil 20-fevralda men Samarqand, Yangi Buxoro, Chorjo'y, Marvga tashrif buyurdim, kichik partiyaviy konferensiyalarda Buxoro amirligida inqilobiy harakatli qo'zg'olon qilishni tezlashtirish uchun Yosh buxoroliklarni qo'llab- quvvatlash haqida Xalq komissarlari kengashining qarori e'lon qilindi. Bu qaror to'liq qo'llab- quvvatlandi. Kogonda Kolesov tomonidan

¹⁷² Л.П. Епифановую Рукописные источники по истории Средней Азии период при соединении её к России. Ташкент.1965.-стр.47.

¹⁷³ D.Alimova, U.Rashidov. "XIX asr oxiri- XX asr boshlarida Buxorodagi siyosiy harakatlar va kurashlar". Buxoro.2009.-B.33

¹⁷⁴ Fayzulla Xo'jayev. Buxoro inqilobining tarixiga materiallar. Toshkent, "Fan",1997,-B.101.

amirga qarshi miting tashkil etildi, unda “Buxoro amirligi ishchilarini ozod qilish” shiori ilgari surildi.¹⁷⁵

1-mart kuni Yosh buxoroliklar partiyasi bilan birgalikda harakatlar yo'nalishlari va amirga qo'yiladigan ultimatum matni tayyorlandi. Ultimatumda Buxoro amaldorlarini vazifasidan ozod qilish, yosh buxoroliklardan ijro etuvchi tashkilot tuzish va armiyani qurolsizlantirish talab etilgan edi. Qo'yilgan talablar bajarilmasa, to'kilgan qon uchun amir javob berishi ta'kidlab qo'yilgan edi¹⁷⁶. Amirning Kolesovga yozgan maktubida talablar shariat qoidalariga mos kelsagina rozi bo'lishi aytilgan edi, ammo amir bu xatni faqatgina vaqtinchalik vaqtni cho'zish maqsadida yuborgan edi. Amir tezda o'zining odamlarini amlokdorlar va qozilar huzuriga yuborib, ularni darhol poytaxtga yetib kelib, davlatni va dinni “xudosiz ruslar” va Yosh buxoroliklardan himoya qilishga da'vat qilgan. Kolesov esa amirdan oldinroq harakat qilib, qo'shinlari kam bo'lsa ham, 2-mart hujumga o'tdi. Shu vaqtda Kolesovning qo'shini Yosh buxoroliklar bilan birgalikda 2000 kishidan ortmas edi. Birinchi to'qnashuvdayoq amir askarlari qochishni boshlab Buxoroga qaytdilar.

Amir o'z odamlarini Kolesov huzuriga yuborib, urushni to'xatishni va qo'yadigan talablarni so'zsiz bajarishini aytgan. Shundan so'ng Buxoroda qurolli harakatlar tugagan. Shu tariqa amir mulozimlari va Kolesov o'rtasida muzokaralar boshlangan. Amir vaqtni cho'zish maqsadida barcha talablarni bajarishga rozi bo'lgan. Amir qo'shinlarini qurolsizlantirish maqsadida komissiya tuzilgan, unga V.P.Utkin rahbarlik qilgan. Har bir otryaddan 2kishi ajratilgan. Komissiyaning tarkibi Mirzo Salimbekning asaridagi ma'lumotlarga qaraganda, 22kishi¹⁷⁷, boshqa ba'zi asarlarda esa 24kishi¹⁷⁸ deb yozilgan. Tuzilgan komissiya Buxoroga yetib kelganidan so'ng, amir ularni Arkda qabul qiladi va qatl ettiradi. Kolesov amirning bu niyatidan xabar topib, komissiya a'zolarini qutqarishga shoshilgan bo'lsa-da

¹⁷⁵ Мирзо Салимбек. Тарих-и Салими (источник по истории Бухарского эмирата). Перевод с персидского Н.Норкулов- Тошкент: Академия. 2009.-Б.151.

¹⁷⁶ Fayzulla Xo'jayev. Vuxoro inqilobining tarixiga materiallar. Toshkent, “Fan”, 1997,-B.126.

¹⁷⁷ Мирзо Салимбек. Тарих-и Салими (источник по истории Бухарского эмирата). Перевод с персидского Н.Норкулов- Тошкент: Академия. 2009.-Б.151.

¹⁷⁸ Ulug' Turkiston.23-aprel 1918-yil.№86

kech bo'lgan edi. Bolsheviklarning qurollangan otryadlari Buxoro xalqiga yomon ta'sir qildi, bundan foydalangan dindorlar qisqa vaqt ichida 30-40 ming odamni Buxoroni va islomni qutqarishga da'vat qilganlar. Natijada xalq Kolesov askarlariga hujum qilgan va ularni chekinishga majbur qilgan. Yosh buxorolik va ularning Buxorodagi va Karkidagi minglab tarafdorlarining chiqishlari samarasiz bo'ldi.

Buxoroda yuz bergan voqealar Toshkentda 20-30-aprel 1918-yilda bo'lib o'tgan Turkiston o'lkasining V syezdida muhokama qilingan. Syezdda Kolesov so'zga chiqib sovnarkomning kamchiliklarini tan olib, Buxoro amirligidagi vaziyatga to'g'ri baho bermaganligini aytib o'tgan. Buxoro Komunistik Partiyasining tashkilotchilaridan bo'lgan Pavell Poltoratskiy so'zga chiqib, Buxoroda bo'lgan voqealar haqida so'z yuritib, bu voqealar bizga hujum qilish uchun boshlanmagan, aksincha bizning qon to'kishlarimiz sababli boshlangan edi,- deb aytgan. Buxoro amiri bilan olib borilgan muzokara buyruq asosida bo'lgan, bunday muzokara kuchli davlatning kuchsiz davlat bilan olib borilar edi.

“Tarixi Salimiy” asarida mart to'qnashuvlaridan so'ng olib borilgan muzokaralarida Buxoro amirining vakili sifatida muallifning o'zi (Mirzo Salimbek) qatnashganligi, bu muzokara natijasida Turkiston o'lkasining sovnarkomi va Yosh buxoroliklar o'rtasida shartnoma tuzilganligi haqida qimmatli ma'lumotlar keltiriladi. Mart voqealaridan so'ng Buxoro amirligida Yosh buxoroliklarni ochiq ta'qib qilish avjiga chiqqan. Bu ta'qiblar haqida Mirzo Salimbek atroflicha ma'lumot bergan.

So'ngra mirzo Salimbek 1918-yil bahorida yuz bergan voqealarni, F.I.Kolesovning Buxoroga yurishini batafsil tasvirlaydi. U ular haqida bevosita ishtirokchi sifatida gapiradi: o'sha paytda u amir artilleriyasiga va Kolesov otryadlariga qarshi tashlangan qo'shinga qo'mondonlik qilgan, so'ngra Qiziltepadagi tinchlik muzokaralarida Buxoro delegatsiyasiga boshchilik qilgan. Muzokaralar 1918-yil 23-martda boshlanib, Qiziltepa qishlog'ida bo'lib o'tdi.

Muallifning yozishicha, Qiziltepa shartnomasi imzolanganidan keyin (1918 yil 25 mart) Chorjo'y, Karmana, Xatirchi va Ziyouddin amirga qaytarilgan.

Demak, "Ta'rixi Salimiy" memuar ocherkida 1918 yilgi Buxoro voqealariga oid qo'shimcha materiallar o'rin olgan bo'lib, ulardan chuqur tanqidiy o'rganish bilan tarixchi olimlarimiz foydalanishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Мирза Салимбек.Тарих-и Салими (источник по истории Бухарского эмирата). Перевод с персидского Н.Норкулов- Тошкент: Академия. 2009.

2. Л.П. Епифанова. Рукописные источники по истории Средней Азии период при соединении её к России. Ташкент.1965.

3. D.Alimova, U.Rashidov. "XIX asr oxiri- XX asr boshlarida Buxorodagi siyosiy harakatlar va kurashlar". Buxoro.2009.

4. Fayzulla Xo'jayev. Buxoro inqilobining tarixiga oid materiallar. Toshkent, "Fan",1997.

5. Ulug` Turkiston. 23-aprel 1918-yil.

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA MILLIY BOSHQARUV TIZIMINING BARPO ETILISHI HAMDA VAZIRLAR MAHKAMASINING FAOLIYATI

Z.Mo'minova

*BuxDU, Tarixshunoslik va manbashunoslik,
tarixiy tadqiqot usullari mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mustaqillikni qo'lga kiritganimizdan so'ng, yurtimizda kuzatilgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy o'zgarishlar va demokratik tamoyillar asosida islohotlarning amalga oshirilishi, yurtimiz hayotida ko'plab ijobiy o'zgarishlarning amalga oshirilishi, O'tish davrida O'zbekiston o'zining mustaqil siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'lini belgilab olishi, ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Mustaqillik, islohotlar, demokratik tamoyil, milliy boshqaruv, ijro etuvchi hokimiyat, Vazirlar mahkamasi, Bosh vazir, uch hokimiyat, Ijroiya hokimiyati, Davlat qo'mitalari.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, yurtimizda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy o'zgarishlar va demokratik tamoyillar asosida islohotlarning amalga oshirilishi, yurtimiz hayotida ko'plab ijobiy o'zgarishlarning amalga oshishiga olib keldi. Mustaqillik sharofati bilan o'zbek xalqi o'z taqdirini o'zi hal qilish, kelajagini o'zi belgilash huquqiga ega bo'ldi. O'tish davrida O'zbekiston o'zining mustaqil siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'lini belgilab oldi. O'tish davrining dastlabki yillaridan boshlab O'zbekistonda siyosiy mustaqillikni mustahkamlash, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishga yo'naltirilgan chuqur siyosiy islohotlar o'tkazish yo'lidan borilmoqda¹⁷⁹. Respublikada davlat hokimiyati tashkil etishning muhim demokratik tamoyillari Konstitutsiyada qayd qilingan bo'lib, unda hokimiyat qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlaridan iborat deb ko'rsatilgan. Uch hokimiyatdan har biri faoliyatda mustaqil bo'lib, ayni vaqtda bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Chunonchi, 2005 — 2010 yillarda ikki palatali milliy parlament shakllantirilib, samarali faoliyat yuritmoqda, ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti egallab turgan Vazirlar Mahkamasi Raisi lavozimi tugatildi, 2007 yilda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan mamlakat Prezidenti bir vaqtning o'zida ijro etuvchi hokimiyatning boshlig'i ekanini belgilaydigan norma chiqarildi¹⁸⁰.

Bugungi kunda Konstitutsiyamizning 89-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi. Shu munosabat bilan Prezidentning ayrim vakolatlari Oliy Majlis Senati va Vazirlar Mahkamasiga o'tkazildi. Vazirlar Mahkamasining faoliyati yanada takomillashtirildi, Konstitutsiyaning 98-moddasiga muvofiq, O'zbekiston

¹⁷⁹ Ўзбекистон тарихи / Р. Муртазаева умумий тахрири остида. - Т.: Янги аср авлоди, 2003. - Б. 547

¹⁸⁰ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. - Т.: Шарк, 2000. – Б.76

Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Bularning hammasi ushbu davrdagi muhim siyosiy-huquqiy voqeaalar bo'ldi va O'zbekiston taraqqiyotida o'zining samarali natijasini bermoqda¹⁸¹.

1990- yil 24- martda O'zbekistonda prezidentlik lavozimi ta'sis etilgandan keyin hayotning o'zi ijro etuvchi hokimiyat maqomini o'zgartirishni talab qildi¹⁸². Vazirlar Mahkamasi tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalarining raislari kiradi¹⁸³. Vazirlar Mahkamasi, ya'ni O'zbekiston Respublikasining hukumati ijro etuvchi hokimiyat vakolatlarini amalga oshiradi, ijro organlari tizimiga boshchilik qiladi va ularning faoliyatiga rahbarlik kiladi. Uning huquqiy holati asoslari, tarkibi, shakllanish tartiblari O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi (20-bob), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risidagi 1993 – yil 6 – may qonuni va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan¹⁸⁴.

Islohotlar jarayonida Vazirlar Mahkamasining tarkibi tobora takomillashib, qisqartirib borildi. Agar 1990- yil 30- martda Respublika ijroiya hokimiyati 41 kishidan iborat etib tuzilgan bo'lsa, 1995- yil 5- mayda Vazirlar Mahkamasi 35 kishidan iborat etib tuzildi. 2000- yil 11- fevralda bo'lgan Ikkinchi chaqiriq

O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Prezident tavsiyasiga ko'ra Vazirlar Mahkamasi tarkibini 34 kishidan — Bosh vazir, Bosh vazirning birinchi o'rinbosari, 8 nafar Bosh vazir o'rinbosarlari, 15 nafar vazir va 9 nafar Davlat qo'mitalari raislaridan iborat etib tasdiqladi¹⁸⁵.

Adabiyotlar

. Ўзбекистон тарихи / Р. Муртазаева умумий тахрири остида. - Т.: Янги аср авлоди, 2003.

¹⁸¹ Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари (энг қадимги даврлардан бугунги кунгача) / К. Ражабов [ва бошк.]; масъул муҳаррир: Р. Абдуллаев. Тўлдирилган ва қайта ишланган бешинчи нашри. - Т.: О'zbekiston, 2012.

¹⁸² Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. - Т.: Шарк, 2000. – Б.76

¹⁸³ <https://lex.uz/acts/-51941>

¹⁸⁴ <https://hozir.org/reja-davlat-hokimiyatining-mohiyati-va-asosiy-belgilari-ozbekis.html?page=13>

¹⁸⁵ Usmonov Q. O'zbekiston tarixi. – Т.: Iqtisod - moliya, 2006. - Б. 405

Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. - Т.: Шарк, 2000.

.Usmonov Q. O'zbekiston tarixi. – Т.: Iqtisod - moliya, 2006.

Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари (энг қадимги даврлардан бугунги кунгача) / К. Ражабов [ва бошк.]; масъул муҳаррир: Р. Абдуллаев. Тўлдирилган ва қайта ишланган бешинчи нашри. - Т.: O'zbekiston, 2012.

<https://lex.uz/acts/-51941>

<https://hozir.org/reja-davlat-hokimiyatining-mohiyati-va-asosiy-belgilari-ozbekis.html?page=13>

BUXORO VOHASI TARIXIY – ME'MORIY OBIDALARI

U.Qo'liyev,

*Tarixshunoslik, manbashunoslik – tarixiy tadqiqot usullari
mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqola ko'hna va boqiy, sharqning marvaridi, islom dunyosida “Qubbat ul – islom” Islom dinining gumbazi hisoblangan, sharif shahar Buxoroning tarixiy – me'moriy obidalari haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Buxoro, Ark, Ismoil Somoniy maqbarasi, Mog'oki Attori masjidi, Minorai Kalon, Ulug'bek madrasasi.

Buxoro qadimgi dunyo tamadduniga beshik bo'lgan o'lkalardan biri. Buxoro – asrlar davomida ulkan Sharqning ilmu ma'rifar va dinu e'tiqod markazlaridan biri sifatida dunyoga dong'i ketgan qadimiy shahar. Unda ko'hna Sharq madaniyatining deyarli barcha muhim jihatlari namoyon bo'ladi. U qadimda savdo – sotiq, madaniy aloqalar jihatidan o'lkamizning mashhur Balx, Hirot, Marv, Samarqand, Termiz, Nasaf (Qarshi), Toshkent va Xorazm kabi shaharlar qatorida tilga olinadi.

Hamma o'z tarixini ulug'laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo'q. Bu merosni chuqur o'rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak. Bu markazga kelgan

odam tariximiz haqida to'la tasavvurga ega bo'lishi, katta ma'naviyat olib ketishi zarur¹⁸⁶.

Buxoro viloyatida 660 madaniy meros obyekti mavjud. Ularning aksariyatini arxeologik obyektlar, monumental san'at asarlari, arxitektura yodgorliklari tashkil etadi¹⁸⁷.

Buxoroning ko'hna va boqiy shahar, deb atalishida katta ma'no bor, dedi davlatimiz rahbari. Bu yerdagi qadimiy obidalar, osori-atiqalar, xalqimizning betakror qadriyatlari, beqiyos an'analari asrlar osha yashab kelmoqda. Chet elliklarning, tarixshunos va mutaxassislarning ularga qiziqishi doimo yuqori bo'lgan¹⁸⁸.

Buxoroning eng qadimgi davrlardagi tarixini yoritishda arxeologik kuzatish va tadqiqotlar, yozma manbalar birinchi o'rinda turadi. Buxoroning eng qadimgi davrlardagi tarixini o'rganishda mashhur arxeolog olimlarimizdan akademik Yahyo G'ulomovning xizmatlari katta bo'ldi. 1969 – 1970 yillarda Buxoro shahrida uning rahbarligida o'tkazilgan arxeologik ekspeditsiyalar shahar tarixiga oid ko'plab yangi ma'lumotlar berdi. 70 – yillarning ikkinchi yarmi va 80 – yillarda Buxoro shahrida olib borilgan arxeologik kuzatuvlarga Y. G'ulomovning shogirdi Abdulahad Muhammadjonov rahbarlik qildi. Bu ekspeditsiya natijasida to'plangan ma'lumotlar Buxoro shahri yoshi masalasiga ham ayrim aniqliklar kiritildi.

Buxoro shahrining yoshi borasida bugungi kunda ham ilmiy bahs – munozarali vaziyatlarga duch kelamiz. Bu boradagi savollarga biz X asrda yashagan Buxorolik tarixchi Muhammad Narshaxiyning “Buxoro tarixi” nomli asaridan bir qancha javoblar olishimiz mumkin.

Buxoroning 1920 – yilgi inqilobgacha bo'lgan davr arxeologiyasiga oid ma'lumotlar Turkiston arxeologiyasi havaskorlari to'garagi a'zolari – I. T. Poslavskiy, N.F. Sitnyakovskiy, L.A. Zimin va boshqalar tomonidan yoritilgan.

¹⁸⁶ <https://xs.uz/uz/post/shavkat-mirziyoev-mamlakatimizdagidek-boj-tarikh-bobolarimizdek-buyuk-allomalar-hech-qaerda-joq>

¹⁸⁷ <https://www.standart.uz/news/view?id=632>

¹⁸⁸ <https://www.standart.uz/news/view?id=632>

Buxoroning qadimgi me'morchilik va arxitektura yodgorliklarini milliy asosda yoritishda sharqshunos olimlardan V.V. Bartold, A.A. Semyonov va boshqalarning xizmatlari katta bo'ldi.

Buxoro vohasi uzoq yillar mobaynida keng ko'lamli o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlardan to'plangan turli xildagi ashyoviy topilmalarning qiyosiy tahlili Buxoroning 2500 yillik tarixga ega ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqlash imkonini beradi.

1997 – yili YUNESKO ning qaroriga asosan Buxoro shahrining 2500 yillik yubileyi dunyo olimlarining ishtirokida keng nishonlandi.

Buxoro Arki. Buxoro – O'rta Osiyoning eng qadimiy shaharlaridan biri. Moddiy madaniyat va san'atning shunchalik xilma – xil hamda turli davrlarga oid yodgorliklari to'plangan bunday shaharlar juda ham oz. Shahar sharq me'morlari yaratgan nodir arxitektura yodgorliklarining boyligi jihatdan eng salmoqli o'rinlarni egallaydi.

Buxoro arki – shaharning qadimiy qo'rg'oni, arxitektura va arxeologik yodgorligi. Balandligi 20 m bo'lgan tepalik ustiga qurilgan. Maydoni 4 gektarni tashkil qilib, yopiq ko'pburchak shaklidagi inshoot. Ark peshtoqining ikki yon tomonidagi guldasta va ular oralig'idagi uch qavatli bino yaxshi saqlangan¹⁸⁹.

Arkdagi binolar XVII – XX asrlarga, ya'ni ashtarxoniylar va mang'itlar sulolasi davriga oiddir. O'sha davrda Ark shahar hokimlari, keyinchalik xonlari, amirlar, mansabdorlar va harbiy boshliqlar yashaydigan qo'rg'on bo'lgan.

XX asr boshlarida Ark aholisi taxminan uch ming kishi bo'lgan. Jome masjididan boshlangan tor ko'cha qushbegi hovlisi oldidan o'tib, kichkina gumbazga – Chorsuga borib chiqadi, bu yerda salomxonaga kiriladi. Salomxonada amir o'z amaldorlarini va kelgan kishilarni qabul qiladi. Chorsuning o'ng tomonida amir otxonalari bo'lgan. Otxona hovlisida qorovullar va mashshoqlar yashaydigan nagorxonaga bo'lgan. Nagorxonaning quyi qismida sag'ana bo'lib, uni Arkni qurgan Siyovush qabri deydilar.

¹⁸⁹ J. Barakayev, I. Haydarov "Buxoro tarixi" O'qituvchi T-1991.

Arkning butun sharqiy qismi hozirgi vaqtda butunlay buzilib ketgan. Bu yer arxeologik qo'riqxonaga bo'lib, ikkita bino saqlanib qolgan. Aslida Arkning ikkita darvozasi bo'lgan, ular qal'aning sharqiy va g'arbiy qismlarida joylashgan. Hozirda sharqiy qism saqlanmaganligi sababli, bizgacha faqat g'arbiy qismda joylashgan darvozagina yetib kelgan.

Ark 1920-yilda Rossiya qo'liga o'tgunga qadar qal'a sifatida foydalanilgan. Hozirda Ark sayyohlik maskani bo'lib, uning tarixini yorituvchi muzeylar joylashgan.¹⁹⁰

Ismoil Somoniy maqbarasi. IX – X asrdagi Sharq matematikasining yutuqlari Buxoro me'moriy obidalarida o'z aksini topdi¹⁹¹. Ismoil Somoniy maqbarasi – Buxorodagi eng noyob arxeologik yodgorlik bo'lib, Somoniylar davlatining asoschisi Ismoil Somoniy va uning avlodlari sharafiga bunyod etilgan.

Binoni bezashda o'sha davrda keng tarqalgan yog'och o'ymakorligi san'atidan keng foydalanilgan. Binoning tashqari va ichkari qismida to'rtburchak shakldagi pishiq g'ishtni bo'rtirib chiqarish usulida ajoyib naqshlar hosil qilingan. Binoning shakli ham, undagi nashlar ham maqbaraga ulug'vorlik baxsh etadi.

Binoning tashqi va ichki tomonidagi elementlar bir – biriga juda monand tushgan. Kiraverish ravoqlari yonidagi belboqqa o'xshash chiziq bino ichkarisida ham takrorlanadi. Past – past qilib ishlangan tashqi galereyaga ichki tokchalar ham to'g'ri keladi. Ichki tomondan panjara qo'yilgan, kichik ravoqli darchalardan ichkariga yetarli darajada yorug'lik tushib turadi. Maqbaraning yuqori qismlariga mayda yupqa g'isht, ayrim bezaklariga shakl qilib qo'yilgan g'ishtar ishlatilgan¹⁹².

Yozma manbalar va xalq rivoyatlariga qaraganda, bu yodgorlik Somoniylar sulolasi asoschisi Ismoil Somoniy hayotligida otasi qabri ustiga qurilgan. Keyinchalik o'zi ham shu yerga dafn qilingan. Bu yodgorlik 892 – 907 yillarda qurilgan deb taxmin qilinadi¹⁹³.

¹⁹⁰ <https://globalconnect.uz/uzbekistan/sights/bukhara/ark-fortress>

¹⁹¹ H. To'rayev Buxoro tarixi – Buxoro; Durdona nashriyoti - 2020.

¹⁹² Пугаченкова Г.А. Исmoil Somonий мақбараси. –Тошкент: Госиздат УзССР, 1964. – Б.2-3.

¹⁹³ J. Barakayev, I. Haydarov "Buxoro tarixi" O'qituvchi T-1991.

Yodgorlik 1920 – yilgacha tashlandiq holda qolib, mahalliy ruhoniylar qo'lida bo'lgan. 1934 – yilda bu yodgorlik qayta ta'mirlandi.

Mog'oki Attori masjidi. Shahar markazida joylashgan bu masjid, ilgari attorlar rastasi o'rniga qurilgani tufayli Mog'aki Attori deb atalgan. Masjid qarib 6 metr yerga kirib turadi, aslida ko'p asrlar davomida shahar tuprog'ining uylishishi natijasida ko'milib qolgani ma'lum.

Muhammad Narshaxiy o'zining “Buxoro tarixi” asarida bir vaqtlar bu yerda Mox masjidi bo'lgan, u otashparastlar ibodatxonasi o'rniga qurilgani haqida hikoya qiladi. 1934 – 1935 yillarda sovet sharqshunosi V.A. Shishkin arxeologik qazish ishlarini o'tkazib, bir necha qavat pol bo'lganligini aniqlagan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan ashyoviy dalillar Mog'oki Attori masjidi o'rniga ilgari majusiylar ibodatxonalari bo'lganligidan dalolat beradi¹⁹⁴.

Mog'oki Attori masjidi yopiq turdagi masjidlardan bo'lib, tomini 6 tosh ustun ko'tarib turadi. Bu masjidning janubiy peshtoqi O'rta Osiyo arxitekturasi noyob asari hisoblanadi. Peshtoq va uning ravog'i har xil, chunonchi, o'ymakor ganch, sayqal berilgan g'isht, koshin o'yib naqshlangan sopol g'ishtchalar bilan bezatilgan.

Minorai Kalon – Katta minora muhandis va me'mor usta Baqo tomonidan 1127 – yilda bunyod qilingan. Minorai Kalon o'rniga avval ham minora bo'lgan. U qulab tushgach hozirgisi qurilgan. Yangi minora poydevori toshdan terilgan, asosining doira hajmi 9 metr. Minoraning balandligi 50 metr, kursisi qirrador, yuqorisi ingichkalanib boradi. Minoraning ichidagi aylanma zina orqali uning tepasiga chiqish mumkin.

Ulug' minora qariyb to'qqiz asrdan beri u yerda turibdi. Na tabiiy ofatlar, na siyosiy ofatlar uni larzaga keltira olmadi. O'tmishda turli davrlarda u qo'riqchi minorasi va mayoq sifatida ishlatilgan. Tepadan siz Buxoroning qadimgi manzarasining ajoyib manzarasini ko'rishingiz mumkin. Ilgari to'rt azonchi-muazzin besh vaqt namozga azon o'qigan; ularning ovozi shaharning olis

¹⁹⁴ J. Barakayev, I. Haydarov “Buxoro tarixi” O'qituvchi T-1991.

chekklarida ham eshitilardi. Afsonaviy Minorai Kalon – ajoyib me'moriy yodgorlik, o'rta asrlar Sharq muhandisligining yorqin namunasi hisoblanadi.¹⁹⁵

Minoraning tanasi va muqarnaslari 1920 – yilgi inqilob davrida o'n bir joyidan shikastlangan edi. Balanddagi qismi esa qulab tushgan edi. Ular faqat 1924 yildagina tuzatila boshlandi. Ta'mirlash ishlarida Usta Shirin Murodov va uning shogirdlari faollik ko'rsatdi.

Minoraning yer ostida qolib ketgan kursi qismini esa 60 – yillarda usta Ochil Bobomurodov ochib, ta'mirlagan.

Ulug'bek madrasasi – Buxoro shahridagi arxitektura yodgorligi bo'lib, 1417 – yilda Ulug'bek qurdirgan madrasalarning eng qadimiysidir. Ulug'bek madrasasi qurilishiga Isfaxonlik me'mor - usta Toxir o'g'li Ismoil rahbarlik qilgan. Ulug'bek madrasasi Abdullaxon II davrida 1586 – yil qayta ta'mirlangan. Madrasa to'g'ri to'rtburchak shaklida, old eshigi serhasham peshtoqli, kiraverish yo'lak (Miyonxon)ning bir tomoni darsxona, ikkinchi tomoni masjid. Miyonxonaning ikkinchi qavati kutubxona bo'lgan. Madrasa hovlisida yana ikki peshtoq bor, ularning har ikkala tomonida minoralar qurilgan. Peshtoqlar pastdan yuqorigacha bejirim g'ishtchalar va guldor koshinlardan ishlangan hoshiyador naqshlar bilan bezatilgan.

1586 – yil Xo'ja Sa'd Jo'yboriy tomonidan madrasaning tashqi peshtog'i va yonlaridagi hujralar ta'mir etilib, peshtoq bezagida mayda yozuvli va naqshli koshinlar ishlatilgan. Hovli g'arbidagi hujra tepasidagi ganchkori bezaklar orasida ta'mirlovchi usta Ismoil ibn Toxir ibn Mahmud Isfahoniy nomi saqlangan. Ulug'bek 1419 – yilning 28 – noyabrida madrasaga kelib ilm oluvchi talabalarga in'omlarulashgan. Madrasa peshtog'ida arab tilida “Bilim olish har bir musulmon erkak va ayol uchun farzdir”, degan ibora o'yib yozilga. Madrasa XX asrda bir necha marotaba ta'mirlangan¹⁹⁶. Olim, arxeolog, tarixchi Yahyo G'ulomovanning

¹⁹⁵ <https://www.marcopolo.uz/en/attraction/223>

¹⁹⁶ H. To'rayev Buxoro tarixi – Buxoro; Durdona nashriyoti - 2020.

ta'kidlashicha, “Madrasaning bu ustunlaridan ba'zilari O'zbekiston bo'ylab yog'och o'ymakorligi san'atining eng qadimiy yozuv turlarini saqlab qolgan”.¹⁹⁷

Adabiyotlar

J. Barakayev, I. Haydarov “Buxoro tarixi” O'qituvchi T-1991.

H. To'rayev “Buxoro tarixi” Durdon nashriyoti; Buxoro - 2020.

Пугаченкова Г.А. Исмоил Сомоний мақбараси. –Тошкент: Госиздат УзССР, 1964. – Б.2-3.

<https://xs.uz/uz/post/shavkat-mirziyoev-mamlakatimizdagidek-boj-tarikh-bobolarimizdek-buyuk-allomalar-hech-qaerda-joq>

<https://www.standart.uz/news/view?id=632>

<https://globalconnect.uz/uzbekistan/sights/bukhara/ark-fortress>

BUXORO SHAHAR MAKTABLARI TARIXI BUXORO VILOYAT DAVLAT ARXIVI HUJJATLARIDA.

D.SH.Murodova,

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asr boshlarida Buxoro shahrida dastlab tashkil etilgan umumta'lim maktablarining tarixi Buxoro viloyat davlat arxivi fondi hujjatlari asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: Arxiv, fond, yig'majildlar, hujjatlar, tarixy jarayon, ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari, tajriba–sinov, davlat dasturi, noan'anaviy darslar.

Bugungi kunda viloyat davlat arxivi fondlarida Buxoroda XX asr boshlarida tashkil etilgan umumta'lim maktablari va ularning bir asrlik tarixiy faoliyatiga oid noyob hujjatlar saqlanadi. 1922-1927 yillarda mintaqadagi dastlabki yangi tashkil etilgan sovet maktablari faoliyati ishchi, dehqon va qizil armiya deputatlari Kengashi Zarafshon viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi fondi, 1927-1931 yillardagi

¹⁹⁷ <https://www.people-travels.com/uzbekistan-cities/bukhara/sightseeing-in-bukhara/ulugbek-madrasah-in-bukhara.html>

jarayonlar Buxoro shahar ishchi, dehqon va qizil armiya deputatlari Buxoro hududiy Kengashi ijroiya qo'mitasi Xalq ta'limi bo'limi, 1924-1977 yillar Buxoro shahar ishchi, dehqon va qizil armiya deputatlari Kengashi xalq ta'limi bo'limi fondi va Buxoro viloyati ishchi deputatlari Kengashi ijroiya qo'mitasi Xalq ta'limi boshqarmasining fondlarida 1938-1995 yillardagi viloyatda mavjud bo'lgan ta'lim muassasalarining faoliyatini aks ettiruvchi hujjatlar saqlanadi¹⁹⁸. Bundan tashqari Buxoro shahar xalq ta'limi bo'limiga qarashli №1 Buxoro boshlang'ich maktabi, №1 Buxoro shahar o'rta umumta'lim maktabi, Kuybishev nomidagi to'liqsiz o'rta maktab, 18-son maktab-internati va Buxoro tumani xalq ta'limi bo'limiga qarashli №1 Otbozor boshlang'ich maktablarining hujjatlari ham alohida fondlarda saqlanadi¹⁹⁹.

XX asrning 20-yillarida Buxoroda ochilgan yangi sovet maktablari qatorida shahriston markazidagi Tursunjon madrasasi oldida qad rostlagan ilm maskani dastlab "Namuna" nomi bilan ish boshlagan. 1926-1927 o'quv yilida esa "Zelenskiy" nomi bilan atalib, ta'lim o'zbek, tojik va tatar tillarida olib boriladigan yetti yillik maktabga aylantirilgan. 1928-1929 o'quv yilida eski bino o'rnida yangisi qad rostlaydi va bunda faqat o'g'il bolalar tahsil olishadi. 1936 yilga kelib maktab uch qismga ajratilgan. O'zbek tilida o'qiydiganlarni Buxoro pedagogika Instituti otaliqqa olib, o'z bazasida M.Gorkiy (hozirgi 10-son) nomli maktabni tashkil etgan. Tatar tilida tahsil oluvchilar uchun Oxunboboyev (hozirgi 6-maktab), tojik tilida o'qiydiganlar uchun esa Kuybishev nomli (hozirgi 9-maktab) vujudga kelgan²⁰⁰. Keyingi o'quv yillarida mazkur dargoh 10 yillik maktabga aylantiriladi. Viloyatda birinchi bo'lib 10-sinfni tugatgan 14 nafar o'quvchi aynan ana shu dargoh bitiruvchilari bo'lishgan. Tilshunos olim M.Mirzayev, mashhur yozuvchi S.Barnoyev, professor O.Bo'ronov, shoir va shifokor A.Samadov, dunyo tan olgan turkolog olim H. Ne'matov, xalq e'tiboriga sazovor bo'lgan insonlar Sh. Soliyev, A.Muzaffarov, M.Barakatovalar ham mazkur ta'lim muassasining ilk

¹⁹⁸ Краткий справочник по фондам. Бухара. 1997.С.63.

¹⁹⁹ O'sha asar. 65-bet.

²⁰⁰ Tosheva S., Oripova I. Qutlug` dargoh-qutlug` yoshda. Buxoro muallimi // 2005yil, 1-30 iyun. №11-12 (185-86).

qaldirg'ochlari bo'lishgan. Maktab bitiruvchilari orasida 4 nafar akademik, 8 nafar fan doktori, 13 nafar fan nomzodi, 37 nafar san'atkor, 10 nafar OAV xodimi, 110 nafar huquqshunos, 550 ga yaqin muallim, 600 nafardan ortiq shifokorlar, 323 nafar muhandis, 4 nafar Buxoro viloyat hokimi stipendiyasi sovrindorlari, viloyat kasaba uyushmasi stipendiatlari 2 nafar, O'zbekiston chempionlari 2 nafar, 4 nafar Xalq ta'limi a'lochisi yetishib chiqishgan²⁰¹.

Ikkinchi jahon urushi yillarida maktab jamoasi samarali faoliyat yuritganligini hujjatlar tasdiqlaydi. 1945 yil 26 martda Buxoro shahar maorifiga qarashli Kuybishev nomidagi 3-son qizlar o'rta maktabining 1944-45 o'quv yili 3 chorak bo'yicha yozma hisoboti bor. Hisobot maktab direktori Davidova Sara Davidovna va o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Bakirovlar tomonidan tayyorlangan. Unda ko'rsatilishicha, 1945 yil 26 martda holatida maktabda 411 nafar o'quvchi va 34 nafar o'qituvchi faoliyat yuritgan bo'lib, 9 nafari oliy, qolgan qismi esa o'rta ma'lumotli pedagog kadrlardan iborat bo'lgan ekan²⁰². Jamoa milliy tarkibi jihatidan asosan o'zbek, tojik, yahudiy, tatar va polyaklardan tashkil topgan edi. Ta'lim muassasasining rahbari Davidova Sara Davodovna 1914 yilda Buxoro shahridagi yahudiy oilasida tug'ilgan bo'lib, matematika fanidan o'quvchilarga saboq bergan. Maktab o'qituvchilarning eng yoshi ulug'i Pastor Zikarid Flentovich bo'lib, u polyak millatiga mansub, 1903 yilda tavallud topgan. 1924 yilda Beleko injenerlar institutini tugatgan ma'lumoti oliy. Nemis tilidan dars bergan. Maktab o'quvchilarining soni davomat hisobotlarida jami 453 nafar ekanligi, shundan 272 tasi qizlar bo'lganligi qayd etib o'tilgan. 1945 yilda maktab bo'yicha yillik davomat 82,35 % bo'lganligi ko'rsatilgan²⁰³. Direktor Sara Davidovaning rahbarlik davri urush davri murakkab sharoitiga qaramay maktab hujjatlari yaxshi yuritilgan va viloyat arxiviga topshirilgan.

²⁰¹ O'sha joyda. 7-bet.

²⁰² BVDA. 1080-Fond, 1-ro'yxat, 1-yig'majild, 63-varaq.

²⁰³ BVDA. 1080-Fond, 1-ro'yxat, 1-yig'majild, 91-varaq.

Hozirgi kunda ham ushbu ta'lim muassasi Buxoro shahar xalq ta'limi bo'limiga qarashli Maryam Yakubova nomidagi 9-son umumta'lim maktabi sifatida faoliyat yuritadi va viloyatdagi eng namunali bilim dargohlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Краткий справочник по фондам. Бухара. 1997.С.63.
2. Buxoro muallimi // 2005yil, 1-30 iyun. №11-12 (185-86).
3. BVDA. 1080-Fond, 1-ro`xhat, 1-yig`majild, 63-varaq.
4. BVDA. 1080-Fond, 1-ro`xhat, 1-yig`majild, 91-varaq.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOTIDA “XALQ SO'ZI” GAZETASINING O'RNI

N. A. Subxonova,

*Tarixshunoslik, manbashunoslik – tarixiy tadqiqot usullari
mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: Maqolada jamiyatimiz hayotida matbuotning roli, uning ilk ko'rinishlari hamda “Xalq so'zi” gazetasining qachondan boshlab chop etilishi, uning davlatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rni xususida so'z yuritiladi. “Xalq so'zi” va “Narodnoye slovo” gazetolari tahririyati” davlat korxonasi ustavi to'g'risidagi qarori izohlab beriladi.

Kalit so'zlar: matbuot, gazeta tili, tahririyat, muharrir

Insoniyat dunyoqarashining kengayishida ommaviy axborot vositalari, xususan, matbuotning o'rni beqiyosdir. Matbuot tarixiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, u orqali insonlar dunyo yangiliklari haqida bilib turishgan.

Turli davrlarda matbuotdan keyin OAV ning radio, televideniye kabi turlari, ayniqsa, internet paydo bo'lgach, insoniyat ongi va dunyoqarashi tubdan o'zgardi. Ulardan to'g'ri foydalanish va axborotlarni tahlil qilish esa kishidan fikr, bilim va tafakkurni talab etadi.

Matbuotning ilk ko'rinishlari XV asrning o'rtalarida Yevropada yuzaga kelgan, qariyb 5 asr mobaynida, ya'ni radioeshittirish va televideniye paydo bo'lgunga qadar kishilar o'rtasida ommaviy muloqotning, bilim va g'oyalar tarqatishning asosiy manbasi hisoblangan. Dastlabki bosma nashrlar kitob, risola va varaqalardan iborat bo'lgan, XVII asrning boshlarida gazetalar, keyinroq esa jurnallar nashr etila boshlangan. Gazeta – ommaviy axborot va targ'ibotning asosiy vositasi hisoblanadi. Gazeta hajmi 2 sahifadan 100 sahifagacha va undan ham ko'p bo'lishi mumkin.

XIX asrning o'rtalarida axborot agentliklari vujudga keldi. Gazeta va jurnallarning paydo bo'lishi bilan “jurnalistika” atamasi ham shakllandi. XIX asrning o'rtalarida vaqtli matbuotning rivojlanishi bilan jurnalistikaning mazmun doirasi kengaydi. YUNESKO tomonidan 1991-yil 3-may “Jahon matbuot erkinigi” kuni deb e'lon qilingan va deklaratsiya qabul qilinib, shu kunni bayram sifatida nishonlash belgilangan.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ommaviy axborot vositalarining, matbuotning jamiyatdagi o'rni va rolini oshirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Sohaning huquqiy-demokratik, qonunchilik bazasi mukammal shakllandi. Jumladan, O'zbekiston mustaqil bosma, OAV va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi tashkil etildi. Bundan tashqari, Milliy matbuot markazi, Respublika ma'naviyat targ'ibot markazi singari xizmatlar ham shakllandi.

Bir so'z bilan aytganda, ayni kunda OAV aholiga tezkor axborot yetkazish, ularning takaffur doirasi, dunyoqarashi va ma'naviyatini yuksaltirishdagi ahamiyati katta. Ayniqsa, bugungi axborot asrida matbuotga bo'lgan talab va ehtiyoj tobora ortib borayotganligini ochiq e'tirof etish lozim.

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz ommaviy axborot vositalarining soni qariyb 4 barobar ko'payib, 1500 taga yetgani ushbu tarmoqda o'sish, o'zgarish bo'layotganligidan darak beradi. O'zbekistonda tur va xil jihatdan farqlanuvchi keng tarmoqli gazetalar tizimi tarkib topdi. Ayni paytda O'zbekiston

Respublikasida 507 nomda (shundan 77 tasi respublika, 162 tasi viloyat, 176 tasi tuman, 45 tasi ko'p nusxali) gazetalar nashr etiladi. O'zbekistonning yetakchi gazetasi – “Xalq so'zi” va “Narodnoye slovo” O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Respublika Vazirlar Mahkamasining nashridir.

“Xalq so'zi” gazetasi ijtimoiy-siyosiy va ommaviy nashr bo'lib, o'zbek tilida, haftada 5 marta, A-2 bichimida 1991-yilning 1-yanvar sanasidan boshlab nashr etib kelinmoqda. “Xalq so'zi” gazetasi orqali yurtimizda ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy sohada bo'layotgan o'zgarishlar, O'zbekistonning o'z qo'shni davlatlari bilan hamda xorij davlatlari bilan amalga oshirgan maqsadli shartnomalari to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'lishimiz mumkin.

Shu asnoda e'tiborli jihatlaridan biri shundaki, “Xalq so'zi” gazetasi o'z faoliyatini boshlaganida O'zbekiston hali mustaqillikni qo'lga kiritmagan edi. Buni biz 2001-yilda “Xalq so'zi” gazetasining 10 yilligini nishonlash doirasidagi nashrlaridan ham guvoh bo'lishimiz mumkin. Shu 10 yil mobaynida gazeta xalq bilan birga nafas oldi. O'sdi. Ulg'aydi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, chinakam erkinlik kuychisiga aylandi. O'tgan yillar mobaynida mustaqillikni mustahkamlashdek, bozor iqtisodiyotini joriy etish va rivojlantirish, xalq farovonligini yaxshilash borasida birinchi prezidentimiz I.Karimov rahnamoligida olib borilgan mislsiz ishlarning solnomasiga aylandi. Jumladan, 1991-yilning 15-yanvardagi gazeta sonida Respublika Prezidenti Islom Karimovning shaxsiy tashabbusi va jasorati bilan qabul qilingan Deklaratsiyada O'zbekiston bundan buyon siyosiy jihatdan ham, iqtisodiy tomondan ham to'la mustaqillikka erishadi. Yer-suvga, mol-mulkiga o'zi egalik qiladi, - deb ta'kidlangan edi. Gazetaning shu kungi sonida tarixchi olim Bo'riboy Axmedovning “Haq-huquqimizni tan olsinlar” sarlavhali maqolasi chop etilgan²⁰⁴. Muallif o'tgan, ya'ni 1990-yilning eng muhim voqealarini ta'kidlar ekan, shunday deb yozadi: “O'zbekistonning mustaqilligi haqida qabul qilingan Deklaratsiya yilning eng muhim hujjatidir. Erkinlik, o'z taqdirini, mustaqilligini belgilash huquqi – hamma xalqning o'lmas orzusi,

²⁰⁴ B.Axmedov. Haq-huquqlarimizni tan olsinlar. “Xalq so'zi” gazetasi 15-yanvar №10, 1991-yil 1-bet

kurashlari ma'nosi", deb gazetaning 10 yillik tavallud topgan kunida bayon etilgan²⁰⁵. E'tibor bering, O'zbekiston hali o'sha SSSR deb atalmish imperiyaning iskanjasidan qutilmagan, hali komfirqa, hamma joyda mening aytganim bo'ladi, deb dag'dag'a qilib turgan bir paytda gazeta cho'chimasdan ozodlik g'oyalarini targ'ib qiladi. Xuddi shunday voqealardan yana biri shu yilning 14-fevral sanasidagi gazetaning sonida respublika rahbariyati markaz – Moskvaning qosh-qovog'iga qaramasdan dadil, millat manfaatlaridan kelib chiqib, o'ziga xos yo'l tutayotganini ko'rsatuvchi juda muhim tarixiy hujjat chop etilgan. U ham bo'lsa "Respublikada "Navro'z" umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish haqida" O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning Farmoni²⁰⁶. Ma'lumki, sho'rolar davrida boshqa ko'pgina qadriyatlarimiz qatori "Navro'z" bayramimiz ham qatag'onga uchragandi va uni man etgan edilar.

Shunisi e'tiborga loyiqki, gazeta xalqda milliy g'ururni tarbiyalash masalasidek muhim mavzuni izchillik bilan ilgari surishga intilgan. Shu maqsadda "Xalq so'zi" gazetasini o'rni va rolini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Kengashi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 24-dekabrda qabul qilingan "Xalq so'zi" va "Narodnoye slovo" gazetalari tahririyatining Ustavi va tahrir hay'atining tarkibi to'g'risida"gi 585-II/564-sonli Qarori o'z kuchini yo'qotib, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 2006-yil 11-oktabrda qabul qilingan 214-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi²⁰⁷. Ushbu Ustav O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Ommaviy axborot

²⁰⁵ Asrga tatigulik satrlar. "Xalq so'zi" gazetasi 5-yanvar №4 (2566) 2001-yil 2-bet

²⁰⁶ Respublikada "Navro'z" umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish haqida. 14-fevral №32, 1991-yil 1-bet

²⁰⁷ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 48-49-son, 481-modda, 2007.

Vositlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, Boshqa qonun hujjatlariga muvofiq “Xalq so'zi” va “Narodnoye slovo” gazetlari tahririyati” davlat korxonasi huquqiy maqomini, faoliyati xususiyatlarini, muassislarning, tahririyatning huquq va majburiyatlarini, tahririyat va muassislarning o'rtasidagi mulkiy munosabatlarni belgilaydi. Bundan tashqari ushbu ustavda tahririyatning asosiy vazifalari, muassislarning va tahririyatning huquq va majburiyatlari, boshqaruv organlarini shakllantirish tartibi to'g'risida alohida bob sifatida kiritilgan. “Xalq so'zi” gazetasi tahririyati axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega bo'lishi barobarida O'zbekiston Respublikasi qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari talablariga rioya etishi, gazetalaridagi maqolalarning mazmunan yuksak saviyali va tushunarli bo'lishini, va dolzarbligini ta'minlashi kabi majburiyatlarini oladi.

Gazeta nafaqat ayni paytdagi balki, mustaqillik yillari boshlaridagi muhim siyosiy voqealar bilan bir qatorda respublikaning barcha viloyatlarida iqtisodiy, madaniy-marifiy jahdida olib borilayotgan ishlar keng va muttasil yoritib borilgan. 1992-yil 10-yanvardagi gazeta sonida davlatimiz iqtisodiyotidagi kichkina yangilik ham yoritilgan. Jumladan, Jizzax viloyatining “G'alaba” davlat xo'jaligida kompyuterlash boshlanganligi, Amerikada ishlab chiqarilgan va 47 ming so'mga sotib olgan elektron hisoblash mashinasi ishga tushirilishi bilan hisobchilar soni yarmiga qisqarib ketganligi, keyinchalik davlat xo'jaligi ishlab chiqarishining barcha sohalarida elektronikadan foydalanilganligi, bu esa iqtisodiy jihatdan katta foyda keltirganligi haqida havola keltirilgan²⁰⁸.

Xulosa qilib aytganda, “Xalq so'zi” gazetasi mamlakatimizda olib borilayotgan barcha islohotlarni yoritib borishda beminnat xizmat ko'rsatib kelmoqda. Bundan keyin ham gazeta o'z muxlislarining talab va ehtiyojlarini muttasil ravishda amalga oshiradi. Bu – zamon talabi va islohotlarimiz talabidir. Shu maqsadda parlamentimiz tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga axborot sohasini yanada demokratlashtirish va rivojlantirishga qaratilgan o'zgartirish va

²⁰⁸ Qishloqda kompyuter. “Xalq so'zi” gazetasi. 10-yanvar 8-son, 1992-yil 2-bet

qo'shimchalar kiritish bo'yicha faol ish borilayotgani ayniqsa e'tiborlidir. Bu borada O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish, uning moddiy-texnik bazasini yaxshilash, ijodiy jamoalar bilan muntazam ravishda faoliyat olib borilishi va sohani yanada rivojlantirish maqsadida "Do'stlar klublari"ni tashkil etishda amaliy ishlar qilinishi lozim.

Ommaviy axborot vositalari sohasida ana shunday ishlarning amalga oshirilishi hech shubhasiz, O'zbekiston jurnalistikasining jahon axborot maydonida munosib o'rin egallashi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Adabiyotlar

1. "Xalq so'zi" gazetasi 15-yanvar №10, 1991
2. "Xalq so'zi" gazetasi 14-fevral №32, 1991
3. "Xalq so'zi" gazetasi 10-yanvar №8, 1992
4. "Xalq so'zi" gazetasi 5-yanvar № 4 (2566), 2001
5. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. - T.:2007

TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATLARINING BOSHLANISHI

A.R.Narzullayev,

*Tarixshunoslik, manbashunoslik – tarixiy tadqiqot usullari
mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya:Ushbu maqolada Turkiston o'lkasida jadidchilikni vujudga kelishi va uning ma'rifatparvarlikni yoyilishida milliy uyg'onish parakati sifatidagi mohiyati, ularning meroslarini o'tgan davr va bugungi kun vazifalaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy – ma'naviy tamoyillar va omillarning nazariy va amaliy ahamiyati, maqsad va vazifalari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Jadid, ma'rifatchilik, yangi uslub, maktab, islohot.

XIX asr oxiri- XX asrning boshlarida siyosiy, madaniy, iqtisodiy jihatdan inqiroz holatiga tushib qolgan musulmlarka tufayli rivojlanish past darajada bo'lgan o'lkada Turkiston ziyolilari chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmidan

qutulish, o'z milliy davlatchiligini tuzish, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga yo'l ochish, xalqqa ziyo tarqatish choralarini ko'rdi. Bu borada jadidchilik harakati katta rol o'ynadi. Jadidchilik rus mustamlakachiligiga qarshi milliy demokratik harakat bo'lib, u o'sha davr Turkistondagi qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma'rifatlashtirish, jamiyat hayotida ijtimoiy va madaniy islohotlar o'tkazish, pirovardida milliy mustaqillik g'oyalarini hayotga tadbiq etish maqsadini o'z oldiga qo'ygan edi.

Turkistonda jadidchilik g'oyalari XIX asrning 90-yillaridan yoyila boshladi. Bu harakat XX asrning 30-yillari oxirlarigacha o'lka ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol o'ynadi. Bugungi kunda respublikamiz tarixchi olimlari jadidchilik harakatida quyidagi uchta bosqichni farqlashmoqda:

- 1) XIX asr oxirlaridan 1915 yilgacha-ma'rifatchilik;
- 2) 1915 yildan – 1918 yil fevraligacha-muxtoriyatchilik;
- 3) 1918 yil fevralidan - 20-yillar oxirlarigacha mustabid sovetlar davridagi faoliyati.

Jadidchilik Rossiyaga qaram bo'lgan musulmon xalqlari orasida dastlab Qrimda XIX asrning 80-yillarida paydo bo'ldi. Uning asoschisi diniy-dunyoviy ilmlarni chuqur egallagan Ismoilbek Gasprali (1851-1914) bo'ldi. Ismoilbek 1884 yilda jadid maktabi tashkil etib, 40 kunda 12 bolaning savodini chiqaradi. Uning o'qitish usuli «usuli savtiya», ya'ni «yangi usul» nomi bilan shuxrat qozondi. «Jadid» arabcha so'z bo'lib, «yangi» degan ma'noni bildiradi. Mashhur jadidshunos olim, professor Begali Qosimov “Milliy uyg'onish” deb nomlangan kitobida “jadidchilik” istilohining kelib chiqishi haqida to'xtalib, shu munosabat bilan uning mohiyati to'g'risida ham fikr bildiradi: “Jadidchilikning” asosida “jadid” so'zi yotadi. “Jadid”ning ma'nosi “yangi” demakdir. U shunchaki “yangi” yo bo'lmasa, “yangilik tarafdori” degani emas. Balki “yangi tafakkur“, “yangi inson”, “yangi avlod” singari keng ma'nolarni o'zida mujassam etgan.[1]

Ismoilbek g'oyalarini qabul qilgan yangilik tarafdorlari «jadidlar», uning g'oyalari esa «jadidchilik» nomini oldi. Ismoilbek Gasprali darslik yaratadi,

o'zining «Tarjimon» (1883-1914) gazetasini tashkil etib, jadidchilikni turkiy xalqlar orasida keng targ'ib qiladi. Bu gazeta Toshkent va boshqa shaharlarga ham tez yoyiladi.

I. Gasprali 1893 yilda Toshkent, Samarqand va Buxoroda bo'ldi. Buxoroda amir Abdulahadni jadid maktabi ochishga ko'ndiradi. Bu maktabga «Muzaffariya» nomi beriladi. 1898 yilda To'qmoqda (Qirg'iziston) ham shunday maktab ochildi. 1899 yilda Andijonda Shamsuddin domla, 1901 yilda Qo'qonda Salohiddin domla, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov va Samarqandda Abduqodir Shakuriylar birinchi bo'lib jadid maktablarini ochadilar. Jadidchilik harakatining yirik namoyandalari jadid maktablari uchun darsliklar xam yaratganlar. Xususan, Saidrasul Aziziyning «Ustozi avval» (1903), Munavvarqorining «Adibi avval» (1907), Abdulla Avloniyning «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim» (1912) darsliklari alohida e'tiborga molikdir. Jadidlarning xalq ma'rifati uchun kurash dasturi uch asosiy yo'nalishdan iborat bo'lgan:

1. Yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish.
2. Umidli, iqtidorli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish.
3. Turli ma'rifiy jamiyatlar tuzish xamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalarni chop etish.

Shu dasturni amalga oshirish borasida Maxmudxo'ja Bexbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev, Abdulla Avloniy, Abdulxamid Cho'lpon va boshqa ziyolilar jonbozlik ko'rsatishdi. Yangicha o'qitish musulmon bolalariga qisqa vaqt ichida dunyoviy, diniy ta'lim berish dasturi asosida olib borildi. Bu dasturga ko'ra maktablarda o'qitish tizimi ikki bosqichdan iborat bo'lgan. Birinchi bosqich ibtidoiy qism deb atalib, uning taxsil muddati 4 yil bo'lgan. Birinchi bosqichni tugatgan shogird eski maktabda 10 yil o'qigandan ko'ra yaxshiroq savod chiqargan. Ikkinchi bosqichni muvaffaqiyatli tugatgan shogird arabcha, forscha, turkiy tilda bemalol so'zlashib, ruschada erkin gaplasha olar edilar.

1905-1906 yilgi Rossiyadagi inqilobiy harakatlar Turkistonga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Faol kuchlar jipslasha boshladilar va jadidlar ma'rifatchilik faoliyatini jadallashtirdilar. Bu faqatgina maktablarda emas, balki jonli matbuotchilik faoliyati, jumladan, ro'znomalarning ko'plab vujudga kelishida ham ko'rindi. Jumladan, 1906 yilda Ismoil Obidovning muharrirligida «Taraqqiy», shu yili Munavvarqori muharrirligida «Xurshid», 1907-1908 yillarda Abdulla Avloniy muharrirligida «Shuxrat», Axmadjon Bektemirov muharrirligida «Osiyo» ro'znomalari chop etildi. Ma'rifatchilikning yangi to'loqida 1913-1915 yillarda «Samarqand», «Sadoi Turkiston», «Sadoi Farg'ona», «Buxoroi sharif», «Turon», 1917 yilda esa ²⁰⁹«El bayrog'i», «Kengash», «Xurriyat», «Ulug' Turkiston» gazetolari, «Oyina» jurnali kabi ommaviy axborot vositalari ham paydo bo'ldi.

Rossiya Fevral demokratik inqilobi arafasida Turkiston jadidchiligi yetuk siyosiy harakatga aylandi. Agar Birinchi Jahon urushidan keyin jadidlar parlamentar monarxiya uchun kurashgan bo'lsalar, Fevral inqilobidan keyin Turkiston jadidlarining «taraqqiyparvarlar» oqimini tashkil qilgan radikal qismi ancha keng qamrovli, bir qator siyosiy talablarni ilgari surdi. Ular qatoriga mahalliy aholi huquqlarini kengaytirish tomon o'lkani boshqarish yuzasidan asosli islohotlar o'tkazish, o'lkaga Davlat Dumasidan aholi soniga qarab o'rin berish, asosiy demokratik erkinliklar, avvalo, milliy matbuot erkinligini ta'minlash, chorizmni konstitutsion tuzum bilan almashtirish kabilar kiradi. Rossiyadagi Fevral demokratik inqilobi Rossiyada yangi davlat tuzumi o'rnatilgandan so'ng federativ davlat shaklida muxtoriyat olishga umid bog'lagan jadidlarni ruhlantirib yubordi. Ayni paytda, milliy siyosiy partiyalar va tashkilotlar, jumladan, jadidlar tomonidan «Sho'roi Islomiya», «Ittifoqi muslimin», «Turon» kabi bir qator tashkilotlar tuzildi. Bu paytga kelganda jadidlar tub yerli aholi ijtimoiy tarkibining turli qatlamlarini o'z ortlaridan ergashtira oldilar, ular ongida musulmonlar birligini mustahkamlash, jipslashtirish hissini uyg'otdilar. Ammo ular tez kunlarda

²⁰⁹ Qosimov Begali. Milliy uyg'onish - T: Ma'naviyat. 2002. 5-b

tushundilarki, Rossiyadagi Muvaqqat hukumat va uning Turkiston Qo‘mitasi ham o‘lkada avvalgidek mustamlakachilik siyosatini davom ettirish yo‘lini tutmoqda. Jumladan, bu siyosat Ta’sis majlisini chaqirishga tayyorgarlikda yaqqol namoyon bo‘ldi. Shu vaqtdan jadidlar uchun mustaqillik va muxtoriyat yo hayot, yo mamot muammosiga aylandi va jadal siyosiy janglar boshlandi. Ular hukumatning mustamlakachilik siyosatini qattiq tanqid ostiga oldilar va Turkistonning Rossiya Demokratik Federativ Respublikasi tarkibida milliy-hududiy muxtoriyat olish uchun astoydil harakat qilishga kirishdilar. Jadidlarning dasturiy hujjatlarida diqqat-e’tibor milliy-hududiy muxtoriyatning asosiy tamoyillarini amalga oshirish mexanizmlari-Turkiston Federativ Respublikasi imkoniyatlariga taalluqli bo‘lgan masalalar bo‘yicha, qonunlar chiqarishni amalga oshirish uchun chaqirilgan mustaqil vakolatli o‘lka hokimiyatining oliy organlari, boshqaruvi va sudi mexanizmlarini ishlab chiqish, o‘z davlat tuzilishini barpo etishga qaratildi. Boshqaruvning poydevori sifatida respublika shakli tanlab olindi. Demokratik huquq va erkinliklar berilgan va konstitutsion jihatdan kafolatlanishi lozim bo‘lgan demokratik jamiyatni shakllantirish-ustuvor maqsad qilib belgilandi. Turkiston jadidlari davlat mustaqilligi haqidagi o‘z g‘oyalarini hayotga tatbiq etishni mamlakatdagi turli ijtimoiy kuchlar o‘rtasida tinchlik va kelishuvchilik, demokratik asosda shakllantirilgan Rossiya Ta’sis majlisini chaqirish bilan bog‘langanliklari xam diqqatga sazovor. 1917 yil iyulda «Sho‘roi islomiya»dan «Sho‘roi Ulamo» tashkiloti ajralib chiqdi. Ammo Ta’sis majlisida o‘rin olish masalasining muhimligini anglash, bu ikki oqimning keyinchalik qo‘shilishiga va «Turk Adami markaziyati» nomi bilan ataluvchi yagona Turkiston Federalistlari partiyasining tashkil etilishiga olib keldi. Biroq Turkistondagi oktyabr voqealari va bolsheviklarning zo‘ravonlik bilan hokimiyatni egallashi ularga o‘z maqsadlarini oxirigacha amalga oshirishlariga imkon bermadi. Shunga qaramay, ular Petrogradda tuzilgan Lenin boshchiligidagi bolsheviklar xokimiyatining «Rossiya xalqlari Deklaratsiyasi» (1917 yil 2 noyabr), «Rossiya va sharqning barcha musulmon mexnatkashlariga» Murojaatnoma (1917 yil 20 noyabr), hujjatlarda

ko'rsatilgan millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi to'g'risidagi huquqlardan foydalanib, Turkiston muxtoriyati xukumatini e'lon qildilar. Uch oygina yashagan bu muxtor respublika tugatilishi oqibatida jadidlar ta'qibga uchradilar. Munavvarqori Abdurashidxonovning guvohlik berishicha, «Ittixodi taraqqiy» (1917-1920), «Milliy ittixod» (1920-1925), «Milliy istiqlol» (1925-1929) va «Turkiston Milliy Birligi» (1921-1923) (raisi Axmad Zakiy Validiy) maxfiy tashkilotlari o'lkada hokimiyatni qo'lga olish maqsadida faoliyat yuritgan.

Sovet davrida jadidlardan chiqqan milliy ziyolilar sovet organlarida faoliyat ko'rsatdilar va o'z faoliyatlari bilan xalq ta'limi san'atini rivojlantirishga ma'rifiy ishlarni taraqqiy ettirishga harakat qildilar. Jadidlarning ayrim qismi mustabid tuzumning siyosatiga ko'nikmay xorijga o'tib ketdilar, muayyan qismi esa istiqlolchilar harakatiga qo'shilib ketdilar. Istiqlolchilik harakatiga g'oyaviy rahnamolik qilish, ayniqsa, sovet organlarida ishlab, milliy mustaqillik g'oyalarini targ'ib qilishdagi sa'y-harakatlari jadidlarning sovetlar tomonidan 1929, 1937-1938 yillarda ommaviy qirg'in qilinishiga olib keldi. Buxoro amirligi va Xiva xonligida jadidchilik harakati Turkistondagi kabi XIX asr oxiri-XX asr boshlarida shakllangan bo'lsa ham bu hududlardagi tarixiy sharoit undagi jadidchilik harakatiga ham o'ziga xos xususiyatlar baxsh etdi. Buxoro va Xiva jadidlari dastlab amir va xon hukmronligini cheklash, mavjud tuzum sharoitida islohotlar o'tkazib, jamiyat taraqqiyoti va milliy mustaqillikni qo'lga kiritishni maqsad qilib qo'ygan bo'lsalar, keyinchalik xon va amir yakka hukmronligi har qanday taraqqiyotga to'siq ekanligini tushunib yetdilar. Chunki 1917 yilda Xivada Asfandiyorxon ruxsati bilan tuzilgan yosh xivaliklardan iborat majlis va nozirlar kengashi, ularning taqiqlanishi va Junaidxon davridagi yosh xivaliklarning qattiq ta'qib qilinishi; Buxoro amiri Said Olimxonning o'zi qabul qilgan islohotlar o'tkazish haqidagi farmonini bekor qilishi va 1918-1920 yillarda yosh buxoroliklarning quvg'inga uchrashi shunga olib kelgan. Buxoro va Xorazm Xalq Respublikalarida jadidlar hukumat organlarida rahbar lavozimlarida ishlab mamlakatni taraqqiy qildirish va mustaqillikni saqlab qolishga intildilar (1920-

1924). Biroq sovet rejimi avval Buxoro va Xorazm davlatlari mavjudligiga chek quygan bo'lsa, keyinchalik barcha jadid namoyondalarini jismonan mavh qildi. Umuman olganda, asr boshida yuzaga kelgan jadidchilik harakati Turkiston xalqlarining milliy ozodlik, mustaqillik uchun dastlab chor Rossiyasi, so'ngra sovet mustamlakachiligiga qarshi kurashda muhim o'rin tutadi.

Adabiyotlar

1. Qosimov Begali. Milliy uygonish - T: Ma'naviyat. 2002.
2. Rajabov Q. Jadidlar – istiqlochlilik harakatining g'oyaviy rahnamolari. // Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. Davriy to'plam. 1999. №1.
3. Turkiston mustaqilligi va birligi uchun kurash sahifalaridan. T.: "Fan", 1996.
4. Ziyoev X. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronlikka qarshi kurash. T.: "Sharq", 1998.
5. O'zbekiston yangi tarixi. 1 – kitob. T.: 2000.

ПРОФЕССОР ФАРХОД ҚОСИМОВНИНГ “ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИДА БУХОРО” РИСОЛАСИ ҲАҚИДА

М. М. Жамолова

*Tarixshunoslik, manbashunoslik – tarixiy tadqiqot usullari
mutaxassisligi magistranti*

Аннотация “Бухоро тарихчиларининг отаси” деб эътироф этилган, тарих фанлари соҳасининг тарихшунослик йўналишида муносиб мактабига асос солган олим Фарҳод Ҳабибович Қосимов Самарқандда олий таълимни олган кезларида Амир Темур ва темурийлар даври бунёдкорлигига ўз кўзлари билан гувоҳ бўлди. Совет даври мафкураси таъсири остида Амир Темур ва унинг авлодлари қораланган бир пайтда улар қолдирган моддий ва маънавий мерос қарашларни инкор этарди. Аммо ёш талаба тугул, йирик

олимлар ҳам ушбу мавзуда илмий тадқиқот олиб бориши, мақола, рисола ва монографиялар ёзиши мумкин эмас эди. Ўзбекистон мустақилликка эришганининг дастлабки йилларидаёқ олим бу мавзуга қўл урди ва "Темурийлар даврида Бухоро" рисоласини ёзди.

Калит сўз: тарихчи олим, асар, Темурийлар, сарбадорлар, шаҳарсозлик

Ўзбекистон мустақилликка эришгач, тарихий ҳақиқатни тиклаш, йирик давлат ва жамоат арбоблари номларини оқлаш, буюк мутафаккирларимизнинг илмий меросини юзага чиқариш давлат сиёсати даражасига кўтарилди. Жумладан, буюк саркарда Амир Темур ва темурийларнинг ўзбек давлатчилиги тарихида тутган ўрнини ўрганиш бошланди. 1996 йилда Амир Темур таваллудининг 660 йиллиги нишонланди.

Тарихчи олим Фарҳод Қосимов Амир Темур ва темурийлар даври тарихини ўрганиб, уларнинг ҳукмронлиги даврида Бухорода кечган ижтимоий, сиёсий ва маданий жараёнларни тарихий манбалар асосида ёритиб берди. Ушбу рисола “Темурийлар даврида Бухоро” деб номланиб, 1996 йилда нашр этилган²¹⁰.

Рисола “Амир Темур ва Бухоро” мавзуси кенг қўлами ва мазмуни билан қарийб бир ярим асрни ўз ичига олади. 1350 йиллардан бошлаб, яъни, улуг бобокалонимиз ҳокимият тепасига келиш учун сайъ-ҳаракатлари бошланган вақтдан 1500 йилгача, шабонийларнинг темурийлар давлатига хужум қилишигача бўлган даврни қамраб олади.

XIV асрнинг ўрталарида сиёсат ва ҳарб майдонига кириб келаётган Темур Мовароуннаҳрдаги турли ижтимоий кучлар ва катламлар ролини ҳисобга олиш билан бирга муҳим марказлар - Самарқанд, Балх, Урганч, Термиз, Ҳирот шаҳарлари мавқеини ҳам назарда тутар эди. Бу катта шаҳарлар қаторида, албатта, Бухоро ҳам бор эди”²¹¹, деб бошланади.

²¹⁰ Қосимов Ф. Темурийлар даврида Бухоро. Бухоро: “Бухоро нашриёти”, 1996.

²¹¹ Қосимов Ф. Темурийлар даврида Бухоро. – Б. 10.

Муаллиф Амир Темурнинг Бухорога тегишли яна бир жиҳати ҳақида тўхталиб, “отаси Муҳаммад Тарағай Шаҳрисабз ҳокими бўлиб, Бухорода садр аш-шариат деб ном қозонган катта руҳонийнинг қизи Тегинабегим Моҳга уйланган эди”²¹², деб ёзади. Бу маълумотни Салоҳиддин Тошкандийнинг “Темурнома” китобидан фойдаланиб ёзганини рисолада келтирилган ҳаволадан билиб олиш мумкин: “Ўшал замонда Бухорои шарифда Садр аш шаърият соҳиби шарҳи вуқойи ўшул асрнинг муллоси эрдилар. Бир куни дарс айтиб ўлтуруб эрдилар. Бир қаландар келди. Айди: "Тегинабегим Моҳ деган қизни куёвга беринг, андан бир ўғул туғуладур; ани жаҳонгир ва соҳибқирон дерлар. "Тарағай Баҳодир Бухорои Шарифга етгач, тўғри шайх ул-аъламни олдиларига кириб келди. Шайх ул-аъламни кўрди, сўфилар халқасида мувоқабда ўлтурурлар, андин кейин шайх ул-аълам бошларини кўтариб, айдулар: “Марҳабо, сафо қолдинг, эй соҳибқирон отаси”. Андин кейин Тегинабегим Моҳимни Амир Тарағай баҳодурга аҳд қилдилар. Ўшал нутфяи пок соати зуҳалда ота силабидан она ботинига боғланди”²¹³.

Ф. Қосимов Амир Темурнинг Бухорога бўлган ҳурматини очиб беришга ҳаракат қилар экан, “Темур ёшлигида Бухорога тез-тез келиб турган. У тахтга ўтиргандан кейин ҳам бу одатига амал қилган. Тарихий манбаларнинг гувоҳлик беришича, Амир Темур ҳар гал ҳарбий юришлардан зафар билан қайтганда, албатта, Бухорои шарифга келиб, авлиё-анбиёларни зиёрат қилар экан, сўнг пойтахти Самарқандга ўтар экан”²¹⁴, деб ёзади.

Шунингдек, муаллиф Амир Темурнинг сиёсат майдонига чиқиши тўғрисидаги айрим маълумотларни баён қилади: “Маълумки, 1361 йидда Темурбек Қозоғоннинг набираси амир Ҳусайн билан иттифок тузади. Кейинги турт йил икки амирнинг энг яқин алоқа боғлаган даври бўлди. Лекин ҳар қайси амир якка ҳукмронликка интилиб Зарафшон ва Қашқадарё

²¹² Қосимов Ф. Темурийлар даврида Бухоро. – Б. 12.

²¹³ Салоҳиддин Тошкандий. Темурнома. Амир Темур кўрагон жангномаси. Тошкент, 1990. Б. 43-45.

²¹⁴ Қосимов Ф. Темурийлар даврида Бухоро. – Б. 20.

воҳаларида узларига тарафдор ва хайрихоҳ кучларини ахтарарди. Кайд қилиш керакким, Темур ўз ҳарбий кучларини йиғаетганда Бухорога катта умид боғлади ва бу умидларида алданмади”²¹⁵.

Ф.Қосимовнинг ёзишича, Мовароуннаҳрдаги сиёсий-ҳарбий воқеаларнинг тизимини диққат билан кузатиб бораётган Амир Темур ва Амир Ҳусайн 1360-йилларнинг ўрталарида Самарқандда кучайиб кетаётган сарбадорлар ҳаракати натижасидан фойдаланмоқчи бўладилар. Сарбадорларнинг бошлиқлари асосан Бухородан бўлиб, улар мўғулларга қарши қўзғолоннинг исёнкор руҳини Самарқандга олиб кирган эдилар. Улар Самарқандни мўғуллар хони Илёсхўжадан ҳимоя қилиб, ўз ҳокимиятларини мустаҳкамлайдилар. Бу ҳақда хабар топган Амир Темур ва Амир Ҳусайн Самарқандга йўл оладилар. Шаҳар яқинига етиб, сарбадорлар бошлиқларини ўз қароргоҳларига таклиф қиладилар. Улар амирлар қароргоҳига борганда асир олиниб, қатл этиладилар. Фақат Мавлонзода Темурнинг илтимоси билан ўлимдан қутқариб қолинади²¹⁶.

Ушбу рисолада Амир Темурнинг давлат пойтахтини танлаши ҳақидаги далиллар ҳам ўрин олган: “Соҳибқирон ўз давлатини барпо этиш, уни сиёсий, иқтисодий ва ҳарбий жиҳатдан мустаҳкамлашга киришишдан олдин қароргоҳ, тахт жойи, яъни мамлакат пойтахтини танлаши керак эди. Темур бу борада кўп ўйлайди. Унинг назарида она шаҳри-Кеш, шариф шаҳар саналган Бухоро, бахт кулиб боққан Самарқанд пойтахт қиёфасида бирма-бир ўтарди. Машҳур масканлардан бири бўлган Кеш “Қуббатул илм вал адаб” унвонига эга бўлиб, Соҳибқироннинг унга меҳри ўзгача эди. Заҳриддин Бобур айтганидек, “Темурбекнинг зоди-буди Кештин учун уни шаҳар ва пойтахт қилурға кўп саъй ва эътиромлар қилди. Олий иморатлар Кештда бино қилди. Чунки Кешнинг қобилияти шаҳар бўларға Самарқандча эмас эди, охир пойтахт учун Темурбек Самарқандни ихтиёр қилди”²¹⁷.

²¹⁵ Қосимов Ф. Темурийлар даврида Бухоро. – Б. 14.

²¹⁶ Аласкерон Ю. Н. Самарқанд. Тарих саҳифалари. Тошкент, 1967. Б. 59.

²¹⁷ Қосимов Ф. Темурийлар даврида Бухоро. – Б. 16.

Самарқанд ва Кеш билан бир қаторда Турон заминдаги барча сиёсий, иқтисодий ва маданий жараёнларнинг марказида бўлган шаҳар, сомонийлар даврида мусулмон давлатчилигининг юксак намунасини берган Бухорои Шариф, мўғулларга қарши беаёв курашнинг олдинги сафларида турган кўрғон, қолаверса, онасини тукқан табаррук замин соҳибқирон кўз ўнгида пойтахт қиёфасида гавдаланади. XIV асрнинг 70-йилларида Бухоро Мовароуннаҳрдаги диний даражага етган шаҳар эди. Лекин, марказлашган давлатга асос солаётган Амир Темур Мовароуннаҳрнинг қоқ марказида жойлашган Самарқандни пойтахт деб эълон қилди. Бухоро иккинчи пойтахт сифатида салтанат таянчи бўлиб хизмат қилди²¹⁸. Тарихчи олим Ф. Қосимов изчиллик билан ёритиб бораётган маълумотларини темурийлар даврининг машҳур муаррихи Давлатшоҳ Самарқандийнинг “Тазкират уш-шуаро” асарида келтирилган ривояти билан тўлдиради. Соҳибқирон Шероз шаҳрини ишғол қилгандан сўнг, у ерда яшаб ижод этган машҳур шоир Ҳофиз Шерозийни ўз ҳузурига чақириб, унинг кўпчиликка маълум байтини эслатади:

Агар он турки шерози ба даст орад дили моро

Ба холи ҳиндуяш бахшам Самарқанду Бухоро

Амир Темур шоирга қараб: “Мен қиличим зарби ила минглаб шаҳар ва кишлоқларни забт этдимки, севикли ватаним Самарқанд ва Бухоро обод бўлсин деб. Уларни дунёнинг гўзал шаҳарларига айлантириш учун кўп куч ва меҳнат сарфлаганман. Сен наҳот нозаниннинг бир холи учун Самарқанд-у Бухорони бахшида этсанг?” дейди. Бу саволга Хўжа Ҳофиз ерни ўпиб: “Эй султони олам мен шундай сахий бўлмасам, шу аҳволга тушармидим?” деб жавоб беради. Бундай жавобни кутмаган Соҳибқирон мамнун бўлиб, шоирга инъом-иноятлар қилади²¹⁹.

Мазкур рисолада XX аср бошларида Бухорога ташриф буюрган рус зобити Д. Н. Логофетнинг буюк соҳибқирон ҳақида айтган фикрларини ҳам

²¹⁸ Қосимов Ф. Темурийлар даврида Бухоро. – Б. 17.

²¹⁹ Аълохон Афсаҳзод. Ҳофиз Шерози. Душанбе, 1971. Б. 7.

кўришимиз мумкин: “...Темурдай буюк шоҳ ва инсон хотирасига муносабатни кўриб, ачиниб кетасан. Ахир у ўз халқини тараққиётнинг юқори босқичига олиб чиққан, ўз даврининг ўта маданиятли вакили эди. Биз эса Осиё тарихига тааллуқли кўп нарсаларни билмай, билишга ҳам қизиқмай, уни ёввойи деймиз”²²⁰.

Рисола сўнгида XX асрнинг 60-йилларнинг охирларида ватандошимиз академик Иброҳим Мўминов томонидан ёзилган “Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли” номли рисоласи тарихчи олим Фарҳод Қосимов томонидан юксак эътироф билан тилга олинади. Иброҳим Мўминовнинг миллий тарихимизнинг шонли саҳифаларини тиклашдек ҳаракатини жасорат, деб ҳисоблайди.¹²

Хулоса қилиб айтганда, бухоролик машҳур тарихчи олим Фарҳод Қосимов “Темурийлар даврида Бухоро” рисоласида Амир Темурнинг ҳокимият тепасига келиши, бунёдкорлик ишлари, темурийлар даврида Бухорода бунёд этилган обидалар ҳақида батафсил маълумот бериб, XIV-XV асрлардаги Бухоро шахрини қиёфасини ўқувчига содда ва тушунарли тилда тасвирлаб берган. Бу рисола қайта нашр қилиш халқимиз учун, айниқса, бухороликлар учун жуда муҳимдир.

Адабиётлар

1. Қосимов Ф. Темурийлар даврида Бухоро. Бухоро: “Бухоро нашриёти”, 1996.
2. Салоҳиддин Тошкандий. Темурнома. Амир Темур кўрагон жангномаси. Тошкент, 1990.
3. Аласкерон Ю. Н. Самарқанд. Тарих саҳифалари. Тошкент, 1967.
4. Аълоҳон Афсаҳзод. Ҳофизи Шерози. Душанбе, 1971.
5. Бухоро тоғлари ва текисликларида. “Сомон йўли”. Тошкент, 1992.

²²⁰ Бу ҳақда қаранг: Бухоро тоғлари ва текисликларида. “Сомон йўли”. Тошкент, 1992. Б.72-7

¹² Қосимов Ф. Темурийлар даврида Бухоро. – Б. 74.

**NOSRIDDIN TO'RA BUXORIYNING “TUHFAT AZ –ZOIRIN”
ASARIDA BUXORO ZIYORATGOHLARI TARIXI**

H.H.To'rayev,

BuxDU, t.f.d., professor

G.Norqulova,

*Tarixshunoslik, manbashunoslik – tarixiy tadqiqot usullari
mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri-XX asr boshlarida yozilgan qabristonlarning topografiyasining roli, Buxoro shahrining me'moriy qiyofasining shakllanishi “ Tohfat az-zoirin” risolasida va sonida uchraydi. Bularning zamonaviy topografik ahamiyati risolada tilga olingan qabristonlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ziyoratgoh, qabriston, fiqh, topografiya qabristonlar, shahar madaniyati, tasavvuf, so'fiylik vakili.

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida muqaddas qadamjo va qadamjolarini obodonlashtirish ishlari izchil davom ettirilmoqda. Mamlakatda ajdodlar xotirasini e'zozlash, ularni tiklashga yuqori e'tibor berilmoqda. Xususan, bir qator normative-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi fikrimizning yaqqol dalilidir. Aytish joizki, O'zbekistonda ajdodlar xotirasini ulug'lash nafaqat ziyoratgohlarni obodonlashtirish, shuningdek, o'rganish tadqiq etish va targ'ib qilish ishlari ham qilinmoqda. Muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlar haqidagi nodir qo'lyozmalar bu borada muhim ahamiyat kasb etadi.

“Tuhfat az-zoirin” asarini Said Muhammad Nosir (To'liq ismi Nasriddin al-Hanafi y al-Hasaniy Al-Buxari) tomonidan yozilgan. U Buxoro amiri amir Muzaffar (1860-1885) ning o'g'li bo'lgan. Bu asar XIX asr oxiri –XX asr boshlarida yozilgan. XX asr boshlarida taqdim etilgan. “Tuhfat az-zairin” asari Buxoro so'fiylari haqida yozilgan bo'lib asarni yozishdan maqsad so'fiy shayxlarini batafsil yoritishdan iborat. Asar “ Kitobi Mullazoda Ahmad ibn Mahmud” asarining mantiqiy davomi bo'lib hisoblanadi. Mavzuga oid adabiyotlarni quyidagi guruhlariga bo'lib o'rganish mumkin :

1.XX asr boshlarida Turkistonda yaratilgan mahalliy manbalar va matbuot materiallari.

2.Sovet davrida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar.

3.Mustaqillik yillarida O'zbekistonda nashr etilgan tadqiqotlar.

4.Xorijda yaratilgan tadqiqotlar

Bugungi kunda manbalar orasida “Tuhfat az-zoirin”(Ziyoratchilarga sovg'a”) kitobi Buxoro qabrlarini o'rganishda alohida o'rin tutadi.Bu asar Nosriddin Hanafiy al-Hasaniy al-Buxoriy tomonidan yozilgan.Buxoroda yozilgan va aslida forsha asardir.”Tuhfat az-zoirin” ilk bor Buxoroda nashr etilgan litografiya.Bu ishning diqqatga sazovor tomoni shundaki,birinchidan,asar tadqiqotchilar tomonidan ilmiy ishlar uchun keng foydalanilgan,ikkinchidan,ish yuzasidan dissertatsiya ishi bajarilgan[1].

“Tuhfat az-zoirin”ning bir qismi ham tiliga tarjima qilingan va nashr etilgan[2].Xususan ,ayrim ijtimoiy- siyosiy,harbiy,madaniy,ta'lim-tarbiya tizimi,ustoz shogirdlik an'analari,ilmiy merosi,tasavvuf tariqatlari,pir-murshid shajara munosabatlari,ayrim toponimlar bilan bog'liq shahar topografiyasining muhim obyektlari haqidagi ma'lumotlarni mohirona tasvirlab beradi.”Tuhfat az-zoirin”da keltirilgan Buxoro amirligi tarixi muallifning kuchli iste'dodini ko'rsatadi.Takidlash joizki,Nosriddin To'raning “Hadi az-zoirin”, “Tuhfat az-zoirin”, “Tadqiqoti arki Buxoro”, “Osori salatini”(Buxoro), “Kanuz al-itqiyya” va boshqalar islom haqidagi asarlari kalom,fiqh,so'fiylik ilmlar sohasini juda mukammal va chuqur bilganligini ko'rsatadi[1,12].

Yozuvchining “Tuhfat az-zoirin” asarida buyuk allomalar faoliyat yillari va Buxoro va uning atrofida dafn etilgan so'fiylik vakillari, ularning ustozlari, shogirdlari, ilmiy meroslari umumiy, qisqa, ixcham va aniq tasvirlangan. Muallif asarga kirishda ko'p manbalarni o'qiganligini ta'kidlaydi. Nosriddin To'ra Buxoriy o'zi tasavvufga qiziqqan va shayxlar, imomlar, sadrlar hayoti va nasl-nasabini o'rganishni maqsad qilgan.Xoja Abduxoliq G'ijduvoni boshchiligidagi “Xojagonlar “ tariqatini ham o'rgangan.Natijada muallifning o'zi ularning nomlari

va qabrlari haqida kitob tayyorlashga kirishadi. Bu asarni hijriy 1324\1906-yilda yozib tugatiladi.²²¹

Bundan tashqari muallif “tuhfat az-zoirin” asarini yozishda “Nafahatul-uns”, “Rashahot”, “Manoqibi Hazrati Amir Kulol”, “Mazharul-ajib”, “ Favayidi muntahaba”, “Samaratul- mashoyix”, “Tuhfatul- ahbobi Shohiy”, “Tuhfatul ahbob”, “Manoqibi Hazrati Hoji Habibulloh”, “Tuhfatul-ansab”, shuningdek, Tohir Eshon asarlaridan foydalanib yozgan. Muallif asardagi malumotlar ixcham, mazmunli va ommabop ekanligini ta’kidlagan. Bu asar Buxoro, uning allomalari, davlat arboblari va tarixini o’rganishda muhim ahamiyatga ega ekanligi yaqqol ko’rinib turibdi.²²²

Asarda Gaukushon madrasasi qurilishi haqida aytilgan bo’lib uni Jo’yboriy xojalari Xoja Muhammad Islom va Xoja Sad mablag’lari hisobiga qurilgan. Uni qurilishida Muhammad Tohir Hiraviy al-habushoniy usta bo’lgan. Madrasada har kuni besh mingga yaqin talaba shariat ilmini o’rganish uchun kelgan²²³. Bu ma’lumotlardan ma’lum bo’ladiki madrasaning obro’-e’tibori yuqori bo’lgan. Bu yerda dars bergan ustozlar bilimi ham juda yuqori bo’lgan. O’sha davrda ham Buxoro amirligi bilim va ma’rifat markazi bo’lgan. Gaukushon madrasasiga bir kunda ilm izlab kelgan talabalar sonidan ham Gaukushon madrasasining nufuzi ancha yuqori bo’lganligini tushinish mumkin.

“Tuhfat az-zoirin” asari muhim topografik ko’rsatkich hisoblanadi. Buxorodagi ziyoratgohlar topografiyasi bo’lib bu asarni o’rganib, topografik xaritani yaratish mumkin. Bu asarda Buxoroning o’rta asr maqbaralarini o’rganish mumkin. Xususan, Fathobodagi topografik joylar haqida

²²¹ J.N. Olimovna Muqaddas ziyoratgohlar Buxoro shahri topografiyasining tarkibi sifatida //Imom Buxoriy saboqlari. 2020/1.40-41.

²²² Togaeva D.N. SOCIAL AND PHILOSOPHICAL VIEWS OF ABDURAUUF FITRAT ON MARRIAGE AND ITS BENEFITS // American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2020. T.1. - №. 1. – C. 73-77.

²²³ Turdiyev B.S. The role of national harmony in the strategy of spiritual renewal // Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – T.1. № . 6. – C.229-233.

ma'lumot, qabrlarning joylashuvi, Sayfiddin Boharziy qabrining nasabnomasi aytilgan. Shuningdek, Buxoroga ilm izlab kelgan, icgki va tashqi ilmlarni o'rgangan Qozi al-Quzzat Xoja Muhammad Tohir Habushoniy qabri Buxorodagi G'ozyon hovuzi yaqinida bo'lganligi va qabrning topografik joylashuvi qayd etilgan[2,29]. Afsuski bu hovuz Buxoroda hozirgacha saqlanib qolmagan. Buxoroning janubi-g'arbida G'ozyon degan ko'cha bo'lib, u yerda G'ozyon madrasasi va 100 metr uzoqlikda Solehi Takiyadarning qabri hanuzgacha saqlanib qolingan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, G'oziyon havzasi Buxoro shahrining Shohrud oqimi yo'nalishida bo'lgan[3,147]. Bundan ko'rinib turibdiki, "Qozi al-quzzot" Xoja Muhammad Tohir Habushoniy qabri bugungi kungacha saqlanib qolinmagan.

Bundan tashqari, "Tuhfat az-zoirin" da yerrelefiga oid ko'plab ma'lumotlar mavjud. Buxoroda yashovchi ko'plab alloma va mutasavvufning qabrlari haqida aytib o'tgan. Olim va donishmand Xoja Yusuf Hamadoniy haqida ta'kidlab, uning qabri Buxorodagi Saripul Sho'ristondagi Shayx Abu Bakr Ishoq Kalobodiy qabri yonida joylashganini ham aytib o'tgan. Bugun Buxorodagi Shayx Abu Bakr Ishoq Kalobodiy qabriga aylantirilgan obod maskanda Behishtiyon (Mozori Sharif) maqbarasi qurilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, Behishtiyon maqbarasi yonida Yetti qozi qabri bo'lgan. "Tarixi Mullazoda" asaridagi ma'lumotlarga asoslanib shuni ta'kidlash joizki, Buxoro shahrida 4 ta ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi, yuridik kollej, maktabdan keyin qurilgan turar joy majmualari, Qadimiy Qalobod darvozasi, viloyat gaz ta'minoti idorasi ortida Mehtar Anbar ko'chasi oldin kata qabriston edi. Yuqorida tilga olingan hududlarda Xojai Namadpo'sh qabri va Imom maqbarasi bo'lgan. Bu yerda ulug' avliyo shayx Abu Bakr ib Abuning qabri ham bo'lgan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, "Tuhfat az-zoirin" ni o'rganishda nafaqat Buxoro shahrining reylefi haqidagi ma'lumotlar u bilan bir qatorda madaniy taraqqiyot bilan bog'liq ko'plab masalalar va o'rta asrlarda Buxoro shahrining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari me'moriy obidalar, so'fiylik

vakillarining hayoti bilan bog'liq boshqa qimmatli ma'lumotlar boshqa manbalarda uchramaydi. Bu risolaning tarixiy ahamiyatini yanada oshiradi.

O'rganilgan manbalar asosida shuni taklif qilish mumkinki “Tuhfat az-zoirin” asari ustida ko'proq ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish, Buxorodagi o'rta asr maqbaralar haqida asardan ko'proq ma'lumotlar olish va nashr qilishni yo'lga qo'yish lozim.

Adabiyotlar

1. Zahidova S.A. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoroda shahar madaniyati taraqqiyoti (Nosriddin ibn Amir Muzaffarning “Tuhfat az-zoirin” asari ma'lumotlari asosida) T., 2008

2. Muhammad Nosriddin Al Hanafiy Al Hasaniy Al Buxoriy “Tuhfat az-zoirin” (Buxarskaya chast) (perevod s tadjiksko-persidiskogo, predislovie i kommentariy X. Turaeva), P. T. 2003. str. 29

3. Jo'rayeva N.O. Rol svyatikh mest v izuchenii topografii // Ekonomika i sotsium. 2019. - № 5 – S. 595-598.

4. Turdiyev B.S. The role of national harmony in the strategy of spiritual renewal // Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – T. 1. № 6. – C. 229-233.

BUXORO AMIRLIGINING MANG'ITLAR SULOLASI HUKMRONLI DAVRIDA XALQARO ALOQALARI

Sh.N. Rajabov

*Tarixshunoslik, manbashunoslik – tarixiy tadqiqot usullari
mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mang'itlar sulolasi davrida Buxoro amirligining xalqaro diplomatik aloqalari xususida bir qancha ma'lumotlar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ekspeditsiya, Qozoq dashti, Eron mollari, “Десятилетнее странствование” kitobi, sivilizatsiya, xalqaro munosabatlar.

O'zbek davlatchiligi tarixini ilmiy tadqiq etish, unga haqqoniy baho berish va to'plangan tajribadan ijodiy foydalanish mustaqil O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy – siyosiy va madaniy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun XX asrning oxiriga kelib jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi bo'lgan O'zbekiston tarixini, xususan o'zbek davlatchiligi tarixini har tomonlama o'rganish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Shu bois ham, so'nggi yillarda O'zbekiston tarixining qator dolzarb masalalarini o'rganishda aniq va haqqoniy tarixiy yondashuv masalasi muhim bo'lib bormoqda. Ta'kidlash joizki, o'zbek xonliklaridan biri bo'lgan Buxoro xonligi – O'rta Osiyo tarixi, uning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayoti va xalqaro munosabatlarida katta iz qoldirgan davlat bo'lib, uning har bir hukmdori yuritgan ichki va tashqi siyosat hamda uning oqibatlarini o'rganish alohida ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo qiladi. Bu borada davlatimiz rahbari “Hamma o'z tarixini ulug'laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo'q. Bu merosni chuqur o'rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak. Bu markazga kelgan odam tariximiz haqida to'la tasavvurga ega bo'lishi, katta ma'naviyat olib ketishi zarur”, - degan edilar.²²⁴

F.Beneveni ham o'z tadqiqotlarida Buxoroning Eron bilan aloqasiga doir ma'lumotlarni berar ekan, u 1722 yil ko'p savdo karvonlari Mashhaddan Buxoroga, Hirot va Isfahonga jo'natilganligi, lekin ularning bari turkmanlar yoki afg'onlar tomonidan talanganligini, oqibatda Balx orqali bo'ladigan savdo to'xtab qolganligi, to'rtinchi yil Kobul, Laxor va Hindiston shaharlariga karvonlar qatnamay qo'yganligini yozadi. F.Beneveni o'zining xizmatkori Minerni oltin va kumush konlarining joylashgan joyini topish va aniqlash maqsadida savdogar qiyofasida Balx va Badaxshonga jo'natadi. Uning xabariga ko'ra, u yerda ko'proq buxoro tovarlari sotilib, savdogarlar bu tovarlar uchun Badaxshon aholisidan tillo va kumush quymalari ko'rinishida haq olganlar. F.Beneveni xizmatkori Minerni Balx va Badaxshon bozorlaridagi rus tovarlari hayron qoldirgan: ular nina, oyna,

²²⁴ <https://xs.uz/uz/post/shavkat-mirziyoev-mamlakatimizdagidek-boj-tarikh-bobolarimizdek-buyuk-allomalar-hech-qaerda-joq>

qaychi, munchoqlar, suvsar, qunduz, los mo'ynalari va terisi, yashil, qizil va to'q zangori movutlar edi. Uning yozishicha, Badaxshondan Balx orqali Mashhadga oltin va kumush orilgan karvonlar bir yilda 2, 3 va hatto 4 marta borgan. Xurosonda bular oltin va kumush tangalarga aylantirilib, unga O'rta Osiyo uchun Eron mollari sotib olingan.²²⁵

XVIII asrning birinchi yarmida Rossiyaning O'rta Osiyo bilan savdo aloqalari kengaya boradi. Rus savdosini O'rta Osiyo xonliklari tovarlari bilan yanada ko'proq hamda keyinchalik Turkiston va Qozoq dashti ustidan nazorat o'rnatish maqsadida Orenburg shahrining qurilishi boshlab yuboriladi. N.I.Neplyuyev, P.I.Richkov va K.M.Tevkelev rahbarligida Hindiston bilan savdoni yo'lga qo'yish maqsadida maxsus kompaniya tashkil qilinadi. Orenburg ekspeditsiyasi rahbari, mashhur rus geografi I.Kirilov Buxoroni Osiyoning savdo markazi sifatidagi ahamiyatiga yuqori baho berib, uning qo'shni Sharq davlatlari bilan aloqalardagi rolini ta'kidlab o'tgan edi.²²⁶

1735 yil Kirilovning so'roviga binoan Astraxandan Ufaga hind savdogari Maravgi Barayev taklif qilingan. Savdogar Hindistondan O'rta Osiyo xonliklari orqali Astraxanga boradigan yo'l haqida ma'lumot bergan. Uning aytishicha, yaqin vaqtlargacha Eron va Buxoro orqali Rossiyaga 200 savdogar kelib savdo qilishar edi. Biroq keyingi paytlardagi Erondagi qaltis vaziyat va Buxoro yo'lida savdo karvonlarining talanishi oqibatida savdogarlar soni 80 taga qisqarib ketgan. Barayev, agarda yo'llarda xavf-xatar bo'lmaganda edi, Hindistondan Buxoro orqali Rossiyaga keluvchi savdogarlarning soni 600 kishiga yetgan bo'lishi mumkin edi, deb taxmin qilgan.²²⁷

XVIII asrning ikkinchi yarmida Rossiyada O'rta Osiyo xonliklari, jumladan, Buxoro xonligi haqida ko'p ma'lumotlar to'plana boshlagan. Rus soldati F.Yefremov "Десятилетнее странствование" nomli kitobida o'zining to'qqiz yil sayohat qilib, Buxoro, Eron, Xorazm, Farg'ona, Qarshi, Tibet va Hindistonda

²²⁵ Madraimov A.A., Fuzailova G.S. Tarixiy manbashunoslik. O'quv qo'llanma. Toshkent: "Fan", 2006.

²²⁶ Saidov Sh. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi. T., TDSHI, 2010.

²²⁷ Xodjayev A. Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiga oid ma'lumotlar, T., 1-2 qism, 2014.-332 b.

bo'lib, Afrika janubini aylanib Angliyaga va undan Rossiyaga borganligi haqida yozadi.

Yefremov Buxoro xonligida paxta yetishtirish masalasi bilan qiziqadi. U xonlik xo'jaligining qorako'l terisi eksporti bilan bog'liq bo'lgan qo'ychilik sohasini kengroq yoritishga ahamiyat bergan. "Ma'lumki,- deb yozadi Yefremov, Buxoro qorako'l terisi eksporti orqasidan shuhrat topgan va xon xazinasiga katta daromad keltirgan".

Muallif Buxoroni Osiyoning yirik savdo markazi ekanligini ta'kidlaydi. U buxoroliklarning mamlakat ichki savdosida faol qatnashishini, u yerda ko'plab savdo rastalari va karvon-saroylari mavjudligini eslatib o'tadi. Yefremovning tassurotlari Buxoro xonligi tashqi savdosining taraqqiyot darajasini belgilashga yordam beradi.

Ma'lumotlarga boy va shu bilan birga Buxoroning kelajagi haqidagi Yefremovning asari XVIII asrdagi Yevropa fani uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Bizni qiziqtirgan masala bo'yicha muhim ma'lumotlar rus sayyohi va ofitseri T.S.Burnashev asarida uchraydi. U Rus hukumatining topshirig'iga ko'ra, 1794 yili Buxoroda bo'lgan edi. U Buxoroda bo'lgan vaqtida u yerga savdo qilish uchun Afg'oniston, Eron, Hindiston va boshqa yurtlardan kelgan turli millat vakillarini ko'rgan. Burnashev Buxoroda joylashgan bozorlar to'g'risida yozib qoldirgan. Agarda Yefremovning sayohati davrida Buxoroda 4 ta g'isht karvon-saroy bo'lgan bo'lsa, Burnashev davrida ularning soni 9 ta bo'lgan. Karvon-saroylar sonining ortib borishiga e'tiborni qaratsak, Buxoroning tashqi iqtisodiy aloqalarining o'sib borganligi to'g'risidagi taasurotga ega bo'lamiz.

Burnashevning ma'lumotlariga ko'ra, Buxoro Hindiston va Erondan tillo, kumush va hind malmali olgan. Buxoro Eronga qorako'l terisi va boshqa tovarlar eksport qilgan. Burnashev Buxoroga keltiriladigan chet el tovarlaridan qirqdan bir miqdorida boj solig'i olinishini eslatib o'tadi. Rus savdogarlari esa o'z mablag'idan yigirmadan bir miqdorida soliq to'lagan.

Adabiyotlar

1. Madraimov A.A., Fuzailova G.S. Tarixiy manbashunoslik. O'quv qo'llanma. Toshkent: "Fan", 2006.
2. Saidov Sh. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi. T., TDSHI, 2010.
3. Xodjayev A. Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiga oid ma'lumotlar, T., 1-2 qism, 2014.-332 b.
4. <https://xs.uz/uz/post/shavkat-mirziyoev-mamlakatimizdagidek-boj-tarikh-bobolarimizdek-buyuk-allomalar-hech-qaerda-joq>

SHAJARAYI TURK ASARIDA XIVA –ERON MUNOSABATLARI.

M.Umarova,

*Tarixshunoslik, manbashunoslik – tarixiy tadqiqot usullari
mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abulg`oziyxonning “Shajarayi turk” asarida Xiva xonlari va Eron shohlari o`rtasidagi munosabatlarning ijobiy va salbiy taraflari va ularningoqibatlari, elchilik aloqalari, o`zaro xat almashinuvlari bundan tashqari, Buchg`axon hukmronligi davrida shoh Tahmaspning xonlikka elchi yuborganligi va Dinmuhammadxon davrida vaziyat anchayin keskin tus olganligi haqida ma'lumotlar ilmiy jihatdan bayon qilingan .

Kalit so`zlar: “Shajarayi turk”, Xiva-Eron munosabatlari, to`qquz kumush xisht to`qquz chodar boshi zarboft, Ag`ish sulton, Buchg`axon, Hojimxon, Rumyansev, G.S.Sablukov, 1871-yilda P.I.Demizon.

“Shajarai turk” 1663-1664- yillarda Xiva xoni Abulg`oziyxon tomonidan yozilgan o`z davri uchun ham o`zidan keyingi davr uchun ham eng qimmatli va diqqatga sazavor asarlardan biri hisoblanadi.²²⁸ Muarrir ham avvallambor shunday katta ishga qo`l urishdan oldin o`zidan bilimdonroq va mahoratliroq tarixnavisni izlaydi. “Bu tarixni bir kishiga taklif qilali deb fikr qilduk, hech munosib kishi topmaduk, zarur bo`ldi (va) ul sababdin o`zimiz aytduk”-deya tarif bergan. Asar

²²⁸ [https://ziyo.uz//Sotim Avaz. “Shajarai turk”hayratlari va saboqlari.](https://ziyo.uz//Sotim%20Avaz.%20%22Shajarai%20turk%22hayratlari%20va%20saboqlari.%20%22)

o'sha davr tarixi haqida juda qimmatli va boy ma'lumotlarga ega, aynan shu ma'lumotlar asosida Xiva xonligining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayoti va diplomatik aloqalari tarixchilar tomonidan tadqiq qiligan va qilinmoqda. Shu sababli bo'lsa kerak, muallifning ²²⁹“Shajarayi turk” asari 1825-yilda Qozonda Rumyansev, 1854-yilda G.S.Sablukov, 1871-yilda P.I.Demizonlar tomonidan bir necha marotaba nashr etildi.

Abulg'ozixon o'zining «Shajarayi turk» asarida Xiva xonligining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayoti, xonlarining tashqi siyosati, hamda chet davlatlar bilan aloqalari haqidagi muhim ma'lumotlarni bayon etadi. Ayniqsa, asarda Xiva xonligining Eron bilan o'sha davrdagi aloqalari ajoyib tarzda yoritilgan. Ikki davlat o'rtasidagi qizg'in munosabatlar goh do'stlik aloqalariyu, goh nizoli vaziyatlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shunday ma'lumotlardan biri Xiva – Eron munosabatlari haqida ham alohida to'xtalib o'tgan. Bunda ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning ayrim davrda ijobiy ayrim davrda salbiy taraflari ochiq va ravshan yoritilgan. Asarda tashqi siyosatda Eron bilan munosabatlar ko'p o'rinlarda eslatiladi. Unda shoh Ismoil vafotidan so'ng Xiva-Eron munosabatlari nisbatan yaxshilanganligini kuzatish mumkin. Jumladan, Buchg'axon hukmronligi davrida shoh Tahmaspning xonlikka elchi yuborganligi haqida berilgan ma'lumot diqqatga sazovor:

²³⁰«Men xong'a o'g'ul bo'layin deytururman. Temurbiy chingizxon avlodina kuyov bo'ldi ersa, hanuzgacha ani temur ko'ragan deytururlar. Men ham chingizxon avlodina ko'ragan bo'lmoqni ko'nglim izlay turur. To Xunkordek ulug' dushmanim aytqay kim shoh Tahmosib o'zbek podshohining qizin oldi; yaxshi yarashdi». Buchg'axonning qizi yo'q ekandur. Akasi So'fiyxonning bo'y yetgan qizi bor ekandur, Oyisha begi otliq. Shuni berali teb tururlar. Qizning tuqqan akalari besh erkani aytdur. Onlarning ichinda Ag'ish sulton odami faqir darvesh nihod mujiq yigit ekandur. Ani bosh qilib to'qqiz kishi yuborib tururlar Mol olg'ali

²²⁹ [https://oliymahad.uz//Abulg'ozixonning “Shajarai turk” asari muhim manba sifatida o'rganilishi.](https://oliymahad.uz//Abulg'ozixonning%20%22Shajarai%20turk%22%20asari%20muhim%20manba%20sifatida%20rganilishi)

²³⁰ Abulg'oziy. “Shajarayi turk”. T.: «Cho'lpon», 1992, 128 -bet.

Qazvinda borib shohni ko`rib tururlar. Shoh beklarini qarshi chiqarib ulug` yig`in qilib ko`rub siyning va hurmatning haddin ketarib turur. Ag`ish sultong`a Xo`jand shahrini berib turur. O`ttuz yil Xo`jandda /123b/ hukumat qilib o`ldi. To o`lguncha Xo`janddin otlanib xech yerga safar qilmadi. Buchg`axonga to`qquz oltin xisht, to`qquz kumush xisht, to`qquz chodar boshi zarboft, oyoqi cho`ptordin to`shaki birlan, bir majlisning asbobi barchasi oltin – kumushdin, to`qquz ot egari va yugani birlan, ming yipak kumush yuboribtur. Falak bir necha O`rgulgandan so`ng Buchg`axon vafot topdi.

Bundan Eron shohining Buchg`axon jiyaniga uylanib o`rtadagi aloqalarni nikoh munosabatlari bilan mustahkamlashga intilishida siyosiy maqsad ko`zlanganligi, Eron shohining Amir Temurning Chingiziylarga kuyov bo`lgani kabi Xorazm xoniga kuyov bo`lmoqchi ekanligi bu davrda Xiva xonligida xon hokimiyati nisbatan mustahkam ekanligi ko`rsatadi va shu orqali eron shohi ham o`z hokimiyatini mustahkamlamoqchi bo`lganini ko`rish mumkin.

Dinmuhammadxon davrida vaziyat birmuncha o`zgaradi. Asarda Abulg`ozixon ²³¹«Dinmuhammadxon bir erda farog`at turqudek kishi ermas erdi. Hamisha qizilboshni chopdi. Ul sababdin Shoh Tahmosib lashkar yubordi. Dinmuhammadxon Nisoyda erdi. Kelgan lashkar Obivarddin olib, hokim qo`yub qaytib ketdi. Dinmuhammadxon tang bo`ldi. Aning uchun borib Qavzinda Shoh Tahmosibni ko`rdi. Taqi olti oy turdi. Bu umidga borib erdi kim. Obivardni qayta bergay. Shoh Taxmosib tafog`il urdi. Bir muxrkanga Shoh Taxmosibning otina muxr qazdurdi. Obivard Hokimning otina hukm bititdi. “Obivardni Dinmuhammad sultong`a suyurg`al qilduk. Yorliq ko`rgach topshursun ” , - teb .

Shoh Tahmosib ovg`a ketganda bir kecha otlandi. taqi yuruy berdi. Ketganini Shoh Tahmosibg`a aytdilar. Shoh aytdi: O`zi kelib erdi, o`z ketdi – tedi.

Dinmuhammad Obivard keldi. Taqi yorliqni hokimning qo`lig`a berdi. Hokim darvozani ochaberdi. Ul borib eviga tushti. Kecha yotdi. Tangla darvozag`a

²³¹ Abug`oziy. “Shajarayi turk” . T.: «Cho`lpon», 1992 , 140- 141-bet.

kishi ta'yin qildi. Taqi qizilboshdin bir kishi qutqarmay barchasini o'lturdi. Taqi Obivardda farog`at o'lturdi.

Bu voqeotdan Shoh Tahmosib eshitkandin so`ng /138a/ulug` lashkar birlan o'tlanib Dinmuhammadxon ustina yurdi. Dinmuhammadxon eshitdi kim, Shoh Tahmosib yaqin keldi, - teb .Qirq – ellik kishi birlan o'tlanib shohga qarshi ketdi. Shoh ul vaqtda Mashxadning shimol tarafinfda bir qora suv bo`lur, anga kelib erdi. Qoravullar Dinmuhammadxonni ko`rub Shohga xabar olib bordilar. Inonmadi. Taqi bir kishi keldi, muna Dinmuhammadxon eshikka keldi, - teb. Shoh chodirning tanobigacha qarshi keldi. Dinmuhammadxon kelib egnin tutaberdi. Shoh bir qo`lin ko`nglakning yoqasidin solib yurakina tutub turdi. Yurakni hech urmay erdi. Xonning yuzina boqib, yurakning toshdin o`lsun qara Dinmuhammad tedi . Ul kuni ulug` to`y qildi. Sahobiy ko`p in`omlar berdi. Taqi Obivardni senga berdim va qilg`anishlaringning barchasini o`tdum teb, o`zatdi. Taqi o`zi Qavzinga qaytib tushdi »- deya qayd etadi.

²³²Abulg`oziyxonning o`zi ham 1648- yilda Eron shohiga elchi yuborgach , ular o`rtasida ham savdo aloqalari yaxshilanadi. Xiva xoni Hoji Muhammadxon (Hojimxon) davrida Eron saroyi bilan o`zaro aloqalar va yozishmalar ayniqsa, kuchayib, nisbatan muntazam tus oladi. Bu davrda Xivaning Buxoro xonligi bilan keskinlashgan munosabatlari Xiva-Eron siyosiy aloqalarning mustakamlanishiga xizmat qilgan. Chunki, Abdullaxon II singari kuchli raqibga qarshi kurashda bir tomondan kuchli ittifoqchiga ega bo`lish, yoki hech bo`lmaganda, ikki davlat o`zaro urushayotgan davrda uchinchi davlatning betarafligini ta`minlash zarur edi.

Asardagi ma'lumotlardan ma'lum bo`ladiki, tashqi siyosatda Xiva xonlari va Eron shohlari bilan munosabatlar barqaror bo`lmasa-da har qalay doimiy aloqalarni saqlab qolishga harakat qilganlar va bunday munosabatlardan o`z navbatida, Eron shohlari ham manfaatdor edilar. Xiva xonlari va Eron shohlari ikki o`rtadagi aloqalarni turli yo`llar bilan saqlab qolishga harakat qilganlar. Masalan: shoh

²³² Allaeva N.A. "Xiva xonligi va Eron o`rtasidagi o`zaro aloqalar". Tarix fan. nom. diss. T.: 2007

Tahmasp xonlikka elchi yuborib xonga kuyov bo'lish orqali ham o'z nufuzini ham tinchlikni saqlab qolishni maqsad qilgan bo'lsa, Dinmuhammadxon esa shoh Tahmosb ustiga qo'shin tortish orqali o'rtadagi vaziyatni yanada chigallashtirgan. Xiva xoni Hoji Muhammadxon (Hojimxon) davrida Eron bilan aloqalar birqadar kuchayadi, ikki davlat o'rtasida xat almashinuvlari muntazam davom etib turgan. Abulg'ozixon esa, savdo aloqalarini yaxshilash orqali aloqalarni mustahkamlash siyosatini yuritganligi aniq faktlar orqali ochib berilgan .

Adabiyotlar

1. Abulg'oziy. "Shajarai turk". T.:«Cho'lpon», 1992, 128-bet.
2. Abulg'oziy. "Shajarai turk". T.:«Cho'lpon», 1992, 140-bet.
3. Allayeva N.A. "Xiva xonliga va Eron O'rtasidagi o'zaro aloqalar". Tarix fan.nom. diss. T.:2007
4. [https://ziyo.uz//Sotim Avaz. "Shajarai turk" hayratlari va saboqlari.](https://ziyo.uz//Sotim Avaz.)
5. [https://oliymahad.uz//Abulg'oziyxonning "Shajarai turk "asari muhim manba sifatida o'rganilishi.](https://oliymahad.uz//Abulg'oziyxonning)

SHARIFJON MAHDUM – SADRI ZIYO ASARLARI TARIXIY MANBA SIFATIDA

H.M.Samadova

*Tarixshunoslik, manbashunoslik – tarixiy tadqiqot usullari
mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: Ushbu tezisdavlat arbobi, ma'rifatparvar olim, adib, mohir xattot, hunarmand, kitobsevar, nodir va qimmatli qo'lyozmalarga boy kutubxona sohibi Sharifjon Maxdumning ilmiy va adabiy merosi, "Buxoroi sharifning osori atiqalari va qadimiy binolari tarixi" nomli qo'lyozma asarining tarixiy manba sifatidagi o'rni yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: «Osori Ziyoiya», "Buxoroi sharifning osori atiqalari va qadimiy binolari tarixi", «Tarixi osori atiqai va binohoi qadimiya Buxoroi sharif»

Davlat arbobi, ma'rifatparvar olim, adib, mohir xattot, hunarmand, kitobsevar, nodir va qimmatli qo'lyozmalarga boy kutubxona sohibi Sharifjon Maxdum Sadri Ziyoy (1867-1932) o'zidan boy ilmiy va adabiy meros qoldirdi. O'z davrining yetuk tarixchisi Sharifjon Sadri Ziyoy uzoq yillar davlat ishlari bilan band bo'lsa-da, sermahsul, bir qator asarlar yaratdi. Uning asarlari Buxoro ziyolilari orasida keng tarqalgan. Uning quyidagi asarlari mavjud: «Zikri avoil Buxoro» (Buxoro zikrining boshlanishi), «Tarixi Buxoro», «Muntaxob at-tavorix», «Risolai salotin va shahriyeron», «Usmonli turk hukmdorlari silsilasi», «Eron tarixi», «Qabila va urug'larning bo'linishi», «O'zbek sulolalaridagi mansab va lavozimlar zikri», «Buxoroda suv taqsimoti»²³³, «Zikri podshoxon va knyazon davlati Rusiya», «Zikri holat Chingizxon», «Silsilai salotin o'zbek Chingizxonie», «Zikri salotin mang'iti-ya», «Zikri salotin va podshoxi amir Olimxon mxolui», «Majmuai tazkor va tavorix» (Tazkira va tarixlar majmui), «Ro'znoma», «Zikri saltanati podshoxoni mang'itiya dar Movarounnahr» (Movarounnahrda mang'itlar podsholigi saltanati zikri), «Majmuai tarix» (Tarix majmuasi), «Navodiri Ziyoiya» (Sadri Ziyoning nodir manbalari) va h.k.

M.Shakuriyning yozishicha, Sadri Ziyoning ilmiy merosini tadqiq etgan marhum Sahobiddin Sodiq tadqiqotidan ma'lumki, Sadri Ziyoning 60 ta asariga tajovuz qilingan va hozir esa, o'n bir jildi mavjud, aksariyati Sadri Ziyoning qo'li bilan chiroyli husnixatda yozilgan kitoblardir²³⁴.

Sadri Ziyoy asarlarida ko'proq atrofida sodir bo'lgan voqealarni yoki eshitganlarini qalamga olgan. Masalan, 2367-raqamli qo'lyozmada Buxoro amirining Rusiyaga qilgan safari tasviri, Buxoro va Afg'oniston munosabatlari to'g'risida, o'z arizasi namunalari va boshqalar yozilgan. 1904 yilda bu kitobni parokanda holatda topishadi va kitob «Osori Ziyoiya» deb nomlandi.

Sharifjon mahdumning tarixiy asarlari ichida «Buxoroi sharifning osori atiqalari va qadimiy binolari tarixi» nomli qo'lyozma asari alohida qimmatga ega.

²³³H. H. To'rayev. Sharifjon mahdum Sadri Ziyoy va uning ilmiy merosi//Imom al-Buxoriy saboqlari, 1/2008

²³⁴Ro'znomai Sadri Ziyoy 21-bet

Asarning katta qismi Buxoro amirligining chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi tarixiga bag'ishlangan bo'lib, shu masalaga doir asarlar yozgan Ahmad Donish va Mirza Somiy kitoblarida uchramaydigan ma'lumotlarni Sharifjon mahdum o'z asarida keltirib o'tgan²³⁵.

Qo'lyozmada «Tarixi osori atiqai va binohoi qadimiya Buxoroi sharif» mavzuidagi Buxoroning qadimiy binolari to'g'risidagi ma'lumotlar ham muhim. Sadri Ziyoning tadqiqoti jarayonida asrlar davomida Buxoro shahrida mavjud bo'lgan 204 ta madrasa borligini aniqlaydi. Shuningdek, majmuada Buxoro, Samarqand, Shahrisabzda bunyod etilgan ba'zi binolar tarixi haqida qisqacha bayon etilgan. Unda Mirzo Ulug'bek madrasasi, amiri Arab madrasasi, Abdulazizxon bin Ubaydulloxon madrasasi, Abdullaxon madrasasi, Jo'ybori Kalon madrasasi, Dilkusho madrasasi, Nadr devonbegi madrasasi, xonaqohi va hovuzi, Xoja Ahror madrasasi, Qosimshayx xonaqohi, Kalon madrasasi va h.k.lar to'g'risida ma'lumotlar mavjud.

Ziyorat turizmiga e'tibor kuchaygan bir davrda asardagi ma'lumotlar juda muhim. To'plamdagi ma'lumotlar asosida Buxoro, Samarqand va boshqa joylarda qurilgan binolar, ularning tarixi, joylashgan o'rnini aniqlash mumkin. Sababi asrlar davomida ba'zi binolarning nomi o'zgartirilgan yoki vayron bo'lgan va o'rniga boshqa binolar qurilgan bo'lishi mumkin.

Qo'lyozmada Abdulaziz bin Ubaydulla xon hijriy 950 yilda hazrat Naqshbandning shimolida bino qilinganligi haqida ma'lumot berilgan.

Qosimshayx xonaqohini Karmanada hijriy 960 yilda Abdullaxon o'zbek bin Iskandarxon qurdirganligi yozilgan. Asarda keyingi davr kitoblarida takrorlanib kelgan jummalarni ham uchratdik «Abdullaxon bin Iskandarxon xuddi shu singari madrasa, rabot, xonaqoh, sardobalardan mingtacha qurdirdi».

Asarda Mir Arab madrasasi haqida ham to'xtalib o'tilgan. Sadri Ziyoning ma'lumotiga ko'ra, madrasa oliy o'quv dargohi sifatida mudarris, olim,

²³⁵ H.H. To'rayev. Sharifjon mahdum Sadri Ziyoning Buxoro mavjlari, 2005/1

adabiyotchi, amaldor, elchi, harbiy, imom, siyosiy arbob va hatto ma'rifatparvarlarni yetishtirgan. Amir Shohmurod Miri Arab madrasasining bitta hujrasida kecha kunduz riyozat chekib, ilm olish bilan shug'ullangan va xalq orasida "Amir Jannatmakon" laqabi bilan tanilgan. Uning fikricha, Amir Haydar ham shu yerda tahsil olgan.

Asarda Sadri Ziyo Boloyi hovuz majmuasining qurilishi xususida quyidagi ma'lumotni beradi: "Boloyi hovuz xonaqohi, atrofida tahoratxona va hujralari bor. Uni Mir Abdullaxojaning qizi, Subhonqulixonning xotini, xon shahid (Abulfayzxon)ning onasi Bibi Oyposhsha (Sitorai Mohi Xossa) qurdirgan".

Asarda Kalon madrasasi Buxoroning qadimiyrog'idir, deyiladi. Shuningdek, Kalobod madrasasi Buxorodagi birinchi ekanligi to'g'risida tarixchilar orasida ixtiloflar bor, deb ma'lumot berilgan.

U o'zining "Zikri asomii madorisi doxilayi Buxoroi sharif" va "Zikri asomii masojidi doxilayi Buxoroi sharif" asarlarida Buxoro shahrida 204 ta madrasa va 223 ta masjidning joylashishini tilga olgan²³⁶. Muallif bu asarlarida X asrdan XX asr boshlarigacha qurilgan masjid va madrasalar haqida muhim ma'lumotlar beradi. Zero, bu asar risola shaklida emas, mundarija shaklida yozilgan va besh xonali stoldan iborat. Ular: tartib raqami, madrasaning nomi, qaysi guzarda joylashgani, xonalar soni va sharhlar. Ya'ni muallif madrasalarning soni va nomini ko'rsatibgina qolmay, ularning qaysi mahallada joylashgani, necha xonadan iboratligini ham qayd etgan. Bu madrasaning mavqei va darajasini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, uning ro'yxatiga eng katta madrasalarning 147 ta hujrasi (Ko'kaldosh madrasasi), eng kichigida 8-9 ta hujra kiradi. U ba'zi madrasalar bor-yo'g'i ikki xonadan (Mehtari Orif madrasasi) iborat ekanligini ta'kidlagan. Ro'yxatga 20 dan ortiq xonali 60 ta madrasa va 50 dan ortiq hujrali 20 ta madrasa kiritilgan. Sharhlarda u madrasaning kim tomonidan va qachon qurilgani yoki qaysi hukmdor davrida qurilganligini eslatib o'tadi. Ayrim

²³⁶ Sadri Ziyo. Madrasaxo-yi shahri Buxoro./ O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi. №-2493.

madrasalarning tasnifi “buzilgan”, “yarim vayron qilingan”, “yoqilgan” kabi fikrlar bilan keladi. Madrasalardan biri haqida “endi u elektr stansiyasi (elektr xonasi) bo‘lib qoldi”, deb yozgan. Bundan tashqari, har bir madrasaning o‘zi istiqomat qilgan davrda parokanda bo‘lganligi ham ko‘rinib turibdi. Uning aytishicha, Quyi Murgkash guzaridagi Muhammad Amin To‘pchiboshi madrasasi “inqilobdan keyin vayron qilingan”. Demak, asar 1920-yildan keyin yozilgan. 1920-yilda Buxoro davlatining ag‘darilishi natijasida hokimiyat tepasiga sho‘rolar keldi. Ming yildan ortiq vaqt davomida ta‘lim berib kelayotgan Buxoro madrasalari o‘zining an‘anaviy ahamiyatini yo‘qota boshladi, ularning faoliyati juda qisqa vaqt ichida to‘xtab qoldi. XII asrda “g‘ayri shar‘iy ilmlar”ni o‘rganish butunlay cheklanib qolgan bo‘lsa, endilikda “shariat ilmlari” ta‘lim sohasidan butunlay chetlashtirildi. Madrasa binolari ijaraga olingan yotoqxonalariga aylantirildi, ba‘zilarida davlat ma‘muriy idoralari joylashgan, ba‘zilarida esa turli maishiy xizmat binolari va omborlar o‘rnida foydalanilgan. Ayrimlari butunlay buzib tashlangan.

Buxoro madrasalari haqida ko‘plab mualliflar ma‘lumot bergan, ammo Muhammad Sharifjon Sadri Ziyo ro‘yxati ularnikidan ko‘ra batafsilroqdir. Shunday qilib, N. Xanikovning ma‘lumotlariga ko‘ra, XIX asrning birinchi yarmida madrasalar soni 180-200, talabalar soni 15-16 ming, Muhammad Said Baljuvoni asarida 79 ta madrasa zikr etilgan, XX asr boshlarida ularning soni 400 taga yetganini ta‘kidlaydi²³⁷. Buxorolik ziyoli Abdurauf Fitrat 1913 yilda Buxoroda 200 ga yaqin madrasa bo‘lganligini ta‘kidlab, bor-yo‘g‘i 72 ta madrasani keltirib o‘tdi. Fitrat ma‘lumotlarining muhim jihati shundaki, unda har bir madrasaning yillik vaqf daromadi ko‘rsatilgan. O.A. Suxareva 133 ta madrasa borligini, L.I. Rempel XX asr boshlarida 170 dan ortiq madrasa bo‘lganligini ta‘kidlaydi. Xullas, turli ma‘lumotlarni umumlashtirsak, Buxoro amirligida 200-400 ga yaqin madrasa bo‘lgan²³⁸. Sadri Ziyo keltirgan ma‘lumotlar o‘zining betakrorligi va aniqligi bilan ajralib turadi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, Sadri

²³⁷ Muhammad Said Baljuvoni. Tarixi Nofe-i. Toshkent: Akademiya, 2001.

²³⁸ Asrorova L.Q. Buxoro madrasalari tarixidan (Ahmadjon ibn Ismoilxon merosi). Toshkent, 2016.

Ziyo XX asr boshlarida bu binolarning qurilishi, madrasa kim tomonidan, qachon qurilgani, xonalari soni va holati haqida batafsil ma'lumot bergan²³⁹.

Adabiyotlar

1. H. H. To'rayev. Sharifjon mahdum Sadri Ziyo va uning ilmiy merosi//Imom al-Buxoriy saboqlari, 1/2008
2. Ro'znomai Sadri Ziyo 21-bet
3. H.H. To'rayev. Sharifjon mahdum Sadri Ziyo/Buxoro mavjlari, 2005/1
4. Sadri Ziyo. Madrasaxo-yi shahri Buxoro. / O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi. №-2493.
5. Muhammad Said Baljuvoni. Tarixi Nofe-i. Toshkent: Akademiya, 2001.
6. Asrorova L.Q. Buxoro madrasalari tarixidan (Ahmadjon ibn Ismoilxon merosi). Toshkent, 2016.
7. Muhammad Said Baljuvoni. Tarixi Nofe-i. Toshkent: Akademiya, 2001.

SADRIDDIN AYNIYNING 1917-1920-YILLARDAGI TARIXIY JARAYONLAR BORASIDAGI QARASHLARI

Sh. O'. Nosirov

*Tarixshunoslik, manbashunoslik – tarixiy tadqiqot usullari
mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada, Yosh buxoroliklar vakillaridan biri adib Sadridin Ayniyning “Buxoro inqilobi uchun materiallar” va “Buxoro mang'it amirlari tarixi” asarlari asosida XIX asr oxiri XX asr boslaridagi Buxoro amirligidagidagi siyosiy va iqtisodiy hayot tasvirlanadi.

²³⁹ Muhammad Said Baljuvoni. Tarixi Nofe-i. Toshkent: Akademiya, 2001.

Kalit soʻzlar: “Yosh buxoroliklar”, Yangi Buxoro, amir, gazeta, Kolesov voqeasi, islohot, manifest

Buxoro amirligidagi (1756-1920) dagi 1917-yil aprel namoyishidan keyin yosh buxoroliklarning ijtimoiy – siyosiy va iqtisodiy ahvoli havas qiladigan darajada emas edi. Buxoro hukumatining jadidlarga qarshi olib borgan siyosati, qama-qamalar, koʻplarining qatagʻon qilinishi oqibatida yosh buxoroliklarning aksariyati Yangi Buxoro (Kogon)dan panohtopgan edilar. Ular ertangi kunlarda jiddiy ravishda faol harakatlar olib borish, kuchlarni qayta toʻplash, keyingi maqsad va vazifalarni aniq belgilab olish, amir islohotini amalga oshirish borasida oʻz oralarida maxfiy – siyosiy tashkilotlar va jamiyatlar tuza boshladilar.

Ayniy 1917-yilgi aprel namoyishi oqibatida 75 tayoq kaltaklanib, Kogon kasalxonasida ellik ikki kun yotib, yigirma besh jarrohlikni boshidan oʻtkazganidan keyin, xastalik bilan Samarqandga butunlay koʻchadi. 1917-1920 yillardagi Buxoro amirligi tarixida yuz bergan muhim siyosiy, iqtisodiy va madaniy-maʼrifiy ishlar, yosh buxoroliklarning ijtimoiy-siyosiy faoliyati, Kolesov voqealarining kelib chiqish sabablari va uning oqibatlari, Rossiyada yuz bergan Oktyabr inqilobi va uning Buxoroga taʼsiri va boshqalar toʻgʻrisidagi muhim masalalar haqida Ayniy oʻzining “Buxoro mangʻit amirlari tarixi”, “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar”, “Doxunda”, “Qisqacha tarjimai holim”²⁴⁰, va “Esdaliklar”²⁴¹ kabi asarlarida va koʻpgina publitsistik maqolalarida tasvirlab oʻtgan. Bu davr xususida Ayniyning tarixiy qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu jihatdan maʼrifatparvar adibning “Buxoro mangʻit amirlari tarixi” va “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” asarlari katta ahamiyatga egadir. Olim ushbu yillardagi Buxoroda boʻlib oʻtgan tarixiy voqealar va hodisalarni sharhlashda va ularni imkon qadar toʻgʻri tahlil etishga harakat qilgan. Ayniy asarlarida koʻproq siyosiy voqealar, Buxoro hukumati va Yosh buxoroliklar oʻrtasidagi siyosiy nizolar, mahalliy xalqning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolikabi masalalarni bayon etishga uringan. Muallifning 1917-1920-yillar orasidagi

²⁴⁰ Ayniy S. Qisqacha tarjimai holim. / Asarlar. 1 j. – B. 89.

²⁴¹ Ayniy S. Esdaliklar. Asarlar. 8 jildliy. 5-7 jildlar.

voqealarni tasvirlab o'tishda asarlarining muhim xususiyati shundaki, unda olim tomonidan voqealarning ketma-ketlikda tahlil etgani, ya'ni xronologik jihatlariga jiddiy e'tibor berilganligi, tarixiy shaxslar nomlarini keltirishda va ularning bu voqealardagi ishtiroklaridagi hissasi kabilarda o'z aksini topgan.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, 1917-1920-yillarda Buxoro tarixidagi voqealar jarayoni Ayniy jonli guvohi sifatida yoritisa, ikkinchi tomondan esa, uning kuzatuvchisi sifatida yoritadi. Ayniqsa, yosh buxoroliklarning bu yillardagi siyosiy faoliyatlari, Kolesov voqealari va uning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini sharhlashda o'zining tarixiy qarashlariga, qo'liga tushgan ma'lumotlarini va bu yillardagi voqealarda ishtirok etgan yaqin safdosh do'stlartidan olgan ma'lumotlari asosida yoritishga harakat qilganligini o'zi ham aytib o'tgan.

1917-yilda olim Samarqandga ko'chib o'tganidan keyin Buxorodagi siyosiy, tarixiy jarayonlardan ancha uzoqlashdi va ilmiy-ijodiy faoliyat bilan shug'ullandi. Lekin shunday bo'lsada, ma'rifatparvar adib, hammaslamlari bo'lgan yosh buxoroliklar bilan yaqindan munosabat o'rnatib, doimo aloqada bo'lib keldi. Ayniy bu vaqtda Samarqand taraqqiyparvarlari tomonidan nashr etiladigan "Oyna", "Mehnatkashlar tovushi", "Zarafshon", "Hurriyat" kabi jurnal va gazetalarda²⁴², amirlik tuzumini, mutaassib din peshvolarini va davlat amaldorlarini tanqid qiluvchi, xalqni ma'naviy-ma'rifiy va islohotchilik g'oyalariga ergashtiruvchi, yosh buxoroliklarning asl maqsad va istaklari nimalardan iborat bo'lganligi to'g'risidagi o'zining ilmiy-publitsistik maqolalari bilan qatnashib turadi.

Ayniy "Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar" asarining to'rtinchi bo'limidan (1918-1920) joy olgan muhim voqealarni: Kolesov voqealari kelib chiqish sabablari va uning oqibatlari xususida, yosh buxoroliklarning Kogondagi faoliyati, ularning islohotchilik, ma'rifatparvarlik yo'lidagi g'ayratlari va siyosiy jamiyatlari haqida, shuningdek, Buxoro hukumatining ichki va tashqi siyosati, bu davrdagi Amir Sayid Olimxonning ijtimoiy-siyosiy faoliyati, uning taxtdan

²⁴²Ayniy S. Qisqacha tarjimai holim. / Asarlar. 1 j. – B. 87

mahrum bo'lib, Afg'onistonga hijrat qilishi kabi masalalarga bag'ishlagan. Bu haqda Ayniy shunday yozadi:

“Buxoro inqilobining eng ma'suliyatli va mushkul bo'lgan tarixining asosiysini yozdim. To'rtinchi qismdagi eng muhimi bu Kolesov voqeasi bo'lib, uning qanday boshlanganligi, yosh buxoroliklar va Kolesov o'rtalarida qanday muzokaralar va ahdnomalar tuzilganligi, bu voqealarning asosiy sababchisi yosh buxoroliklarmi yoki Kolesovmi, tarixiy jihatdan muhim bo'lgan bu nuqtalar men uchun qorong'udir. Chunki, 1917-yilgi voqealardan keyin (aprel namoyishidan keyin), men Samarqandga ko'chdim, Kogonda ro'y bergan voqealardan, tamoman xabarsiz qoldim. Keyin bu voqea va hodisalarning sabablari haqida yaqin kishilardan ba'zi ma'lumotlar olgan bo'lsamda, mening bu ma'lumotlarim xususiy bo'lib, biron aniq va rasmiy dalillarga asoslanadi”²⁴³.

Lekin, bu bilan Buxoro amirligida yuz bergan 1917 – 1920 yillardagi tarixiy voqealarni yoritishda Ayniy asarlari unchalik ahamiyatga ega emas, degan fikr kelib chiqmaydi. Uning asarlarini tahlil qilar ekansiz, ma'lum voqea-hodisalarni bayon etishda, uning tub mohiyatini ochib berishga harakat qilganligining guvohi bo'lasiz. Buxoro amirligining 1917-1920-yillar tarixi murakkab siyosiy davr bo'lib, yosh buxoroliklarning siyosiy faoliyatlari va bu davrda ularning tutgan mavqei Ayniyi befarq qoldira olmas edi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Sadridin Ayniyning XX asr boshlaridagi tarixiy qarashlari aks etgan asarlari Buxoro amirligining so'nggi kunlari va mamlakatda kechgan siyosiy jarayonlarni tahlil qilishga yordam beruvchi asosiy manbalar sirasiga kiradi. Ushbu manbalarda Buxoro amirligining juda boy voqeliklarga sabab bo'lgan 1917-1920-yillar tarixi xolisona tavsiflangan.

Adabiyotlar

1. Ayniy S. Ta'rixi amironi mang'itiyai Buxoro. / Kulliyot. 16 jild. Jildi – 10. – Dushanbe: 1966.

²⁴³Ayniy S. Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar- B. 74

2. Ayniy S. Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar // Asarlar. Sakkiz tomlik.

I-tom. – Toshkent: O‘z SSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1963.

3. Ayniy S. Tarixi inqilobi Buxoro. – Dushanbe: Matbuot, 1987.

4. Ayniy S. Qisqacha tarjima holim. – Toshkent: O ‘z SSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1960.

5. Ayniy S. Esdaliklar (I-II qismlar) // Asarlar. Sakkiz tomlik. V-tom. – Toshkent: O ‘z SSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1965.

6. Ahmad Maxdumi Donish. Risola yo muxtasare az ta‘rixi saltanati xonadoni mang‘itiya. – Stalinobod: Nashrdavtoj, 1960.

“XULASATUL VAFA BIAXBARI DARIL MUSTAFA “ ASARI MUHIM TARIXIY MANBA

H.H.To‘rayev,

BuxDU, t.f.d., professor

U.Sh. Soxibova

*Tarixshunoslik, manbashunoslik – tarixiy tadqiqot usullari
mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ali bin Abdulloh as-Samhudiyning “Xulasatul vafo biaxbari daril mustafa” asari haqida qisqacha mazmuni yozilgan . Bu asar payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning diyorlari tarixi haqida xabar beruvchi saralangan ixcham asarida Madina shahrining tarixi haqida yozilgan ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Muhammad (s.a.v),Xulasatul vafo biaxbari daril mustafa, Madina, Ka‘ba, hijrat, Masjid an-Nabiy, Qubo masjidi

So‘nggi yillarda mamlakatimizda O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari hamda O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatining tashkil etilishi buyuk alloma va mutafakkirlar merosini ilmiy tadqiq etish va uning

natijalaridan amaliy foydalanish jarayonida yangi bosqichni boshlab berdi. Yangi O'zbekiston taraqqiyotining bugungi bosqichida ulug' alloma va mutafakkirlarimizning ko'plab bebaho asarlarini, noyob yozma manbalarni saqlash, o'rganish va kelajak avlodga bezavol yetkazish borasidagi ishlarni yanada jadallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqimizning bebaho mulki hisoblangan noyob yozma va toshbosma merosni saqlash va tadqiq qilish tizimini yanada takomillashtirish hamda bu jarayonga raqamli texnologiyalarni keng joriy etilmoqda.²⁴⁴ Bugungi o'zgarishlar davrida insonlarning "vijdon erkinligi" va dinga bo'lgan munosabati o'zgarib bormoqda. Islom diniga qiziqish va uning farz va sunnat amallarini bajarish uchun qulay sharoitlar davlat tomonidan yaratib berilmoqda. 2022 – yildan boshlab kuniga haj va umra amallarini bajarish uchun Saudiya Arabistonning Makka va Madina shaharlariga 2-3 marta samoliyot qatnovlari joriy qilindi. Xalqimiz tomonidan bu shaharlar tarixini o'rganishga qiziqish ortib bormoqda. Hukumatimizning yozma yodgorliklarni bir joyga to'plash, ularni ilmiy asosda saqlash va o'rganish borasida qilayotgan g'amxo'rliqi tufayli Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi fondlarida turli davrlardagi turfa sohalarni o'zida qamrab olgan ko'plab qo'lyozma, toshbosma kitoblar va tarixiy ahamiyatga ega hujjatlar saqlanmoqda. Anashunday qadimiy yozma yodgorliklar orasida Ali bin Abdulloh as-Samhudiyning "Xulasatul vafo bi-xbari daril mustafa" (Rasululloh s.a.v. diyorlari tarixi haqida xabar beruvchi saralangan ixcham asar) asari alohida qimmatga egadir. Madina shahri Saudiya Arabiston podsholigida joylashgan qadimiy shahardir. Bu asarda Madina shahrining tarixi va Makka shahri haqida juda ko'plab qimmatli ma'lumotlar, biz bilmagan sirli ma'lumotlar qayd etilgan. Asarda keltirilishicha, Madina mevalari, ularning shifobaxsh xususiyatlari xususida: Madina xurmolarining turi o'rganilganda uning 130 ga yaqin turi mavjudligi aniqlangani ma'lumoti zikr qilinadi. SHulardan Sahihayn (ikki

²⁴⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV Toshkent sh., 2022-yil 10-fevral, PQ-126-son

ishonchli hadis to'lamlari) da keltirilishicha, Rasululloh (s.a.v.) “Kimki yettita ajva xurmosidan iste'mol qilib tong otirsa, shu kuni unga hech qanday zahar va sehr ta'sir qilmaydi”, degan hadislarini keltirilgan. Bundan tashqari Samhudiyning ushbu asarida Madinaning ba'zi mevallari ko'z kasaliga shifo bo'lsa, ba'zilari tananing boshqa bir a'zolaridagi kasalliklarga shifoligi aniq sahih dalillar bilan keltirilgan. Asarda Madinada ta'qiqlangan ishlar va ularga oid ma'lumotlar. Misol uchun Madinada daraxtlarni kesish, hayvonlarni o'ldirish, ov qilish kabi ishlar ta'qiqlangani zikr qilingan. Undan tashqari Madina shahrining xususiyatlari, xalqiga xos odatlar va Madina shahrining hurmati va qadri haqida ma'lumotlar berilgan. Mazkur asarda Rasululloh s.a.v. qabrlarini ziyorat qilishning fazilatlarini (“Kimki meni qabrimni ziyorat qilsa, qiyomat kunida unga shafomatim vojib bo'ladi”. Hadis), Rasululloh s.a.v. ni ziyorat qiluvchi kishi ziyorati paytida salovot aytib, duo qilib, Allohga iltijo qilganda Rasululloh s.a.v. ni vasila qilib ya'ni shu zotning nomlarini o'rtaga qo'yib duo qilib so'rashining fazilati haqida, Rasululloh s.a.v. masjidlarining fazilati ya'ni ba'zi sahih hadislarida: Bir rakat masjid an Nabaviyda o'qilgan namoz (Makkadan tashqari) boshqa masjidlarda o'qilgan ming rakaat namozning savobiga tengligi rivoyat qilingan. SHuningdek, Rasululloh s.a.v. ning ravzalari va minbarlari haqida ham ma'lumotlar bayon qilingan. Asarda Nuh a.s. to'fonidan so'ng Madinaga kelib qolgan va unda yashagan aholi va xalqlar, ularning nasablari, makonlari, xalqlar-millatlar o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlar va shu bilan bog'liq tarixiy ma'lumotlar berilgan. SHuningdek, asarda Alloh Taolo Rasululloh s.a.v. hurmatlaridan Madina xalqini ikrom-hurmatli qilgani, Madina ahlining Rasululloh s.a.v.ga Aqabadagi birinchi va ikkinchi bay'atlari, Rasululloh s.a.v ni Madinaga hijratlari, Madinaning Qubo nomli manziliga to'xtashlari, so'ngra Madinaning ichkarisiga kirib Abu Ayyub al-Ansoriyning uylariga to'xtashlari, Rasululloh s.a.v hijratlaridan vafotlariga qadar har bir hijriy sanada sodir bo'lgan voqea va hodisalar tafsiloti, Rasululloh s.a.v.ning muborak masjidlarini qurilishi tarixi, masjidning o'z davridagi uzunligi (kattaligi), uning boshqa masjidlardan ajralib turuvchi jihatlari haqidagi

ma'lumotlar ham sahih dalillar bilan yoritilgan. Asarda qiblaning o'zgarishidan avval va undan keyin Rasululloh s.a.v. yuzlanib namoz o'qigan jihatlari ya'ni, Rasululloh s.a.v. o'n olti oy davomida Baytul Muqaddas (Quddus) ga qarab namoz o'qiganlaridan so'ng Allohning amri bilan Ka'baga qarab namoz o'qish buyurilgani va shu bilan bog'liq ma'lumotlar, Rasululloh s.a.v. masjidlaridagi minbarlari, masjidning baland ustunlari va shu bilan bog'liq ma'lumotlar aks etgan. SHuningdek, asarda Rasululloh s.a.v. ning hujra (xona) lari va u zotning qizlari Fotima r.a. ning hujralari, Masjid an-Nabiy bino bo'lganidan so'ng Rasululloh s.a.v. ehtiyojga qarab ayollari (va boshqalar) uchun alohida xonalar bino ettirganliklari va shu bilan bog'liq ma'lumotlar, Umar r.a. Masjid an-Nabaviyni kengaytirib, qo'shimchalar qilgani, Rasululloh s.a.v. davrlarida masjid xom g'isht va xurmo shoxlaridan qurilganligi, Umar r.a. davrida esa, masjidning xurmo shoxlaridan bo'lgan ustunlari olib tashlanib, uning o'rniga xom g'ishtdan ustunlar o'rnatganligi, so'ngra Usmon r.a. tomonlaridan Masjid an-Nabaviyga juda katta o'zgarish va qo'shimchalar qilingani. Jumladan; Hijriy yigirma beshinchi sanada Musulmonlar namoz o'qishlari uchun Masjid an-Nabaviy torlik qilayotgani hatto, juma kunlari jamoa masjiddan tashqaridagi ochiq maydongacha to'lib namoz o'qiyotganlarini aytib, Usmon r. a. ga shikoyat qildilar. Usmon r. a. Rasululloh s.a.v ning ray' ahlidan bo'lgan sahobalari bilan maslahatlashdilar. So'ngra ularning hammalari Masjid an-Nabiyini buzib, qaytadan kengroq qilib qurishga kelishdilar. .Asardagi so'ngi bob va fasllarda Madinadagi Aqiq va boshqa vodiylar, ularning kengligi, chegaralari, nomlanishi va aynan shunday nomlanish sabablari va shu bilan bog'liq ko'plab ma'lumotlar arab alfaviti tartibida nasriy va nazmiy usullardan foydalanib bayon qilingan. Va eng so'ngi fasllarda Madinadagi boshqa joylar,(yerlar) makonlar va shu bilan bog'liq ma'lumotlar aks etgan.

Adabiyotlar

- 1.Sh. MIRZIYOYEV Toshkent sh.,2022-yil 10-fevral,PQ-126-son
2. Ali bin Abdulloh as-Samhudi. Xulasatul vafo biaxbari daril mustafa
- 3.ar.m.wikipedia.org

4.noor-book.com.

5.books-library.net

CHOR ROSSIIYASI TOMONIDAN O'RTA OSIYONING BOSIB OLINISHI TARIXINING O'RGANILISHI MASALALARI

N.R.Niyozov,

*Tarixshunoslik, manbashunoslik – tarixiy tadqiqot usullari
mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik yillarida olimlarimiz tomonidan Chor Rossiyasining O'rta Osiyoning bosib olinishi tarixi bo'yicha yaratilgan asarlari va ularda ilgari surilgan fikrlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Mustaqillik, Sovet davlati, Bo'riboy Ahmedov, Hamid Ziyoyev, tarixshunoslik

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, Chor Rossiyasi tomonidan O'rta Osiyoning bosib olinishi tarixi masalalari Chor Rossiyasi undan so'ng sovet tarixchi olimlari tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, ularda tarixiy haqiqatlardan ko'ra soxtalik, tarixni xolisona yoritmaslik kabi illatlar ildiz otib ketgan edi. Ayniqsa, sovet davrida o'zbek tarixchi olimlari tomonidan masalaga haqqoniy yondashishga imkon bo'lmagan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, tariximizning ochilmagan qirralari kashf qilindi. Mustaqillikning dastlabki yillarida vaqtlı matbuotda Rossiya bosqinchiligi davriga xolis baho berish yuzasidan B.Ahmedov, H.Ziyoyev, D.Alimova, N.Abdurahimova, G'.Ahmadjonov, H.Sodiqov ko'plab olimlar va tarixchilar ushbu masalani turlicha qirralarini yangicha tahlil etib, shu paytgacha zulmat qo'ynida qolib kelayotgan tarixiy faktlarga oydinlik kiritdilar.²⁴⁵ Keyinchalik ana shu kichik maqolalar yuzasidan chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borildi, monografiyalar yaratildi. Jumladan, G'.A.Ahmadjonovning “Rossiyskaya

²⁴⁵ F.A.Аҳмаджонов. Россия империяси Марказий Осиёда (Чоризмнинг Туркистондаги мустамлакачилик сиёсати тарихи ва тарихнавислиги) Т.2003.Б.9

imperiya v Sentralʼnoy Azii (Istoriya i istoriografiya kolonialʼnoy politiki sarizma v Turkestane)ʼ-1995; N.Abduraximova va G.Rustamovaning “Kolonialʼnaya sistema vlasti v Turkestane vo vtoroy polovine XIX –I chetverti XX vv” - 1999; o'zbekistonlik qozoq mualliflari S.Tileuqulov va U Utenberganovaning “Turkiston mustaqilligi uchun kurashlar tarixidan ” - 1996; kabilarni ko'rsatish mumkin.

Ta'kidlab o'tish kerakki, taniqli tarixchi olim H.Ziyoyev 90-yillarda xalqimizga haqqoniy tariximizni yoritib berishga harakat qilgan edi. Mustaqillik tufayli u ushbu mavzuga doir keng qamrovda tadqiqotlar olib bordi. Uning “O'zbek xonliklari chorizm asoratida”-1994; “Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash”-1998; “Tarixning ochilmagan sahifalari”- 2003; “Tarix – o'tmish va kelajak ko'zgusi”- 2000; kabi asarlarida mavzuga oid qimmatli ma'lumotlar mavjud. Hamid Ziyoyev Chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosati to'g'risida gapirar ekan, boshqa olimlardan farqli o'laroq nima sababdan ota-bobolarimiz o'tmish zamonlarda bosqinchilarning qo'l ostida yashaganliklari mushohada qilib, bunday fojealarning ro'y berishida kundalik hayotda hukm surgan milliy nuqsonlar sabab bo'lganligini ta'kidlab o'tadi.²⁴⁶

Shuningdek, mustaqillikning dastlabki yillarida, ya'ni 1992-1993 yillarda Oliy o'quv yurtlari uchun mo'ljallangan 2 jildlik “O'zbekiston xalqlari tarixi” nomli darslik akademik A.Asqarov tahriri ostida nashr etilgan. Ushbu kitobning 2 jildida O'zbek xonliklarining Chor mustamlakachilari tomonidan bosib olinishi, mustamlakachilik davri yoritilgan. 1997 yilda tarixchi olim Jumaboy Rahimovning o'qituvchilar uchun “O'zbekiston tarixini o'rganishda arxiv materiallaridan foydalanish” (“Использование архивных материалов при изучении истории Узбекистана”) nomli o'quv qo'llanmasi o'zbek hamda rus tillarida nashr qilindi. Lekin uning ushbu qo'llanmasi qattiq tanqid ostiga olingani ko'pchilikka ma'lum.²⁴⁷

Ammo shuni aytib o'tish kerakki, mustaqillikning dastlabki yillarida ham ayrim olimlarning asarlarida eskicha qarashlar ustunlik qildi. Jumladan, mashhur tarixchi

²⁴⁶ Хамид Зиёев.Тарихнинг очилмаган саҳифалари.Т.2003.Б.134

²⁴⁷ Google.ru. В.В.Германова.Вторжение Российской империи в Среднюю Азию.(Заметки историографа на полях учебников по истории Узбекистана)

olim Bo'riboy Ahmedov o'zining tadqiqotlaridan birida o'zbeklarning yangi davrdagi tarixi mustamlakachilik asorati ostida kechganini, o'zbeklar o'rta osiyolik boshqa xalqlar va qozoqlar bilan birga XIX asrning 60 - yillarida Chor Rosssiyasi tarafidan qurol vositasi ila bo'ysundirilganligi, shu vaqtdan boshlab bu boy o'lka Rossiyaning rivojlanib kelayotgan sanoati uchun xom ashyo manbaiga, qulay va mo'may foyda keltiruvchi bozorga aylantirilganligi, o'lkaning zahmatkash, mute xalqi bearmon talanganligini aytib o'tsa-da,²⁴⁸ shu bilan birga u ilm ahlini “insof”ga chorlab, Chor Rossiyasining bosqinchilik harakatlari o'lkaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ma'lum darajada ijobiy ta'sir ko'rsatganini, o'zaro feodal urushlarga barham berilganligi, soliq tizimining tartibga solinganligi, rus sharqshunoslari tomonidan o'zbekning madaniyati va tarixiga zo'r hurmat bilan qarab, qimmatli kitoblar yozib qoldirganligini ta'kidlab, masalaga bir tomonlama qaramasdan “hissiyot”ga berilmasligimizni eslatib o'tadi.²⁴⁹ Qizig'i shundaki, olim bir vaqtning o'zida ikki xil fikr bildirgan. O'z oldimizga yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, Bo'riboy Ahmedovning fikrlariga qo'shila olmaymiz.

Ushbu mavzuni o'rganish muhimdir. Nega deganda, hozirgi kunda ham dunyoning ayrim mintaqalarida noxush holatlarning kuzatilishi, dunyodagi vaziyat to'la barqaror emasligidan dalolat beradi. Bu esa bizni doimo ogoh bo'lishga chorlaydi. Ogohlik, hushyorlik esa mustaqillikni asrash, uni qadriga yetish demakdir.

Adabiyotlar

1. F.A.Ахмаджонов. Россия империяси Марказий Осиёда (Чоризмнинг Туркистондаги мустамлакачилик сиёсати тарихи ва тарихнавислиги) Т.2003.
2. Ҳамид Зиёев.Тарихнинг очилмаган саҳифалари.Т.2003
3. Бўрибой Аҳмедов.Тарихдан сабоқлар.Т.1994

²⁴⁸ Бўрибой Аҳмедов.Тарихдан сабоқлар.Т.1994.Б.200

²⁴⁹ О'sha joyda

4. Google.ru. В.В.Германова.Вторжение Российской империи в Среднюю Азию. (Заметки историографа на полях учебников по истории Узбекистана)

70230501 – Etnografiya, etnologiya va antropologiya

BUXORO VOHASI HUNARMANDCHILIGIDA USTOZ – SHOGIRD AN'ANALARI VA U BILAN BOG'LIQ URF – ODAT, MAROSIMLAR.

S.I.Inoyatov

BuxDU, Tarix fanlari doktori professor

S.F.Jabborov,

BuxDU, Etnografiya, etnologiya va antropologiya mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro vohasiga xos bo'lgan hunarmandchilikning o'ziga xos xususiyatlari ustoz – shogird an'analari va u bilan bog'liq bo'lgan urf – odat, marosimlar atroflicha yoritib berilgan. Milliy hususiyatlarning hunarmandchilikda aks etishi ushbu sohada shakillangan urf – odat va marosimlar mustaqillik yillarida ham davom etirib kelinmoqda. Buxoro vohasi milliy hunarmandchiligining dunyo miqiyosida etirof etilishi, asrlar osha shakillangan urf- odat marosimlarni zamonaviylik bilan uyg'unlashib kelayotganligi bayon qilingan.

Kalit so'zlari: Buxoro vohasi, hunarmandchilik, ustoz-shogird an'analari, risola, miyonbandi, arvohi pir, guli surh, pir, bobo, oqsoqol,urf –odat.

Mustaqillik yo'lida dadil borayotgan O'zbekistonning bugungi kunida yoshlarini kamolotga intilish ma'naviy qadriyatlarni tiklash va Vatanga sadoqat tuyg'ularini o'stirishda o'lkan tadbirlar olib borilmoqda. O'zbek xalqning o'tgan ajdodlari tomonidan yaratilib meros bo'lib qolgan madaniy boyliklari xazinasiga

xalq orasidagi ustoz-shogird an'analarini ham kiritish mumkin. Bu nodir an'ana mamlakatni yuksaltirishda beqiyos o'rin tutadi²⁵⁰.

Buxoro milliy hunarmandchiligi an'analariga ko'ra ustoz – shogird munosabatlari o'ziga xos an'analar asosida shakillangan. Masalan zardo'zlik, zargarlik, kandakorlik, kashtado'zlik, doppido'zlik kabi hunarlarda 10 – 14 yoshli bolalar shog'irtlikga olingan bo'lsa, kulolchilik, chilangarlik, charmgarlik, temirchil kabi og'ir mehnatga asoslangan hunarlarda 16 – 17 yoshar o'sprinlar shogirtlikga olingan²⁵¹.

Shogird ma'lum bir davr o'tgandan so'ng mustaqil holda kerakli buyumlarni yasay oladigan darajaga yetgan. U o'zining yetuk usta bo'lganligini ispodlash uchun o'z kaspiga oid bo'lgan biron – bir buyum tayyorlab uni oqsoqol va ustaga ko'rsatgan. Agar bu buyum ularga ma'qul tushsa, usta ruxsati bilan shogird “Miyonbandi” marosimini o'tkazishga tayorgarlik ko'ra boshlagan. Shogird o'z ustasining barcha hatti – harakatlarini kuzatib brogan. Natijada o'ziga kerakli bo'lgan kasb sirlarini asta – sekinlik bilan o'rgangan. Shogirdga birdaniga hunar o'rgatimagan, dastlab uy yumushlari ustaxona ishlarini bajarib turgan. Bir necha yillar davomida ustoz o'z shogirtiga kasb – hunarni o'rgatish bilan bir qatorda odob – axloq, muomila madaniyatini ham o'rgatgan.

Naqqoshlar shogirdlikka o'z bolasini yoki qarindosh-urug'larining bolalaridan olganlar. Shogirdlikka bolalar 7-8 yoshdan olingan. O'qish o'rganish 7-12 yillar atrofida bo'lgan. Ustoz shogirdlari bilan kunduzi ishlagan, kechqurun esa ustoz rahbarligida xat-savod chiqarilgan. Ustalar shogirdlar uchun maxsus odob talablarini ishlab chiqqanlar. Masalan, ular shogirdan pokizalikni, ish vaqtida chalg'imaslikni, ustoz ruxsatisiz biror ishga qo'l urmaslikni qat'iy talab qilganlar. Usta shogirdiga faqat hunar sirlarini o'rgatishdan tashqari, uy-yumush ishlarini bajarishga ham tayyorlab borgan.

Shogird hunar sirlarini o'rgangandan so'ng, unga oq fotiha bergan. Marosimda ustoz shogird bosh oyoq sarmo, tugun inom etgan. Ba'zida ustoz,

²⁵⁰ M.Rahmonova, A.Hamroyev, S.Hamroyev “Buxoro hunarmandchiligi zebu – zarlari” T. «O'zbekiston» 2017 yil

²⁵¹ “Buxoro tarixi masalalari” maqolalar to'plami Buxoro viloyati nashriyoti 1996

shogirdi mustaqil ish boshlashda qiynalmasligi uchun, shu kasbda ishlatiladigan asbob va andozalar berardi. Agar oq fotiha olgan ba'zi bir shogird mustaqil ishlashni xohlamasa, ustozinikida qolib ishlayverishi mumkin bo'lgan. Bunday qoida shogird ustozini bilan kelishib ish haqi olgan²⁵².

Buxoro shahrida temirchilik hunari bilan shug'ullanib kelayotgan Shokir

Kamolov sulolaning beshinchi avlodi bo'lib, hozirgi kunda temirchilar sulolasining yettinchi avlodi ushbu kasb bilan shug'ullanib kelmoqda. U kishining takidlashicha azaldan hunarmadlar "Risola"ga itoat qilib shu asosida ish yuritishgan. Shogirdlikga olish asosan oila a'zolaridan bo'lishi farz bo'lgan, shogird usta darajasiga yetgunga qadar 6- 7 yil kerak bo'lgan. Usta bel bog'lash marosimida mahallaning yoshi ulug'larini oldida shogirdiga halollik, kasbni to'g'ri yuritish haqida pand nasihatlar bergan. Shundan so'ng usta o'z qo'li bilan yasagan kerakli dastgohlarni o'z shogirdiga bergan. Shogird ushbu dastgohlarni ko'z qorachig'iday asragan degan fikirlarni takidlaydilar²⁵³.

Masalan: Shogird ustalik darajasiga erishgaligi uchun o'tkazilgan "kamarbandi – miyonbandi" (bel bog'lash) marosimi ham bobo boshchiligida o'tkazilgan. Bobo uyushma a'zolarining barcha marakalariga boshchilik qilib, uni o'tkazish tartibini qattiq nazorat ostida saqlagan. Bundan tashqari hunarmandlar har yili o'tkaziladigan "Guli surh" bayramida bobo boshchiligida Hazrat Bahouddin Naqshband qabristonida "Arvohi pir" marosimini o'tkazishgan. Bir oy davom etgan "Guli surh" bayramining bir haftasi to'liq hunarmandlarga berilib, ular shu haftani qabristonda o'tkazib, umuman ishlamagan va o'z hunarlari "pir"larining arvohiga bag'ishlab turli urf – odatlarni bajarganlar. Bundan tashqari, " Arvohi pir" marosimi biron – bir usta gunoh ish – asboblarini topsa, sindirsa, birovni haqorat qilsa ham o'tkazilgan. Bobo bunday ustani ishdan chetlashtirib, do'konini yoptirgan. Gunohkor usta o'z gunohini yuvish uchun uyushma a'zolariga o'z hisobidan " Arvohi pir " marosimini o'tkazib bergan. Marosim

²⁵² R.Qilichev "Buxoro shahrida hunarmandchilik" T.: «Fan»,1996

²⁵³ Dala tadqiqotlari Buxoro shahri temirchi usta Komilov Shokirdan yozib olindi 2022 yil

oxirida bobo boshchiligidagi ustalar unga nasihatlar qilishib, tavba qildirganlar. Shundan so'ng usta o'z do'konini ochib ishlashga haqli bo'lgan²⁵⁴.

Arvohi pir (arab.– ruhlar va fors – ustoz) – shogirdning mustaqil usta bo'lish uchun ustozning roziligini olish va o'tmish pirlar "arvohini shod etish" maqsadida o'tkazadigan ziyofati, yig'ini. Kosiblar an'anasiga ko'ra, Arvohi pir ni yirikroq kasb ahllari, chunonchi ipakchilikda to'quvchilar, bo'yoqchilar, abrbandlar, shuningdek sartarosh, duradgor, novvoy, temirchi, sozanda va boshqa beradilar. Arvohi pirda ayni kasbga tegishli hamma hunarmandlar (shogirdlar ham) va oqsoqol, devona oqsoqol, eshonbobo va payki tariyqlar qatnashadi, boshqa kasb ahllaridan 1–2 tadan vakil (mehmon tariqasida) chaqiriladi. Arvohi pir beruvchi bularning hammasiga nonushta, tushki va kechki ovqatlar berib, ziyofat qiladi. Ziyofatga ustoz yoki shogirdning yaqinlari, boshqa kasb axllari sovg'a tariqasida yaxshi taomlar (issiq non, meva-cheva, ba'zan pishgan taomlar), kiyim-kechaklar ham olib keladilar. Ziyofat oxirida Arvohi pir beruvchining "Ustozdan fotiha olish marosimi" o'tkaziladi. Marosimda usta o'z shogirdiga bir do'konda ish tutish uchun yetarli asboblari sovg'a qiladi. Shogird ustoziga bosh-oyoq sarpo taqdim etadi. Shogird pirining yo'lini qabul etadi va eshonbobo huzurida "kamarbasta" bo'ladi. Shu bilan shogird usta nomini oladi.

Hozirgi kunda ham ustoz shogird an'alarini yoshlarga tushuntirishda qadimiy ota – bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan ushbu tushunchalarni targ'ib qilishda hukumatimiz tomonidan bir qator chora tadbirlar ishlab chiqilyapti. Barcha korxonalar va tashkilotlarda ham ustoz – shogird an'alarini yo'lga qo'yilgan. Ushbu amalga oshirilgan chora tadbirlar o'z samarasini berib kelmoqda. Ustoz – shogird munosabatlarida transformatsion jarayonlar yuz bergan bo'lsada, qadimiy ko'rinishlar zamonaviylkda o'z aksini topib kelmoqda²⁵⁵.

Adabiyotlar

²⁵⁴ "Buxoro tarixi masalalari" maqolalar to'plami Buxoro viloyati nashriyoti 1996

²⁵⁵ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 2000-2005-yil

1. “Buxoro tarixi masalalari” maqolalar to'plami Buxoro viloyati nashriyoti 1996
2. R.Qilichev “Buxoro shahrida hunarmandchilik” T,: «Fan»,1996
3. M.Rahmonova,A.Hamroyev,S.Hamroyev “Buxoro hunarmandchiligi zebu – zarlari” T. «O'zbekiston» 2017 yil
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 2000-2005-yil
5. Dala tadqiqotlari. Buxoro shahri “Temirchi usta” Komilov Shokirdan yozib olindi 2022 yil.

“BOBURNOMA” ASARIDA NABOTOT OLAMINING ETNOGRAFIK TAHLILI

Z.O.Ashrafova,

BuxDU etnografiya, etnologiya va antropologiya

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan yozilgan “Boburnoma” asarida keltirilgan Movarounnahr, Xuroson hamda Hindiston o'lkalaridagi ba'zi mevalar turlari tahlil qilingan. Shuningdek, ayrim o'simliklar haqida ham aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: “Mirtemuriy” qovuni, subhoniyl o'rik, amrud, sanjid, obi anjur, lolayl gulbo'y, keyla, noranj, limu, turunj, funduk.

Bobur jahongashta sayyoh va mashhur tabiatshunos olim. U o'zi qiziqqan har qanday soha bo'yicha chuqur bilimga va katta ilmiy salohiyatga ega bo'lgan inson hisoblanadi. Jumladan, u o'zi yashagan, hukmronlik qilgan va ijod qilgan shaharlar Andijon, Kobul, Agra atrofidagi joylarning tabiati, u yerda o'sadigan o'simliklar haqida batafsil ma'lumot keltirib o'tgani, aniq va chiroyli tarzda bayon ilgani kishini hayratga solmay qo'ymaydi, albatta.

Asarning birinchi qismi Movarounnahr, uning geografiyasi, xalqlari, tabiati, o'simliklariga bag'ishlangan. Xususan, Farg'ona viloyatining shirin-shakar mevalarini quyidagicha ta'riflaydi: “g'allasi mo'l, mevasi ko'p, qovun va uzumi

yaxshi bo'ladi. Qovun pishig'ida poliz boshida qovun sotmoq rasm emas. Andijonning noshvotidan yaxshiroq noshvoti²⁵⁶ bo'lmas.”²⁵⁷

Gap qovun haqida borganda Zahiriddin Muhammad Bobur Axxi va Buxoro qovunlariga ham alohida urg'u berib o'tgan:”Qovuni yaxshi bo'ladi. Bir nav qovunini “mirtemuriy” deydilar, bunday qovunning boshqa joyda ham borligi ma'lum emas. Buxoro qovuni mashhurdir. Samarqandni olgan paytimda Axxidan, Buxorodan qovun keltirib, bir o'tirishda so'yidirdim. Axxi qovunining hech misli yoq edi”.²⁵⁸

Yana bir narsani alohida ta'kidlab o'tish kerakki, Bobur Marg'inon anori-yu o'rigi, Samarqand olmasi-yu Xo'jand anorlarini zo'r mahorat ila kitobxonga jahonda tengsizligini bayon eta olgan. Marg'inonning o'rigiga u shunday ta'rif beradi:”...yana bir o'rik bo'ladiki, danagini olib, ichiga mag'is solib quritadilar , buni subhoniy deydilar, ko'p lazizdir.”

Zahiriddin Muhammad Bobur mazkur asarning ikkinchi qismida Xurosonning, ayniqsa, xushhavo tabiati, Qobul manzarasini, xalqi va odamlarini, mevalarini maroqli va jozibali til bilan bayon etar ekan, ularning tasvirini o'zining o'tkir mushohadalari natijasida rang-barang badiiy vositalar bilan bezab hikoya qiladi. Masalan, Qobul viloyatining nabotot olami haqida gapirar ekan, uni shunday ta'riflaydi: ” Issiq va sovuq iqlimda yetishadigan mevalar Qobul atrofida ko'pdir. Qobul va uning kentlarida sovuq iqlimga mansub mevalardan uzum, anor, o'rik, olma, behi, amrud,²⁵⁹ shaftoli, qaroli, sanjid, bodom va yong'oq ko'p bo'ladi. Men qaroli niholini keltirib ektirganman, yaxshi qarolilar bo'ldi va hanuz gurkirayotgan edi ”.²⁶⁰ Movarounnahr mevalaridan farqli o'laroq limon va apelsin

²⁵⁶ Noshvoti-nok. H. Nazarova “Zahiriddin Muhammad Boburasarlari uchun qisqacha lug'at”. 103-bet. “Fan” nashriyoti 1972.

²⁵⁷ “Boburnoma” asari 3-bet. Toshkent; “Yangi kitob” nashriyoti 2019.

²⁵⁸ “Boburnoma” asari 7bet. Toshkent; “Yangi kitob” nashriyoti 2019.

²⁵⁹ Amrud-nok. H. Nazarova “Zahiriddin Muhammad Boburasarlari uchun qisqacha lug'at”. 8-bet. “Fan” nashriyoti 1972.

²⁶⁰ “Boburnoma” asari 139-bet. Toshkent; “Yangi kitob” nashriyoti 2019.

6Norunj – apelsin. H. Nazarova “Zahiriddin Muhammad Boburasarlari uchun qisqacha lug'at”. 103-bet. “Fan” nashriyoti 1972.

haqida ham yozib qoldirgan :”Issiq iqlim mevalaridan, chunonchi, norunj²⁶¹, turunj²⁶²,amluk{issiq mamlakatlarda bitadigan mevalardan birinning nomi}va nayshakarni Lamg’anotdan keltiradilar”. Shu bilan birga u “...Qobulning rovochi yaxshi bo’ladi. Behi bilan qarolisi ham yaxshidir. Bodringi ham yaxshi. Bir nav uzumi bor obi angur deyishadi, juda yaxshi uzumdur...”²⁶³, - deb qayd etib o’tgan.Asarda Qobuldan tashqari Xurosonning yana bir tumani Nijrov haqida ham ajoyib ma’lumotlar keltirilgan.Chunonchi, “yana biri Nijrov tumanidir. Qobulning sharqi- shimolidagi tog’lik maskan. Ajib bir go’sha. Uzum va mevasi ko’p, sharobi ham ko’p bo’ladi tog’larida nojuv,²⁶⁴ chilg’o’za²⁶⁵, balut²⁶⁶ va xanjak daraxtlari ko’p uchraydi. Nojuv, chilg’o’za, balut daraxtlari bundan quyida o’sadi”.²⁶⁷

G’urband tumanidagi tog’larda turli ko’rinishdagi lola navlari haqida Bobur shunday yozadi :”... bu tog’ etaklarida rang –barang har xil navli lolalar o’sadi .Bir marotaba sanattirdim : o’ttiz ikki – o’ttiz uch nav bir biriga o’xshamas lola chiqdi.Bir nav lola bo’ladiki undan biroz qizil gulning hidi keladi, uni lolayi gulbo’y , ya`ni gul hidli lola der edik. U Dashti Shayxning bir parchagina yerida uchraydi, o’zga yerda bo’lmaydi. Yana ushbu etakda Paravondan quyiroqda sadbarg lola ochiladi. U ham bir parcha yerda , G’urband tordaraning chiqishida o’sadi ”.²⁶⁸

“Boburnoma” asarining uchinchi qismi Hindistonga bag’ishlangan. Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonni Movarounnahr bilan solishtirib , bu hudud mutlaqo boshqa bir olam, tog’ va daryolari , hayvon va o’simliklari, odmlari

²⁶² Turunj-limon H.Nazarova “Zahiriddin Muhammad Boburasarlari uchun qisqacha lug’at”.148-bet.”Fan”nashriyoti 1972.

²⁶³ “Boburnoma”asari 139-bet. Toshkent;”Yangi kitob” nashriyoti 2019.

²⁶⁴ Nojuv –sanovbar, ya’ni qarag’ay daraxti H.Nazarova “Zahiriddin Muhammad Boburasarlari uchun qisqacha lug’at”.102-bet.”Fan”nashriyoti 1972.

²⁶⁵ Chilg’oza- kedr yong’og’i H.Nazarova “Zahiriddin Muhammad Boburasarlari uchun qisqacha lug’at”.165-bet.”Fan”nashriyoti 1972.

²⁶⁶ Balut – dub yog’ochi. H.Nazarova “Zahiriddin Muhammad Boburasarlari uchun qisqacha lug’at”.14-bet.”Fan”nashriyoti 1972.

²⁶⁷ “Boburnoma”asari 145-bet. Toshkent;”Yangi kitob” nashriyoti 2019.

²⁶⁸ “Boburnoma”asari 146-bet. Toshkent;”Yangi kitob” nashriyoti 2019.

yomg'iri va shamoli, tili, urf- odatlari mutlaqo biznikiga o'xshamasligini qayd etib o'tgan. Gapimizning isboti sifatida asardan ayrim parchalarni keltirib o'tmiz:

“ Yana Hindiston mevalaridan keyladir²⁶⁹ . Arablar uni “mavz” deb atashadi. Daraxti uncha baland emas, balki uni daraxt deb ham bo'lmaydi. O'simlik bilan daraxt o'rtasidagi bir narsa Har bir keyla daraxti bir marta hosil berarmish. Keylaning ikki yaxshi xususiyati bor: biri shuki, po'sti oson archiladi, ikkinchisi uning danagi va tolasi bo'lmaydi, baqlajondan biroz uzunroq va ingichkaroqdir. Uncha shirin emas. Ammo Bangola keylari juda shirin bo'larkan . Juda xushnamo daraxti bor, keng- keng, xushrang yashil barglari chiroyli ko'rinad” .²⁷⁰ “Yana bir daraxt – karmakdir. Mevasi besh qirralidir. Kattaligi olxo'richa bor, uzunligi to'rt enlik srg'ayib pishadi, danagi ham yo'q. Xomroq uzilgani juda achchiq bo'ladi . Yaxshi pishgani nordon bo'lsa ham xushta'mdir. Xushxo'rlikdan xoli emas ”.

“Yana biri kadxaldir. Ko'rinishi hayratlanarli darajada xunuk va bemaza meva.Ko'rinishidan xuddi qo'yning kapadek qornining ichini sirtga ag'darib qo'ygandek. Mazasi ko'ngilni ozdiradigan darajada shirin, ichida fundukdek – fundukdek {yong'oq turi} danaklari bor . Umuman xurmoga o'xshab ketadi. Faqat buning donalari yumaloq , uzun emas. Bu donalarning xurmodan yumshoqroq go'shti bor.Uni yeydilar , juda yopishqoq. Shu bois ba'zilar qo'lini, og'zni yog'lab yerkan.Mevalari daraxtning shoxida ham, tanasida ham, ildizida ham o'sadi. Daraxtga xuddi kepalarni²⁷¹ osib qo'ygandek ”.²⁷²

Biz yuqorida keltirib o'tgan o'simliklardan bo'lak yana bir nechta mevalarning nomlari hamda ularning bir birini takrorlamas xususiyatlarini Bobur juda chiroyli yo'sinda tasvirlab bergan.Xususan, Movarounnahrda uchramaydigan

²⁶⁹ Keyla - banan H.Nazarova “Zahiriddin Muhammad Boburasarlari uchun qisqacha lug'at”.61-bet.”Fan”nashriyoti 1972.

²⁷⁰ “Boburnoma”asari 321-bet. Toshkent;”Yangi kitob” nashriyoti 2019.

²⁷¹ Kapa-qo'yning sochiq qorni H.Nazarova “Zahiriddin Muhammad Boburasarlari uchun qisqacha lug'at”.61-bet.”Fan”nashriyoti 1972.

²⁷² “Boburnoma”asari 322-bet. Toshkent;”Yangi kitob” nashriyoti 2019.

ambiliy, mahva , kirniy, badhal , beyr, karunda, paniyala, a'mla, chiro'nji, nargil, noranj , turunj, limu, karna, amalbed va hokazo.

Xulosaqilib aytganda , Zahiriddin Muhammad Bobur o'z davri uchun va hatto kelajak avlod uchun betakror asari – “Boburnoma”da noyob ma'lumotlarni qoldirib ketgan. Bu asardan, nafaqat, bizlar , balki butun dunyo ilm ahli unumli foydalana oladigan asardir.”Boburnoma ” orqali bizda o'z vatanimizdan tashqari boshqa xalqlar , aniqrog'i, afg'on xalqlari hamda hind xalqi madaniyati, tabiati, urf-odatleri haqida bilib olishga imkon yaratib beradi. Bunday ma'lumotlarga boy manbani kelajakavlodga yetkazish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Adabiyotlar

- 1.Z.M.Bobur “Boburnoma” “Yulduzcha ” nashriyoti.1989-yil.
- 2.Z.M.Bobur “Boburnoma” “ Yangi kitob” MCHJ.2019-yil
3. H.Nazarova “Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari uchun qisqacha lug'at ” “Fan” nashriyoti. 1972-yil.
- 4.Zoyir Choriyev “ Tarix atamalarining qisqacha izohli lug'ati” . “Sharq” nashriyoti .1999-yil

BUXORO VOHASI ARABLARI BILAN BOG`LIQ IJTIMOIIY TOIFALAR

M.B.Qurbonova

BuxDU Buxoro tarixi kafedrasi dotsenti t.f.n

G`Z.Samadov,

BuxDU etnografiya, etnologiya va antropologiya

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi Buxoro vohasi arableri tarkibidagi ijtimoiy guruhlar, ularning tavsifi, ijtimoiy holati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: sayyidlar, xo'jalar, mudarris, qozi, amirlik, eshon

Buxoro vohasi arableri orasida “eshon”, “xo'ja” yoki “sayyid” (sayd, sayid, sayit) deb ataluvchi ijtimoiy toifalar uchraydi. Ushbu atamalar asosan islom diniga

aloqador shaxslarga nisbatan ishlatilib, ular orasida o'zlarining kelib chiqishlarini Muhammad payg'ambar avlodlariga, pirovardida arablarga bog'lash an'anasi mavjud ²⁷³ va oddiy mahalliy aholi orasida ham bu talqin ancha-muncha tarqalgan. Faqat mazkur ijtimoiy toifalarning vakillari o'zlarini mintaqa arablariga qanchalik aloqador hisoblashlari, umuman olganda, o'z etnik mansubliklarini aynan qaysi elat va millat bilan bog'lashlari masalasi munozarali. Chunonchi, mintaqada aholisini, asosan, xo'jalar tashkil qiladigan ko'plab qishloqlar mavjud: Xo'ja, Xo'jalar, Xo'jaobod, Xo'jailg'or, Xo'jaqishloq, Xo'jaipok, Xo'jaasmin, Xo'jaxayron, Xo'jayakshaba va hokazo.

Bevosita xo'ja nomi bilan bog'liq bo'lgan etnotoponimlar tahlilicha, O'rta Osiyo hududida xo'jalar nomi bilan yuritiluvchi qishloq va aholi manzillarining tarqalishi turlicha bo'lgan.

Musulmon dini keng yoyila boshlagan davrlardan buyon payg'ambarning qizlari Fotimadan tarqalganlar "sayyid" atalib, alohida hurmatga sazovor toifa sifatida islom dunyosining deyarli barcha o'lkalarida aholi tomonidan e'zozlanib kelingan.

Jumladan, Sohibqiron AmirTemo'ning payg'ambar avlodlari sanalgan sayyidlarga ehtirom ko'rsatib, ularni pir tutgan holda davlat boshqaruvida ularning maslahatlariga amal qilganligi yozma manbalarda aks etgan.²⁷⁴

Manbalardan Buxoro amirlari sayyidlar xonadoni bilan quda-andachilikni yo'lga qo'yganliklari, shu tufayli ulardan bir necha nafarining ismi va unvoni oldida sayyid atamasi qo'shib ishlatilgani ma'lum. Sayyidlar son jihatdan kamchilikni tashkil etib, asosan shaharlarda, ko'proq boshqaruv markazlari poytaxt va yirik shaharlarda yashashgan²⁷⁵. Ular davlat boshqaruvida alohida imtiyozga ega bo'lishlari barobarida madaniy-ma'rifiy ishlar bilan shug'ullanishgan va madrasalarda mudarrislik qilishgan. Shuningdek, qozilarning

²⁷³ Rajabov.R. O'zbekistondagi arablar tarixi va etnografiyasi-T.Sharq.2012-120.b

²⁷⁴ Yiiksel M.. Timurlularda Din-Devlet tlikisi. - Anqara, 2009. - 86-87-b.

²⁷⁵ Rajabov.R. O'zbekistondagi arablar tarixi va etnografiyasi-T.Sharq.2012-124.b

ko'pchiligi sayyidlardan tayinlangani haqida ma'lumotlarning uchrashi ularning islom ahkomlarini yaxshi biladigan shaxslar sifatida huquq sohasiga keng jalb qilinganligidan darak beradi. Bizgacha yetib kelgan yozma manbalar va aholidan yig'ilgan etnografik materiallar sayyidlarning Buxoro, Toshkent, Qo'qon kabi yirik shaharlarda istiqomat qilib kelganliklarini ko'rsatadi.

Xo'jalarning eng favqulodda jihatlari faqat yaqin qarindoshlari va qavmdoshlari bilan qiz berib, qiz olishda namoyon bo'lardi. "Qoracha"lar bilan nikohga kirishish taqiqlangan, bu eng avvalo, xotin-qizlarga tatbiq etilardi, ammo, bunga erkaklar ham itoat etardilar. Bu taqiq ularning tasavvuriga ko'ra, go'yo turlituman baxtsizliklar (masalan, bedavo dardga chalinish, aqldan ozish, jarohat olish va boshqalar) nafaqat ularning o'zini, balki bir necha avlodiga ham ta'sir qilishi mumkin deb talqin qilinar edi.

Xo'jalarning, imtiyozli mavqelariga qaramay, katta qismi oddiy mehnatkash kishilar edilar. Mohir dehqonlar, qo'li gul hunarmandlar ular orasida ko'p bo'lgan.

Yuqorida aytib o'tilganidek sayyidlardan bir qismi qishloqdarda ham yashaydilar. Ularni ko'proq aholisining asosiy qismini xo'jalar yoki chig'atoy deb ataluvchi o'zbek va tojik tilli guruhlar tashkil qiluvchi qishloq va mahallalarda istiqomat qilishi ko'zga tashlanadi.

Aholi orasida *xo'ja* deb yuritiladigan, tarixiy manbalarda esa *xoja* atamasi ostida ma'lum bo'lgan aholi tabaqasi sayyidlardan keyingi mavqeda turadilar. Forscha "xoja" - "sohib, xo'jayin" tasavvuf ta'limotida tariqat mashoyiqlariga berilgan unvon bo'lib, bu unvon asosan so'fiylar ustozisi Yusuf Hamadoniydan boshlab ishlatila boshlagan. Jumladan, Xo'ja Yusuf Hamadoniy, Xoja Abduholiq

G'ijduvoni, Xoja Ahmad Yassaviy,

Xoja Bahouddin Naqshiband, Xoja Ahror Valiy kabi mo'tabar shaxslar ismiga ushbu faxriy unvon qo'shilib aytilgan. Bundan avval tasavvuf ulamolari "shayx" deb yuritilgan²⁷⁶.

²⁷⁶ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 9-jild. - T.: UzME nashriyoti, 2005. - 447, 525-betlar.

Eshonlar esa ko'p xollarda xo'jalar bilan bitta ma'noda, sinonim atama sifatida ishlatiladi. Ba'zan esa eshon va xo'jalarga alohida-alohida ijtimoiy guruh sifatida qaraladi²⁷⁷. “Eshon” so'zining lug'aviy ma'nosi bo'yicha ikki xil qarash mavjud bo'lib, ayrim tadqiqotchilar uni forscha hurmat ma'nosidagi eshon (ular) so'zi bilan tenglashtirsalar, bir guruh olimlar uni turkiycha esh “do'st, esh, yo'ldosh” va forscha ko'plik yasovchi *-on* (-lar) qo'shmchasi birikmasidan hosil bo'lgan so'z deb qaraydilar va “do'stlar, yo'ldoshlar, izdoshlar” mazmunini bildiradi, deb izohlaydilar.

Aftidan, mazkur ikki atama nisbatan bir xil ijtimoiy tabaqani ifodalagan bo'lib, turli regionlarda turlicha ishlatilgan. Jumladan, respublikamizning Toshkent, Farg'ona vodiysi kabi shimoli-sharqiy hududlarida mazkur ijtimoiy tabaqa uchun, asosan, “xo'ja” so'zi ishlatilib, xuddi shunday tabaqa vakillari Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo singari markaziy va janubiy viloyatlarda “eshon” deb atalgan. Shunga qaramay, har ikkala atama respublikamizning turli viloyatlarida baravar ishlatilib, ba'zan farqlangan.

Shuningdek, oddiy xalq orasida ham ularni arablardan kelib chiqqan deb qarash hollari onda-sonda bo'lsa ham uchrab turadi. Biroq ularning mahalliy aholi (o'zbek, tojik, turkman, qozoq va hokazo) orasida aralashib yashaganliklari tufayli mintaqa arablari bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalari deyarli yo'q hisobi. Ya'ni ularning aksariyati mazkur xalqlar yashaydigan aholi manzillarida aralash (ba'zan alohida mahalla) bo'lib yashashlari tufayli o'zlarini mazkur millatlardan etnik jihatdandeyarli farqlamaydilar.

Hatto, faqatgina xo'jalar yoki eshonlardan tashkil topgan aholi manzillarida ham o'zlarini arab deb atash an'anasi deyarli uchramaydi. Shu jihatdan olganda, garchi ular orasida payg'ambar avlodlariga, xalifa va sahobalarga yoki bo'lmasa arab lashkarboshilarga bog'lash hollari uchrab tursada, ularni tom ma'noda mintaqa arablari qatoriga qo'shib bo'lmaydi.

²⁷⁷ Ergashev E. Beshkent tarixi. - Qarshi: Nasaf, 2000. - 16-bet.

Ayrim hollarda ular orasida o'ziga xosliklar ko'zga tashlansada, bu belgilar arablarga xos old osiyolik ko'rinishidan ko'ra ko'proq fanda "O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i tipi" deb yuritiluvchi irqni eslatadi. Bu esa mazkur ijtimoiy tabaqa vakillarining kelib chiqish jihatidan tubjoy mahalliy etnoslarga, ehtimol, so'g'diy va qadimgi o'troq turkiy aholiga borib taqalishidan darak beradi. Shunga qaramay ular orasida o'z kelib chiqishlarini ifodalovchi ko'p asrlik hujjatlar shajaralariga ega oilalar mavjud bo'lib, bu esa xo'ja va eshonlardan xech bo'lmaganda bir qismining kelib chiqish jiatidan arablarga aloqadorligini tasdiqlaydi²⁷⁸.

O'rta Osiyo xalqlari etnogenezida ishtirok etgan arab toifalari orasida yuqoridagi tabaqalardan tashqari yana bir qator kichik ijtimoiy guruhlar qatnashgan.

Xullas, bir qismi Old Osiyo muhitida shakllangan imtiyozli ijtimoiy toifalar (*masalan, sayyidlar*) O'rta Osiyoda ham o'z mavqelarini saqlab qolgan. Shu bilan birga, bu kabi toifalarning bir qismi aynan O'rta Osiyo va unga qo'shni hududlar ijtimoiy muhitida shakllangan. Xususan, "eshonlar" toifasining tashkil topishi bevosita ushbu mintaqaga aloqadordir.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 9-jild. - T.: UzME nashriyoti, 2005. - 447, 525-betlar.
2. Ergashev E. Beshkent tarixi. - Qarshi: Nasaf, 2000. - 16-bet.

MIXAIL STEPANOVICH ANDREYEV TOJIKLAR

ETNOLOGIYASI BILIMDONI

M. B. Qurbonova

BuxDu, t.f.n., dotsent

Sh. Sh. Toshpo'latova

Etnografiya, Etnologiya va

²⁷⁸Rajabov.R. O'zbekistondagi arablar tarixi va etnografiyasi-T.Sharq.2012-134.b

Annotatsiya: Mazkur maqolada M.S.Andreyevning ilmiy faoliyati xususida to'xtalib, "Xuf vodiysi tojiklari" asari olimning Amudaryo yuqori oqimidagi tojiklarning hayoti madaniyati to'g'risida ma'lumot beruvchi manba sifatida qaralishi bayon qilingan. Shuningdek alohida ilmiy qiziqishga sazavor bo'lgan «Xuf vodiysi tojiklari», , «Xuf-Ruscha lug'at» jamlanishi va uning ilmiy ahamiyati ifoda etilgan. M.S. Andreyevning ilmiy tadqiqotlari samarasi o'laroq fanga birinchi bo'lib ma'lum bo'lgan tojiklarning xuftiy halqi etnografiyasi olimning ilmiy izlanishlari mahsuli ekanligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: «Xuf vodiysi tojiklari», , «Xuf-Ruscha lug'at», Xufind daryosi, Huf va Pas-Khuf, Bartanga daryosi, Xorug' (Chordarada), Panj .

Jahondagi barcha xalqlarning, etnik birliklarning turlarini kelib chiqishi, turmush tarzi, urf-odatlarini o'rganuvchi fan sohasi sanalgan etnografiyada M.S. Andreyevning xizmati katta¹. Binobarin, Tojikiston, Qozog'iston, O'zbekiston va Rossiya muzeylarini bezab turgan ko'plab kolleksiyalar, xalqning nozik didini ifodalovchi liboslar, xalq amaliy san'ati yodgorliklari, turli xil mehnat qurollarining ommaga taqdim etilishida olimning xizmati benihoya katta. Shunisi ahamiyatliki, Amudaryoning yuqori oqimida yashovchi aholining etnografik kelib chiqishi, turmush tarzi, xulq-atvori, ijtimoiy ligvistikasi haqidagi eng qimmatli ma'lumotlar ham Andreyevga tegishli¹.

M.S.Andreyev tomonidan to'plangan aksariyat materiallar va to'plamlar uning ellik to'rtta ilmiy ishlariga asos bo'lib, ulardan sakkiztasi olim vafotidan keyin uning rafiqasi va hamkasbi O'rta Osiyoning mashhur tadqiqotchisi Antonina Konstantinovna Pisarchik ko'magida nashr etilgan².

M.S.Andreyev "Xuf vodiysi tojiklari" kitobi, hozirgi kungacha Amudaryoning yuqori oqimidagi tojiklarning hayoti va madaniyati bo'yicha

¹ <https://qomus.info/encyclopedia/cat-e/etnografiya-uz/>

¹ Андреев М. С. «Таджики долины Хуф». Вып.1-С.11

² Полный список публикаций М. С. Андреева см. Писарчик А. К. Михаил Степанович Андреев. (1873-1948 гг.) // Памяти М. С. Андреева-Сталинабад, 1960 г. – С. 20-23; Она же. Писарчик А. К. Этнографическая наука в Таджикистане

deyarli yagona asosiy etnografik tadqiqot bo'lib qolmoqda. Uning asari O'rta Osiyo o'troq xalqlari hayotini antropologik tadqiq qilishda eng kerakli manba sanalib, hozirga qadar o'zining ilmiy ahamiyatini yo'qotmagan. Olimning arxiv hujjatlarining aksariyati Pomirni o'rganishga, eng avvalo dengiz sathidan uch ming metrga yaqin balandlikda joylashgan Xuf vodiysidagi etnologik tadqiqotlarga bag'ishlangan. M.S. Andreyev bizgacha yetib kelgan barcha hujjatlari yuz yildan o'tganiga qaramay, hajmidan qat'iy nazar, o'ziga xosligi bilan alohida ilmiy qiziqishga sazovor. Olimning vafotidan keyin uning hamkasbi va rafiqasi A.K. Pisarchik tomonidan nashrga tayyorlangan "Xuf vodiysi tojiklari" asarining ilk nashri hozirgi kungacha saqlanmoqda³.

M.S.Andreyev ilmiy tadqiqot nechog'lik qiyin o'tganini eslab shunday yozgan: "Men Pomirga ilmiy tadqiqot maqsadida yetti marotaba tashrif buyurgan bo'lsam, u yerda har doim ham ma'lumot to'plash uchun kerakli sharoit va imkoniyat yo'q edi. Sababi, ma'muriy jixatdan Rushonning bir qismi bo'lgan Xuf vodiysi shunchalik alohidalangan ediki, 1907- yilgacha ushbu xududning mavjudligini bilgan birinchi yevropalik men bo'laman, va bu tadqiqot bor-yo'g'i bir kun davom etdi¹.

M.S Andreyev shunday deb yozgandi: «1902 yilgi birinchi sayohatimda ham men o'zim bilan Toshkentga ikki siyapushni olib borgan edim, ular bilan Xorug' (Chordarada) atrofida tasodifan uchrashib qolgandim. Ularning tili tojiklarning Eron tillari qatoridan juda uzoqlashgan. Men ba'zi grammatik ma'lumotlar va ba'zi nutq namunalarini yozib qo'yanman, olgan lingvistik materialni Fanlar akademiyasiga topshirganman, u yerda saqlanadi². Muallifning o'zi 1902- yil sanasini ko'rsatgan bo'lsada, shaxsiy fondidagi arxiv hujjatlarida o'zi 1901-yil, deb boshqa sanani qo'yadi. Asarlarining ilmiy muharriri A.K. Pisarchik ham Xuf vodiysi bo'yicha ma'lumotlar to'plashning boshlanishi 1901-yilga to'g'ri kelishini

³ ИИАЭ АН РТ, Фонд М. С. Андреева. Опись №1, ед. хр. № 40,48,50,78 и др

¹ Андреев М. С. «Таджики долины Хуф». Вып. 2 – С.6

² М. С. Андреев. О собранном мною в разное время (начиная с конца XIX ст. по 1942 г. материале по языку и быту народов Средней Азии, до сих пор еще не изданном и б. ч. не подготовленном к изданию. ИИАЭ АН РТ. Опись №1, ед. хр. 81. – С

tasdiqlaydi, o'shanda muallif Toshkentga pul topish uchun kelgan xuftiy G'ulomshaning so'zlaridan birinchi eslatmalarni yozgan³.

M.S. Andreyev o'zi to'plagan ushbu ma'lumotlarni litografik shaklida nashr etdi. Xuf so'zlarini tuzayotganda u doimo lotin alifbosiga asoslangan Xalqaro Eron transkripsiyasidan foydalangan. A.K. Pisarchik ta'kidiga ko'ra, Xuf lahjasining tovushlari, ba'zan esa aniqroq fonetik transkripsiya uchun ba'zi atamalar va so'zlarni uzatishda an'anaviy belgilarni ishlab chiqishda va transkripsiyani almashtirishda, ularga mos keladigan rus alifbosining harflaridan foydalangan. Shuningdek, u ikkita kitobga barcha eslatmalarini jamlagan. Keyinchalik M. S. Andreyevga "Xuf-Ruscha lug'at"ning boshqa nashrlarini tayyorlashda N.V. Rusinova, O. Orestovlar yordami tekkan.

Xufind daryosining yuqori oqimi bo'yida joylashgan Xuf va Pas-Xuf xuf — kichik tog' vodiysi sanaladi, uning o'ng tomoni Panjga quyiladi, uning katta irmog'i Bartanga daryosidan taxminan o'n kilometr yuqorida.

Amudaryoning yuqori oqimida yashovchi O'rta Osiyoning qadimiy xalqi sanalgan xuftiyalar tojiklardan bo'lib, o'troq turmush tarzida xayot kechirishgan. Xuf vodiysidagi aholi yashaydigan hududning eng pastki kismi 3000m balandlikda joylashgan. Bu yerda 18ta kichik qishloq joylashgan bo'lib, 110 tacha xonadonlar istiqomat qiladi. Qishloq atrofi baland dalalar bilan o'ralgan bo'lib, aholi yashaydigan uylarning yuqori qismida eskidan qolgan qadimiy turar-joylar va qabriston, undan yuqoriroqda esa ekin maydonlari dalalar mavjud. Xuf vodiysi aholisi asosan arpa ekinini ekishadi. Xuf vodiysiga faqatgina aholi o'tib bo'ladigan yo'laklar orqali yoyinki Payanj qirg'oqlari orqaligina tashrif buyurish mumkin edi. 1907 yilda Andreyev vodiya tashrif buyurgan 1-rus ekanini hisobga olsak, shu kunga qadar uning mavjudligini boshqalarga hatto Rossiya Pomiri otryadi boshlig'iga ham ma'lum bo'lmagan. Bunga asosiy sabab Xuf vodiysi tabiiy ravishda tog' daralari va Payanj daryosi bilan o'ralganligi bilan xususiyatlanadi, o'z o'rnida xuftiyalarning boshqa vodiy aholisiga nisbatan eski turmush tarzini

³ Андреев М. С. «Таджик долины Хуф». Вып. 2 – С.5

saqlab qolishga bu bilan shu yerliklarni o'rganish istagi tug'ilishiga sabab bo'ldi. Xuftiyilar tili garchand shug'no-rushon tillari turkumiga kirsada, aytilishi jihatdan rushon tiliga yaqin, biroq o'ziga xos shevasi orqali farq qiladi. Xuftiy tojiklarining udumlari xam o'ziga xos bo'lgan.

1943-yilda Pomirda to'rt oylik etnografik dala tadqiqotlari davomida uning ishtirokchilari Xuf, Rushon, Shug'nonda bo'lib, u yerda turli hunarmandchilik buyumlari, Badaxshon qurollari (jami 350 dona)¹ kolleksiyasini to'plashdi. Ushbu eksponatlarning bir qismi (174 ta buyum)² olim tomonidan 1929-yilda Xuf vodiysidan olib kelingan asl buyumlar (126 ta buyum) bilan birga Tojikiston Fanlar akademiyasi Etnografiya muzeyining tashkil etilishiga asos bo'lib xizmat qilgan M.S. Andreyev nomi bilan bog'lanadi.

Olim 1947-yilda Dushanbega ko'chib kelganidan so'ng, atoqli tojik sharqshunosi akademik B.G'ofurovning yordami va moliyaviy ko'magida "Xuf vodiysi tojiklari" monografiyasining yangi tahririni, jumladan, 1943-yildagi materiallarni tayyorlashni muvaffaqiyatli yakunladi. Ekspedisiya A.K.Pisarchikning fikricha, muallifning o'zi monografiyasining ikkinchi sonini tayyorlashni yakunlay olmagani uchun uning turli bo'limlaridagi taqdimot xarakteri bir xil emas. Kitob ikki qismga bo'lingan: M. S. Andreyevning matni va o'ziga tegishli eslatmalar, qo'shimchalar. Ammo bu muharrirlari ta'kidlaganidek, M.S. Andreyevning hujjatli tabiati bilan qoplendi.

M. S. Andreyevning shaxsiy fondidan olingan 1929-1943 yildagi fotosuratlar, chizmalar va rejalar uning "Xuf vodiysi tojiklari" kitoblariga (mualliflar O. Orestov, T. V. Saglina, A. D. Starodubova)¹ rasm sifatida xizmat qilgan.

¹ Подробно см. Писарчик А. К. Этнографическая наука в Таджикистане. – С. 24

² Васитова Н. Вклад М. С. Андреева в музееведение Таджикистана. // Научный вклад М. С. Андреева в изучение истории и этнографии таджикского народа. // Материалы международной научнопрактической конференции. 22 октября 2013 г. / Под общ. ред. Р. М. Масова. Редакторы составители: Л. Додхудоева и В. Дубовицкий. – Душанбе, 2014.

¹ ИИАЭ АН РТ. Фонд М. С. Андреева. Опись №1, ед. хр. №109

Bu materiallar O'rta Osiyoning noyob merosini, birinchi navbatda, Xuf vodiysi etnologiyasini o'rganishda muhim manba bo'lib, u deyarli yarim asr davomida (1901 yildan to 1948 yil umrining so'nggi kunigacha) o'rgangan.

Xulosa qilib aytganda, Andreyev Xuf vodiysi aholisi, tojiklarni o'rganishda xilma-xil manbalardan va usullardan foydalangan. U mashhur etnograflar: L. Morgan, N.N.Mikluxo-Moklay, V. G. Bogarez qatoriga qo'shsa bo'ladi. Olimning ilmiy merosi xuftiyalar haqida ularning turmush tarzi, urf-odat va marosimlari umumiy qilib aytganda, etnografiya fanida ahamiyati beqiyos. Mixail Stepanovich Andreyevdan boy etnografik materiallar, qiziqarli yozma manbalar, haqiqiy nodir durdonalar qoldi, deb ayta olamiz.

Adabiyotlar

1. М. С. Андреев. О собранном мною в разное время (начиная с конца XIX ст. по 1942 г. материале по языку и быту народов Средней Азии, до сих пор еще не изданном и б. ч. не подготовленном к изданию. ИИАЭ АН РТ. Описание №1, ед. хр. 81. – С
2. Андреев М. С. Таджики долины Хуф. Вып. 1. – С. 6, 243; Вып. 2. – С. 277
3. Васитова Н. Вклад М. С. Андреева в музееведение Таджикистана. // Научный вклад М. С. Андреева в изучение истории и этнографии таджикского народа.// Материалы международной научнопрактической конференции. 22 октября 2013 г. / Под общ. ред. Р. М. Масова. Редакторы составители: Л. Додхудоева и В. Дубовицкий. – Душанбе, 2014.
4. ИИАЭ АН РТ. Фонд М. С. Андреева. Описание №1, ед. хр. №109
5. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-e/etnografiya-uz/>

BUXORO YAHUDIYLARINING MILLIY OSHXONASI

A.H.Boltayev,

BuxDUM t.f.f.d.(PhD)

M.M.Rasulova,

Etnografiya ,etnologiya va

Antropologiya mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya:Ushbu maqolada Buxoro yahudiylarining milliy oshxonasi o'ziga xosligi,ba'zi tansiq va marosimiy taomlari tayyorlanishi etnografik nuqtayi nazaridan o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Kashrut qoidalari, baxsh, sirkaniz, mo'ysargiron, Gavorrabandon, Yom kipur,diaspora.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo turli xil millat va elatlar vatani.Bular orasida an'analari,urf-odatlari,turmush tarzining o'ziga xosligi bilan Buxoro yahudiylari ajralib turadi.Mana shu o'ziga xoslik yahudiylar milliy oshxonasi taomlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Buxoro yahudiylarining oshxonasi tahsinga loyiq.Ularning milliy oshxonasida 200ga yaqin taomlar tayyorlanadi.Bular orasida eng mashhurlari quyidagilar: baxsh (“yashil palov”),sirkaniz(sarimsoq guruchli taom),xalta savo(xaltada pishiralidigan palov),boyjon(faqat tuz va sarimsoq bilan aralashtirilgan baqlajon pyuresi),oshi piyozi,noni toki va boshqalar kiradi. ¹

Buxoro yahudiylarining oshpazlik urf-odatlari qadimgi davrlarga borib taqaladi va u asosiy oziq-ovqat qonuni Kashrutga asoslanadi. Shu o'rinda kashrut tushunchasiga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Kashrut yoki Kosher atamasi ibroniy tilidan olingan bo'lib "kosher"," mos " degan ma'noni anglatadi.Bu atama yahudiylarning qat'iy qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan har bir taomga nisbatan ishlatiladi.Yahudiylar iste'mol qilishga ruxsat berilgan taomni

¹ Ручаевский Ф. Бухарская кухня, или рис в мешке //Лехаим. Нисан 2013. 5773-4(252)

Kosher deb atashadi. Hatto o'z ota-bobolari vatanida bo'lmagan yahudiylar ham "asoschi otalari"ning o'gitlariga qat'iy amal qiladilar. Masalan, sut va go'sht mutlaqo mos kelmaydigan ovqatlar bo'lib, yahudiylarga ham ularni aralashtirish qat'iy man etiladi. Kosher taomlari ko'p jihatdan alohida va sog'lom ovqatlanishning umumiy qabul qilingan tushunchalariga mos keladi.

Yahudiylar oshxonasida guruchli taomlardan palov ayniqsa palov ko'p iste'mol qilishadi. Oshi baxsh haqiqatan ham o'ziga xos taomdir. Baxsh, shuningdek, yashil palov deyiladi - u o'tlar, asosan kashnich bilan tayyorlangan. Baxsh taomi ham oilaviy, ham diniy taomlar ro'yhatiga kiradi. Jumladan:

- gavorabandon (bolaning beshikda belanishi marosimida);
- mo'ysargiron (chaqaloqning birinchi sochini olish marosimida);
- bolaning diniy voyaga etishi (13 yosh) va to'y va dafn marosimlari uchun bu taom maxsus pishiriladi.

Baxsh ikki usulda tayyorlanadi. Biri maxsus, zig'ir xaltalaridan foydalanish yo'li bilan tayyorlanadigan bayramona shakli bo'lib, suvda qaynatilganligi uchun parhez taom hisoblanadi. Ikkinchisi esa har kunlik baxsh palovi bo'lib, uni deyarli har qanday palov kabi qozonda pishiradilar.¹

Tayyorlanishi 1x1 sm kub shaklida kesilgan go'sht qizdirilgan yog'da yaxshilab qovuriladi. Shuningdek, oldindan tayyorlangan jigar, go'sht qo'shiladi va hamma narsa aralashtiriladi. Go'shtga yarim halqalarga kesilgan piyoz va mayda tug'ralgan kashnichni qo'shish kerak. Har bir narsani aralashtirib va ustidan suv quyiladi. Past olovda qaynatiladi. Zirvak qancha uzoq pishirilsa, shunchalik mazali bo'ladi. Oldindan ivitib qo'yilgan guruch zirvakka qo'shiladi va bir oz suv, tuz solinadi va balandroq olovda qaynatiladi.

Buxoro yahudiy oshxonasining mashhur taomi sirkaniz ham baxsh taomiga o'xshab ketadi. Ammo biroz farqli tomonlari ham bor. Tayyorlash jarayonida

¹ Владимир Месамед., Татьяна Емельяненко., Роман Гершуни., Бухарские евреи. История, этнография, кухня Москва 2012.-С. 57-58

no'xatni bir kun oldin ivitib qo'yiladi va deyarli pishganicha qaynatib olinadi. Piyozni mayda to'g'rab, yog'ga qovuriladi va go'sht bo'laklarini ustiga terib, ular o'rta olovda qovuriladi. Qaynatilgan no'xatni qo'shib, bir stakan suv quyiladi va pishirishda davom ettiriladi. Sabzi solingach zirvak tayyor bo'ladi va guruch qozonga solinadi. Guruchni yopish uchun qaynoq suv quyiladi. Qozondagi hamma narsani aralashtirib, yuqori olovda qaynatib olinadi. Qaynagandan so'ng esa olovni biroz pasaytirib, 25 daqiqaga dimlab qo'yiladi.¹

Buxoro yahudiylarining oq tovuqdan pishiriladigan palovi - bu palov murg'i deb nomlangan (murg'i sefet - oq tovuq), bu tovuqning oq ranglisidan pishirilgani uchun mahalliy shevada “ murg'i safed xuri” deb ataladi. Bu taom maxsus Yom Kipur (poklanish kuni) bayrami uchun qilingan.² Oq rangli tovuqqa poklanish va qayg'udan xalos bo'lish ramzi sifatida qaralgan. Bundan tashqari ikkinchi jihati,

Sharqning ko'plab xalqlari orasida tovuq qurbonlik uchun so'yilgan.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro yahudiylari milliy oshxonasi o'zining qadimiyligi, milliyliigi va o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu esa “mayda millat”, “diaspora” deb tan olingan yahudiylar o'z milliy qadriyatlarini vaqt to'lqinlaridan asrab-avaylab, benuqson saqlab qolish imkoniyati mavjudligidan guvohlik beradi. Shuning uchun ham Buxoro yahudiylari milliy oshxonasi tahsinga loyiq deb bemalol ayta olamiz.

Adabiyotlar

1. Ручаевский Ф. Бухарская кухня, или рис в мешке //Лехаим. Нисан 2013. 5773-4(252)
2. Владимир Месамед Татьяна Емельяненко Роман Гершуни. Бухарские евреи Истори я, этнография, кухня. Москва 2012 г.
3. Емельяненко 2007 – Емельяненко Т.Г. Традиционная утварь для ритуальной пицци бухар-

¹ Ручаевский Ф. Бухарская кухня, или рис в мешке //Лехаим. Нисан 2013. 5773-4(252)

² <https://uz.eferrit.com/yom-kippur-nima/>

ских евреев// Питание в культуре этноса: Матер. Шестых Санкт-Петербургских этнографических чтений. СПб., 2007. С. 154–158.

4.Этнография питания 1981 – Этнография питания народов стран зарубежной Азии. М.: На-ука, 1981.

5. <https://uz.eferrit.com/yom-kippur-nima/>

LEV NIKOLAYEVICH GUMILYOVNING ETNOGRAFIK TADQIQOTI

M.B.Qurbonova

BuxDU, t.f.n., dotsent

F.Y. Yuldosheva

Etnografiya, Etnologiya va antropologiya

Mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Turkiy xalqlarning kelib chiqishi va tarixi ustida ko'plab olimlar o'z ilmiy izlanishlarini olib borganlar shulardan biri Lev Nikolayevich Gumilyovdir. Ushbu maqolada L.N. Gumilyovning hayot yo'li, ilmiy izlanishlari va "Qadimgi turklar" asari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'z: turkolog, xoqonlik, tarjimon, tarixiy-etnografik bilimlar, etnolog

Tariximizning oltin sahifalarida o'z nomi bilan shuhrat topgan olimlar, tarixiy shaxslar ko'pchilikni tashkil qiladi. Ular orasida taniqli etnolog, turkolog, tarix fanlari doktori, professor, Rossiya tabiiy fanlar akademiyasi a'zosi Lev Nikolayevich Gumilyovning o'rni beqiyos. Olim murakkab hayot va ijod yo'lini boshidan kechirgan.

L.N Gumilyov 1912yil 1 oktabrda, Sankt-Peterburgning Sarskoye-Selo shahrida "Ikki taniqli rus shoiri Nikolay Gumilyov va Anna Axmatova oilasida dunyoga keladi.

Olimning otasini to'liq ism, sharifi Gumilyov Nikolay Stepanovich (1886-1921 yy) rus shoiri, adabiyotshunos, tarjimon edi. U 1908-yilda Anna Axmatovaga bag'ishlab "Romantik gullar" nomli to'plam nashr ettiradi. Bu kitob Nikolay Gumilyov ijodiga asos solgan.

L.N Gumilyovning onasi Anna Andreyevna Axmatova (haqiqiy familiyasi Gorenko) 1889yil 11iyundaOdessada tavallud topgan.U ona tomondan tatar xoni Axmat xonga borib taqaladi.(taxallusi ham shundan)

L.N Gumilyovning ilmga bo'lgan tashnaligi ayniqsa, turkiylar tarixiga bo'lgan qiziqishi (onasi tomirida turkiy qon bo'lganligi ta'sirida bo'lsa kerak), uzoq va mashaqqatli mehnat-u izlanishlar Lev Gumilyov nomini dunyo ilm ahli tomonidan tan olingan zukko tarixshunos timsoliga aylantirdi Anna Axmatova O'zbekistonga ham tashrif buyurgan. Ikkinchi jahon urushi davrida Toshkentga ko'chib kelgan va bu yerda ikki yarim yil yashagan.Uni bu davrda shu zaminga bag'ishlab yozgan she'rlarida sharq nafasi barq urib turadi.¹

Aytib bo'lmas kuchning azmi, amri-la

Shahar birdaniga nurlanib ketdi.

Har bitta sevinch, sabr-ila

Eng oppoq,yeng yengil xayollar yetdi...²

Lev Nikolayevich Gumilyov hayoti davomida ko'p qiyinchiliklarga uchragan. Otasi 1921-yilda aksilinqilobiy isyon tayyorlashda ayblanib, sho'ro tuzumi tomonidan qatl etilgan. Bu narsa bo'lajak olimning hayoti va faoliyatiga ta'sir etmay qolmadi. U dastlab 1938yilning martidan 1943yilning martigacha siyosiy mahbuslar lagerida saqlanadi, keyinchalik 1950yilda 10 yilga ozodlikdan mahrum etilib, 1956yilda Stalin shaxsini qoralagan XX sezddan keyin u oqlanib ozod etiladi.

Biroq, Lev Gumilyov qamoqda yotgan vaqtlarida ham ilmiy izlanishlardan to'xtamaydi 1938-1959 yillar oralig'ida o'z tadqiqotlarini davom ettirdi.1948yil 28dekabrda “ Birinchi turk xoqonligini siyosiy tarixi.VI-VIII asrlari” mavzusida

¹ Manba:<https://kh-davron.uz/kutubxona/lev-gumilyov-qadimgi-turklar-turkutlar-tarixining-boshlanishi.html>

² Ойгул Суюндиқова таржимаси «Гуллаётган Тошкент» <https://ziyouz.uz/jahon-sheriyati/rus> sheriyati/anna-ahmatova/

nomzodlik dissertasiyasini himoya qilgan edi.1961-yil noyabrda esa “Qadimgi turklar” mavzusida doktorlik dissertasiyasini himoya qilgan.³

“Qadimgi turklar” asarida turk nomi va bu nomning Osiyo bo‘ylab tarqalganligi haqida ta’kidlangan. Arablar So‘g‘ddan shimoldagi jangari ko‘chmanchilarning barchasini turk deb atay boshladilar, ular esa bu nomni qabul qildilar. Zotan, turk nomining dastlabki egalari yer yuzidan yo‘qolib ketmasidan burun barcha dasht qavmlari uchun jasorat va qahramonlikning bir namunasi bo‘lib qolgan edilar.VI-VII asrlardagi buyuk Turk xoqonligi hududiga hech vaqt kirmagan ko‘plab qavmlar ham turklarga aylanib qoldilar.¹

Lev Gumilyovning turkiylar tarixiga oid ilmiy izlanishlari natijasida «История народа Хунну», «Хунну в Китае», «Древние тюрки», «Поиски вымышленного царства», «Древняя Русь и Великая степь», «Старобурятская живопись», «Открытие Хазарии», «Тысячелетие вокруг Каспия», «Черная легенда», «Синхрония», «Конец и вновь начало» kitoblari va sonsiz ilmiy maqolalari dunyo yuzini ko‘radi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, L.N Gumilyovning “Qadimgi Turklar” asari XX asrning ikkinchi yarmida Yevropa olimlarini ham qiziqtirgan asar sifatida dunyo yuzini ko‘rgan.

L.N Gumilyovning deyarli har bir asarida turkiy xalqlar haqida ma’lumot uchraydi. Xususan, VII-VIII asrlarda Xazarlarga Kavkaz orqali arablar xujum qiladi. Bu urushda turklar ularga yordam beradi. Aynan ular O‘rta Osiyoda birinchi bo‘lib uzun dasta xanjarni o‘zlashtirdilar.² L.N.Gumilyovga (turli geografik,biologik,zoologik, tarixiy-etnografik bilimlarni) sintez qila olish qobiliyatini xudo bergan”: deb yozgan edi atoqli ustoz Artamanov

Xulosa qilib aytganda, L.N Gumilyov o‘zining murakkab hayot yo‘lida ilmiy izlanishlardan to‘xtamagan. Etnograf olim sifatida ko‘plab asarlari orasida

³ Манба: Л.Н Гумилёв Корни нашево родства//Труд.1988

¹ .L.N.Gumiyov “Қадимги Турклар” Т..”Фан” нашрети 2007 Б.10

² Л.Н Гумилёв “ От Руси до России” “Фирма СТД” 2016г. С.31

kunda ham ahamiyatlisi hisoblangan , turkiy xalqlar haqidagi ” Qadimgi turklar” asari chekkan mashaqqatlari mahsulidir. Shuning uchun ham, L.N.Gumilyovning turkiy xalqlar tarixini o’rganish sohasidagi mehnatlarini qadrlab, bugungi kunda Yevroosiyo Milliy Universitetiga L.N Gumilyov nomi berildi.

Adabiyotlar:

1. Manba:[https://kh-davron.uz/kutubxona/lev-gumilyov-qadimgi turklar-turkutlar-tarixining-boshlanishi.html](https://kh-davron.uz/kutubxona/lev-gumilyov-qadimgi-turklar-turkutlar-tarixining-boshlanishi.html)
2. Manba: <https://ziyouz.uz/jahon-sheriyati/rus> sheriyati/anna-ahmatova/
3. Gumilyov L.N “Корни нашево родства” //Труд.1988 12 апреля.
- 4.Gumilyov L.N “Қадимги Турклар” Т..”Фан” нашрети 2007 Б.10
5. Гумилёв Л.Н “ От Руси до России” “Фирма СТД” 2016г.,- С.31.

XX ASR BOSHLARIDA BUXORODA TIBBIYOT SOHASIDAGI O’ZGARISHLAR

D.M. Jamolova

BuxDU, Buxoro tarixi

kafedrasi dotsenti t.t.f.d(PhD)

M.D.Qurbonov ,

BuxDU Buxoro tarixi

kafedrasi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asr boshlarida Buxoro amirligida tibbiyot sohasida yuz bergan o’zgarishlar va ularning ahamiyati haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Tabobat, tabib, sog'likni saqlash, vrachlar, dorixona

Aholi sog’ligini muhofaza qilish xizmatini har tomonlama rivojlantirish jamiyat tarqqiyotining eng muhim sharti va ijtimoiy rivojlanish darajasining integrallashgan ko’rsatgichidir. Buxoro amirligida mang’itlar sulolasi hukmronligi davrida tabobat va tibbiy xizmatdan foydalanish holati o’rganilganda hozirgi kundagi tarixiy o’zgarishlarni yaxshiroq tushunish va baho berish mumkin bo’ladi.

Buxoro amirligi imperiya vassaliga aylantirilgandan keyin asosan amirlikning markaziy shaharlarida, shuningdek, ruslar tomomidan tashkil qilingan maskanlarda tibbiyot ancha rivojlandi²⁷⁹. Bu o'zgarishlar hududda diniy mutaassiblikning kuchliligi va musulmonlar orasida yangilikka qarshi chiqishiga sabab bo'ldi. Bunday holatlarning oldini olish uchun Rossiya imperiyasining Buxorodagi siyosiy agenti tomonidan sog'likni saqlash borasida chora tadbirlarni ko'rish va aholi orasida tushuntish ishlarini olib borib yangi vrachlik punktlari va dorixonalar qurish ishlari amalga oshirildi. Bu o'z o'rnida ham ijobiy o'zgarishlarga, ham salbiy oqibatlariga olib kelid. Ijobiy tomoni shundaki, bu holat hududda shifoxonlar sonining ko'payishiga, aholi salomatligiga alohida e'tibor berishga, dorixonalarning ochilishi bilan dori vositalarining kirib kelishiga olib kelgan bo'lsa, muammoning salbiy jihati shundaki, davr talabi va mamlakatda hukm surayotgan muhitni inobatga olganda Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati, oddiy fuqarolarning mahalliy tildan boshqa tillarni bilmasligi, boshqa xalqlarga nisbatan ishonchsizlik natijasida bunday imkoniyatlardan foydalanishning iloji yo'q edi. Shu sababli quriladigan inshootlarning barchasi yangi vujudga kelgan rus shaharlari yoki manzilgohlarida joylashtirildi. Keyinchalik ko'pgina mahalliy sarmoyadorlar tomonidan shaxsiy klinikalar va dorixonalarning ochilishi, o'lkada tarqalgan turli kasalliklarning oldini olish maqsadida hukumatning tibbiyot sohasiga e'tibor berishiga majbur bo'lishi bilan aholi orasida tibbiy yordamga ehtiyoj ma'lum ma'noda qondirila boshlandi. Endilikda barcha dori vositalari Rossidan olib kelinadigan bo'ldi. Rossiya hukumati tomonidan ishlab chiqilgan maxsus nizomga muvofiq amirlik hududidagi mavjud bo'lgan va yangi quriladigan dorixonalar tibbiyot departamenti tomonidan yiliga uch marta tekshiruvdan o'tkazilgan. Dorixonalar faoliyat ko'rsatgan paytda qilngan nojo'ya hatti-harakatlar natijasida kelib chiqqan zararlarning barchasi Buxoro hukumati tomidan qoplangan. Amirlik hududida xususiy dorixona ochish uchun:

²⁷⁹ Feruza Amonova. Buxoro amirligi iqtisodiyotiga tarixiy nazar. – Toshkent: "YANGI NASHR", 2015.B-9.

- Amirlikning mahalliy aholi yashaydigan hududlarida dorixonalar ochishga talabgor shaxslar yevropa millatiga mansub, shu bilan birga Rossiya Universiteti diplomiga ega bo'lgan vrachlar bo'lishi lozim.

- Ochilishi ko'zda tutilgan dorixonalar atrofida mahalliy aholidan tashqari kelib chiqishi yevropa millatiga mansub bo'lgan aholi istiqomat qilishlari shart²⁸⁰

- Amirlikdagi yangi rus manzilgohlarida dorixonalar ochishni xohlagan shaxslar siyosiy agentlik yoki Buxoro hukumatiga murojaat etib ruxsat olishlari mumkin.

Yangi Buxoro (hozirgi Kogon) shahrida birinchi rus kasalxonasi I.F.Penzyakov mudirligida 1891yilda o'z faoliyatini boshlagan. Buxoro amiri Abdullaxadxon XX asr boshida Buxoro shahrida rus va mahalliy shifoxonalar ochishni ta'sis etadi. Unga ko'ra yangi tashkil topgan shifoxonalarda yotib davolanuvchi bemorlarga turli yo'nalishlar bo'yicha tibbiy yordam ko'rsatilgan. Dastlabki yillarda 1 vrach va 2 feldsherning o'zi 32.430 bemorni tekshiruvdan o'tkazishiga to'g'ri kelgan. 1906-yilning 22 avgustida Rossiya ichki ishlar ministrining qaroriga binoan 7 ming doimiy aholiga bo'lgan hududda bitta dorixona ochishga ruxsat etilgan. 1913-yilga kelib Buxoroda maxsus ajratilgan yangi yerlarda dorixonalar qurish, temir yo'llar atrofida domiy vrachlik punktlarini tashkil qilish yo'lga qo'yilgan. 1915-yilda Eski Buxoroda Islom Taxmazovga tegishli xususiy dorixona o'z faoliyatini boshlagan. Tibbiyot departamenti tomonidan dorixonalar dori vositalari bilan ta'minlash borasida bir qancha islohotlar o'tkazilgan. Mulkchilik shakliga ko'ra Buxoro amirligi hududidagi tibbiyot muassalarini quyidagi tarzda ifodalash mumkin:

1. Idoraviy muassasalar (temir yo'l kasalxonalari, ilmiy tekshirish institutlari, tibbiyot sanitariya qismlari)
2. Tuman tasarrufidagi tibbiyot muassasalari
3. Eski shahar tasarrufidagi tibbiyot muassasalari

²⁸⁰ Feruza Amonova. Buxoro amirligi iqtisodiyotiga tarixiy nazar. – Toshkent: "YANGI NASHR", 2015.B-11.

4. Yangi shahar tasarrufidagi tibbiyot muassasalari.

Ma'lumki Buxoro shahrida 100 dan ortiq hovuzlar mavjud bo'lib aholi shu hovuzlar suvidan iste'mol qilgan. Ammo hovuzlar eskirgan va iflos suvini tozalash imkoniyati bo'lmagan²⁸¹. Buning natijasida shaharda turli yuqumli kasalliklardan biri rishta kasalligi ancha avj olishiga sabab bo'lgan. Manbalarda Mulla Ilyos Mahsum Husayn o'g'li tomonidan Buxoro shahri hovuzlaridagi antisanitariya holati to'g'risida gapirilib, shahardagi 86 ta hovuzning turli mikroblar makoni ekanligi ta'kidlangan. XX asr boshlarida Buxoro shahrida turli yuqumli kasalliklar keng tarqalgan. Masalan, 1918-yilda tepkili terlama (toshmali tif) kasalligi bilan o'lganlarning soni kundan-kunga ortib brogan. Buxoro hukumati bu kasallik bilan og'rigan bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatish, ularni dori-darmon vositalari bilan ta'minlash uchun 15 ming rubl miqdorida mablag' ajratilgan²⁸².

Xulosa qilib aytganda, XX asr boshlarida Buxoro amirligida ayollarga tibbiy yordam ko'rsatish borasida bir qancha ishlar amalga oshirilgan bo'lib, ayniqsa ayollar uchun zamonaviy tibbiy muassasa vujudga kelishi ijobiy hol bo'ldi. Shuningdek mahalliy ayollar an'anaviy tabobat bilan bir qatorda zamonaviy tibbiyot xizmatidan foydalanish imkoniyatiga ma'lum darajada ega bo'lgan edilar.

Adabiyotlar

1. Feruza Amonova. Buxoro amirligi iqtisodiyotiga tarixiy nazar. – Toshkent: “YANGI NASHR”, 2015. -119 b.
2. Ҳамроев М. Тиббиётми? Табобатми? // Шарқ табобати. – 2009. – №3
3. Мўминова Г. Халқ табобати тарихидан // Сихат-саломатлик. – 1999. – №1

²⁸¹ Ҳамроев М. Тиббиётми? Табобатми? // Шарқ табобати. – 2009. – №3. В-47.

²⁸² Мўминова Г. Халқ табобати тарихидан // Сихат-саломатлик. – 1999. – №1. В-67.

“HALQAI MUHAMMADI”. BUXORO SIRG‘ALARINING O‘RGANILISHI

M. I. Niyazova,

BuxDU, Buxoro tarixi Kafedrası

t.f.n., dotsent

Z. N. Sharipova

BuxDU Buxoro tarixi kafedrası magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisdá Buxoro zargarlik san’ati va uning namunalari haqida fikr yuritilgan. Xususan, “Xalqai Muhammadi” sirg’asi, uning turlari, yasalishi va tarixi haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so’zlar: halqa, shibirma, baldoq, sepoya, panjpoya, nard, kiriyo, ilon-zirak, murg’ak-zirak

Zargarlik hunari eng nafis san’at turlaridan biridir. Ma’lumki, o‘zbek zargarlik san’atining ildizi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Miloddan avvalgi VI-III ming yillikdan (tosh asridan) bizning davrgacha zargarlik san’ati namunalari ko‘plab topilgan. Buxoro zargarlik namunalari Zarafshon vohasida keyingi 50 yil mobaynida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida Zamonbobo va Quyimozor va boshqa manzilgohlarda uchraydi. Qadimshunoslar ibtidoiy davrga oid ayollar bezaklarini qo‘rg‘on-qabrlarni tadqiq qilganda topishgan. O‘sha davrning zargarlik namunalari tosh, sopol, chig‘anoq, suyak va shoxlardan yasalgan munchoq va tumorlar ko‘rinishida bo‘lgan. Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasining Arxeologiya ko‘rgazmasida bu davrga mansub ashyoviy yodgorliklar namoyishga qo‘yilgan[1, B.22].

Buxoro xalqi azaldan zargarlik buyumlariga alohida e’tibor berganligi bizga ma’lum. Bunday buyumlar nafaqat go‘zallik, balki salomatlikni yaxshilovchi va yomon ko‘zlardan saqlovchi vosita sifatida qo‘llanilib kelingan. Zargarlik buyumlarining turlari xilma-xil bo‘lib, ulardan yosh va jinsga qarab foydalanishgan. Bulardan: bosh va burunga taqiladigan taqinchoqlar; ko‘krak, bo‘yin, yelkaga taqiladigan bezak buyumlari va taqinchoqlar; tananing bel qismiga

o‘rab taqiladigan taqinchoqlar va qo‘l taqinchoqlari va boshqalar [2, B. 33]. Bunday buyumlar orasida nafaqat to‘y-marosimlarda, balki kundalik hayotda taqiladigan taqinchoqlar – sirg‘alar alohida o‘rin egallaydi. Sirg‘alarning oddiy ixchamdan to murakkab og‘irlikdagi turlarigacha mavjud. Qadimgi davrning o‘ziga to‘q oila vakilalari sanalgan ayollar zargarlik buyumlarini ko‘z-ko‘z etib, bir vaqtning o‘zida bir necha juft halqa taqib yurishgan. Ularning og‘irigidan quloq teshigi yirtilgan. Shuning uchun eng og‘ir sirg‘alarga ortiqcha oro bermay tasmaga ulab, bosh qismiga o‘tkazilib taqilgan. Xalqali sirg‘alar, xuddi isirg‘a baldoq ma‘nosini anglatganday, ularning umumiy nomi “*isirg‘a*” (turkcha), “*halqa*” (tojikcha) deb atalgan. Bundan tashqari, turli xil xususiyatlar bilan aniqlangan sirg‘alarning ko‘plab nomlari mavjud. Ularning Toshkent, Buxoro, Samarqand kabi mahalliy turlari bo‘lib, Buxoroda “shibirma”, “baldoq”, “uy isirg‘a”, “qoziq isirg‘a”, Toshkentda “zirak”, Samarqandda “bargak”, Farg‘onada esa “baldoq”, “qashqarbaldoq” deb ataluvchi turlari keng tarqalgan. Sirg‘alarning ilmoqlari soniga ko‘ra 3,5,7 tagacha bo‘lib, ular oyoqchalar deb atalib: “uch oyoq” – uch oyoqli (*sepoya*), “besh oyoq” – besh oyoqli (*panjpoya*) bo‘lgan. Sirg‘alar bir-biridan ko‘zchalari bilan farq qilib, bu qo‘ng‘iroqli, ya‘ni, uzumning “xonim barmoqlari”ni eslatuvchi va yarimoy ko‘rinishidagi zirak bo‘lgan.

Eng oddiy “halqa” qishloq aholisi va kambag‘allar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, oddiy aylana sim shaklida bo‘lib, pastki yarim qismidan spiral ko‘rinishida nafis, silliq o‘ralgan. Bu turdagi katta halqalar bronza yoki kumush simli ko‘rinishida bo‘lib, eramizdan avvalgi I ming yillikning o‘rtalarida Farg‘ona vodiysida paydo bo‘lgan. Bu murakkab ko‘rinishdagi aylanalardan munchoqlar o‘tkazilib, ko‘proq marjonlar yoki ichi kovakli kumush, yon tomonlarida esa donli halqachalar (zig‘rak) va o‘ramli naychalar o‘tkazilgan. Ba‘zida bu ko‘rinishdagi halqalar “ilon-zirak” (“sergi-zmeyki”), ya‘ni ilon ko‘rinishida bo‘lgan. XIX asr oxiri – XXasrning boshlarida Toshkent ustalari aylana ko‘rinishidagi halqalar tayyorlab, pastki ikki yon tomonlarini bir-biriga ulab yasaganlar. Uning qadimiy ramziy ma‘nosi faqat “murg‘ak-zirak” (sergi-ptitsa) nomida saqlanib qolgan.

Shunday qilib, tasviriylikning o'zgartirilgan qoldiqlarini butunlay yo'qotgan zargarlik buyumlarida ham ularning tabiatning haqiqiy tasvirlari bilan aloqasi saqlanib qolgan. Hashamdor sirg'alarining pastki qismida ikki nuqtasini birlashtiruvchi to'g'ri chiziqli sim orqali turli xil munchoqlar joylashtirilgan bo'lib, pastki qismining o'rtasida asosan yirik va chiroyli munchoq joylashtirilib, birin-ketin qizil va yashil ranglilari uyg'unlashtirib terilgan. Ikki yon tomonlariga nafis kumushdan zig'rak va ichi kovak munchoqlar joylashtirilgan. Ikki tomonini halqali sim bir-biriga tutashtirib, uning o'tish simlarining oxiri o'ramaga (spiral) bilan tugatiladi. [3,B. 118]

Buxoro zargarlari zirak tayyorlash jarayonida turli xil shakllardan foydalanganlar. "Xalqai Muhammadi", "Shibirma", "Xolak", "Uy isirg'a", "Xalqai marjon", "Baldoq" nomli sirg'alar azaldan to hozirgi kungacha xalqimiz e'tirof etgan xillaridan hisoblanadi. Ularning orasida yasaliş uslubii hamda shaklu-shamoyili bilan diqqatni tortadigani "Xalqai Muhammadi" ziragidir. Hattoki amir oilasidan bo'lgan ayollar ham "Xalqai Muhammadi"ni xush ko'rib taqishgan. Bu halqa olimlar tomonidan bir necha marotaba o'rganilgan. Ushbu maqolani yozishdan maqsad ham olimlar tomonidan o'rganilgan Buxoro halqalarining muzey fondlarida saqlanayotgan turlari misolida tadqiq qilishdan iborat.

Ushbu zirakning nomlanishi haqida Buxoro zargarlari orasida turli xil fikrlar mavjud: Ba'zi zargarlar usta Muhammad nomiga qo'yilgan deyishsa[4, S118], boshqa birlari payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) ning muborak nomlariga atalgan deya ta'kidlashadi. [5]

Buxoro zargarlari "Xalqai Muhammadi"ni yasashda asosan oltin, kumush va misdan foydalanganlar. Yosh qizlar uchun oltin miqdori kamroq, taxminan 2-3 gramm atrofida bo'lgan kichik hajmli ziraklar yasashgan bo'lsa, katta yoshdagi qizlar hamda ayollar uchun esa bu miqdor 5-7 grammni tashkil qilgan.

Ustalar bu turdagi halqalarni simdan ajratilmagan holda tayyorlashgan. Bosh qismi *nard* hisoblanadi va u yarim doira shaklda olinib, 7mm o'lchamga ega bo'ladi. Nard qismini yasash uchun "*kiriyo*" (zargarlik asbobi – har xil diametrdagi

teshiklar bilan temir to'rtburchak plastinka) yordamida tobora kichrayib boruvchi teshiklardan *nard* qismi qalinligi hosil bo'lguncha tortib oladi. Shundan so'ng hosil bo'lgan *nard* qalinligidagi uzun simga *nard* uzunligini belgilaydi. Belgilangan joydan boshlab keyingi pastki qismini *kiriyo* yordamida yanada ingichka shaklga keltiriladi. Sababi toshning ichidan sim bemalol o'tkazadigan darajada mayin bo'lishi kerak. Shu mayin qismidan qimmatbaho toshlar marvarid, zig'arak, qizil la'l, marvarid o'tkaziladi. So'ngra halqadan 3 qatorli ilgak hosil qilinib, shu ilgakda 4 qatorli *xo'yi* (belbog') o'raladi. Halqaning ustki qismiga takroran shu toshlarning mayda hajmli toshlar o'tkazilib, oxirgi qismida 5 qatorli *xo'yi* (belbog') bilan o'raladi.

Sim oval shaklida bir-biriga qarshi tomoniga tortiladi va *xo'yi* bezagi bilan (8-10 qator) o'raladi. Halqa shakli tayyor bo'lganidan keyin pastki qismiga toshlar teriladi. Toshlarini joyida ushlashi uchun *xo'yi* bezagi bilan o'raladi. O'ralgandan keyin sim qirqib olinadi. Shu tariqa halqa tayyor bo'ladi va zargarlik do'konlariga sotuvga qo'yiladi.

Bu o'rinda Abu Rayhon Beruniyning mashhur "Mineralogiya" asarining o'rni alohida ahamiyatga ega. Bu asarda 30 dan ortiq qimmatbaho toshlar va minerallarning nomlari, ularning kimyoviy va fizik xossalarini aniqlash, eritib sinash, konlardagi mavjud deyarli hamma qimmatbaho toshlar va turli ma'danlar, ularning qotishmalari haqida ilmiy ma'lumotlar bayon etilgan. [6, B. 327-328]

Boshqa vohalarda shu nomli halqa haqida fikrlar keltirilgan. Masalan Surxon vohasida aylana yoki bodomsimon sirg'alar mavjud bo'lib, "halqai muhammadi sirg'a" deb nomlangan. "Muhammadi" sirg'aning toq sonli osilchoqlari bo'lgan, ularning soniga qarab *sepoya*-(tojikcha); "uch oyoqli", *yozda poya*-(tojikcha)"o'n bir oyoqli" kabi turlari bo'lgan. Vohada *no'poya* – "to'qqiz oyoqli" Muhammadi sirg'adan asosan boy xonadon ayollari foydalanishgan, bu sirg'ani voha ayollari Bibi Fotimaning sirg'asi sifatida muqaddas deb bilganlar[7, B. 267].

“Yer yuzida birgina bo‘lsa-da ayol zoti bor ekan, zargarining san’ati o‘lmaydi” degan maqol zargarlarga berilgan yuksak bahodir. Zargarlik kasbini egallagan ustalar o‘z mahoratini, iste’dodini birinchi bo‘lib tug‘ilib o‘sgan yurtiga, keyin esa butun olamga namoyish qilishgan. Insoniyat tug‘ilibdiki, ijtimoiy hayotda kerakli amalda qo‘llanadigan barcha buyumlarni o‘z aqli va qo‘l mahoratiga tayangan holda yaratib kelgan. Borgan sari bu buyumlarga estetik jihatdan bezaklar berib san’at darajasidagi amaliy bezak asarlarini yaratganlar.

Xulosa qilib aytganda, “Xalqai Muhammadi”ning yasalish uslubiga nazar soladigan bo‘lsak, yaxlit metall simga mahorat bilan o‘rnatilgan toshlar va bezaklar, hech qanday kavsharlashsiz mohirona joylashtirilganki, inson qo‘llari va ilmu tafakkurining yuksak darajada komillikka erishganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Ya’ni zargarlar tilida aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak “*nard*” qismidan to yaxlit ko‘rinishiga qadar bir butunlikni tashkil qiladi. “Xalqai Muhammadi”ning boshqa ziraklardan ajralib turish jihati ham shundadir.

Adabiyotlar

1. Jumayev Q. Buxoro an’naviy zargarlik san’ati.//Buxoro mavjlari.№4. 2004. B-22.
2. Borozna N.G. Виды женских ювелирных украшений у народов Средней Азии и Казахстана // SE. M., 1974. №1. S. 33
3. Faxretdinova D.A., YUvelirnoe isskusstvo Uzbekistana. S-118
4. Dala tadqiqoti. Hasanov Ashur usto zargar. 2021 y.
5. Abu Rayxon Beruniy. Mineralogiya. T.:2017. B-327-328.
6. Javliyeva M. Surxon vohasi taqinchoqlari. Jahon sivilizatsiyasida Boysunning moddiy va ma’naviy madaniyati mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2019 y. B-267.

**BUXORO VILOYAT TURKMAN MILLIY MADANIY MARKAZI
FAOLIYATI**

F.H.Bobojonova

BuxDU, Buxoro tarixi kafedراسi

dotsenti, t.f.n.

N.N.Sodiqova,

BuxDU, Tarix va madaniy meros fakulteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi Buxoro viloyatidagi Turkman milliy-madaniy markazi faoliyati, viloyatimizda madaniy-markazlarga berilayotgan e'tibor, yaratilayotgan shart-sharoitlar haqida fikr yuritilgan. Turkman xalqining milliy urf-odat va an'analari, o'ziga xos xususiyatlari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Xalqlar do'stligi kuni, "Do'stlik uyi", axaltekin otlari, kul, to'g'rama, gilam, "ro'mol bog'ladi".

Buxoro tamaddun va turfa madaniyatlar kesishgan chorrahada joylashgan. Binobarin, mamlakatimiz miqyosida, shu jumladan, 30 dan ziyod millat va elat vakillari istiqomat qiladigan Buxoro viloyatidagi totuvlik ana shu birdamlikdan so'zlaydi. O'zbekistonda 30-iyulning "Xalqlar do'stligi kuni" etib belgilangani bugun har bir xalq, har bir millat qadriyatlari ulug'lanib, fuqarolarga milliy va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar teng tarzda turmush, mehnat sharoiti yaratilishi, bir so'z bilan aytganda, barqaror rivojlanish borasidagi maqsadlarimizning amalga oshishi uchun o'ta muhim tayanch mezon bo'lib xizmat qiladi.²⁸³

O'zbek xalqi azaldan millatlararo totuvlik, bag'rikenglik, yaqin qo'shnichilik munosabatlarini eng asosiy qadriyat sifatida baholab kelgan. Bu haqida gap borar ekan, so'nggi besh yil ichida O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi o'zaro do'stlik aloqalarining yanada mustahkamlanganini e'tirof etmay iloji yo'q. Azaldan bir daryodan suv ichgan ikki xalqning madaniyati, urf-odatlarini,

²⁸³ Sulaymonov Sh. Millatlararo do'stlik va bag'rikenglik namunasi. / Buxoronoma 2021-yil 4-avgust №60.

qadriyatlari ham shu qadar mushtarakki, ularning hamjihatligi ezgu maqsadlar ro'yobiga ham xizmat qiladi. Bugun Buxoro viloyatida turkman millatiga mansub 12000 dan ortiq aholi yashaydi. Ularning tili, madaniyati, urf-odatlarini doimiy rivojlantirib borish uchun barcha shart-sharoit yaratilgan. Viloyatda Turkman milliy-madaniy markazi faoliyat ham yuritib, turkman qadriyatlarini, madaniyatini targ'ib qilib kelmoqda. O'zbekistonda yashayotgan turkmanlar ta'lim, iqtisodiyot, tibbiyot, filologiya, san'atshunoslik, sport, energetika, sud-huquq tizimi, ichki ishlar tizimi, harbiy tizim, xavfsizlik tizimi, jurnalistika, musiqa, televideniye, tadbirkorlik, fermerlik, dehqonchilik va boshqa barcha sohalarda o'z xizmatlarini ayamay mehnat qilib, mamlakatimizning rivojlanishida va yangi O'zbekistonning tashkil qilinishida jonkuyarlik qilib kelishmoqda.

Buxoro viloyat oliy ta'lim muassasalarida 550 dan ortiq turkmanistonlik yoshlar tahsil oladi. Ularning 5 nafari a'lo baholarga o'qiganligi va o'zbek-turkman do'stligini yanada yuksaltirishda qo'shib kelgan hissalar uchun o'tgan yili O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yillik esdalik nishoni bilan taqdirlandilar.²⁸⁴

Bugun mamlakatimizda paxta tolasini chuqur qayta ishlash hajmi oshmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan asrning 90-yillaridagi 7 foizdan 50 foizgacha o'sdi. Yaqin yillar ichida O'zbekistonda yetishtirilgan jami paxta tolasining asosiy qismi o'zimizda chuqur qayta ishlanadi. Ayni shu jarayonga klaster ko'makchi bo'ladi. U mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan to'qimachilik mahsulotlarining ichki va tashqi bozorda talab katta bo'lgan yangi turlar bilan boyitilishiga munosib hissasini qo'shadi. Sohaga jalb qilinayotgan investitsiya va zamonaviy texnologiyalar mahsulot sifatini oshirib, raqobatbardoshligini ta'minlaydi, eksport salohiyati yuksalishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri

²⁹⁹ M.A.Rahmatov, B.Z. Zaripov "Klaster – integratsiya, innovatsiya va iqtisodiy o'sish", T.: 2018

ichki bozorni mamlakatimizda ishlab chiqarilgan organik oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirish, jahon bozoriga milliy mahsulotimizni eksport miqdorini oshirib borishdir.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017 yilda Buxoro va Sirdaryo viloyatlarida ilk bor paxta-to'qimachilik klasterlari tashkil etilib, ijobiy natijalar qo'lga kiritib borildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 25 yanvardagi 53-sonli "Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

³⁰⁰Bu qarorda fermer xo'jaliklari, boshqa qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari va to'qimachilik sanoati korxonalari o'rtasida bozor munosabatlarini shakllantirish, paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish asosida yuqori qo'shilgan qiymatga ega raqobatbardoshli mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlash maqsadida to'qimachilik sanoati korxonalari, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklarining 2018 yil paxta xom ashyosi hosili doirasida sinab ko'rishni hisobga olgan holda, muvofiq hududlarda 13 ta paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishini tashkil etish belgilandi. Bunda ushbu ishlab chiqarishni to'qimachilik sanoati korxonalari hamda fermer xo'jaliklari o'rtasida paxta xom ashyosini yetishtirish va yetkazib berish yuzasidan to'g'ridan-to'g'ri kontraktatsiya shartnomasini tuzish asosida tashkil etish ko'rsatib berildi.

Ushbu qarorda belgilab qo'yildiki paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishi tashkilotchilari yer, suv va boshqa resurslardan samarali hamda oqilona foydalanishga, hosildorlikni oshirishga va yetishtiriladigan paxta xom ashyosining o'z vaqtida yig'ib-terib olinishiga ko'maklashadi;

lizing asosida qishloq xo'jaligi texnikasi xarid qilish, mineral o'g'itlar, urug'lik, yoqilg'i-moylash materiallari, o'simliklarni kimyoviy himoya qilish vositalari va boshqa material resurslar yetkazib berish bo'yicha fermer xo'jaliklari

³⁰⁰ O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 25.01.2018-yildagi 53-sonli Qarori

uchun nazarda tutilgan shartlar hamda tartib paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishi tashkilotchilariga tatbiq etiladi;

paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishi doirasida o'z ehtiyojlari uchun ishlab chiqarilgan paxta tolasi ixtiyoriy asosda sertifikatlanadi;

ishlab chiqarilgan paxta tolasining o'z ishlab chiqarish quvvatlari ehtiyojlaridan oshadigan hajmlari paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishi tashkilotchilari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri kontraktlar yoki birja savdolari orqali boshqa mahalliy iste'molchilarga sotiladi;

³⁰¹ paxtadan olingan chigit paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishi tashkilotchisi tomonidan mahsulotni qaytarish asosida yog'-moy korxonalariga, yog'-moy mahsulotini keyinchalik birja savdolari orqali realizatsiya qilish sharti bilan, qayta ishlangan chigit chiqindilari (shrot, sheluxa) esa to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha birinchi navbatda, fermer xo'jaliklariga, shuningdek, boshqa mahalliy iste'molchilarga sotiladi;

qo'shimcha mahsulotlar (lint, o'lik paxta va boshqalar) paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishi tashkilotchisi tomonidan mahalliy iste'molchilarga birja savdolari orqali sotiladi;

paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishi tashkilotchisi tomonidan xarid qilinadigan paxta xom ashyosi narxi fermer xo'jaliklarining rentabelligi hisobga olinib, agrotexnologik xaritalar asosida shakllantiriladigan xarajatlardan kelib chiqqan holda shartnoma asosida belgilanadi va davlat ehtiyojlari uchun belgilangan narxlardan past bo'lmaydi.

paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishi tashkilotchilariga kreditlar Jamg'arma mablag'lari hisobidan yiliga 3 foizdan ortiq bo'lmagan foiz stavkasi bo'yicha va davlat buyurtmasi doirasida paxta xom ashyosi sotadigan fermer xo'jaliklarini moliyalashtirish uchun nazarda tutilgan shartlar asosida ajratiladi;

paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishi uchun paxta xom ashyosi yetishtirish

³⁰¹ O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 25.01.2018-yildagi 53-sonli Qarori

maqsadida ajratiladigan mablag'lar fermer xo'jaligining maxsus hisobraqamiga o'tkaziladi;

fermer xo'jaliklarining maxsus hisobraqamlariga tushadigan mablag'lardan yangi paxta xom ashyosi hosili yetishtirish uchun faqat zarur tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilish uchun foydalanish mumkin va hisobraqamlar egalari yangi hosilni yetishtirish bilan bog'liq bo'lmagan ilgari yuzaga kelgan majburiyatlarini qoplashga yo'naltirilishi mumkin emas;

paxta xom ashyosini yetishtirish va yetkazib berishga doir qo'shimcha xarajatlar hamda fermer xo'jaliklari uchun qishloq xo'jaligi texnikasi xarid qilish xarajatlari paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishi tashkilotchilari tomonidan o'z mablag'lari yoki tijorat banklarining to'qimachilik hamda tikuvchilik-trikotaj mahsulotlari yetkazib berish bo'yicha eksport kontraktlari kafolati ostida ajratiladigan kreditlari hisobidan moliyalashtirilishi mumkin;

³⁰²Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishini tashkil etadigan paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishi tashkilotchilari va fermer xo'jaliklari oladigan hamda ular tomonidan beriladigan, o'zlari ishlab chiqaradigan mahsulotlarni sotish bo'yicha oborotlar bilan bog'liq bo'lmagan pul mablag'lari va mulk, shuningdek, sof daromad taqsimoti soliq solinadigan ob'ektlar hisoblanmaydi.

Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishi tashkilotchilariga hududlar sharoitlari, ekinlarni ilmiy asoslangan tarzda almashlab ekish, suv va resurslarni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, paxtaning tozaligiga rioya etilishini hisobga olgan holda, g'o'zaning seleksiya navlarini mustaqil ravishda joylashtirish huquqi berildi.

Paxta xom ashyosini dastlabki qayta ishlash mahsulotini qaytarish asosida paxta tozalash korxonasida yoxud paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishi tashkilotchilarining o'z korxonasida yoki ular tomonidan ijaraga olingan paxta tozalash korxonasida amalga oshirilishi ham belgilab qo'yildi.

³⁰² O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 25.01.2018-yildagi 53-sonli Qarori

Qarorda paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishi hududida joylashgan paxta tozalash korxonalarini va paxta tayyorlash punktlarining texnik va moliyaviy holatini baholash asosida ulardan foydalanish samaradorligini oshirish yuzasidan ularni paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishi tashkilotchilariga ijaraga berish, to'lovni bo'lib-bo'lib to'lagan holda yoxud quvvatlardan mahsulotini qaytarish sharti bilan foydalanish ham belgilangan.

³⁰³Klasterlarni shakllantirishdan maqsad – shahar, tuman va viloyat ichida joylashgan btr xil soha korxonalarini va ular bilan yagona texnologik zanjirda bo'lgan ta'lim, ilmiy, injiniring, konsalting, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va boshqa xizmatlarni uyg'unlashtirish – innovatsion ishlab chiqarishni tashkil etish asosida raqobatbardosh tovarlar yaratishga yo'naltirishdan iborat.

Mamlakatimiz taraqqiyotining bugungi bosqichida paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini samaraliroq tashkil etish natijasida, mamlakatimiz eksport salohiyatini oshayotgani quvonarli holat.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 25.01.2018-yildagi 53-son Qarori
2. M.A.Rahmatov, B.Z. Zaripov "Klaster – integratsiya, innovatsiya va iqtisodiy o'sish", T.: 2018

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH VA STRATEGIYANING AHAMIYATI

I.N.Niyozova,

BuxDU Iqtisodiyot kafedراسi o'qituvchisi

N.K.Sharapova,

BuxDU, Iqtisodiyot mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tabiatni asrab-avaylash, ekologik holatni yaxshilash, yashil iqtisodiyot, yashil iqtisodiy o'sishni ta'minlash hamda inson

³⁰³ M.A.Rahmatov, B.Z. Zaripov "Klaster – integratsiya, innovatsiya va iqtisodiy o'sish", T.: 2018

hayoti va sog'lig'i uchun zarur bo'lgan resurslarni, atrof-muhit va ekologiyani bir butun holda saqlab qolib, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari bilan bog'liq iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni amalga oshirishga asoslangan iqtisodiy faoliyatning yangi yo'nalishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: tabiat, ekologik holat, yashil iqtisodiyot, resurslar, atrof-muhit, iqtisodiy faoliyat.

Yashil iqtisodiyot - bu odamlar va tabiat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni va ikkalasining ehtiyojlarini bir vaqtning o'zida qondirishga urinishlarni qo'llab-quvvatlaydigan iqtisodiyot metodologiyasi hisoblanadi. Yashil iqtisodiy nazariyalar odamlar va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik bilan bog'liq bo'lgan ko'plab g'oyalarni qamrab oladi. Yashil iqtisodchilar barcha iqtisodiy qarorlar uchun asos ekotizimga bog'liq bo'lishi kerakligini va tabiiy kapital va ekologik xizmatlar iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1972 yili Stokgolm shahrida o'tkazilgan konferensiyada 5 iyun "Jahon atrof- muhitni muhofaza qilish kuni" deb e'lon qilingan edi. Tabiat va uning ne'matlariga noto'g'ri munosabat natijasida ko'plab ekologik muammolar mavjud edi. Bugungi kunda ham ushbu muammoning dolzarbligi oshsa oshayaptiki, aslo kamaygani yo'q. Dunyo miqyosida yiliga qariyb olti million gektar yer cho'llanishga uchrayotgani, oltmish mingga yaqin o'simlik, yetti mingdan ortiq hayvon turlari yo'qolib ketish arafasida ekanligi, aholi ko'payishi hamda yangi yerlar o'zlashtirilishi hisobiga suvga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib borayotgani buning isbotidir. Demak, yuzaga kelayotgan muammolarni birgalikda hal etish, sanoatda energiya tejamkor texnologiyalarni qo'llash, tabiat ne'matlaridan oqilona foydalanish, umuman, atrof-muhitni muhofaza qilishda hamjihatlikda ish olib borish zarur.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasida o'tkazilgan "Yashil o'sish va global maqsadlar uchun hamkorlik – 2030" (P4G) ikkinchi xalqaro sammitidagi nutq so'zladi. Unda davlatimiz rahbari: "Bugungi kunda ona tabiatning o'zi bizga yo'llayotgan ogohlik qo'ng'irog'iga beparvo bo'lmasligimiz

kerak. Afsuski, iqlim o'zgarishlari tobora kuchayib bormoqda. Biz yashayotgan Markaziy Osiyoda so'nggi 30 yilda o'rtacha yillik harorat taxminan bir darajaga ko'tarildi. Mintaqamizdagi asosiy daryolarning havzasi va biologik xilmaxillikning qisqarib borayotgani jiddiy xavotir uyg'otmoqda. Bug'lanish darajasini oshiradigan gazlar va atmosferaning keng miqyosda ifloslanishi muammolarni yanada chuqurlashtirmoqda. Bugungi kunda "yashil taraqqiyot" borasidagi maqsadlarga erishish uchun mamlakatlarning harakatlari yanada faol va samarali bo'lishi kerakligiga hech kim shubha qilmayapti. Boshqa choramiz ham yo'q", deb ta'kidladi.³⁰⁴

"Yashil taraqqiyot"ga erishish uchun "yashil iqtisodiyot"ga o'tishimiz va uni rivojlantirishimiz lozim bo'lmoqda. Shu tufayli mamlakatimizda bunday iqtisodiyotni shakllantirish uchun yashil iqtisodiyotni rivojlantirish lozim.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning tashabbusi bilan qabul qilingan 2017–2021yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilandi.³⁰⁵ Albatta, ushbu yo'nalishdagi vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'p jihatdan Markaziy Osiyo mintaqasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga bog'liq.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Ekologik kodeks loyihasining ishlab chiqilganligi, uning qabul qilinishi ekologik qonunlarni yaxlit bir qonunda umumlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, so'ngi 3-4 yil ichida Orol dengizining qurigan tubidagi 2 mln. yer maydonida o'rmonlashtirish ishlarining xamda "yashil hududlar" va "yashil belbog'"larning barpo etilishi Konvensiya ijrosining amaliy tadbirlaridir.

Ta'kidlash joiz, bugun Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari tomonidan tegishli vazirlik va idoralar ishtirokida O'zbekiston Respublikasining

³⁰⁴ Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasida o'tkazilgan ikkinchi xalqaro sammitidagi nutqi

³⁰⁵ 2017–2021yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi

2030 yilgacha iqlim o'zgarishi bo'yicha strategiyasi ishlab chiqilmoqda. Strategiya asosida ishlab chiqiladigan "Yo'l xaritasi" mamlakatimizda iqlim o'zgarishlariga moslashish borasida manzilli chora-tadbirlarni maqsadli amalga oshirish imkonini beradi.

Xalqaro miqyosda BMTning Orolbo'yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik asosida trust fondi, ya'ni Orolbo'yi mintaqasi ekologik innovasiya va texnologiyalar hududi etib belgilangan.

Inson hayoti va sog'lig'i uchun zarur bo'lgan resurslarni, atrof-muhit va ekologiyani bir butun holda saqlab qolib ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari bilan bog'liq iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni amalga oshirishga asoslangan iqtisodiy faoliyatlar 2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish Strategiyasining (PQ-4477, 04.10.2019 y) mazmun mohiyatida keltirilgan.³⁰⁶

"Yashil" iqtisodiyot Strategiyasiga insoniyat rivojlanishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi ekologik, energetik, oziq-ovqat va iqtisodiy muammolarni hal etishga qaratilgan asosiy yechim sifatida qaralmoqda.

Iqlim o'zgarishi — global tahdid sifatida namoyon bo'layotganligi sababli jahon hamjamiyati ushbu muammoni insoniyat oldida turgan eng jiddiy muammolardan biri deb tan olmoqda. O'z vaqtida choralar qabul qilmaslik mamlakatlar iqlim o'zgarishi borasidagi harakatlar uchun katta miqdorda resurslarni mobilizasiya qilishlariga to'g'ri keladi. Chunki, iqlim o'zgarishi tabiiy ofatlarning kuchayishi kabi va boshqa oldindan aniq aytish qiyin bo'lgan boshqa ko'pgina oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin.

O'zbekistonning iqlim o'zgarishi bo'yicha Parij bitimiga qo'shilishi munosabati bilan issiqxona gazlarini qisqartirish va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlarni zimmasiga oldi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi doirasida

³⁰⁶ O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish Strategiyasi (PQ-4477, 04.10.2019 y)

2019 yil uchun qabul qilingan davlat dasturining 250-bandida mazkur Strategiya ishlab chiqish ko'zda tutilgan.

Shu bilan birga, O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tish Strategiyasini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari etib iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish, energiya resurslari iste'molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish, iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash, "yashil" iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqishlar belgilangan.

Shunday qilib, yuqoridagilarni amalga oshirish iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish sohasida boshqaruvni yaxshilashga, tabiiy resurslarni saqlash va ulardan oqilona foydalanishga, issiqxona gazlarining ajratmalarini kamaytirishga, "yashil" energiyadan foydalanishni ta'minlashga, "yashil" ish o'rinlari yaratishga va iqlim barqarorligiga erishishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasida o'tkazilgan ikkinchi xalqaro sammitidagi nutqi
2. 2017–2021yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi
3. O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish Strategiyasi (PQ-4477, 04.10.2019 y)
4. O'lmasov A., Vaxobov A. V., Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik – T.: Iqtisod-moliya, 2014.
5. Nazarova G.G'., Salixova N.M. Jahon iqtisodiyotining globallasuvi (o'quv qo'llanma), TDIU, 2011.

6. Bekmurodov A.Sh., G'afurov U.V. O'zbekiston iqtisodiyotni modernizatsiyalash hamda islohotlarni chuqurlashtirishning yangi va yuksak bosqichi yo'lida – T.: Iqtisodiyot, 2008.

7. <http://library.ziyonet.uz/>

8. <https://zarnews.uz/>

EUROPEAN DIGITAL TAX SYSTEM: RESULTS AND IMPROVEMENTS

Sh.R.Ashurov,

Master student of Economics specialization,

Bukhara State University

Abstract. This article briefly introduces digital taxation system implemented in European Union and its development process in recent years.

Key words: digital economy, revenue, digital taxation system, income, tax rate

Over the last few years, there were problems raised concerning that the existing international tax system does not properly capture the digitalization of the economy. Due to the current international tax system, multinationals generally pay taxes of incomes where production occurs rather than where consumers or, users are located. There are some people who argue about the digital economy, that businesses (implicitly) derive income from users abroad but, without a physical presence, are not subject to corporate income tax in that foreign country.

To tackle these concerns, Economic Co-operation Organisation and Development (OECD) has been arranging negotiations with around 130 countries to adapt the international tax system. And this organization would demand some of the world's largest multinational businesses to pay some of their income taxes where their consumers are located. This proposal is referred to as Pillar 1. It can help to replace existing system of taxing multinationals and run counter to some policies that countries announced to tax digital companies in

recent years. The most widespread and effective form is a digital services tax (DST) on selected gross revenue streams of large digital companies.

This form of taxation results in changes where profits are taxed, including for many large digital companies, DSTs are expected to be repealed in a shift period which is expected to be completed by the end of 2023.

On October 21, a joint agreement of Austria, France, Italy, Spain, the United Kingdom, and the USA set a plan to look through digital services taxes (DSTs) and retaliatory tariff threats once the Pillar 1 rules are implemented. On November 22, the U.S. Treasury declared that Turkey also agreed to their terms.

This European statement represented a crediting approach to join between DST liability and new Pillar 1 tax liability for the companies that might have to pay both in the interim period. This is necessary for changes to be going to occur with minimal double taxation for the companies that would be liable under both Pillar 1 and current DSTs. However, those are not the only countries that may be impacted by the OECD agreement. About half of all European OECD countries announced, proposed, or implemented a DST. Because these taxes mainly impact U.S. companies and are understood as discriminatory, the United States in turn responded to the policies with its retaliatory tariff threats.

Countries as Austria, France, Hungary, Italy, Poland, Portugal, Spain, Turkey, and the United Kingdom have implemented a DST. Belgium, the Czech Republic, and Slovakia have published proposals to start a DST, and Latvia, Norway, and Slovenia have also officially declared to implement such a tax.

And the countries' taxation process differs from each other. For example, if Austria and Hungary tax revenues from online advertising, France gets revenues from the provision of a digital interface, targeted advertising, and the transmission of data collected about users for advertising purposes. The tax rates range from 1.5 percent in Poland to 7.5 percent in both Hungary and Turkey (although Hungary's tax rate is temporarily reduced to 0 percent).

Consumption taxes are Value-added Taxes (VAT) and other taxes on the sale of final goods or services. Countries are extending their consumption taxes to get digital goods and services.

Digital services taxes are gross revenue taxes with a tax base with revenues derived from a specific set of digital goods or services or based on the number of digital users within a country.

Tax preferences are policies that diminish the tax burden on digital businesses. Most European countries got involved in tax preferences in large businesses.

Virtual or digital permanent establishments are usually described as using specific criteria including being busy with the local market.

Gross-based withholding taxes are used by European countries especially, Austria and Hungary instead of corporate taxes or consumption taxes to tax revenue of digital firms in connection to transactions within a jurisdiction. These policies do not work for income or consumption taxation.

Recent growth of the digital economy in European countries has resulted in policy debates about the taxes that digital companies pay and where and why they pay them. Many digital business models do not demand physically being there in countries where they have sales, instead they can reach customers through remote sales and service platforms.

Business models as social media companies, e-commerce marketplaces, cloud services, and web-based services platforms have all motivated targeted tax policies. In some cases, the policies are extensions of old rules to new players, while other policies are special taxes directed specifically at a business or platform.

Consumption tax policies have changed to account for the growth of products and services delivered through digital means, often without a business having a taxable presence within the country where the products are consumed. Additionally, policymakers have examined ways to change corporate taxes to capture activity of digital firms in countries.

From 2023 onwards, DSTs will be implemented to all European Union countries and the United Nations will add special provisions for automated digital services income. Convention.

Bibliography:

1. “Principles,” Tax Foundation, accessed May 18, 2020, <https://taxfoundation.org/principles/>.
2. <https://www.theguardian.com/world/2019/jul/11/france-us-tax-big-digital-companies-donald-trump-amazon-facebook>.
3. Christoph Spengel et al., “Steuerliche Standortattraktivität digitaler Geschäftsmodelle” ZEW, PwC, December 2018, <https://www.pwc.de/de/steuern/pwc-studie-steuerlicher-digitalisierungsindex-2018.pdf>.

71010401 – Turizm (faoliyat turlari bo'yicha)

O'ZBEKISTONDA HALOL TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

U.M.Barotov,

Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Bugungi kunda yurtimiz dunyo musulmon sayyohlari olamida o'zining “Ziyorat turizmi” yo'nalishlari orqali tanilmoqda. Bunda, musulmon sayyohlarning ehtiyojlarini yanada ko'proq qismini qondira olishni kafolatlay oladigan “Ziyorat turizmi”ning aynan halol tarmog'i uchun imkoniyatlar yaratilib, soha kelajagiga e'tibor qaratilmoqda. Ushbu tezisdagi yurtimizda halol turizmning istiqboli uning hozirda mavjud kamchiliklari va yutuqlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ISESCO, musulmon, islom, ziyorat, visa

Islom ta'lim, fan va madaniyat tashkiloti (ISESCO) har yili musulmon mamlakatlaridagi 3 ta shaharni Islom madaniyati poytaxti deb e'lon qiladi.

Yurtimizdagi bir necha shaharlar ko'p bora ushbu nomga egalik qilib kelgan. Jumladan, azaldan islom madaniyati bo'lgan Buxoro shahriga ham 2020-yilda shu maqom berildi. Bundan ko'rinib turibdiki, yurtimizda ziyorat turizmining istiqbollari imkoniyatlari mavjud.

Bugungi kunda dunyo bo'yicha musulmonlar umumiy soni 1,6 milliard nafar bo'lib, shundan qariyb 150 millionga yaqini har yili sayohatga chiqadi. O'zbekiston ushbu sayyohlarning yirik markaziga aylanishi mumkin. Negaki, yurtimizda ziyorat turizmi salohiyati nihoyatda katta. Shu jumladan musulmon sayyohlarining nigohini yurtimizga qaratuvchi asosiy faktlar quidagilar.

Buxoro 2020-yilda Osiyo islom madaniyati poytaxti deb e'lon qilingan.

Hozirgi O'zbekistonda tug'ilgan yoki yetishib chiqqan mashhur olimlar qatoriga Al-Xorazmiy (Algebra fanining otasi), Al-Beruniy, Ibn Sino (Avitsenna), Mirzo Ulug'bek, Imom Moturidiy, Al-Farg'oniy va Al-Farobiy kiradi.

Mintaqaning so'fiy olimlari orasida Abduxoliq G'ijduvoniy, Muhammad Orif Ar-Revgariy, Mahmud Anjir Fag'naviy, Ali Ramitoni, Bobo as-Samasiy, Said Amir Kulol va Bahouddin Naqshbandiy bor.

Dunyodagi eng qadimiy Qur'on Mushaf Usmon O'zbekiston poytaxti Toshkentda saqlanmoqda.

Ikki muhaddis (muhaddis) – Imom Buxoriy (Samarqand shahri) va Imom Termiziy (Termiz shahri) O'zbekistonda tug'ilgan.

O'zbekistonda 7000 ta tarixiy va me'moriy yodgorliklar YUNESKONing Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, ularning aksariyati tarixiy islom bilan bog'liq.

O'zbekistonda 3000 ga yaqin masjidlar mavjud.

2019-yilgi Global Musulmon sayohatlari indeksiga ko'ra, O'zbekiston Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar orasida eng jozibali o'nta davlatdan biri hisoblanadi.

Shu bois mazkur sohani, xususan, uning “halol turizm” tarmog‘ini rivojlantirishga jiddiy e’tibor qaratilayapti.

O‘zbekistonning halol turizm industriyasidagi afzalliklari:

Lonely Planet sayyohlik sayti O‘zbekistonni 2020 yilning eng sevimli yo‘nalishi deb topdi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston dunyo sayohatchilari eng ko‘p intiladigan mamlakatlardan biriga aylandi. O‘zbekiston nima uchun sevimli sayyohlik maskani bo‘lishining bir necha sabablari bor.

Visa tizmi: O‘zbekiston 2018-yildan buyon xalqaro sayyohlar uchun vizani bekor qilgan davlatlardan biridir. Kelish vaqtida vizaning berilishi O‘zbekistonning xalqaro turizmni rivojlantirish strategiyalaridan biri sifatida xorijiy sayyohlarni mamlakatga tashrif buyurishga jalb qilishdir.

2018-2019-yillarda vizasiz rejimning kuchga kirishi bilan Indoneziyadan sayyohlar oqimi 170 foizga, Malayziyadan 158 foizga, Turkiyadan 154 foizga, BAAdan musulmon turistlar oqimi 153 foizga oshdi.

Tarixiy joylarga sayohat: O'zbekistonning ko'plab tarixiy joylariga tashrif buyurish mumkin. Eng afsonaviy joylar orasida Toshkent, Samarqand, Registon maydoni va Buxoro hamisha sevimli joy hisoblanadi. Shuningdek, ushbu maskanlar ham ziyorat maskanlari deb atalgan. Samarqadda joylashgan olim Imom Buxoriy qabri bor. Asl ismi Abu Muhamm ad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn Mug'iyra bin Bardziba al-Ju'fi al Buxoriy bo'lgan buyuk alloma mashhur hadis roviyidir. Uning “Sahihi Buxoriy” kitobi fiqh mutaxassislari uchun standart manba hisoblanadi. Buxorolik Ibn Sino tibbiyot mutaxassisi bo‘lib, uning nomi bugun ham mashhur. Zamonaviy tibbiyotning otasi, ko'plab kitoblarni yaratgan. 450dan ortiq kitoblari mavjud. Ularning aksariyati falsafa va tibbiyot bilan bog'liq. Eng mashhurlaridan biri “Qonun fi at tibb”.

Milliy oshxona: O'zbekiston oshxonasi o'ziga xos iforga ega, chunki turli ziravorlar asosida tayyorlanadi. O‘zbekistonda eng mashhur menyulardan biri Palov, Sho‘rva va Qo‘y go‘shiti. Milliy gastronomic xaritasida har bir viloyatning milliy taomi aks etadi. Aholisi asosan musulmon bo‘lganligi sababli O‘zbekistonda

halol oziq-ovqat topish juda oson. O'zbekistonda halol turizmni qo'llash diniy tomondan va barqaror resurslar, ham inson resurslari, ham tabiiy resurslar nuqtai nazaridan ajralmasdir.

Diniy nuqtai nazardan, halol turizmning yo'nalishi jamiyatda valyuta va to'g'ridan-to'g'ri daromad ko'rinishida daromad olish va islom tamoyillari, qadriyatlari va axloqiga ustunlik berishdir. Shariat turizmi/halol turizmni amalga oshirishda shirk (Allohdan boshqasiga ishonish), yovuzlikdan saqlanish, moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratish islomiy qadriyatlar va axloq qoidalaridir. ***O'zbekistonning halol turizmdagi zaif tomonlari:*** Til qayerda bo'lmasin inson hayotidagi eng muhim muloqot vositasidir. Tilning mavjudligini jamiyatdagi ijtimoiy hayotdan bir-biri bilan muloqot qilish va tushunish uchun ajratib bo'lmaydi. O'zbekistonda so'zlashadigan milliy til o'zbek tilidir, boshqa O'rta Sharq tillaridan mutlaqo farq qiladigan til turi. Indoneziya va ingliz tillari bilan solishtirganda O'zbekistonning milliy tili murakkabligi yuqori. Ko'pchilik so'zlashadigan til asosan bu rus tilidir. Chunki 27 yil avval Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin ham ko'plab ruslar Toshkentda yashab, Rossiyaga qaytmagan. O'zbekistonning til bilimlari ikkiga bo'linadi. Birinchidan, ajdodlari rus bo'lmagan asl o'zbek xalqi ikki tilda, ya'ni o'zbek va rus tillarida gaplasha oladi. Ikkinchidan, rus xalqi yoki rus va o'zbek millatiga mansub odamlar o'rtacha hisobda faqat rus tilini tushunadi va o'zbek tilini o'rganishni istamaydi. Bu holat O'zbekiston ta'lim olamiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu faktdan kelib chiqib, maktab va kollejlardagi darslar ikki turga, ya'ni o'zbek tili va rus tili sinflariga bo'linadi.

Til O'zbekistonda halol turizm sohasidagi kamchiliklardan biridir, chunki jahondagi halol turizm turlaridan biri sifatida ular chet ellik sayyohlar bilan suhbatlashish uchun ingliz tilini ham o'rganishlari kerak. Yuqorida aytib o'tilganidek, GMTIda aloqa halol turizmni baholashning ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Tildan tashqari, turistik diqqatga sazovor joylarga kirish ham GMTIda

baholash ko'rsatkichidir. O'zbekistonning sayyohlik joylariga kirish yo'llari yaxshi emas, shuning uchun ularni ta'mirlash zarur.

Masalan, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari hokimlariga ziyoratgohlarni obodonlashtirish, ularga olib boruvchi yo'llar holatini yaxshilash, ziyoratchilar uchun barcha qulayliklarni yaratish bo'yicha yakuniy topshiriqlar berildi. Hozirda O'zbekistonga kirish darajasi past bahoga ega bo'lib, ya'ni ulanish 39 va transport infratuzilmasi 74. Shuning uchun yurtimizda diniy turizmni rivojlantirmoqchi bo'lsa, ulanish va infratuzilmani oshirish orqali kirishni yaxshilashi lozim.

Adabiyotlar

- 1.State_of_the_global_islamic_economy_201617SALAAM0310201611113
- 2./ 2.United Nations World Tourism Organization. (2016). UNWTO tourism highlights, 2016 edition. Retrieved from
- 3.<http://marketintelligence.unwto.org/publication/unwto-tourism-highlights-2016-edition>
- 4.United Nations World Tourism Organization. (2017). UNWTO tourism highlights, 2017 edition.

HALOL TURIZMNING INNOVATSIYALAR BILAN SHAKLLANGAN ISTIQBOLI: ONLINE TURISTIK AGENTLIKLARI MISOLIDA

U.M.Barotov,

Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Bugungi kunda musulmon bo'lmagan mamlakatlar ham musulmon sayyohlarni jalb qilish istagida. Bunga asosiy sabab esa, oshib borayotgan musulmonlar sonidir. Ushbu bozorda, musulmonlarning aynan musulmon bo'lmagan davlatlarga sayohatlarining ortishi turli davlatlarning halol sanoatdagi raqobatlari natijasida vujudga kelmoqda. Ularning ko'pchiligi turli

innovatsiyalar joriy qilish orqali sayyohlarni o'ziga jalb qilmoqda. Ushbu tezis aynan shunday innovatsiyalardan biri online turistik agentliklarning halol sanoatdagi o'rnining ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Halol turizm, musulmon sayyohlar, innovatsiya, islom Hamkorlik tashkiloti, Online Turistik Agentliklar

Musulmon sayyohlar xarajatlari 2020-yilga borib 220 milliard AQSh dollariga oshishi, musulmon sayyohlar soni esa 2016-yildagi ko'rsatgichga nisbatan 121 milliondan 156 millionga ko'tarilishi kutilgan edi. Bu Mastercard va CrescentRating ("halolga mos" sayohat bo'yicha konsalting) tomonidan ishlab chiqilgan Global Muslim Travel Index (GTMI) 2017 ma'lumotlariga ko'ra keltirilgan.


“Halol” turizmi shubhasiz o'sib borayotgan bozor segmenti bo'lib, musulmon sayyohlarning ovqatlanish, kiyim-kechak yoki marosimlar bo'yicha o'z ehtiyojlarini qondiradigan yo'nalishlarni taqdim etadi.

Rivojlanayotgan o'rta sinf va daromadi ortib borayotgan ko'plab mamlakatlar - musulmonmi yoki yo'q – sayohhlarni jalb qilishni istashadi. Malayziya, Birlashgan Arab Amirliklari, Indoneziya va Turkiya musulmonlar uchun yetakchi davlatlar qatoriga kiradi (1-rasm). Singapur, Tailand va Buyuk Britaniya noislomiy yoki IHT (Islom Konferentsiyasi Tashkiloti) mamlakatlari orasida yetakchi hisoblanadi (2-rasm).

Asosan buddistlar mamlakati bo'lishiga qaramay, janubda musulmonlar soni ko'p bo'lib, Tailand, asosan, Indoneziyadan kelgan, arzon ta'til, taomlarini qidirayotgan musulmonlar uchun mashhur joy ekanligini isbotladi.

Buyuk Britaniyaga kelsak, London va Manchesterdagi so'nggi terror xurujlaridan keyin islomofobik qarashlar ko'paygan bo'lsa-da, 2020-yilga kelib musulmonlar xarajatlari 4,1 milliard AQSh dollariga ko'tarilishi kutilgan edi.

1-rasm. IHT musulmon sayyohlar uchun top destinatsiyalar



2-rasm. IHT bo'lmagan musulmonlar uchun top destinatsiyalar



Manba: <https://hospitalityinsights.ehl.edu/halal-tourism-global-industry>

Musulmon sayohatchilarning ehtiyojlariga moslashish: Ushbu qatlamning imkoniyatlarini hisobga olgan holda, mehmondo'stlik sanoati musulmon sayohlarning ehtiyojlarini qondirish uchun o'zgaruvchan halol talablariga moslashish muhimdir. CrescentRating ma'lumotlariga ko'ra, mehmonxona va restoranlar hech bo'lmaganda halol taomlarni taklif qilishlari lozim. Namozgohlar, musulmonlar uchun qulay yuvinish xonalari va Ramazon oyi bilan bog'liq takliflar

mavjudligiga asoslanib, GTMI reytingida baholanganidek, musulmon sayohatchilar uchun maqsad tobora jozibador bo'lib ko'rinadi. Hozirda ko'plab aeroportlarda halol taomlar va namozgohlar taklif etilayotgan bo'lsa-da, ba'zilarida hamon yuvinish yoki tahorat olish uchun imkoniyatlar mavjud emas.

Texnologiya bilan kelajakni shakllantirish: An'anaviy onlayn sayyohlik agentliklari yoki booking.com, TripAdvisor kabi OTAlardan tashqari, musulmonlar uchun qulay platformalar paydo bo'lmoqda. Misol uchun, halol turistik turar joy uchun Londonda joylashgan Halalbooking.com bozorini olaylik, u 2021 yil oxirigacha kamida bir milliard funt daromad olishi mumkinligini ma'lum qilgan edi.

Peer-to-peer platformalari ham paydo bo'lmoqda. Bookhalalhomes.com halol turar joy ijarasi bo'yicha dunyodagi yetakchi portalga aylandi. U halol oziq-ovqat va maxsus namozgohlar kabi halol sertifikatlangan xizmatlarni kafolatlash orqali Airbnb-dan ajralib turadi.

Smartfon ilovalari ham ishlab chiqilmoqda. Tailand turizm boshqarmasi musulmon sayohatchilarga halol mahsulot va xizmatlarni topishga yordam beruvchi ilovani ishga tushirgan. Unda namoz vaqtlari, ovqatlanish variantlari va diqqatga sazovor joylarga sayohatlar haqida ma'lumot beriladi. Boshqa bir ilova HalalTrip butun dunyo bo'ylab 65 dan ortiq yo'nalishlarga oid ma'lumotlarni taqdim etadi. U Janubiy Afrikadagi Buyuk Oq akulalarni, Ispaniyadagi madaniyat va tarixni boshdan kechirish yoki Dubaydagi xaridlarni amalga oshirish kabi turpaketlarni sotish orqali daromad keltiradi.

G'arbiy OTAlar bilan solishtirganda, halol turizm elektron tijorati hali boshlang'ich bosqichida. Aytib o'tilganidek, bu xizmat ko'rsatishni talab qiladigan o'sib borayotgan bozor. Texnologiya mehmonxonalar, restavratorlar va boshqalarga halol talablarga sezgir ekanini ko'rsatish imkonini berib, sektor o'sishini shakllantirishda davom etadi.

Innovatsiyalar talabga qanday ta'sir qiladi: Musulmon sayyohlar 2020-yilga borib 220 milliard AQSh dollariga yetishi va dunyodagi eng tez rivojlanayotgan

din Islom bo'lganligi sababli, musulmon sayyohlar sayohat bozoridagi eng muhim mijozlardan biri hisoblanadi.

Oilaviy va musulmonlar uchun do'stona xizmatlar kabi jalb qiluvchi omillar ichida, shuningdek, haloldan xabardorlik muhimdir. Xavfsizlik masalalari va halolning asosiy talablari bajarilgan joyda musulmon turizmi rivojlanishda davom etadi.

Texnologiyaga kelsak, halol texnologiya firmalari birinchi navbatda ustunlikni qo'lga olishadi. Ammo yirik g'arbiy OTAlar rivojlanishning yuqori bosqichida bo'lganligi sababli, ushbu istiqbolli bozorda hukmronlik qilishga intilishlar boshqalar uchun vaqt masalasidir.

Xulosa qilib aytganda, xozirda ko'plab musulmon sayyohlarni jalb qilayotgan mashhur destinatsiyalar asosan musulmon bo'lmagan davlatlar hisoblanadi. Chunki ular o'z faoliyatlarida online turistik agentliklari orqali yangi burilish yaratishgan. Halol sayyohlik olami bugunda musulmonlarga aynan online turistik agentliklari orqali o'z xizmatlarini yanada qulayroq taqdim etib kelmoqdalar.

Adabiyotlar:

Biancone, P. P., Secinaro, S., Radwan, M., & Presti, P. (2018). The ethical tourism opportunities: The Halal tourism. In Smart Tourism (pp. 267–278). New York, NY: McGraw-Hill Education.

<https://hospitalityinsights.ehl.edu/halal-tourism-global-industry>

<https://www.un.org/en/academic-impact/halal-tourism-promoting-high-quality-service>

<https://globalhalaltourism.org/halaltourism.php>

<https://www.emerald.com/insight/content/doi/10.1108/JIMA-07-2020-0202/full/html>

<https://www.halaltourismbritain.com/terms-conditions/>

HALOL TURIZM – MUSULMON SAYOXATCHILARI EHTIYOJLARINING YANGI BOSQICHI

U.M.Barotov,

Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Bugungi kunda yurtimiz dunyo musulmon sayyohlari olamida o'zining “Ziyorat turizmi” yo'nalishlari orqali tanilmoqda. Bunda, musulmon sayyohlarning ehtiyojlarini yanada ko'proq qismini qondira olishni kafolatlay oladigan “Ziyorat turizmi”ning aynan halol tarmog'i uchun imkoniyatlar yaratilmoqda. Ushbu tezisdan qanday qilib bugungi kunda musulmon sayyohlarining ehtiyojlarida halol turizmning asosiy pog'onaga aylanib ulgurganini e'tiqodga asoslangan ehtiyojlar asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: halol turizm, ziyorat turizmi, ehtiyoj, musulmonlar, Islom Hamkorlik Tashkiloti

Bugungi kunda, e'tiqodga asoslangan ehtiyojlar musulmon sayohat olamining asosini tashkil etadi. E'tiqod musulmonlarning xarid qilish qarorlariga tobora ko'proq ta'sir qilib bormoqda. Bu islom olami industriyasi, ya'ni islom banki, halol oziq-ovqat, islom modasi, halol kosmetika va boshqa tegishli sohalarning tez o'sishidan dalolat beradi. Pew Research hisobotlarida, 1-jadvalda ko'rsatilganidek, 39 mamlakatda musulmonlar tomonidan Islomning besh amaliga rioya qilish ortib borayotganini ko'rsatadi.

1-jadval: Beshta amalga umumiy rioya qilish

	39 ta davlatda o'rtacha kuzatuv
Xudoga (Allohga) va Muhammad payg'ambarga iymon keltirish	97%
Ramazon oyida kunduzi ro'za tutish	93%

Zakotni ado etish (sadaqa berish)	77%
Namoz o'qish (besh vaqt namoz)	63%
Makkaga haj (haj)	9%

Manba: Pew Research Center's August 2012 report, "The Worlds' Muslims: Unity and Diversity"

E'tiqodga asoslangan ehtiyojlarga tobora ortib borayotgan sodiqlikni uchta asosiy sabab bilan bog'lash mumkin:

1-sabab: "Hayot tarzi": Musulmonlar Islomni "hayot tarzi" deb bilishadi, unda uning yo'l-yo'riqlari va qadriyatlari ularning hayotining barcha jabhalariga, jumladan, iste'mol xatti-harakatlariga ham tegishli. Noyob musulmon turmush tarzining iste'molchi motivlari asosiy e'tiborni oziq-ovqat ("Halol" variantlari), oilaviy do'stona muhit, diniy urf-odatlar, turar joy, gender munosabatlari, kamtarona kiyim-kechak, ta'lim, moliya va boshqa sohalarga qaratadi. Bu qadriyatlarning aksariyati universal jozibaga ega va mahsulot va xizmatlar faqat musulmonlar uchun mo'ljallangan bo'lishi shart emas.

2-sabab: O'sib borayotgan daromad va qulay muhit. So'nggi paytlarda bu dinga asoslangan bozorning o'sishi bugungi kunda eng tez o'sib borayotgan iqtisodiyotga ega bo'lgan davlatlarning ba'zilari musulmonlar ko'p bo'lganligi bilan ham bog'liq. Bangladesh, Indoneziya, Saudiya Arabistoni, BAA, Malayziya, Nigeriya, Turkiya va boshqalar eng tez iqtisodiy rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga kiradi, natijada o'rta sinf va yuqori daromadlilar soni oshadi. Ushbu o'sib borayotgan daromad darajasi iste'molchilarni o'zlarining noyob iste'mol ehtiyojlarini qondirishga undaydi. Bu tendentsiya Malayziya, Saudiya Arabistoni va Turkiyaning eng yirik musulmon iqtisodiyoti tomonidan rivojlanayotgan va halol sanoat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda.

3-sabab: Bu allaqachon real bozorning asosiy atributi sifatida e'tiqod musulmon iste'molchilari uchun allaqachon haqiqiy va o'sib bormoqda. Musulmon

davlatlari o'rtasida ham musulmonlar bozoriga yaqinlik hisobga olinsa, o'zaro savdo hajmi ortishi tabiiy. Shu sababli, IHT mamlakatlari ichidagi savdo hajmi ham tobora o'sib boradi. Ko'plab musulmon sayohatchilar ko'pchilik musulmon mamlakatlarga (masalan, Turkiya, Malayziya) yaqinlik, xavfsizlik va qulaylik (masalan, halol oziq-ovqat, oilaviy do'stona muhit, ibodat qilish joylari va h.k.) hisobga olingan holda sayohat qilmoqdalar.

**** Musulmon sayohatchilarning e'tiqodga asoslangan ehtiyojlari***

Oltita e'tiqodga asoslangan ehtiyoj musulmon sayohatchilar uchun asosiy yo'nalish sifatida belgilangan. Musulmon sayohatchilarning aksariyati bu ehtiyojlarning ba'zilariga amal qilsalar ham, ularning ahamiyati musulmonlar orasida farq qiladi. Ushbu ehtiyojlar asosida musulmon sayohatchilarning segmentatsiyasi ham keltirilgan.

a) Halol oziq-ovqat: Halol oziq-ovqat musulmon sayohatchi sayohat qilishda izlayotgan eng muhim xizmatdir. Turli darajadagi halol oziq-ovqat kafolatlarining qabul qilinishi musulmonlar orasida farq qiladi.

b) Namoz o'qish imkoniyatlari: Namoz islomiy amal va ibodatning markaziy unsurlaridan biri bo'lib, Islomning besh amalidan ikkinchisidir. Yuqorida tilga olingan Pew Research Center hisobotiga ko'ra, musulmonlarning 63 foizi besh vaqt namozni o'qiydi. Sayohat chog'ida ba'zilar bir necha namozni jamlab, kuniga uch vaqt o'qiydilar. Bu ehtiyojni qondirish uchun musulmon sayohatchilar tez-tez boradigan xizmatlar va ob'ektlar erkaklar va ayollar uchun alohida joy bo'lgan namoz xonalari bilan jihozlangan bo'lishi kerakligidan dalolat beradi.

c) Ramazon xizmatlari: Musulmonlar Ramazon oyida sayohat qilish ehtimoli kamroq bo'lsa-da, bu vaqtni uydan uzoqda o'tkazishni xohlaydiganlar ko'p, ayniqsa bu davr ta'tilga to'g'ri kelsa. Bundan tashqari, soni ortib borayotgan musulmonlar asosan ikki musulmon bayramida dam olishadi. Ushbu davrni maqsad qilib qo'yimoqchi bo'lgan yo'nalishlar ro'za oyi davomida maxsus ehtiyojlarni qondira olishi kerak. Bu ehtiyojni qondirish uchun zarur bo'lgan asosiy

xizmat - bu manzildagi mehmonxonalarining tong oldidan Halol taomlarini ta'minlash imkoniyatidir.

d) Suvga mos keladigan yuvinish xonalari: Musulmonlar uchun suv poklik va poklikda asosiy rol o'ynaydi, bu ikkalasi ham e'tiqodning asosiy jihatlaridir. Jismoniy tozalik musulmon bo'lishning muhim tarkibiy qismi sifatida ta'kidlangan. Shunday qilib, yuvinish xonasida gigienaga alohida e'tibor beriladi.

e) Halol bo'lmagan faoliyat: Musulmonlar ba'zi faoliyatlarni "Harom" yoki nohalol deb bilishadi. Sayohat haqida gap ketganda, ular odatda oilaviy do'stona muhitni talab qilishadi.

f) dam olish maskanlari va xavfsizlik xizmatlar;

Musulmon sayohatchilarning kichik segmenti erkaklar va ayollarning shaxsiy hayotini ta'minlaydigan dam olish maskanlarini qidirishadi. Bularga quyidagilar kiradi:

- alohida yoki erkaklar va ayollar uchun turli vaqtni ta'minlovchi suzish havzalari va sport zallari;

- erkaklar va ayollar shaxsiy hayotda dam olishlari uchun joylarni ta'minlovchi plyalar;

Xulosa o'rnida aytish lozimki, "Halol" turizmi shubhasiz o'sib borayotgan bozor segmenti bo'lib, musulmon sayyohlarning ovqatlanish, kiyim-kechak yoki marosimlar bo'yicha o'z ehtiyojlarini qondiradigan yo'nalishlarni taqdim etadi.

Rivojlanayotgan o'rta sinf va daromadi ortib borayotgan ko'plab mamlakatlar - musulmonmi yoki yo'q – sayohchlarni jalb qilishni istashadi. Shu sababdan ham musulmon sayyohlar ehtiyojlarida "Halol turizm"ning o'rni hal qiluvchi omil bo'lib bormoqda.

Adabiyotlar:

1. Akhtar, N. (2012, August 20). The rise of the halal traveller. BBC News.
2. Muslim world (pp. 235–251). Bingley, UK: Emerald Group Publishing Limited.

3. Battour, M., & Ismail, M. N. (2016). Halal tourism: Concepts, practises, challenges and future. *Tourism Management Perspectives*, 19(1), 150–154.
4. Battour, M. M., Battor, M., & Ismail, M. (2012). The mediating role of tourist satisfaction: A Study of Muslim tourists in Malaysia. *Journal of Travel & Tourism Marketing*, 29(3), 279–297.
5. Battour, M. M., Ismail, M. N., & Battor, M. (2010). Toward a Halal tourism market. *Tourism Analysis*, 15(4), 461–470.
6. Jafari, J., & Scott, N. (2014). Muslim world and its tourisms. *Annals of Tourism Research*, 44(1), 1–19.

O'ZBEKISTONDA DINIY TURIZMNING O'RGANILISH TARIXI

Z.Ravshanova,

Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda diniy turizmni o'rganish tarixi, bunda yurtimizdagi olimlarning olib borgan izlanishlari, ilmiy faoliyat natijalari, qarashlari va xulosalari tahlil qilingan. Diniy turizm sohasidagi yurtimiz imkoniyatlaridan to'laroq foydalanish uchun takliflar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: diniy turizm, allomalar, ziyoratchilar, mehmonxona, sayyohlar, muqaddas qadamjoylar, etnografiya, transport xizmati, marketing.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng yurtimizda diniy turizmni o'rganishga katta e'tibor qaratildi. Aytish kerakki, sobiq ittifoq davrida din bilan bog'liq har qanday jarayon e'tibordan chetda qolar edi. U davrda hatto, islomdagi buyuk allomamiz hadis ilmi ustozu Imom Buxoriyning qabri qayerdaligi ham aniq bo'lmagan. Bundan tashqari Imom Termiziy, Moturidiy kabi allomalar qabrlari xarobaga aylanib, devorlaridan g'ishtlar olib foydalanilgan.

Mustaqillik sharofati bilan Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekistondagi Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Hakim Termiziy, Bahouddin

Naqshband, So'fi Olloyor, Al Motrudiy, podsho Bakir Muhammad Zohid, Toshkent viloyatidagi Zangi ota kabi ko'plab ziyoratgohlarni ta'mirlandi. Diniy manzillarni izlovchi geograflarning tadqiqotlari doirasi ham kengaydi.

O'zbekistondagi diniy va ziyorat turizmi haqida professor A.A.Qayumov 10-12 yil avval turistlar oqimi O'zbekistonning boy va rang-barang rekreatsion resurslari bilan bog'liq bo'lsa, keyingi yillarda bu ziyorat turizmining rivojlanishi bilan bog'liqligini aytadi.

Mamlakatimizda diniy turizmga oid ilmiy tadqiqotlar B.Navro'z-Zoda, Ahmadaliev Yu.I., S.Abdullaev, N.Abdulahatov, S.Djuraeva, Z.Abidova, G.RPardaev, O.Hakimov, F.K.Komilova va R.S. Samatov, VN Fedorko va boshqalar tomonidan olib borilmoqda. Xususan, iqtisod fanlari doktori, professor Baxtiyor Navro'z-Zodaning ilmiy izlanishlarida O'zbekistonda diniy turizmning rivojlanishi chuqur o'rganilgan. Jumladan, olim O'zbekistonda ziyorat qilishning asosiy maqsadlari, ziyorat turizmi, jumladan, marketing usullari, geografiyasi, ziyoratchilarning demografiyasi, xulq-atvori, psixologik xususiyatlari, ziyoratchilar guruhi ehtiyojlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib bordi. Shuningdek, ziyoratchilarning sayohatlari davomida mehmonxona, restoran, transport va gid xizmatlaridan foydalanish bo'yicha ilmiy ishlanmalarni yaratgan.

Olim mamlakatimizda ziyoratchilar uchun infratuzilma qanchalik qulay bo'lsa, sayyohlar ham shunchalik ko'p tashrif buyurishini ta'kidlaydi. Xususan, uning fikricha, mamlakatimizdagi mehmonxonalarining aksariyati yevropacha uslubda qurilgan va ular ziyoratchilar uchun ixtisoslashtirilmagan. Mamlakatimizda mehmonxonalar ikki qismdan iborat bo'lishi kerak: tashqi hovli (erkaklar uchun) va ichki hovli (ayollar uchun). Bundan tashqari, mamlakatda ko'plab restoran va kafelar mavjud, ammo mehmonlar halol belgisi bilan sertifikatlangan ovqatlarni iste'mol qilayotganlariga to'liq ishonch hosil qila olishmaydi.

Navro'z-Zoda O'zbekistonda ziyoratgohlar katalogini yaratish maqsadga muvofiqligini ham ta'kidladi. Ushbu katalogga muqaddas joylarning rang-barang

fotosuratlarini kiritish, ular haqida aniq tushuntirishlar berish, kelayotgan ziyoratchilarga bunday kataloglar taqdim etilish, ziyoratgohlarni xorijiy mamlakatlarda targ'ib qilish turizmni rivojlantirishning eng maqbul yo'lidir. Shu bilan birga, diniy turizmga ixtisoslashgan sayyohlik agentliklarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimizdagi turizm kompaniyalari asosan madaniy va shahar turizmiga ixtisoslashgan. Ular diniy ziyoratning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmaydilar. Mamlakatimizda diniy turizmga yo'naltirilgan marketing xizmatlarini yo'lga qo'ysak, tashrif buyuruvchilar soni sezilarli darajada oshadi, degan g'oyani ilgari surdi.

Diniy va ziyorat turizmi haqidagi maqola ilk bor O'zbekiston geograflari uchun asosiy ilmiy jurnallardan biri bo'lgan "O'zbekiston geografiya jamiyati xabarnomasi"da 2006 yil 27-sonida chop etilgan. Unda ziyoratlarni imkon qadar geografik jihatdan o'rganishda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

- Ziyoratgohlarning geografik joylashuvi va ularni baholash;
- Ziyoratgohlarning tashkil topish tarixi (o'sha davrning ijtimoiy, iqtisodiy, tuzumi nuqtai nazaridan);
- Ziyoratgohlarning tabiiy geografik sharoitlari, ularning atrofdagi hududlardan farqlari va afzalliklari;
- Ziyorat joylarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, ularning kelib chiqish sabablari;
- Ziyoratgohlarning turistlarni jalb etishdagi amaliy ahamiyati;
- ziyoratgohlarning xaritasini (xarita sxemasini) yaratish va ular haqida bukletlar nashr etish;
Himoya mexanizmi (aniqrog'i, xulq-atvorning himoya shakllari) inson tanasining tabiiy va ijtimoiy atrof-muhit talablari va sharoitlariga normal munosabatda bo'lishning mumkin emasligi natijasidir. «Himoya» atamasi tirik mavjudotning himoya turini ifodalaydi va uning namoyon bo'lishining turli shakllariga ega. Mudofaa mexanizmlarini mantiqiy ketma-ketlikda taqdim etish masalasi bo'lishi kerak, Anna Freyd bir vaqtlar imkonsiz deb hisoblagan. Biroq, fenomenologik mantiq tadqiqotchining qo'lga ushbu muammoni hal qilish uchun to'g'ri yo'l-yo'riq beradi. Javob berishning birinchi shakli – insonning o'z mavjudligining qadr-qimmatini saqlab qolish uchun salbiy ekologik ogohlantirishlarga faol qarshi turishga urinishi (G. Selye talqinida «umumiy adaptiv sindrom» kabi narsa). Xuddi shunday, xulq-atvorning o'ziga xos shakllari sifatida himoyaning barcha hodisalarini birlashtirgan «himoya sindromi» haqida gapirish mumkin. Ruhiiy hayot sub'ekti o'zining tahdidli hodisalarini idrok etganligi va atrof-muhitdan harakat qilganligi sababli, u ularni qat'iyang engish uchun qat'iylik bilan to'ldiriladi, bu esa bunday engishning ideal shaklidir. Tahdid qanday shaklda bo'lishidan qat'i nazar, butunlay yo'q qilinishi kerak. Gap atrof-muhitning tajovuzkor niyatlariga qattiq qarshilik ko'rsatish, ularni yo'q qilish – murosasiz va yakuniy. Bu hal qiluvchi jami harakatlar tufayli mumkin bo'ladi, ular quyidagilardan iborat:

- 1) Dushmanni to'liq yo'q qilishga, shuningdek uning imkoniyatlaridan o'z niyatlarida foydalanishga qaratilgan tajovuz yoki profilaktik hujum. Dushmanning to'liq yo'q qilinishi uning hayotiy qo'llab-quvvatlashining asl mavzusi bo'lganligi sababli, tajovuz o'z qarorida chekinadi va unga intiladi.

2) Motivatsion va harakat shaklidagi regressiya, shuningdek, vaziyatlar va keyingi ta'sirlarni baholashda.

Shaxsning qadr-qimmatiga qattiq zarba berildi. Bu xulq-atvorning dastlabki shakllarining namoyon bo'lishini anglatadi. Bu chekinishning ma'lum bir shakli – baxtsiz shaxsning baxtsiz ongi bilan chekinishi. Ushbu holatning yengilligi uning ma'lum bir noto'g'ri tushunishi yoki odamning hazil darajasiga metamorfozi tufayli mumkin. Bu dunyoda hukmronlik qilish uchun har qanday da'voni yo'q qilish haqida. Shaxsning qadr-qimmatini aynan shu tufayli saqlab qolish mumkin [5].

3) Hayotiy da'volarni va ongsizlikka hukmronlik qilish niyatlarini bostirish. Biroq, freydizmning asosiy kontseptsiyasiga ko'ra, repressiya o'zining hiyla-nayrang ishini davom ettiradi va cheklash, harakatlarning bloklanishi natijasida nevrozga olib keladi. Repressiya faoliyat ko'rinishlariga befarq qolmaydi va unga ma'lum bir tartibsizlikni keltirib chiqaradi. Shunday qilib

4) Reaksiyaning shakllanishi ikki tomondan bosim ostida amalga oshiriladi: o'z moyilligini ko'rsatish zarurati va ularning bevosita va ochiq namoyon bo'lishini blokirovka qilish.

Keyin, Z.Freydning fikricha, noto'g'ri harakatlar paydo bo'ladi. Yolg'on ularning faqat tashqi belgisidir. Muayyan imtiyozlar, murosalar va boshqalar bilan bog'liq xatti-harakatlar muvozanati haqida gapirishimiz kerak. Hayotiy ko'rinishdagi muvaffaqiyatsizliklar, shaxsning o'ziga xosligini ifodalashda faoliyatni to'sib qo'yish uning majburan rivojlanishiga olib keladi.

5) Izolyatsiya, chunki shaxs boshqalar bilan samarali muloqot qilish imkoniyatiga ega emas.

Inson o'zini boshqalardan ajratilgan holda namoyon qila olmasligi sababli, biz bu haqda gapirishimiz mumkin.

6) O'z harakatlarida asl ifodani yo'qotish sifatida uning individualligini yo'q qilish. Inson hali ham qila oladigan narsa jismoniy mashqlar qilishdir

7) O'zining amalga oshirilmagan kuchlarini boshqa odamlarga proektsiyalash.

Shuningdek, insondagi har qanday mavjudotning yovuz tamoyilining proektsiyasi haqida gapirish kerak. Bu tendentsiyalar keyinchalik boshqalarda namoyon bo'lishi uchun asl mavzuning sub'ektivligidan chetga suriladi. Proektsiyaning o'zi mavjudligini anglash odamni o'zini o'zi salbiy, umumiy dushmanlikka olib kelishi mumkin. Buning aksi bo'ladi

8) Introspeksiya, tashqi ob'ekt bilan munosabatlar sub'ektning avtonomiya tuyg'usini oshirishi mumkin bo'lgan xayoliy ob'ekt bilan almashtirilganda. Fenomenologik jihatdan, bu inson o'zining avtonom ichki dunyosini qurishini, unga tashqi dunyodan ustunlik berishini, qochib ketishini, xususan, o'z orzulari, umidlari va hokazolar olamini anglatadi.

9) Sublimatsiyalar: harakatlarni bir sferadan boshqasiga yo'naltirish.

Sublimatsiya insonga tabiiy mayllarga asoslanib, o'z atrofida madaniy halo yaratishga, ya'ni tabiiy energiyani madaniyatga aylantirishga imkon beradi. Himoya mexanizmlarining o'zaro ichki aloqasi shunday. Ularning fenomenologiyasi tabiiydan madaniyga o'tishdir, lekin ayni paytda madaniy hodisalarning o'zlari o'rtasida aloqa o'rnatiladi. Biz nafaqat tashqi dunyoning kuchi ichki kuchlardan ustun bo'lgan himoya hodisalari haqida, balki tashqi dunyoni sub'ektning ehtiyojlarini qondirishi uchun ichki mexanizmlar asosida tashqi dunyoni o'zgartirish mexanizmlari haqida gapirishimiz mumkin [5].

Adabiyotlar

1. Фрейд А. Психология “Я” и защитные механизмы / А.Фрейд; Пер. с англ. М.Р. Гинзбурга. – М.: Педагогика, 1993. – 144 с.

2. Фрейд З. Введение в психоанализ: Лекции / З.Фрейд. - М.: Наука, 1989. – 456 с.

3. Фрейд З. Психопатология обыденной жизни / З.Фрейд // Психология бессознательного: Сб. произведений. – М.: Просвещение, 1990. – С. 202-309.

4. Фрейд З. По ту сторону принципа удовольствия / З.Фрейд // Психология бессознательного: Сб. произведений. – М.: Просвещение, 1990. – С. 382-424.

5. Тулупьева Т.В. Взаимосвязь особенностей личности и механизмов психологической защиты в детском возрасте / Т.В.Тулупьева //Психолого-педагогические проблемы личностного развития. – СПб.: Вестник БПА, вып. 38, 2001. – С. 89-92.

BO'LAJAK PSIXOLOGLARNING MATEMATIK KOMPOTENLIGINI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

A.M.Nazarov,

BuxDU, Psixologiya fanlari nomzodi dotsent

F.B.Hafizova

Pedagogika yo'nalishi Psixologiya mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Psixologlarning matematik kompetenligi muammosining tadqiq etilishi va mazkur muammo yuzasidan nazariy-amaliy tadqiqotlar tahliliga bag'ishlanadi. Shuningdek bo'lajak psixologlarning matematik kompetensiyaga doir bilimlarining rivojlantirish usullari haqida ilmiy va amaliy ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Matematik kompetenlik, kompetensiya, ta'lim, manbalar tahlili, texnologiya, diagnostika, intellekt, psixologik kompetensiya.

ⁱⁱBugungi kunda butun jahon hamjamiyatidagi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Uni hal etish uchun esa, ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, ta'lim jarayoni texnologiyalarini va so'zsiz ta'limning yakuniy maqsadini qayta ko'rib chiqish talab etiladi. Ta'limni jamiyat madaniyatini o'zlashtirish asosida ta'lim oluvchilarda faoliyatning turli sohalarida shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni mustaqil hal etish qobiliyatini rivojlantirishning maxsus tashkil etilgan jarayoni sifatida qarash mumkin. Ta'lim maqsadini bunday tushunish esa, o'z navbatida kompetentli yondoshuvni ro'yobga chiqarish uchun asos yaratadi. «Kompetentlik» va «kompetensiya» ta'limda kompetentli yondoshuvning asosiy tushunchalaridir. Manbalar tahlili esa, ularning ilmiy adabiyotlarda bir qiymatli ta'rifga ega

bo'lmagan murakkab, ko'p komponentli va fanlararo tushunchalar ekanligini ko'rsatadi. Tadqiqotchilar fikricha ular hajmi, turkumi, semantikasi va mantiqiy tuzilmasi bo'yicha farqlanib, kompetentli shaxs tavsifi (xususiyatlari, odatlari va boshqalar) sifatida qaralishi mumkin. Kompetentli shaxs tavsifi (xususiyat, shaxs sifati, uning komponenti), shaxs tuzilmasida yaxlit ta'lim, shaxs xususiyatlari tizimi, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash natijasida yuzaga keluvchi holatlar (tayyorgarlik, yo'naltirilganlik va boshqalar) sifatida ifodalanishi mumkin, ko'pincha esa, kompetentli bilim va tajriba bilan tenglashtiriladi.

G.K. Selevko kompetensiyani atrof-muhitni o'zgartirish bo'yicha maqsadni qo'yish va unga erishishga imkon beradigan bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi shakli sifatida tushungan. ⁱⁱⁱKompetentlik -bu shaxsning ta'lim olishi va ijtimoiylashuvi jarayonida egallagan hamda faoliyatda mustaqil va muvaffaqiyatli ishtirokiga yo'naltirilgan bilim va tajribalariga asoslangan, uning faoliyatidagi umumiy qobiliyat va tayyorgarligida namoyon bo'ladigan integrallashgan sifat. Ilmiy - metodik adabiyotlarda kompetensiyaning quyidagi an'anaviy tasniflari qayd etilgan: - javobgarlikni o'z zimmasiga olish, hamkorlikda qaror qabul qilishda ishtirok etish qobiliyatiga bog'liq siyosiy va ijtimoiykompetensiyalar; - madaniyati, tili va dinidan qat'iy nazar boshqa insonlar bilan yashashga, ularni tushunishga, ularga yordam berishga va o'zaro kelishmovchiliklarni bartaraf etishga yo'naltirilgan, jamiyat hayotida uchraydigankompetensiyalar; - kasbiy faoliyatda va jamiyat hayotida muhim bo'lgan yozma va og'zaki muloqotga egalikni aniqlovchikompetensiyalar; - axborot jamiyatining paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan kompetensiyalar (yangi texnologiyalarga ega bo'lish va ularning afzallik va kamchiliklarini aniqlash). Ular o'zaro bir-birini to'ldiruvchi va bir-biriga bog'liq bo'lgan tushunchalar. Xorijiy so'zlar lug'atida «kompetentlik» tushunchasi biror shaxs yoki muassasaning vakolati va huquqlari majmuasi yoki biror bir insonga tegishli ishlar, savollar majmuasi sifatida ta'riflangan. Fransuzcha «competent» so'zi kompetentli, vakolatli sifatida tarjima qilinadi. Shu bilan birga u yuridik ahamiyatga ham ega.

Ingliz tilida «competence» atamasida shaxsning sifati ma'nosi mavjud: kompetentlik - qobiliyat sifatida keltirilgan . Kompetensiya tushunchasi quyidagilarni ifodalaydi: -bitiruvchining tayyorgarligi, «mutaxassislashtirilgan» ligi, faoliyat usullari va vositalariga haqiqiy egaligi, qo'yilgan masalalarni hal eta olishligi bilan ifodalanuvchi ta'limnatijasi; - atrof - muhitni shakllantirib maqsadni qo'yish va unga erishish imkonini beruvchi bilim, ko'nikma va malakalarningmosligi.O'zbek tilidagi « - lik» qo'shimchasi ma'lum sifatga egalik darajasini bildiradi. Shuning uchun «kompetentlik» atamasi ma'lum sifatlar va ularga egalik darajasini belgilash uchun qo'llaniladi.

Kompetentlik - deganda ko'pincha shaxsning faoliyat yuritishga umumiy qobiliyati va uning kasbiy tayyorgarligida namoyon bo'luvchi ta'lim jarayonida o'zlashtirilgan bilim va tajribalarga asoslangan integrallashgan sifatlaritushuniladi. Demak, kompetensiya va kompetentlik tushunchalari bilim, malaka va ko'nikma tushunchalaridan kengroq, chunki ular shaxsning yo'naltirilganligi, muammolarni his qila olishi, sinchkovlikni namoyon qila olishi, egiluvchan fikrlashga ega bo'lishi kabi sifatlarni o'z ichiga oladi.«Kompetentlik» va «kompetensiya» atamalari sinonim tushunchalar bo'lib, bu tushunchalar O'zbekiston pedagogikasida yangi hisoblanadi. Shuning uchun ularning turli xil talqinlari mavjud. Oliy ta'limning ^{iv}Davlat ta'lim standartida kompetensiya va kompetentlik tushunchalariga quyidagicha ta'riflar berilgan: kompetensiya - bilim, malaka va shaxsiy sifatlarni ma'lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun qo'llay olish; kompetentlik shaxsning muayyan ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha olgan bilim, malaka va ko'nikmalari hamda shakllangan shaxsiy hislatlarini mehnat faoliyatida muvaffaqiyatli qo'llay olish qobiliyatidir. Demak, kompetentlik bu aniq faoliyatni amalga oshirish uchun bilim va tajribalarga ega bo'lgan shaxs tavsifi bo'lib, u ta'lim oluvchi tomonidan alohida bilim va ko'nikmalarni emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrallashgan bilimlar va sifatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. ^vTayanch kompetentlik oliy pedagogik ta'limning

har bir bosqichi uchun ta'lim bloklari va o'quv fanlari darajasida aniqlanadi. Tayanch kompetentlik tartibini belgilashda kasbiy pedagogik ta'limning asosiy maqsadlariga muvofiq ijtimoiy va shaxsiy tajribaning mohiyati, ijtimoiy jamiyatda kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida hayotiy ko'nikmalarni egallashga imkon beruvchi asosiy turlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu nuqtai nazardan ular quyidagi kompetentlik turlariga bo'linadi:

Yaxlit -mazmunli kompetentlik. Bu talabaning qadriyatli yo'nalishlari bilan bog'liq, uning ijtimoiy borliqni his eta bi lishi va tushunish qobiliyati, mustaqil hayot yo'lini topa olishi, o'zining ijtimoiy jamiyatdagi roli va o'rnini anglab yetishi, harakatlarni tashkil etishda aniq maqsadni belgilash hamda qaror qabul qilish malakasi, dunyoqarashi bilan bog'liq kompetentlik , u talaba uchun o'quv va boshqa vaziyatlarda o'zini aniqlash mexanizmini ta'minlaydi. Talabaning individual ta'lim yo'nalishi va uning hayotiy faoliyatining umumiy dasturi ana shu kompetentlikka bog'liq. ^{vi}Ijtimoiy - madaniy kompetentlik. O'quv - bilish kompetentligi. Bu talabaning o'rganilayotgan aniq ob'yektlar bilan bog'liq mantiqiy, metodologik va ijtimoiy faoliyati elementlaridan iborat bo'lgan mustaqil fikrlash kompetentliklarining to'plami bo'lib, unga maqsadni ko'ra bilish, faoliyatni rejalashtirish, uning mazmunini tahlil qilish, refleksiya, faoliyatga shaxsiy baho berish borasidagi bilim va malakalari kiradi. O'rganilayotgan ob'yektlarga nisbatan talabalar kreativ ko'nikmalar, ya'ni bilimlarni bevosita borliqdan olish, nostandart vaziyatlarda muammoni hal etishning harakat usullari va evristik metodlarini egallaydi. Axborot olish kompetentligi. Kommunikativ kompetentlik. Ta'lim oluvchilar bilan o'zaro munosabatlar, ularning usullari, muloqot jarayonida ustuvor o'rin tutuvchi tilni o'zlashtirish, guruhlarda ishlash ko'nikmalari, jamoada turli xil ma'naviy - ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishni bilishni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy - faoliyatli kompetentlik fuqarolik (fuqaro, kuzatuvchi, saylovchi, vakil vazifasini bajaruvchi), ijtimoiy - mehnat sohasi (iste'molchi, xaridor, mijoz, ishlab chiqaruvchi huquqlari), oilaviy munosabatlar va majburiyatlar,

iqtisod va huquq masalalari, kasbiy, shuningdek, shaxsiy mavqeini aniqlash borasidagi bilim va tajribalarni egallash (xususan, mehnat bozorida mavjud vaziyatni tahlil qilish, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarni ko'zlab harakat qilish mahorati, mehnat hamda fuqarolik munosabatlarining odobini bilish) ni anglatadi. Shaxsning o'z - o'zini takomillashtirish kompetentligi ma'naviy, motivatsion, intellektual va amaliy jihatdan o'z-o'zini rivojlantirish, irodaviy va hissiy jihatdan o'z - o'zini boshqara olishga qaratilgan.

Kasbiy faoliyatni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan kompetentlikning asosiy elementlari Davlat ta'lim standartlarida o'z ifodasini topgan. Kompetentlik tushunchasi nafaqat aniq bilim va ko'nikmalar, balki aniq strategiya, mos emotsiya va munosabat, xuddi shuningdek, butun bir tizimni boshqarish mexanizmi mavjud ekanligi talab etiladigan murakkab amaliy masalalarni hal etish bilan bog'liq. U o'z ichiga nafaqat kognitiv tashkil etuvchini, balki qadriyatli yo'nalganlikning motivatsion, etik, ijtimoiy va ahloqiy tizimlarini ham oladi. Kompetentlik faoliyatning aniq sohasida, aniq mutaxassislikda namoyon bo'ladi. Psixologik kompetentlik–pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta'lim jaraenining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olishdan iborat.

TARBIYASI OG'IR O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHNI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK TA'SIR MEXANIZMLARI

H.B.Ismatova

BuxDu Pedagogika kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlashni tashkil etish, o'quvchilar faoliyatini stimullashning metodik imkoniyatlari hamda pedagogik ta' xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogika, baholash, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar, stimullashtirish, rag'batlantirish, ijodkorlik.

Amerikalik olim G.Overstritning ta'kidlashicha, xulq-atvorimiz va xatti-harakatlarimiz zamirida biz uchun eng qimmatli bo'lgan orzularimiz yotadi. Kimnidir u yoki bu ko'rinishdagi xatti-harakatlarni bajarishga undashni o'z oldigan vazifa qilib qo'yganlar uchun eng yaxshi maslahat shunday: avvalo o'z suhbatdoshingizni nimanidir qattiq istashga majbur qiling. Kimki buni uddalay olsa, butun dunyoni egallaydi, agar uddalay olmasa, yakkalanib qoladi.[1]

O'quvchining niyatini bilishga harakat qiling. Niyat ehtiyoj asosida paydo bo'ladi. Masalan, o'quvchi fermer bo'lishni niyat qildi deylik. U har kuni xo'jalikda biror bir ish qilishni niyat qiladi. U hamma narsani o'ylab qo'ygan, rejalashtirgan, hatto vaqt byudjetidan bir qismini shu ish uchun ajratgan. O'ylab ko'ring, agar qo'pol ravishda uning rejalarini buzib qo'ysangiz nima bo'ladi. Agar o'qituvchi o'z ishlarini belgilab qo'ygan bolaga rejalarini o'zgartirib yuboradigan topshiriq bersa, u muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Shunday – ikki yo'ldan birini tanlash vaziyatiga tushib qolgan o'quvchining xulq-atvorida keskin o'zgarishlar paydo bo'ladi.

O'quvchilarga o'z oldilariga qo'ygan niyatlariga erishishlari uchun yordam berish yo'lini qidiring. Gap shundaki, ko'pincha niyat vaziyatli motivlar ta'sirida vujudga keladi va o'quvchi bu niyatini amalga oshirishi uchun kuchi etish-etmasligi haqida o'ylab ham o'tirmaydi. Hayotda bunday voqealarni tez-tez uchratib turish mumkin. Masalan, o'quvchi onasining zorlanib yalinishlari, ko'z yoshlariga azbaroyi achinganidan o'z xulq-atvorini o'zgartirishga ahd qiladi. Ammo mavjud vaziyat, muhit uning imkoniyatlaridan ko'ra kuchliroq, o'ylagan niyatini amalga oshirish uchun uning kuchi etmaydi. Bergan va'dasining ustidan chiqmaganligi uchun uni ortiqcha tergamang. Yaxshisi uning ko'nglini ko'tarib, unga aniq va kuchi etadigan maqsadlar qo'yishga yordam bering. Agar maqsadlar murakkab va unga erishish uchun uzoq vaqt talab etiladigan bo'lsa, uni amalga oshirish uchun qanday qilib, sekin-asta harakat qilish lozimligini tushuntirib boring.

O`quvchining hurmatga sazovor bo`lish istagini rag`batlantiring. Hurmat-e`tibor qozonish istagi hamma odamda mavjud bo`ladi. Ko`pgina bolalar bilim uchun emas, balki e`tiborga tushish uchun o`qishga harakat qiladilar. Ularni yuqori darajadagi raqobat muhiti o`ziga tortadi. Agar bu stimul o`quvchi ongida ildiz otib, o`rnishib qolgan bo`lsa va ta`lim jarayoniga ijobiy ta`sir ko`rsatsa, undan to`g`ri foydalanishga harakat qilish kerak.

“Odamlar nazariga tushish” dan umidini uzgan, o`z-o`ziga nisbatan past baho beradigan o`quvchilarga qanday qilib shu “kasallik”ni yuqtirish mumkin? Bu o`rinda turli xildagi hissiy-irodaviy sohalarga murojaat qilishga va turli xildagi nostandart qarorlar qabul qilishga to`g`ri keladi. Masalan, o`quvchiga “dushmanlarini o`ldirish”ga yordam bering. Ko`pgina odamlar o`zida mavjud bo`lgan qo`rquv va irodasizligi tufayli o`z imkoniyatlarini, layoqatlarini namoyish eta olmay qolib ketganliklarini o`quvchiga tushuntiring. Tish doktoriga borib qiynalgandan ko`ra, tishsiz qolgan osonroq emasmi?!

O`quvchini uni cho`chitadigan muhitda yolg`iz qoldirmang, toki u bunday vaziyatda yo`l topishni o`rganib olmaguncha. O`quvchi doska oldida javob berishga qo`rqsa, u bilan yakkama-yakka tarzda mashq qiling. Sizing vazifangiz – o`quvchida o`ziga ishonch hissini paydo qilishga yordam berish. Faqat shundan so`nggina u mustaqil ravishda “dushmanlar bilan jangga” kira olishi mumkin. Shuni unutmangki, xavotirlik darajasi yuqori bo`lgan o`quvchilarning 75% i yangi tanbehlaru kundalik daftardagi yozishmalarni emas, balki, aynan, sizning qo`llab-quvvatlashingizni kutib turadi.

O`quvchi xatti-harakatlari oqibatini ko`rsating. Tadqiqotchi A.Gavrilova turli yoshdagi o`quvchilarga maxsus tuzilgan matnni o`qib, uni davom ettirishni topshiradi. [3] Bu matnda bir bola o`ziga sovg`a sifatida berilgan kuchukcha o`zining oldingi xo`jayinini qo`msayotganligini sezib qoladi. Bu vaziyatda bolaning oldida ikki yo`l – kuchukchani o`z egasiga qaytarish yoki o`zida qoldirish shartidan birini tanlash turibdi. O`quvchilar matnni davom ettirib, bola bu kuchukchani oldingi egasiga qaytaradimi yoki o`zida qoldiradimi, shuni yozishlari

kerak edi. Bu tajribada ishtirok etgan o`quvchilarning deyarli hammasi “bola kuchukchani o`zida qoldirishi kerak”, – deb yozishgan. O`quvchilarda qiyin ahvolda qolgan hayvonlargagina emas, hatto odamlarga nisbatan ham hamdardlik bildirish hissi yo`qligi aniqlangan.

Tajribali pedagoqlardan biri bilan suhbatlashganimizda, u shunday dedi: “Men Olimjonga hech qanday bilim, malaka, ma'lumot talab etilmaydigan faoliyat turlari haqida bir nechta hayotiy misollar keltirishni taklif etdim. Agar shu topshiriqni bajara olsa, men unga o`z fanimdan ijobiy baho qo`yishga va`da berdim. Men uchun kutilmaganda Olimjon mening savolimga javob bera olmasligini aytdi. Demak, bizning o`zaro suhbatlarimiz unga ta'sir o`tkazibdi. U darslarda ancha yaxshi natijalar ko`rsata boshladi. Keyinchalik unga e'tibor qaratgan yagona kishi ekanligimni u tan oldi”.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bilimlarni o`zlashtirish jarayoni murakkab psixik operatsiyalar bilan bog`liq. Ayniqsa, kichik maktab yoshi o`quvchilarining bilimlarni o`zlashtirish jarayonlari o`ziga xos nozik jihatlari bilan boshqa yosh davrlaridan farq qiladi.

Adabiyotlar

1. Karnegi, Deyl. Do'st orttirish va odamlarga ta'sir ko'rsatish. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – 720 b.
2. Overstreet, H. A. 1925. Influencing human behavior. New York: W.W. Norton.
3. <https://www.labirint.ru/books/428685/>

**INGLIZ TILINI O'RGANISHDA INTERFERENSIYA MUAMMOSI,
TAHLILI, CHET TILI DARSLARIDA FOYDALANISHDA SAMARALI
DIDAKTIK VOSITALAR**

G.Nuratova,

BuxDU, Pedagogika nazariyasi va tarixi

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Maqolada ingliz tilining o'zbek tili bilan leksik, grammatik, orfografik jihatdan qiyosiy tahlili o'xshashlik va farqli jihatlari xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Interferensiya, til interferensiyasi, madaniyatlararo , flannelegraf, flipchart

Chet tili o'rganuvchilar nutq jarayonida ba'zi qiyinchiliklarga duch kelishlari natijasida bir qancha xatoliklarga yo'l qo'yadilar. Xatoliklarga sabab bo'luvchi muammolardan biri bu interferensiyadir. Interferensiya lotincha so'z bo'lib , inter + ferio salbiy ta'sir ,to'siq, g'ov kabi ma'nolarni anglatadi. Bu til hodisasini yurtimiz olimlari J.Bo'ronov, J.Jalolov, O'.Yusupov, M.Djusupov xorijlik olimlardan R.Stockwell, W.Mackey o'rgangan. J.Jalolov fonetik qiyinchiliklarni, T.Sattorov grammatik qiyinchiliklarni M.Djusupov esa fonetik va leksik qiyinchiliklarni o'rgangan.

Interferensiya tillararo tashqi va interferensiyaga bo'linadi. Professor J.Jalolov interferensiyani 3 turga ajratilishini ta'kidlaydi va uni quyidagi turlarga bo'ladi:

- 1) til interferensiyasi
- 2) madaniyatlararo interferensiya
- 3) metodikalararo interferensiya

Til o'rganish jarayonida turli madaniyatlarning bir biriga mos kelmasligi natijasida madaniyatlararo interferensiya hodisasi yuzaga keladi. Bertholdning fikricha, interferensiya fonologik, grammatik, leksik va orfografik ko'rinishni o'z ichiga oladi.

Fonologik interferensiya urg'u, ritm, ohang, tovushlarni qo'llashda ona tilining o'rganilayotgan tilga ta'siri hisoblanadi. O'zbek tilimizda barcha harflar to'liq o'qiladi, ammo ingliz tilida bunday emas: so'z oxiridagi " e" unli harfi ko'pincha o'qilmaydi: fame, came, same, give [giv] .

Shuningdek o'quvchilar inglizcha digraflarni to'g'ri o'qishda ham bir muncha qiyinchiliklarga duch keladilar: bunda guruh bo'lib o'rganganda qiziqish va raqobat kuchayadi, proyektor va animatsion slayddan foydalanib, ovoz kuchaytirgich kolonkalardan foydalanilsa ingliz tili fonetikasi samarali o'rganilardi:

Digraf lar	O'qilis hi	Misoll ar	Transkripsiya
Ch	[tsh]; [k]	Child Chara cter	[tshaild] [kaerekte]
Th		Think; This	[sink]
Ck	[K]	Clock	[KLO K]
Ph	[f]	Phone	[Feun]
Wh	[w] O'qilm aydi	What Who	[uot] [hu:]
Wr	[r]	Writer	[raite]
ei		may	[mei]
oy		Toy	[toi]
aw	[o]	law	[lo]

Grammatik interferensiya so'z birliklari, olmosh, zamon, mayllarni ishlatishda bir tilni ikkinchi tilga ta'sirida yuzaga kelgan grammatik xato hisoblanadi. Ma'lumki, rus talabasi o'zbeklarga nisbatan kamroq bu masalada xato qiladilar chunki bular bir til oilasiga mansubdirlar. Rus tilida ega kesim so'ngra ikkinchi darajali bo'laklar keladilar, o'zbek tilida esa aksincha.

Ingliz tilida: You often go to the cinema.

Rus tilida: Вы часто идите в кинотеатр

O'zbek tilida: Siz tez tez kinoga tushasiz.

Grammatik interferensiya hodisasida Kahoot o'quv dasturidan grammatik testlar ishlansa foydaliroq, mashqlar bilan birgalikda bajarilsa tezroq o'zlashtirilardi.

Leksik interferensiya. Bu so'zlarni o'z o'rnida emas, aksincha, quyidagi holatlardagi kabi noto'g'ri qo'llashdir.

1. He is a beautiful boy. (noto'g'ri)

2. She is a beautiful girl. (to'g'ri)

Ma'lumki, ingliz tilida <<beautiful >> va <<handsome>> so'zlari bir ma'noni anglatadi, lekin ularning qo'llanish usuli turlichadir. <<Beautiful>> go'zal, chiroyli, xushbichim va sohibjamol degan ma'noni anglatib, qiz va ayollarga nisbatan ishlatiladi. <<Handsome sifati esa „ko'rkam" barno, kelishgan, o'ktam degan ma'nolarni anglatib, erkaklarga nisbatan ishlatiladi.

2. Can you see that handicapped man? (noto'g'ri)

Can you see the impaired visual man? (to'g'ri)

Or. Can you see that high man? irregular

Can you see that tall man? (regular)

"High " so'zi insonga emas balki bino, daraxt, tog' va h.k.larga nisbatan ishlatiladi. Tall so'zi esa bo'yi baland ma'nosida insonlarga nisbatan qo'llaniladi. Bu kabi tilga oid farqlarni Stilistika ya'ni uslubshunoslik fani o'rganadi. bo'ladi. Hozirgi kunda seminar, ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va taqdimotlar paytida eng qulay ta'lim vositalaridan biri bu flipchartdir. Uning ko'chma ekanligi yanada

o'qituvchi uchun qulaydir, flipchartlarning bir necha turlari bor: keng foydalanishdagi eng osoni sifatida markerli flipchart hisoblanadi.

1. Qog'ozli flipchart
2. Markerli flipchart
3. Magnitli
4. Magnit marker flipchart (aralash)

Yana bir ommalashib borayotgan didaktik vositalardan biri flanelegrafdir. Bu ta'lim vositasi asosan bog'cha yoshidagi bolajonlar va boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan. Bu didaktik vositani ishlatish va uyda tayyorlash juda oson, uni gilam astarcha deb ham nomlasa bo'ladi. To'plamda turli geometrik shakllar, hayvonlar, tabiat hodisalari va boshqa predmetlar ham mavjud. 1, 5 yoshda bola syujetli o'yinlar o'ynashi kerak: ertaklar she'rlarni tasvirlab, hikoyalarni sahnalashtirish ifodali ijro etishda flanelegrafdan foydalanish mumkin. Bu bolani solishtirish, yodlash, obyektlarni guruhlash kabilarga o'rgatishni osonlashtiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, so'zlarni leksik jihatdan to'g'ri qo'llash, o'z o'rniga qo'yib xatosiz gap tuzish, fonetik jihatdan to'g'ri talaffuz qilish va orfografik jihatdan to'g'ri yozib, o'qish xorijiy tillarni muvaffaqiyatli o'rganish garovidir. Shu sababli tildagi interferensiya hodisasini o'quvchi - talabalar ham nazariy ham amaliy jihatdan o'rganishlari maqsadga muvofiq. O'qituvchi esa dars davomida turli mashq va o'yinlar orqali tillarni qiyoslash orqali ularning o'xshashlik va farqini o'quvchi talabalarga shunday o'rgatmog'i lozimki ularning chet tilida yo'l qo'yadigan xatolari turg'un xatoga aylanib qolmasin. O'z o'zini esa bilimlarni tekshirish va nazorat, tahlil etsalar tildagi 4 aspektni (writing yozish ko'nikmasi, speaking gapirish, listening tinglash, reading - o'qish mahorati) osonroq o'zlashtirishga erishadilar.

Adabiyotlar:

1. T.Q. Sattorov. Til talimida interferensiya hodisasi xususida. // Davlat tilining huquqiy maqomi: muammolar, yechimlar. TDYI ilmiy - amaliy anjumanlar materiallari. 2 - son T.2005.23 - bet.

2. Д.Д.Джалолов. Типология методики обучения иностранному языку (к постановке проблемы) // Замонавий германистика ва чет тилларни уқитиш масалалари. ИАА материаллари Нукус, 2010.3 - 6- Бет

3. Ekaterine Archvadze. The problems of first language Interference in the process of teaching Second languages. Tsereteli State University, Associated Professor, Kutaisi, Georgia.

PSIXOLOGIYADA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR MUAMMOSINING O'RGANILGANLIK HOLATI XUSUSIDA

M.B.Nabiyev

BuxDU, Psixologiya mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada psixologiya sohasining asosiy muammolaridan sanalmish shaxs va shaxslararo munosabatlar haqida mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, ushbu muammoning o'rganilganlik holatiga oid psixolog olimlarning ilmiy tadqiqotlaridan iqtiboslar keltirilgan.

Kalit so'zlar: psixologiya, shaxs, shaxslararo muloqot, muomala, o'smir, o'spirin, ta'lim, tarbiya, individ, individuallik, kommunikativ, pertseptiv, tafakkur, idrok, ijtimoiy muhit.

Mamlakatimizda yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'g'il-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma'naviyatli bo'lib ulg'ayishi uchun zarur sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Zero, muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni

ye'chish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi"(1.102 – b.) degan fikrlari aynan yoshlarga davlat siyosati darajasidagi e'tibordan dalolatdir.

O'smirlik davrida ham yosh davrlari o'rtasidagi eng murakkab mexanizmlar yuzaga keladigan davr hisoblanadi. O'smir jismoniy o'sishi bilan birgalikda tafakkurning rivojlanishi ongli ravishda ko'plab bilim va axborotlarni qabul qilishida takomillashadi. O'smirlik inson shaxsining kamol topishida alohida o'rin egallaydi. U inson taraqqiyotining muhim bosqichi hisoblanadi. O'smirlik davrida ahamiyatga ega bo'lgan psixologik o'zgarishlar ro'y beradi.

O'smirlik davri muayyan ijtimoiy turmush sharoitida keyingi kamol topishi uchun zarur ta'lim-tarbiya ta'sirida barqaror mustahkam bo'lib qoluvchi xislatlar namoyon bo'ladi. O'smir taraqqiyotiga erishgan sayin uning psixik dunyosida yangi fazilatlar va sifatlar paydo bo'la boshlaydi, aslida keskin qayta qurish sodir bo'ladi. Bu davrda mustaqil tafakkur, dunyoqarash, e'tiqod, o'zlikni anglash, baholash shakllanadi.

Shaxsning shakllanishida faoliyat, xulq-atvor qanday rol o'ynasa, shaxslararo munosabatda muloqot ham xuddi shunday hal qiluvchi vazifani bajaradi. Jahon psixologiyasi fanida muloqotning tuzilishi, uning maqomi, o'ziga xos xususiyatlari, munosabatga kirishishning bosqichlari va uslublari yuzasidan muayyan darajada ma'lumotlar to'plangan. Lekin uning asosiy psixologik tavsiflari, tuzilishi va o'zaro bog'liqligi, harakatlantiruvchi mexanizmlari masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar juda kamchilikni tashkil etadi.

Rus psixologi B.F.Parigin muloqotning psixologik jihatdan murakkab ekanligi haqida ta'kidlab, shunday yozadi:

“Muloqot shunchalik ko'p qirrali jarayonki, unga bir vaqtning o'zida a) individlarning o'zaro ta'sir jarayoni; b) individlar o'rtasidagi axborotga munosabat jarayoni; v) bir shaxsning boshqa shaxsga munosabati jarayoni; g)

bir kishining boshqalarga ta'sir ko'rsatish jarayoni; d) shaxsning bir-birlarini tushunish jarayoni kabilar kiradi".(5, 67 – b.)

Muloqot muammosini tadqiq qilishda uzoq va yaqin chet el psixologlari asarlarida o'z ifodasini topgan juda foydali va boy ilmiy materiallarga asoslanish joiz. Bu o'rinda jahon psixologiyasi muloqot muammosi tadqiqotining boshlovchilaridan, eksperimental yo'nalishning yorqin namoyondalaridan biri bo'lmish V.M.Bexterev ijodiyotini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

V.M.Bexterevning jamoaviy tajribasida va ijtimoiy-psixologik nazariyasida insonlarning bir-birlariga o'zaro psixologik ta'sir etish muloqot muammosida markaziy o'rinni egallaydi. V.M.Bexterev ijtimoiy hayotda muloqotning rolini tavsiflab, uning funksiyalarini hamkorlik faoliyatini amalga oshirish mexanizmi va jamoaviy sub'ektni shakllantirish sifatida ajratib, individual tajribani saqlab qolish va yoyishning, uni avlodlarga uzatishning, ijtimoiy qadriyatlarning tarixiy vorisligini ta'minlashning sharoiti tariqasida talqin qiladi. Uning fikricha, shaxsning atrofdagi odamlar bilan aloqasi, muloqoti qanchalik xilma-xil va boy bo'lsa, uning taraqqiyoti shunchalik muvaffaqiyatli amalga oshadi.

L.S.Vigotskiy fikricha, ontogenezdada genetik jihatdan birlamchi o'zaro ta'sir bahs, dialogdir; ikkilamchi esa individning ongi, ruhiy jarayonlarining individualligidir. "Biz madaniy rivojlanishning umumiy genetik qonunini mana bunday shaklda ifodalashimiz mumkin, - deb yozadi. L.S.Vigotskiy, - bolaning madaniy o'sishida har qanday funksiya baholanish uchun ikki marta, ikki xil rejada paydo bo'ladi. Avval-ijtimoiy, keyin psixologik, shuningdek, shaxslararo interpsixologik kategoriya sifatida so'ng bola ichki dunyosida intrapsixologik kategoriya tariqasida".

L.S.Vigotskiy quyidagi yo'nalishni qayd qiladi: muomala-intereorizatsiya-ichki nutq-eksteriozatsiya-tashqi nutq, muomala. Demak,

olimning ta'kidlashicha, birlamchi antogenetik muomala natijasida birlamchi ijtimoiylashuv yuzaga keladi.

Psixolog V.N.Myasishchev asarlarida muloqot psixologiyasining nazariy va tadbqiqiy muammolarga asosiy etibor qaratilgan. V.N. Myasishchev o'z konsepsiyasini "Shaxsning munosabatlar psixologiyasi" deb nomlaydi. Agar ko'pchilik mualliflar muloqotni o'rganish kishilar o'rtasida o'rnatiladigan nutqiy kommunikatsiya sifatida tadqiq etish bilan cheklangan bo'lsalar, V.N.Myasishchev uning rasmiy va ma'naviy tavsiyalarining bosh masalasiga qat'iy ahamiyat beradi, uni yaxlit holda qarashga intilib, muayyan shaxslarning o'zaro ta'sir jarayoni, ma'lum ma'noda birining ikkinchisiga bog'liqligi va bir-biriga ta'sir o'tkazuvchanligi tarzida qaraydi.

Muloqot muammolari L.S.Vigotskiy ishlarida ham ko'rib chiqilgan. Uning konsepsiyasiga binoan, bolaning ruhiy rivojlanishi tug'ilganidan e'tiboran ijtimoiy qonuniyatlar bilan aniqlanadi, insonning tug'ilishidan tortib to butun umr bo'yi uni qurshab turgan borliq bilan o'zaro ta'sirida muloqot muhim o'rinni egallaydi. L.S.Vigotskiy bolaning ruhiy dunyosida va tashqi hatti-xarakatida hal qiluvchi qonuniyatni quyidagicha izohlaydi: "Bolaning shaxsiy faolligini namoyon bo'lishining asosiy yo'li kattalar bilan muloqoti hisoblanadi... Uning tashqi olamga munosabati hamisha boshqa odam orqali munosabat bildirishdir". (3. 240 – s.)

V.N.Myasishchevning asarlarida munosabatlar xususiyatini aniqlashga keng o'rin berilgan bo'lib, ular muloqotga kirishuvchi odamlar shaxsining asosiy xususiyatlarida namoyon bo'luvchi aql, hissiyot, iroda kabilarga ta'sir etadi. U odamlar bilan munosabatga kirishishi va xulq-atvor usullarini shakllantirishning roli haqida gapirib, ular tassurotlarda va kechinmalarda aks etishini alohida ta'kidlaydi, hamda atrofdagi kishilar o'zaro munosabatda asta-sekin boyib borishiga e'tiborni qaratadi.

Shaxsga muomalaning ta'sir etish sharoitlari va psixologik omilari V.N.Myasishchev tadqiqotlarida alohida ahamiyat kasb etadi. So'z ta'siriga

moyillik ko'p jihatdan tashqi ta'sirlarga berilish darajasiga, qayta ishontirish qobiliyatiga bog'liq. Uning fikricha, moyillik shaxsning intellektual xarakterologik barqaror xususiyati mahsuli emas, balki odamlarning o'zaro munosabatlari natijasi hisoblanadi. (4, 74-79 b.)

V.N Myasishchevning ta'kidlashicha, odamlarning o'zaro munosabatlari bilan ularning bir-birini muloqotda aks ettirish o'rtasida aloqa mavjud bo'lib, muloqotda shaxsning munosabatlari turli faollik, tanlovchilik, ijobiy va salbiy xususiyati bilan aks etadi. Muloqot yoki munosabat shakli, usuli insonning insonga murojaati sifatida qaraladi.

B.G.Ananevning fikriga ko'ra esa, muloqot faoliyatning o'ziga xos turi sifatida talqin etilishida uning alohida va bosh tavsifi boshqalar bilan inson o'z munosabatlarini muloqot orqali amalga oshirilishidir. B.G.Ananev ushbu fikrni atroflicha tahlillash uchun «Inson bilish predmeti sifatida» nomli asarida quyidagi mulohazani keltiradi: “inson hulqi ijtimoiy faoliyatlar ko'rinishlarining nafaqat murakkab kompleksi sifatida namoyon bo'ladi”, uning yordamida qurshab turgan tabiat moddiylashadi, u muloqot shaklida har xil ijtimoiy tuzilmalarda odamlarning o'zaro amaliy ta'siri kabi gavdalanadi.

B.G.Ananev muloqotning nutqli va nutqsiz, noverbal vositalaridan tashqari, uning ichki tomoni-muloqotdoshlarning bir-birini bilishga ajratadi. Uning ta'kidlashicha, muloqot vositasi yordami bilan bola dastavval kattalar tomonidan tashkil qilinadigan ta'lim va tarbiya aktiga qo'shiladi, so'ng u o'zini qurshab turgan voqelikni egallashga, idrok qilishga o'rgana boradi, ijtimoiy va predmetli dunyoda jamiyatda yaratilgan ashyoviy operatsiyalar usuli va shakliga binoan to'g'ri harakat qilishga odatlana boshlaydi, ma'lum tarixiy-ijtimoiy tuzum, muayyan muhit tomonidan qabul qilingan xulq-normalari, etalonlariga moslashishga intiladi. Bu jarayon biologik va ijtimoiy omillar, mukammal ta'sir o'tkazish va ma'naviy vositalarni egallash hamda o'zini o'zi namoyon etish orqali amalga oshadi.

Muloqot sub'ektlar bilan ijtimoiy aloqa o'rnatish, didaktik (tarbiyaviy) funksiyani bajarish bilan birga, psixik rivojlanish jarayonini va inson shaxsining ijtimoiy taraqqiyotini to'g'ridan – to'g'ri belgilaydi.

Muloqotning turli shakllari yoki bosqichlari mavjud bo'lib, dastlabki bosqichi insonning o'zi bilan o'zining muloqot qilishi hisoblanadi. Muloqotning ikkinchi bosqichi boshqalar bilan muloqotda bo'lishdir.

Rus psixologi A.N.Montev o'zining «Psixika taraqqiyotidan ocherklar» nomli asarida muloqotning uchinchi shakli-avlodlar o'rtasidagi muloqotning ahamiyati to'g'risida shunday yozadi: «Agar barcha katta avlod o'tib ketganda, insoniyat turi yo'q bo'lib ketmasdi, lekin jamiyatning taraqqiyoti ancha orqaga surilibgina emas, yo'qolib ham ketishi mumkin edi».

Haqiqatan ham avlodlararo muloqotning mavjudligi tufayli har bir jamiyatning o'z madaniyati, madaniy boyliklari, qadriyatlari mavjud bo'ladiki, buning ahamiyatini tushungan insoniyatning eng ilg'or vakillari uni doimo keyingi avlodlar uchun saqlab keladilar, hamda tarbiya va kundalik muloqot jarayonida uni avloddan-avlodga uzatadilar. (2. 224 – b.)

Demak, ta'lim-tarbiya jarayonida muloqotning barcha vositalariga, ayniqsa nutqqa e'tibor berish kerak. Bolalarni ilk yoshlik chog'idanoq nutq madaniyatiga o'rgatish, muloqotchanlik xususiyatini shakllantirish kerak. Pedagog ana shunday muloqotchanlikka ega bo'lishi kerakki, u avvalo uning faoliyatini to'g'ri tashkil etishini ta'minlasin, qolaversa, bolalarda muloqotchanlikning o'sishiga yordam bersin.

Buyuk pedagog V.A.Suxomlinskiy o'qituvchining madaniyati, muloqotchanligi haqida gapirib, bu madaniyatning tarkibiy va asosiy qismi nutq madaniyati ekanligini ta'kidlagan edi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston”. – 2017.– 102b.
2. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. T.: A.Qodriy nomidagi nashriyot. 1993. 224 b.
3. Ageev V.S. Mejgrunnovoe vzoimodeystvie. –M.: MGU, 1990-240 s
4. Petrovskaya L. A. Kompetentnost v obshenii. Moskva; 1998, 74-79 b.
5. G‘oziev E.G‘. Muomala psixologiyasi. T.; O‘z MU.; -2001. 67 –b.

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA TIZIMLI YONDASHUVNING MOHIYATI

Sh.H.Quliyeva,

“Texnologik ta'lim” kafedrasi dotsenti,

M.M.Isoqova,

BuxDU magistranti

Annotasiya: Ta'lim sohasida tizimlar nazariyasi, tizimli yondashuv mazmuni hamda oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda tizimli yondashuvning mohiyati keltirilgan.

Kalit so'zlar: tizim, tizimlar nazariyasi, tizimli yondashuv, yaxlit tizim, pedagogik jarayon.

O'zbekiston taraqqiyotida xalqning boy ma'naviy salohiyati va umuminsoniy qadriyatlarga hamda hozirgi zamon madaniyati, iqtisodiyoti, ilmi, texnikasi va texnologiyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lim tizimini barpo etish dolzarb ahamiyatga ega.

Ta'lim sohasida tizimlar nazariyasi, tizimli yondashuv va ularga tegishli bo'lgan tushunchalar ba'zi olimlar, ilm-fan namoyondalari tomonidan «Tizimli

yondashuv» deb yuritilsa, ba'zi olimlar tomonidan esa «majmualiy yondashuv» «bir tartibga keltirish», «tartibga solish» singari iboralar orqali ifoda etilmoqda. Ijtimoiy voqelikka oid qo'llanilayotgan bunday murakkab ilmiy tushunchalar nisbatini qiyosiy solishtirsak, ko'pchilik tomonidan «tizimli yondashuv» qabul qilinganligi ma'lum bo'lmoqda.

Oliy ta'lim uchun o'ziga xos xususiyat hisoblangan o'quv-tarbiya jarayonini, shu jarayon amalga oshiriladigan muhit elementlari o'zaro bir-biri bilan ma'lum bir aloqa va munosabatda bo'lgan bir qancha komponentlardan tashkil topgan murakkab tizim sifatida qarash mumkin [3].

Tizimli yondashuv ta'limning miqdoriy darajasigina emas, balki sifat darajasini ham namoyon etadi. Shuningdek, u ta'limga nisbatan kundan-kunga ortib borayotgan jamiyat talablarini va fandagi sifatli siljishlarni, hamma darajadagi ta'lim mazmuni va usullarini hisobga olgan holda ta'limni tashxis qilishga yordam beradi [4].

Pedagogik tadqiqotlarda tizimli yondashuvni ta'lim jarayoniga qo'llanilishini T.A.Ilina, M.Ochilov, N.A. Muslimov, J.A. Hamidov tadqiqotlarida ko'rishimiz mumkin.

Tizimli yondashuv asosida ta'lim oluvchilarda faoliyatni o'zi tashkil etish va rivojlantirish qobiliyatini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Talabaga ta'lim berish va uni tarbiyalashga sinergetika tamoyillari nuqtai nazaridan yondashishda quyidagi g'oya ilgari suriladi: talabada shakllanishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikma nafaqat o'qituvchining maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyati asosida, balki o'qituvchi yordamida uning o'z faoliyatini o'zi tizimli tashkil etishi orqali ham shakllanadi [4].

Ta'lim tizimiga tizimli yondashuvni tadbiiq etish tajribalarini pedagog-olimlardan S.T. Turg'unovning tadqiqotlarida ham ko'rish mumkin. Uning ta'kidlashicha, yaxlit ta'lim jarayonini rivojlantirishda tizimli yondashuv, refleksiv yondashuv, shaxs-faoliyat yondashuvi, vaziyatli yondashuv, muvofiqlashtirilgan yondashuv, natijalar bo'yicha boshqaruv muhim ahamiyat kasb etadi [3].

Pedagogik jarayonlarning yaxlit tizim sifatida bir-biriga bog'liq hodisalarning sabab va oqibatlari tarzida rivojlanishini K.Zaripov o'z tadqiqotlarida e'tirof etgan. Ta'lim-tarbiya jarayonidagi pedagogik hodisalar ma'lum qonuniyatlar asosida o'zaro bog'liq bo'ladi. Ularni bilish ta'lim-tarbiyaning ilmiy asoslarini egallash uchun juda muhimdir. Har bir pedagogik hodisa ma'lum sabablarga ko'ra vujudga kelib, muayyan natijaga olib keladi. U yoki bu pedagogik jarayon yoki hodisani keltirib chiqargan sabablarni aniqlash, ularni faqat bilibgina qolmasdan, ijobiylarining ta'siridan foydalanish, salbiylarining oldini olish imkoniyatini beradi. Natijada pedagogik jarayonni ilmiy asosda boshqarish imkoniyati kuchayadi.

Pedagogik jarayonlarning mohiyatini chuqur anglash, ularni tizimli tadqiq qilish pedagogik jarayon va qonuniyatlarini alohida va yaxlitlikda o'rganishni zaruriyatga aylantirdi [2].

Pedagogik holat o'z xususiyatiga ko'ra katta miqdordagi turli hil ta'sir va nufuzlarga uchraydigan murakkab holat hisoblanadi. Bu holat va ta'sirlarning bir qismini boshqarish mumkin, ob'yektiv mavjud bo'lgan boshqalari esa quyidagi tizimning boshqaruv markazi ta'siriga aloqador bo'lmaydi, lekin shu bilan birga tizimli yondashuvni amalga oshirishda ularni inobatga olish lozim. Masalan, o'quv jarayoni ko'pgina tashkil etuvchi o'zaro faoliyatdagi tizim sifatida ko'pgina omillar ta'siriga uchraydi, bular: jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, ishlab chiqarish kuchining rivojlanish darajasi. Ular ko'rib chiqilayotgan tizimning boshqaruv markazining ta'siriga berilmaydi, lekin ularning ta'sirini albatta inobatga olish lozimdir, chunki bu omillar ta'lim va tarbiya jarayonida ta'lim maqsadi, mazmuni va usullarini tanlash uchun omil bo'lib xizmat qiladi [1]. Pedagogik faoliyat natijasini nihoyatda aniqlik bilan hisoblash juda mushkul, chunki pedagogik tizim ko'p sonli va nochiziqiy bog'lanishlardan iborat. Ta'lim tizimini o'z-o'zini tashkil etishga qodir ochiq turdagi tizim sifatida qarab, natijalarning nisbiyligini e'tiborga olish va ta'lim jarayonini tashkil etish mazmuni, shakli va metodlarini tanlashda, eng muhimi, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda bir tomonlama qarashlardan voz

kechish zarur. Bizning nazarimizda, tizimli yondashuv ta'lim tizimini boshqarishning metodologik asosi hisoblanadi. Undan foydalanish ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. *Quliyeva Sh.H., Sharopova M.R.* Bo'lajak kasbiy ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuv. МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ. №3-2 Нөкис - 2020. 22-25-betlar.

2. Kulieva Shakhnoza, Karimova Makhbuba [Interactive Technologies as a Means to Improve the efficiency and Quality of the Educational Process.](#) INTERNATIONAL JOURNAL ON HUMAN COMPUTING STUDIES. Volume: 03 Issue: 2 March-April 2021.

3. Қулиева Ш.Ҳ., Тўраев А.А. Тизимли ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларни касбий-педагогик тайёргарлигини шакллантириш. Узлуксиз таълим. Махсус сон. 2020. 107-111-бетлар.

4. Қулиева Ш.Ҳ., Тўраев А.А. Бўлажак ўқитувчиларни тайёрлашда модулли таълим технологияларининг аҳамияти. PEDAGOGIK MAHORAT Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2020, № 3.

IQTIDORLI BOLALARNI ANIQLASH, ISHLASH, RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

M.X.Tilavov

Psixologiya kafedrası o`qituvchisi

S.B.Boltayev

Jismoniy madaniyat fakulteti 2-bosqich talabasi.

Kadrlar tayyorlashda dolzarb va katta istiqboliy yo'nalishlardan biri - maktab o'quvchilari orasidan iste'dodli, zukko bolalarni aniqlab, ularni alohida dasturlar asosida o'qitish, xalq xo'jaligi uchun malakali mutaxassislar yetishtirishdir. Intellektual mulk deb atalgan bu boylik mamlakatimiz taraqqiyoti omili, ma'naviy

va moddiy boyligidir. Asosiy boylik egasi, ya'ni intellektual mulk sohibi, aql-zakovati cheksiz rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lgan inson esa o'z tafakkuri bilan ijod, buyuk ixtirolar qilishga qodir bo'ladi, insoniyat va jamiyat taraqqiyotiga o'zining munosib hissasini qo'sha oladi. Shu sababli axloqan sof mantiqiy tafakkuri kuchli, aqliy madaniyati yuqori bo'lgan bolalarni maxsus o'qitish va ularga ko'proq umid bog'lash lozim. Aynan shunday bolalar keIgusida yanada muhimroq iqtisodiy, ilmiy va ijtimoiy masalalarni yechishga qodir bo'ladilar. ^{vii}O'zbek avlodini jahonga ko'z-ko'z qila o'ladigan kishiIar - bu iste'dodli, qobiliyatli, zukko, o'z ishining ko'zini bilib bajaradigan qo'li gul, o'z sohasining mohir mutaxassislaridir. Dono, tetik, aqli raso bolalarni sinf o'quvchilari orasidan asosli ravishda tanlashimiz va ularni layoqat Yo'nalishlari, qobiliyatlariga qarab u yoki bu sohaga, kasbga yo'naltirishimiz kerak. Shuning uchun iste'dodlilarni tanlashda xatoga yo'l qo'yish shaxsni tahqirlash hisoblanadi. Aniqlashning bir necha yo'llari bo'lib, eng asosiysi psixologik testlar, topshiriqlar va suhbatdir. Iqtidorli bolalar bilan ishlash va ularni kasb-hunarga yo'naltirish yuzasidan tavsiyalar 1. Maktab rahbari va maktab psixologining hamkorligini kuchaytirgan holda tuman xalq ta'limi bo'lim Tashxis markazi bilan bevosita ish olib borish. 2. Q'quvchilarning mustaqil fikrlashi uchun imkon berish va uning fikrini qo'llab-quvvatlash. 3. Psixologik metodikalar orqali o'quvchilarni tanlash va ularni fanlarga yo'naltirish. 4. Zukko deb tan olingan o'quvchilarni fan o'qituvchilariga biriktirish, fan olimpiadalari, turti xil munozaralarga jalb etish.

Iqtidomi aniqlovchi yangi psixologik metodikalar bilan boyitish. 6. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari bilan hamkorlik qilish. 7. Iqtidorli o'quvchilarni turli xil «Umid», «Kamolo!», «Sores» kabi jamg'armalar tomonidan o'tkaziladigan musobaqalarda ishtirok etishiga yordam berish. 8. Iqtidorli o'quvchilarni ixtisoslashgan sinflarga jalb qilish. 9. Iqtidorli o'quvchilarning iqtidorini rivojlantirishda maktab psixologi, fan o'qituvchilari va ota-onalar hamkorligini kuchaytirish. 10. Ta'lim muassasalaridagi iqtidorli tarbiyalanuvchi va o'quvchi yoshlarning iqtidorini iste'dod darajasiga

ko'tarishda amaliy yordam berish. 11. O'quvchilarni kasb-hunarga YO'naltirishda ularning qobiliyati, iqtidori va layoqatini ilk yoshidan boshlab aniqlash va tavsiyalar berish. 12. O'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda turli to'garaklar tashkil etish. 13. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha chiqarilgan har bir me'yoriy hujjatlarning ijrosini o'z vaqtida ta'minlash. 14. O'quvchi yoshlarning o'zlari qiziqqan soha bo'yicha bilim olishlari yurtimiz kelajagi, ravnaqi uchun muhimligini anglash va o'qituvchilar, ota-onalar va o'quvchilar ongiga singdirish.] Ta'lim muassasasining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda chuqurlashtirilgan bilim berish yo'nalishini belgilash. Ixtisoslashgan ta'lim muassasasini tashkil etish uchun tashkiliy metodik bazani hamda huquqiy-me'yoriy hujjatlarini tayyorlash. Ixtisoslashgan maktabning nizomi ishlab chiqilib, tuman hokimiyatida tasdiqlanishi va ushbu hujjatlar asosida maktabning yo'nalishlari, o'quvchilarni qabul qilish tartibini imtihon materiallarini ishlab chiqish, qabul komissiyasini tuzish, rahbar tomonidan tasdiqlash. Iste'dod ko'p qirralidir. Yosh bolalardagi iste'dodning ko'rinishi - bu nutqning erta paydo bo'lishi va juda ko'p bo'lgan lug'at boyligidir. Bundan tashqari iste'dodli bolalar tevarak-atrofdan sodir bo'layotgan voqealarga o'ta qiziquvchan bo'ladilar.

Iste'dodli bolalarning xotiralari juda yaxshi rivojlangan bo'lishini mutaxassislar e'tirof etganlar. Iste'dod asosan uch o'zaro bog'liq parametrlar bilan aniqlanadi: bilim darajasining ustunligi, psixologik rivojlanish, fiziologik sifatlar. Bilish jarayonlari: Ular bir vaqtning o'zida juda ko'p ishlar bilan shug'ullanadilar, ular juda qiziquvchan bo'ladilar, kuchli xotiraga egadirlar va diqqatlarini bir joyga to'play oladilar. ^{viii}Psixologik rivojlanish: Haqiqat hissi yaxshi rivojlangan, qadriyatlarining shaxsiy tizimi, xayolning o'ta rivojlanganligi, hazil hissining mavjudligi, o'zlari uchun to'g'ri kelmaydigan vazifalarni yechishga harakat qilishi, ular qo'rquv holatini oshirib yuborishlari ham mumkin, ularda egotsentriзм kuchli bo'ladi. Fiziologik sifatlar: Iste'dodlilarda ikki xil stereotip mavjud: biri o'z g'in, kichkina, nimjon bola yoki uning aksi. Iste'dodlilar juda kam uxlashadi. Bilish jarayonidagi rivojlanishining o'ziga xosligi: Idrokning kengligi, iste'dodli bolalar

atrofidagi voqealarga juda sezgir va juda qiziquvchanligidir. Ular uchun dunyo nimadan tarkib topganligini bilish juda qiziqdir. Ular bir necha jarayonni bir vaqtning o'zida kuzatishga juda qiziqishadi. 2. Ular ko'rinish va predmetlarning orasidagi aloqani kuzatish va nazorat qilishga egalar. Ular doimo o'zlarining xayollarida alternativani vujudga keltirishni sevadilar. 3. Juda yaxshi xotira va tilning yosh vaqtdanoq rivojlanishi bolaga olamni bilishda juda qo'l keladi. 4. Iste'dodli bolalar juda katta lug'at boyligiga egadirlar, lekin o'zlari uchun yangidan-yangi so'zlarni ixtiro qiladilar. 5. Qobiliyat bilan birga mantiqiy noto'g'rilik bilan masalalar yechimini topishi, idrokning yuqori darajasini saqlab qolishi, o'z ixtiyori bilan murakkab masalalarni ishlashni yoqtirishadi, ular tayyor javoblarni olishni yoqtirishmaydi. 6. Ba'zi iste'dodli bolalar matematik qobiliyatga egalar, ular hisoblashni yaxshi ko'rishadi, bunday bolalar chuqur mantiqqa ham egadirlar. 7. Iste'dodli bolalarning diqqatini to'plashi juda kuchli hisoblanadi va qat'iylasizlik bilan masalalarni yechishga harakat qiladilar. 8. Iste'dodli bolalar masalalar bilan qiziqadilar, ular o'zlari tushunmagan masalalarni yechishga harakat qiladilar.

Ular yordamga muhtoj, lekin qo'llashlarini yoqtirmaydilar. Iste'dodlilar bilan ishlashda Kame, Shvedal va Linnemayerlar (1982-y.) quyidagi mezonlarni ishlab chiqqanlar: I. Har bir bola takrorlanmasdir. Ba'zilari she'r yozish, insholardan, ba'zilari matematikadagi qobiliyati bilan ajralib turadilar. Oddiy maktabda musiqaga qobiliyati bor o'quvchini ham ajrata olmasligimiz mumkin. Uchinchi bir bola esa yuqori intellekti (IQ) bilan ajralib turadi, lekin bu bolaning o'zini baholash mezonlari juda past bo'lishi mumkin. Shu orqali har bir bolaning kuchli va kuchsiz tomonini bilishimiz lozim. Shu orqali iste'dodli bolalar bilan ishlash rejasini tuzish mumkin.

Iste'dodli bolalarning muammolari Leta Xollinguort intellektual jihatdan iste'dodlilarning moslashuvini o'rganib chiqib, bu muammoga o'zining katta hissasini qo'shdi. Ota-ona va pedagoglar iste'dodli bolalar bilan ishlayotganda quyidagi muammolarga o'z e'tiborlarini qaratishi lozim: 1. Maktabni yoqtirmaslik. Bunday holat iste'dodli bola uchun asosan maktab dasturi zerikarli va qiziq

bo'lmagan holatda sodir bo'ladi. Iste'dodli bolalarning fe'lidagi o'zgarishlar ularning qobiliyatiga dastur moslanmasligi uchun sodir bo'ladi. 2. O'yin holatiga bo'lgan qiziqishlar. Iste'dodli bolalarga murakkab o'yinlar juda yoqadi va ularga hamma tengdoshlarini qiziqtiradigan o'yinlar zerikarli tuyuladi. Shu sababdan iste'dodli bola yakkalanib qoladi. 3. Konformlilik. Iste'dodli bolalar standart talablarni inkor qiladi, agar standartlar uning uchun to'g'ri kelmasa, ma'nosizdek tuyuladi. 4. Falsafiy muammolarga o'ralashib qolish. Iste'dodli bolalar ko'pincha o'lim haqida, qabrdagi hayot, diniy ishonch va falsafiy muammolar haqida ko'p boshlarini qotiradilar.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi".- T., I 1997-yil 29-avgust.
2. XTVning «Uzluksiz metodik xizmatni tashkil etish to'g'risida»gi 2002-yil 109-sonli buyrug'i va uning ilovalari
- 3.

5A111101 – Musiqa ta'limi va san'at

MUTAVVAKKIL BURXONOVNING O'ZBEK SAN'ATI VA MADANIYATIGA QO'SHGAN HISSASI

R.A.G'aybullayev,

San'atshunoslik

*fakulteti Madaniyat va san'at muassasalarini
tashkil etish va boshqarish yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi Mutal Burxonov hayoti va ijodi, uning ilmiy, madaniy va san'at sohasidagi yutuqlari, o'zbek san'atchiligidagi o'rni haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: simfoniya, vals-qo'shiq, poema

O'zbekiston Davlat madhiyasi musiqasini yaratgan taniqli bastakor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Mutal Burhonov «O'zbekiston xalq artisti» unvoni, «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Davlat mukofotlari sohibidir. Bastakor Mutal (Mutavakkil) Burhonov 1916 yilda Buxoroda tug'ilgan. Musiqadan ilk saboqni Samarqand musiqa va xoreografiya institutida, so'ng Moskvada taniqli musiqa allomalaridan oldi.[1] 1941 — 1942 yillarda Moskva mudofaasi ko'ngillilari safida bo'ldi, sog'ligi yomonlashganligi sababli Toshkentga qaytdi va ijod bilan shug'ullandi. 1947 yilda yana o'z ishini davom ettirib, 1949 yilda Moskva konservatoriyasini bitirdi.

Mutal Burhonov ijodiy faoliyatini 30 - yillarning ikkinchi yarmidan boshlab, dastlab «Ey, bulbul», «Ishk o'ti» (Mashrab), «Ishqida» (Uyg'un), «Tabassum qilmading» (Navoiy), «Namedonam chi nom dorad» (Hofiz) kabi romanlarni yozdi, 1941 yilda Uyg'un va Izzat Sultonning «Alisher Navoiy» she'riy dramasiqa musiqa, 1942 yilda T. Jalilov, T. Sodiqov, M. Vaynberg, A. Klumovlar bilan hamkorlikda «O'zbekiston qilichi» musiqali dramasiqa musiqa bastaladi.[2]

1947 yilda shoir Temur Fattoh she'ri asosida O'zbekiston Davlat madhiyasi musiqasini yaratdi. O'rta Osiyo xalqlari qo'shiqlarini o'zbek xalq cholg'u asboblari va jo'rsiz xor uchun qayta ishladi. «Samolyot» (H. Olimjon), «Kapalak» (3. Diyor), «Vatan qo'shig'i», «Ashula bayrami» (G'. G'ulom) kabi mashhur bolalar qo'shiqlarining ham muallifidir.

Bastakor 50 yillarda «Bahor qushlari» vokal poema, «Abu Ali ibn Sino» simfonik syuita, yakkaxonlar, xor va simfonik orkestr uchun asarlar hamda 1968 yilda «Alisher Navoiyga qasida» (A. Oripov) kabi katta shakldagi musiqa asarini yaratdi. Uning yarim asrdan ziyod davr mobaynida turli janrlarda yaratgan qo'shiqlari, lirik romanlari, jo'rsiz xor uchun qayta ishlangan Sharq xalqlari kuylari, jozibali vokal simfonik asarlari, kino musiqalari zamonaviy musiqa san'atimizning «Oltin xazina»sidan o'rin oldi.

«Abu Ali ibn Sino», «Samolyotlar qo'nolmadi», «Maftuningman», «Orol baliqchilari» (I. Ikromov, M. Levievlar bilan hamkorlikda), «Surayyo», «Boy ila xizmatchi», «Istiqbol yo'li» kabi badiiy filmlarning musiqalari ham M. Burhonov qalamiga mansub.[3]

Bastakor hozirgi mustaqillik kunlarida yanada katta g'ayrat bilan qizg'in ijod etmoqda. «Alisher Navoiy» (1991) operasini, O'zbekiston Davlat madhiyasi musiqasini yaratdi. Abdurahmon Jomiy she'riga bastalangan «Shiru shakar» yangi qo'shig'i va qatag'on yillarida shahid bo'lgan Fayzulla Xo'jaev, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat kabi elning asl farzandlari va o'zining akasi va amakilarining porloq xotiralariga bag'ishlangan «Abadiy xotira» rekviem-marsiyasini yaratdi. Taniqli bastakor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi M. Burhonovning o'zbek musiqa san'ati ravnaqidagi xizmatlari yuksak taqdirlandi. U «O'zbekiston xalq artisti» unvoni, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Davlat mukofotlari sohibidir. O'zbekistok Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlangan.

Mutal Burhonov «Maftuningman», «Samolyotlar qo'nolmaydi», «Surayyo», «Boy ila xizmatchi», «Abu Ali ibn Sino» kinofilmlariga qo'shiqlar yozdi. U birinchilardan bo'lib roman janrini respublikamiz musiqiy hayotiga joriy etdi. Ulug' shoir Alisher Navoiy g'azallariga bastalagan «Tabassum qilmading» va Hofiz g'azaliga yakkaxon va simfonik orkestr uchun «Namedonam chi nom dorad» (Ismingni bilmayman) romans-poemasi alohida o'rin tutadi. Yakkaxon, xor va simfonik orkestr uchun «Gullagay O'zbekiston kantatasi, «Bahor qo'shiqlari» vokal-simfonik poemasi. «Oq oltin» vals-qo'shiq poemasini yaratdi.[4]

Adabiyotlar

1. Ражабов, Тўхтасин Ибодович. "ХАҚ ҚЎШИҚЛАРИ ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИ-ЁШЛАРДА МИЛЛИЙ ТАФАККУРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ОМИЛИ." *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали* (2022): 364-368.[1]

2. Ражабов, Т. И. (2021). Ўқувчи-ёшларга ўзбек миллий музыка фольклори намуналари воситасида эстетик тарбия бериш. *Science and Education*, 1094-1103.[2]
3. РАЖАБОВ Т. И. УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИ МУСИҚА ДАРСИДА БУХОРО БОЛАЛАР ФОЛЬКЛОР ҚЎШИҚЛАРИ ВОСИТАСИДА ЎҚУВЧИЛАРНИ МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ШАКЛЛАНТИРИШ МОДЕЛИ //ЭКОНОМИКА. – С. 138-141.[3]
4. Ражабов, Тухтасин. "Madaniyat va san'at muassasalarini faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)* 8.8 (2021).[4]

О‘ЗБЕК ХАЛҚ ҚО‘ШИҚЛАРИ ВОСИТАСИДА О‘ҚУВЧИЛАРНИ МА’НАВИЙ-АХЛОҚИЙ ШАКЛЛАНТИРИШ

F.G.Nurullayev,

BuxDU “Musiqqa ta’limi” kafedrasi dotsenti(PhD)

N.K.Nurullayeva,

BuxDU 2 bosqich magistranti

Аннотасија : Ushbu maqolada ozbek xalq qoshiqlarining yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashidagi orni va ma’naviy-axloqiy shakllantirishi haqida bayon etilgan. Xalq qo’shiqlari inson hissiyotiga kuchli ta’sir eta olish xususiyatiga ega bo’lib, axloqiy tarbiyaning muhim manbaidir.

Калит соълар: xalq qo’shiqlari, madaniyat, submadaniyat, musiqa, qo’shiq, hissiyot, ma’naviyat, axloqiy madaniyat, san’at, adabiyot, bola, mahorat

Musiqa san’ati insonning yoshligidan unga bevosita va kuchli ta’sir o’tkazib, uning umumiy madaniy rivojida katta o’rin tutadi. Jamiyat madaniy hayotida yanada kengroq o’rin tutayotgan musiqa kishiga butun hayot davomida uning doimiy hamrohi hisoblanadi. Musiqa yagona san’at bo’lib, inson yuragiga juda chuqur kirib borib, ana shu qalb tug’yonini yorqin ifodalash qudratiga ega.

Shuningdek, ajdodlarimizga munosib avlodni tarbiyalashda musiqaning ham munosib o’rni borligi ayni haqiqat. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi

va ma'naviy dunyoqarashini shakllantiradi. Musiqa inson hissiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va musiqiy estetik tarbiyasining muhim vositasi hisoblanadi.

Qo'shiqchilik san'ati o'sib ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning musiqiy-estetik tarbiyasidagi eng kuchli vositalaridan biridir. Qo'shiq- sehrli sadolardan uyushgan mo'jizalar dunyosi. U insonning eng birinchi san'ati, o'zini o'ragan dunyoga ilk munosabati. Inson dunyoga kelib, ko'z ocharkan, onaning ilk allasi bilan shu dunyo ohanglari olamiga kirib boradi va umrbod u bilan nafas oladi. Hoh alladir, hoh yalladir, lapardir, o'landir, yor-yordir—agar u chinakam san'at asari bo'lsa, unda inson degan buyuk zot, uning boy ma'naviy olami Vatanga muhabbati sadoqati, kayfiyati, taraqqiyot darajasi o'ziga xos tarzda nafosat bilan aks etadi. Yoshlarni tarbiyalashda, ayniqsa, xalq yo'lida yaratilgan qo'shiqlar yoshlar ongini ezgulikka to'ldiradi. Bundayin tarbiya uslubi orqali yoshlar xarakterlanib boradi. Shu bilan bir qatorda o'quvchilarga xalq qo'shiqlarini o'rgatish orqali qo'shiqlar mazmunidagi axloq-odob, pand-nasihat, vatanga, xalqqa muhabbat, millatimizga xos bo'lgan hayo, ibo, andishalik, muomala madaniyatiga oid insoniylik fazilatlarini singdirib borishni taqozo etadi. Shu bilan bir qatorda o'quvchilarning xalq musiqa ijodiga bo'lgan qiziqishini, muhabbatini vamehrini yanada orttirish uchun o'qituvchi quyidagi fikr va tavsiyalarga e'tibor bersa, jumladan:

- o'zbek xalq musiqa ijodi turli ifoda vositalariga boy bo'lib, xalqimizning milliy g'urur va iftixori ekanligi to'g'risida;

- asrlar davomida xalqimizning yashashida, mehnatida tuy-tomoshalarida, sayllarda va quvonchli kunlarida, xamda ijodida asosiy omil bo'lib xizmat qilganligi;

- xalq qo'shiqlarida xalqning boshidan kechirgan tarixiy voqealar to'g'risida ma'lumotlar berilgandagina, dars samaradorligi ancha yuqori saviyada bo'ladi. O'zbek xalq kuy va qo'shiqlari shunchalar xilma-xilki, ular orqali bolalarni ma'naviy va axloqiy dunyosini har tomonlama o'stirish, oliyjanob fazilatlarini kamol toptirish mumkin. Bunday asarlarga misol qilib, "Alla", lapar, lirik termalar,

bolalar qo'shiqlari, “Yomg'ir yog'oloq”, “Lolacha”, “Boychechak”, “Laylak keldi”, “Sust xotin”, “Lola ”, mehnat qo'shiqlari, katta ashula, lirik, epic qo'shiqlar, mumtoz asarlarni aytib o'tish mumkin³³⁹. Umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darsliklariga kiritilgan ushbu qo'shiqlar o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi. Musiqa madaniyati darslarida xalq qo'shiqlarimizdan foydalanishning muhim ahamiyati shundaki, avvalo asrlar bo'yi yaratilgan milliy qo'shiqlarining insonlarga kuchli ta'siri yuksakligidadir. Biroq bugungi kunda yoshlarning musiqaga qiziqishlari biroz muammolar keltirib chiqarmoqda. Ko'plab yoshlar xorijiy musiqalarga taqlid qilgani holda o'zlarining ko'rinishlariga ham g'arbona tus bermoqdalar.. An'analarga sodiqlik tushunchalarini yoshlar ongiga sindirib borishda ularni g'arbliklarga taqlid qilib kuylashni emas, balki milliy kuy va qo'shiqlarini tinglashni, o'zlariga tarbiyaviy saboq chiqarish lozimligini o'rgatish zarur.

Ayniqsa, o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida milliy qadriyatlardan oqilona foydalanib, milliy ohanglarni, xalq qo'shiqlarini his eta bilishni shakllantirish lozim. Insonning qaysi millatga mansubligi faqat g'oyagina emas, balki tuyg'u hamdir. Yigit-qizlarni aqliy-axloqiy, madaniy-ma'naviy jihatdan tayyorlamasdan mamlakatimiz ma'naviyatini rivojlantira olmaymiz. Shunday ekan, ularni ma'naviy barkamolikka erishishlarida milliy musiqamizning kuch-qudratiga tayangan xolda ibratli pand-nasihatga boy, xalqona yaratilgan kuy va qo'shiqlaridan foydalanishimiz zarur. Har bir inson bolaligidan boshlab san'at og'ushida yashaydi. Uning qulog'iga kiradigan birinchi san'at namunasi ona allasidir. Demak, axloqiy tarbiyaning xalq qo'shig'i shaklidagi birinchi omili-bu ona allasidir. Ayniqsa, o'zbek onalarining allasi ma'naviy-ruhiy jihatidan o'ta

1. ³³⁹ Nurullayev F.G. “Musiqa ta'limida Buxoro folklor qo'shiqlarini o'rgatishning ilmiy-metodik xususiyatlari(5-7-sinflar misolida)” -(PhD)diiss.ishi BuxDU.2021y.

ta'sirchan vositadir. Inson ulg'aya borgan sari uning g'oyaviy, axloqiy va madaniy saviyasi shakllanishiga imkon oshib boradi. Estetik saviyani shakllanishi va rivojlanishi ham ana shu jarayon bilan birga kechadi. Bu o'z navbatida tarbiyaning barcha jihatlarini bilan birga chambarchas bog'liq bo'lib, yuksak insoniy dunyoqarashning shakllanishi bilan uyg'unlashib ketadi. Shuning uchun ham o'quvchilarga ma'naviy tarbiya berish bilan shug'ullanuvchi pedagoglar bu ishni umumlashgan holda olib borilishi zarurligini unutmasliklari kerak. Bu ayniqsa, umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarbiya bilan shug'ullanadigan pedagog o'qituvchilarga taalluqlidir. O'quvchilarni xalq qo'shiqlari vositasida tarbiyalash bir qancha maqsadlarni ko'zda tutadi. Bizningcha, badiiy havaskorlik, ashula darslariga jalb etilgan o'quvchi yoshlar bilan bu borada ish olib borishda avvalo quyidagi jihatlarga alohida ahamiyat berish lozim:

1. O'zbek xalq qo'shiqlari va kuylari yoshlarning ma'naviy olamiga emotsional ta'sir ko'rsatishi va bu borada etarlicha samara berishiga erishish.

2. San'at bilan voqelikning ijtimoiy roli va ahamiyatini ta'kidlagan holda ularning sertarmoq turlarida folklor qo'shiqlarining o'rnini, badiiy qimmatini, umum madaniyatimizdagi mohiyatini to'g'ri anglab olishga ko'maklashish.

3. O'quvchilarda san'atga oid bilimlarni mustahkamlash bilan birga ularda bu boradagi engil-elpi, mazmunan sayoz, ta'sirsiz va chet el ohanglariga solib aytilgan, o'zbek musiqa madaniyati an'alariga zid bo'lgan qo'shiqlarga nisbatan murosasizlik tuyg'ularini hosil qilish.

4. O'quvchilarni xalq qo'shiqlarini ma'naviy-axloqiy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy tomonidan to'g'ri baholay olish, ularni tarbiyaviy xususiyatlarini anglashga o'rgatish.

5. Maqsad xalq qo'shiqlari bilan ishlash bo'lsa-da, o'quvchilarda san'atning boshqa turlariga ham mehr-muhabbat uyg'otish, ularning umumiy madaniy saviyasini kengaytirish.

6. Xalq qo'shiqlaridagi nazmiy matnning mazmunini tarbiyaviylik nuqtai-nazaridan tahlil qilib uni talablar ongiga to'laligicha etkazish.

O'quvchilarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida yuqorida sanab o'tilgan pedagogik omillarni inobatga olish ko'zlangan maqsadgi erishishni kafolatlashi mumkin.

Adabiyotlar:

1. X. Нурматов. "Музыка ва эстетик маданият-Тошкент. Т.Д.П.У. 1995 йил
2. Nurullayev F.G. "Musiqqa ta'limida Buxoro folklor qo'shiqlarini o'rgatishning ilmiy-metodik xususiyatlari(5-7-sinflar misolida)" -(PhD)diiss.ishi BuxDU.2021y

5A112001 – Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi

JISMONIY TARBIYA MASHG'ULOTLARIDA

QO'LLANILADIGAN JISMONIY TARBIYA METODLARI

A.M.Uzoqov,

BuxDU chaqiriqqacha Harbiy ta'lim fakulteti sikl boshlig'i

S.B.Boltayev,

Jismoniy madaniyat fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Jismoniy madaniyat ta'limi jarayonida jismoniy mashqlar texnikasi (bajarish san'ati)ni egallashda ikki guruhdagi metodlardan foydalaniladi. Ular: a) xususiy metodlar (faqat jismoniy madaniyat ta'limi jarayoni uchun ta'alluqli bo'lgan o'ziga xos metodlar) b) umumiy pedagogika metodlari (ta'lim va tarbiya jarayonining har qanday holatlarida foydalanadi). O'ziga xos xususiy metodlar tarkibiga: 1. Mashqlarni qat'iy reqlamentlashtirish metodi; 2. O'yin metodi (o'yinlar tarkibida o'zlashiriladigan, mustaxkamlanadigan, takomillashtiriladigan mashqlar yashiringan bo'ladi); 3. Musobaqa metodi (mashqlarni o'zlashtirish musobaqalar shaklida uyushtiriladi). Qayd qilingan metodlar yordamida jismoniy mashqlarning texnikasini o'rgatish (o'qitish) va jismoniy sifatlarni tarbiyalash bilan bog'liq aniq amaliy ta'limiy vazifalar muvofiq

tanlangan metodlar orqali hal qilinadi. Ayrim maxsus adabiyotlarda ularni “amaliy metodlar” deb atalishini uchratamiz.

Kalit soʻzlar: Metod, texnika, mashqlar, jismoniy tayyorgarlik.

Har qanday metodikalar turli hildagi metodlardan tarkib topishi bu qonuniyat. Turli usullar mazmuni to'plamidan esa metodlar yuzaga keladi. Ular aytarli darajada ko'p, belgilangan vaqt mobaynida qo'llanilgan ayrim uslublar (metodlar, metodik usullar) o'rnini boshqalari egallashi, ayrimlarini esa shakli, ko'rinishlari, mazmunida qisman o'zgarishlar sodir bo'lishi mumkin. Ular o'qituvchining faoliyatidagi ijodiy izlanishlar natijasida, yangilari vujudga keladi eskilari bilan amaliyotda o'rin almashadi. jismoniy mashqlarni qat'iyon reglamentlashtirish; 2) o'yinlar; 3) musobaqalar tarzida amalga oshiriladi. Jismoniy mashqlarni qat'iyon reglamentlashtirish metodlari katta pedagogik imkoniyatlarga ega.

Ular: 1) shug'ullanuvchilar harakat faoliyatini qat'iy, o'zgarmas qilib ishlangan harakat dasturi (tanlangan mashqlar, ularni bog'lanishi, kombinatsiyalar - bajariladiganlarni uyg'un bajarish tartibi, harakatlarni navbatlashuvi va boshqa)lar asosida amalga oshirishni; 2) jismoniy yuklamani hajmi va intensivligi bajarish sur'atini qat'iy reglamentlashni, shuningdek, shug'ullanuvchilarni ruhiy jismoniy holati dinamikasi va hal qilinadigan vazifalarni reglamentlashni; 3) yuklamalarni bo'laklari (qismlari) oralig'idagi dam olish intervalini aniq me'yorlashni; 4) jismoniy sifatlarni tanlab tarbiyalashni; 5) turli yoshdagi kontingent bilan mashg'ulotlarda jismoniy mashqlardan foydalanishni; 6) jismoniy mashqlar texnikasini samarali o'zlashtirishni; 7) tanlangan harakat aktining (faoliyatining) sur'ati (tempo), ritmi, amplitudasi, harakat fazalarini o'zgarishsiz, berilgan ketma-ketlikda bajarishni reglamentlashtirishni o'z ichiga oladi. Harakat faoliyatini - jismoniy mashqni o'qitish jarayonida quyidagi metodlardan: 1) mashqni texnikasini to'liq - qanday bajarilsa shundayligicha bajartirish tarzida o'qitish (o'rgatish) metodi; 2) mashq texnikasi tuzilishining alohida bo'laklari (texnikaning negizi, zvenolari, detallarini alohida bo'laklarga (qismlarga) ajratish

bilan o'qitish; 3) mashq texnikasi bo'laklarining har birini alohida o'zlashtirib so'ng ularni bir-biriga ulab, qo'shib o'zlashtirish metodlaridan foydalaniladi. Qayd qilingan jismoniy madaniyat ta'limi metodlari ta'lim jarayonining har xil sharoitga moslab, o'quv vazifalarini aniq belgilab, o'quvchilar guruhi yoki ularning individual xususiyatlarini e'tiborga olib, ta'limning davrlari, o'quv materialining xarakteri va mazmuni, o'quv vositalarining soni (jihazlar, snaryadlar va boshqalar)ni hisobga olib foydalanishni taqazo etadi. Bu uslubdan asosan jismoniy sifatlarni rivojlantirish maqsadida nisbatan ko'proq foydalaniladi. shug'ullanuvchilarning harakat tajribasini yanada oshiradi. Bo'laklarga ajratib o'qitish metodlari yo'qotilgan malakalarni tezda tiklanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Koordinatsiyasiga ko'ra o'ta qiyin mashqlarni o'zlashtirishda bu uslubiyot bebahodir. Lozim bo'lsa bo'laklarga ajratish, ayrim bo'g'inlar, ajartib olingan muskul guruhlariga alohida ta'sir etish imkoniyati bu metodning qimmatini yanada oshiradi. Lekin mashq texnikasini bilmay qismlarga ajratish, favqulodda tanlangan yo'llanma beruvchi mashqlar, ulardan noto'g'ri foydalanish, harakat malakasining shakllanish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Harakatni to'liq bajarish bilan o'zlashtirish metodlari harakat faoliyatini o'qitishdagi yakuniy vazifa nimadan iborat bo'lsa, shunga yaqin ko'rinishda o'zlashtirishni yo'lga qo'yishni nazarda tutadi. Jismoniy mashq texnikasini takomillashtirish uni to'liq bajarish orqali amalga oshiriladi. Harakat faoliyatini bir butunligicha o'zlashtirish harakat faoliyatini bajarib ko'rish, uni sinashda eng qulay usuldir. Ta'lim metodlariga umumiy talablar qo'yiladi. Bular: 1. Albatta o'zining ilmiy asosiga ega bo'lishligi hamda oliy nerv faoliyati bilan muvofiqligi talabi. 2. Harakat vazifasini o'qitish metodikasiga mos tushishi talabi. Harakat vazifalarini oldindan aniq belgilanmasligi ta'lim jarayoni metodlarini to'g'ri tanlash imkonini bermaydi. Masalan, darsda "kozyol"dan oyoqlarni kerib tayanib sakrashni o'rgatish deb vazifa qo'yilgan bo'lsa, uslubiyotni tanlash qiyinroq bo'ladi. Amalda bo'laklarga ajratish, harakatni to'la bajarish bilan o'qitish metodlariga tayanib shu dars uchun aniq vazifa tanlanadi. Nisbatan aniq vazifa masalan, "kozyol"dan oyoqlarni kerib

sakrashda qo'llar bilan deqsinishni o'rganish qo'yilsa, mashqlarni bo'laklarga ajratish bilan o'rgatish metodini qo'llashga to'g'ri keladi. Tanlangan ta'lim metodlari orqali o'qitish jarayonida tarbiyalash xarakterini shakllantirish talabi. Tanlangan xar qanday o'qitish metodlari aynan shu harakat faoliyatini o'qitish effektini ta'minlash nuqtai nazaridangina baholanmay, tarbiya vazifalari pozitsiyasi talabiga qarab ham baholanishi zarur.

4. Uslubiyotlarning qo'llanishi ta'lim tizimidagi barcha prinsiplarning muvofiqligi va amalda qo'llanilishiga tayanish lozimligi. Uslubiyotni alohida olingan printsip bilan apoqasini bir tomonlama izohlash va uni tushuntirishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Masalan, agar uyuguruvchi ko'rsatish metodikasini qo'llagan bo'lsa, uni kurgazmalilik printsipiga to'la rioya kilayotir degan xulosamiz noto'g'ri bo'ladi. Ma'lumki, bu printsipning qator uslubiy tizimlari mavjud. 5. O'quv material xususiyatlarining muvofiqligi talabi. O'qitish metodlari ma'lum darajada bo'lsa-da jismoniy mashqlarning turlariga bog'liq bo'lib, ayrim xollarda faqat so'z bilan ifodalashning o'zi kifoya qilsa, nisbatan qiyin vazifalarni hal qilishda esa ko'rgazmalilik metodini ham qo'llashga to'g'ri keladi. Xulosa qilib shuni aytish lozimki, musobaqa metodi harakat sifatlarini eng yuqori darajada rivojlanganligini talab qiladi, ayniqsa, ularni kompleksli namoyon qilishda bu uslubni qo'llashga ehtiyoj katta. Pedagogika nuqtayi nazaridan bu metodni o'quvchilarda o'zlarining g'alabasi va mag'lubiyatlariga turg'un 193 psixologik tayyorgarlikni tarbiyalashga yo'naltirilishi bilan o'zini oqlaydi, bu bir tomondan, boshqa tomondan esa individni turli sharoitda har tomonlama jismonan tayyorgarligini to'la namoyish qilish imkonini beradi hamda jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlarining rivojlanganligi darajasini oshirish vositasi bo'lib xizmat qilishi jismoniy madaniyat ta'limi va tarbiyasi jarayonida isbotlangan.

Adabiyotlar

1. R.S.Salomov Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Darslik. T.: «ITA-PRESS», 2014. – 296 b

2. Tulenova X.B. Malinina N.N., Umumrivojlantiruvchi mashqlarni o'rgatish metodikasi, o'quv qo'llanma TDPU, 2005 y.
3. Abdullayev A., Xonkeldiyev SH. Jismoniy tarbiya nazariyasi va bslubiyoti. o'quv qo'llanma Toshkent., O'zDJTI, 2005 yil - 300 b.

JISMONIY MASHQLAR JISMONIY TARBIYANING ASOSIY VOSITASI SIFATIDA

F.Sh.Jumayev,

BuxDU, Harbiy ta'lim fakulteti dotsenti

S.B.Boltayev,

Jismoniy madaniyat fakulteti 2-bosqich talabasi

Jismoniy mashqlar tarixan gimnastika, o'yinlar, sport va turizm tarzida guruhlarga ajratilib, jismoniy madaniyat ta'limi va tarbiyasi jarayonining asosiy vositasi sifatida foydalanib kelingan va hozirda ham foydalanilmoqda. "Jismoniy mashq" atamasi jismoniy madaniyat nazariyasining yetakchi tushunchalaridan biri. Tushunchasining ta'rifi qator mualliflar tomonidan turlicha ifodalangan. Jismoniy mashqning vujudga kelishida obyektiv sabab qilib ibtidoiy odamning qorin to'ydirish maqsadida ov qilishi, subyektiv sabab sifatida esa asta-sekinlik bilan uning ongning shakillanishi jarayoni qabul qilingan. Jismoniy mashqni bajarishda sodir bo'ladigan mexanik, biologik, psixologik jarayonlarning mazmunining majmuyi to'plami jismoniy mashqlarning mazmunini yuzaga keltiradi, ularning o'zaro muvofiqligi esa harakat faoliyatiga zid qobiliyatni namoyon bo'lishi orqali ko'zga tashlanadi. Mashq mazmuniga harakat bo'laklarining to'plami, masalan, uzunlikka sakrashda tanaga tezlik berish (yugurish), sakrash chuqurligi oldiga o'rnatilgan taxta ustidan depsinish, fazoda uchish, yerga tushish shu mashqning tarkibidagi harakat bo'laklari va ularga qo'shimcha mashqni bajarish jarayonidagi hal qilinadigan umumiy va xususiy vazifalar, mashqni bajarishda organizmda sodir bo'ladigan funktsional o'zgarishlar haqidagi nazariy bilim va amaliy harakat malakalari kiradi. Bu elementlar (bir butunning mayda chuydalari)ning barchasi

jismoniy mashqning umumiy mazmunini vujudga keltiradi. Jismoniy mashqning shakli ularning ichki va tashqi tuzilishlarining muvofiqligida namoyon bo'ladi. Mashqning ichki tuzilishiga shu faoliyatni bajarishda ishtirok etadigan skelet mushaklari, ularning tarangligi, qisqarishi, cho'zilishi, buralishi, eshilishi va h.k.lar, hamda biomexanik, bioximik bog'lanishlari - energiya sarflanishi, yurak-tomir, nafas olish, nerv boshqaruvi va boshqa organlardagi jarayonlar, ularning o'zaro bog'likligini o'z ichiga oladi.

Biologik, mexanik, ruxiy va boshqa jarayonlarning mashq bajarishda birining biri bilan aloqasi, o'zaro kelishilganligi, yugurish mashqlarida boshqacha bo'lsa, shtanga ko'tarishda boshqachaligi bilan, mashqning ichki tuzilishini turlicha bo'lishini namoyon qiladi. Mashqning tashqi shaklining mazmuni esa o'sha mashqning tashqi ko'rinishi, harakatni bajarish uchun ketgan vaqt yoki kuch sarflashning me'yori va harakat intensivligi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Sport trenirovkasi sog'lomlashtirish va boshqa 120 mashg'ulotlarda har bir mashq yoki ixtiyoriy harakat ijro texnikasiga ko'ra turli uslubda bajariladi. Masalan, balandlikka sakrashda sakrash ustunlari orasiga qo'yiladigan balandlikni o'lchamiga o'rnatilgan "planka" ustidan sakrab o'tish uchun, plankaga nisbatan uning yoki chap yelka bilan yoki uning to'g'risidan yugurib kelib, depsinish bilan sakrash mumkin. Aslida shu mashqni yuqorida qayd qilinganidan boshqacharoq - oson, oz energiya sarflab, belgilangan harakatni (vazifani) samarali ijro etish uslubiyatlari mavjud. Buni harakat yoki jismoniy mashq "texnika"si atamasi orqali mazmuni tavsiflanadi. Texnika - grekcha so'z bo'lib, "bajarish san'ati" degan ma'noni bildiradi. Jismoniy mashq texnikasi yoki uning tarkibidagi harakat akti (harakat faoliyatining bir qismi bo'lagi), harakat faoliyati tarkibidan ikki narsani: a) bajarilayotgan harakat, uni bajarishdan kelib chiqadigan maqsad; b) harakat vazifasini hal qilishning usulini farqlash, ajrata bilishni taqazo etadi. Sport so'zi avvaliga o'yin ma'nosida tushunilar edi, keyinchalik esa ko'ngil ochish vositasi deb qarala boshlangan. Chunki shug'ullanuvchilar faqat o'zaro kuch sinashib musobaqalashar edilar. Xatto XIX asrning oxiri XX asrning boshlarigacha sportda

yuqori natijalarga erishish yoki musobaqada g'olib bo'lib chiqish, ko'ngil ochish, dam olish vositasi, deb qaralib kelindi. Uzoq vaqtgacha ta'lim tarbiya ishlarida ahamiyatga ega bo'lmagan, hayot uchun keraksiz narsa deb baho berildi.

Jismoniy mashqlar tarixan - o'yinlar, gimnastika ko'rinishida, sport tarzida va turizm mashqlaridek nomlanib klassifikatsiya qilingan (turkumlangan). Keyinchalik qayd qilingan mashqlarning mazmun, shakli, mohiyatiga mos kelmaydigan yangi mashqlarni yuzaga kelishi va ulardan amaliyotda foydalanish oqibatida yangi, aniq, maqsadlarni hal qilish uchun foydalanishga mo'ljallangan mashqlarning klassifikatsiyasi yuzaga keldi. Ular: a) jismoniy mashqlarning anatomik belgilariga qarab; b) harakatning tuzilishi va shakliga qarab; v) bajarganda sarflanadigan quvvatiga qarab; g) harakat sifatlarini rivojlantirishiga qarab; d) sportning alohida turlari tarzidagi jismoniy mashqlar klassifikatsiyasi klassifikatsiya qilinmoqdi. Jismoniy mashqlarni jismoniy madaniyat ta'limi va tarbiyasining asosiy vositasi ekanligi horijiy mamlakatlar jismoniy madaniyat tizimlarida ham o'zining ilmiy asosiga ega. Demak, o'yinlar, gimnastika, sport, turizm tarkibiga kirgan jismoniy mashqlarni tarixiy klassifikatsiyasi deb aytib bo'lmaydi. Chunki, masalan sport turkumiga kirgan yugurish, yurish, sakrashlar jismoniy mashq sifatida o'yinlar, gimnastika, turizm va boshqa mashqlari tarkibida ham uchrashi tabiiy. Aslida bu mashqlar bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'liq holda ta'lim jarayoni amaliyotida foydalaniladi. O'yin atamasi xilma-hil faoliyatni ifodalaydi. Tabiat o'yini, chaqqonlik, kuch o'yini va boshqalar. Madaniyat sohasi buyicha esa, aktyor o'yini, olimpiada o'yinlari yoki sport o'yini, bularning hammasi xilma-hil ma'no beradi. O'yin tarixiy to'plangan ijtimoiy hodisa sifatida faoliyatning ayrim turi hisoblanadi. O'zining hayotiy ahamiyati orqaligina jamiyatda o'ziga qiziqish uyg'otadi va ayrim zaruriy holatlarda odamlarni o'ziga tortadi, tarbiya jarayonida vosita tarzida foydalaniladi. O'yin faoliyatida odam o'zini o'rab olgan muhit bilan o'zgacha aloqada, bir maqsadga yo'naltirilgan faoliyatda bo'ladi va ham jismoniy, ham aqliy qobiliyatini mashq qildiradi. Mehnatdan farqli ularoq, o'yin paytida moddiy ne'mat yaratilmaydi.

O'yin sharoiti turli xildagi harakatlarni tanlash va bajarish imkoniyati bor o'ynovchi xis-xayajonini, ijodiy qobiliyatini, faolligini, tashabbusini namoyish qilishga urinadi. ^{ix}Hozirgi kunda o'yinchilar soniga qarab yakkama-yakka, jamoa bo'lib. 129 ko'pchilik (omma bilan) o'ynaydigan o'yinlar mavjud. Bular pedagogika va hayotda harakatli o'yinlar va sport o'yinlari sifatida tarbiya jarayoni vositasi bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Harakatli o'yinlar jismoniy tarbiya vositasi sifatida jamoali, jamoaga uyushmay, o'zining ma'lum sport maydoniga, standart qoidasiga ega bo'lmagan, qiyin jismoniy mashqlarning ayrim elementlarini o'z ichiga olgan holdagi harakatlar tarzida, so'ng asta-sekinlik bilan sodda o'yin qoidalari, o'yin maydonlari chegaralanib, o'yin qoidalari qiyinlashtirilib ma'lum shaklga keltirilib, sport o'yinlariga aylantiriladi. Jamoa bo'lib o'ynaladigan harakatli o'yinlar uch turga: a) o'yinchilarni jamoalarga ajratmay o'ynaydigan o'yinlar; b) jamoali o'yinga aylanib ketadigan o'yinlar; v) jamoalarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlar (barcha sport o'yinlari kiradi). Demak, sport o'yini ham harakatli o'yindir. Sport o'yinlari jismoniy tarbiya vositasi sifatida o'zining kat'iy o'yin qoidalari va talablari, chegaralangan sport maydoni, jihozlariga ega. O'yin paytidagi vazifalarni individning o'zigina hal qilmay, jamoa xal qiladi. Bu o'yinlar bo'yicha muntazam musobaqalar uyushtiriladi. O'yinchilarga daraja (razryad) va unvonlar beriladi. Sport o'yinlari muntazam takomillashadi va rivojlanadi. O'yinchilarning o'zaro faoliyatining shakliga ko'ra (jamo bo'lib o'ynaladigan o'yinlar) quyidagilarga bo'linadi: a) o'yin paytida raqib komanda o'yinchilari tanasi, uning qismlari birbiriga tegmay o'ynaladigan o'yinlar - voleybol, gorodki, badminton, stol tennisi, shaxmat-shashka va h.k. b) raqib o'yinchilari bir-biriga tegishi bilan o'ynaladigan o'yinlar: futbol, basketbol, gandbol, regbi, maysa ustidagi xokkey, rus laptasi va boshqalar. Tarixan mavjud jismoniy tarbiya tizimlari o'yinlarning shu tomonlarini xisobga olib, jamiyat a'zolarini har tomonlama jismonan barkamol qilib tarbiyalashning asosiy vositalaridan biri, deb tan olganlar va tarbiya jarayonida undan foydalanganlar.

Gimnastika – o'yinlar, sport, turizm qatori u ham jismoniy tarbiya vositasidir. Asosiy vazifasi turli hayotiy faoliyat uchun umumiy jismoniy tayyorgarlikni yo'lga qo'yishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, o'zining gavdasini tuta bilishi yoki tananing a'zolari harakatini boshqara olishi, tanadagi jismoniy kamchiliklarni to'g'rilashdek maxsus vazifalarni ham hal qila oladi. Hozirgi kunda jahon xalqlari gimnastikasi tizimini tanqidiy o'rganilib, keraksizlarini uloqtirib, foydali tomonini o'zida ilmiy mujassamlashtirilgan holla jismoniy tarbiya jarayonida ijobiy foydalanilmoqda. Jismoniy mashqlar, tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlari va gigienik omillarni rotsional qo'llash inson salomatligini mustaxkamlaydi va jismoniy qobiliyatlarini me'yorli rivojlanishiga zamin yaratadi. Mashg'ulotlar inson hayotiy faoliyatining organik qismiga aylansa, jismoniy tarbiya tizimi o'zining maqsadi va vazifalarini ijobiy hal qilishga qodir jismoniy tarbiya vositalariga ega degan xulosa qilish o'rinli bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. o'quv qo'llanma, Toshkent., O'z DJTI, 2005 y - 171 b.
2. Maxkamdjonov K, Tulenova X.B. Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun umumiy va kengaytirilgan "Jismoniy tarbiya" dasturi. Ilm-ziyo Toshkent., 2006 y
3. Abdumalikov R. Eshnazarov J. Jismoniy madaniyat va sport 117 tarixi. O'quv qo'llanma Toshkent 1993 y.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH ULUBIY XUSUSIYATLARI.

M.N.Hamdama,

BuxDU, Pedagogika institutining Jismoniy tarbiya nazariyasi uslubiyoti kafedrasida magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolamda jismoniy sifatlarni rivojlantirish uslubiy xususiyatlari haqida fikir yuritilgan, men pedagog va murabiylarning olib brogan tajribalaridan kelib chiqib amalda o'rgatish mumkin bo'lgan metodlar, boshlan'ich sinflar uchun qay tarzda jismoniy sifatlardan foydalanish haqida tushuntirib o'tilgan.

Tayanch so'zlar: Jismoniy tarbiya, boshlang'ich sinf, jismoniy fazilatlar, axloqiy, irodaviy, maxsus, tibbiy guruh, sport ishlari, mashqlar, mor zichligi, mashg'ulot, gimnastika, kunlik jismoniy tabiya va sport.

Ilmiylik vazifalari – boshlang'ich ta'lim yoshida harakat, ko'nikma va malakalarni egallash shuningdek chiniqish shaxsiy gigena harakat tartibi to'g'risida inson salomatligi uchun jismoniy mashqlar ahamiyati haqidagi bilimlarni egallash bilan bog'langan.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning organizmi intensiv silliq va bir xil rivojlanishi bilan ajralib turadi, o'g'il bolalar va qizlar taxminan bir xil darajada o'sadi. Maktab yoshida jismoniy qobiliyatlarni tarbiyalashga qo'yiladigan asosiy talab bu harakat qobiliyatlarini shakllantirish va takomillashtirish bilan bog'liqlikni ta'minlashdir. Men yosh avlodni yanada sog'lom va barkamol bo'lib yetishishi, jismoniy sifatlarni yanada rivojlantirish maqsadida amalda harakatli o'yinlarni qiziqarli turlarini quvnoq startlar va estafeta musobaqalarini tashkillashtirib turishga harakat qilaman. Bu 7-11 yoshli bolalarda jismoniy tarbiya darslarini qiziqarli va ko'tarinki ruhda o'tishiga yordam beradi.

Kichik maktab yoshidagilarda jismoniy sifatlarni rivojlanadi. Lekin bu rivojlanish malum yillarda ayrim sifatlarni oldinlab, ma'lumotlarini esa kechroq rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Bunga yashash sharoiti, kun tartibi, jismoniy mehnat va qator boshqa ijtimoiy faktorlar sabab bo'ladi. Bundan tashqari yoshlar, o'smirlar va kichik yoshdagilarni jismoniy sifatlarni tarbiyalanishi tabiiy ravishda o'zgarayotgan va rivojlanayotgan sohadir. Organizmning xususiyatlariga ham bog'liq. Eng muhimi maqsadga muvofiq holda uyushtirilgan mashg'ulotlar xarakat sifatlarni rivojlantirishda asosiy rolni o'ynaydi.

Yosh avlodning jismoniy jihatdan to'kis, sog'lom, Vatan himoyasiga tayyor, baquvvat tarzda o'sib-ulg'ayishidan xalq ham, jamiyat ham manfaatdor, Buning uchun o'quvchilar jismoniy tarbiya bilan chuqur shug'ullanishlari, turli milliy harakatli o'yinlardan foydalanish mahoratini egallashlari zarur. Bu esa yosh avlod tarbiyasiga e'tiborni yanada kuchaytirish, ularni o'z xalqi, mustaqil davlati va jamiyat oldidagi burchini his etish ruhida tarbiyalashdek g'oyat muhim vazifalar bilan bog'liq tarzda maktabda o'qiy boshlagan birinchi kundanoq mehnatga muhabbat, ishchanlik, boshlangan ishini oxiriga yetkazish, sabotlilik xususiyatlarini shakllantirish imkoni yaratiladi. Bunda jismoniy tarbiyaning barcha zamonaviy vositalari bilan birga o'zbek xalq milliy harakatli o'yinlari juda qo'l keladi, chunki bu o'yinlar bolalarni ruhiy, jismoniy, ma'naviy jihatdan tarbiyalashning barcha jihatlarini o'z ichiga ola biladi. Zero, millatning kelajagi bo'lgan yoshlarni sog'lom, yetuk va komil inson qilib tarbiyalash mustaqil yurtimiz kelajagining zamini mustahkam bo'lishiga xizmat etadi. Xarakterli o'yinlari va milliy sport turlari tarixiy taraqqiyot jarayonida jiddiy o'zgargani, har bir iqtisodiy tuzum ularning mazmuni, qoidalarida o'zining muayyan izini qoldirgani haqida yuqorida to'xtalgan edik. Ba'zi o'yinlarning nomi va qoidalari hozircha saqlanib qolgan. Ana shunday o'yinlardan foydalanishda bolalarga jismoniy ta'siridan tashqari tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishini ham nazardan soqit qilmaslik, ularni ijodiy qo'llashni maqsadga muvofiqlashtirish kerak. Masalan, Uloq» o'yini deganda odatda ot bilan o'ynaladigan, chavandozlar haqiqiy uloq uchun kurashadigan qadimiy ko'pkari o'yini tushuniladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisining jismoniy sifatlarini rivojlantirish uchun harakatli o'yinga asoslangan dars, mashqlarni to'g'ri tashkil etish va o'tkazish eng muhim masaladir. K.Balsevich tadqiqoti bo'yicha, bolalarning jismoniy faolligini quyidagicha ta'riflab beradi: 1-4 sinf bolalar jismoniy sifati ko'rsatkichining barchasi o'sishning yuqori tempda borayotganligini namoyon etadi. Faqat egiluvchanlik ko'rsatkichining tempi bu davrda pasayib boradi. Bu yoshdagi bolalarda biodinamik harakatning va eng avvalo, koordinatsion qismlarning

shiddatli rivojlanishi ro'y beradi. 1-4 sinf orasida jismoniy sifatlarning va koordinatsion qobiliyatning, inson harakat faolligining namoyon bo'lishi uchun amaliy jihatdan juda yaxshi zamin tayyorlanadi. F.N.Nasriddinov, A.Sh.Qosimovlar ko'rsatkichlari bo'yicha jismoniy tayyorgarlik natijalari yoshdan yoshga o'tish bilan hamma ko'rsatkichlar ma'lum miqdorda ortib borishini ko'rsatadi. A.N.Liviskiy ilmiy tadqiqot ishlarining ko'rsatishicha, qo'l panjalari mushaklarining kuchi 7 yoshda 13-14 kg.ga yetadi. Shu yoshdan boshlab, harakatli o'yinlar vositasida, bu sifatlarni yanada rivojlantirish ehtimoli kuchli. Yosh o'zgarishi dinamikasida ayrim keskin bosqichlar belgilanganki, ular morfologik va funksional xususiyatlar majmui bilan tavsiflanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning sog'lomlashtirish-tarbiyaviy ishlarini harakatli o'yinlar vositasida yanada jonlantirish uchun ularning jismoniy rivojlanish va tayyorgarlik ko'rsatkichi o'rtasidagi o'zaro bog'liqligini aniqlash lozim. Bu samarali vositalarni tanlashga, keyin pedagogik sinov-tajriba o'tkazishga imkoniyat yaratadi. Maktab o'quvchisining shaxs, komil inson bo'lib shakllanishida, rivojlanishida jismoniy tarbiya alohida ahamiyat kasb etishi shubhasiz. Xalq jismoniy tarbiyasi esa insoniyat rivojining ilk bosqichlaridayoq bola va o'smirlarning shakllanishida asosiy vositalaridan biri bo'lgan. Shu bois bugungi o'zligimizga qaytgan davrimizda xalqning milliy qadriyatlariga asoslangan jismoniy tarbiya alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar

1. “Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati”. Toshkent. 2015.
2. S.R. SALOMOVICH “Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati”. Toshkent. 2014.
3. Жисмоний тарбия назарияси ва услубиятининг амалиёти. “Муҳаррир” нашриёти, Тошкент. 2013.
4. Ahmatov M. Ommaviy sport musobaqalarida boshqaruv tizimi va uni takomillashtirish. «Iqtisod va ta'lim». 2003 yil, № 1

YOSH VOLEYBOLCHILARDA SAKROVCHANLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

D.N.Aminov,

BuxDUPI 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy voleybol o'yinida sakrovchanlikni rivojlantirishning dolzarbligi hamda zarurati, sakrovchanlik tushunchasiga berilgan ta'riflar hamda ilmiy yondashuvlar xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Voleybol, sakrovchanlik, harakatli o'yinlar, nazariy asos, ilmiy yondashuvlar, o'yin malakalari.

Voleybolchilar uchun asosiy jismoniy sifatlardan biri sakrovchanlikdir. Sakrovchanlik tezlik-kuchlilik sifatlariga mansub bo'lib oyoq mushaklarining qisqa muddat ichida kuchli qisqarish bilan ifodalanadi. Aynan shu sifatni yuksak darajada bo'lishi nisbatan past bo'yli o'yinchilarni baland bo'yli o'yinchilar bilan raqobatini va asosiy o'yin malakalarini (zarba berish va to'siq qo'yish) samarali ijro etilishini ta'minlaydi [11].

Sakrovchanlikni rivojlantirish uchun eng qulay davr bu 10-11 yoshdir. Bu davrda yosh voleybolchilarda joydan turib balandga sakrash 12,5 sm gacha ortishi kuzatiladi [11].

Sakrovchanlik sifatining turlari ko'p. Masalan, ikki oyoq bilan debsinib yugurib kelib yoki joydan turib vertikal sakrash bir oyoq bilan debsinib vertikal yoki uzunlikka sakrash, ikki oyoq bilan debsinib uzunlikka sakrash va hokazo. Har bir sakrash turining o'ziga hos maqsadi va maqsadga mos ijro etish tartibi (texnikasi) bo'ladi. Voleybol, basketbol, futbol va boshqa sport o'yinlari bilan shug'ullanuvchi sportchilarning sakrovchanligi bir-biridan farq qiladi. Ta'kidlash lozimki, hatto bir sport o'yinida, masalan voleybolda - zarba yoki to'siq qo'yish, to'p kiritish yoki uzatish uchun ijro etiladigan sakrashlar mohiyati bir-biriga sira o'xshamaydi [15]. Boz ustiga yana shuni eslatish o'rinliki, faqat bir o'yin malakasi - zarba berish turiga qarab (qisqa yoki baland to'pdan zarba berish) sakrash

xususiyati umuman boshqacha bo'ladi. Binobarin, sakrovchanlik yoki sakrash chidamkorligi degan tushuncha ko'p qamrovli mazmun, mohiyat, xususiyat va ma'noni anglatadi. Demak, bu sifatlarni rivojlantirish haqida gap borganda muayyan sakrash turi va uni o'ziga munosib mashqlariga alohida e'tibor berilishi o'ta muhim masaladir.

So'nggi yillarda voleybol musobaqasi qoidalarining tubdan o'zgarishi o'yin faoliyati va o'yin malakalarining ijro etilishiga batamom yangicha tus berib yuborgan. Hozirgi kunda deyarli barcha o'yin malakalari aksariyat vaziyatlarda «havoda», ya'ni sakrab ijro etiladi (zarba, to'siq qo'yish, to'p kiritish, uzatish, to'pni qabul qilish, yiqilib qabul qilish). Ushbu holatni yuzaga kelishi voleybol amaliyotida sakrovchanlik va sakrash chidamkorligi sifatlariga e'tibor qaratishni nafaqat kuchaytirayapti, balki bu sifatlarni jadal rivojlantirishga qaratilgan yangi ilmiy texnologiyalar yaratishni taqazo etmoqda [8].

Shuning uchun ko'p yillik sport tayyorgarligi jarayonida malakali voleybolchilarni tayyorlash samarasi sakrovchanlik sifatini har tomonlama mukammal tarbiyalash ustivorligiga bevosita bog'liq bo'lib boryapti.

Voleybolchilar sakrovchanligi va sakrash chidamkorligini rivojlantirish muammolarini yorituvchi ilmiy tadqiqotlar hamda ilmiy adabiyotlar doirasi juda keng (Kao Van Txi, 1971; Kondak N.N., 1985; Ivoylov A.V., 1974, 1981, 1985; Jeleznyak Yu.D., 1978, 1988; Popichev M.I., 1990; Ayrapetyants L.R., 2003; Boyirbekov M., 2003 va boshqalar).

L.R. Ayrapetyants, M.A. Godik (1991) larning fikricha voleybolga ixtisoslashgan mashg'ulotlar bilan ilk bor shug'ullanishni 10-12 yoshdan boshlash maqsadga muvofiqdir. U o'zining tadqiqotlarida aynan shu yoshdagi bolalarni jismoniy va texnik tayyorgarligini jadal sur'atlar bilan o'stirish imkoniyatlarini ochib berdi [7].

Isbot qilinganki, dastlabki tayyorgarlik bosqichida yosh voleybolchilarning kelajakdagi iste'dodini aniqlashga yordam beruvchi test mashqlarini tanlay bilish va qo'llash katta ahamiyatga ega. A.A. Po'latov (1994) bunday mashqlar qatoriga

navbatda sakrovchanlik va chaqqonlikni baholovchi mashqlarni kiritish muhimligini ta'kidlaydi. Tayyorgarlikning keyingi bosqichlarida asosiy jismoniy sifatlarni, shu jumladan maxsus sifatlarni baholash imkoniyatini beruvchi test mashqlarini oshirish tavsiya etiladi[16].

Albatta, sakrovchanlik va tezkor sakrashni tayyorgarlikning qaysi bosqichida amalga oshirilishidan qat'iy nazar, bu masala umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik jarayonini qanday darajada rejalashtirilishiga bog'liq. Shuning uchun ushbu jarayonning malakali voleybolchilarni tayyorlashdagi ahamiyati, qolaversa asosiy o'yin malakalarini (zarba berish, to'siq qo'yish) ijro etish samarasi sakrovchanlik va tezkor sakrashga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqligiga xaqidagi ma'lumotlar tahlili alohida ahamiyatga egadir.

Maxsus jismoniy tayyorgarlik (MJT) sport faoliyatidagi dolzarb muammolardan biridir va barcha sport turlarida yuksak sport natijalarga erishish uchun muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun maxsus jismoniy sifatlarni (MJS) rivojlantirish sportchilarni musobaqaoldi tayyorgarligining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib turibdi [15].

Yuqori malakali sportchilarni erishgan yutuqlari ma'lum manoda ularning fundamental tayyorgarligiga bog'liqdir [9]. Shunday ekan, yuqori malakali voleybolchilarni tayyorlash va sport mahoratini yuksak darajaga olib chiqish dastlabki o'rgatish jarayoni samaradorligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

Adabiyotlar:

1. Ayrapetyants L.R., Pulatov A.A. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. //Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T.: Fan va texnologiya, 2012. – 208 b.
2. Ayrapetyants L.R., Pulatov A.A. Yuqori malakali voleybolchilarni tayyorlashda tanlovning o'rni. «JT, sport va ma'naviyat» to'plami, T., 1995. 11-b.
3. Goncharova O.V. “Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish”. T., O'zDJTI matbaa nashriyoti bo'limi, 2005 y. – 57 b.
4. Po'latov A.A. Voleybol. JTItalabalarigamo'ljallangandastur. Ixtisoslikkursi. T., 1993.– B.15.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JISMONIY MADANIYAT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING UMUMIY TAVSIFI

G.T.Zaripov,

BuxDU texnika fanlari nomzodi, dotsent

S.B.Boltayev,

Jismoniy madaniyat fakulteti ikkinchi bosqich talabasi

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarigacha sportga dam olish, ko'ngil ochish, so'ng, jismonan yuqori sport ko'rsatkichga erishish vositasi, musobaqalarda g'alaba qozonish tarzidagi faoliyat deb qaralgan. Sport asosan uch ko'rinishda - o'quv predmeti, ommaviy-ko'ngilli sport, «katta sport», “Oliy tartibdagi harakat mahorati sporti” tarzidagi yo'nalishlarda o'zining nazariyasi va amaliyotini rivojlanishi bilan namoyon bo'ladi. O'quv predmeti sifatida davlat ta'lim muassasalari va qurolli kuchlar tizimi jismoniy tarbiya jarayonining vositasi tarzida. UJT hamda sport tayyorgarligini nazariy asoslari fani tarzida majburiy o'qitiladi. Ommaviy-ko'ngilli sport jamiyatimiz a'zolarining bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazish, sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyati soxibining jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish mashg'ulotlarining vositasi tarzida foydalanishda, bolalar, o'quvchi, talaba-yoshlarning darsdan tashqari vaqtini foydali o'tkazish uchun har bir individning tashabbusi bilan amalga oshiriladi. Sport mahoratini oshirish maqsadida ham ommaviy ko'ngilli sportdan maqsadli foydalanish ham yo'lga qo'yilishi mumkin. ^xOmmaviy-ko'ngilli sport atamasi o'z mazmuniga ko'ra ko'pchilik shug'ullanishi mumkin bo'lgan yoki shug'ullanishni yoktiradigan sportning - minifutbol, futbol, voleybol, basketbol, qo'l to'pi, yengil atletikaning yurish, yugurish mashqlari, suzish, shaxmat, shashka va boshqa qator turlarni o'z ichiga oladi. Turli xildagi harakatli o'yinlar, o'z qoidasi, o'yin maydoniga ega bo'lgan xalq milliy o'yinlari va milliy sport turlari ham bundan mustasno emas. Katta sport boshqachasiga - “oliy maqomdagi sporti mahorati” soxiblari

bajaradigan harakatlar tarzidagi sport boshqachasiga aytganda “harakatning oliy maqomi” (yuqori maqomda bajariladigan) jismoniy mashqlar tushuniladi.

Sport turlarining turkumlanishi (klassifikatsiyasi) nizomi mazmunida O'zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vazirligi rahbarligi hamda shu vazirlikning viloyat bo'limlari rahbarligida uyushtirilgan, ommaviy tadbirlar, musobaqalarning eng ustivorlariga tasniflar berilgan hamda ulardagi ishtiroki natijalariga ko'ra unvonlar, sport razryadlari, shug'ullanish tavsiya qilingan sport turlari sanab o'tilgan. Mustaqilligimiz sharofati bilan jamiyatimiz a'zolarini sog'lomlashtirish maqsadida tashkillangan davlat va xususiy sport muassasalari va tashkilotlari tomonidan ommaviy sport turlari, yakka kurashlar va boshqa noan'anaviy sport turlarining ayrimlari uchun ham ommaviy razryadlar, unvonlarning talablari va normalari kiritilgan. Sport tayorgarligi jismoniy tayorgarlikning maxsus yo'nalish bo'lib, bu jarayonning vazifasi insonni tanlab olingan sport turida yuqori sport natijalarga erishishni ta'minlashdan iboratdir. Hozirgi zamon sport o'yinlari bilan shug'ullanadigan sportchilar yuqori darajadagi funksional tayorgarlikka, har tomonlama jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lishi uchun ularning harakat sifatlarini rivojlantirish (jismoniy tayyorgarligini yo'lga qo'yish)da, oranizmni xizmati faoliyatiga zaruriy zamin yaratish, trenirovka mashg'ulotlari yoki o'quv trenirovka mashg'ulotlarining, akademik darslarning asosiy vazifasiga aylantirilishi lozimligini L.R.Ayrapetyants, F.M.Pavlovlarning ilmiy tadqiqotlari natijalari orqali isbotlangan. O'zbekistonning mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya tizimi vujudga keldi. Shuningdek, jismoniy tarbiya ijtimoiy hayot hodisasi sifatida ijtimoiy taraqqiyot natijasidir. Respublikada hamma madaniyat sohalarining tez o'sishiga, qisqa tarixiy vaqt ichida jismoniy tarbiya tizimini yaratilishiga imkoniyat yaratildi. Jismoniy tarbiya tizimining g'oyaviy negizini insonni har tomonlama rivojlantirish, shaxsni uyg'un tarbiyalash, jamiyatni rivojlantirishga qodir faol insonlarni yetishtirishga xizmat qiluvchi milliy mafkura va ma'naviyat tashkil etadi.

Har bir mamlakat o'zining jismoniy madaniyatining maqsadi va vazifalari, vositalari, uslubiyotlari, prinsiplari va boshqalarga tayangan tarbiya jarayonining aniq bir tizimi asosida yo'lga qo'yilsagina oldindan ko'zlangan natijaga erishishi muqarrar. Jismoniy madaniyat tizimi tushunchasiga Rossiya Federatsiyasining marhum akademigi L.P.Matveev - "mavjud jamiyatda amalga oshirilayotgan jismoniy madaniyatning tashkillash, uyushtirish, uning vositalari, metodlari, tamoyillarini shunday umumiy tushunilishi lozimki, bu mavjud jamiyat a'zosini ma'nan boy va jismonan har tomonlama garmonik rivojlantirishdek umumiy maqsad va vazifalarini hal qilish imkoniyatini o'zida mujassamlashtirsin" deb ta'rif beradi. Vatanimizning mudofaasi masalasi jamiyatimizda yo'lga qo'yilgan jismoniy madaniyat ta'limi va tarbiyasi jarayoniga qator talablar qo'yadiki, bu talabalarni amalga oshirish natijasida jismoniy tarbiya tizimining ob'ektiv xususiyatlari namoyon bo'ladi. Bunday xususiyatlarga diyorimiz xalqlarining har tomonlama jismoniy tayyorgarligi, jismoniy sifatlarining rivojlanganligi darajasining ko'rsatkichi, jamiyatimiz a'zolarini mehnatga va Vatan mudofaasiga tayyorligi omili sifatida qaraladi va ular mamlakat jismoniy tarbiya tizimining maqsadi tarzida ifodalanadi. ^{xi}Respublika fuqarolarining jismoniy va ma'naviy qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasining uzviy birligini ta'minlash, jismoniy tarbiyani mehnat va Vatan mudofaasi manfaatlariga yo'naltirish bo'yicha olib borilmoqda.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya manfaatlari yuqoridagi ehtiyojlar bilan tugallanmaydi. Shu bilan birga, jismoniy tarbiya maqsadlarini aniqlashda ularni asosiy hal qiluvchi ehtiyojlar deb hisoblash zarur. Shu sababli jismoniy tarbiya 64 turmushda, xususan, umumiy ta'lim maktablarida olib borish joriy etilgan hamda jismoniy tarbiya kishilarning sihat-salomatligi va mehnat qobiliyatini saqlash hamda mustahkamlash, ma'naviy birdamligi va irodasini chiniqtirish, bo'sh vaqtini sog'lom va ko'ngilli o'tkazishning vositasi deb ko'rsatilgan. ^{xii}Mamlakat jismoniy madaniyat tizimining asosiy maqsadi Respublikamiz xalqlarini xuquqiy demokratik davlatning aktiv quruvchilari sifatida jamiyat a'zosini ijodiy mehnatga

va vatan mudofaasiga tayyorlash, sog'lom, uzoq umr ko'rish uchun lozim bo'lgan turmush tarzini yo'lga qo'yish uchun lozim bo'lgan nazariy bilimlar va amaliy malakalarni berishdan iborat. Qayd qilingan maqsad mamlakatimizda jismoniy tarbiya jarayonini amalga oshirayotgan barcha tashkilot va muassasalar uchun umumiydir. Mamlakatimiz jismoniy tarbiya tizimi maqsadining umumiyligi, jismoniy madaniyat tizimining asosiy qonuniyatlaridan biridir.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, ushbu mavzuda fanning asosiy tushunchalari, ularning mazmuni, keng qamrovli “jismoniy madaniyat” tushunchasi, “jismoniy tarbiya” jarayonida amalga oshiriladigan, “umumiy jismoniy tayyorgarlik”, “kasbiy jismoniy tayyorgarlik”, sport, uning klassifikatsiyasi, “shug'ullanganlik”, “jismoniy kamolot”, “jismoniy barkamollik”, “jismoniy (harakat) sifatlari”, “jismoniy bilimlar” va yana boshqa qator tushunchalar haqida jismoniy madaniyat bakalavrining maxsus bilimlari berildi. Zamondoshlarimizning jismoniy madaniyati, ularning nazariy bilimlarining talab darajasida emasligi asoslandi.

Adabiyotlar

1. Ш.Мирзиёев Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. “Ўзбекистон” НМИУ, 2016 й.
2. Abdumalikov R. Eshnazarov J. Jismoniy madaniyat va sport tarixi. O'quv qo'llanma Toshkent 1993 y
3. Yarashev K.D. Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish. O'quv qo'llanma Toshkent Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti 2002 yil.

I-SHO'BA ANIQ VA TABIIY FANLAR

70530901– Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)

O'TA O'TKAZGICHLARDA O'TKAZUVCHANLIK

H. Po'latov,

BuxDU Fizika mutaxassisligi magistranti

Q.S.Saidov,

BuxDU, fizika kafedrası o'qituvchisi

fizika-matematika

fanlar dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'ta o'tkazgichlarning o'tkazuvchanligi. O'ta o'tkazgichlarda o'tkazuvchanlik nazariyasining qiyinchiliklarini o'rganish. O'ta o'tkazgichlarda o'tkazuvchanlik nazariyasini ishlab chiqishda Kuper juftliklarining kelib chiqishi BKSH nazariyasi tashkil etilishi.

Tayanch so'zlar: O'ta o'tkazgichlarda o'tkazuvchanlik kritik tok, kritik maydon, Kuper juftliklari, Fermi sferasi, BKSH nazariyasi noaniqlik munosabatlari.

Ma'lumki normal metallning uyg'otilgan sathi, uning asosiy holat sathidan yuqorida joylashadi, ya'ni normal metallning uyg'onish spektrida energetik tirqish mavjud emas. Ammo, o'ta o'tkazgichlarning xususiyatlari borasida jamlangan eksperimental ma'lumotlarga ko'ra o'ta o'tkazgichlik holatida bunday energetik tirqish mavjud bo'lishi kerak.

O'ta o'tkazgichlarning elektron spektrida, o'ta o'tkazuvchanlik holatini yo'qotuvchi ma'lum bir kritik parametrlar: o'ta o'tkazuvchanlikka o'tish harorati T_s ; kritik maydon N_s ; kritik tok j_s ; larning mavjudligi shunday struktura borligiga guvohlik qiladi.

Infraqizil va millimetrli sohadagi elektromagnit nurlanish yutilishining keskin kamayishi, issiqlik sig'imining $T < T_c$ dagi haroratga bog'liqligini ham bunga kiritish mumkin. Bularning bari avvaldan ma'lum bo'lgan He II ning o'taoquvchanlik nazariyasidan kelib chiqib, shunday xulosalarga olib kelardiki,

uygʻonishlar spektrida oʻta oʻtkazuvchanlik xususiyatini buzuvchi, mand etilgan energetik oraliq mavjud boʻlishi kerakki, bu oraliqdan oʻtmasdan turib elementar uygʻonishlar boʻlishi mumkin emasdek.

Nazariya oldidagi qiyinchiliklarning yana biri shundan iborat ediki, past temperaturalardagi oʻta oʻtkazuvchanlikda elektronlar kollektivi energiyasi normal metalldagi uning toʻliq qiymatiga qaraganda juda kichikligi, yaʼni oʻta oʻtkazuvchanlik holatiga oʻtish elektronlarning oʻzaro kuchsiz taʼsiri koʻrinishida namoyon boʻlishi kerak edi. Elektronlarining qoʻshimcha oʻzaro taʼsirlashuvining kelib chiqishi 1950 yilda ingliz fizigi G.Frelix aniq koʻrsatdi. Bu oʻzaro taʼsirning tabiatini tushunish uchun, atomlar yaʼni metallning kristal panjarasini tashkil etuvchi musbat ionlar kristal panjara tugunlarida tinch turmasdan, ixtiyoriy haroratda muvozanat holati atrofida kichik tebranishlar sodir etishini eslaylik. Bu tebranishlar metallda-fononlarni hosil qiladi. Har bir alohida olingan ionning ixtiyoriy bir koʻchishini panjaradagi turli xususiy chastotali tebranishlar koʻchishining superpozitsiyasi sifatida qarash mumkin, panjaradagi tebranishlar (fononlarning) mavjudligi, Frelix koʻrsatgandek elektronlar orasidagi effektiv oʻzaro taʼsirga olib keladi. Klassik nuqtaiy nazardan, buni quyidagicha ifodalash mumkin: kvaziimpulsi elektron panjara orqali oʻtayotib oʻziga yaqin boʻlgan musbat zaryadlangan ionlarning koʻchishiga sabab boʻladi, oʻzining atrofida musbat ionlarning yuqori darajada zichlashuviga sabab boʻladi. Bu bilan hosil boʻlgan ortiqcha musbat zaryadlarni kamaytiradi, bunday zaryadlangan bulutga kvaziimpulsi boshqa elektron tortiladi. Kvant mexanikasi tilida bu hodisa shuni bildiradiki, birinchi elektron fononni hosil qiladi, ikkinchisi uni yutadi. Fononlar tomonidan hosil qilingan bunday elektron-elektronli tortishish ekranlashtirilgan Kulon itarishini yopsa, elektronlar orasidagi natijaviy oʻzaro taʼsirlashuv tortishishdan iborat boʻlib, butun jamoa (kollektiv) energiyasi pasayadi. Boshqacha qilib aytganda, oʻta oʻtkazuvchan holatga oʻtish uchun normal metall noturgʻun holatda boʻladi. G.Frelix elektron-elektronli effektiv oʻtishning mexanizmini aniq koʻrsatibgina qolmay, nazariy jihatdan izotopik effektini oldindan aytib berdi.

Izotopik effekt bir elementning turli izotoplaridan iborat metallning kritik harorati qiymat jihatdan $M^{-1/2}$ kattalikka proporsionalligini, ya'ni turli izotoplar uchun $T_c^{(M)}\sqrt{M} = const$ munosabati bajarilishi shartligini nazariy isbotladi. O'sha 1950 yili bu effekt eksperimental ravishda E.Maksvell va K.Reynolds tomonidan simob izotoplari uchun aniqlandi. Keyinroq izotopik effekt boshqa qator elementlar uchun ko'rib chiqildi. Izotopik effektning mavjudligi o'ta o'tkazuvchanlikning panjara harakatini xarakterlovchi kattalik - ionlarning tebranish chastotasiga $w \sim M^{-1/2}$ bog'liqligini bildiradi.

O'ta o'tkazuvchanlik nazariyasini ishlab chiqishdagi muhim qadamlardan biri (1956 yil) L.Kuper ishi bo'ldi. Kuper taxmini bo'yicha o'ta o'tkazuvchanlikka olib keluvchi normal fazaning nostabilligi elektronlar bog'lanishidagi juft-juft bog'lanishdan bo'lib, keyinchalik kuper juftliklari deb nom oldi. Kuper juftliklar (juft korrelyasiyalar) ning paydo bo'lishi, virtual fononlar bilan elektronlarning o'zaro almashinuvi sababli mavjud bo'lgan effektiv elektron-elektronli tortishish bilan bog'liq. Bunday turdagi juftlashishning kelib chiqishini tushunish uchun oddiy bir misolni ko'rib chiqamiz, faraz qilamiz; kvaziimpulsga bog'liq bo'lgan qandaydir ikki qismli potensial orqali elektronlar bir-biri bilan o'zaro ta'sirlashsin, bunda butun jamoadan faqat ikkita elektronning o'zaro ta'siri inobatga olinib sistemadagi qolgan elektronlar asosiy holatni tashkil etadi, ya'ni Fermi sferasi ichidagi barcha bir elektronli sathlarni to'ldiradi ($\vec{k} < \vec{k}_f, \varepsilon < \varepsilon_f$). So'ngra taxminga ko'ra o'zaro ta'sirlashganda juftliklarning spini va to'liq impulsi saqlanadi. Hisob kitoblar shuni ko'rsatadiki, juftliklarni tashkil etgan elektronlarning to'liq impulsi va antiparallel spinlari nolga teng bo'lsa, juftlik eng minimal energiyaga ega bo'ladi. Elektronlarning o'zaro ta'sirini inobatga olmasak, to'liq kvaziimpulsi juftliklarning to'liqin funksiyasi $\hbar\vec{K} = \hbar\vec{k}_1 + \hbar\vec{k}_2 = 0$.

Alohida elektronlar holatini ifodalovchi va Ω hajmga normallashtirilgan yassi to'liqinlarning ko'paytmasi quyidagicha.

$$\psi_0(\vec{r}_1, \vec{r}_2) = \frac{1}{\Omega} \exp(i\vec{k}_1\vec{r}_1 + i\vec{k}_2\vec{r}_2) = \frac{1}{\Omega} \exp(i\vec{k}\vec{r})$$

$$\text{Bunda } \vec{k} = \vec{k}_1 = -\vec{k}_2, \vec{r} = \vec{r}_1 - \vec{r}_2$$

Fermi sferasining ichidagi $\varepsilon < \bar{\varepsilon}_f$ barcha holatlar bandligi sababli, juftlikning energiyasi $E_0 = 2\varepsilon(\vec{k}) = \frac{\hbar^2 k^2}{m^*} \geq 2\varepsilon_f$.

O'zaro ta'sirlashuvni inobatga olgan holdagi minimal energiyaga mos keluvchi juftlik to'liq funksiyasini quyidagi ko'rinishda izlaymiz.

$$\psi(\vec{r}_1, \vec{r}_2) = \sum_k a_k \exp(i\vec{k}\vec{r}) \quad (1)$$

bunda \mathbf{k} bo'yicha olingan yig'indi, Fermi sirtidan tashqaridagi holatlar ($\varepsilon > \varepsilon_f, |\vec{k}| > \bar{k}_f$) bilan chegaralangan. ifoda konfiguratsiyalar superpozitsiyasi bo'lib, har birida alohida juft holat $(\mathbf{k}, -\mathbf{k})$ joylashgan. Funksiya (2.76) SHredinger tenglamasini qanoatlantirishi kerak.

$$(H_0 + U)\psi = E\psi \quad (2)$$

Bunda H_0 - o'zaro ta'sirlashuvchi elektronlar juftligining gamiltoniani. Endi (1)ga (2)ni qo'ysak natijada

$$H_0 e^{i\vec{k}\vec{r}} = 2\varepsilon(\vec{k}) e^{i\vec{k}\vec{r}}$$

$$\sum_{|\vec{k}| > \bar{k}_f} a_k (E - 2\varepsilon) e^{i\vec{k}\vec{r}} = \sum_{|\vec{k}| > \bar{k}_f} a_k U(\vec{k}, \vec{r}) e^{i\vec{k}\vec{r}} \quad (3)$$

Tenglamaning ikkala tomonini $e^{-i\vec{k}'\vec{r}}$ ga ko'paytirib va \vec{r} bo'yicha integrallansa u koeffitsientlar uchun tenglamalar sistemasiga olib keladi.

$$[E - 2\varepsilon(\vec{k}')] a_{\vec{k}'} = \sum_{|\vec{k}| > \bar{k}_f} U_{\vec{k}'\vec{k}} a_{\vec{k}} \quad (4)$$

Bu sistemani keltirib chiqarishda yassi to'liqlarning ortogonallik sharti inobatga olingan.

$$\int \exp[i(\vec{k} - \vec{k}')\vec{r}] d\vec{r}_1 d\vec{r}_2 = \Omega^2 \delta_{\vec{k}\vec{k}'}$$

Matritsa elementlari

$$U_{kk'} \equiv \langle \vec{k}, -\vec{k} | U | \vec{k}', -\vec{k}' \rangle = \frac{1}{\Omega^2} \int \exp[-i(\vec{k}' - \vec{k})\vec{r}] U(\vec{k}, \vec{r}) d\vec{r}_1 d\vec{r}_2 \quad (5)$$

Bu ifoda to'liq impulsi nolga teng bo'lgan, $(\mathbf{k}\uparrow, -\mathbf{k}\downarrow)$ va $(\mathbf{k}'\uparrow, -\mathbf{k}'\downarrow)$ holatlardagi juftliklar o'zaro ta'sirini xarakterlaydi. Umumiy holda (4) sistema analitik ravishda yechilmaydi. Echimning hususiyatlarini o'rganish, ya'ni har bir matritsa elementi (5) $U_{k'k} = \lambda \omega_k^* \omega_k$ ko'rinishda ifodalanishi mumkin, bunda λ \mathbf{k} va \mathbf{k}' ga bog'liq bo'lmagan doimiy. Bu holda (4) tenglama quyidagicha ko'rinish oladi.

$$[E - 2\varepsilon(k)]a_k = \lambda \omega_k \sum_{k'} a_{k'} \omega_{k'} \quad (6)$$

Tenglamaning o'ng tomonidagi yig'indi k ga bog'liq emas, uni S bilan ifodalab quyidagilarga ega bo'lamiz.

$$a_k = \frac{\lambda C}{E - 2\varepsilon(k)} \omega_k^* \quad (7)$$

$$C = \sum_{k'} a_{k'} \omega_{k'}$$

Oxirgi tenglamalardan sistemaning notrivial echimiga erishamiz.

$$1 = \lambda \sum_{|k| > k_f} \frac{|\omega_k|^2}{E - 2\varepsilon(k)} \quad (8)$$

Bu tenglamani qanoatlantiruvchi E kattaliklar, o'zaro ta'sirlashuvchi elektronlar juftliklarning energiya qiymatini aniqlaydi. Tenglamaning o'ng tomonidagi yig'indiga faqat $\varepsilon(k) > \varepsilon_f > 0$ kiradi. SHu sabab, $\lambda > 0$ da (bu elektronlar orasidagi itarish kuchiga mos) (9) tenglama uzluksiz spektrga mos keluvchi $E > 2\varepsilon_f$ ildizga ega bo'ladi. Tortishish holatida $\lambda < 0$, va ildizlar orasida $E < 2\varepsilon_f$ ildiz mavjud. Bu ildiz bog'lanish energiyasi $\tilde{\Delta} = 2\varepsilon_f - E > 0$ bo'lgan elektron juftlikning bog'lanish holatiga mos keladi. (9) tenglamaning qolgan ildizlari $2\varepsilon_f$ uzluksiz spektrning chegarasidan yuqorida joylashadi va disotsiatsiyalangan holatga to'g'ri keladi.

Fermi sferasining o'rnini shundan iborat bo'lyaptiki, Kuper juftliklari uchun to'liq funksiyasini tuzganda $|k| < k_f$ shart bilan chegaralangan, k to'liq vektorli bir elektronli funksiyalardan foydalanish mumkin bo'ladi. Bu Pauli prinsipi inobatga olinishdan kelib chiqadi. Juftliklar kondensatsiyasi orasidagi Kuperning bunday ko'rinishidagi fundamental xulosasi BKSH nazariyasining asosini tashkil etadi. Kuper juftligining o'lchami-bog'lanish holatining radiusini baholaymiz. Faraz qilsak, o'ta o'tkazuvchanlik holati qandaydir yo'l bilan Kuper juftlikdan iborat bo'lsin. Demak, $\tilde{\Delta} \sim k_B T_c$ bo'lib, bunda T_s – o'ta o'tkazuvchanlikka o'tish harorati. Bu holda juftlikning to'liq funksiyasi asosiy energiyasi $k_B T_c$ quyidagi ifoda bilan topiladi.

$$\tilde{\Delta} \sim k_B T_c \sim \delta \left(\frac{p^2}{2m^*} \right) = \frac{p_f}{m^*} \delta p \quad \delta p = \frac{k_B T_c m^*}{\hbar k_f}$$

Noaniqliklar munosabati $\delta x \cdot \delta p \sim \hbar$ bilan juftlik to'liq funksiyasining xarakterli o'lchamiga kelamiz.

$$\delta x \equiv \xi_0 \sim \frac{\hbar}{\delta p} \sim \frac{\varepsilon_f}{k_B T_c} \frac{1}{k_f}$$

Odatdagi $\varepsilon_f \cong 10 \text{ eV}, k_f \cong 10^8 \text{ cm}^{-1}, T_c \cong 10 \text{ K}$ qiymatlar uchun $\xi_0 \cong 10^{-4} \text{ cm}$ natijaga kelamiz, ammo bundan kelib chiqadiki, ixtiyoriy juftlik tomonidan egallangan, metallning ichki sohasidagi elektronlar odatiy $n_s \cong 10^{22} \text{ cm}^{-3}$ zichligidagi, ya'ni ξ_0 radiusli sfera ichida millionlab boshqa juftliklar joylashadilar.

Adabiyotlar:

1. Ю.Ф. Опадчий, О.П. Глудкин, А.И. Гуров. Аналоговая и цифровая электроника: М.: Горячая линия - Телеком, 2003. 768 с.
2. Алферов Ж. И., Андреев В. М., Румянцев В. Д. Тенденции и перспективы развития солнечной фотоэнергетики // Физика и техника полупроводников. 2004. Т. 38. Вып. 8. С. 937-948.

3. Alferov Zh. I., Andreev V M., Rumyantsev V D. III-V Heterostructures in Photovoltaics. Concentrator Photovoltaic, Berlin Heidelberg, Springer-Verlag, 2007, pp. 25-50.

4. Elektron texnika va radioelektronikaga oid atamalarning o'zbekcharuscha izohli lug'ati. prof. M. Muhiddinov umumiy tahriri ostida. T.:BILIM, 2007. - 432 b.

NOANA'NAVIY ENERGIYA MANBALARI:SHAMOL ENERGIYASIDAN FOYDALANISH

N.R. To`xtayeva

BuxDU, Fizika kafedrasida fizika mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Noananaviy energiya manbalaridan biri shamol energiyasidan foydalanish ,O'zbekistonda emas dunyoda dolzarb muammolardan xisoblangan energiya resuralari muammosini qisman bo'lsada shamol energiyasi orqali hal etish ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Qayta tiklanuvchi energiya manbalari,shamol energiyasi,elektr stansiyalari,intensivlik, bosim.

Insoniyat paydo bo'lgandan buyon tabiatdagi tabiiy energiya manbalari bo'lmish quyoshni, shamolni, suv manbalarini va boshqalarni kuzatib kelgan. Ularga sig'inib, ba'zilarini, masalan, quyoshni, olovni xudo o'rnida ko'rganlar, ulardan foydalanish yo'larini axtarganlar. Turar joylarni quyoshga qaratib qurish, quyosh nurida suv isitish, shamolda xirmon sovirish, shamol va suv tegirmonlari qurib ulardan foydalanish va boshqalar shular jumlasidandir. Mamlakatimizda birinchi bo'lib qaytalanuvchi energiya manbalaridan biri bo'lgan suv energiyasidan foydalanish 1926-yili qurilgan Bo'zsuv gidroelektrostansiyasini ishga tushirishdan boshlandi [3]. 1987- yilda esa 3 000°C dan ortiq issiqlik to'playdigan dunyoda eng katta quyosh pechi ishga tushirildi [4], Hozirgi kunda mamlakatimizning Samarqand viloyatida 400 gektar maydonga quvvati 100 000 MW ga teng quyosh elektrostansiyasi uchun Osiyo taraqqiyot bankining investitsiyalari kiritildi va

qurilish ishlari boshlab yuborildi [5]. Kichik quvvatli quyosh energetik qurilmalaridan respublikamizning barcha burchaklarida foydalanilmoqda [6]. Shamol energiyasidan foydalanish nazariyasi va usullari 1950-yillarda ishlab chiqilgan bo'lib, Respublikamizda birinchi shamol energetik qurilmalaridan 1983-yilda Navoiy viloyati Tomdi tumani chorvadorlari foydalana boshlashdi. Chorva mollarining go'ngi, qishloq xo'jalik mahsulotlarining qoldiqlari hisobiga biogaz ishlab chiqarish va undan foydalanish esa 1987-yillardan boshlab amalga oshirila boshladi [7], Mamlakatimizda noana'naviy va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga qiziqish va ulardan foydalanish misli ko'rilmagan tusda o'ziga xos ravishda tobora ommalashib bormoqda. Noana'naviy va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga energetik obyektlar qurish va ulardan foydalanish uchun chet el va xalqaro banklarning investitsiyalari kiritilmoqda. Noana'naviy va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida Prezidentimizning 1995-yil 28-dekabrda 476-sonli «O'zbekiston Respublikasida kichik gidroenergetikani rivojlantirish haqida»gi [8], 2001-yil 22-fevralda «Energetikada iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish to'g'risida»gi [9], 2013-yil 1-martdagi «Muqobil energiya manbalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi [10] farmonlari qabul qilindi.

Noana'naviy energiya manbalari: Shamol energiyasidan foydalanish

Faqatgina O'zbekistonda emas dunyoda dolzarb muammolardan xisoblangan energiya resuralari muammosi. Kundan kunga aholi sonining o'sishi, aholining texnikaga bo'lgan talabining ortishi, ko'plab ish jarayonlarining avtomatlashtirilganligi bunga sabab bo'lmoqda. O'zbekistonda ham yildan yilga elektr energiyaga bo'lgan talab oshmoqda. Biz hozirgi kunda yurtimizdagi elektr energiyaning 80 foizini issiqlik elektr stansiyalaridan ko'mir, gazlarni yoqish hisobiga olamiz. Bu yoqilaytgan manbalar qayta tiklanmaydigan manbalar xisoblanadi. Bunday qayta tiklanmaydigan energiya manbalaridan foydalanib uzoqqa bora olmaymiz. Yaqin yuz yilga yetish yetmasligini taxmin qilib aytish mumkin holos. Bu manbalar tugasa nima qilamiz?

Shuning oldini olish uchun hozirdan qayta tiklanadigan energiyadan foydalanishni yo'lga qoyishimiz kerak. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan quyosh va shamol energiyasidan foydalanishimiz mumkin. Shamol bu quyosh nurining intensivligi hisobiga, bosimning o'zgarib turishi natijasida havo massasining harakatidir.

Ulardan shamol energiyasidan O'zbekistonda deyarli foydalanilmaydi. So'ngi malumotlarga qaraganda O'zbekistondan ham shamolning doimiy oqimi otgan, biz undan samarali foydalanishimiz kerak. O'zbekistonda shamol energiyasidan shamol tezligining pastligi, doimiy emasligi foydalanmaslikka sabab dep ko'rsatiladi. Tog'ri shamol energetikasidan foydalanayotgan mamlakatlarda shamol tezligi yuqori va doimiy boladi. Lekin shu holatda ham O'zbekistonda shamol energiyasidan foydalanish mumkin. Bizga ma'lum dastlabki shamol parraklaring aylanish oqi vertikal joylashgan keyinchalik unda tormoz tizimi ya'ni shamol kuchaygan paytida uni toxtatib bo'lmasligi uchun undan vos kechilib aylanish oqini gorizontal joylashtirib toxtatish uchun shamol oqimidan boshqa tarafga burish hisobiga foydalanar edi. Biz yurtimizda shamol tezligini past bolishi hisobga olib shamol parraklari oqini vertikal joylashtirsak bo'ladi.

Bizda tormoz tizimi shart bo'ladigan darajada shamol bolmaydi. Parrak aylanish oqini vertikal qo'yishimiz bilan yurtimizning shamol tezligi yiliga 5-6 m/s tashkil etadigan hududlarida ham shamol energiyasidan foydalanishimiz mumkin. Ma'lumot uchun: Ko'pgina shamol generatorlari sekundiga 3-4m/s dan yuqori tezlikdagi shamol yordamida ishlaydi. Shamol generatorlari 8-25m/s tezlikda esadigan shamol yordamida maksimal quvvatga ega bo'ladi. Odatda shamol generatorlarining maksimal ishlash tezligi 25-30m/s nit ashkil qiladi

Shamol energiyasidan foydalanish afzalliklari:

1. Bu qayta tiklanuvchan energiya manbayi
2. Uni qurish uchun maxsus maydon shart emas
3. Elektr stansiyalardan uzoqda joylashgan yerlarga qurish mumkin. Bu orqali elektr ustunlar, o'tkazgichlar va elektr energiyaning yetib borishidagi isrofi

tejaladi. Ya'ni elektr energiyasi zarur bo'lgan nuqtaga shamol parraklarini o'rnatish mumkin.

4.O'zidan zararli chiqindilarni chiqarmaydi, xavoni zaxarlamaydi.

Kamchiliklari:

1.Energiyaning uzliksizligi shamolga bog'liq (kichik quvvatlarining deyarli boshqa zarari yoq) Shulardan kelib chiqqan holda O`zbekistonda ham Shamol energiyasidan foydalanish samara beradi deb aytishimiz mumkin.

Shamol energiyasi. Insoniyat suv energiyasi va bug' dvigatellaridan ancha oldin shamol energiyasidan foydalanib kelgan. Angliya, Germaniya, Fransiya, Daniya, Gollandiya, AQSh va boshqa mamlakatlarda shamol energiyasi juda katta miqyosda, sanoat va qishloq xo'jaligida qo'llanib kelingan. Shamol energiyasidan foydalanish bo'yicha olib borilayotgan hozirgi ishlar alohida katta quvvatli shamol generatorlarini yaratish va ularning energiyasini ishlab turgan energiya tarmoqlariga ulash va asosiy tarmoq sifatida foydalanishdan iboratdir.

Shamol - bu quyosh nurining intensivligi hisobiga, bosimning o'zgarib turishi natijasida havo massasining harakatidir.

Havo massasining Yer atmosferasi atrofida aylanishi ekspertlar tomonidan turlicha baholangan. Shamollarning yillik nazariy zahirasi Yer yuzidagi barcha energiya zahiralaridan 100 marta ortiq bolib, 3300x10¹⁰ 12soatni tashkil qiladi. Ammo bu energiyaning faqatgina 10-12% dan foydalanish mumkin. Hisoblarga ko'ra, parrakli shamol dvigatellarining shamol energiyasidan foydalanish koeffitsiyenti 48% gacha bo'lishi mumkin, shamol qurilmalarining umumiy foydali ish koeffitsiyenti undan ham kichikroq ho'ladi. Shamol qurilmasi quvvatini parraklar soni emas, balki ish g'ildiragi diametri belgilaydi [24], 48-rasmda shamol qurilmasi ish g'ildiragining diametri bilan uning quvvati orasidagi bog'lanish grafigi ko'rsatilgan. Shamol agregatining quvvati shamol tezligiga to'g'ri, ish g'ildiragi parraklari soniga teskari proporsionaldir.Havo oqimi hosil qiladigan mexanik energiyani elektr energiyasiga aylantirish shamol elektrostansiyalari

yordamida amalga oshiriladi. Bir necha shamol qurilmalarining yig'indisi shamol elektrostansiyasi ni tashkil qiladi. Shamol qurilmalarining asosiy ishchi qismi shamol g'ildiragi hisoblanadi. Shuni esda tutish lozimki, shamol g'ildiragi tomonidan qabul qilinayotgan shamol oqimi shamol g'ildiragining diametri bilan aniqlanadi, undagi parraklar soni hech qanday ahamiyatga ega emas. Hozirgi kunda isli g'ildiragi diametri 1,0+64 m bo'lgan shamol qurilmalari mavjud. Ko'pgina shamol generatorlari 3 -4 m/s dan yuqori le/.likilnni nliiiiimiI yordamida ishlaydi. Shamol generatorlari 8-25 m/s tezlikdn cMuljgitrn shamol yordamida maksimal quvvatga ega bo'ladi. Odatda, shanml generatorlarining maksimal ishlash tezligi 25-30 m/s ni tashkil qiladi. Shamol energetikasi ekologik toza energiya manbayidir. Ammo shamol elektrostansiyalari uchun juda katta hududlar zarur (shamol energetik qurilmalarining bir-biridan uzoqda joylashishi va ular orasidagi masofa ish g'ildiragi diametrining 6-18 barobariga teng boiishi kerak). Masalan, ish g'ildiragi $D=100\text{m}$ bo'lgan shamol energetik qurilmasi uchun 5-7 km kvadrat hudud kerak. Butun boshli shamol elektrostansiyasi uchun esa o'nlab kmkvadrat hudud zarur. Boshqa bir noqulay tarafi - ish g'ildiragi shovqin chiqarib va havoni tebratib ishlashi natijasida tele- va radioeshittirishlarga xalaqit beriladi. Shamol energiyasidan foydalanish bo'yicha Germaniya birinchi o'rinni egallab kelmoqda. Bu mamlakatda shamol energiyasini ishlab chiqarish yiliga 500-1500 MW ga ko'paymoqda, hozirgi vaqtda ishlab chiqariladigan energiya miqdori 2 mln. kW/soatdan oshib ketdi.

Hozirgi kunda shamol elektrostansiyasini qurishga ketgan mablag1 qoplangandan so'ng, 1 kW elektr energiyasining narxi 0,10+0,07 dollarga teng bo'lgandagina shamol energetikasi samarali hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida birinchi bo'lib Chorvoq suv omborining dam olish zonasida (Toshkent viloyatida) eng katta shamol energoqurilmasi o'rnatildi. Quvvati 750 kW • soat bo'lgan shamol energoqurilmasini o'rnatish Janubiy Koreyaning «Doojin Co. LTD» kompaniyasi yordamida olib borildi. Shamol energoqurilmasi maydonchasiga 40 m balandlikdagi minoraga shamol tezligini

o'lchovchi anemometrlar va boshqa nazorat-o'lchov asboblari o'rnatilgan. Shamol energoqurilmasi bir yilda 12,3 million kW -soat elektr energiyasi ishlabchiqaradi, natijada 700 000 ml tabiiy gaz tejaladi. Yevroittifoq 2016 yilda shamol energiyasidan 36 milliard yevro oldi. Shuningdek, Yevropadagi WindEurope sanoat guruhi shamol energetikasi 236 ming ish o'rini bilan ta'minlagani va shamol energetikasi bilan bog'liq mahsulotlarning 8 milliard yevrolik eksportiga olib kelganini hisoblab chiqdi, deb yozmoqda Slean Technica.

WindEurope asosiy g'oyasi shamol energetikasi nafaqat ekologiyaga, balki iqtisodiyotga ham ta'sir ko'rsatishini ko'rsatib berishdan iborat bo'lgan hisobotni e'lon qildi. 2016 yilda shamol energetikasi hissasiga 36 milliard yevro to'g'ri keldi – Yevroittifoq umumiy YaIMdan 0,26. Hisobotda aytilishicha, shamol – iqtisodiyot uchun energiyaning oqilona manbasi. Hamda Yevropa bu faktga bezak bermoqda. Biroq hisobotning yozilishida ishtirok etgan ekspertlarning ta'kidlashicha, muvaffaqiyatni oshirish hamda ushlab turish uchun davlat tomonidan aniq va prognoz qilinuvchi harakatlar talab etiladi. Faqatgina shu holatda sanoatning rivojlanishi kafolatlanadi. Davlatning faol ishtiroki bilan, tegishli dasturlar bo'lganida. O'z navbatida qayta tiklanuvchi energiya masalasidagi aniqlik sarmoyadorlarni xotirjam qiladi, ularning pullari esa sohaga kirib kela boshlaydi. Shamol energetikasi muvaffaqiyatini mustahkamlash hamda uni yanada rivojlantirish uchun maqsad qo'yish kerak – YeIda 2030 yilga kelib energiyaning hech bo'lmasa 35 foizi faqat qayta tiklanuvchi manbalardan olinishi lozim. Agarda bunday topshiriq davlat darajasida berilsa, shundan keyin yangi tadqiqotlar, yangi texnologiyalar ham keladi. Bularning bari qo'shimcha ish o'rinlari paydo bo'lishi va iqtisodiy o'sishni taqdim etadi. Shu bilan birga, Yevropaning ba'zi davlatlari qayta tiklanuvchi energiyani ishlab chiqish bo'yicha ancha yaxshi natijalarni ko'rsatmoqda. Yaqinda nemislar energiya keragidan ortiq ishlab chiqarilgani tufayli uning uchun pullarni ortga qaytarish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Oktyabr oxirida esa Yevropa shamol energiyasi ishlab chiqarish bo'yicha o'z rekordini yangiladi. Yevropa mamlakatlari elektr energiyasining to'rtidan bir

qismini shamol qurilmalaridan oldi. Ishlab chiqarilgan elektr energiyasi 197 million uy xo'jaligini ta'minlashga yetardi.

Adabiyotlar

1. Maxmudova S.YU. Fizikadan ekologik mazmunda masalalar tanlashning didaktik asoslari // Kasb-hunar ta'limi. – 2002.
2. Maxmudova S.YU. Fizika o'qitishda ilmiy fikrlash va uning bosqichlari. - Toshkent: TDTU, 2001.
3. A.Karimov., Sh Toshpulatova. —Fizika o'qitishda innovatsion usullardan foydalanishl. Navoiy.,2015.
4. T.Sh. MAJIDOV ‘‘ NOANA’NAVIY VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI’’ TOSHKENT «VORIS-NASHRIYOT» 2014
5. Internet ma'lumoti. Manba: <http://photo-day.ru/ogromnaya-solnechnaya-pech-v-uzbekistane/> hamda news.olam.uz/nauka/7258.html
6. Internet ma'lumoti. Manba: <http://farishta.uz/society/novosti-obshchestvo/> 2370-v-uzbekistane-stroitelstvo-solnechnoj-elektrostantsii-otseneno-v-207-mln-dollarov hamda <http://www.gazeta.uz/2013/!1/22/solar>

YUQORI VA JUDA PAST HARORATLI O‘TA O‘TKAZUVCHANLIK SOHASIDA NOBEL MOKOFOTI BILAN TAQDIRLANGAN OLIMLAR

D.R.Djuraev,

BuxDU, f-m.f.d., professor

N.O.Bozorova

BuxDU, 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘ta o‘tkazuvchanlik hodisasi, xossalari, yuqori va juda past haroratli o‘ta o‘tkazuvchanlik sohasida kashfiyotlari va nazariyasini yaratganliklari uchu Nobel mukofoti bilan taqdirlangan olimlar.

Kalit so'zlar: O'ta o'tkazuvchanlik, Xeyke Kamerling Onnes, o'ta o'tkazuvchanlik modellari, Nobel mukofoti , yuqori va past haroratli o'ta o'tkazuvchanlik modellari.

Nobel mukofoti (inglizcha: *Nobel Prize*) — buyuk ilmiy izlanishlar, inqilobiy ixtirolar yoki madaniyat va jamiyatning rivojiga katta hissalar qo'shganligi uchun har yili taqdim etiladigan eng nufuzli xalqaro mukofotlardan biri.

Nobel mukofotlari - har yili buyuk ishlar uchun beriladigan xalqaro mukofot. Ta'sis etuvchisi A. B. Nobelning vasiyatiga ko'ra, undan keyin qolgan mablag' asosida Nobel jamg'armasi tashkil etildi, shu jamg'armaga har yili kelib tushadigan daromad 5 qismga teng bo'linib, irqi, millati, jinsi va dinidan qat'iy nazar Alfred Nobelning¹ vasiyatiga ko'ra, moddiy tarafdin quvvatlanib, 1895-yilda tadbiiq etilgan quyidagi besh yo'nalish bo'yicha mukofotlar mavjud: fizika bo'yicha Nobel mukofoti, kimyo bo'yicha Nobel mukofoti, fiziologiya va tibbiyot bo'yicha Nobel mukofoti, adabiyot bo'yicha Nobel mukofoti, jahonda tinchlik o'rnatish ishlari bo'yicha harakatlar uchun (Tinchlik bo'yicha Nobel mukofoti). 1969-yildan boshlab, iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti ham berila boshladi

Yuqori va juda past haroratli o'ta o'tkazuvchanlik sohasida Nobel mukofoti bilan taqdirlangan olimlar.²

O'ta o'tkazuvchanlik – tabiatning juda qiziqarli hodisalaridan ekanligi ma'lum. Uning eng sodda ta'rifi – moddaning o'zidan elektr tokini qarshiliksiz o'tkazish xossasidir. Bizga ma'lumki, o'ta o'tkazuvchanlik hodisasi kashf etilganidan beri, bunday xossalarga ega bo'lgan materiallardan fan, texnika, xalq xo'jaligi, mudofaa, tibbiyot va boshqa ko'pgina sohalarda qo'llanishi bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu xossaga ega bo'lgan materiallar keng miqiyosda qo'llanilgan taqdirda mazkur sohalarda misli ko'rilmagan, insoniyat uchun juda muhim o'zgarishlar sodir bo'lishining mumkinligi, dunyoning ko'pgina olimlarini e'tiborini o'ziga jalb etib

kelmoqda. Ushbu soxadagi nazariy va amaliy ilmiy izlanishlari uchun quyida nomlari bayyon etilgan olimlar

1912-yilda Xeyke Kamerling-Onnes(1853-1926) tomonidan “Suyuq geliyni ishlab chiqilishiga olib kelgan, moddalarning xossalarini past haroratlarda tadqiqi uchun”

1962-yilda Lev Davidovich Landau (1908-1968) tomonidan “Kondensatlangan muhitlar, xususan suyuq geliyning pionerlik nazariyasi uchun”

1972-yilda Djon Bardin(1908-1991), Leon Nil Kuper(1930), Djon Robert Shriffer(1931) lar tomonidan “Odatda BKSh – nazariyasi deb nomlanuvchi o'ta o'tkazuvchanlik nazariyasini yaratganliklari uchun”

1973-yilda Leo Esaki (1925), Ayvor Djayever (1929)lar tomonidan “Yarim o'tkazgichlar va o'ta o'tkazgichlardagi tunneli hodisalarni eksperimental kashf etganliklari uchun”

1973-yilda Brayan Devid Djozefson (1940) “Tunnelli to'siq orqali o'tayotgan tok xossalarini, ya'ni xususan barchaga ma'lum bo'lgan Djozefson samarasi deb nomlanuvchi hodisani nazariy bashorat qilgani uchun”

1978-yilda Pyotr Leonidovich Kapitsa (1894-1984) “Past haroratlar fizikasidagi kashfiyoti va uning fundamental tadqiqotlari uchun” ,**Arno Allan Penzias 1933, Robert Vudro Vilson (1936)** lar tomonidan “Mikroto'lqinli reliktiv nurlanishni kashf etgani uchun”

1987-yilda Georg Bednorts (1950), Karl Myuller (1927) lar tomonidanyui “Keramik materiallarda o'ta o'tkazuvchanlikni kashf etilishida aks etgan fizikadagi muhim yangilik uchun”

2003-yilda Aleksey Alekseevich Abrikosov (1928), Vitaliy Lazarevich Ginzburg (1916-2009), Entoni Legget (1938) lar tomonidan “O'ta o'tkazgichlar va o'ta oquvchanlik nazariyasiga qo'shgan pionerlik ishlari uchun” aniqroq qilib aytganda “Ikkinchi tur o'ta o'tkazuvchanlik nazariyasini va

suyuq geliy – 3 o'ta oquvchanlik nazariyasini yaratganliklari uchun” Nobel mukofoti bilan taqdirlanganlar.

Yuqori haroratli o'ta o'tkazgichlarda kuzatilayotgan xossalarni to'la tushuntira oladigan nazariyaning bugungi kunda mavjud emasligi. Bu esa ushbu soxadadagi nazariy va amaliy tadqiqotlarni yanada kuchaytirish zarurligi va ushbu sohadagi tadqiqotlarda xalqaro hamkorlikda amalga oshirish, hamda albatta kuchaytirish kerak degan xulasaga kelsa bo'ladi.

Adabiyotlar

1. D.R.Djuraev. “O‘TA O‘TKAZUVCHANLIK FIZIKASI”. Buxoro-2013, 307-b.
2. D.R.Djuraev va boshqalar. “O‘ta o‘tkazuvchanlikning ba’zi masalalari”. Toshkent, Press-Dizayin, 2012.
3. Джураев Д.Р, Курбанов М. “Ўта ўтказгичлар”. Ёш куч, 1990.
4. www.ziyounet.uz kutubxonasi.

EXISTING PROBLEMS AND SOLUTIONS IN HYDROGEN ENERGY AND SUPERCONDUCTIVITY

D. R. Djurayev,

Doctor of Physical and Mathematical Sciences,

Professor of the Department of Physics

A.A. Ahadov,


Master student of Bukhara State University

The interrelationship between hydrogen energy and superconductivity is one of the most recent research topics. Determining this relationship serves to increase energy production efficiency. Furthermore, finding the connections between hydrogen energy and superconductivity enriches physics with new theoretical knowledge. For various reasons, hydrogen energy is recognized as the energy of the future. There are a number of problems in processes such as hydrogen production, storage and transfer. Superconductors also have many problems. We

discuss both of them below. We also attend to identify how superconductivity and hydrogen energy are related to each other.

Keywords: hydrogen energy, hydrogen-containing compounds, electrical resistance, the critical temperature, high temperature superconducting generator, room temperature superconductor.

At present, the task of meeting the energy needs of mankind through scientific advances is one of the most pressing issues. One way to solve this problem is to use hydrogen energy. Hydrogen energy has a high energy efficiency, environmental and social benefits, as well as the use of hydrogen and or hydrogen-containing compounds for energy production for all practical purposes necessary with economic competitiveness [4].



Picture-1. Using hydrogen energy.



Picture-2. Storage and modeling of hydrogen energy.

Let's look at the advantages and disadvantages of hydrogen energy [1]:

Firstly, we learn what advantages in hydrogen energy:

- ▶ It is a renewable energy source;
- ▶ There are large hydrogen reservoirs in the world;
- ▶ There are many methods of obtaining hydrogen, and they are derived from several substances;
- ▶ It is an almost pure source of energy;
- ▶ Hydrogen energy significantly reduces air pollution;

- ▶ Hydrogen energy is more useful than other types of energy;
- ▶ It is used as a convenient energy for high-energy spacecraft;
- ▶ It has a stable production system.

Unfortunately, hydrogen energy has some problems:

- ▶ In many cases, the production of hydrogen energy is expensive;
- ▶ It is difficult to maintain it as a source of energy;
- ▶ Detection of stolen hydrogen in pipes due to odorlessness requires additional effort;
 - ▶ Transporting large amounts of hydrogen is technically inconvenient;
 - ▶ Extraction of hydrogen from non-renewable energy sources, such as coal, oil and natural gas, makes hydrogen energy dependent on these sources.

Many are successful in using hydrogen energy although results have been achieved, there are still some issues that need to be addressed. We will mention the most important of them:

1. Identify low-cost methods and technologies for hydrogen production.
2. Overcoming the problem of long-term storage of hydrogen.
3. Improving the methods of obtaining hydrogen based on its physical and chemical properties.
4. Development of special equipment that allows the transport of large volumes of hydrogen.
5. Research of new substances as a source of hydrogen [3].

The phenomenon of superconductivity is defined as the sudden loss of electrical resistance of a substance at temperatures close to absolute zero. Substances with this property are called superconductors [2]. When the temperature is lowered to almost absolute zero, the resistance of the ordinary metal conductor gradually decreases, while the resistance of the superconductor disappears suddenly at a temperature called the critical temperature.

Superconductivity gives us a number of interesting results: a very large electric current is generated when the resistance is lost. The current achieved in the superconducting state of the superconducting wire flows for a long time without any additional work.



Figure-3. High-temperature superconducting generator of Siemens concern and generator developed at Elektromash Research Institute.

In general, the current problems of superconductivity are

- ▶ Low input temperature of superconductors limits their widespread use;
- ▶ There are high production costs;
- ▶ There is a shortage of resources in laboratories to produce new types of superconductors.

The following solutions can be suggested to the above problems:

- ▶ We can get rid of the inconvenience of working at low temperatures by finding high-temperature superconductors. The fact that the first room temperature superconductor was discovered in 2020 supports this view [7].
- ▶ The high cost of production can be solved by inventing methods that are easy to obtain and widely used inexpensive superconductors such as magnesium diboride [5];

► The shortage of resources in laboratories for the production of new types of superconductors can be solved by combining the laboratories of several countries. This will not only increase the efficiency of resource use, but also the effectiveness of scientific research [6].

References

[1]. Djurayev D.R., Ahadov A.A. "Hydrogen energy: advantages and disadvantages, problems of using ". Republican scientific-methodical conference "Integration of science, education and innovation in the development of modern microelectronics". Andijan, 2020.

[2]. D.R.Djurayev. Physics of superconductivity. Dizayn-press. Tashkent. 368 p. 2013.

[3]. Djurayev D.R., Ahadov A. A. "Problems of hydrogen energy and their solution". Republican scientific-methodical conference "Integration of science, education and innovation in the development of modern microelectronics". Andijan, 2020.

[4]. Djurayev D.R., Ahadov A.A. "Hydrogen energy and superconductivity". - Republican scientific-practical conference on "Thinking and Interpretation". Bukhara, 2021.

70540101– Matematika (yo'nalishlar bo'yicha)

GIPERBOLIK TIPDAGI TENGLAMALAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

B.J.Jamolov,

BuxDU, Fizika-matematika fakulteti magistri

Annotatsiya: maqolada giperbolik tipga tegishli va buzilish chizig'iga ega bo'lgan ikkinchi tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar (birinchi va ikkinchi turlari) tahlil qilingan. Kvazichizikli giperbolik tenglama uchun Koshi masalasini yagona yechimga ega bo'lishi isbotlangan.

Kalit soʻzlar: giperbolik tip, buzilish chizigʻi, birinchi tur giperbolik tenglama, ikkinchi tur giperbolik tenglama, xarakteristikalar, boshlangʻich va chegaraviy shartlar.

Ikkinchi tartibli xususiy hosilali kvazichizikli differensial tenglamani qaraymiz:

$$A \frac{\partial^2 u}{\partial x^2} + 2B \frac{\partial^2 u}{\partial x \partial y} + C \frac{\partial^2 u}{\partial y^2} + F \left(x, y, u, \frac{\partial u}{\partial x}, \frac{\partial u}{\partial y} \right) = 0, \quad (1)$$

bunda $A(x, y)$, $B(x, y)$, $C(x, y)$ va $F \left(x, y, u, \frac{\partial u}{\partial x}, \frac{\partial u}{\partial y} \right)$ – funksiyalar yopiq \bar{D} sohada berilgan. Boshlangʻich va chegaraviy masalalarni yechish jarayonida berilgan funksiyalarga tegishli shartlar qoʻyiladi. Dastlab berilgan funksiya - A, B, C larni \bar{D} sohada sohada bir vaqtda nolga aylanmaydi va ikkinchi tartibli uzluksiz hosilaga ega deb faraz qilamiz.

Agar D sohada $B^2 - AC > 0$ tengsizlik bajarilsa (1) tenglama giperbolik tipga tegishli deyiladi [1-3].

Maqolada (1) tenglamaning xarakteristik yoʻnalishlariga qarab ikkita har xil haqiqiy xarakteristikalar oilasiga ega boʻlishi va tenglamaning birinchi va yoki ikkinchi turga tegishli boʻlishi batafsil tahlil qilingan.

D sohaning maʼlum bir qismida $B^2 - AC = 0$ boʻlgan holi (tenglama buziladigan giperbolik tenglama deb ataladi) alohida oʻrganilib, ularga qoʻyiladigan boshlangʻich va chegaraviy shartlar tasniflangan. Bundan tashqari, misol sifatida buzilish chizigʻiga ega kvazichizikli giperbolik tenglama uchun boshlangʻich shartlar qoʻyilgan va uning yagona yechimga ega boʻlishi isbotlangan. Xususan,

$$-(-y)^m U_{xx} + x^m U_{yy} = f(x, y, U, U_x, U_y), \quad m = \text{const} > 0. \quad (1)$$

tenglama qaralgan.

Ω – soha $y = 0$ oʻqida OA kesma va (1) tenglamani xarakteristikalari $OD: x + y = 0$ va $DA: x^p + (-y)^p = 1$ bilan chegaralangan, $2p = m + 2$.

Agar (1) tenglamani o'rgansak, unda OA kesmada tenglama tipini o'zgartirib, parabolik tipga tegishli bo'ladi. Bu yuqorida aytib o'tilganidek, buzilish chizig'iga ega kvazichiziqli giperbolik tenglama hisoblanadi [4-8].

Faraz qilamiz,

$$f(x, y, U, U_x, U_y) = (x^{2p} - (-y)^{2p})(-xy)^{\alpha p} f_1(x, y, U, U_x, U_y)$$

ko'rinishda bo'lib, $f_1(x, y, U, U_x, U_y)$ – funksiya uzluksiz va barcha argumentlari bo'yicha uzluksiz birinchi tartibli hosilaga ega bo'lsin, $\alpha > 2m/(m + 2)$.

Koshi masalasi. Ω sohada (1) tenglamani va quyidagi boshlang'ich shartlarni

$$U(x, y) = \tau(x), \quad 0 \leq x \leq 1,$$

$$\lim_{y \rightarrow 0} U_y(x, y) = v(x), \quad 0 < x < 1,$$

qanoatlantiruvchi (1) tenglamaning regulyar yechimini toping. Bunda, $\tau(x), v(x)$ – berilgan funksiyalar va $\tau(x) \in C[0,1] \cap C^2(0,1)$, $v(x) \in C(0,1] \cap C^2(0,1)$.

$\tau(x), v(x)$ va $f(x, y, U, U_x, U_y)$ – berilgan funksiyalarga tegishlarni shartlar qo'yilib, masalaning yagona yechimga ega bo'lishi isbotlangan.

Mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlar [6-12] maqolalarda o'rganilgan.

Adabiyotlar

1. Жамолов Б.Ж., Раупова М.Х. О функции Римана вырождающегося уравнения гиперболического типа // Science and Education, scientific journal, 3:3 (2022), с.23-30.
2. Расулов Х.Р. О некоторых символах математического анализа // Science and Education, scientific journal, 2:11 (2021), p.66-77.
3. Расулов Х.Р. О понятие асимптотического разложения и ее некоторые применения // Science and Education, scientific journal, 2:11 (2021), pp.77-88.

4. Xaydar R. Rasulov. On the solvability of a boundary value problem for a quasilinear equation of mixed type with two degeneration lines // Journal of Physics: Conference Series 2070 012002 (2021), pp.1–11.

5. Расулов Х.Р. Об одной краевой задаче для уравнения гиперболического типа // «Комплексный анализ, математическая Физика и нелинейные уравнения» Международная научная конференция Сборник тезисов Башкортостан РФ (оз. Банное, 18 – 22 марта 2019 г.), с.65-66.

6. Rasulov X.R. (2020). Boundary value problem for a quasilinear elliptic equation with two perpendicular line of degeneration // Uzbek Mathematical Journal, №3, pp.117-125.

7. Rasulov Kh.R. (2018). On a continuous time F - quadratic dynamical system // Uzbek Mathematical Journal, №4, pp.126-131.

DINAMIK TIZIMLAR VA ULARNING BA`ZI TATBIQLARI HAQIDA

B.J. Mamurov,

BuxDU “Matematik analiz” kafedrasi dotsenti

D.Sh.Bozorova,

Fizika-matematika fakulteti magistri.

Annotatsiya: Maqolada dinamik tizimlar haqida tushunchalar berilib, ularning tadbiqlariga doir misollar qaralgan.

Kalit so`zlar: matematik model, populyatsiya, dinamik tizimlar

Dinamik tizim qandaydir ob`eklar yoki jarayonlarning matematik modelini ifodalaydi. Dinamik tizimni holatlarga ega bo`lgan tizim sifatida qarash mumkin.

Ko`pgina biologik populyatsiyalarda avlodlar ketma-ketligi sonining o`shishi vaqtning diskret momentlarida yuz beradi.

Shartli ravishda avlodlar ketma-ketligi orasidagi vaqt oralig`ini sifatida yilni olish mumkin. Bu holda matematik model $t+1$ momentdagi populyatsiya soni N_{t+1} ni oldingi t momentdagi populyatsiya soni N_t orqali ifodalash kerak.

Bu esa, bizdan

$$N_{t+1} = f(N_t), \quad N_t \in \mathbb{R}, \quad f: \mathbb{R} \rightarrow \mathbb{R}, \quad (1)$$

ayirmali tenglamani yoki diskret dinamik tizimni o'rganish zarurligiga olib keladi (bu yerda f - ma'lum parametrlarga bog'liq bo'lgan akslantirish).

Dinamik tizimlar haqidagi dastlabki tasavvurlarni hosil qilish uchun uning tadbiqlariga doir quyidagi sodda masalalarni qarab chiqamiz.

1. Quyonlarning ko'payishi haqidagi masala.

Bu masala qadimiy masalalardan biri bo'lib, unda uch oydan keyin juft quyonlar juftligidan boshqa juftlik dunyoga keladi, tug'ilgan quyon ikki oydan keyin, boshqa quyonchalarni dunyoga keltiradi.

Masalaning matematik modeli quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$N_{t+1} = N_t + N_{t-1}, \quad (2)$$

bu yerda N_t – t - oydagi quyonlar juftliklari soni.

Bu modelda quyonlar o'lmaydi, deb faraz qilinadi.

(2) tenglama o'zgarmas koeffitsentli, chiziqli, bir jinsli ikkinchi tartibli ayirmali tenglama hisoblanadi.

O'zgarmas koeffitsentli, chiziqli, bir jinsli k - tartibli tenglamaning umumiy ko'rinishi

$$u_{t+k} + a_1 u_{t+k-1} + a_2 u_{t+k-2} + \dots + a_k u_t = 0, \quad (3)$$

bo'lib, agar u^1 va u^2 lar (3) tenglamaning yechimi bo'lsa, $A u^1 + B u^2$ ham (3) ning yechimi bo'ladi (bu yerda A, B lar ixtiyoriy o'zgarmaslar).

(3) ning umumiy yechimini $u_t = C_1 u_t^1 + C_2 u_t^2 + \dots + C_k u_t^k$ ko'rinishda bo'ladi (bu yerda C_i lar ixtiyoriy o'zgarmaslar, u_t^i lar (3)ning chiziqli bog'liqsiz xususiy yechimlari, $i=1,2, \dots, k$). k ta bog'liqsiz xususiy yechimlarni izlash uchun (3) tenglamada $u_t = p^t$ almashtirish olib, so'ngra barcha tenglamalarni p^t ga qisqartirishdan hosil qilinadigan

$$p^k + a_1 p^{k-1} + \dots + a_{k-1} p + a_k = 0,$$

xarakteristik tenglamani qarash kerak. Bezu teoremasiga bu tenglama k ta yechimga ega. Agar p_i - bir karrali haqiqiy ildiz bo'lsa, xususiy yechim $u_t^i = p_i^t$, agar p_i -m karrali haqiqiy ildiz bo'lsa, bu m ildizlarga mos m xususiy yechimlar

$u_t^i = C_1 p_i^t + \dots + C_m t^{m-1} p_i^t$, agar p_i - kompleks ildiz bo'lsa, haqiqiy xususiy yechimlar sifatida $\text{Re}p_i^t$ va $\text{Im}p_i^t$ larni olish mumkin.

(3) ning yagona yechimini olish uchun $u_0 = b_0, u_1 = b_1, \dots, u_{k-1} = b_{k-1}$ ko'rinishdagi boshlang'ich shartlarni berish kerak (b_i lar oldindan ma'lum sonlar).

(2) tenglamaning yechimini topamiz, buning uchun $N_t = p^t$ almashtirish olsak, p uchun $p^2 - p - 1 = 0$ xarakteristik tenglamaga ega bo'lamiz. Oxirgi tenglamani yechimlari $p_{1,2} = (1 \pm \sqrt{5})/2$ bo'ladi.

(2) tenglamaning umumiy yechimi $N_t = C_1 p_1^t + C_2 p_2^t$ ko'rinishda bo'ladi.

Agar $N_0 = 0, N_1 = 1$ boshlang'ich shartlarni bersak va o'zgarmaslarni aniqlasak,

$$N_t = \frac{1}{\sqrt{5}} \left(\frac{1+\sqrt{5}}{2}\right)^t - \frac{1}{\sqrt{5}} \left(\frac{1-\sqrt{5}}{2}\right)^t \text{ ni olamiz.}$$

Bu $t = 0, 1, 2, 3, 4, 5, \dots$ bo'lganda $0, 1, 1, 2, 3, 5, 8, 13, \dots$ Fibonachchi qatorini ifodalaydi.

2-masala. N_0 - populyatsiyaning boshlang'ich miqdori, N_t - populyatsiyaning t yildan keyingi miqdori bo'lsin. O'sish koeffitsenti R deb, yil davomidagi miqdorning nisbiy o'zgarishiga aytiladi: $R = (N_{t+1} - N_t) / N_t$.

Agar bu miqdor o'zgaras bo'lsa, uni $r = R$ kabi belgilaymiz. Bu holda miqdor dinamikasini boshqarish qonuni

$$N_{t+1} = f(N_t) = (1+r) N_t, \quad (4)$$

bo'ladi. (4) tenglama chiziqli va osongina yechiladi. t yildan so'ng populyatsiya miqdori $N_t = (1+r)^t N_0$ ga teng bo'ladi.

Agar $r > 0$ bo'lsa, populyatsiya miqdori cheksiz o'sadi, agar $-1 < r < 0$ bo'lsa, geometrik progressiya bo'yicha kamayadi.

Chiziqli bo'lmagan dinamik tizimlar, jumladan kvadratik va kubik stoxastik operatorlar matematik genetika, fizika va kimyo sohasiga doir masalarning matematik modelini ifodalaydi. Kvadratik va kubik stoxastik operator yo'nalishida qator ilmiy izlanishlar [1- 8] olib borilgan.

Adabiyotlar

1. Mamurov B.J., Rozikov U.A. On cubic stochastic operators and processes. Journal of Physics: Conferense Series. **697** (2016), 012017.
2. Mamurov B.J., Rozikov U.A., Xudayarov S.S. Quadratic stochastic processes of type (σ/μ) . arXiv: 2004.01702 . Pp. 1-14. math.D.S
3. Мамуров Б.Ж., Сохибов Д.Б. О неподвижных точек одного квадратичного стохастического оператора. Наука, техника и образование. 2021. №2 (77). Часть 2. Стр.10-15.
4. Mamurov B.J., Rozikov U.A. and Xudayarov S.S. Quadratic Stochastic Processes of Type (σ/μ) . Markov Processes Relat.Fields 26, 915-933 (2020).
5. Мамуров Б.Ж. Эволюционные уравнения для конечномерных однородных кубических стохастических процессов. Bulletin of Institute of Mathematics 2019. №6, pp.35-39.
6. Мамуров Б.Ж. О кубических стохастических процессов. Тезисы докладов межн. конфер. CODS-2009. С.72.
7. Мамуров Б.Ж. О решения эволюционных уравнений для кубических стохастических процессов. Сборник материалов международной конференции КРОМШ-2019. 305-307 стр.
8. Мамуров Б.Ж., Шарирова М. Об одном квадратичном стохастическом операторе в S^2 . "Scientific Progress". Int.sientoific-Pract.conf. Tashkent. 2021, March 15. Стр.121-122.

BIR UMUMLASHGAN FRIDRIXS MODELINING XOS QIYMATLARI JOYLASHISH O'RNI HAQIDA.

Sh. M. Latipov,

S. H. Alimov,

$\mathcal{H} = \mathcal{H}_0 + \mathcal{H}_1$ – bir o'lchamli kompleks sonlar Gilbert fazosi $\mathcal{H}_0 = \mathbb{C}^1$ (1 – kanal) va \mathbb{T} dagi kvadrati bilan integrallanuvchi juft funksiyalarning Gilbert fazosi $\mathcal{H}_1 = L^2_{\mathcal{E}}(\mathbb{T})$ (2 – kanal) larning to'g'ri yig'indisidan tashkil topgan *ikki kanalli Gilbert fazosi* bo'lsin.

Bir o'lchamli \mathbb{Z} panjaradagi soni ikkitadan oshmaydigan zarrachalardan iborat sistemaga mos $\mathcal{H}_{\gamma\mu\lambda}(k)$, $k \in \mathbb{T}$ operatorlar oilasini qaraymiz. Bunda zarrachalar nafaqat o'zaro ta'sir potentsiali $V_{\mu\lambda}$ orqali, balki paydo qilish va yo'qotish operatorlari C_{γ} va C_{γ}^* , $\gamma > 0$ yordamida ta'sirlashadi.

Ushbu operator umumlashgan Fridrixs modeli deyiladi va \mathcal{H} Gilbert fazosida quyidagicha aniqlanadi:

$$\mathcal{H}_{\gamma\mu\lambda}(k) = \begin{pmatrix} E(k) & C_{\gamma}^* \\ C_{\gamma} & \mathcal{H}_{\mu\lambda}(k) \end{pmatrix},$$

bunda $E(k), k \in \mathbb{T}$ skalyar operator \mathcal{H}_0 Gilbert fazosida $\varepsilon(k) = -2(1 - \cos k)$ songa ko'paytirish operatori.

$$E(k)f_0 = \varepsilon(k)f_0 = -2(1 - \cos k)f_0, \quad f_0 \in \mathcal{H}_0$$

$C_{\gamma}^*: \mathcal{H}_1 \rightarrow \mathcal{H}_0$ va $C_{\gamma}: \mathcal{H}_1 \rightarrow \mathcal{H}_0$ operatorlar mos ravishda yo'q qiluvchi va paydo qiluvchi operatorlar bo'lib quyidagicha aniqlanadi:

$$C_{\gamma}^*f_1 = \gamma(f_1, \alpha_0)\mathcal{H}_1, \quad C_{\gamma}f_1 = \gamma\alpha_0(f_1, \alpha_0)\mathcal{H}_0$$

$\mathcal{H}_{\mu\lambda}(k)$, $k \in \mathbb{T}^1$ operator esa \mathcal{H}_1 Gilbert fazosidagi bir nuqtada va qo'shni tugunlarda ta'sirlanuvchi ikkita bir xil zarrachalar (bazonlar) sistemasi Hamiltoniyaning mos ikki zarrachali diskret Shrodinger operatori bo'lsin:

$$\mathcal{H}_{\mu\lambda}(k) = \mathcal{H}_0(k) + V_{\mu\lambda},$$

bunda $\mathcal{H}_0(k) - \varepsilon_k(\cdot)$ Funksiyaga ko'paytirish operatori:

$$(\mathcal{H}_0(k)f_1)(q) = \varepsilon_k(q)f_1(q), \quad f_1 \in \mathcal{H}_1,$$

$$\varepsilon_k(q) = 2\left(1 - \cos\frac{k}{2}\cos q\right)$$

hamda $V_{\mu\lambda}$ – bir o'lchamli nomanfiy integral operator:

$$(V_{\mu\lambda}f_1)(q) = \frac{1}{2} \int_{\mathbb{T}} (\mu + \lambda \cos q \cos S) f_1(S) dS$$

Teorema 1. a) $k \in \mathbb{T}$ va $\varepsilon_{\min}(k) - \varepsilon(k) \leq \frac{\gamma^2}{\mu} \leq \varepsilon_{\max}(k) - \varepsilon(k)$

bo'lsin. U holda $\mathcal{H}_{\gamma\mu 0}(k)$ operatorning muhim pektridan tashqarida yagona $E_{\gamma\mu 0}^1(k) < \varepsilon(k)$ xos qiymatga ega.

b). $k \in \mathbb{T}$ va $\frac{\gamma^2}{\mu} < \varepsilon_{\min}(k) - \varepsilon(k)$ bo'lsin. U holda $\mathcal{H}_{\gamma\mu 0}(k)$

operatorning muhim spektridan chapda ikkita $E_{\gamma\mu 0}^1(k) < \varepsilon(k) < E_{\gamma\mu 0}^2(k) < \varepsilon_{\min}(k)$ xos qiymatlarga ega.

c). $k \in \mathbb{T}$ va $\frac{\gamma^2}{\mu} > \varepsilon_{\min}(k) - \varepsilon(k)$ bo'lsin. U holda $\mathcal{H}_{\gamma\mu 0}(k)$

operatorning muhim spektridan chapda ikkita $E_{\gamma\mu 0}^1(k) < \varepsilon(k) < \varepsilon_{\min}(k) < E_{\gamma\mu 0}^2(k)$ xos qiymatlarga ega.

Adabiyotlar

1. Sh. O. Alimov, R. R. Ashurov. Matematik tahlil. 1 – qism Toshkent. 2012.
2. Lakaev S. N., Holmatov Sh. Yu. Hilbert fazolarida o'z-o'ziga qo'shma operatorlar. Samarqand.2010. SamDU [8 – 22] betlar.
3. S. N. Lakaev, Sh. M. Latipov Chislo svyazannix sostoyaniy duvuxkanalnoy molekulyarno-rezonansnoy modeli. O'zbekiskiy matematicheskij Jurnal, 3 (2011) str. 184 – 195.
4. S. N. Lakaev, Sh. M. Latipov. O sushestvovanie i aalitchnosti sobstvennix znacheniy duvuxkanalnoy molekulyarno-rezonansnoy modeli. TMF, 169(2011) 3, str. 1657 – 1666,.

BIR UMUMLASHGAN FRIDRIXS MODEL OPERATORINING XOS QIYMATI HAQIDA

Sh.M.Latipov,

S.H.Alimov,

[1] ishda shunga o'xshash Fridrixs modeli qaralgan bo'lib, ikki zarrachali Shroedinger operatori zarrachalar tortishuchi bolgan hol qaralgan va muhim spektrdan quyidagi xos qiymatlari soni o'rganilgan.

Bu ishda ham shunga o'xshash model operator qaralgan bo'lib ikki zarrachali Shroedinger operatori zarrachalar itarishuvchi bolgan hol organilgan.

$\mathcal{H} = \mathcal{H}_0 \oplus \mathcal{H}_1$ Gilbert fazosi. Bunda $\mathcal{H}_0 = \mathcal{C}^1$ kompleks sonlar gilbert fazosi va $\mathcal{H}_1 = L^{2,\varepsilon}(\mathbb{T}^1)$ bilan $\mathbb{T}^1 = (-\pi, \pi]$ da modulining kvadrati bilan integrallanuvchi juft funksiyalar gilbert fazosini belgilaymiz.

$E(k)$, $k \in \mathbb{T}^1$ - operator \mathcal{H}_0 Gilbert fazosida songa kopaytirish operatori bo'lib quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$E(k)f_0 = \varepsilon(k) f_0, f_0 \in \mathcal{H}_0,$$

bunda $\varepsilon(k) = -2(1 - \cos k)$.

$H_{\lambda,\mu}(k)$, $k \in \mathbb{T}^1$, operator \mathcal{H}_1 Gilbert fazosida aniqlangan nuqtada va bir qadamda tasirlashuvchi ikki zarrachali diskret Shroedinger operatori bo'lib quyidagi formula yordamida aniqlangan :

$$H_{\mu\lambda}(k) f_1(q) = \varepsilon_k(q) f_1(q) + \int_{\mathbb{T}^1} (\mu + \lambda \cos s \cos q) f_1(s) d\eta,$$

Bunda $\varepsilon_k(q) = \varepsilon\left(\frac{k}{2} - q\right) + \varepsilon\left(\frac{k}{2} + q\right)$, $d\eta = d\eta(q)$ Haar o'lchovi, ya'ni $d\eta = \frac{dq}{(2\pi)^1}$

$H_{\gamma\mu\lambda}(k)$, $k \in \mathbb{T}^d$, $\gamma, \mu, \lambda \in [0, +\infty)$ operator \mathcal{H} Gilbert fazosida quyidagi formula yordamida aniqlangan:

$$H_{\gamma\mu\lambda}(k) \begin{pmatrix} f_0 \\ f_1(q) \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} E(k) f_0 + C_\gamma^* f_0 \\ C_\gamma^* f_0 + H_{\mu\lambda}(k) f_1(q) \end{pmatrix},$$

Bunda $C_\gamma^* f_1 = \gamma(f_1, 1)_{\mathcal{H}_1}$ (mos ravishda. $C_\gamma^* f_0 = \gamma(f_0, 1)_{\mathcal{H}_0}$) paydo qiluvchi (ya'ni mos ravishda yo'qotuvchi) operatorlar.

Теорема. а). $\gamma = \mu = 0$ va $\lambda \neq 0$, $k \in \mathbb{T}^1$ bo'lsin. U holda $H_{00\lambda}(k)$ operator $(\varepsilon_{max}(k), +\infty)$ intervalda yagona $E_{00\lambda}(k)$ xos qiymatga ega.

б) Shunday $\lambda = 0$ va $\gamma, \mu \in [0, +\infty)$, $k \in \mathbb{T}^1$ lar mavjudki, $H_{\gamma\mu 0}(k)$ operator $(\varepsilon_{max}(k), +\infty)$ intervalda yagona xos qiymatga ega.

с) Shunday $\lambda = 0$ va $\gamma, \mu \in [0, +\infty)$, $k \in \mathbb{T}^1$ lar mavjudki, $H_{\gamma\mu 0}(k)$ operator $(\varepsilon_{max}(k), +\infty)$ intervalda xos qiymatga ega emas.

д) Shunday $\lambda = 0$ va $\gamma, \mu \in [0, +\infty)$, $k \in \mathbb{T}^1$ lar mavjudki, $H_{\gamma\mu 0}(k)$ operator

$(-\infty, \varepsilon_{min}(k))$ intervalda yagona xos qiymatga ega .

Adabiyotlar

- [1]. С.Н.Лакаев, Ш.М.Латипов. Числа связанных состояний двухканальной молекулярной-резонансной модели, УзМЖ 2011, № 3 стр 98-113.

[2]. С.Н.Лакаев, Ш.М.Латипов. О существование и аналитичности Собственных значений двухканальной молекулярно-резонансной модели,

ТМФ 169(2011) №3 стр. 1657-1666.

EXISTENCE OF EIGENVALUES IN A SYSTEM OF TWO PARTICLES IN AN OPTICAL LATTICE

S.Abduvayitov

Let \mathbb{T}^3 be d -dimensional torus and $\eta(dp) = \frac{d^d p}{(2\pi)^d}$ is the (normalized) Haar measure on the torus and $L^2[\mathbb{T}^d]$ be the space of all square-integrable functions defined on \mathbb{T}^d and $L^{2,e}[\mathbb{T}^3] \subset L^2[\mathbb{T}^3]$ be the subspace of even functions.

The the two-particle Schrödinger operator $H_\mu(K, p), K, p \in \mathbb{T}^3$ on lattice \mathbb{Z}^3 associated to a system of two identical bosons acts in $L^{2,e}(\mathbb{T}^3) \subset L^2(\mathbb{T}^3)$ as

$$H_\mu(K, p) = H_0(K, p) + \mu v. \quad (0.1)$$

The operator $H_0(K, p)$ is multiplication operator by the function \mathcal{E}_k :

$$(H_0(K, p))(q) = E(K, p; q)f(q), \quad f \in L^{2,e}(\mathbb{T}^3),$$

where

$$E(K, p; q) = \varepsilon(p) + \varepsilon(q) + \gamma\varepsilon(K - p - q)$$

and

$$(vf)(p) = \int_{\mathbb{T}^3} f(q)d\eta(q), \quad f \in L^{2,e}(\mathbb{T}^3).$$

The function ε has a single nondegenerate minimum at the point $0 \in \mathbb{T}^3$ and hence the point $0 \in \mathbb{T}^3$ is the unique nondegenerate minimum point of the function $E(K, p; q)$.

For any $K, p \in \mathbb{T}^3$ the function $E(K, p; q)$ is regular on \mathbb{T}^3 . Hence, one can get

$$E(K, p; q) = \varepsilon(p) + 3(1 + \gamma) - \sum_{j=1}^3 a(K^{(j)} - p^{(j)}) \cos(q^{(j)} - q_\gamma(K^{(j)}, p^{(j)}))$$

where

$$\varepsilon(q) = \sum_{j=1}^3 [1 - \cos(q^{(j)})],$$

$$a(K^{(j)} - p^{(j)}) = \sqrt{1 + 2\gamma \cos(K^{(j)} - p^{(j)}) + \gamma^2},$$

$$q_\gamma(K^{(j)} - p^{(j)}) = \arcsin \frac{\gamma \sin(K^{(j)} - p^{(j)})}{\sqrt{1 + 2\gamma \cos(K^{(j)} - p^{(j)}) + \gamma^2}}.$$

$$E_{\min}(K, p) := \min_{q \in \mathbb{T}^3} E(K, p; q) = \varepsilon(p) + 3(1 + \gamma) - \sum_{j=1}^3 a(K^{(j)} - p^{(j)})$$

$$E_{\max}(K, p) := \max_{q \in \mathbb{T}^3} E(K, p; q) = \varepsilon(p) + 3(1 + \gamma) + \sum_{j=1}^3 a(K^{(j)} - p^{(j)})$$

Let

$$\mu_{ef}(K, p) = \left(- \int_{\mathbb{T}^3} \frac{\eta(dq)}{E(K, p; q) - E_{\min}(K, p)} \right)^{-1} < 0. \quad (0.2)$$

Note that non-degeneracy of the minimum of the function $E(K, p; q)$ gives the existence of this improper integral. According to the well known Weyl theorem the essential spectrum $\sigma_{\text{ess}}(H_\mu(K, p))$ of the operator $H_\mu(K, p), K, p \in \mathbb{T}^3$ coincides with the spectrum $\sigma(H_0((K, p)))$ of $H_0((K, p))$. More specifically,

$$\sigma_{\text{ess}}(H_\mu(K, p)) = [E_{\min}(K, p), E_{\max}(K, p)],$$

Let \mathbb{C} be the complex plane. For any $K, p \in \mathbb{T}^3$ and $z \in \mathbb{C} \setminus \sigma_{\text{ess}}(H_\mu(K, p))$ we define the Fredholm determinant $\Delta_\mu(K, p; z)$ associated with the operator $H_\mu(K, p)$ by

$$\Delta_\mu(K, p; z) = 1 + \mu \int_{\mathbb{T}^3} \frac{\eta(dp)}{E(K, p; q) - z}. \quad (0.3)$$

Note that the function $\Delta_\mu(K, p; z)$ is regular in $\mathbb{T}^3 \times [\mathbb{C} \setminus \sigma_{\text{ess}}(H_\mu(K, p))]$ and $\Delta_\mu(K, p; z) \in \mathbb{R}$ for $z \in \mathbb{R}$.

The following lemmas are a simple consequence of the Birman-Schwinger principle and the Fredholm theorem.

Lemma 0.1 *Let $K, p \in \mathbb{T}^3$. The point $z \in \mathbb{C} \setminus \sigma_{\text{ess}}(H_\mu(K, p))$ is an eigenvalue of the operator $H_\mu(K, p)$ if and only if*

$$\Delta_\mu(K, p; z) = 0.$$

Let

$$\mu_{\min} = \min_{K, p \in \mathbb{T}^3} \mu_{\text{ef}}(K, p) = \mu_{\text{ef}}(0, 0), \quad \mu_{\max} = \max_{K, p \in \mathbb{T}^3} \mu_{\text{ef}}(K, p) \quad (0.4)$$

The following theorem asserts the existence of eigenvalues of the operator $H_\mu(K, p)$ and can be proven in the same way as in [1] and [2].

Theorem 0.1 *For any $\mu \neq 0$ and $K, p \in \mathbb{T}^3$ the essential spectrum of the operator $H_\mu(K, p)$ satisfies the equality*

$$\sigma_{\text{ess}}(H_\mu(K, p)) = [E_{\min}(K, p), E_{\max}(K, p)] \text{ and:}$$

1. If $\mu_{\text{ef}}(K, p) < \mu < 0$. Then the operator $H_\mu(K, p)$ has no either an eigenvalue below $E_{\min}(K, p)$ or virtual level (resonance) at $E_{\min}(K, p)$.
2. If $\mu = \mu_{\text{ef}}(K, p)$. Then the operator $H_\mu(K, p)$ has no an eigenvalue below $E_{\min}(K, p)$, at the same time it has a virtual level (resonance) at $E_{\min}(K, p)$.
3. If $\mu < \mu_{\text{ef}}(K, p)$. Then for any $K, p \in \mathbb{T}^3$ the operator $H_\mu(K, p)$ has a unique eigenvalue $e_\mu(K, p)$ satisfying the relations

$$e_\mu(K, p) < E_{\min}(K, p), K, p \in \mathbb{T}^3 \text{ and } e_\mu(0, 0) < e_\mu(K, p), K, p \in \mathbb{T}^3 \setminus \{0\}.$$

For any $\mu \in (-\infty, 0)$ the eigenvalue $e_\mu(\cdot, \cdot)$ is holomorphic function on

$\mathbb{T}^3 \times \mathbb{T}^3$ and for any $K, p \in \mathbb{T}^3$ the $e_\mu(K, p)$ (as function of μ) is monotonically decreasing in $\mu \in (-\infty, 0)$. For any $\mu \in (-\infty, 0)$ and $K, p \in \mathbb{T}^3$ the associated eigenfunction is of the form

$$f_{\mu, e_\mu(K, p)}(\cdot) = \frac{\mu c(K, p)}{E_{K, p}(\cdot) - e_\mu(K, p)},$$

where $c(K, p) \neq 0$ is a normalizing constant and $f_{\mu, e_\mu(K, p)}(\cdot)$ is holomorphic in \mathbb{T}^3 .

References

- [1] S. N. Lakaev and S. S. Ulashov: Existence and analyticity of bound states of a two particle Schrödinger operators on a lattice, Theoretical and Mathematical Physics, 170(3): 326–340 (2012)
- [2] K. Winkler et al.: Repulsively bound atom pairs in an optical lattice. LETTERS. Vol. 441 | 15 June 2006 | doi:10.1038/nature04918 nature

PANJARADAGI BIR ZARRACHALI SHRYODINGER OPERATORINING XOS QIYMATLARI SONI HAQIDA

I.D. Bozorov

Samarqand davlat universiteti o'qituvchisi

F.M. Sayfullayeva

BuxDu magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda bir o'lchamli panjaraning ikkita turli nuqtasida kontakt tortishuvchi va itarishuvchi ta'sirli potensial maydonlar o'rnatilgan sistemaga mos Shryodinger operatori $H_\mu = H_0 + \mu V$, $\mu > 0$ ning xos qiymatlari mavjudligi o'rganilgan, jumladan H_μ operator muhim spektri o'rnatilgan, muhim spektrdan tashqaridagi xos qiymatlari soni va o'rni operator parametrlarining barcha qiymatlarida tahlil qilingan. Bundan tashqari, $\mu = 0$ nuqtada H_μ operatorning muhim spektrdan tashqaridagi xos qiymati uchun yaqinlashuvchi yoyilmalar topilgan.

Kalit so'zlar: Shryodinger operatori, Hilbert fazosi, xos qiymat, muhim spektr.

1.Kirish. Bir o'lchamli zarrachaning ikkita turli nuqtasida kontakt ta'sirlashuvchi potensial maydonlar o'rnatilgan sistemaga mos Shryodinger operatori H_μ , $\mu > 0$ ning xos qiymatlari mavjudligi o'rganilgan va bu xos qiymatlar uchun yaqinlashuvchi yoyilmalari $\mu = 0$ nuqtada olingan

Asosiy matn: Ma'lumki, bir zarrachali panjaraning faqat bitta nuqtasida kontakt ta'sirlashuvchi potensial maydon o'rnatilgan sistemaga mos Shryodinger operatori $\mu > 0$ ning ixtiyoriy qiymatida yagona xos qiymatga ega ekanligi, bu xos qiymatoperatorning muhim spektridan quyida joylashishi va xos qiymat uchun $\mu = 0$ nuqtada yaqinlashuvchi yoyilmalar mavjud. Biz qarayotgan modelda esa, $\mu > 0$ yetarlicha kichik bo'lganda, potensial maydonlarning ta'sir kuchiga qarab, H_μ ning muhim spektridan quyida yagona xos qiymati mavjud bo'lishi yoki mavjud emasligi, hamda muhim spektridan quyida va yuqorida ikkita xos qiymatning paydo bo'lishi mumkinligini isbotlaymiz va ular uchun $\mu = 0$ nuqtada yaqinlashuvchi yoyilmalarni topamiz. Mazkur modelga mos operator H_μ bir o'lchamli tor $T = (-\pi; \pi]$ da kvadrati bilan integrallanuvchi funksiyalarning Hilbert fazosini $L^2(T)$ da quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$H_\mu = H_0 + \mu V^+ - \mu V^-, \quad \mu > 0$$

Bilan aniqlanadi. Bunda H_0 operator $L^2(T)$ fazoda $\varepsilon(-)$ funksiyaga ko'paytirish operatori: $(H_0 f)(p) = \varepsilon(p) f(p)$, $p \in T$

Potensial operatorlar V^+ va V^- lar esa $L^2(T)$ da integral operatorlardir:

$$(V^+ f)(p) = a \cos p \int_T \cos ms f(s) ds,$$

$$(V^- f)(p) = b \cos p \int_T \cos ns f(s) ds.$$

$\mu > 0$ – bog'lanish doimiysi deyiladi.

Ushbu ishning maqsadi μ ning yetarlicha kichik musbat qiymatlarida H_μ operatorning xos qiymatlari mavjudligi hamda ularning μ ga qanday bog'liq ekanligini ko'rsatib o'tamiz.

Teorema.1. a) $a, b > 0, m, n \in \mathbb{Z}, m \neq n$;

b) $\varepsilon(p): T \rightarrow \mathbb{R}$ - haqiqiy analitik funksiya, $0 \in T$ uning yagona aynimagan maksimum nuqtasi. V^+ va V^- operatorlar rangi bir ekanligidan muhim spektr turg'unligi haqidagi Weyl teoremasiga ko'ra H_μ operatorning muhim spektri $\sigma_{\text{ess}}(H_\mu)$ bilan H_0 operatorning spektri ustma-ust tushadi., ya'ni

$$\sigma_{\text{ess}}(H_\mu) = \sigma_{\text{ess}}(H_0) = \sigma(H_0) = [m; M],$$

bunda

$$m := \varepsilon(0) = \min \varepsilon(p), M := \varepsilon(\pi) = \max \varepsilon(p).$$

Teorema.2. Yuqoridagi teorema o'rinli bo'lsin. U holda shunday $\mu_0 > 0$ mavjudki, barcha $\mu \in (0, \mu_0)$ uchun quyidagilar o'rinli:

Agar $a > b$ bo'lsa, u holda H_μ operator yagona $E(\mu)$ xos qiymatga ega va H_μ operatorning muhim spektridan o'ngda joylashgan.

Agar $a < b$ bo'lsa, u holda H_μ operatorning muhim spektridan chapda joylashgan.

Agar $a = b$ bo'lsa u holda H_μ operatorning muhim spektridan o'ngda va ikkinchisi H_μ operatorning muhim spektridan chapda joylashgan bo'lishi zarur va yetarli.

Isbot.Zarurligi. Faraz qilaylik, $z \in \mathbb{R} \setminus [m; M]$ soni H_μ operatorning xos qiymati hamda $0 \neq f \in L^2(T)$ unga mos vektor bo'lsin. H_μ ning aniqlanishiga ko'ra ,

$$\varepsilon(p)f(p) + \mu \alpha \cos ap \int \cos a q f(q) dq - \mu \beta \cos bp \int \cos b q f(q) dq = z f(p)$$

(2). Endi

³⁴⁰ Bu yerda $\sigma_{\text{ess}}(H_\mu)$ ifoda H_μ matritsaning sof muhim spektri

$$C_1 := \int_T \cos apf(q) dq \quad \text{va} \quad C_2 := \int_T \cos bpf(q) dq$$

Belgilashlarni kiritsak, (2) tenglamadan

$${}^{341}f(p) = -C_1\mu\alpha \frac{\cos ap}{\varepsilon(p)-z} + C_2\mu\beta \frac{\cos bp}{\varepsilon(p)-z} \quad (3)$$

$$\begin{cases} c_1 \left(1 + \mu\alpha \int_T \frac{\cos^2 ap}{\varepsilon(q)-z} dq \right) - C_2\mu\beta \int_T \frac{\cos(aq)\cos(bq)}{\varepsilon(q)-z} dq = 0 \\ c_2 \left(1 - \mu\beta \int_T \frac{\cos^2 bp}{\varepsilon(q)-z} dq \right) + C_1\mu\alpha \int_T \frac{\cos(aq)\cos(bq)}{\varepsilon(q)-z} dq = 0 \end{cases}$$

Bir jinsli tenglamalar sistemasini qanoatlantirishini topamiz. Tushunarliki, ushba sistemaning determinant $\Delta(\mu; z)$ ga teng bo'ladi. $f \neq 0$ ekanidan, (3) formuladan $|C_1| + |C_2| > 0$ kelib chiqadi. Buning uchun esa $\Delta(\mu; z) = 0$ bo'lishi yetarli va zarurdir.

Yetarliligi: Faraz qilaylik, biror $z \in \mathbb{R} / [m; M]$ soni uchun $\Delta(\mu; z) = 0$ tenglik bajarilsin. U holda (3) ko'rinishda aniqlangan f funksiya aynan nolga teng emas va (2) tenglikni qanoatlantiradi, ya'ni $z \in \mathbb{R} / [m, M]$ soni H_μ operatorning xos qiymati bo'ladi.

Mana endi bir zarrachali Shryodinger operatorining spektri to'g'risidagi lemmani ko'rib o'tamiz.

Lemma.1. Yuqorida aniqlangan H_μ operator $L_2^t(T)$ da o'z-o'ziga qo'shma, chegaralangan operator bo'ladi.

Lemma.2. $z \in \mathbb{C} / [0, 2]$ soni H_μ operatorning xos qiymati bo'lishi uchun $\Delta_\mu(z) = 0$ Tenglikning bajarilishi zarur va yetarli.

Adabiyotlar

³⁴¹ Bu yerdagi formulalar isboti B.Simon "The bound States of weakly coupled Schrödinger operators in one and two dimensions", Ann.Phys.1976 Shu adabiyot ichida keltirilgan

1. S. Lakaev, "Bound states and resonances of N-particle discrete Schrödinger operator", Moskva, Nauka:2013.

2. V. Zorich, "Matematicheskiy analiz. Chast 1 FAZIS" Moskva, 1997.

3. B. Simon "The bound States of weakly coupled Schrödinger operators in one and two dimensions", Ann. Phys. 1976

IKKI KANALLI MOLEKULYAR-REZONANS MODELI UCHUN VIRTUAL SATH TUSHUNCHASI

D. Ismoilova,

BuxDU Matematika (yo'nalishlar bo'yicha)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada $\mu, \lambda > 0$ ta'sirlashish parametrlaridan bog'liq bo'lgan $A_{\mu, \lambda}$ ikki kanalli molekulyar rezonans modeli o'rganilgan. $A_{\mu, \lambda}$ operatori muhim spektrining quyi chegarasi bo'lgan m nuqtada virtual sathga ega bo'lishi tushunchasi kiritilgan. $A_{\mu, \lambda}$ operator m nuqtada virtual sathga ega bo'lishining zaruriy va yetarli shartlari topilgan.

Kalit so'zlar: Virtual sath, operator, Gilbert fazosi, muhim spektr, diskret spektr

Masalaning qo'yilishi:

T^3 orqali 3 o'lchamli torni, C orqali bir o'lchamli kompleks fazoni va $L_2(T^3)$ orqali T^3 to'plamda aniqlangan kvadrati bilan integrallanuvchi (umuman olganda kompleks qiymat qabul qiluvchi) funksiyalarning Gilbert fazosini belgilaymiz.

Faraz qilaylik, $H_0 := C$ (birinchi kanal), $H_1 := L_2(T^3)$ (ikkinchi kanal) va $H := H_0 \oplus L_2(T^3)$ bo'lsin.

H Gilbert fazosidagi uch o'lchamli qo'zg'alishga ega bo'lgan quyidagi ikkinchi tartibli blok operatorli matritsani qaraymiz.

$$A_{\mu,\lambda} := \begin{pmatrix} A_{00} & \mu A_{01} \\ \mu A_{01}^* & A_{11}^0 - \lambda V \end{pmatrix}, \mu, \lambda > 0$$

Bunda

$$A_{00} f_0 = a f_0, \quad A_{01} f_1 = \int_{T^3} v_0(t) f_1(t) dt,$$

$$(A_{11}^0 f_1)(x) = u(x) f_1(x) \quad (Vf)(x) = v_1(x) \int_{T^3} v_1(t) f_1(t) dt.$$

$A_{\mu,\lambda}$ operatorning parametrlari bo'lgan a, λ, μ sonlari, $u(\cdot), v_0(\cdot)$ va $v_1(\cdot)$ funksiyalarga quyidagi shartlar qo'yiladi:

a - fiksirlangan haqiqiy son, μ, λ - fiksirlangan haqiqiy musbat son (ta'sirlashish parametri), $u(\cdot), v_0(\cdot), v_1(\cdot)$ funksiyalar esa T^3 da aniqlangan haqiqiy qiymatli uzluksiz funksiyalardir.

$A_{\mu,\lambda}$ operator uning parametrlariga qo'yilgan yuqoridagi shartlarda chiziqli, chegaralangan va o'z-o'ziga qo'shma bo'ladi.

Bizga yaxshi ma'lumki, $A_{\mu,\lambda}$ operatorning muhim spektri μ va λ ta'sirlashish parametriga bog'liq bo'lmagan holda quyidagiga teng:

$$\sigma_{ess}(A_{\mu,\lambda}) = [m, M],$$

bu yerda m va M sonlari

$$m := \min_{x \in T^3} u(x), \quad M := \max_{x \in T^3} u(x)$$

kabi aniqlangan sonlar.

$A_{\mu,\lambda}$ blok operatorli matritsaning diskret spektri uchun esa quyidagi munosabat o'rinli:

$$\sigma_{disc}(A_{\mu,\lambda}) = \{z \in \mathbb{C} \setminus [m; M] : \Delta_{\mu,\lambda}(z) = 0\}$$

Ishning asosiy natijasini bayon qilish maqsadida zarur bo'lgan shartlarni keltiramiz:

1) $u(\cdot)$ funksiya T^3 dagi analitik funksiya bo'lib, $x_0 \in T^3$ nuqtada aynimagan minimumga ega bo'lsin;

2) $v_\alpha(\cdot)$, $\alpha = 0,1$ funksiya biror $\delta > 0$ soni uchun $C^3(U_\delta(x_0))$ Banax fazosiga tegishli bo'lsin;

3) $v_0(\cdot)$ va $v_1(\cdot)$ funksiyalarning tashuvchilari uchun $mes\{supp\{v_0(\cdot)\} \cap supp\{v_1(\cdot)\}\} = 0$ tenglik o'rinli bo'lsin.

1-ta'rif: Faraz qilaylik 1)-3) shartlar bajarilib, $a \neq m$ bo'lsin. Agar 1 soni

$$G_{\mu,\lambda}(x) = \int_{T^3} \left[\frac{\mu^2}{a-m} \cdot \frac{v_0(x)v_0(t)}{u(t)-m} + \frac{\lambda v_1(x)v_1(t)}{u(x)-m} \right] \psi(t) dt, \quad \psi \in C(T^3)$$

operator uchun xos qiymat bo'lib, mos xos funksiyalardan kamida bittasi (o'zgarmas son aniqligida) $\psi(x_0) \neq 0$ shartni qanoatlantirsa, $A_{\mu,\lambda}$ operator $z=m$ nuqtada virtual sathga ega deyiladi.

Ta'kidlash joizki, 1-ta'rifdagi 1 soni $G_{\mu,\lambda}$ integral operator uchun xos qiymat bo'lish talabi $A_{\mu,\lambda}f = mf$ tenglama yechimining mavjudligiga mos keladi. $\psi(x_0) \neq 0$ shart esa bu tenglamaning f yechimi H fazoga tegishli bo'lmasligiga mos keladi. Aniqroq qilib aytganda, agar $A_{\mu,\lambda}$ operator $z = m$ nuqtada virtual sathga ega bo'lsa, u holda $f = (f_0, f_1)$ element $A_{\mu,\lambda}f = mf$ tenglamani qanoatlantiradi va $f_1 \in L_1(T^3) \setminus L_2(T^3)$, bu yerda

$$f_0 = const \neq 0, \quad f_1(x) = \frac{v_0(x)f_0 + v_1(x)c}{u(x)-m}, \quad c = const \neq 0.$$

Teorema: Faraz qilaylik, 1)-3) shartlar bajarilsin. $A_{\mu,\lambda}$ operator $z = m$ nuqtada virtual sathga ega bo'lishi uchun $\Delta_{\mu,\lambda}(m) = 0$ va $v_0(x_0) \neq 0$ yoki $v_1(x_0) \neq 0$ shartlar bajarilishi zarur va yetarlidir.

Adabiyotlar

1. Т.А.Саримсоқов. “Функционал анализ курси”. Тошкент – “Ўқитувчи” – 1980.

2. Расулов Т.Х. Исследование существенного спектра одного матричного оператора. Теор. и матем. физика, –Москва, 2010, 164 (1), С. 62-77.

3. Ismoilova D.E., To'rt o'lchamli qo'zg'alishga ega ikki kanalli molekulyar-rezonans modelining muhim va diskret spektrlar. Scientific progress. Volume2, 44-50 betlar.

4. Ismoilova D.E., Ikki kanalli molekulyar-rezonans modeliga mos Fredgolm determinant. Ilm-fan muammolari magistrantlar talqinida. 2021-y, 233-236 betlar.

5. Ismoilova D.E., Ikki kanalli molekulyar-rezonans modelining muhim va diskret spektrlari. UzACADEMIA, Part-1, 21-25-betlar.

70530402 – Geografiya (o'rganish obyekti bo'yicha)

DEMOGRAFIK JARAYONDA OILANING AHAMIYATI, OILANING TURLARI

Dilshoda Inomjonova

Andijon davlat universiteti

Tabiiy fanlar fakulteti

Geografiya yo'nalishi talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada demografik jarayonlarda oilaning o'rni, oilaning ahamiyari demografik jarayonga tasiri, oilaning kelib chiqishi va uning turlari, oilaning ijtimoiy vazfalari, oilaning taraqqiy etishi, oilaning taraqqiyotiy etishi va demografik jarayonga ta'siri.

Key words: Monogamous family, polygamous family, eozogamous family, the demographic functions of the family, its demographic development, the social functions of the family, its social development, the economical functions of the family, its economical development, housekeeping.

Oilaning ijtimoiy vazifasiga- oilada farzandlarni tarbiyalash, inson sifatida kamolga yetkazish, ularning tabiatga, jamiyatga va o'zaro munosabatlarini shakllantirish, dam olish va salomatligini tiklash kabilar kiradi. Oilaning iqtisodiy vazifasiga oila a'zolarini oziq -ovqat, kiyim -kechak va boshqa yashash uchun

zarur bo'lgan moddiy vositalar bilan ta'minlash kiradi. Oilaning mavjudligi yashash jarayoni, uning o'z vazifalarini bajarishi bilan bog'liqdir. Agar oila o'zining demografik vazifalarini bajarmas ekan, ya'ni oilada farzandlar tug'ilmasa, yangi oilalar bo'lmaydi, oila davom etmaydi. Oila davom etishi, yangi oilalar paydo bo'lishi uchun esa oilada tug'ilgan farzandlarni boqish, tarbiyalash, kamolga yetqazish, inson sifatida shakllantirish lozim. Demak, oila o'z mavjudligini saqlab qolishi uchun o'zining barcha vazifalarini bajarishi shart. Oila vazifalarini bajarilishi bir-biri bilan bog'liq xolda ro'y beradi. Masalan, oilada farzandlarning sog'-salomat tug'ilishi ona salomatligiga, ona salomatligi va tug'ilgan farzandning sog'-salomat o'sishi esa oilaning iqtisodiy vazifasining bajarilish darajasiga, ya'ni moddiy ta'minlash darajasiga nihoyatda bog'liqdir. Oilada tug'ilgan farzandning yetuk inson bo'lib shakllanishi oilaning ta'lim tarbiyasiga, bola dunyoqarashini shakllantirilishi, ya'ni oilaning ijtimoiy vazifalarini bajarilishi bilan uzviy bog'liq bo'ladi. O'z navbatida oilada farzandlar miqdorining oshib borishi ham oilaning iqtisodiy vazifalarini bajarilish darajasiga ta'sir etadi. Boshqacha qilib aytganda, oilada istiqomat qilayotgan oila a'zolarini ko'payib borishi oilaning moddiy imkoniyatini ko'tarishni, ya'ni oilaning iqtisodiy vazifasini bajarish darajasini tezlashtirishni talab etadi. Yoki oilaning ijtimoiy vazifasini olib ko'raylik. Oilada farzandga berilgan ta'lim tarbiya uning dunyoqarashining shakllanishida, xayotga, yashashga bo'lgan munosabatlarida asosiy omildir.

Farzand oila muhitida katta bo'lar ekan, uning barcha xulq atvori, atrof muxitga, oilaga bo'lgan munosabati, kelajakda o'zining oila qurishi, farzandlar ko'rishi xaqidagi fikrlari shakllanib boradi. Agar oilaning ijtimoiy vazifasi ijobiy bajarilsa, ya'ni bolada oilaga, ota-onaga, keksalarga xurmat, o'zaro yordam kabi xislatlar shakllansa, u kelajakda oila qurgach, o'zi ham farzandlarini xuddi shunday tarbiyalashga intiladi. Demak, yangi avlodning oila qurishida, yangi oilaning shakllanishida oiladagi ijtimoiy vazfalarning bajarilishi asosiy omillardan bo'lib xizmat qiladi. Oila jamiyat rivojlanib borar mas'uliyatlari ham demografik taraqqiyoti va uni maxsuli sifatida tashkil topar ekan, uning jamiyat oldidagi o'z

oshib boradi. Bu mas'uliyat. Oila zimmasiga yuqorida aytilganidek, inson naslini, jamiyatni davom ettiruvchi avlod yaratish, ularni tarbiyalash, kamolga yetkazishdek vazifalarni yuklaydi. Oila ushbu vazifalarni bajarar ekan, o'zi ham ma'lum ma'noda taraqqiy etib boradi.

Oilaning taraqqiy etishini u bajarayotgan vazifalar mohiyatiga binoan uch yo'nalishda belgilash maqsadga muvofiqdir.

Oilaning taraqqiyoti: Oilaning demografik taraqqiyoti. Oilaning ijtimoiy taraqqiyoti. Oilaning iqtisodiy taraqqiyoti. Oilaning ijtimoiy taraqqiyoti oila a'zolarining ma'lumotlilik darajasi, ijtimoiy mavqeyi, salomatligi borasidagi hamda ularning ta'lim - tarbiya, urf -odat, fan va madaniyat, tabiat va jamiyatga bo'lgan munosabatlarini takomllashib borishidir.

Oilaning oziq-ovqat, kiyim - kechak, uy -joy va boshqa yashash uchun zarur bo'lgan narsalar bilan ta'minlanish darajasining o'zgarib borishi, uning iqtisodiy taraqqiyotini belgilaydi.

Oilaning demografik taraqqiyoti deganda esa, oilaning tashkil topishi, miqdori, demografik tarkibi va faoliyatining ma'lum davrlarda o'zgarib borishi tushuniladi

Ko'rinib turibdiki, oila o'z mohiyati bilan jamiyat xayotining turli qirralarini aks ettiradi. Shuning uchun ham oila qator ijtimoiy fanlarning o'rganish mavzusidir. Demografiya oilani o'rganar ekan, asosiy e'tiborni uning avlod yaratuvchilik, jamiyatni davom ettiruvchilik faoliyatiga qaratadi. Oilaning demografik taraqqiyoti, asosan statistik ma'lumotlar yordamida o'rganiladi. Bunday ma'lumotlar esa, oilani muntazam ro'yhatga olib borish va aholi o'rtasida sotsiologik-demografik tadqiqotlar o'tkazish yo'li bilan to'planadi.

Oila haqidagi statistik ma'lumotlar, ularning tuzilish tizimi jaxondagi hamma davlatlarda ham aynan bir xil emas. U har bir davlat statistikasi uchun qayd etilgan oilaning statistik tushunchasiga va o'tkazilayotgan aholi ro'yxati dasturiga bog'liqdir. Dastur tuzishda aholining oilaviy tarkibi, oilaviy yashash turlari asos qilib olinadi. Qator iqtisodiy rivojlangan davlatlarda oiladagi farzandlar kamolot

yoshiga yetib oila qurgach, ular iqtisodiy jixatdan mustaqil yashaydilar va aloxida oila hisoblanadilar. Ba'zi davlatlarda esa 20 yoshdan oshgan xar bir yigit qiz oila qurmasa ham, o'zi alohida oila hisoblanadi. Yana boshqa davlat statistikasida turmush qurib ota - onasi oilasiga qaytib kelsa ham ularni aloxida oila yoki yolg'iz yashovcxilar qatorida hisoblanadi. Ba'zi xollarda qarindosh, qondosh bo'lmagan begona kishilar ham bir oila bo'lib yashaydilar.

Jahon statistikasida “Oila” tushunchasi bilan birga “Uy xo'jaligi” tushunchasidan ham foydalaniladi. Unda aholining oilaviy holati haqidagi ma'lumotlar uy xo'jaliklari bo'yicha to'planadi. Uy xo'jaligi - birga xo'jalik yurituvchi, birga yashovchi kishilarni biriktiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy yacheykadir.

Uy xo'jaligi tushunchasi oiladan farq qilib, unda faqat qarindoshlik munosabatlari asosida birikkan kishilargina emas balki, ijtimoiy- iqtisodiy munosabatlar asosida birga yashovchi begona kishilar ham, alohida mustaqil xo'jalik yurituvchi yolg'iz kishilar ham kiritiladi. Uy xo'jaligi tushunchasi hamma davlatlarda ham bir xil emas. U har bir davlatning ijtimoiy - iqtisodiy sharoitiga, unda istiqomat etuvchi xalqning turmush tarziga, urf- odatlariga bog'liqdir. Ba'zi davlatlarda uy xo'jaligi uchun kishilarning birga yashashi asos qilib olinsa, boshqa bir davlatda esa ularning birga ovqat tayyorlashi, birga ovqatlanishi asos qilib olingan.

Uy xo'jaligi ikki turga bo'linadi: shaxsiy va jamoa xo'jaligi. Shaxsiy uy xo'jaligida bir uyda yashovchi, birga xo'jalik yurituvchi va o'zlariga o'zlari ovqat tayyorlovchi kishilar guruhi kiradi. Bunday guruhlarda bir uyda, yoki bir nechta uyda yashovchi yoki uyi bo'lmagan kishilar ham yashashlari mumkin. Bunday uy xo'jaligida, bir uyda yashovchi ota-ona, bola, qarindoshlardan tashqari ikki yoki undan ortiq bir xo'jalikda yashovchi, lekin qarindosh bo'lmagan yolg'iz kishilar, xizmatkorlari bilan yashovchi yolg'iz ayol yoki erkaklar ham kiradi. Jamoa xo'jaliklariga bolalar, qariyalar nogironlar uylari, qamoqxonalar, kazarmalar, surunkali kasallar yashovchi kasalxonalar va boshqa shunga o'xshash muassasalar kiradi. Shuni alohida qayd etish lozimki, juda ko'p davlatlarda uy xo'jaligining

asosiy qismini nikoh va qon-qarindoshlik asosida tashkil topgan oilalar tashkil etadi. Bunday uy xo'jaligi fanda "Oilaviy uy xo'jaligi" deyiladi. Demografiya ana shu oilaviy uy xo'jaligini, aniqrog'i – oilani o'rganadi.

Adabiyotlar:

1. Bo'riyeva M, Tojiev Z., Zokirov S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. Toshkent. 2011.
2. Bo'riyeva M. "Demografiya asoslari" (o'quv qo'llanma) Toshkent. 2001.
3. Bo'riyeva M.R. O'zbekistonda oila demografiyasi. Toshkent, 1997.
4. Bo'riyeva M.R. Oila va demografiya asoslari.(ma'ruzalar matni) Toshkent 1999.
5. Mallaboyev T. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. Namangan. 2012.
6. Kopilov V.A. Geografiya naseleniya. M. 1999.
7. www.ziyonet.uz
8. www.nuu.uz

MUHOFaza ETILADIGAN TABIIY HUDUDLAR - "JAYRON" EKOMARKAZI

Yo.D.Xolov

Buxoro Davlat Universiteti

Nasullayeva N.N.

BuxDU, Geografiya mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro viloyatidagi muhofaza etiladigan tabiiy hududlar ro'yxatiga kiradigan Jayron ekomarkazining geografik xususiyatlari, undagi muammolar va ularning yechimi borasida takliflar berilgan .

Kalit so'zlar: Jayron ekomarkazi, muhofaza etiladigan tabiiy hudud, Qizil" kitob, jayron, ekoturizm.

Jayron” ekomarkazi– Buxoro viloyatining janubi-sharqiy qismida, Buxoro shahridan 42 km, Kogon shahridan 15 km masofada Buxoro tumanida joylashgan. Markaz turli xil muhofaza rejimiga ega bo`lgan 2 ta hududga ega:

- 1- simto`r bilan himoyalangan maydon bo`lib , maydoni 5145 gektar.
- 2- ochiq hudud 11377 gektardan iborat.

Markazning umumiy maydoni 16522 gektarni tashkil qiladi. Markaz 1977-yilda noyob hayvon turlarini, ayniqsa, jayron turini ko`paytirish va saqlab qolish maqsadida ilmiy tadqiqot va ishlab chiqarish markazi sifatida tashkil qilingan . Pitomnik O`zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo`mutasi tasarrufida faoliyat yuritadi.

Ekomarkazningning asosiy maqsadi biologik xilma-xillikni saqlash, kamyob va yo`qolib borayotgan hayvonlar turlarini ko`paytirish shuningdek, janubi-g`arbiy Qizilqum cho`li landshaftlarini saqlab qolish va mahalliy aholi o`rtasida ekologik ta`lim tizimini shakllantirish.

Ekomarkazningning vazifalari: noyob va yo`qolib borayotgan hayvon turlarini saqlab qolish va ularning biologiyasini o`rganish, keyinchalik yovvoyi tabiatdagi sonini tiklash, janubi-g`arbiy Qizilqum cho`li biotsenozlari barqarorligini saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik ta`lim , ekologik turizmdan iborat.

Ekomarkazning asosiy faoliyati: noyob hayvon turlarini saqlab qolish va ularning biologiyasini o`rganish, hayvonot bog`lari va kolleksiyalari uchun hayvonlarni yetkazib berish, noyob hayvon turlarini tabiiy populyatsiyalarini to`ldirish uchun tabiatga qo`yib yuborish, ilmiy tadqiqotlar, ekoturizm, ekologik ta`lim va talabalar amaliyoti, biotexnik tadbirlar va qo`riqlashni tashkil etish.

Jayron”ekomarkazi noyob hayvonlarni ko`paytirish bo`yicha xalqaro e`tirof etilgan pitomnik hisoblanadi. Hozirgi kunda pitomnik hududida O`zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi” va Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqining “Qizil ro`yxatiga kiritilgan quyidagi noyob hayvonlar ko`paytirilmoqda: jayron (1200

bosh) , Turkman quloni (175 bosh), prejeval oti (16 bosh) , Buxoro tog`' qo`yi (48 bosh) , Buxoro bug`usi (1 bosh) .

Ekomarkaz hududida Qizilqum cho`lining janubi-g`arbiy qismida uchraydigan o`simlik va hayvonot dunyosining ko`p turlarini uchratish mumkin : 270 tur o`simlik turi , 700 turdan ortiq umurtqasizlar, 15 tur baliqlar, amfibiyalarning 2 turi, sudralib yuruvchilarning 18 turi, 250 dan ortiq qush turlari, 34 turdagi sut emizuvchilar. Pitomnikdagi hayvonlarning bir qismini boshqa muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga ko`chirish yoki yangi populyatsiyalarni shakllantirish uchun ularni boshqa markazlarga o`tkazish rejalashtirilgan. Shu bilan birga hududga yangi hayvon turlarini olib kelib ko`paytirish ishlari ham amalga oshirilmoqda. Masalan 2022-yilda 2 bosh tuyaqush ko`paytirish uchun olib kelingan.

Jayron” Ekomarkazida ilmiy tadqiqot ishlari u tashkil etilganidan buyon o`tkazilib kelinmoqda. Pitonik yetakchi ilmiy muassasalar bilan hamkorlik qiladi:

O`zbekiston Respublikasi (Fanlar Akademiyasi Zoologiya instituti, Fanlar Akademiyasining Samarqand filliali, Veterinariya instituti)

Rossiya (A.V.Seversov nomidagi hayvonlarning evolyutsion morfologiyasi va ekologiyasi instituti, Geografiya instituti, Moskva davlat universiteti, Moskva va Sankt-Peterburg hayvonot bog`lari)

Fransiya (Fanlar Akademiyasi “Shize va Lyarosh”naslchilik markazlari)

AQSH (Kaliforniya universiteti), Germaniya Zoologiya instituti

Markaz ma`muriyati tomonidan chet davlatlar bilan noyob hayvonlarni yetkazib berish bo`yicha shartnomalar ham imzolangan . Masalan Rossiya , Tojikiston , Qozog`iston (20 bosh) . Qirg`iziston (3 yilda 150 bosh)

Markaz hududida ekoturizmni rivojlantirish uchun turistik resusrlar va sharoitlar ham yetarli. Bir yilda o`ra hisobda 2000 dan ortiq mahalliy va xorijiy sayyohlar tashrif buyurishadi. 2020-yildan boshlab markazning turistik salohiyatini oshirish , mehmonlarga qulaylik yaratish , jayron bilan bog`liq maxsus suvenirler liniyasi va brend do`konlarni tashkil etish, shu bilan birga pitomnik

hududida bir necha kuzatuv minorasi va ular bo'yicha maxsus marshrutni yaratish ishlari olib borildi. Hozirgi kunda pitomnik hududini sayohat qilish uchun taklif etiladigan 8-yo'nalish bo'yicha marshrutlar xaritasi tuzilgan, 25 o'rinli zamonaviy mehmonxona qurilishi davom etmoqda. Ekomarkaz saytida 3D-sayohatlarni tashkil etish bu hududga sayyohlarni qiziqishini ortishiga, yurtimizning chekka hududlaridagi o'quvchi yoshlarning tabiatga uning har bir komponentiga qiziqish va mehrning shklanishiga turtki bo'ladi.

Yurtimizda tabiatni muhofaza qilish, noyob turlarini ko'paytirish borasida izchil ishlar davom etayotgan bir paytda qonun buzarlilik holatlari ham uchrab turibdi.. 2016-yildan beri jayronlar simto'r bilan o'ralgan 5140 gektardan tashqariga chiqarilmayabdi. Bunga asosiy sabab brokonerlik faoliyatidir. Brokonerlar o'rtacha 1 oyda 100 mln.so'm miqdorda zarar yetkazmoqda. Bunday holatlarni oldini olish madsadida tez-tez "brokonerlikka qarshi oyliklarni va maxsus reydlarni tashkil etish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar

www.daryo.uz

www.eco.gov.uz

www.uzbekistan.travel.uz

O'ZBEKISTONDAGI PAST TOG'LARNI GEOGRAFIK TADQIQ QILISHNING AMALIY AHAMIYATI

G.S.Halimova

BuxDU, g.f.f.d. (PhD),

Sh.S.Babakulova

BuxDU, Geografiya ixtisosligi magistranti,

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistondagi past tog'larning o'rganilganlik darajasi, ularni geografik tadqiq qilishning amaliy ahamiyati haqida so'z boradi. Bundan tashqari Qizilqumdagi past tog'larga qisqacha umumgeografik tavsif berilgan.

Kalit so'zlar: Tekislik, past tog', adir, tog', relyef morfometriyasi, yassitog'lik, litoedafik sharoit, iqlimiy xususiyat, gidrometeorologik sharoit.

O'zbekiston hududining katta qismi tekisliklardan iborat bo'lib, uning asosiy qismi cho'l tabiat zonasiga tog'ri keladi. Mazkur hududlarni ilmiy-amaliy jihatdan majmuali o'rganish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga, xalq xo'jaligini samarali tashkil qilishga xizmat qiladi.

Cho'llarning tekisliklardan iborat bo'lgan hududlari juda ko'p soha vakillari tomonidan o'rganilgan va o'rganib kelinmoqda. Ammo, cho'llarning asosan markaziy qismlarida alohida, orolsimon qad ko'targan past tog'larning o'rganilganlik darajasi ilmiy va amaliy jihatdan mukammal emas.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, relyefning morfometriyasi, ya'ni shakllarning dengiz sathiga nisbatan joylashgan o'rniga qarab quyidagi turlarga bo'lish mumkin: cho'kma va botiqlar, pasttekislik(0-250 m) va tekisliklar(200-300 m), baland tekislik (300-500 m), plato va qir-adirlar (200-1000 m). Lekin adir, past tog'lar, yassi tog'larning balandligi bir xil emas. Masalan, adirlarning o'zi past (400-800 m), o'rtacha balandlikdagi (700-1000 m) va baland (1700 metrgacha) adirlarga bo'linadi [8; 381-b.].

O'rta Osiyo geomorfologiyasini o'rgangan Z.A.Svarichevskaya (1965) past tog'larning mutlaq balandligini 1000-2000-metrgacha belgilash zarurligini uqtiradi [3;15-b].

Yer yuzida yassitog'liklar ko'p. Ularning yiriklari O'rta Sibir, Braziliya, G'arbiy Avstraliya, Qozog'iston, Dekan kabilar 1000-2000-m balandlikka ega. O'rtacha balandlikdagi tog'lar 2000-3000-m, baland tog'lar 3000-5000-m, eng baland tog'lar 6000-m dan baland.

Past tog'lar odatda *baland tog'larga tutash past tog'lar* va *alohida ifodalangan qoldiq past tog'lar* guruhiga bo'linadi. Ana shunday past tog'lardan bir nechta markaziy Qizilqum cho'lida joylashgan Sulton Uvays, Bo'kantov, Yetimtov, Tomditov, Quljuqtov kabi balandligi 1000 metrga ham yetmaydigan

past tog'lar shular jumlasidandir. Magistrlik dissertatsiyasining tadqiqot obyekti sifatida Qizilqumning yuqorida nomlari keltirilgan past tog'lari tanlangan.

Bu tog'lar Qizilqum cho'lining markazida shimoldan janubga tomon taxminan 202 kilometr masofada yastanib yotadi. Eng shimolda Bo'kantov past tog'i g'arbdan sharqqa tomon cho'zilgan bo'lib eng baland nuqtasi 764 m. Bo'kantovdan janubi sharqda taxminan 18-19 km uzoqlikda Jetimtov tog'lari (eng baland joyi 511 m.) joylashgan. Jetimtov past tog'lari ayrim manbalarda Yetimtov deb ham yuritiladi. Jetimtovdan 65 kilometrcha janubda Tomditov past tog'lari (Qizilqum markazidagi past tog'lar ichida eng "balandi"-974 m.) cho'l bag'rida qad ko'targan. Tomditovdan janubi-g'arbda 43 km uzoqlikda Ovminzatov tog'lari, Janubi sharqda esa 21-22 km dan so'ng Qozoqtov tog'lari, Ovminzatovga parallel 46 km janubda Quljuqtov tog'I sharqdan g'arbga tomon cho'zilib yotganini guvohi bo'lamiz, Quljuqtovning eng baland nuqtasi 785 metrga teng [1; 191-b.].

Mazkur tog'lar paleozoy erasining oxirida yuz bergan gersin burmalanishi tufayli hosil bo'lgan ushbu tog'lar asta-sekin yemiriladi va sekin harakat qiluvchi platforma mintaqasiga (turon plitasiga) aylanadi. Paleogen davrining oxirida, ya'ni bundan 25 mln yil muqaddam boshlangan neotektonik (alp bosqichi) harakatlar tufayli qayta ko'tariladi. Aniqroq qilib aytganda, Quljuqtov tizmasi qadimda, sekin harakatdagi platforma sharoitida 1300 metrgacha ko'tarilgan xolos.

Paleogen davrida tog' qatlamlari qayta burmalangan va nihoyat burmalipalaxsali tuzilishga ega bo'lgan. Mazkur ko'tarilishlar boshqa past tog'larda ham turlicha jadallikda ro'y bergan. Tog'lardagi hozirgi mutlaq balandliklar, keyingi 25 mln yil davomida ro'y bergan ko'tarilish va yemirilish jarayonlarining oqibatidir. Bu tog'larda hozirgi davrda ham ko'tarilishlar davom etmoqda. Bu ko'rsatkich Tomditovda 21 mm/yilga teng [5;121-135-b., 2; 27-53-b.].

Past tog'larda tuproq qoplami odatda tog'larning markaziy suvayirg'ichli qoyali ochilmalarni o'rab turgan pastki yonbag'irlarni egallaydi. Mazkur yuzalarda, litoedafik sharoitga mos holda, *sur-go'ng'ir* tuproqlarning bir necha kichik tiplari tarqalgan. Ular odatda shag'alli, gipsli avtomorf tuproqlardir.

Chirindi miqdori 0,2-0,5% atrofida bo'lib, gipsofit o't va butalar bilan, turli darajada qoplangan, soylarning quyi etaklarida esa orolsimon tarzda taqirli va sho'rxok tuproqlar uchraydi. Cho'l zonasidagi past tog'larning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shuki, tog'larning shimoliy etaklarida (akkumulyativ yo'laklar) va tog' oralig'idagi pastqamliklarda oqim hosil qilmaydigan g'ovak, cho'l qumli tuproqlar keng tarqalgan. Bular odatda shamol oqimlari tufayli to'plangan, mayda donador (0,25-0,05 mm) mexanik tarkibga ega bo'lib, iloqli chimli qatlamli ko'chmas qumlardir.

Iqlimiy xususiyatlariga ko'ra, mazkur past tog'lar subtropik belgilarga ega bo'lgan, ya'ni mo'tadil mintaqadan subtropik mintaqaga o'tuvchi cho'llar doirasida joylashgan. Iqlimida keskin kontinentallik, ya'ni meteorologik ko'rsatkichlarning kecha va kunduz, oy, mavsum va yillar kesimida keskin farqlanishi kuzatiladi. "Tliq qishlar" shimolda 5% ni tashkil qilsa, bu ko'rsatkich janubiy tizmalar hududida 60% gacha boradi. Atmosfera yog'inlarining o'rtacha ko'p yillik miqdori g'arbdan sharq tomonga qarab ortib boradi. Bu ko'rsatkich Nukusda 82, Bo'zaboyda 86, Ko'lquduqda 138, Oyoqog'itmada esa 133 mm ga teng.

Atmosfera yog'inlarining aksariyat qismi (80-83%) qish va bahor oylarida sodir bo'ladi. Natijada aksariyat bahor oylarida soylar to'lib oqadi, toshqinlar sodir bo'ladi. Bunday ofatli toshqinlar tog'lar etagidagi yaylovlarni o'zining qattiq (muallaq) oqizlari (loy, tosh-shag'al) bilan nobud qiladi, yo'llarni buzadi va katta miqdorda moddiy va ma'naviy zarar keltiradi. Atmosfera yog'inlarining miqdori yillar kesimida ham keskin farqlanishlarga, ya'ni davriylikka ega. Masalan, Quljuqtov tizmasi doirasida har 4-5 yilda bir marta nisbatan namgarchilik (169,6-247,7 mm gacha) va har 9-10 yilda esa bir marta qurg'oqchilik (34,0-36,5 mm gacha) yillari sodir bo'ladi [7; 119-122-b.]. Mazkur yillar ayniqsa chorvachilikka katta zarar yetkazadi, qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni tug'diradi. Shunga qaramasdan hanuzgacha ma'muriy-hududiy tashkilotlar tomonidan soy suvlarining salbiy oqibatlarini bartaraf qilish bo'yicha chora-

tadbirlar ishlab chiqilmagan. Past tog'larning suv berish imkoniyatlarini o'rganish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya xizmati markazi tomonidan kuzatuv ishlari yo'lga qo'yilmagan.

Cho'l zonasidagi past tog'larda mavjud bo'lgan buloqlar soni o'ta cheklangan, ikkinchidan ularning suv berish quvvati ham kam – o'rtacha 1,5-2,0 l/s atrofida. Buloq suvlarining kimyoviy tarkibi xilma-xil. Odatda ular sho'rtob, faqat chorva mollari uchungina yaroqli, ichimlik suv me'yorlari talablariga javob bera olmaydi. Buloqlar odatda past tog'lar oralig'ida joylashgan berk botiqlar hududida hamda past tog'lar etaklarida mavjud. Tomdibuloq (Tomditov), Oydinbuloq, Churuq, Oyoqog'itma (Quljuqtov), Ko'lquduq, Irlir (Bo'kantov) shular jumlasidandir. Mazkur buloqlar gidrogeologik nuqtai nazardan yaxshi o'rganilmagan bo'lsada, yerli, aksariyat qozoq millatiga mansub bo'lgan chorvador aholi tomonidan turli xo'jalik maqsadlarida foydalanilib kelinmoqda.

Past tog'lar va uning atrofidagi yaylovlarda chorva mollarini sug'orish maqsadida, quduqlar to'ri yaratilgan. Quduqlar bir-biridan 8-10, 12-14 km gacha uzoqlikda joylashgan bo'lib, ularning suvlari odatda sho'rdir.

Cho'l zonasidagi past tog'lar organik dunyosiga ko'ra baland tog'larga tutash past tog'larga nisbatan kambag'al. Qizilqum cho'li doirasida yuksak o'simlikarning 900 turi ro'yxatga olingan. Ular bir-biridan farq qiladigan beshta yashash sharoitida o'sadi. Bular: past tog'lar, qirlar, qumliklar, to'qaylar va berk botiqlardir. Bular orasida past tog'lar yetakchilik qiladi va ular 272 turni tashkil qiladi [4; 184-205-b.]. Past tog'larda efemer, efemeroid o'tlar, ozuqabop butalar – qorabosh, yaltirbosh, qo'ng'irbosh, shuvoq, astragal, keyreuq, yovvoyi oq pechak, boyalich ustunlik qiladi. Ayrim past tog'larda o'ziga xos turlar ham mavjud. Masalan, Quljuqtov tizmasida lotuk, qora boyalich, malla shuvoq, partek keng tarqalgan. Ayrim soylarning quyi qismidagi pastqamliklarda esa yantoq, yulg'un va qamish kabi o'simliklardan iborat to'qay yo'laklari ham uchraydi. Past tog'lar yuzalarining o'simliklar bilan qoplanganlik darajasi 1,0-50% atrofida. Hosildorlik esa, gidrometeorologik sharoitga bog'liq holda, 0,5-3,0 s/ga atrofida bo'ladi [6; 14-

23-b.].

Cho'l zonasidagi past tog'larning hayvonot dunyosi baland tog'larga tutash past tog'lardan keskin farq qilmaydi. Shunday bo'lsada, xususiy farqlanishlar ko'zga tashlanadi. Janubi-g'arbiy Qizilqumda atigi 29 tur qushlarning uya qo'yishi ro'yxatga olingan. Bu ko'rsatkich baland tog'larga tutash past tog'larga nisbatan 3-4 marta kam. Cho'l zonasidagi past tog'larda o'ziga xos hayvonot turlari: charx ilon (efa), qum iloni, quloqli va qum dumaloqboshi, saksovul soykasi, oqbovur, jo'rchi (kal jo'rchi), to'rg'aylar, jayron, barxan mushugi, olaqo'zan, echkemar, katta qumsichqon, to'garakbosh (agama), qizil dumli yumronqoziq kabilar keng tarqalgan. Mazkur tog'lar baland bo'lmaganligi va bepoyon Qizilqum cho'lida joylashganligi tufayli ularda bo'ylama mintaqalanish (azonallik) yaxshi ifodalanmagan. Shu boisdan ular to'lig'icha cho'l zonasiga mansubdir.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarning tahlili asosida quyidagi xulosa va takliflarni qayd etishni lozim topdik:

1) Qizilqumdagi past tog'larni geografik jihatdan tadqiq etilgan ma'lumotlar asosan 1960-1970-yillar adabiyotlarida uchraydi. Ammo, 2000-yildan so'ng olib borilgan tadqiqot natijalari juda kamchilikni tashkil qiladi.

2) To'laligicha past tog'lar geografiyasiga bag'ishlangan adabiyotlar mavjud emas. Aynan shu mavzuga bag'ishlangan tadqiqotlar orqali bunday adabiyotlarni ko'paytirish va u orqali turizmni rivojlantirishga hissa qo'shish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar

1. Аббасов С.Б. Қизилқум чўли ландшафтлари динамикаси ва экологияси. Монография. – Самарқанд: СамДУ, 2019. - 174 б.

2. Арсланбеков Ш.У. Об отражении современных тектонических движений в рельефе Кызылкумской платформы. Доклады Академии наук УзССР, №8, 1969.

3. Баратов П., Маматкулов М., Рафиқов А. Ўрта Осиё табиий географияси. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 2002. – 437 б.

4. Гранитов И. И. Растительный покров Юго-Западных Кызылкумов. – Ташкент: «Наука», 1964. Т. 1. - 336 с.
5. Пятков К.К., Пяновская И.А., Бухарин А.К., Быковский Ю.К. Геологическое строение Центральных Кызылкумов. – Ташкент: “Фан”, 1967. - 179 с.
6. Саидов Д.К., Момотов И.Ф., Алимжанов А.Г. Инструкция по фитомелиорации пастбищ Юго-Западного Кызылкума. – Ташкент. 1972. – 30 с.
7. Ҳалимова Г.С. Қулжуктов тизмаси (Қизилқум) худудида атмосфера ёғинларининг кўп йиллик кўрсаткичлари хусусида // Ўзбекистон география жамияти ахбороти. 44-жилд. - Тошкент, 2014 - Б. 119-122.
8. Щукин И.С. Общая геоморфология. Том II. – М.: Изд-во Московского университета, 1964. – с. 563.

UMUMGEOGRAFIK QONUNIYATLARNING YER TABIATIGA TA'SIRI

G.S.Halimova,

BuxDu, geografiya fanlari falsafa doktori (PhD)

K.Amonova,

BuxDU, Geografiya ixtisosligi magistranti,

Annotatsiya: mazkur maqolada umumgeografik qonuniyatlar va ularning inson hayoti, turmush tarsi, xo'jalik faoliyatidagi ta'siri haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: umumgeografik qonuniyatlar, geografik qobiq, geografik qobiqning birbutunligi, zonallik qonuniyati, davriylik qonuniyati, modda va energiyaning tabiatda aylanib yurishi, El-Nino.

Tabiat—odamning paydo bo'lgunicha ham, odam ishtiroki bilan ham mavjud borliq hisoblanadi... Tabiat odamga, jamiyatga bog'liq bo'lmagan qonuniyatga bo'ysunadi. Odam tabiatning bir qismi hisoblanadi. Odam tabiat qonunlarini o'zgartira olmaydi, faqatgina uning qonunlardan foydalanib, tabiat

elementlarini, qismlarini o'zlashtirishi mumkin. Tabiat tushunchasi insoniyat jamiyati yashashi tabiiy sharoitlarining majmui sifatida ham qaraladi. Inson yashashi uchun mehnat qiladi va mana shu mehnati ortidan esa tabiatning ba'zi jihatlarini o'zgartiradi.

Geografik qobiqning bir butunligi Geografik qobiqqa modda va energiyaning xilma-xil harakati uning hamma qismlarini yaxlit bir butun tizimga bog'laydi. Mazkur tizimning bir qismini o'zgarishi uning boshqa hamma qismlarini o'zgarishiga olib keladi. Masalan, agar Antraktida muzlari ertitilsa, Dunyo okeani sathi 60m. ga ko'tariladi. Bir paytning o'zida Yer yuzasida issiqlik va namlikning almashinishini, daryo eroziyasining sur'ati va boshqa jarayonlarni hosil bo'lishida o'zgarishlar ro'y beradi. Agar biron joyda iqlim o'zgarsa, shu joydagi hamma narsa: tuproq va o'simliklar, o'simliklar bilan bog'liq ravishda hayvonot dunyosi, suvlar, nurash jarayonlari, tashqi (ekzogen) kuchlar ta'sirida relief hosil bo'lish jarayonlari va boshqalar albatta o'zgaradi. Hamma geotarkiblarning o'zaro ta'siri mazkur tarkiblarni bir butun yagona moddiy tizimga birlashtirib turadiki, bunda hamma tarkibiy qismlar bir-biriga bog'liq va bir-biriga ta'sir etadi. Bu tizimning bir butunligi shu qadar mustahkam va shu qadar umumiyki, geografik qobiqning biron-bir qismi o'zgarsa bas, shundan so'ng qolgan barcha qismlar ham o'zgaradi. Butun tizimning o'zgarish miqyosi ayrim tarkibiy qismlarning yoki mazkur tarkibiy qismlarni tashkil etgan elementlarning o'zgarish miqyosiga bog'liq. Cho'lda xurmozorlarning paydo bo'lishi xurmozorlardagi tabiiy jarayonga ta'sir etsa ham, cho'lning umumiy landshaftini o'zgartira olmaydi. Geografik qobiqning bir butunligi qonunini tilga olganda ko'pgina geograf olimlar quyidagi qonuniy hodisani misol keltiradi. Janubi Amerikaning g'arbiy sohili bo'ylab shimol tomonga sovuq Peru oqimi oqadi. Sohil bo'ylab 22- 27°C janubiy kengliklar orasida qariyb , ming km masofada Atakama cho'li yotadi. Cho'l hududida atmosfera yog'inlari yo'q hisobida. Uning o'rtacha yillik miqdori 1mm bo'lib, iyun oyida kuzatiladi. Sohil bo'yida ocean suvlari kislorodga, plankton, mayda baliqlarga boy. Shu bois sohil bo'yi va unga yaqin

bo'lgan mayda orollarda albatros, baklon, pelican kabi dengiz qushlari ko'p. Ular har yili o'rtacha 2,5 mln tonnagacha baliqlar bilan oziqlanadi va azotga boy bo'lgan axlat chiqindilarni (guano) hosil qiladi. Yerli aholi tomonidan bu tabiiy organik o'g'itlar sotiladi, kata daromad keltiradi. Ushbu tabiiy holat har 12 yilda ekvator kengliklardan, aniqrog'i shimoli-sharqdan fevral-mart oylarida 10-13 janubiy kengliklarda kirib keladigan iliq oqim El-Nino okean oqimi tufayli inqirozga yuz tutadi. Ushbu iliq oqim tufayli 4 oy davomida ob- havo o'zgaradi. Atakama cho'lida kuchli yomg'irlar sodir bo'ladi. 1925-yilda birgina mart oyida 300 mm qalinlikda yog'in-jalalar ro'y bergan. Natijada ekin yerlari nobud bo'ladi, guano qatlamlari yuviladi. Kislorodga kambag'al bo'lgan iliq oqim tufayli mayda baliqlar, planktonlar nobud bo'ladi. Ozuqadan ayrilgan minglab qush galalari hududni tark etadi. 4 oy davom etgan ushbu tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy inqirozdan so'ng sovuq Peru oqimi yana o'z holatini tiklaydi va an'anaviy tabiiy sharoit qayta o'z holatiga qaytadi. Birgina iliq ocean oqimi tufayli ro'y beradigan ushbu tabiiy-ijtimoiy davriylik tabiatning birbutunligini dalillovchi yaqqol misoldir [1; 67-85 b.].

Zonallik. Geografik qobiqda tabiat komplekslarining ekvator dan qutblar tomon qonuniy almashinishi zonallik deyiladi. Zonallik geografik qobiqning eng muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Zonallikning asosiy sababi Yer yuzasida issiqlik va namlikning notekis taqsimlanishidir. Yerning sharsimonligi tufayli geografik qobiqda Quyosh nuri va issiqligi notekis taqsimlanadi. Natijada geografik qobiqda harorat, bug'lanish, yog'inlar, shamollar, iqlim, nurash va tuproq hosil bo'lish jarayonlari, o'simlik va boshqalar ham kengliklar bo'yicha zona-zona bo'lib tarqalgan.

Har bir geografik zona bir butun geografik tizim bo'lib, o'zi-o'zini tiklash, yashash va rivojlanish imkoniyati va kuchiga ega bo'lgan landshaftlar majmuidir. Mazkur geografik zonalar insonning yashashi va ijtimoiy faoliyati uchun tabiiy sharoit, tabiiy ekozamin hisoblanadi. Xalqlarning kiyinishi, urf-odat, marosimlari va ma'naviy madaniyatida ham zonallik xususiyatlari ham yaqqol sezilib turadi.

Masalan, geografik nomlarda ham zonallik ma'lum darajada o'z ifodasini topgan. Ulug' alloma Beruniy o'zining " Hindiston" asarida hind zaminida yashovchi qabila va elatlar tili, urf-odatlar, turmush tarsi udumlarining xilma-xilligiga geografik muhitning ta'siri katta bo'lganligini qayd qiladi.

Davriylik. O'rin amlashishning eng faol shakli aylanma harakat hisoblanadi. Aylanma harakat cheklangan miqdordagi moddani doimo harakatda bo'lishini ta'minlaydi. Har bir aylanma harakat davri harakatni eng sodda birligidan iborat. Lekin davrlarni aynan qaytarilishi kuzatilmaydi. Aylanma harakat miqyosida energiya va modda oqimlarini asta-sekin bir tomonga yo'naltirilgan o'zgarishi amalga oshadi, bu esa o'z o'rnida geosferalarni tarkibi va tuzilishini o'zgarishiga olib keladi. Bir tomonlama yo'nalishiga ega bo'lgan o'zgarishlar uzoq davom etgan davr mobaynida amalga oshadi. Bunday dinamik o'zgarishlar davriylik deb yuritiladi. Geografik qobiqda davriylik juda ko'p jarayonlarda, jumladan, tektonik, magmatik, iqlimiy gidrologik va boshqa ko'plab jarayonlarda kuzatiladi. Davriy harakatlar asosan ikkita tur ritmik va siklik harakat turlariga ajratiladi. Tabiiy hodisa va jarayonlarning ma'lum asrlar, geologic eralardan so'ng takrorlanishi (davriyligi) haqida ma'lumotlar mavjud. Ayniqsa oylik, yillik, ko'p yillik, davriy tabiiy jarayon va hodisalar mohiyatini mukammal bilish muhimdir. Buxoro Davlat universitetining mustaqil tadqiqotchisi G.S.Halimova tadqiqotlari asosida Markaziy Qizilqum atmosfera yog'inlarining o'zgaruvchan oraliq muddatli davriylik qonuniyati aniqlandi. Mazkur ilmiy xulosa, o'z navbatida yaylov chorvachiligini rivojlantirish, cho'l zonasining tabiiy resusrlaridan samarali foydalanish, ijtimoiy- ekologik muammolarni hal qilish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega [2; 18-25 b.].

Modda va energiyaning tabiatda aylanib yurishi. Geografik qobiqning to'rtta strukturasi, ya'ni atmosfera, gidrosfera, litosfera va biosferalarda modda va energiya almashinuvi ikkita - gorizontaal va vertikal yo'nalishda kuzatiladi. Atmosfera va Dunyo okeanidagi suvning harakatida va litosferadagi vulqonlar harakatida moddalarning ham gorizontaal, ham vertikal almashinuvi bo'ladi.

Geografik qobiqdagi modda va energiyaning almashinuviga Yeming ichki energiyasi va Quyosh energiyasi hamda gravitatsiya kuchi ta'sir etadi. Modda va energiyaning o'zaro aloqalarida jarayon ham ishtirok etadi [3; 32-35 b.].

Ushbu qonuniyatlar bir-biri bilan uzviy aloqador bo'lib tabiatg ta'sir etib turadi. Geografik qobiqda qonuniyatlar biri ikkinchisini to'ldirib boradi zanjir kabi. Shuningdek, umumgeografik qonuniyatlar yer yuzi tabiatini o'zgartira oladi. Komponentlar orasidagi o'zaro bog'liqlik va o'zaro ta'sirning mavjudligi tufayli biror komponentning o'zgarishi boshqa komponentlarga ham ta'sir ko'rsatadi vaularning o'garishiga olib keladi va pirovardida butun landshaft ham o'zgaradi. Biroq hech bir tabiiy komponent birbiridan ajralgan holda rivojlanmaydi, ular doimo birbiriga ta'sir etadi, ular o'rtasida modda va energiya almashinib turadi, natijada landshaftlar muayyan muvozanatda shunday uyg'unlashib ketganki, har bir landshaft uning tarkibiy qismlarining oddiy yig'indisidan iborat bo'lmay, ular bir butun geosistemani hosil qiladi. Landshaftning komponentlariga emas, undagi har bir element ham o'zaro chambarchas bog'langan, muayyan muvozanatda turadi. Biror tabiiy element o'zgarishi oqibatida butun landshaft ham muayyan darajada o'zgaradi. Bundan tashqari, muayyan bir landshaftdagi o'zgarishlar qo'shni landshaftlarda ham o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Shu sababli tabiatdan foydalanishda bu qonunga rioya qilish juda muhim. Bu hodisa, geopara sistemalarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Nazarov I.Q., Halimova G.S., Geografiya fanining metodologik asoslari. Buxoro: "Durdona nashriyoti" – 2021.
2. Nazarov I.Q, Qalandarova D.D., Zabiyeva R.S Yer tabiati: Geografik qonuniyatlarning va amaliyot (Davriylik qonuni). O'zbekiston geografiya jamiyati axboroti 49- jild. – Toshkent: 2017 - B. 24-27
3. Halimova G.S Some distribution regularity of atmospheric precipitation in the ridge Kuljuktau. European science Review, "East - West: Austria, Vienna 2016 p. 11-12

LANDSHAFT XARITALARI VA ULARNING AHAMIYATI

X.R.Toshov

BuxDU, ekologiya va geografiya kafedrasida dotsenti

M.N.Muhammadova

BuxDU, geografiya mutaxassisligi magistranti

O'zbekistonda tabiati, tabiiy resurslarini paydo bo'lishi va joylanish qonuniyatlarini o'rganish, turli hududlarning resurs imkoniyatlarini majmualari baholash, rayonlashtirish va xaritalashtirish bevosita geografiya fanining vazifalariga kiradi. Ayniqsa, bu sohada landshaftshunoslik fanining imkoniyatlari yuqori sanaladi.

Chunki, tabiiy resurslar tabiatda alohida-alohida uchramaydi. Ular bir-biriga bog'liq holda, aniq hududda, aniqrog'i, landshaftlarda mujassam bo'ladi. Uni tashkil qilgan jonsiz va jonli komponentlar (relef, tog' jinslari, issiqlik, namlik, tuproq, organik dunyo) o'zaro modda va energiya almashuvi tufayli bir-biriga bog'liq va bir butunlikka ega. Landshaft doirasida mujassam bo'lgan bir resursdan noto'g'ri foydalanish undagi boshqa resurslarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli landshaftdagi tabiiy resurslardan foydalanishda yoki ularni baholashda resurslarni bir-biri bilan bog'liqligi g'oyasini inobatga olgan holda ish tutmoq zarur (Nazarov, Toshov. 2007).

Landshaftlarni xaritalashtirish ham o'z tarixiga ega. Landshaftshunoslikda landshaftlar morfologiyasini o'rganish, ta'limotining yaratilishi oqibatida xaritalashtirish sohasi rivojlanib ketdi. Bu sohaning rivojlanishi bo'yicha rus olimlaridan L.S.Berg, N.A.Solnsev, A.G.Isachenkolar mamlakatimizda Yu.Sultonovning "Landshaftlar geografiyasi" (1974), keyinchalik, Sh.S.Zokirovning "Kichik hududlar tabiiy geografiyasi" (1999), Sh.S.Zokirov va X.R.Toshovlarning "Landshaftshunoslik" (2015, 2016), M.K.Ergasheva (2021)larning o'quv qo'llanmalarida va A.Abdulqosimov Yu.X.Abdurahmonova, K.Q.Davronovlarning "Zarafshon botig'i voha landshaftlari va geoekologiyasi"

(2017), X.R.Toshovning “Tabiiy geografiya tarixi va ba’zi nazariy masalalari” monografiyalarida ma’lumotlar keltirilgan [1,2,3,4,5,6].

N.A.Solnsevning (1949) fikriga ko‘ra bir landshaftni yon-atrofdagi landshaftlardan farqlash uchun ham asosiy mezon sifatida landshaftning morfologik strukturasi asosiy ahamiyatga ega. Landshaftshunoslikning keyingi rivojlanishida landshaftlar morfologiyasining ahamiyatini to‘liq his etgan N.A.Solnsev va uning shogirdlari shu masalaga oid katta bir maqola bilan chiqdilar. Unda bildirilgan ko‘p nazariy fikrlar keyinchalik bir qator landshaftshunoslarning ilmiy faoliyatida yo‘naltiruvchi ahamiyatga ega bo‘ldi. N.A.Solnsev tomonidan ilgari surilgan nazariy g‘oyalarni to‘g‘riligini isbotlash uchun Rossiyaning markaziy rayonlarida bir qator ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirilib, yirik va o‘rta masshtablik landshaft xaritalari yaratildi. Taniqli kartograflardan biri A. M. Berlyant (1987) ham karta, globus, atlaslarda aks ettiriladigan geotasvirlar uch guruhga ajratilishi mumkinligini qayd etadi, ya’ni: 1) global yoki dunyoviy geotasvirlar (maydoni 10^7 km² dan katta bo‘lgan birliklar- planeta yoki uning bir yarim shari): 2) regional geotasvirlar (maydoni 10^4 – 10^7 km² bo‘lgan materiklar, okeanlar kabi birliklar): 3) mahalliy ko‘lamdagi geotasvirlar (maydoni 10^4 km² dan kichik bo‘lgan hududlar).

1947 yilda geograflarning II Butunittifoq s‘ezdida geograf N.A.Solnsev o‘zining landshaftshunoslik sohasidagi nazariy qarashlarini ma’lum qilar ekan, geografik landshaftga shunday ta’rif bergan edi: “Geografik landshaft deb genetik jihatdan bir butun bo‘lgan shunday hududni atash lozimki, unda geologik tuzilish, relief shakllari, yer ustki va ostki suvlar, mikroiklimlar, tuproqlar, fito – va zootsenozlarning o‘zaro bog‘liq majmualarining qonuniy va tipik qayta uchrashi kuzatiladi.” (1948, t.I, 258 b.). Demak, landshaftlar komponentlarning o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro ta’siri natijasida hosil bo‘lishidan tashqari, o‘zidan kichik bo‘lgan tabiiy geografik komplekslarning, ya’ni morfologik qismlarining o‘zaro ta’siri bilan ham tavsiflanadi [4].

Landshaft xaritalarini tuzishning ahamiyati

1. Tabiiy resurslarni landshaftlar doirasida baholash eng avvalo mintaqa, viloyatlarning tipologik landshaft kartalarini tuzishni taqozo qiladi. Bunday kartalar resurslarni baholashda hududiy asos vazifasini o'taydi. Landshaft haqidagi ta'limot esa landshaftlarning resurs imkoniyatlarini baholashda metodologik poydevor hisoblanadi [5].

2. Kichik hududlarni, ya'ni landshaft va uning morfologik qismlarini tadqiq qilish, albatta dalada izlanishlar olib borishni talab qiladi. Bunday izlanishlar natijasida to'plangan ma'lumotlar va ayniqsa, tuzilgan landshaft xaritalari keyinchalik turli-tuman maxsus amaliy xaritalarni yaratishda, tabiat muhofazasi va tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishning chora-tadbirlarini ishlab chiqishda aniq va ishonchli ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, O'zbekistonning ekologik xaritasi va O'zbekistonning tabiatini muhofaza qilish xaritasini tuzishda (A. A. Rafiqov va b., 1992, 2003) landshaftlar xaritasidan foydalanilgan.

Landshaft xaritalari:1926-1927 yillarda rus olimi I.V.Larin o'zining landshaftlarni o'rganishga bag'ishlangan bir qator ilmiy maqolalarida Ural guberniyasi hamda Kaspiy bo'yi pasttekisliklaridagi Chiji yoyilmalari landshaftlariga tegishli ishlarida o'simlik qoplami bilan landshaft o'rtasida juda katta bog'liqlik mavjudligi va shu bilan birga landshaftlarni o'simliklarga qarab aniqlash metodikasini yoritgan. Ushbu ilmiy ishlarda aniq landshaft xaritalari va ularga bog'liq holda landshaftlarning batafsil tahlili ham keltirilgan. Bundan tashqari, tabiiy geografik komplekslarning eng kichigi, boshqa bo'linmaydigani mikrolandschaft ekanligi haqidagi g'oya ham ilgari surilgan.

XX asrning 30-yillariga kelib, B. B. Polinov, I. V. Larin, A. D. Gojev va boshqalarning ayrim-ayrim hududlarda olib borgan landshaft izlanishlari natijasida bir qator aniq landshaft xaritalari tuzilgan. R.I.Abolin 1929 yilda Qozog'istonning janubiy qismiga tegishli o'rta masshtabdagi tuproq-geobotanik xarita tuzgan bo'lib, u o'zining mazmuni va sifati jihatidan hozirgi zamon landshaft xaritalari qatorida turadi.

Rus olimi Yu.N.Selenchuk 1951-61 yillardagi Moskva, Ryazan va Bryansk oblastlarida olib borilgan landshaft tadqiqotlarida to'plangan ma'lumotlarni umumlashtirish natijasida va yirik masshtabdagi (1:10000) landshaft xaritalarini tuzish tajribasi asosida urochishelar tasnifini bajargan. Uningcha, eng yirik tasnif birligi, ya'ni urochishelar turi genezisi bo'yicha o'xshash bo'lgan mezorelef shakllari ichida yuzaga kelgan, dinamikasi o'xshash, mexanik va biogeokimyoviy rivojlanishi o'xshash bo'lgan urochishelardan iborat. Shu aytilganlardan kelib chiqqan holda Rossiya tekisligining Qoratuproqsiz markazida beshta urochishelar turini aniqlagan.

Mamlakatimizda 1950 - yillarning oxirida Toshkent davlat universiteti tabiiy geografiya kafedrasining olimlari L. N. Babushkin va N. A. Kogay tomonidan O'zbekiston hududini qishloq xo'jaligi maqsadlarida tabiiy geografik rayonlashtirish mavzuida ilmiy tadqiqot ishlarining boshlab yuborilishi ham O'zbekistonda landshaftshunoslikning taraqqiyot tarixidagi muhim voqealardan edi. Chunki, shu mavzuda o'tkazilgan bir qator ilmiy anjumanlarda tabiiy geografik rayonlashtirishning asosiy metodi landshaft tipologik birliklar xaritasini tahlil qilish natijasida tabiiy geografik rayonlarni aniqlash ekanligi ta'kidlab o'tilgan edi. Natijada, tarixda birinchi marotaba O'zbekistonning landshaft xaritasi yaratildi va 1964 yilda nashrdan chiqdi. Mazkur yilda ushbu mualliflarning "O'zbekistonni tabiiy geografik rayonlashtirish" nomli monografiyasi ham bosilib chiqdi va unda landshaftlarning qisqacha tavsiflari ham berilgan edi. O'zbekiston hududi tabiiy sharoitini shaharsozlik maqsadlarida baholash jarayonida A.Soatov (1990-1993) dastlab tabiiy sharoiti nisbatan har xil bo'lgan joylarni ajratib olib, ularni "hududlar tiplari" deb atadi. U tuzgan O'zbekistonning hududlari tiplarini baholash kartasida hammasi bo'lib (jami 375 ta konturni hosil qilgan) 46 ta hudud turlari aks ettirilgan.

Taniqli olim I.Q.Nazarov "Landshaftlarni xaritalashtirish tufayli landshaftshunoslik durust obro'yga ega bo'ldi"- deb ta'kidlagan edi. Hozirgi kunda xaritalashtirish borasida qiyinchiliklar mavjud bo'lsada, geologiya, geobotanika,

iqlimshunoslikda ishlar yaxshi yo'lga qo'yilgan. Ayni davrda landshaftlar negizi, morfologiyasi o'zgarishlariga oid xaritalar juda zarur. Ayniqsa, ularni koinotdan turib o'rganish (kosmik usul) muhimdir. Ayniqsa, landshaftlarni o'tkinchi holatidagi suratlarini tahlil qilish asqotadi.

Adabiyotlar

1. Abdulqosimov A.A., Abdurahmonova Yu.X., Davronov K.Q. Zarafshon botig'i voha landshaftlari va geoekologiyasi. –Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2017. – 301 b.
2. Zokirov Sh.S. Landshaftshunoslik asoslari. -Toshkent. Universitet, 1994.
3. Zokirov Sh.C. Toshov X.R. Landshaftshunoslik. Toshkent. Dzayn Press. 2013. 170 b.
4. Isachenko A.G. Landshaftovedenie i fiziko-geograficheskoe rayonirovanie. M.: Vysshaya shkola. 1991, 366 str.
5. Nazarov I. Q. Geografiya fanining asosiy muammolari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Muharrir, 2013. -212 b.
6. Toshov X.R., Xolov Yo.D., Qo'chqorova D.J., Muhammadova M.N., Qodirova Z.G'. Jondor tumani geografiyasi va ekologiyasini o'rganilishiga oid mulohazalar. Tyurkoyazychnoe strany. Respublikanskiy nauchno-metodicheskaya i poznavatel'naya jurnal. Kazaxstan. Almaty № 1 2022 g.

ZOVUR TARMOQLARIDAN FOYDALANISHNING

GIDROLOGIK ASOSLARI

M.S.G'aybullaeva

BuxDU, geografiya mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Sug'oriladigan yerlarning hozirgi meliorativ holatini va qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini yanada oshirish hozirgi davrning dolzarb muammolaridan biri sanaladi. Ushbu maqolada kollektor zovur suvlaridan qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishda samarali foydalanish bo'yicha fikr mulohazalar yuritilgan.

Kalit soʻzi: Melioratsiya, sugʻoriladigan yer maydonlari, zovur, yerlarning meliorativ holati, kollektor, yerlarning shoʻrlanishi.

Buxoro viloyatda sugʻoriladigan yer maydonlarning meliorativ holatini nazorat qilish, oʻrganish va shular asosida sugʻoriladigan erlar unumdorligini oshirish maqsadida, meliorativ chora tadbirlar ishlab chiqish bilan bir qatorda shu tadbirlarni amalga oshirilishini nazorat qilish hamda uni keltiradigan iqtisodiy manfaatlarini tahlil qilish maqsadida zovur tarmoqlarining gidrologik asoslarini oʻrganish va tahlil etish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Shu sababli viloyatdagi 274,6 ming gektardan oshiqroq sugʻoriladigan yer maydonlarning meliorativ holatini doimiy nazorat qilib, kuzatuvlar asosida meliorativ nuqtai nazardan oʻzgarib turadigan vaziyatlarni baholash hamda kutiladigan oʻzgarishlarni prognoz kilib, shular asosida sugʻoriladigan yer maydonlarning meliorativ holatini yaxshilash yoʻli bilan ulardan olinadigan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining hosildorligini oshirish tadbirlarini ishlab chiqish va ularni amalga bajarilishini nazorat qilish lozim. Amalga oshiriladigan tadbirlar erlarni meliorativ holatini yaxshilashga qay tarzda taʼsir koʻrsatishini oʻrganish lozim. Bulardan tashqari umumiy uzunligi **7981,7** km boʻlgan, shundan **747,0** km magistral traktlar va **2096,8** km uzunlikdagi davlat hisobiga turadigan xoʻjaliklararo zovurlarni ekspluatatsiya qilish hamda uzunligi **5137,9** km boʻlgan ichki zovur tarmoqlarni ekspluatatsiya qilishda, ularni texnik holatini soz saqlash uchun yerdan foydalanuvchilarga texnikaviy yordam koʻrsatib, tegishli chora koʻrish uchun tavsiyalar ishlab chiqish davr talabidir.

Keyingi yillarda qishloq xoʻjaligini isloh qilish, fermer xoʻjaliklarini rivojlantirish, ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini barpo etish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar qishloqda haqiqiy mulkdorlar sinfini shakllantirish, qishloq xoʻjalik mahsulotlari ishlab chiqarishni hamda qishloq aholisining daromadlarini koʻpaytirish imkonini berdi. Shu bilan birga, sugʻoriladigan erlarning hozirgi meliorativ holati qishloq xoʻjalik ekinlari hosildorligini yanada oʻstirishga va qishloq xoʻjaligida tovar ishlab

chiqaruvchilarining daromadlarini oshirishga to'g'anoq bo'lmoqda. Melioratsiya sohasidagi tadbirlarning loyihalarini, shuningdek ularni moliyalashtirishning aniq manbalarini shakllantirishda tizimli ravishda kompleks yondoshilmayotganligi, suv xo'jaligi tuzilmalari va suvdan foydalanuvchilar uyushmalarining sust ishlashi keyingi yillarda melioratsiya ishlari hajmlarining kamayishiga, yer osti sizot suvlari satxini ko'tarilishiga va minerallasuvini oshib ketishiga olib keldi [1].

Buning oqibatida hozirgi kunga kelib sug'oriladigan erlarning 87 foizdan ortiqrog'i turli darajada sho'rlangan maydonlarni tashkil qiladi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yanada barqaror rivojlantirish, erlarning meliorativ holatini yaxshilash, ularning unumdorligini oshirish va shu asosda qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini ko'paytirish, shuningdek melioratsiya ishlarini tashkil qilish va moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida hukumatimizning bir qator qaror va farmonlar qabul qilindi.

Sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilashning 2021-2026 yillar davrida qishloq xo'jaligini rivojlantirishning quyidagilarni nazarda tutuvchi eng muhim ustuvor vazifalari etib belgilandi. Jumladan melioratsiya ishlarining buyurtmachilari va ijrochilari o'rtasida vazifalarni qat'iy taqsimlash hamda ularning javobgarligini oshirish asosida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash dasturlarini shakllantirish va amalga oshirishga yondoshuvlarni tubdan o'zgartirish. Magistral (viloyatlararo), tumanlararo va xo'jaliklararo meliorativ ob'ektlarda amalga oshirilayotgan rekonstruksiya qilish, qurish va ta'mirlash-tiklash ishlari ustidan texnik nazorat olib borish. Bajarilgan ishlar hajmini nazorat tartibida muntazam asosda o'lchash, shuningdek meliorativ ishlarni amalga oshirish uchun ajratilgan mablag'laridan maqsadli foydalanilishini hujjatlar asosida tekshirish va taftishlar o'tkazish huquqi Sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan. Bundan tashqari yuqoridagi qaror va farmoyishlarga asosan viloyatda 4 ta suv xujalikka ixtisoslashtirilgan davlat unitar korxonalari tashkil qilindi. Bular "Buxorodavsuvmaxsuspudrat", "Romitandavsuvmaxsuspudrat", "Qorako'l dav suv

maxsus pudrat” hamda “Shofirkondavsuvmaxsus pudrat” davlat unitar korxonalaridir. Davlat unitar korxonalarining tashkil qilinganligining, afzalligi zamonaviy texnika va tajribali xodimlar bilan ta'minlanganligi sababli e'tiborga olsak bajariladigan meliorativ ishlarning sifatli bo'lishidadir [2].

Bu borada asosiy qilinadigan ishlar, erlarning meliorativ holatini nazorat qilish asosan er osti sizot va bosimli suvlarning sathini o'lchab borishdan, ularning mineral tarkibini aniqlashdan, sug'orishda foydalaniladigan oqava suvlarining sifatini tekshirish hamda sug'oriladigan yerlardan chiqib ketayotgan sizot suvlarining sho'rlik darajasini aniqlashdan, shuningdek yerlarning sho'rlanish darajasini belgilash, sho'r yuvish samaradorligini aniqlash kabi ishlar asosida tuzilgan bo'lib, shularni bajarilish sifatiga uzviy bog'liqdir. Bulardan tashqari viloyat sug'oriladigan er maydonlaridagi barcha suv iste'molchilar uyushmasi hisobida turgan ichki, xo'jaliklararo va sug'oriladigan maydonlardan tashqaridagi katta suv tashlamalarining ishlash qobiliyatlarini nazorat kilib, ularni texnik holatini yaxshilash borasida tadbirlar ishlab chiqib, ularni amalga oshirib borishni taqazo etadi.

Viloyatdagi mavjud tik drenaj quduqlarining ishlash rejimini ishlab chiqib o'zgartirishlar kiritiladi va ularni yil davomida ana shu rejim asosida ishlashni nazorat kilib borish bilan tik drenaj quduqlardan kerakli hollarda suv namunalari olib kimyoviy laboratoriyada taxlil qilib boriladi hamda viloyatdagi tik drenaj quduqlarning texnik xolatini nazorat qilib boriladi [3].

SHuningdek vegetatsiya davriga borib shu davrdagi er osti sizot suvlarining joylashuv chuqurliklarining o'rtacha qiymati bo'yicha xarita tuziladi va bu meliorativ kadastr tuzishda asosiy rol o'ynaydi. Bulardan tashqari asosiy katta suv tashlamalari, viloyatda mavjud xo'jaliklararo zovurdrenaj tarmoqlarida tizimli ta'mirlash va tiklash ishlari “Shimoliy”, “Markaziy-Buxoro”, “Dengizko'l”, “Parsanko'l” va “Toshquduq (GD)” meliorativ tizimlar bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

1-rasm.



1-rasm. Shimoliy magistral kollektori

Meliorativ tizim bo‘linmalari, sug‘oriladigan erlarning meliorativ holati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni, zovurlarni texnik holati va ularni tozalash ishlarini rejalashtirish, tik drenaj kuduklarini ishini nazorat qilish hamda ularni ishlash grafik rejasini tuzish bilan bog‘lik bo‘lgan ma‘lumotlarni yig‘ish bilan bir qatorda ularni umumlashtirib boriladi [4].

Adabiyotlar

1. Xayitov Yozil Kosimovich, Toshbekov Nurbek Axmadovich, Jumaeva Tozagul A‘zamovna. The Formation of Water Collector-Resources Drainage Network of Zarafshan Oasis and the Questions of Recycling. TEST Engineering & Management, 27380 – 27385.
2. Khayitov Yozil Qosimovich, Toshbekov Nurbek Ahmadovich, Zhumaeva Tozagul A‘zamovna. Efficient use of water resources of the amu-bukhara canal. akademik. An International multidisciplinary Research Journal 5, 30.
3. Khayitov Yozil Qosimovich, Toshbekov Nurbek Ahmadovich, Zhumaeva Tozagul A‘zamovna. Criteria and scales of the secondary use of collector-drainage waters (on the example of the Bukhara oasis). Bulletin of the Karakalpak branch of the Academy of Sciences of the Republic.
4. Khayitov Yozil Qosimovich, Toshbekov Nurbek Ahmadovich. On some hypotheses of return water. The Way of Science, 39.

70530101 – Kimyo (fan yo'nalishlar bo'yicha)

GOSSIPOL SMOLASI ASOSIDA BITUMNI MODIFIKATSIYALASH

Ravshanov Q.A

BuxDU, "Umumiy va noorganik kimyo" kafedrasida dotsenti.k.f.n

M.I Raxmonov,

BuxDU "Umumiy va noorganik kimyo" kafedrasida magistranti

Annotatsiya: Ushbu ishida quyidagi kimyoviy tarkibga ega bo'lgan bitumdan foydalanildi. Bitumli polimer kompozitsiyalar olishda Buxoro neftni qayta ishlash zavodida chiqadigan quyidagi bitum markalaridan foydalanildi :BND60/90,BND40/60,BND70/30, BND90/10 .

Kalit so'zlar: Bitum, polimer, kompozitsiya, yumshash harorati, chaqnash harorati, eruvchanlik.

Ushbu bitum markalarining solishtirma xossalari 1- jadvalda keltirilgan. Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki biz tomonidan qo'llanilgan mahalliy bitumlarning barcha xarakteristikalarini unga qo'yiladigan talablarga to'liq javob beradi.

1-Jadval

Bitumlarning solishtirma xarakteristikalarini

Ko'rsatkich turlari	GOST 11952-66 bo'yicha me'yori				Nazorat ko'rsatkich natijalari			
	B	B	B	B	B	B		
	ND 60/90	ND 40/60	N- 70/30 (BNI	N- 90/10 (BNI	ND 60/90	ND 40/60	N- 70/	N- 90/ 10(

Iqtidorli talabalar, magistrantlar, tayanch doktorantlar va doktorantlarning ilmiy maqolalar to'plami – 2022


			IV)	V)				0(B NI IV)	BNI V)
ignanin g botish chuqurligi: 25 ⁰ S da 0 ⁰ S da GOST 11501-65	1 0 0 0	6 9 0 2 3	4 6 0 1	3 7 0 2	1 9 5 3	7 2 6	5 1	0 0	0
Yumsh ash harorati, ⁰ ⁰ S da GOST 11505-66	8	4 2	5 7	4 5	4 0	5 4	5 8		6,5
Fraasu bo'yicha mo'rtlik harorati, ⁰ S da GOST 11507-67	15	- 10	- 9	- 7	- 17	- 20	- 11		10

Iqtidorli talabalar, magistrantlar, tayanch doktorantlar va doktorantlarning ilmiy maqolalar to'plami – 2022

25 ⁰ S da cho'ziluvchan lik, mm GOST 11505-65	0	5 0	4 8	6 2	7 4	5 8	4 0		3
Marmar bilan va barxan qumlari bilan bog'lanish mustahkamligi GOST 11508-65	Bog'lanadi					Bog'lanadi			
160 ⁰ S 5 soat davomida qizdirilganda gi ignaning botish chuqurligi, boshlang'ich qiymatiga nisbatan % da GOST 11501-65	80		8 0	6 0	7 0	2	3	4	2

Suvda eruvchi komponentlar ning miqdori, % da	0,3	0,3	0,2	0,2	0,25	0,25	0,18	0,18
GOST 11508-65								
Chaqna sh harorati, °S	200	200	200	200	60	70	65	72
GOST 4333-70								

Tajribaning keyingi bosqichi neft bitumining gossipoll smolasi bilan modifikatsiyalash hisoblanadi. Bizga ma'lumki gossipoll smolasining asosini struktura tuzulishiga ega bo'lgan simmetrik almashingan 2,2dm(naftol-1)hosilasi hisoblanib gossipollni tashkil qiladi .Bunda fenol aromatik birikmalarning fenol gidroksil guruhlari va karbonil guruhi orto holatga joylashgan bo'ladi. Gossipol kimyoviy faol hisoblanib kislotali xossani namoyon qiladi,shu sababli ham fenolli va ham aldegidli birikmalar bilan ta'sirlashish xossasi mavjud.



Gossipoll-limon rangdagi kristalik modda bo'lib ko'p organik erituvchilarda eriydi,u gidrofob modda hisoblanadi. Gossipol metil,etil,furfurol,izopropil va butil spirtlarida, kerosinda, uayt spirtida, dietilenglikolda, dioksanda, asetonda,

dietilefirida, etilasetatda, xloroforma, fenol va piridinda yaxshi eriydi, qizdirilganda o'simlik moyida eriydi. Gossipol tarkibida fenol guruhleri bo'lganligi sababli uning suvli-ishqorli eritmalarida eruvchanligini xarakterlaydi. Umuman olganda, gossipol yuqori reaksiya qobiliyatga ega bo'lgan, faol funksional guruhlar saqlagan modda hisoblanadi.

Gossipol murakkab polifunksional birikma bo'lganligi sababli ko'pgina moddalar bilan ta'sirlashib oddiy va murakkab efirlar, aromatik va alifatik amin hosillari, gossifosfotidlar, angidridlar va boshqa turdagi moddalarni hosil qiladi.[1-2]

Izlanish natijalariga asosan gossipol smolasi tarkibi quyidagi ko'rsatkichlar bilan xarakterlanadi: 97.3% organik moddalar, 2.7% noorganik moddalar, 100% efirda eruvchi moddalar, kislotalik soni 65.3mg KOH/g; efir soni 91%; yog` kislotaligi 64 % efirlashda ajralib chiqadigan; 36% yog`ga mansub bo'lmagan moddalar; 0.2% P(P₂O₅ ga nisbatan); 8.5% Ca gossipol smolasi Ca li tuzlari tarkibida bo'ladi.[3]

Biz o'z tajribalarimizda Kogon yog`ni qayta ishlash kombinati gossipol smolasidan foydalandik. O'z tajribalarimizda qo'llanilgan gossipol smolasi 52% dan 64% gacha sintetik yog` kislotalari va uning hosilalari, qolgan qismi esa gossipol smolasining kondensatlanish va polimerlanishidan hosil bo'lgan moddalar hisoblanadi, eng asosan soapstokdan yog` kislotalarining distillyatsiya jarayonidan hosil bo'lgan moddalardir. Gossipol smolasi tarkibida 12% gacha azot saqlagan birikmalar, 36% gacha gossipolning funksional guruhi ta'sirlashuv guruhi va 52% gacha yog` va oksiy moy kislotalardan iborat bo'lganligi tajribalarimizda o'z tasdig`ini topdi.

Shuni qayd etish lozimki, neft bitumi va gossipol smolasi asosida tayyorlanadigan bitumli polimer kompozitsiya aralashtiriladigan komponentlarning gomogenligini ta'minlash maqsadida ularni aralashtirish yuqori temperaturada olib boriladi. Shu sababli biz tajribamizda temperaturaning gossipol smolasi xossalari ta'sirini o'rgandik. Termik qayta ishlash natijasida gossipol

smolasi turli fraksion tarkiblarga ega bo'lishi va ushbu fraksiyalarning fizik-kimyoviy xossalari aniqlandi. Gossipol smolasining fraksiyalarga bo'linishi har bir fraksiyaning qaynash temperaturasining boshlang'ich va oxirgi nuqtalari olindi. Shuni aytish lozimki, har bir fraksiyani haydab bo'lgandan so'ng temperaturaning o'rtacha 10-15 °C da bir-biridan farq qilishi aniqlandi. Olingan tajriba natijalari 3.2 jadvalda keltirilgan. Olingan tajriba natijalaridan ko'rinib turibdiki, 4 bosqichli gossipol smolasining fraksiyalarga ajralishi temperaturaning 100°C dan boshlab 250°C gacha termik qayta ishlash natijasida uning muhiti 6.4 dan 6.1 gacha pasayadi. Gossipol smolasining 240-260°C da termik qayta ishlash natijasida qora rangdagi yengil maydalanadigan poroshok holidagi modda hosil bo'ladi. Ushbu qoldiq modda asetonda yaxshi eriydi, suvda ,qutbli va qutbsiz organik erituvchilarda erimaydi.

Adabiyotlar

1. Parpiyev N.A., Yusupov V.G, Toshev M.T, «Koordinatsion birikmalar kimyosi». Toshkent: Universitet, 1996y. 464 bet.

2. Parpiyev N.A., Raximov .R., Muftaxov A.G. Anorganik kimyo (nazariy asoslari).-Toshkent, "O'zbekiston", 2000y. 479 b.

3. S.M. Turobjonov, D. Yusupov, M.A. Tursunov, A. Ikromov, A.S. Mustafayev, K. Sh. Hamroyev Yangi korroziya ingibitorlarni yaratish, xossalarini tadqiq qilish, tajriba-sanoat ishlab chiqarilishini o'zlashtirish. O'zbekiston kimyo jurnali 4/2009y

ARALASH TOLALI MATOLARGA GUL BOSISHDA POLIMER KOMPOZITSİYALAR QO'LLANILISHINING AMALIY ASPEKTLARI

Q.A. Ravshanov,

BuxDU, Umumiy va noorganik kimyo kafedrasida dotsenti k.f.n

X.X. O'rinov

BuxDU, Kimyo (fan yo'nalishlari bo'yicha) mutaxassisligi magistranti


Annotatsiya: To'qimachilik va yengil sanoatning jadal sur'atlarda

rivojlanishi mavjud texnologik jarayonlarni mukammallashtirish, yuqori ekspluatatsion xossalarga ega bo'lgan va raqobatbardosh polimer materiallarni modifikatsiyalash yoki yangilarini yaratishni taqazo etmoqda.

Kalit so'zlar: Polimer kompozitsiya, aralash tolali mato, bo'yoq, quyushtiruvchi, ludigol, mochevina, natriy karbonat, qovushqoqlik, tiksotrop tiklanish.

Mazkur sohada istiqbolli yo'nalishlardan biri paxta tolali matolarga gul bosishda quyushtiruvchilar sifatida qo'llaniladigan tabiiy va suvda eruvchan sintetik polimerlar asosidagi polifunksional samarali polimer ingrediylar yaratish hisoblanadi. Bunday polimer struktura hosil bo'lish jarayonlarini boshqarish va bir qator spetsifik xossalar berish hamda paxta tolali matolarning sifatini yaxshilash va ularga ishlov berishda texnologik jarayonlarini nazorat qilishga imkon beradi.[1-2]

Shunga binoan, faol bo'yoqlar yordamida paxta tolali matolarga gul bosishda fosfatli birikmalar bilan modifikatsiyalangan kraxmal asosidagi quyushtiruvchi ingrediylar olishning yuqori samarali texnologiyalarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biridir.



1-dastlabki kraxmal,

2-modifikator ishtirokida

Demak, siljish tezligining ta'siri molekulyar to'ring yemrilishi, erkin makromolekulalar-ning oriyentasiyasi va yangi ustmo-lekulyar hosilalarning paydo bo'li-shini keltirib chiqaradi. Mazkur ishda kimyoviy ishlangan kraxmal eritmalarining reologik

xossala-riga haroratning ta'siri ham o'rganildi. [3-4]

1-jadval

Quyushtiruvchi tabiati va uni modifikasiyalash usulining ostazin qizil 3B-ASH bilan matolarga gul bosish texnik natijalariga ta'siri

Quyushtiruvchi ning nomi	Modifikasi yalash usuli	Quyushtiruvchi konsentrasiyasi, g/l	Rangning intensivligi, K/S	Rangning barqarorligi, ball			Faol bo'yoqning singish darajasi, %
				Yuvisha	Terga	Quruq ishqalanishga	
kraxmal	Modifikasi yalanmagan	80	1 6,2	4 /4/4	4 /4/4	5	68,0
Modifikasiya langan kraxmal, PAA va K-4	Modifikasi yalangan	40	2 2,8	5 /5/5	5 /4/5	5	92,0

Haroratning ko'rsatilgan chegaralarida o'zgarishi ishlov berilgan eritmalarning reologik xossalariga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi, chunki bunda bir-birini kompensasiyalaydigan turli ef-fektlar sodir bo'ladi: harorat ko'ta-rilganda bir tomondan makromole-kulalarning harakati tezlashsa, ikkinchi tomondan vodorod bog'lar bo'yashadi.

Kimyoviy modifikasiyalangan kraxmal asosidagi quyushtiruvchilar faol bo'yoqlar bilan matolarga gul bosishda sinovdan o'tkazildi.

1-jadvaldan ko'rinadiki, an'naviy quyushtiruvchilar kimyoviy modifikatsiyalangan kraxmal bilan almashtirilganda bo'yoqning singish darajasi ko'payadi, rang intensivligi ortadi, gul bosilgan matolarning qattiqligi kamayadi va to'qimachilik matolarning rang mustahkamligi yaxshilanadi.

Bundan tashqari quyushtirish qobiliyatining ortishi evaziga quyushtiruvchining sarfi 2 marta kamayadi va bo'yoqning miqdori kamroq yuvilib ketadi.

Modifikatsiyalangan kraxmalning bosma-texnik xossalari o'rganildi va uning natijalari quyidagi jadvalda keltirildi.

2-jadval

Gul bosilgan paxta tolali matolarning texnik xossalari. Oksidlangan kraxmal konsentratsiyasi – 6%, PAA konsentratsiyasi – 1%, K-4-1,5%

Bo'yoq	Bo'yoqning singish darajasi, %			Rang intensivligi, K/S		
	Oksidlangan kraxmal, PAA va K-4	Oksidlangan kraxmal	Tabiiy kraxmal	gan kraxmal PAA	gan kraxmal, K-4	PAA, K-4
Kub och-yashil JP	8 9,3	8 5,6	7 6,1	1 3,32	1 2,24	1,36
Prosiyon och-zarg'aldoq G	8 1,6	7 8,2	7 3,6	9 ,34	8 ,16	,34
Sibakron och-qizil R	9 2,2	9 1,64	9 0,2	1 5,25	1 4,90	1,94
Remazol och-qizil R	9 7,7	9 6,3	9 1,1	1 3,07	1 1,26	,87

2- jadval natijalari shuni ko'rsatadiki, paxta tolali matolarga kub va faol

bo'yoqlar bilan gul bosishda oksidlangan kraxmal, PAA va K-4 asosidagi kompozitsiyaning rang intensivligi va bo'yoqning singish darajasini sezilarli oshirishga imkon yaratadi. Quyuqlashtiruvchilarni tayyorlash jarayonida kompozitsiyaning sarfi tabiiy kraxmalga nisbatan 33% ga kamayadi.

Ishlab chiqarish sharoitida o'tkazilgan sinovlar laboratoriya tajribalarining natijalarini tasdiqlab berdi. Kompozitsiyaning qo'llanilishi bu preparat sarfini 20-25% kamaytirishga, quyuqlashti-ruvchini tayyorlash texnologiyasini soddalashtirishga hamda ranglarning intensivligini oshirishga imkon beradi.

Kompozitsiyaning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu quyuqlashtiruvchilarning makrobiologik destruksiyaga sezgirligidir, shu sababli qo'llanilayotgan qurilmalarning tozaligiga katta e'tibor qaratish, antiseptiklardan foydalanish kerak.

Adabiyotlar

1. Sultonov Sh.A.. To'qimachilik sanoati uchun sifatli quyuqlashtiruvchi polimer-kompozitsion materiallar tayyorlash. Xalqaro konferensiya. Polimerli kompozitsiyalar fizikasi va kimyosi hamda konstruksion materiallar texnologiyasini dolzarb muammolari. (2017-yil 12-13-iyul) I қисм. – NamDU. Б.109 - 111.

2. Султонов Ш.А., Амонов М.Р.. Разработка эффективного состава полимерных композиционных загустителей // Журнал “Композиционные материалы”, №2. 2018., С.9-15.

3. Sultonov Sh.A., Amonov M.R.. The study of the rheological properties of the thickening polymer compositions and ink-base printing. Austrian Journal of Technical and Natural Sciences Austria. «East West» Association for Advanced Studies and Higher Education GmbH. 2018. №9-10. P.92-98.

4. Султонов Ш.А., Амонов М.Р.. Исследование физико-механических свойств полимерных загустителей и пленок из них // “Композиционные материалы”, №3. 2019., С.56-63.

QUYUQLASHTIRUVCHI OLIHDA SUVDA ERUVCHI POLIMERLARNING KONSENTRATSIYANING TA'SIRI

O.U' Nurova,

BuxDU, Umumiy va noorganik kimyo

kafedrasida dotsenti t.f.n.

SH.B' Ostonova,

BuxDU, Kimyo (fan yo'nalishlari bo'yicha)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Hozirgi kunda matolarga gul bosish jarayonida qo'llaniladigan bo'yoqlarni tayyorlashning an'anaviy texnologiyasi alginatlar asosidagi qimmatbaho chet el quyuqlashtiruv-chilaridan foydalanishni taqozo etadi, bu esa chiqariladigan mahsulotlarning tannarxiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi hamda O'zbekiston Respublikasidagi to'qimachilik korxonalarining bir maromda ishlashiga to'sqinlik qiladi.

Kalit so'zlar: Polimer kompozitsiya, paxta, nitron tolasi, mato, bo'yoq, quyuqlashtiruvchi, ludigol, tiksotrop tiklanish.

Faol bo'yoqlar bilan gul bosishda quyuqlashtiruvchi sifatida oddiy kraxmaldan foydalanib bo'lmaydi, chunki bo'yoq bir vaqtning o'zida tola bilan ham, kraxmal bilan ham ta'sirlashishi mumkin. Natijada uning qattiqligi keskin oshadi va bo'yoqning sarfi ko'payadi, shu sababli quyuqlashtiruvchilar sifatida faqat uning modifikatsiyalangan shakllaridan foydalanish kerak.

Quyuqlashtiruvchi sifatida PAA, K-4 birikmalar bilan modifikatsiyalangan kraxmal asosidagi taklif etilgan texnologiyalar alginat, manuteks va boshqa ingredientlar kabi an'anaviy quyuqlashtiruvchilarni, ularga qo'yiladigan yuqori talablarni saqlagan holda, to'liq almashtirishga imkon beradi

Barqaror loyqalanishning hosil bo'lishi ishlov berilgan suspenziyaning suvli fazasi kolloid zarrachalar saqlanishidan dalolat beradi. Kimyoviy modifikatsiya natijasida kleysterlarning reologik xossalarida ham o'zgarishlar kuzatiladi. [1-3]

Kimyoviy ishlov berishda posteffekt hodisasining ahamiyatini aniqlash maqsadida pishirib olinadigan kleysterlarning qovushqoqligiga pishirish vaqtining ta'siri o'rganildi. Xona haroratida suspenziyalar tinch saqlanganda kleysterlarning quyulashish effekti orta boshlaydi.

Kraxmalni modifikator bilan geterogen modifikatsiyalash misolida kraxmalning reaksiya qobiliyatiga PAA va K-4 konsentratsiyasining ta'siri o'rganildi. Agar mochevinasiz OK (oksidlangan kraxmal) suspenziya uchun modifi-katorning sarfi 20 minutda 8,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, mochevina bilan bu ko'rsatkich 14,3% ga teng bo'ldi. Ko'rinadiki, mochevinali kraxmal suspenziyasini modifikatsiyalash reaksiyasining tezligi mochevinasiz OK modifikatsiyalash reaksiya tezligidan yuqori. [4-5]

1-jadval

Kompozitsiya orqali olingan suspenziyalarning xossalariga kimyoviy ishlov berish vaqtining ta'siri

Konsentratsiya, %	Modifikatsiyalash vaqti, min	Suspenziya				Kraxmal kleysterlarining reologiyasi	
		Kleysterlanish harorati, °S	Kolloidli fraksiya, D ₄₀₀	H	eruvchan fraksiya, %	η_{\max} , Pa·s	τ_T , Pa·s 10 ⁻¹
Ishlov berilmagan	85	0	0,74	1	5,6	740	

Iqtidorli talabalar, magistrantlar, tayanch doktorantlar va doktorantlarning ilmiy maqolalar to'plami – 2022

	namuna						
	10	85	0		2		1230
		-89	,321	,61	6,2	1,4	
	20	83	0		3		1370
		-87	,596	,42	7,3	4,8	
	30	80	0		5		1460
		-85	,676	,24	6,6	8,5	
	60	80	0		6		1690
		-82	,789	,16	6,8	4,5	
	10	85	0		3		1410
		-89	,471	,60	1,4	6,7	
	20	82	0		3		1530
		-86	,626	,38	9,7	1,2	
	30	80	0		6		1620
		-85	,714	,18	1,8	7,4	
	60	80	0		7		1740
		-82	,821	,11	3,4	1,5	

Quyushtiruvchi sifatida PAA, K-4 birikmalar bilan modifikasiyalangan kraxmal asosidagi taklif etilgan texnologiyalar alginat, manuteks va boshqa ingredientlar kabi an'anaviy quyushtiruvchilarni, ularga qo'yiladigan yuqori talablarni saqlagan holda, to'liq almashtirishga imkon beradi

Barqaror loyqalanishning hosil bo'lishi ishlov berilgan suspenziyaning suvli fazasi kolloid zarrachalar saqlanishidan dalolat beradi. Kimyoviy modifikasiya natijasida kleysterlarning reologik xossalarida ham o'zgarishlar kuzatiladi.

Kimyoviy ishlov berishda posteffekt hodisasining ahamiyatini aniqlash maqsadida pishirib olinadigan kleysterlarning qovushqoqligiga pishirish vaqtining ta'siri o'rganildi. Xona haroratida suspenziyalar tinch saqlanganda kleysterlarning quyushtiruvish effekti orta boshlaydi.

Kraxmalni modifikator bilan geterogen modifikasiyalash misolida kraxmalning reaksiya qobiliyatiga PAA va K-4 konsentratsiyasining ta'siri o'rganildi. Agar mochevinasiz OK (oksidlangan kraxmal) suspenziya uchun modifikatorning sarfi 20 minutda 8,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, mochevina bilan bu ko'rsatkich 14,3% ga teng bo'ldi. Ko'rinadiki, mochevinali kraxmal suspenziyasini modifikasiyalash reaksiyasining tezligi mochevinasiz OK modifikasiyalash reaksiya tezligidan yuqori.

Shunday qilib, kraxmal suspenziyasining kimyoviy aktivlanishi ishqoriy muhitda olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki hosil bo'ladigan quyushtiruvchi reologiya bo'yicha barcha talablarga javob beradi, gidroksil guruhlarining konsentratsiyasi yuqori va faol bo'yoqlar bilan bog'lanish darajasi nisbatan kichik bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Султонов Ш.А., Амонов М.Р., Сайимова Д.Қ.. Изучение реакции омыления акриловой эмульсии // Узбекский химический журнал, №5. 2017., С.13-19.
2. Султонов Ш.А., Амонов М.Р.. Разработка эффективного состава полимерных композиционных загустителей // Журнал "Композиционные материалы", №2. 2018., С.9-15.
3. Sultonov Sh.A., Amonov M.R.. The study of the rheological properties of the thickening polymer compositions and ink-base printing. Austrian Journal of Technical and Natural Sciences Austria. «East West» Association for Advanced Studies and Higher Education GmbH. 2018. №9-10. P.92-98.
4. Султонов Ш.А., Амонов М.Р.. Исследование физико-механических свойств полимерных загустителей и пленок из них // "Композиционные материалы", №3. 2019., С.56-63.
5. Султонов Ш.А., Амонов М.Р.. Оценка эффективности применения полимерных вязких систем при печатании текстильных материалов

активными красителями // Universum: химия и биология (электронный научный журнал). №4. 2019., С.34-39.

KARBOMID NITRATINING SINTEZI VA XARAKTERISTIKASI VA NITROKARBAMID

A. G. Turdiyeva


BuxDU, (Kimyo yo`nalishi) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Annotatsiya: Karbamidnitrati (mochevinanitrat) yuk portlovchi modda sifatida qo'llanilmagan, lekin kuch qo'l bola portlovchi sifatida quvvat. mochevinanitrat ning suvsizlanish mahsulotini rokarbamid (Nitrokarbamid) olib boradi. Vizual ravshan mochevinanitrat va Nitrokarbamid ikkalasi ham eriydigan oq rangli qattiq ushlab turadi 1608 C atrofida. Boshqa darajada katta farq qiladi

Kalitso'zlar: Karbamidnitrat, nitrokarbamid xarakteristikasi, Mass-spektrometriya, Infraqizil spektrometriya, Raman spektroskopiyasi, differensial skanerlash kalorimetri, termik gravimetrik tahlil, yadromagnit rezonansi, eruvchanlik, erish nuqtasi, termik parchalanish, Sintez.

Ammiakliselitra (AN) tuzlarini suvsizlantirish natijasida nitra konini hosil qiladi. Nitramin [Tenglama (1)] nitroguanidin [Tenglama (2)] va nitro karbamid [Tenglama (3)] bilan solishtirganda nisbatan beqaror. Nitrokarbamid sintezidagi qiyinchilik (Nitrokarbamid, Karbamidnitratidan CAS 556-89-8 (mochevinanitrat, CAS 124-47-0) mahsulotning tegishli isbotini taqdim etadi. Nitromochevina va mochevinanitrat tuzilmalari +30, 8C dan past harorat; keyin ustiga quyiladi nitromochevina mahsuloti solishtiriladi va mochevina nitratning parchalanish mexanizmi taklif etiladi. muz (taxminan 10 g). Oqcho`kma (nitromochevina) to'plangan 1-rasmda ko'rsatilgan. nitromochevinaham, mochevinanitrat ham oq rangli qattiq moddadir. Adabiyotda mavjud bo'lgan bir nechta jismoniy xususiyatlarga ega. mochevina nitratning adabiyot erish nuqtasi va parchalanish harorat nitromochevina deyarli bir xil, 158–160 8C (mochevinanitrat) va 158 8C dek. (Nitrokarbamid) [1]. Bu erda biz nitromochevinaning keng fizik tavsifi haqida

xabar beramiz va uni mochevinanitrat bilan taqqoslaymiz . Bundan tashqari, nitromochevina mahsulotiga ikkita hisobot yo'nalishi taqqoslanadi va mochevinanitratning parchalanish mexanizmi taklif qilindi



Sintez


Nitromochevina ikki xil usul yordamida sintez qilingan, ikkalasi ham mochevinanitratning suvsizlanishiga asoslangan. Reaksiyalar rejalashtirilgan edi. taxminan 1 g nitromochevina qilish uchun. Mochevinanitratning boshlang'ich moddasi, avvalroq xabar qilinganidek, nitratkislota va karbamid reaksiyasi orqali sintez qilingan.

Natijalar

Infraqizil spektroskopiya

1-rasmda mochevinanitrat va nitromochevinaning IQspektrlari ko'rsatilgan. Sulfat kislota yoki sirka anhidrid yordamida tayyorlangan nitromochevina spektrlarida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmadi. mochevinanitrat ham, nitromochevina ham 1700 sm⁻¹ (CO) atrofida va 1300 sm⁻¹ (NO) ning yuqori va atrofida keng tarmoqli bilan aniq ajralib , turadi . 3400 sm⁻¹ nitromochevina mochevinanitratdan va 2765 sm⁻¹ farq qilinadi. Isroil politsiya laboratoriyasi [5] va Kanada hukumati laboratoriyasi [6] ham mochevina nitrat haqida xabar bergan. Kanada zavodi 3402 sm⁻¹ (NH₂ assimetrik cho'zilishi), 3354 sm⁻¹ (NH bo'g'i), 3198 sm⁻¹ (NH₂ nosimmetrik cho'zilishi), 1704 sm⁻¹ (CO bo'g'i), 1568 sm⁻¹ (NH), 14269 sm⁻¹ va sm⁻¹ diapazonlarni tayinladi. sm⁻¹ (NO₃).

Ular mochevinanitratdagi 2410 sm⁻¹ dagi cho'qqi C=O...HONO₂ qo'shni mochevinanitrat molekularining vodorod bog'lanishidan cho'zilgan OH-simmetrik metric ekanligini taklif qilishdi. Bu bizning mochevina nitrat va nitromochevina uchun IQspektrlarini taqqoslashimizga moskeladi (2-rasm), biz bu diapazonni faqat mochevinanitratda topdik.



1-rasm

Xulosa: Karbamidnitrati (mochevinanitrat) qonuniy portlovchi modda sifatida qo'llanilmagan, lekin odatda qo'lbola portlovchi sifatida ishlatiladi. Mochevinanitratning suvsizlanish mahsuloti nitrokarbamid (nitromochevina) hisoblanadi

Vizua iravishda mochevinanitrat va nitromochevina ikkalasi ham eriydigan oq rangli qattiq moddalardir. 1608C atrofida. Boshqa xususiyatlar sezilarli darajada farq qiladi.noorganik tuz (mochevinanitrat) va organikdan kutilishi mumkin. Molekulyar birikma (nitromochevina). Nitromochevina va mochevinanitratning keng qamrovli jismoniy tavsifi haqida xabar berilgan. Ikkita marshrut haqida xabar berilgan. Nitromochevina mahsuloti solishtiriladi va mochevinanitratning parchalanish mexanizmi taklif etiladi.

Adabiyotlar

[1] A. W. Ingersoll, B. F. Armendt, Nitrourea, Org. Synth. 1925, 5, J. C. Oxley, J. L. Smith, S. Vadlamannati, A. C. Brown, G. Zhang, D. S. Swanson,

[2] J. C. Oxley, J. L. Smith, S. Naik, J. S. Moran, Decompositions of Urea and Guanidine Nitrates, J. Energ. Mater. 2009, 27, 17 – 39.

[3] C. P. Spaeth, N. J. Woodbury, Preparation of Nitrourea. US Patent 2,279,765, E. I. du Pont de Nemours & Company, Wilmington DL, USA, 1943.

[4] L. F. Whiting, M. S. Labean, S. S. Eadie, Evaluation of a Capillary Tube Sample Container for Differential Scanning Calorimetry, *Thermochim. Acta* 1988, 136, 231–245.

[5] J. Almog, G. Burda, Y. Shloosh, S. Abramovich-Bar, E. Wolf, T. Tamiri, Recovery and Detection of Urea Nitrate in Traces, *J. Forensic Sci.* 2007, 52, 1284–1290.

[6] S. Desilets, P. Brousseau, D. Chamberland, S. Singh, H. Feng, R. Turcotte, J. Anderson, Degradation Mechanism and the Thermal Stability of Urea Nitrate Below the Melting Point, *Thermochim. Acta* 2011, 521, 176–183.

MACLURA POMIFERA O‘SIMLIGI MEVASINING KIMYOVIY TARKIBI VA BIOLOGIK FAOLLIGI

M.Y.Ergashov,

BuxDU Organik va fizkolloid kimyo

kafedrasi professori

A.T.Jo‘rayev,

BuxDU Organik va fizkolloid kimyo

kafedrasi magistranti

Annotatsiya: Maqolada dunyo miqyosida ayniqsa respublikamizning turli hududlarida manzarali daraxt sifatida o‘stiriladigan maclura o‘simligi ustida yetarlicha tadqiqotlar olib borilmaganligi, xalq tabobatida maclura mevasining spirtli aralashmasi onkologik va yurak-qon tomir kasalliklari, yog‘li aralashmasi esa artrit, proktit, prostatit, teri va gemorragik kasalliklarni davolashda keng qo‘llanilib kelinganligi maclura mevasida flavanoidlar va boshqa turli xildagi biologik faol moddalar mavjudligi xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: xalq tabobati, maclura pomifera, vitamin, sog‘lom turmush tarzi, shifobaxsh o‘simliklar, tokoferol, flavonoid, izoflavon, osayin, pomiferin, preparat.

Sharqda, xususan O'rta Osiyo xalq tabobatida dorivor o'simliklardan foydalanib davolash o'zining qadimiy an'alariga ega. Shifobaxsh o'simliklardan tibbiy maqsadlarda foydalanish borasida Abu Ali Ibn Sinoning „Al-qonun fit tib“ asarida 500 ga yaqin o'simliklarning shifobaxsh xususiyatlari va ularni ishlatish usullari to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi[2, 3].

Bugun tabiiy o'simliklar an'anaviy davolash metodlarining eng faol elementlari sifatida tanilgan. Xalqaro sog'liqni saqlash tashkilotlari bergan ma'lumotlarga qaraganda rivojlanayotgan davlatlardagi 80% odamlar ushbu davolash metodalaridan foydalanadi va 3,3 milliard odamlar ham tabiiy giyohlardan davolovchi vosita sifatida foydalanishadi.

Hozirgi vaqtda dorivor o'simliklarning turi ko'payib, xalq tabobati shifobaxsh o'simliklar bilan boyigan. Jumladan, yurtimizda ko'cha va xiyobonlarda manzarali daraxt sifatida o'stiriladigan Maclura pomiferadir.


Maclura pomifera olimlarni izlantirgan uzun va qiziqarli tarixga ega. Uning daraxti dastlab kulbalar va ot aravaning yog'och g'ildiraklari yasash uchun ishlatilgan. Bu o'simlik Morake o'simligining bir turi hisoblanadi. Yosh nihollarning rangi yashil-kulrang yoki och jiggarangda bo'ladi. Nihollar kesilsa tashqi ko'rinishi sutga o'xshash suyuqlik chiqaradi [2, 3, 4].

Kurtaklari kichkina, yapaloq, sfera shaklli. Uning barglari 5-12 sm tuxum shaklida bo'ladi. Yuqori yuz qismi to'q yashil rangda, quyi qismi ochiq yashil rangda bo'ladi. Asosiy yog'lar o'simliklardan olinadi. Ular xona haroratida suyuqlik va juda sekin bug' holatiga o'tishi mumkin. Muhim xususiyatlaridan biri o'tkir hidli yog'li aralashma.

Maclura pomifera mevalarini yig'ish avgust oyida amalga oshiriladi. Ilmiy laboratoriyada xona haroratida mevalar quritiladi. Qurutilgan va ezilgan Maclura pomifera mevasi tarkibidan tayyorlangan damlama turli kasalliklarni, jumladan: poliartirit, podagra, bo'g'imlardagi to'planib qolgan tuzlarni yo'qotish, radikulit, erkaklarda uchraydigan prostatit kasalliklarini davolash uchun ishlatilib kelinmoqda[2].


Mevasining fitokimyoviy tarkibi ekstraksiya yo'li bilan efir va boshqa har xil erituvchilarda o'rganilganda 1,6 kg xom-ashiyo tarkibidan 93 g (5,8 %) flavonoidlar ajratib olinadi. Ekstraksiya jarayonida 191-193° C haroratda UV-spektroskopiyasi 225, 275, 362 nm signet signallarini beruvchi, empirik formulasi $C_{25}H_{34}O_5$ tarkibli flavonoid - 5-gidroksi-6-(3',3'-dimetilalil)-7,8(2',2'-dimetilxromeno-6', 5')-4'-oksiizoflavon mavjud aniqlangan (M.L. Wolfrom; 1938 y).

Harorat 201°C ga yetganda yana bir pigment, ajratib olingan (1939). Rangi to'q sariq, kristal, suvda erimaydi. Etil efir, xoloroform va alkagollarda yaxshi eriydi. UV- spektrometiyasida 275-362 nm (eng aniq maksimal 275 nm) hududida maksimal ko'rsatkichlarni ko'rsatadi. Kimyoviy va fizikkimyoviy xossalariga asoslanib-5-gidroksi-6-(3',3'dimetilalil)-7.8-(2,2'-dimetilxlormeno-6',5')-3',4'-dioksizoflavon (empirik formulasi - $C_{25}H_{24}O_6$) polimefirin degan xulosaga kelingan:



Pigmentlarni o'rganish kelgusidagi kimyoviy tuzilishini chuqurroq o'rganish hamda ularning hosilalarini sintez qilish, kimyoviy xossalarini tahlil qilish, ishlatilish sohalarining samaradorligini aniqlash uchun yetakchi amaliy vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

O'rganishlar davomida Artamonov va uning shogirlari tomonidan Maclura mevasining spirtli ekstraktidan xromotografiya qilinishi (silikogel va alumeniy oksid ishtirokida) natijasida birinchi marta izoflavon - skandenon ajratib olindi. Bu modda maclura mevasidan tayyorlangan preparat tarkibining asosiy elementi hisoblanadi. Preparat tarkibida izoflavon skandenondan tashqari uning izomeri – aurikulyazin ham mavjud. Preparat og'riq qoldiruvchi va yalig'lanishga qarshi samarali vosita sifatida ishlatiladi.



R= H (Skandenon)
R= OH(II) (Aurikulyazin)

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Maclura ekstrakti, izoflavonlar antioksidant faolligi osayin, pomiferin turli antioksidant, C, E vitaminlari va boshqa vitaminlar bilan solishtirganda sintetik analoglardir.

Osayin, teri ostiga yuborilganda, juda zaif estrogena ega ichaklarga o'tkir antispazmodik ta'sir ko'rsatadi va atsetilxolin metabolizmasida ishtirok etadigan ba'zi fermentlarni faolligini kamaytiradi.

Dunyo miqyosida, ayniqsa respublikamizning turli hududlarida manzarali daraxt sifatida o'stiriladigan makkura o'simligi ustida yetarlicha tadqiqotlar olib borilmagan. Xalq tabobatida makkura mevasining spirtli aralashmasi onkologik va yurak-qon tomir kasalliklari, yog'li aralashmasi esa artrit, proktit, prostatit, teri va gemorragik kasalliklarni davolashda keng qo'llanilib kelingan[4].

Shunday qilib, adabiyotlarga va ilmiy nazariy bilimlarga asoslangan holda, shunday xulosaga kelishimiz mumkinki makkura asosida ishlab chiqarilgan preparatlar farmakologik harakatlarning keng doirasi hisoblanib, kelajakda xalq tabobati hamda dori-darmonlar ishlab chiqarish sohasi yanada rivojlanishi uchun muhim turtki bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. –56 б.
2. Xolmatov H.X., Habibov Z.H. Farmakognoziya [Darslik], T., 1967;
3. Nabiyev M. Shifobaxsh giyohlar, T., 1980; Hojimatov Q., Olloyorov M., O'zbekistonning shifobaxsh usimliklari va ularni muhofaza qilish, T., 1988;
4. Xoliqov K., O'zbekiston janubidagi dorivor o'simliklar, T., 1992;

70510101-Biologiya (fan yo'nalishlar bo'yicha)

O'ZBEKISTONDA BALIQCHILIKNI RIVOJLANTIRISH BIOTEKNOLOGIYALARI

M.S.Xodjiyeva

BuxDU, Biologiya mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Baliq insoniyat uchun juda muhim ahamiyat kasb etuvchi muhim jonivorlar sirasiga kiradi. Baliq nafaqat organizm uchun qimmatbaho moddalar majmui, balki butun dunyo iqtisodiyotining asosiy aspektidan biri hisoblanadi. Ushbu jonivor inson organizmini protein, mikroelementlar, vitaminlar hamda boshqa ozuqa moddalar bilan ta'minlaydi. Jahondagi yetakchi mamlakatlarning eng asosiy iqtisodiy manbalaridan biri baliq bo'lib hisoblanadi.

Kalit so'zlar: protein, mikroelementlar, makroelementlar, umurtqali hayvonlar, aminokislota, ozuqaviy qiymat, oziqlanish ratsioni, baliq yog'i, ixtulin, yuksak suvo'ti, tuban suvo'ti.

Yillar davomida ko'plab rivojlangan mamlakatlar o'z iqtisodiyotini baliq turlarini ovlash, ularni eksport qilish va aholini arzon oqsil moddasi bilan ta'minlash orqali rivojlantirib kelgan. Bu qimmatbaho mahsulot inson organizmini turli xil moddalar bilan ta'minlash, ozuqaviy funksiyalari, savdo-sotiqning asosiy mahsuloti bo'lishdan tashqari ko'plab mamlakatlardagi insonlarni baliqchilik, eksport – import ishlarida qatnashish, mahsulotni yetkazib berish qadoqlash va h.k, bir necha turdagi ish bilan ta'minlanishida muhim ahamiyat kasb etib kelayapti. Inson salomatligini baliq va baliq mahsulotisiz tasavvur qilish juda qiyin. Inson sog'ligini saqlash tashkilotining umumiy xulosasiga ko'ra inson salomatligining 55-60%i turmush tarziga, eng avvalo to'g'ri ovqatlanishga, qolgan 25-30%i ekologik o'zgarishlarga va 8-15% tibbiy xizmatlarga bog'liq ekan. Bu ma'lumotlarning asosida to'laqonli bebaho oziq mahsulotlarini iste'mol qilishdan iborat rivojlangan mamlakatlarda aholining kunlik ratsionida hayvon mahsuloti (parranda, mol go'shti, dengiz mahsulotlari), oqsil va vitaminlarga boy bo'lgan balanslashgan oziq moddalar ustunlik qiladi. [2] [3]

Baliq go'shti va ikراسi tarkibidagi ixtulin oqsili ko'plab aminokislotalar bilan balanslashtirilgan. Baliq go'shtining ozuqaviy qiymati juda yuqori sanaladi, buning sababi esa ushbu mahsulotning inson hazm tizimi tomonidan to'laqonli o'zlashtirilishidadir. Olimlarning izlanishlari natijasida shu ayon bo'lganki, baliq go'shti va ikراسining 97%i oshqozon ichaklarda hazm bo'ladi, bundan farqli o'laroq boshqa hayvonlarning go'shti baliq go'shtiga nisbatan kamroq miqdorda o'zlashtiriladi. Baliq go'shtidagi turli xildagi oqsil va aminokislotalar hazm qilish sistemasini yaxshilaydi. Bularga: albumin, myoglobin, L-ixtulin, metionin, lizin, triptofan kabilar kiradi.[4]

Inson organizmining baliqqa bo'lgan ehtiyojini qondirish bugungi kundagi eng muhim ishlardan biri bo'lib hisoblanadi. Statistika bo'yicha 2010-yillarda rivojlangan mamlakatlar sirasiga kiruvchi Shimoliy Amerikada yiliga kishi boshiga baliq iste'mol qilish 25-45 kgni tashkil etgan, dunyo miqyosida esa har bir aholi soniga 16,6-17kgni tashqil qilgan, afsuski bu ko'rsatkich bizning O'zbekistonimizda yillik kishi boshiga 1,5-2kgni tashkil etgan. O'zbekiston bozorida baliqqa bo'lgan talab hozirgi kunda 300-450 ming tonnani tashkil etmoqda, bir necha yillar mobaynida baliq yetishtirish hajmi juda past bo'lgan. Shularni hisobga olgan holda prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonlaridan bir qancha farmoyishlar chiqarildi. Respublikada intensiv usulda baliq yetishtirishni bosqichma-bosqich yo'lga qo'yish va rag'batlantirish, mavjud suv resurslaridan samarali foydalanish, sohaga innovatsion g'oyalar, ilmiy ishlanmalar, zamonaviy texnologiyalar va ilm-fan yutuqlarini keng ko'lamda joriy qilish, baliqchilik tarmog'ini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida o'ndan ortiq qarorlar chiqarildi. Yildan-yilga ushbu qarorlarning ijrosi ta'minlanib, baliq yetishtirish hajmi bir necha o'n baravarga oshirildi. [1]

Hozirgi kunda respublikamizning ilg'or ixtiolog, gidrobiolog, biotexnolog olimlari o'zlarining ilmlaridan foydalangan holda, bundan tashqari rivojlangan mamlakatlarda ta'lim olib, o'z bilim va malakalarini amalda qo'llashayapti, mazkur olimlarimiz respublikamizning turli hududlarids baliq yetishtirishning

yangicha texnologiyalarini qo'llab kelmoqdalar. Buning samarasi o'laroq baliq yetishtirish hajmi borgan sari oshib bormoqda. Birgina o'zimizning o'quv yurtimizda faoliyat yuritayotgan xodim, biologiya fanlari doktori, professor S.B.Bo'riyevning ishlarini misol qiladigan bo'lsak, ustoz o'zlarining o'nlab shogirdlari bilan birgalikda o'ndan ortiq yuksak va tuban suvo'tlarini yetishtirish biotexnologiyasini ishlab chiqdilar. Baliqchilik xo'jaliklarida yetishtirilayotgan baliqlarning ozuqasiga shu suvo'tlar qo'shib berilganda baliqlarning o'sishi tezlashdi. Yana, o'rtacha 3 yilda 2-2,5kg og'irlikgacha yetishtirilayotgan baliqlarning ozuqasiga ushbu suvo'tlar aralashtirib berilganda uch yoshli baliqlarning og'irligi 3-3,5 kggacha oshganligi kuzatildi. Ushbu ishlar ustoz va u kishining shogirdlari tomonidan butun mamlakatimiz bo'ylab amalga oshirib kelinmoqda va natijada yuzlab baliqchilik xo'jaliklarida bunday yangicha biotexnologik usul o'zining samarasini berib kelayapti. Qo'shimcha tarzda aytadigan bo'lsak ustoz Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevichning shogirdlari baliqni yanada tezroq o'stirish, uning asosiy kushandalaridan biri bo'lgan mikroorganizmlarga qarshi turli xildagi yangidan yangi texnologiyalarni ishlab chiqib, amalda ham sinab ko'rishayapti. Shu va shunga o'xshagan istiqbolli biotexnologik usullarning muvaffaqiyati natijasida yaqin kelajakda respublikamizda baliq va baliq mahsulotlarini yetishtirish hajmi ortishi rejalashtirilgan.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirishga doir PQ -4005-sonli qarori.
2. <https://www.masifundise.org/the-importance-of-fish-to-man-not-just-a-food-source/>
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/povyshenie-effektivnosti-prepodavaniya-biologicheskikh-nauk-v-napravlenii-psihologicheskogo-obrazovaniya>

4. <https://scholar.google.ru/scholar?oi=bibs&cluster=15749143840657569490&btnI=1&hl=ru>

**JANUBIY-G‘ARBIY QIZILQUM SUV HAVZALARIDA
UCHROVCHI KAM SONLI VA MIGRANT QUSH TURLARINING
TARQALISH EKOLOGIYASI VA MUHOFAZASINI TASHKIL QILISH
MASALALARI**

N.Axmedova,

Z. Fozilova,

M.Muxammedova,

BuxDU, Biologiya mutaxassisligi magistrantlari

Annotatsiya: Maqolada Orolbo‘yi regionida vujudga kelgan ekologik vaziyat sharoitida respublikamizning cho‘l zonasida joylashgan Buxoro viloyati va unga chegaradosh bo‘lgan hududlarda ornitofauna tarkibida kuzatilayotgan o‘zgarishlar, uni bartaraf etish yo‘llari, shuningdek, hududdagi migrant, kam sonli va nodir turlarning tarqalish ekologiyasi, muhofazasini tashkil etish masalalari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: biotop, migrasiya, ekotizim, ornitofauna, monitoring.

Yigirmanchi asrning ikkinchi yarmidan boshlab insoniyatning xo‘jalik faoliyati tufayli fan va texnika yutuqlarini xalq xo‘jaligining turli sohalarida tadbiq etilishi orqali insoniyatning turmush darajasi yaxshilanib borishi bilan bir vaqtda, tevarak muhitda kuzatilayotgan o‘zgarishlarning salmog‘i ham tobora chuqurlashmoqda.

Respublikamiz hududida o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligini, ekin maydonini kengaytirish hisobidan oshirilishiga qaratilgan siyosat, hududning tabiat komponentlarini bir necha qirralarida keskin o‘zgarishni yuzaga kelishiga olib keldi.

Avvalo ekin maydonlari uchun foydalanilayotgan yerlar-cho‘l ekotizimi hisobidan vujudga keltirilishi bilan tegishli hududlarda o‘simlik va hayvon turlarining tarkibida o‘zgarish kuzatilgan bo‘lsa, ikkinchidan mazkur ekin dalalar

uchun sug'orish tarmoqlarini ko'paytirish orqali, yangi ochilgan ekin dalalari tevaragiga yer osti suvlarining sathining ko'tarilishiga olib keldi, bu esa yerlarning zaxlanishini oshishi orqali hududlarda yangidan-yangi suv havzalarining paydo bo'lishiga olib keldi. Bu kabi o'zgarishlarning tabiatga ta'siri juda serqirra bo'lib, har bir o'zgarish tevaragida ushbu hudud uchun ilgari xos bo'lmagan biosenozlarning shakllanishi kuzatiladi. Bizga ma'lumki, Respublikamiz hududida eng yirik sug'orish tizimi bu Amudaryo va Sirdaryo suvlari hisobida shakllantiriladi. Ushbu daryoning quyi oqimida shakllangan deltalar (yoyilmalari) ular orasidagi orolchalar, Orol dengizi qirg'og'i bo'ylab cho'zilgan qamishzor va to'qaylar, hudud ornitofaunasini tashkil etuvchi turlarning hayotida sevimli maskan hisoblangan.

Ammo Respublikamizning janubiy-sharq va markaziy rayonlarida ayniqsa, geografik o'rni jihatidan dengiz sathidan bir muncha chuqurlikda joylashgan Buxoro, Navoiy, Xorazm shuningdek, Qashqadaryo viloyatlari hududlarida 1950-yillardan boshlab Dengizko'l, Zamobobo, Oyoq-og'itma, Qoraqir ko'llari, Sho'rko'l, Quyimozor, To'dako'l suv omborlari Amu Buxor-1, Amu Buxoro-2, Amu Qorako'l, Amu Qarshi kabi kanallarining chiqarilishi bilan ushbu kanallar tevaragida Zikri, Xadicha, Devxona, Xo'jamsayod, Sechanko'l, Achchiqko'l, Alan qullari shuningdek o'nlab baliqchilik havzalarining shakllanishi, hayoti, suv muhiti bilan bog'liq bo'lgan suv va suv oldi qushlarining Respublikamiz bo'ylab qayta taqsimlanishiga olib kelmoqda [1.To'rayev M.M. Xolboyev F.R. va boshq. Buxoro viloyati qushlari, "Navro'z" nashriyoti, Toshkent 2015.67-bet].

Ushbu maqolada keltirilgan ma'lumotlar adabiyot ma'lumotlari va qisman shaxsiy kuzatuvlarimiz ma'lumotlari asosida respublikamizning Buxoro, Navoiy, Qarshi, Xorazm viloyatlaridagi turli tipdagi suvliklarida ornitofaunaning shakllanish jarayonining o'ziga xosligi, ushbu suv havzalardagi turlar xilma-xilligining takomillashish yo'llari, shartlari va ushbu suvliklarda uchrovchi kam sonli va nodir suv va suvoldi qushlarning tarqalish ekologiyasi, tur tarkibi, ularni muhofaza qilish tadbirlari tahlil etiladi. Mavzuda Buxoro viloyatidagi Qoraqir,

Zamonbobo, Dengizko'1, Zikri, Xadicha, Qumsulton, Oyoq og'itma ko'llari, Kogon va Buxoro baliqchilik hovuzlari, Navoiy viloyatidagi To'dako'1 va Quyimozor suv omborlari, Qashqadaryo viloyatidagi Sichanko'1, Achiko'1, Alan yoyilma ko'llari, Talimarjon suv ombori, Xorazm viloyatidagi Ullisho'rko'1, Xorazm baliqchilik xo'jaligi va Tuyamo'yin suv omborlari hamda Amudaryo va Zarafshon daryolarining ushbu huddlardagi tahlil etiladi.

Qushlar hayoti uchun muhim sanalayotgan ushbu suv havzalaridagi ekologik holat, suv havzasidagi oziq mabaaalarining seroblighi, uya qurish imkoniyatlarining yuqorilighi, qushlarning qishlashi va migrasiya davrlarida to'planishi ilgari yashagan muhitga nisbattan qulay imkoniyatlarga ega bo'lmoqda.

So'ngi yillarida olib borilayotgan kuzatish natijalari ushbu suv havzalarida suv va suv oldi qushlarning tur tarkibi xilma-xillighi, uchrash xarakterida bir qator o'zgarishlar kuzatilayotganlighi adabiyotlarda qayd etiladi, jumladan: Maslov 1947, Salixbayev Ostapenko 1962, Sagitov 1987, Kashkarov 1989, Mitrapolskiy 1991, Baqoyev 1987 yillarning ma'lumotlarida, sanab o'tilgan hududlarda ro'yxatga olingan qushlarning umumiy soni 224 turdan iborat bo'lib, shunday hayoti suvlik bilan bog'liq bo'lgan turlar 123 turni tashkil qilinganlighi ko'rsatib o'tiladi [2.Maslov N.M. "Ptisy Buxarskoy oblasti. Sbornik nauchnyx trudov BuxGos Ped instituta. 45 str]. Bular orasida 23 tur suv va suv oldi qushlar uya quruvchi, 68 tur uchib o'tuvchi 43 tur qishlovchi turlar hisoblangan. Bahorgi va kuzgi migrasiyalar davrida qushlarning asosiy konsentratsiyasi To'dako'1 suv omborida, Dengizko'lda va Zarafshon hamda Amudaryo havzalarida kuzatilgan. 2000-2017 yillarga kelib hudud ornitofaunasi tarkibida bir qator o'zgarishlar kuzatilganlighi qayd etilgan va ushbu ma'lumotlarga qaraganda hudud ornitofaunasi tarkibida birgina, suv va suv oldi qushlarning hududdagi, tur tarkibi bugungi kunda 141 turdan iborat bo'ligi, ulardan 33 tur uya quruvchi, 78 tur qishlovchi, 130 turni migrantlar tashkil qilishini ko'rsatiladi (To'rayev 2015, 2017).

Biz ushbu turlarning biologiyasi va tarqalish ekologiyasini o'rganish maqsadida 2022-yil fevral-may oylari davomida viloyatning Buxoro tumanidagi

Madaniyat QFY hududidagi istirohat bog'i hududidagi qushlar koloniyasida, hamda, Buxoro baliqchilik xo'jaligi hovuzlarida kuzatishlar olib borib, hududning bir qator migrant, kam sonli va nodir turlaridan - qoravoy, kichik baklan, kichik oq qarqara, haqqush, jingalakli birqozon, flamingo, qoshiqburun, katta qiziloyoq, katta baliqchi kabi turlarning bahorgi migrasiya muddatlari, oziqlanish biotoplar, jamoaviy hayoti va ayrim uya quruvchilarning uya biologiyasiga doir kuzatishlar olib bordik. Olingan ma'lumotlarimiz hududida so'nggi yillarda Respublikamiz "Qizil kitobi va Xalqaro Qizil kitob" sahifalaridan joy olgan karavayka, qoshiqburun, kichik oq qarqara, kichik qoravoy, oqqush shipun, oqbosh o'rdak va hatto misr qarqarasi kabi turlarning uya qurishi kuzatilayotganligi bilan bir qatorda, flamingo, oq dumli suvburgut, suvqiyg'iri, oq va qora laylaklar, torg'oq, cho'l jiktoqi va kulrang turnalarning suv havzalar tevaragida muntazam uchib o'tishda, dam olishi va qishlashi uchun qulay makonga aylanganligini kuzatilmoqda. [3 Turaev MM, Rakhmonov RR. "Peculiarities of colonies of nesting birds in the water basins of the desert zone of Uzbekistan", Bulletin of the Khorezm Mamun Academy, 2019-3 / 1,P.49-55. 3-4 betlar].

Bizga ma'lumki, o'tgan asrning ikkinchi yarmiga qadar, ushbu turlarning asosiy uchrash biotoplari - Amudaryo daltalari va Orolbo'yi suvliklari va to'qaylar hisoblangan edi. Keyinchalik ushbu hududagi ekologik muammolar tufayli ushbu turlar respublikamizning markaziy biotoplarida, jumladan, viloyatimizning yangidan shakillangan turli tipdagi suv havzalariga kirib kelmoqda. Ammo qushlarning yangi sharoitdagi ko'nikishiga ba'zan biotik ta'sirlar va antropogen omillarning salbiy ta'siri bo'layotganligini alohida ko'rsatib o'tish o'rinli bo'ladi. Jumladan: sanab o'tilgan suv havzalarning deyarli barchasi baliqchilik xo'jaliklariga ajratib berilganligi va ushbu xo'jaliklarda amalga oshiriladigan proflaktik tadbirlar, suv havzalarga kirib kelayotgan suv va suvoldi turlar uchun eng achinarlisi kam sonli va nodir suv va suvoldi turlar hayoti uchun ba'zi noqulayliklarni keltirib chiqarmoqda. Natijada suv havzalarda endigina kirib kelib, ko'nika boshlagan turlar bezovtalantirilib, hovuzlardagi suv sathining tez-tez

boshqarilishi kabi salbiy ta'sirlar tufayli keyingi yillarda ushbu suv havzani tark etib boshqasiga ko'chib o'tishga majbur bo'lmoqda. Fikrimizning isboti sifatida dalillarga murojiat etsak. Respublikamiz faunasining nodir turlaridan biri bo'lgan qoshiqburunlarning kuzatilgan suv havzalardagi ilk uya qurish harakatlari 2003-yilda To'dako'l suv havzasida qayd etilgan edi [4. To'rayev M.M. Xolboyev F.R. Buxoro viloyatida uchrovchi nodir va kam sonli qushlar ekologiyasi "Durdon" nashriyoti, Buxoro, 2017. 74-bet] M.To'rayev va boshqalar 2003). Keyingi yillarda, (2004 va 2005 - yillarda) suv havzada uya quruvchi qoshiqburunlar soni 150 juftni tashkil etganligini guvohi bo'ldik. Shundan so'ng brokonerlarning qush tuxumlarini yig'ib olishi va ko'payish davridagi ayovsiz qushlarni ovlash ishlari ta'sirida uya quruvchi qushlar soni keskin kamayib, 2006 yilda uyalar soni 23 tani, 2007 yildan boshlab esa ushbu suv ombor hududidida uya qurishni to'xtatdi. Endilikda ushbu suv havzada qoshiqburunlar kichik sonda faqatgina oziqlanishga uchraydi xolos. Xuddi shunga o'xshash manzara Kogon baliqchilik xo'jaligi hovuzlari hududida 2004-2007 yillarda uya qurishga kirishgan kichik qoravoy, karavayka, hamda kichik oq qarqaralar misolida ham kuzatildi. Kuzatishlarimiz davomida so'nggi o'n yilikda 2000-2011 yillar davomida qayd etilgan suv havzalarda bahorgi va kuzgi migrasiyalar davomida, turlar xilma xilligi va soni tobora ko'payib borayotganli ko'zga tashlanadi [5. Turayev M.M, Shokir Qizi SS. Seasonal Dynamics of Bird Differences and Numbers in the South Western Kizilkum Reservoirs". Scholars Academic and Scientific Society. South Asian Research Journal of Biology and Applied Biosciences (SARJBAB 3-bet]. Suv havzalar va uning tevaragidagi hududlarda oqqush shipunlar, qaravaykalar, kichik oq qarqaralar, flamingolar, qora laylaklar, pushti va jingalakli birqozonlar va hatto 2011 - yildan boshlab respublikamizda uchrashi va uya qurishi birinchi marotiba ishonchli qayd etilayotgan misr qarqaralarining sonida o'sish kuzatilayotganligini alohida ta'kidlash lozim.

Olingan ma'lumotlarimiz asosida respublikamiz hududida, ayniqsa viloyatimiz orntofaunasining turlar xilma-xilligini monitoringini yuritishda migrant

va Respublikamiz faunasining kam sonli, nodir turlarini muhofaza zonalarini aniqlab, himoya tadbirlarini tashkil etish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Adabiyotlar

1.To‘rayev M.M. Xolboyev F.R. va boshq. Buxoro viloyati qushlari, “Navro‘z” nashriyoti, Toshkent 2015.

2.To‘rayev M.M. Xolboyev F.R. Buxoro viloyatida uchrovchi nodir va kam sonli qushlar ekologiyasi “Durdona” nashriyoti, Buxoro, 2017.

3.Maslov N.M. “Ptisy Buxarskoy oblasti. Sbornik nauchnykh trudov BuxGos Ped instituta. 45 str.

4.Turayev M.M, Shokir Qizi SS. Seasonal Dynamics of Bird Differences and Numbers in the South Western Kizilkum Reservoirs". Scholars Academic and Scientific Society. South Asian Research Journal of Biology and Applied Biosciences (SARJBAB), 2021;3(2): P.31-35.

5. Turaev MM, Rakhmonov RR. “Peculiarities of colonies of nesting birds in the water basins of the desert zone of Uzbekistan”, Bulletin of the Khorezm Mamun Academy, 2019-3 / 1,P.49-55.

70230101-Lingvistika (o‘zbek tili)

PSIXOLOGLAR NUTQIGA XOS TIBBIY BIRLIKLARNING LISONIY XUSUSIYATLARI

L. Avliyoqulova,

BuxDU, Lingvistika(o`zbek tili) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada psixologlar nutqiga va uning o`ziga xos xususiyatlari tahlil qilinib, ularning nutqiy muloqotiga lingvistik nuqtayi nazardan yondashilgan. Ta`kidlash lozimki, psixologlar nutqida qator tibbiy birliklar mavjud bo`lib, ularning tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlili maqola asosidan o`rin olgan. Bundan tashqari, psixologlar muloqotidagi tibbiy birliklardan namunalar maqola uchun namuna sifatida keltirilgan.

Kalit soʻzlar: psixolog, nutqiy muloqot, tibbiy birliklar, lisoniy xususiyat, lingvistik yondashuv, diniy nuqtayi nazar .

Barchamizga maʼlumki, har bir soha vakillarining oʻziga xos nutqiy muloqot shakli mavjud. Ular oʻz nutqlarida kasblariga oid atama va tushunchalardan keng tarzda foydalanishga harakat qilishadi. Xuddi shuningdek, psixologlar ham nutqiy muloqotlari jarayonida faoliyatlari nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda kasbiy terminlarni qoʻllaydilar. Biz siz bilan tadqiq qilmoqchi boʻlgan ushbu maqolada psixologlar nutqi va ularning oʻziga xos xususiyatlari hamda ularning nutqida qoʻllaniladigan tibbiy birliklarning lisoniy tahlili haqida fikr yuritiladi.

Psixologlar nutqi, asosan, inson ruhiyati haqida ifodalangan fikrlardan tashkil topadi, biroq ularning nutqiy muloqot shaklida tibbiyotga doir birliklarning ham qoʻllanilishi biz uchun sir emas. Sababi, baʼzi kasalliklar kishi ruhiyati, psixikasiga ham bevosita bogʻliqdir[8]. “Oʻzim oʻzimga tabib” marafonini olib borgan psixolog Nilufar Yusupovanning nutqidan olingan quyidagi parchaga eʼtibor bering: “...*Juda koʻp kasalliklarning sababi, ularning kelib chiqish omillari va ularni bartaraf etish hamda hozirda koʻpchilikda bor muammolar – ich qotishi jigar kasalliklari, oshqozon-ichak tizimi kasalliklari – judayam keng, har xil kasalliklar bor . Ular qanday kelib chiqadi, ushbu kasalliklarning psixosomatikasiga ham toʻxtalamiz-u , biroq tibbiyot tomonlama ham shugʻullaniladi. Siz men aytgan, men bergan maslahatlarga toʻliq rioya qilsangiz, shu kasalliklardan sekin-asta Allohning inoyati bilan , Allohning xohishi bilan siz tuzalishingiz ancha yengillashadi...*”[9] Psixolog ogʻzaki muloqotidan yozib olingan ushbu parchaga lingvistik nuqtayi nazardan yondashadigan boʻlsak, unda koʻproq soʻzlashuv uslubi va ilmiy uslubga xos terminlarning aralash holatda qoʻllanilganligining guvohi boʻlishimiz mumkin.[3] Soʻzlashuv uslubiga xos holatlar (*gap strukturasi buzilishi*: [1] judayam keng, har xil kasalliklar bor; *takrorlarga boylik*[2]: juda , judayam, kasalliklar, men; nutqda *noʻrin soʻzlarning qoʻllanilishi* [5] va hokazo)ning psixolog nutqidan olingan parchada qoʻllanilganligi uning lingvistik tahliliga bir misol sifatida

qaraladi. Bundan tashqari, jumlada kasbiy faoliyatga oid atamalar ham salmoqlidir, ya'ni tibbiyot sohasiga oid terminlar ham mavjudligining guvohi bo'lishimiz mumkin: – *ich qotishi ,jigar kasalliklari, oshqozon-ichak tizimi kasalliklari, kasallik, psixosomatika, tuzalmoq.* Bundan tashqari, ushbu birliklar psixologiya sohasi uchun ham ahamiyatlidir.

Ko'rinib turibdiki, psixolog o'z nutqini diniy soha bilan ham bog'lashga harakat qilgan, uning nutqida qo'llanilgan “Allohning inoyati bilan, Allahning xohishi bilan” kabi qo'llanilgan elementlar psixolog nutqiy aktining ko'p tarmoqli ekanligi bilan xarakterlanadi. Shu o'rinda qayd etib o'tish lozimki, psixologlar nutqi ko'p sohalarni o'z ichiga olishi bilan salmoqlidir. Yuqorida keltirilgan parchada ham uch soha mujassam bo'lganligining guvohi bo'lishimiz mumkin:

- a) psixologiya;
- b) tibbiyot;
- c) diniy soha(qisman) – ushbu soha aks etganligini psixolog nutqini to'liq eshitish orqali bilishimiz mumkin[4].

Bundan tashqari, qayd etilgan jumla o'ziga xos mikromatn hisoblanib, unda qator murakkablashtiruvchi vositalar ham ishtirok etgan. E'tibor berib, gapda qo'llanilgan uyushiq bo'laklarning o'zi ham sifatlovchi aniqlovchilar yordamida kengaygan[7]:

- I. Juda ko'p kasalliklarning sababi.*
- II. Ularning kelib chiqish omillari.*
- III. Ularni bartaraf etish .*
- IV. Hozirda ko'pchilikda bor muammolar.*

Kirish birikmalarning qo'llanilishi ham gapni murakkablashtiruvchi omil sifatida ishtirok etgan[6]: *ich qotishi ,jigar kasalliklari, oshqozon-ichak tizimi kasalliklari.*

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, psixologlar tomonidan qo'llanilgan nutq ham o'ziga xos qator jihatlariga ega bo'lib, ularni lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilganda keltirilgan nutqiy parchaning turli jihatlariga e'tibor berish lozim

bo'ladi, bu esa matnda qo'llanilgan tilshunoslikka oid birliklarning salmog'iga bevosita bog'liq hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. -Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. –T., 2009.
2. -Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. –T., 1972.
3. Амирова Т., Олховиков Б.А., Рождественский Ю.В. Очерки по истории лингвистики. –М., 1975.
4. Кодухов В.И. Общее языкознание. – М., 2010.
5. -Лурия А.Р. Основные проблемы нейролингвистики. – М. : МГУ, 1975.
6. Рождественский Ю.В. Типология слова. – М., 1969.
7. Фердинанд де Соссюр. Труды по языкознанию. –М., 1977.

O'ZBEK TILIDA QO'SHMA SO'ZLAR TARAQQIYOTI XUSUSIDA

M.Y.Latifova

BuxDU Lingvistika (o'zbek tili)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Mazkur tezisda o'zbek tilshunosligida qo'shma so'zlar tarqqiyoti haqida fikr-mulohaza yuritilgan. Qo'shma so'zlar qatorining boyib borishi badiiy matndan olingan misollar bilan dalillangan.

Kalit so'zlar: kompozitsiya, neologizmlar, individual neologizm, muallif nutqi neologizmlari.

O'zbek tilshunosligida so'z yasashning eng ko'p qo'llaniladigan usullaridan biri kompozitsiya (so'z qo'shish) yo'lidir. O'zbek tilshunosligida qo'shma so'zga kompozitsiya usulida so'z yasash hodisasi mahsuli sifatida qaraladi. Qo'shma so'z til tadrijiy rivojining nisbatan keyingi davrlarida paydo bo'la borgan. Qo'shma so'z, asosan, so'z birikmasi, gaplar, ya'ni sintaktik munosabatdagi erkin birikmalar asosida yuzaga keladi.

O'zbek tilshunosligida juft va takror so'zlarning ba'zida "qo'shma so'zlar" tarkibida ham o'rganilganligiga guvoh bo'lamiz [2,46]. Bunga esa qo'shma so'z kabi juft va takror so'zlarning tarkiban murakkabligi sabab qilib ko'rsatiladi. Har uchala hodisaning tarkibli, ya'ni ikki komponentli ekanligi mazkur birliklarning uyg'unligini ta'minlasa-da, lekin qo'shma so'z va juft, takror so'zlar butunlay farqli hodisa sanaladi. Qolaversa, qo'shma va juft, takror so'zlarning so'z yasashga munosabati borasida ham farqlanish mavjud. Bu borada professor A.Hojiyev shunday yozadi: "Qoshma so'z haqiqiy leksik hodisa, uning yasalishi esa so'z yasash hodisasi. Juft va takroriy so'z esa to'la ma'noda leksik hodisa emas va uning yasalishi ham so'z yasash hodisasi bo'la olmaydi. Shunday ekan, qo'shma, juft va takroriy so'zlarni bir nom bilan atashga ehtiyoj yo'q va ularga biron umumiy nom berish to'g'ri emas"[3,14].

Qo'shma, juft va takror so'zlarning til va nutqqa munosabati borasida ham turlicha fikrlar uchraydi. Bizningcha, har uchala birlikning til va nutqqa munosabati bir xil, ya'ni "qo'shma so'z lug'aviy birlik, juft va takror so'zlar nutqiy birlik" tarzidagi izoh o'zini to'la oqlay olmaydi. Birgina qo'shma fe'l va qo'shma ot mavzusini kuzatadigan bo'lsak, manbalarda ularning so'z turkumlariga munosabati kuzatilsa, quyidagicha holat namoyon bo'ladi: 1. Qo'shma fe'l. Qo'shma fe'l tarkibiga ko'ra ikkiga bo'linadi: a) ot+fe'l; b) fe'l+fe'l. 2. Qo'shma ot. Qoshma otlarning quyidagi turlari kuzatiladi: ot+ot, sifat+ot, ot+fe'l, son+fe'l, ot+sifat, fe'l+fe'l, fe'l+ot kabi. Biroq mazkur qoliplardan qo'shma fe'lda faqatgina [ot+fe'l] hamda qo'shma otda [ot+ot], [sifat+ot] qoliplari asosida qo'shma so'z yasalayotgani kuzatiladi xolos. Qo'shma sifat borasida ham shu fikrni aytish mumkin.

So'zlarni qo'shish usuli (kompozitsiya) bilan ham yangi so'zlar vujudga kelishi kuzatiladi. Lekin A.Hojiyev qo'shma so'z bilan yangi so'z yasashini rad etadi va shunday deydi: "O'zbek tili so'z yasashiga oid ishlarning hammasida so'z yasashning "kompozitsiya usuli" qayd etiladi va u so'z yasashning mahsuldor usuli sifatida ta'riflanadi. Biroq hodisaga bevosita o'zbek tilining o'z

materiallaridan kelib chiqib yondashilsa, bu tilda so'z yasashning “kompozitsiya usuli” deb atash mumkin va lozim bo'lgan usuli yo'qligi ma'lum bo'ladi”[3,8]. “Kompozitsiya” termini, balki qo'shma so'z termini mohiyatiga to'g'ri kelmas, lekin badiiy asar tilida muallif nutqi (individual nutq) ko'rinishi sifatida anchagina yangi-yangi qo'shma shakldagi so'zlar qo'llanganligi kuzatiladi.

Nisbatan keyingi tadqiqotlarda qo'shma shakldagi ot va sifatlar badiiy asarlarda ko'p kuzatilishi aytiladi[1]. Badiiy asar tilida muallif nutqi (individual nutq) ko'rinishi sifatida anchagina yangi-yangi qo'shma shakldagi so'zlar qo'llangani kuzatiladi. Jumladan, *nuqratan, telefonxat (U.Azim), sohibdil, kiyikso'qmoq, oyqovoq, chaqmoqtuyoq, sirtlonpanja (M.Yusuf), kajboshlik, oromkursi (X.Do'stmuhammad)* kabilarni misol tariqasida keltirish mumkin[1,14]. Badiiy asarlarda qo'shma shakldagi quyidagi kabi qo'shma so'zlarni uchratish mumkin: Yormozorda yor qator/ Armon quchoqlab yotar. (I. Mirzo) Tong – choldevor oqarar. (Faxriyor) Zahhoklar o'liydi/ Miyaxo'r shoqol. (Faxriyor)

Tadqiqotchi T.Asadov “O'zbek tilida faol so'z yasalishi va muallif neologizmlari” nomli monografiyasida muallif nutqida qo'llangan yangi qo'shma so'zlarga misollar tariqasida *o'zbekmomo, kiyikso'qmoq, jayronko'z, chamoqtuyoq, hazrattog', yo'chivin, yomg'irqo'shiq, zadadil, qunduzqosh, daryodil, dilbuzar, armonqiz, o'yduyo, nurchehra, suvsumbul* kabilarni sanab o'tadi va badiiy asardan olingan misollar bilan dalillaydi [1,74-76]. Yuqorida keltirilgan misollarni biror bir lug'at tarkibidan topib bo'lmaydi, shu jihati bilan mazkur so'zlar neologizmlar (neologik qo'shma so'zlar) deb ataladi.

Turmush tarzimizga yangi-yangi texnika-texnologiyalar va har xil dasturlar kirib kelishi bilan yangi so'zlar, jumladan, qo'shma so'zlar ham paydo bo'la boryapti. Masalan, instagramda *vayn qilmoq*, telegramda *audiochat* (o'tkazmoq) yoki *videochat* (qilmoq), *kvantpsixolog, ekzoterik, masterklass, videofragment, profkurs* kabi qo'shma so'zlar hozirda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar orasida ommalashib boryapti.

Xullas, fe'l, ot va sifat so'zlar turkumi qo'shma shakldagi so'zlar bilan ham boyib boryapti. Bunda ijodkorlarning so'z yasash (individual nutq neologizmlarini yaratish) dagi xizmatini alohida ta'kidlash lozim bo'ladi. Qolaversa, ijtimoiy tarmoqlar bilan bog'liq holda ham ayrim-ayrim qo'shma so'zlar hosil bo'la boryapti.

Adabiyotlar

1. Asadov T. Mardonova S. O'zbek tilida faol so'z yasalishi va muallif neologizmlari. Monografiya. Globe. 2021.
2. Ўзбек тили грамматикаси. 1-том. Ғ.Абдурахмонов таҳрири остида. – Т.: Фан, 1975.
3. Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясаши тизими. –Т.: “Ўқитувчи”, 2007.

O'TKIR HOSHIMOV ROMANLARI MATNIDA MILLIY DUNYOQARASHNING NAMOYON BO'LISHI

M.I.Jo'raqulova

BuxDU Lingvistika (o'zbek tili)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalqimizning sevimli yozuvchisi O'tkir Hoshimov asarlarida o'zbek xalqining ruhiyati, sajiyasi, umuman, milliy mentalitetiga oid lisoniy birliklar mahorat bilan qo'llanganini kuzatish mumkin. Shuningdek, yozuvchi nasridagi mana shu o'ziga xoslikni ta'minlovchi badiiy til vositalari, tilbirliklari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Qozonqurar, bazm, challari, sochqi, “to'qqiz-to'qqiz”, kelinsalom, ma'lum oshi, to'y keldi kabi etnografizmlar; karnay-surnay, atlas ko'ylak, chust do'ppi, shoyi ro'mol, palak, tavonxona, moxora, qovurma chuchvara, holva, chimildiq, yor-yor, ko'rmana kabi milliy realiyalar, qarg'ish, duo va qasamlar, ibora, maqol, o'xshatish va metaforalar.

Bugungi kunda badiiy matnga lingvomadaniy jihatdan yondashilayotgan tadqiqotlarda xalq milliy mentaliteti bilan bog'liq bo'lgan

lisoniy birliklarga e'tibor qaratilmoqda. Bunday tadqiqotlarning aksariyatida tilning lug'aviy sathi, aniqrog'i, milliy-madaniy semali so'zlar hamda frazeologik birliklar tadqiqot obyekti sifatida tanlanganini kuzatish mumkin. Xususan, muqobilsiz leksika, ya'ni tarixiy so'zlar, maishiy turmush ashyolari nomlari, xalq bayramlari, urf-odati, hunarmandchiligiga doir so'zlar badiiy matnning lingvomadaniy tahlilida eng ko'p murojaat qilinadigan birliklar hisoblanadi. Rus tilshunosi T.E.Sinichenko badiiy matnda qo'llanuvchi ko'chma ma'noli so'zlar, ramzlar, tasviriy vositalar, iboralarni *etnoaktual leksika* termini ostida o'rganishni taklif qiladi³⁴² U badiiy matndagi milliy – madaniy semali so'zlarni beshta guruhga tasniflaydi: 1) xalq turmushi spetsifikasini aks ettiruvchi so'zlar; 2) mavsumiy marosimlar bilan bog'liq so'zlar; 3) diniy realiyalar; 4) xalqning ma'naviyati, ruhiyati bilan bog'liq so'zlar; 5) tabiat hodisalarini bildiruvchi so'zlar. Tilshunoslikda badiiy matnning lingvomadaniy tahlili tamoyillari to'liq shakllanib, bir tizimga solingan emas. Milliy tilshunosligimizda esa bu borada shu vaqtga qadar maxsus tadqiqotlar yaratilgani yo'q. Vaholanki, o'zbek adiblarining asarlari lingvomadaniy tahlil uchun juda muhim va e'tiborli manba bo'la oladi. Xususan, O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov asarlarida o'zbek xalqining ruhiyati, sajiyasi, umuman, milliy mentalitetiga oid lisoniy birliklar mahorat bilan qo'llanganini kuzatish mumkin. Bunda yozuvchi nasridagi mana shu o'ziga xoslikni ta'minlovchi badiiy til vositalari, til birliklari haqida so'z yuritiladi. Adibning "Ikki eshik orasi" romanida tilimizning lingvomadaniy tabiati yaqqol namoyon bo'lgan. Roman matnida uchraydigan milliy realiyalar, etnografizmlar, qarg'ish, duo va qasamlar, ibora, maqol, o'xshatish va metaforalar o'zbek kishilarining milliy psixologiyasi va milliy turmush tarzi tasvirining haqqoniy va ta'sirchan bo'lishiga xizmat qilgan. Romanda ko'zga tashlanuvchi xarakterli jihatlardan biri shundaki, yozuvchi xalq

³⁴²Синиченко Т. Е. Системный лингвокультурологический анализ этноактуальной лексики: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – М., 2017.

milliy psixologiyasiga xos xususiyatlarni personajlar nutqiga singdira olgan.³⁴³ Quyidagi matnda non – o‘zbek xalqi uchun eng muqaddas ne‘matlardan biri ekanligi Oqsoqolning murojaatida o‘z aksini topgan: – *Xaloyiq! – dedi ovozi titrab. – Dunyoda nondan tabarruk narsa yo‘q! Nondan yuz o‘girgan iymondan yuz o‘giradi. Ke, o‘g‘lim, tishla! – U patirning ikki chetidan tutib turdi. Kimsan akam egilib bir chekkasini tishladi. – Barakalla, – dedi Oqsoqol. – Tuz-nasibang uzilmasin! Ilohi omin!*

Roman matnida shunday birliklar borki, ular o‘zbek kishilari turmushiga xos bo‘lgan manzaralarni o‘quvchi ko‘z o‘ngida gavalantirishga xizmat qilgan. Masalan: *Xontaxtaga quroq dasturxon yozilgan, o‘rtada pista, bodom, qand-qurs to‘la patnis turardi. Dasta-dasta qalampir nusxa kosalar. Uy ichi yop-yorug‘. Shiftga ilingan o‘ttizinchi fonusning piligi balandlatib qo‘yilgan, tokchalardagi choynak, piyolalar, mis barkashlar yaltiraydi. Taxmonda yangi ko‘rpa-to‘shaklar, burchakda eskiroq palak osig‘liq...* Yozuvchi nafaqat o‘z qahramonlari yashayotgan muhit, balki ularning o‘zlarini ham tasvirlashda milliy-madaniy semali so‘zlardan mahorat bilan foydalangan. Quyidagi matnlarga e‘tibor bering: *Shu bugun o‘zimning ham rosa “poson” bo‘lgim kelardi. Xolposh xola tikib bergan atlas ko‘ylagimni kiydim. Sochimni ikkita o‘rib, chamandagul do‘ppini boshimga ildim. Faqat o‘sma qo‘yishga ulgurmadi; Dadamni tanimay qolibman. Vuy! SHu – o‘zimning dadammi? Egnida havorang kostyum, boshida yap-yangi chust do‘ppi. Mo‘ylovitekis tarashlangan; Boshiga g‘ijim ro‘mol yopingan kelin yaqin kelishi bilanammam to‘da ustiga sochqi sochdi. Popukqandlar erga tushib sakrab ketdi. Tanga-chaqalar jiringladi. O‘zimni erga otdim. Mahsi kiygan semiz-oriqoyoqlar orqasidan emaklab o‘tib, popukqandlar, tangalarga yopishdim; Bilaman, o‘ldim deganda har biringda sandiq burchagiga bekitib*

2. Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi: roman. – Тошкент: “MERIYUS”, 2011.–548 б.

*qo'ygan bitta bilaguzuk, bir juft zirak bor. Yaxshi niyat bilan birini qizingga, birini keliningga atab qo'yibsan... Jon omon bo'lsa, mol topiladi. Bolang sog'-salomat kelsa, to'yni taqinchoqsiz ham qilaverasan. Omadi gap shu: belimda **belbog'im** bor deganing obchiqaver lash-lushingni!*

“Ikki eshik orasi” romanida Robiya va Shomurodning unashtirilishi, to'y kuni kelinni aravaga o'tqazib kuyovnikiga olib borish voqealari tasvirlangan o'rinlar o'tgan asr o'rtalarida yashab o'tgan o'zbek xalqi urf-odatlariga haqidagi eng jonli va ta'sirchan manzaralardir. Asarda qo'llanilgan *qozonqurar, bazm, challari, sochqi*, “to'qqiz-to'qqiz”, *kelinsalom, ma'lum oshi, to'y keldi* kabi etnografizmlar; *karnay-surnay, atlas ko'ylak, chust do'ppi, shoyi ro'mol, palak, tavonxona, moxora, qovurma chuchvara, holva, chimildiq, yor-yor, ko'rmana* kabi milliy realiyalar roman matniga o'ziga xos milliy ruh bag'ishlagan. Masalan: *Childirma battar avjiga chiqdi. Surnay entikib-entikib nola qildi. Kelinni aravadan tushirishgan zahoti hammayoq do'pir-do'pir bo'lib ketdi. Bir to'da xotinlar palakning to'rt burchidan kelinning boshi ustida tutib hovlimiz tomon yurdi. Biri ingichka, biri yo'g'on ovozda tag'in yor-yor aytishdi: Dukur-dukur ot keldiyo ot keldi, Chiqib qarang kim keldiyo kim keldi? Sallasi katta yor keldiyo yor keldi, Shop mo'ylovli er keldiyo er keldi... Xotintlarning to'yida yugur-yugur ayniqsa ko'p bo'larkan. Hamma o'zi bilan o'zi ovora. Birov moxora tashiydi. Birov “to'qqiz-to'qqiz”ga qaysi mevadan solish kerakligini surishtiradi. Tala-to'pda Abduvalini yo'qotib qo'ydim. Balki qovurma chuchvaradan umid qilib tavonxonaga kirgandir? Mo'ralab qaragam, u erdayam yo'q.*(111-bet) Ma'lumki, “Ikki eshik orasi” romanida XX asrning 40- yillarida Toshkent shahrining chekkaroq hududida yashagan odamlar hayoti hikoya qilinadi. Asarda xalqimizning urf-odatlariga tasvirlangan o'rinlar juda ko'p. Uzoq safarga ketayotgan odamga non tishlatish, bo'yi etgan qizning kuyovga atab belbog' tikishi, mehmon oyog'iga qo'y so'yish, kelin-kuyovni gulxan atrofida aylantirish, kelin ustidan sochqi sochish, yangi farzand tug'ilganida qo'ni-qo'shnilardan suyunchi olish kabi urf-odatlar tasvirlangan o'rinlar roman qahramonlari yashayotgan muhit, ularning urfodatlariga,

milliy qadriyatlari haqida to'liq tasavvur beradi. Bu kabi manzaralar tasvirida yozuvchi lingvomadaniy birliklarni juda o'rinli qo'llaganini kuzatish mumkin. Jumladan, o'sha davrlarda sovchilikka borgan ayol har safar qizning uyiga patir va shirinliklar solingan tugun bilan kirib borgan. Sovchi qiz tarafga ma'qul bo'lsa, tugun ochilib, ichidagi narsalarning bir qismi olib qolingani, ma'qul bo'lmasa, tugun ochilmasdan qaytarib yuborilgan. (Hozirgi vaqtda tugun har ikki taraf kelishgandan so'ng "oq o'rar" marosimida olib kelinadi.) O'tkir Hoshimov ushbu urf-odatni *tugun ko'tarib kelmoq* birikmasi orqali ixcham shaklda shunday ifodalaydi: *Bobojonisi, anavi... tabibning o'g'li bor-ku, xah oti nimaydi-ya? Ochilboy! Onasi bechora deng, eshigimizning turmini buzyapti. Olti marta tugun ko'tarib kelsa-ya! Qizim hali yosh, to'yga tayyorgarligimiz yo'q, desam qo'ymaydi. Zamon qalqib turibdi, to'y ko'rib qolganimiz g'animat, deydi.*

Roman matnida qo'llangan *beqasam to'n, chust do'ppi, g'ijim ro'mol, ukpar qadalgan do'ppi, palak, chimildiq* kabi milliy-madaniy birliklar ma'lum ma'noda o'zbek xalqining milliy-madaniy tarixini aks ettiradi. Chunki Toshkent shahrida hozirgi vaqtda o'tkazilayotgan to'ylarda kelinning boshiga g'ijim ro'mol tashlash, kuyovning beqasam to'n, chust do'ppi kiyishi, kelin tushadigan uyga palak osish urf emas. Romanda tasvirlanganidek, kelin kuyovnikiga "aptashka" aravada olib borilmaydi, "yo'lto'sarlar"ga do'ppi, chorsi kabi ko'rmanalar berilmaydi. Shu sababli bu kabi lingvomadaniy birliklar qatnashgan badiiy matn tahlilida tasvirlanayotgan davr ruhi, tarixiy sharoit, albatta, hisobga olinmog'i lozim. Badiiy matnning lingvomadaniy tahliliga chog'langan tadqiqotchi asarga nafaqat tilshunoslik, balki adabiyot, etnografiya, tarix, falsafa mutaxassisi nuqtayi nazari bilan ham yondashishi lozim. Zero, har bir lingvomadaniy birlikda xalqning muayyan tarixi, madaniyati, milliy idrok tarzi o'z izini qoldiradi. Ular tadqiqotchining teran va keng miqyosdagi

matnortil bilimlariga ega bo'lishini taqozo etadi. Xalqning madaniyati, tarixi va urfodatlarini ixcham tarzda yetkazib beruvchi xalq maqollari xalqning mentalitetini ifodalashda etakchi o'rinni egallaydi. O'tkir Hoshimov asarlarida qo'llanilgan maqollardagi milliy-madaniy so'zlarni tadqiq etish adib asarlari tili, qolaversa, ularning milliy-madaniy o'ziga xosligini ko'rsatib berishga xizmat qiladi.

O'tkir Hoshimov o'z asarlarida qahramonlar nutqini boyitish, emotsional-ekspressivlikni oshirish maqsadida lingvomadaniy belgilarni o'zida yaqqol ifodalagan milliy-madaniy so'zlar qatnashgan maqollardan mahorat bilan foydalangan. Masalan, *Bosh omon bo'lsa, do'ppi topiladi* maqolida *do'ppi*, *Sichqon sig'mas iniga, g'alvir bog'lar dumiga* maqolida *g'alvir*, *Chiqqan qiz chiyiriqdan tashqari* maqolida *chiyiriq*, *Insof sari – baraka* maqolida *insof*, *Tappi tapidan uzoqqa tushmaydi* maqolida *tappi*, *Amal tegdi hinduga, boshini suqdi yundiga* maqolida *yundi* (yuvundi) leksemalari lingvomadaniy qimmatga ega.

Adib asarlarida milliy-madaniy so'zlar qatnashgan maqollarni qo'llash orqali, avvalo, asarlari tilining xalqona, ravon, tasvirning ishonarli, sodda va ta'sirchan bo'lishini ta'minlagan, qolaversa, boy milliy qadriyatlari bor millat va elning o'zbekona, takrorlanmas urfodatlarini maqollar vositasida ko'rsata olgan hamda badiiy voqelikni yorqin aks ettirgan.

Har bir millat o'ziga xos tafakkur tarziga ega ekan, bu ularning maqollariga ta'sir etmay qolmaydi. Hatto maqollardagi mavzular o'xshash bo'lsa-da, ulardagi obrazlar takrorlanmasligi bilan ajralib turadi. Aynan ana shu tasvir maqollardagi milliy-madaniy bo'yoqni ta'minlaydi. Bir so'z bilan aytganda, O'tkir Hoshimovning barcha asarlarida, jumladan, "Ikki eshik orasi" romanida o'zbek xalqi milliy mentalitetining rang-barang qirralari o'z aksini topa olgan. Yozuvchi o'z xalqining milliy qiyofasini so'z yordamida mohirona chizib bergan. Bunda, shubhasiz, lingvomadaniy birliklarning o'rni beqiyos. Adabiy merosimizda,

zamonaviy adabiyotimizda bu kabi xalqning milliy o'zligi namoyon bo'lgan asarlar ko'p. Ularning lingvomadaniy mohiyatini ochib berish uchun boshqa sohalar qatori o'zbek lingvomadaniyatshunosligini ham takomillashtirishimiz, bu borada teran va asosli tadqiqotlarni yaratishimiz lozim.

O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov asarlarida o'zbek xalqining ruhiyati, sajiyasi, umuman, milliy mentalitetiga oid lisoniy birliklar mahorat bilan qo'llangan. Xususan, adibning "Ikki eshik orasi" romanida tilimizning lingvomadaniy tabiati yaqqol namoyon bo'lgan. Roman matnida uchraydigan milliy realiyalar, etnografizmlar, qarg'ish, duo va qasamlar, ibora, maqol, o'xshatish va metafora kabi lingvomadaniy birliklar o'zbek kishilarining milliy psixologiyasi va milliy turmush tarzi tasvirining haqqoniy va ta'sirchan bo'lishini ta'minlagan.

Adabiyotlar

1. Синиченко Т. Е. Системный лингвокультурологический анализ этноактуальной лексики: Автореф. дисс.канд. филол. наук. – М., 2017.
2. Hoshimov O'. Ikki eshik orasi: roman. –Тошкент: "MERIYUS", 2011.
–548 б.

ТОПОАСОС, ТОПОFORMANT HAMDA INDIKATOR TUSHUNCHALARI

O.Safarova,
BuxDU Lingvistika (o'zbek tili)
mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Maqolada topoasos, topoformant hamda indikator tushunchalarining izohi, farqli xususiyatlari hamda ularning o'rganilish ahamiyati masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Nom, atoqli ot, toponim, topoasos, topoformant, indikator tushunchalari.

Til insonning birlamchi ehtiyoji, anglash, bilish, so'zlash, aloqa-munosabat vositasi, mansub-xoslik omili bo'lgani bois hamisha jamiyat ravnaqining asosiy mezonlaridan bo'lib kelgan. Jumladan, o'zbek tili o'zbek millatining uzoq tarixiy ildizlariga, o'z siyosiy-huquqiy asoslariga ega muqaddas qadryati, ulkan ma'naviy yutug'idir. Bugungi taraqqiyotga qadar shonli va sharfli yo'llarni bosib, keskin va shiddatli to'fonlarni yengib kelayotgan tilimiz jadal sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Bu esa har bir sohaga o'z ta'sirini ko'rsatib, yangi so'zlar, yangi tushunchalarning yuzaga kelishida, rivojlanishida asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu jumladan, o'zbek onomastikasi, ya'ni nomshunosligi 20-asrning ikkinchi yarmidan keyin jadal rivojlangan sohalardan hisoblanadi. Bu toponimika bo'limiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatib, yangi so'z va terminlarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Toponimlar tarkibida topoasos, topoformant va indikatorlar, odatda, u yoki bu darajada qo'llanadi. Ularsiz joy nomlarining etimologik tadqiqi haqida gapirib bo'lmaydi. Chunki bir toponim faqat topoasosdan iborat bo'lsa, boshqa biri topoasos va topoformant ko'rinishida, uchinchi toponimda esa topoasos va topoformant yoki topoasos, topoformant hamda indikator ko'rinishlarida uchraydi. Mana shularning ma'nolari birikishidan joy nomining ma'nosi shakllanadi. Topoasos toponimlarning yuzaga kelishi uchun asos bo'ladi. Ular turli tillarning so'zligidan (asosan, turkiy, fors – tojik, arab) tashkil topgan: **Beshbo'ri, Beshariq, Do'g'do'z, Obitorat** va boshqalar.

Topoformant va toponimning shakllanishi jarayonida ishtirok etgan qo'shimchalar jumlasiga kiradi. Ular asosan sodda qo'shimchalardan iborat topoformantlar sanaladi: *-chi, -lik, -on, -cha* va boshqalar. **Dehcha, Cho'borcha,**

Ipakchi, Meshkaron toponimlarida *deh* va *jo'bor* apellyativlari topoasos cha ma'noli qismi esa topoformant. Bir necha bo'g'inli qo'shimchalar topoformantlar ko'rinishida uchramadi.

Kuzatishlarimizcha, topoformantlar nafaqat toponim tarkibida keladigan formant, shu bilan birga toponim yasashda ham xizmat qiladi. Mana shu holga ko'ra topoformantlarni ikki guruhga bo'lib o'rganish lozim:

1. Asl topoformantlar. Ular toponim tarkibida qo'llanadi, ammo yasovchilik xususiyati yo'q. **Ot quchi, Tikonchi** kabilardagi qo'shimchalar shunday topoformantlar sanaladi.

2. Yasovchi topoformantlar. Bular toponimning shakllanishida yasovchilik xususiyatiga ega bo'ladi: **Taxmachi, Sohibkor, Olmazor, Do'stlik, Tinchlik** va boshqalar.

M. Murzaev indikatorning toponimga xos belgi – xususiyat va holatlarni ifodalaydigan so'z hisoblanishini ta'kidlagan [1, 21-22]. Z.Do'simov va X.Egamovlar esa bu termini: «Indikator – toponimlar tarkibida kelib, obyektning xarakteri, xususiyati, soni va boshqalarni ko'rsatuvchi so'z. Masalan, toponimik indikatorlar: *qishloq, daha, dasht, cho'l*. Hidronomik indikatorlar *ko'l, daryo, ariq* kabilar. Lotincha indikos «*ko'rsatmoq*» so'zidan yasalgan [2, 161], deb ikkita guruhga bo'lib ta'riflashgan. Indikatorli toponimlar toponim – kompozitlar deb ham o'rganilgan va ular toponimik, gidronimik, funkstional indikatorlar deb uchga bo'lingan. T.Nafasov: «Indikator joy nomi yasashda qatnashib, uning tarkibida obyekt turini bildiradigan so'z: *buloq (Toshbuloq), qishloq (Kataqishloq)*», deb uni lingvistik jihatdan izohlagan [3, 287]. P.G'ulomov ushbu termin haqida «Indikator (toponimikada) toponimlarni hosil qiluvchi mahalliy geografik terminlar: *qum, tepa, daryo, suv, kent* va boshqalar», degan ta'rifni geografik jihatdan bergan [4, 4]. Bizningcha, bu termini toponimlar tarkibidagi xususiyatlaridan kelib chiqib, *toponimik aniqlagich* ham deyish mumkin. Biroq bu birikmali termini qo'llashdan ko'ra, *indikator* terminini ishlatish har jihatdan o'rinli. Demak, maskur termin haqidagi aytilgan fikrlar lingvistik va geografik

jihatlardan bir – birini to'ldiradi. Sababi, ular indikatorning obyektning belgi – xususiyati, xarakteri, soni, turi kabilarni ko'rsatuvchi so'zligi va mahalliy geografik terminligini ko'rsatib turibdi. Indikatorlar toponimlarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Masalan, **G'uddim tog'i, Molguzar tog'i** toponimlarida *tog'* lug'aviy asosi indikator vazifasini bajargan. Ular quyidagicha tarzda qo'llanadi:

1. Indikator(lar) toponim tarkibida keladi: **Beshariq, Turkon mahalla, Bog'idasht** kabilar.

2. Indikator(lar)ning o'zi toponim bo'lib keladi: *buloq* > **Buloq**, *tog'* > **Tog'**, *tepa* > **Tepa**, *soy* > **Soy** va boshqalar. Aslida, ularda toponim tushib qolgach, uning vazifasini indikator bajargan. Shunday toponimlarning mavjudligini toponimik misollar vositasida Z. Do'simov va M. Tillaeva ham tasdiqlashgan [5, 44].

Ular to'plab o'rganilgan besh mingdan ortiqroq toponimlar misolida kuzatilib, qo'llanish darajasiga ko'ra uchta guruhga bo'lindi:

1. Ko'p qo'llanadigan indikatorlar: *qishloq, soy, buloq, daryo, tepa, ariq* kabilar.

2. Nisbatan kam ishlatiladigan indikatorlar: *shahar, ko'cha, bozor, bog', adir, mahalla, guzar* va boshqalar:

3. Kam qo'llanadigan indikatorlar: *qabriston, mozor, cho'l, cho'qqi, tog', tosh, ko'l, qoya*.

Bulardan bilinib turibdiki, mamlakatimiz toponimlaridagi indikatorlar fors – tojik , arab va turkiy tillarga oid so'zlardan tashkil topgan. Demak, toponimlar tarkibidagi topoasos, topoformant va indikatorlar ularni etimologik tahlil hamda tadqiq qilishga yordam beruvchi vositalar jumlasiga kiradi.

Adabiyotlar:

1. Мурзаев Э. Очерки топонимики. –М.: Мысль, 1974. –С.21-22.
2. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1977, –174 б.
3. Нафасов Т. Қашқадарё область топонимлари: филол.фанл.номз.диссер... –Т., 1968, -301 б.

4. Ғуломов П. Жуғрофия атамалари ва тушунчалари изоҳли луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1994. -140 б.
5. Дўсимов З., Тиллаева М. Топонимика асослари. –Т., 2002, –88 б.

BUXORO SHAHAR GODONIMIYASINING MAVZU GURUHLARI

A. Uchqunova,

BuxDU Lingvistika (o'zbek tili)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Mazkur axborotda Buxoro shahridagi ko'cha nomlari (godonim), ularning mavzu guruhleri, antropogodonimlar, topogodonimlar, kasb-hunarga oid godonimlar, inshoot, o'simlik bilan bog'liq bo'lgan godonim, gidrogodonimlar, ularning mazmun-mohiyati, etimologiyasi haqidagi ma'lumotlar misollar asosida bayon etilgan. Shuningdek, godonimlar zamonaviy va tarixiy jihatdan tasniflandi.

Kalit so'zlar: toponim, toponimiya, godonim, antropogodonim, gidrogodonim, topogodonim, inshoot, o'simlik, kasb-kor bilan bog'liq godonimlar.

Inson dunyoga kelgandan so'ng unga atrofidagi yaqin kishilari munosib ism berishadi va u shu ism bilan atala boshlaydi. Xuddi shu zaylda odamzot har bir narsaga, joyga qo'yilgan nomlar asosida ularni o'rgana boradi. Zero, nomlar inson hayotida muhimlik kasb etadi.

Ma'lumki, biror joyga borish oldidan, dastlab, manzilga aniqlik kiritiladi va shu asosda izlab boriladi. Manzilgohlarni bir-biridan ajratish maqsadida ularga qo'yilgan nomlar jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega va uning tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Joylarga qanday nom berish, avvalo, ijtimoiy hayotning muayyan bosqichdagi ehtiyojlari bilan belgilanadi. Joy nomlari tarixini bilmasdan turib toponimika bilan shug'ullanish kutilgan natijani bermaydi. Shu sababli ham toponimika tarix fanlari qatoridan o'rin oladi.

“Toponimika yunoncha *topos* — joy va *onoma* (yoki *onima*) — **nom** so'zlaridan tarkib topgan. Joy nomlari, ya'ni **toponimiya** bir necha turga bo'linadi. Bular:

gidronimiya (yunoncha gidro - *suv*), ya'ni daryolar, ko'llar, dengizlar, soylar, kanallar, qo'ltiqlar, bo'g'ozlar; sharsharalar nomlari: *oronimiya* (yunoncha oros — *tog'*), ya'ni yer yuzasining relyef shakllari — tog'lar, cho'qqilar, qirlar, vodiylar, tekisliklar nomlari; *oykonimiya* (yunoncha oykos — *uy*); *polinimiya* (yunoncha polis — *shahar*) yoki *urbanonimiya* (lotincha urbos — *shahar*), ya'ni qishloq hamda shaharlarning nomlari, *mikrotoponimiya* (yunoncha mikros -*kichik*), ya'ni kichik obyektlar: buloqlar, quduqlar, dalalar, o'tloqlar, daraxtzorlar, jarlar, yo'llar, ko'priklar va hatto atoqli otga ega bo'lgan ayrim daraxtlar nomlari. Bundan tashqari, turli xalq, urug'-aymoq nomlari bilan atalgan toponimlar *etnotoponimlar* (yunoncha etnos - *xalq*) deyiladi. Kishi ismlari bilan yuritiladigan toponimlarni esa *antropotoponimlar* (yunoncha antropos — *odam*) deb atash mumkin" [1, 5].

Biz izohlamoqchi bo'lgan tushuncha – **godonim** – ko'cha nomini anglatadi va buni biz Buxoro shahar ko'chalari misolida izohlab, mavzu jihatidan tasniflashga harakat qilamiz.

Buxoro shahrida taxminan uch yuzga yaqin ko'cha mavjud. Har bir nom o'ziga xos etimologiyaga ega. Kishi nomlari asosida shakllangan ko'chalar nomlari **antropogodonim** deb atalib, Buxoro shahrida bunday turdagi ko'chalar nisbatan ko'proq uchraydi. Masalan, tarixiy shaxslar – Abduxoliq G'ijduvoni, Sayfuddin Boharziy, Muhammad G'azzoliy, Bahouddin Naqshband; atoqli adiblar – Abdurauf Fitrat, Vasfiy (Muhammadjon Muxtorov), atoqli olim – Toji Qorayev, atoqli shoir, davlat arbobi – Toshpo'lat Hamid, atoqli bastakor – Mutavakkil Burxonov nomlari berilgan ko'chalar shular jumlasidandir.

Gidrogodonim deb yuritiluvchi atama suv bilan bog'liq geografik joylarga beriladigan nomlarga nisbatan ishlatiladi. Buxoro shahrida suv inshootlari bilan bog'lab qo'yilgan ko'cha nomlari ham mavjud bo'lib, ayrim misollarni keltirib o'tamiz:

1. "Shohrud" ko'chasi. Ushbu nom tarixiylik kasb etib, Buxoro shahrini qadim zamonlardan beri sug'orib kelayotgan ariqqa nisbatan qo'yilgan. Shaharning

vujudga kelishi, suv ta'minoti, ayniqsa, shu ariq bilan bog'liq. Manbalarda uning qadimda Zarirud nomi bilan ham yuritilgani aytiladi.

2. “Havzilesak” ko‘chasi – tarixiy gidrogodonim bo‘lib, Buxoro Arkining janub tomonida joylashgan hovuzga qo‘yilgan nom hisoblanadi. Mazkur hovuz shahar qamalda qolgan kezlari Arkning suv bilan ta'minlanishiga xizmat qilgan.

3. “Havzinav” deb yuritiluvchi ko‘cha nomi ham tarixiy manbalarda uchraydi. Havzinav – “yangi hovuz” ma’nosini anglatadi va bu hovuz hozir ham mavjud.

4. “Jo‘ybor” ko‘chasi “oqar ariq”, “ravon ariq” ma’nolarini anglatuvchi gidrogodonim sanaladi. Qadimda ushbu hududda shaharning xos kishilari – xojalar istiqomat qilgan. Shayboniy Abdullaxon davrida Jo‘ybor qal’a devori bilan shahar hududiga qo‘shib olingan.

Shuningdek, Buxoro shahar hududida “Chorjo‘y”, “Anhor”, “Amudaryo”, “Sirdaryo”, “Havzi jilovxon”, “Havzi bodom” singari bir qator gidrogodonimlar ham mavjud.

Buxoro shahar hududida **o‘simliklar** bilan bog‘liq va yangi nom sifatida e’tirof etiluvchi ko‘cha nomlari ham mavjud bo‘lib, “Lolazor”, “Olmazor”, “Tutzor”, “Shaftolizor” godonimlari shular jumlasiga kiradi. “Quyida daraxt”, “Chinor” kabilar esa nisbatan tarixiylik kasb etib, xususan, “Quyida daraxt” ko‘chasi – “daraxtlari ko‘p joy” ma’nosida keladi. *Ko‘chada bosh kiyim tikuvchilar, qisman zargarlar, savdogarlar, amir amaldorlari, mashhur mudarrislar, munshiylar istiqomat qilishgan. Ko‘cha nomi XVI asr hujjatlarida uchraydi* [2, 187-188].

Shahar hududida **kasb-kor** bilan aloqador godonimlar insonda bir qadar qiziqish uyg‘otadi. Chunki ma’lum faoliyat bilan shug‘ullanganlik evaziga ko‘chalarga berilgan nomlar kishini befarq qoldirmaydi va shu joy aholisi hayotiga nazar tashlashga undaydi.

“Xo‘ja tabband” ko‘chasi. Ushbu nomda qo‘llangan “tabband” so‘zi forsiyda “isitmani bog‘lovchi”, “isitma tushiruvchi” ma’nolarini anglatadi. Nomidan anglashiladiki, bu hududda tabib, shifo ko‘rsatuvchi shaxs(lar) yashagan.

“Buxoroning eski guzarlaridan biri. XVII-XIX asrlarga oid hujjatlarda “Xo‘ja Tabband” nomi bilan qayd etilgan [2, 225.

Buxoro hududi toponimikasini fors-tojik tili ta'siridan xoli tarzda tasavvur etib bo'lmaydi. Shu nuqtayi nazardan tarixiylikka ega yana bir kasb-korga aloqador “Cho‘pboz” godonimini tahlil qiladigan bo‘lsak, bu tushuncha “cho‘p bilan raqsga tushuvchilar”, ya'ni oyoqlariga yog‘och xoda bog‘lab to‘ylarda, sayllarda raqsga tushuvchi ma'nosini ifodalaydi. Bunday hunar egalari hozirgi kunda ham mavjud.

Aholisining kasbi qassoblik – mol so‘yuvchi bo‘lganligi uchun berilgan “Gavkushon” ko‘cha nomi bir qadar tarixiydir. Buni ushbu ko‘cha nomining XVI asrga oid tarixiy asarlarda qayd etilganligi asoslaydi.

Buxoro shahrida “qoralovchilar, qora rangga bo‘yovchilar” ma'nosini ifodalovchi “Siyohkoron” ko‘chasi ham mavjud. Bu guzarda yashovchi aholining asosiy mashg‘uloti eski poyafzallarni ta'mirlash, qora rangga bo‘yash va sotishdan iborat ekanligi manbalarda qayd etib o‘tiladi. Demak, joy nomi ham shu mashg‘ulot turidan kelib chiqqan.

Qadim Buxoro aholisi mehnatsevarligi, hunarmandchiligi bilan alohida e'tirof etiladi. Bu fikrimizni shahar ko‘chalarining ellikdan ortig‘ini kasb-hunarga oid nomlar qamrab olganligi bevosita isbotlay oladi. Zotan, “So‘zangaron”, “Quyimurg‘kushon”, “Sarrofon”, “Halvopazon”, “Chitbofon”, “Sobungaron”, “Kosagaron”, “Ravg‘angaron”, “Morkush”, “Kamongar”, “Pistashikanon”, “Bo‘yrabofon”, “Degrezi”, “Zargaron” kabi ko‘chalar mazkur kasb bilan shug‘ullanuvchilarga nisbat berilib vujudga kelgan toponimlardir.

Sharif shahrimiz azaldan ilm-fan, islom dini markazi hisoblangan. Shu bois hududda turli diniy ta'lim maskanlari – madrasa-yu masjidlar o‘z davrlarida bunyod etilgan. Ushbu arxitektura inshootlariga ishora etgan holda berilgan “Machitibaland”, “Oqmasjid”, “Chorminor” kabi ko‘cha nomlari shular jumlasidandir.

“Osmon ostidagi muzey” maqomiga munosib shahrimizda qad rostlagan me'moriy obidalar va 11 darvozasining dong'i butun dunyoga mashhurdir. Ko'chalariga berilgan “Poyikalon”, “Kunjiqal'a”, “Qarshi darvozasi”, “Darvozayi sallohxona”, “Darvozayi o'g'lon” kabi nomlar o'sha inshootning bevosita xarita vazifasini o'tashi, aholi tilida esa doim yangrab, yod etib turilishi maqsadida qo'yilgan bo'lsa, ajabmas.

Shaharning ko'cha nomlari orasida **topogodonimlar** ham ko'plab uchraydi. Ya'ni ma'lum joy nomlarining ko'chalarga berilishini “Buxoro”, “Vobkent”, “G'ijduvon”, “Toshkent”, “Shahriston”, “Registon”, “Qarshi”, “Ashxobod”, “Jondor”, “Samarqand”, “Xorazm” kabi godonimlar orqali asoslash mumkin. Bular qatorida “Yangiobod”, “Xalqobod”, “Gulchorbog”, “Gulzor”, “Koinot”, “Hayotobod” kabi toponimlarni yangi godonimlar sifatida e'tirof etish maqsadga muvofiq.

Mavzu jihatdan tasniflash mobaynida tushuncha bildiruvchi godonimlarga ham duch kelamiz. Shahar ko'chalariga qo'yilgan “Rohat”, “Gulshan”, “Yoshlik”, “Farovon”, “Iftixor”, “Haqiqat”, “Bahor”, “G'alaba”, “Do'stlik”, “Tinchlik”, “Istiqlol”, “Shirin” kabi nomlar shular sirasiga kiradi. Sanab o'tganlarimiz yangi, zamonaviy toponimlardir. Nisbatan tarixiy sanalgan “Gulchorbog”, “Qalqon”, “Dilkash”, “Ko'kcha”, “Karvon” kabi godonimlar ham mavjud.

Buxoro shahar ko'chalarini o'rganish mobaynida bir qancha nomlarning mazmuni, qo'yilish sababi izoh talab etadigan holatlarga duch kelamiz. Bu esa bizdan ko'plab izlanishlar olib borishni talab etadi. Keyingi ishlarda shu jihatlarni yoritishga harakat qilamiz.

Adabiyotlar:

1. Qorayev S. Toponimika. –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. –B.5.
2. Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодалного города Бухары. –М.: Наука, 1976. – Б.187-188.

BADIIY MATNDA UZUALIZM VA OKKAZIONALIZMLARNING ESTETIK IFODASI

Z.X. Yoriyeva,

BuxDU Lingvistika (o'zbek tili)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada okkazional- tasodifiy so'zlarning badiiy asarlar taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati, badiiy matn tahlilida bevosita ehtiyoj sifatidagi vazifasi ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Dekart, insoniyat olami, tasodifiy atama, so'z yasalishi, lug'at, leksika, polisemiya, neologizm, bodaparast, butparast, olovpari, leksema, mantiq va hokazo.

Bizning zamonimizda tillar tez rivojlanmoqda, fan-texnika va madaniyatning turli sohalarida yuzaga kelayotgan yangi tushunchalarni ifodalovchi yangi-yangi so'zlar bilan to'xtovsiz boyimoqda. Ba'zan birinchi marta uchragan notanish so'zning ma'nosi aniqlab, tushinib olinmasa yoki ayni bir so'z o'quvchi va yozuvchi tomonidan turlicha tushunilsa, anglashilmovchilik kelib chiqadi. "So'zlarning ma'nosini tushuntirib bering, shunda siz insoniyat olamini anglashilmovchiliklarining yarmidan xolos qilasiz",- degan edi buyuk faylasuf Dekard. Tilda yangidan yuzaga kelayotgan so'zlarga emas, balki azaldan mavjud bo'lgan so'zlar ham birinchi marta uchraganda o'quvchi uchun "yangi"dir. SHu mulohazalarni inobatga olib, badiiy asarlarning taraqqiyoti va tahlilida okkazionalizmlarning muhim o'rni mavjud deb hisoblaymiz.

M.Mirtojiev "O'zbek tilida polisemiya" qo'llanmasida barcha turkiy tillardagi kabi o'zbek tilida ham ko'chma ma'nolarni hosil qilish jarayonini ikkiga: sodda jarayon va elliptik jarayonga bo'lgan holda ko'chma ma'nolarni hosil qiluvchi hodisalar sifatida metafora, metonimiya, snekdoxa, vazifadoshlik va tobeliklarni keltiradi. Bu hodisalarni elliptik jarayon natijasida sodir bo'lishini aytadi. Xulosa sifatida esa ko'chma ma'no hosil bo'lishidagi elliptik jarayon o'ziga xos murakkablikka ega bo'lib, ko'p hollarda polisemantik so'zlarni

vujudga keltirmaydigan, kontekstual holatgagina xos, okkazional ma'nolarni hosil qilishini ta'kidlab o'tadi. Bundan ko'rinadiki, ko'chma ma'nolarni hosil qiluvchi metafora, sinekdoxa hodisalar ham okkazional ma'noni vujudga keltiradi. Lekin okkazional ma'noga ega so'zlar semantik okkazionalizm bo'lganligi uchun ham bu hodisalar matndagina okkazional ma'no hosil qilishi kerak. Fikrimizning dalili sifatida badiiy matnlarga murojaat qilamiz: Misol tariqasida Hannoluzoda Ali Afandining "Axmad" nomiga yozgan muammosiga marojaat qilamiz:

SHavqi visolingla, ey durri noyob,

Xush dil o'ldi domani ahbob.

"durri noyob", "xush dil", "domani ahbob" so'zlari badiiy bo'lgan Nazmda tasodifiy so'zlar hisoblanib, okkazionalizmlar sanaladi. Okkazional so'zlar badiiy nazm va nasr taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi: 1. So'zlarni takror qo'llash va g'alislikni oldini oladi. 2. Badiiy asarni tiniq va ravon o'qilishini ta'minlaydi. 3. Kitobxon uchun o'zbek tili leksikasida mavjud bo'lmagan so'zlar orqali lug'aviy boylikni oshiradi.

4. Badiiy asarda ohangrabolik, estetik zavq, nutqiy shaffoflik uchun xizmat qiladi. [1;45 bet].

Okkazional ma'no va okkazional so'z individual shaxs tomonidan yaratilishi, intim tushunchalarni, estetik fikr – mulohazalarni yaxshiroq va aniqroq etkazib berishi, aynan kontekstdagina, ya'ni matn tarkibida mavjudligi kabi xususiyatlari bilan o'xshash bo'lsada, lug'at tarkibidan joy olganligi, yasalish tizimi, uzual qatlamga o'tish o'tmasligi jihatidan bir-biridan farq qiladi. M. Mirtojiev okkazional ma'noni uzual ma'noga o'tmasligini qat'iy ta'kidlaydi. Bizningcha, okkazional ma'no uzual ma'noga o'tmaydi, okkazional so'z esa uzual so'zga o'tadi va leksik qatlam tarkibiga kiradi. Misol uchun Anvar Obidjon uslubiga xos bo'lgan "Do'mbirobod", "G'irbonobod" so'zlari hozirgi kunda umumtil leksikasiga o'tgan bo'lib, biz bu so'zlardan onomastikada ko'cha va mahallalarni nomlashda ham foydalanib kelmoqdamiz. Okkazional so'zning barqaror so'zga o'tishiga G'afur G'ulomning 1956-yilda nashr etilgan to'plamida

birinchi marta qo'llangan “do'stparvar” so'zi 1964-yili “Sovet O'zbekistoni” gazetasida qayta qo'llanilgan va til birligi sifatida lug'ut tarkibidan o'rin olgan.[2;34 ,bet].

Okkazionalizmlarning yaratilishiga bir necha olimlar sabab bo'ladi. Murakkab tasvirni to'liq ifodalaydigan so'z topish istagi, so'z imkoniyatlarini maksimal darajada ifodalashga intilish, yangi, noodatiy, kutilmagan ifodalar tasviri. Okkazionalizmlar bilan muallif mavzuga bo'lgan munosabatini ta'kidlamochi, uning hususiyati va bahosini bermoqchi bo'ladi. Badiiy adabiyot, ayniqsa, she'riyat-nazm, badiiy okkazionalizmlarni yaratadigan maydon hisoblanadi. Bu maydondagi har bir ijodkor o'z his-tuyg'ulari, maqsadi va fikr-mulohazalarini bir-biridan jimjimali va betakror so'zlar bilan to'ydirib boradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ijodkorlarning badiiy-estetik tasavvuri va gumanistik xayolot dunyosini mahsulini kitobxonga etkazishga samarali va sermahsul vosita hisoblangan okkazionalizmlar asarning badiiy-estetik qimmatini oshirish bilan bir qatorda yozuvchining so'z qo'llash bilan bog'liq mahoratini, his-tuyg'u, tushunchani ifodalashdagi qobiliyatini belgilovchi, ijodkor va o'quvchi, ya'ni axborotni uzatuvchi hamda axborotni qabul qiluvchi shaxs o'rtasida anglanishi, tushunilishi biroz murakkab bo'lgan voqeliklarni yanada yaxshiroq va o'zgacha nafosat bilan mukammal tarzda etkazishda ma'naviy ko'prik bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar.

1. Mirtojiev M. “O'zbek tilida polisemiya” Toshkent 1975-yil
2. Abdurahmonova M.T, Mamajonova D.A. “ Okkazionalizmlar va ularning badiiy-estetik vazifasi”. “Humanitarian Research”. Polland.
3. Hayitov H.A. “Qushlarga ibrat hazrati hizr”. Moskva Internavka 2020 №12 3str. 72-73
- 4.Иванова.Ж.Ю. «Структурно-семантические и функциональные особенности окказионализмов В.Высочкого» Москва «Искусство» 2010.стр.86.

5.Аржанов.А. «Закон есть закон» журналист-Москва 1968.№3. стр20-21.

6.Hayitov Hamza Ahmadovich. “LITERARY INFLUENCE AND ARTISTIC IMAGE.” Экономика и социум 8 (2019):3-5.

7.Ahmadovich Hayitov Hamza. “Expression of Folklorisms in the Works of Ghafur Ghulam.” European Journal of Life Safety and Stability (2666-9630):14(2022):101-105.

ARAB VA O`ZBEK MAQOLLARI MAVZU MUSHTARAKLIGI

Y.Y.Mirzoyeva

BuxDU Lingvistika (o'zbek tili)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada arab-o`zbek maqollarining lingvokulturologik jihatlarini tahlil qilishda til va madaniyatning o`zaro bog`liqligi tahlil qilinadi. Shu bilan birga o`zbek va arab tillaridagi maqollarning mavzu va g`oya mushtarakligi, ulardagi mentalitet va milliy xarakterning ifodalanishi masalalari oydinlashtiriladi.

Kalit so`zlar: maqol, paremiologiya, o`xshashlik, lingvokulturologiya, madaniyat.


Bugungi kunda maqollar ustida qizg`in izlanishlar olib borilayotgan bir paytda, maqollarning turli jihatlarini o`rganish paremiologiya sohasining asosiy vazifalaridan biri bo`lib kelmoqda. Maqollarni qiyosiy jihatlarini o`rganish asnosida ularning lingvokulturologik jihatlariga to`xtalamiz. Bu orqali tadqiq etayotgan tillarimizdagi maqollarning bir-biriga o`xshash va farqli tomonlarini, shu til egasi bo`lmish xalqning o`ziga yarasha madaniyati va o`ziga xos mentalitetini ko`rsatishga harakat qilamiz. Jumladan, o`zbek va arab maqollarining lingvokulturologik jihatlarini tahlil qilishda til va madaniyatning o`zaro bog`liqligini tasvirlash, o`zbek va arab tillaridagi maqollarning mavzu jihatidan bir-biriga o`xshash tomonlarini tahlil qilish va

ulardagi mentalitet va milliy xarakterning ifodalanishi kabi masalalarga chuqurroq yondashishiga harakat qilamiz. O'zbek xalqi uchun tarbiya hamisha dolzarb, kechiktirib bo'lmaydigan masalalardan biri bo'lib kelgan[1,70].

Paremalarda o'zbek millatining kelib chiqish tarixi bilan birga til xususiyati, grammatik vositalarni qo'llashdagi o'ziga xos ko'rinishlari namoyon bo'ladi. Til har bir millatning madaniyatini, qadriyatlarini va e'tiqodini, umuman xalqning o'ziga xos jihatlarini ifodalashda eng muhim omildir. Tilshunos olimlardan Nida biror xalqning tilini o'rganishda uning madaniyatini ham o'rganish muhim ekanligini aytadi. Uning ta'kidlashicha, til va madaniyat bir-biriga bog'liq ravishda rivojlangan o'xshash sistemadir. Umuman, madaniy faktorlar misolida tilshunos Teliya ham ma'lum xalqqa va uning tarixiga tegishli bilimlar, an'ana va qadriyatlar, kundalik odatlar va boshqa madaniy ko'rsatkichlarni insoniyatning fundamental asoslari va ular orqali dunyoni anglashini tushuntirib o'tadi. Uning aytishicha, til butun bir madaniyatni o'zida ifodalay ekan, shubhasiz, paremiologiya sohasi ham tilning egasi bo'lmish xalqning madaniyatini juda chiroyli va chuqur ifodalay oladi[1,35]. Paremalarni lingvokulturologik xususiyatiga to'xtalar ekanmiz millatning milliy xarakteri va mentaliteti haqida so'z ochmay ilojimiz yo'q. Chunki har bir xalqning madaniyati, tarixi va urf-odatlarini ixcham holda yetkazib beruvchi xalq maqollari, xalqning mentalitetini ifodalashda yetakchi o'rinda turadi. O'zbek va arab maqollarini lingvokulturologik tahlil qilganda arab va turk tilining o'ziga xos xususiyatlari, mavzu jihatidan bir-biriga o'xshash va farqli tomonlari o'rganiladi. O'zbek xalqi ko'p millatli xalq hisoblanadi. VIII asrda arab istilosidan keyin o'zbek xalqining nafaqat madaniyatiga, balki til uslubida ham sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ldi. Buni biz paremalar misolida qiyosiy tahlil jarayonida ko'rib chiqamiz va til uslubining o'ziga xos xususiyatlarini lingvokulturologik tahlil qilamiz. Arab va o'zbek maqollarida mavzu jihatidan o'xshash xususiyatlarni ko'plab kuzatishimiz mumkin. Har qanday mavzudagi maqolni ikkala tilda ham muqobil varianti bor. Buning asosiy sababi shuki, insoniyatga tegishli xislatlar, dunyodagi hamma millatga tegishlidir. Bundan tashqari, maqollarning ikkala

millatga xos o'xshash tomonlarini arablarning yurtimizga kirib kelishi bilan bog'laymiz. Alloh, halollik, mehnatsevarlik, yaxshilik, to'g'riso'zlik, tarbiya, aql-idrok, oila, adolat, insof, ustoz-shogird, do'slik mavzularini o'zida singdirgan paremlar har ikki xalq maqollarida ham birdek namoyon bo'ladi. Masalan do'stlik" g'oyasini o'zida singdirgan maqollarni tahlil qiladigan bo'lsak, arab maqollarida ham, o'zbek maqollarida ham bu mavzuga oid ko'plab maqollar ko'zga tashlanadi. Arab xalq maqollarida "Do'st do'stni qutqazishda mashaqqatga chidaydi", "Shavqatli do'st bir qorindan talashib tushgan birodardan ham afzal", "Chinakam do'st bo'lish uchun yaxshi niyatning o'zi kifoya" va shunga o'xshash ko'plab do'st haqidagi maqollarni uchratamiz [3, 35]. Bu maqollarga muqobil tarzda o'zbek xalq maqollaridagi "Do'stlik sinovda chiniqar", "Do'st do'stni kulfatda sinar", "Do'st og'ir kunda bilinar", "Hisobdan adashsang ham do'stdan adashma" [3, 35]. Yoki "Adolat" mavzusiga oid o'xshash maqollarni kuzatishimiz mumkin. Masalan, "Adolat qilichi keskir bo'lar" paremasi, "Kuch adolatdadir" maqoliga parallel tarzda qo'llaniladi. "Ilm va ilmsizlik" haqidagi maqollarga kelganda, "Ilmli uy charog'on-ilmsiz uy zimiston", "Bilimsiz kishi doim aldanadi" [3,60]. Bu kabi maqollarni o'zbek tilidagi variantlari sifatida "Ilmsiz bir yashar ilmli-ming", "Ilm yorug'lik, jaholat, zulmat", "Ilmli olar, ilmsiz oldirar" [2,226] va boshqa turli mavzudagi maqol va matallarni ko'rishimiz mumkin. Kasb-hunarga munosabat masalasida ham ikki xalqning yakdilligini ko'ramiz: "Har hunarning o'z siri bor, har ishning o'z yeri bor", "Ilmsizga ishonch yo'q, hunarsizda quvonch yo'q" tarzidagi maqollar o'zbek millatini hunar o'rganishga chaqiradi. Xalq madaniyatini ko'rsatishda maqollar eng faol vositalardan biri sanaladi. Paremlar zamirida komil shaxs tarbiyasi yotadi. Maqol yoki matallar qaysi tilda bo'lmasin, ularda har ikkala millatga ham tegishli tarbiyaviy munosabatni ko'ramiz, maqollar zamirida millat farzandini ezgullika, vatanparvarlikka, mehnatsevarlikka, halollikka, yaxshilikka va shunga o'xshash ko'plab ijobiy xislatlarga chorlash yaqqol ko'zga tashlanadi. Farzand, bolalar haqidagi maqollar o'zbek xalq maqollarida ko'proq uchraydi. Bu xalqimizning

bolajonligi, farzand tarbiyasi hamma narsadan ustun qo'yilishi bilan baholanadi. “Ona bilan bola – gul bilan lola”, “Bolali uy – bozor, bolasiz – uy mozor”. “Bolamning bolasi qandin o'rik donasi”. Ona va bola haqidagi maqollardan nafaqat kundalik turmushda, balki yozuvchilarning asarlarida ham keltirishimiz mumkin. Arab maqollarida “Olloh” mavzusi yetakchi mavzulardan biri sanaladi. Buni biz Islom dinining Arab dunyosida paydo bo'lgani bilan belgilaymiz. ”Qobil farzand jonga payvand”, “Farzand ko'rdingmi, ko'chat ek”, “Farzand baxti-ona taxti, Farzand kamoli-ota jamoli, “Og'iz bergan tangri uni berizq qo'ymaydi” bu maqollar yuqoridagi fikrlarimiz yorqin dalilidir.



Demak, xalq madaniyatini ko'rsatishda maqollar eng faol vositalardan biri sifatida bugungi kun tilshunosligida lingvokulturologik izlanishlar jarayonining muhim mavzularidan biri hisoblanadi. Har bir maqol xalqning turmush tarzini qisqa va lo'nda umuman olganda to'laligicha ifodalay oladigan ko'zgu hisoblanadi. Bu tabiiy holdir. Tilda mavjud bo'lgan leksema o'sha xalqning turmush tarzidan ya'ni xalq tilidan kelib chiqqan bo'lib, bu bevosita maqollarda ishtirok etadi va maqollar orqali xalqning madaniyati aks etadi.

O'zbek va arab tilidagi maqollarda quyidagi qiyosiy belgilar uchraydi:

- o'zbek va arab tillaridagi mehnatsevarlik, yaxshilik va yomonlik, hayvon

obrazlari qatnashgan bir qancha maqollarning o'zbek va arab tillarida birdek qo'llaniladi;

–ayrim maqollarning ijtimoiy-madaniy, kognitiv-psixologik va fiziologik xususiyatlari nuqtayi nazaridan taqqoslanadi;

- har ikki millat vakillarining kelib chiqish madaniyati ko'zga tashlanadi;

- Paremalarda o'zbek va arab xalqining lisoniy xususiyatlari namoyon bo'ladi.

Xulosa sifatida, maqollar bu xalqning madaniy merosidir. Ularda o'sha xalqning barcha o'y - fikrlari, dunyoqarashi, turmush tarzi, fe'l - atvori va e'tiqodi aks etadi. Har bir millat o'ziga xos tavsiflarga ega ekan, bu ularning maqollariga ham ta'sir etmay qolmaydi. Hatto maqollardagi mavzular o'xshash bo'lsa-da, ulardagi obrazlar takrorlanmasligi bilan ajralib turadi. Aynan ana shu tasvirlar maqollardagi milliy bo'yoqdorlikni ta'minlaydi.

Adabiyotlar

1. Amonov A.T. Paremiyalarning xususiyatlari va ularni madaniy me'ros sifatida o'rganish // Ilmiy axborotnoma // – Samarqand 2016. № 4 –114 b.
2. Mirzayev T. O'zbek xalq maqollari T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik korpaniyasi. Bosh tahririyati, 2005. – 257 b.
3. Rasulov A. Ming bir kecha T.: “O'zbekiston”, 2015, - 367
4. Ziyonet.com

70230502–Adabiyotshunoslik:o‘zbek adabiyoti

SHOIR USLUBI VA BADIY MAHORAT (USMON QO‘CHQOR IJODI MISOLIDA)

N.Norova,

BuxDU, o‘zbek tili va adabiyoti

kafedrasida tayanch doktorant,

Annotatsiya: Milliy she'riyatimizda uslub va uslubshunoslik haqida olimlarimiz qimmatli fikrlar bildirgan. Keyingi yillarda ijodkorning individual uslubi haqida qator tadqiqotlar yaratildi. Ushbu maqolada o‘zbek she'riyatining yirik vakillaridan biri, iste'dodli shoir Usmon Qo‘chqor uslubining o‘ziga xosligi va badiiy mahorati masalalari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: Uslub, uslubshunoslik, badiiy mahorat, she'r, obraz...

Har bir adabiy-badiiy hodisaning etimologiyasi bo‘lganligi singari, uslubning ham o‘ziga xos yaratilish tarixi, talqini mavjud. “Qadimgi davr ijodkorlarining uslubga doir qarashlari o‘rta asrlarga kelib, yangi qirralarda ochila bordi. Biroq uslub notiqlik san’ati sifatida o‘z mavqeini bir necha asrlar saqlab qoldi. Yevropada, aynan Fransiya ritorikasida XVIII asrda “individual uslub” so‘zi yangray boshladi.Mashhur so‘zshunos P.Giro ushbu atamani dunyoni ekzistensiatistik va essensialistik ko‘rish orqali real hayotga tatbiq etdi. U uslubni san’atning bir jihati yoki davrning bir ko‘rinishi emas, balki inson dunyoqarashining bir ozuqasi sifatida ishlata boshladi”[1,13]. Demak, uslub insoniyat tafakkuri taraqqiyotida ma’lum bir bosqichlardan o‘tib shakllandi va hozirga qadar rivojlanib,takomillashib boryapti.

Biz uslub, uslubshunoslik borasidagi jahon va o‘zbek adabiyotshunos olimlarimizning fikrlari bu borada qimmatli deb bildik.

Abdurauf Fitratning yozishicha, “shoir-yozg‘uchi san‘atkorlikda ko‘tarila borg‘an sayi(n) o‘ziga maxsus uslub yarata boshlaydir. Shoirning xayol, o‘y, tushunish shakllari tugal, komil bo‘lg‘ach, o‘ziga yarasha bir uslub ham borliqqa chiqqan bo‘ladir. Uslubning adabiyotda o‘rni juda katta, juda muhimdir. Bir asardagi fikrlar ma‘lumotlarning eski boshqa shoirlar tomonidan aytilg‘an bo‘lishi mumkindir. Ularning eskiligini bizga sezdirmasdan, bildirmasdan ifoda qilib, uni bizg‘a o‘qita olgan kuch uslubdadir” [2,17].

V.G.Belinskiy “uslub – bu talantning, fikrning o‘zi... uslubda butunligicha odam: uslub bu – fikrning oydinligi, sezilarliligi. Uslub mudom shaxsiyat, xarakter kabi original. Shu sababli har qanday ulkan yozuvchi o‘z uslubiga ega [3,79], – deya uslubni belgilovchi ko‘plab xususiyatlar yig‘indisi bo‘lgan shaxsiyatga ahamiyat qaratadi.

Adabiyotshunos N.Shukurov esa: “Individual uslub deganda, ijodkorning voqelikni o‘zicha idrok etishini, voqelikni o‘ziga xos obrazlar va ifoda-tasvir vositalari bilan aks ettirishini anglaymiz. Uslub shoir-yozuvchi asarlarida yaqqol ko‘zga tashlanuvchi, ajralib turuvchi g‘oyaviy-badiiy xususiyatlar yig‘indisidan tashkil topadi. Individual uslub haqiqiy ijodkorlik talantiga, o‘ziga xos estetik idrokka va didga ega bo‘lgan shoir-yozuvchi ijodidagina bo‘rtib ko‘rinuvchi belgidir”, – deb ta‘riflaydi [4,7].

Professor Naim Karimov uslub masalasiga quyidagicha fikr bildiradi: “Uslub, eng avvalo, badiiy tafakkurning mevasi, uning ifoda usulidir. Badiiy tafakkur xususiyatlari qanchalik xilma-xil bo‘lsa, uslubning ko‘rinishlari ham shunchalik xilma-xil bo‘ladi” [5,113].

Demak, yoqoridagi ta‘riflarni umumlaytirib quyidagi xulosaga kelamiz: Uslub –mahorat, makon va zamon, lirik qahramon, so‘z tanlash, obrazlardan foydalanish, badiiy san‘atlarni qo‘llash kabi ijodkorning poetik didi mahsuli. Uslub ijodkorlarning darajasini ko‘rsatadigan ko‘zgudir.

“Uslub va unga oid kategoriyalar, omillar, elementlar (janr, pafos, muammo, originallik, an‘ana va novatorlik, ilmiy-badiiylikning sintezi, dunyoqarash,

tanlangan metod, estetik ideal, adabiy maktabga mansublik) masalasi ijodiy jarayonning ajralmas tabiati bilan bevosita bog'liqdir"[6,18], – deydi munaqqid uslubi haqida tadqiqot yaratgan N.Qodirova. Shunga asosan, shoir uslubning omillarini quyidagilar yuzaga keltiradi :

1. Davr va muhit;
2. Iste'dod;
3. Shaxsiyat;
4. Individuallik;
5. Mahorat.

Darhaqiqat, she'riyatimizda o'ziga xos uslub yarata olgan ijodkorlar talaygina. Zamondoshlarining o'y-fikrlari, orzu-istaklari, qarashlari, kechinmalarini poetik tarzda tasvirlash, uni so'z orqali ifodalash, ijodkordan katta mahorat talab qiladi. O'ziga xos mahorati va uslubi bilan o'tgan asrning 70-yillarida she'riyatimizga kirib kelgan ijodkorlardan biri Usmon Qo'chqordir. Uning shaxsiyati, she'riyati, o'ziga xos individual uslubini zamondosh shoirlar ijodi bilan muqoyasa qilib, mushtarak va farqli jihatlarini kursatishga e'tibor qaratamiz.

Usmon Qo'chqorning birin-ketin "Hayajonga ko'milgan dunyo", (1982) "Akssiz sadolar" (1986), "Uyqudagi minora" (1987), "Og'ir karvon" (1991) she'riy to'plamlari nashr etildi. Yosh shoir she'rlari haqida turli maqolalar e'lon qilindi. Shularning birida adabiyotshunos N.Jumayev quyidagicha yozadi. "Akssiz sadolar" va "Uyqudagi minora" kitoblari Usmon Qo'chqor ijodiy takomili, mas'uliyati mahsuldor bosqichga ko'tarilganidan guvohlik beradi. Obrazlardagi tadrijiylik, shoir badiiy so'z ustida muttasil ishlayotganini ko'rsatadi. Yosh iste'dodning kitobdan-kitobga o'sib borayotgani uning o'ziga xos badiiy olami shakllanayotganiga umid va ishonchimizni oshiradi" [7,181].

Usmon Qo'chqor bunday maqtovlardan o'zini yo'qotib qo'ygani yo'q. Aksincha, katta ishtyoq, kuch bilan mehnat qildi. Shoir bo'lib maydonga chiqib, so'nggi nafasigacha shoirlikka sodiq qolganlardan edi.

Sen shoirsan – yashaysan shoshib,

Hech narsaga ulgurmas umring.

Ruhing ketar goh ko'kdan oshib.

Goho yetti qavat yerga teng.[8,4]

O'zligini topish uchun o'z-o'zini ta'qib qiladigan, yurak urishini eshitadigan, zamondoshlarining orzu-armon, quvonch-g'amlarini kuylaydigan, yong'ir yog'sa yig'lab, "quyosh chiqsa iliydigan" shoir obrazi orqali butun jamiyatni, insoniyatni birlikka chaqiradi. Ijodkor har bir obrazida, uning bitta maqsadi bo'ladi: u ham bo'lsa, aytilmoqchi bo'lgan fikrni, maqsadni xalqqa, odamlarga, bashariyatga yetkazish. Shoir Shavkat Rahmon "Baxt so'zi" (1984) she'rida: "G'am so'zini elimdan avvalroq aytdim, baxt so'zin aytaman, eldan keyinroq" [9,214], – deb yozgan edi. Usmon Qo'chqor esa ushbu fikrni oldinroq, "Shoir" nomli (1976) she'rida: Baxt haqida yozasan, magar Baxtliman, demaysan oldindan tarzida ifodalagan. Shoir ahli xalqning jarchisi, xabarchisi, uning dardlarini, baxtini kuylovchisi ekanligini mushtarak misralar ham ko'rsatib turibdi.

Shoir Xurshid Davdon: "Adabiyot – ona xalq uchun, Vatan uchun, sevgi uchun jang", – deb yozgan edi[10,53]. Usmon Qo'chqor adabiyot jangohida munosib jang qildi.

Bu asrda so'z topish og'ir,

Tushunchalar, fikrlar, hislar

So'rashadi o'zlariga nom –

Kimdir Vatan so'ragan kabi [11,83].

Shoir "Vatan nima" degan ritorik so'roq gapni o'rtaga tashlaydi. She'r mazmunida unga shunday javob beradi. Vatan – non, Vatan – Kurash! Barcha so'zlar yig'ilib bitta qutlug' kalomga so'z berdilar. Bu – Kurash! Kurash mard va jasur bobolarimizning, To'marisdek momolarimizning, Alpomishdek yovqur yigitlarimizning, so'zlari qilich kabi qayralgan shoirlarimizning asosiy quroli

bo'lganligini ta'kidlaydi. Isyonkorlik ruhiyati esa, she'riyatidagi kurashchanlikka omil bo'lgan. Har qanday orzu-istak ozod yashash zavqida tatiydi.

Erk – dunyoda eng muqaddas din,
Hurlik – dunyodagi oliy mazhabdir.
Kim agar hur bo'lsa, tavofga loyiq,
Erkini anglagan kishi dahodir.

U butun borlig'i bilan adabiyotning sehri olamiga oshufta edi. Og'ir karvon”(1991) she'riy to'plami ijodining eng gullagan yillarida yozildi.

S.Mirvaliyev, R.Shokirova “O'zbek adiblari” kitobida “Og'ir karvon” nomli she'riy to'plam haqida fikr yuritadilar. To'plamga kirgan “ko'pchilik she'rlari inson ruhiyati, ruhiy olami, ma'naviyati haqida bitilgan goh qasida, goh pomflet bo'lib yangraydi”,- deb yozadi [10,152].

Shoir o'zining “Ruhidan ajralgan odam” she'rida, ruhidan ajralgan har odam qanotsiz qushga o'xshashi, inson esa har damda, inson bo'lib qolishga da'vat sezishi, dunyo cheksizliklari, olam tashvishlari inson qalbi anduhlari haqida bahs yuritishi haqida fikr bildiriladi.

Buyuk xatarlardan tolguvchi dunyo,
Har gal omon chiqsa, olguvchi dunyo,
Quyoshga umidvor qolguvchi dunyo,

Imon, e'tiqodi butlarga qolsin, –[11,7] deya orzu qiladi. Shoir o'z she'rlarida hamisha zamonlar qiyosidan haqiqat, nur izlaydi. Insonni mukammal etguvchi ruhni izlaydi ba'zan topadi, ba'zan esa... Shunday ekan, iymon, e'tiqod, vijdon, inson ruhiyati masalasi shoir she'rlarining diqqat markazida.

Usmon Qo'chqor shaxsiyatidagi vatanparvarlik, sodiqlik, insonilik, kamtarinlik, do'stlik, mehnatkashlik kabi sifatlar to'plamlaridagi she'rlariga ko'chgan. Bu she'riyatining uslubida o'ziga xosligini ta'minlaydi. Mahorat qirralari lirikasi va tarjimonlik bilan bog'liq o'rinlarda yanada yaqqolroq ko'rinadi.

Adabiyotlar

1. Давронова М. Ҳозирги ўзбек шеърисида индивидуал услуб поэтикаси. Фил. фан. док. диссерт. автореф., Самарқанд, 2019. – Б.13
2. Фитрат. Адабиёт қоидалари. Танланган асарлар. 4-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б. 17.
3. Белинский В.. Полн. соб. соч. Т.8. М., 1955. 79с.
4. Шукуров Н. Услублар ва жанрлар. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973. – Б. 7.
5. Каримов Н. Шеърӣ шакллар ва услубий йўналишлар//Ўзбек адабиётида жанрлар типологияси ва услублар ранг-баранглиги. – Тошкент: Фан, 1983. – Б.113
6. Қодирова Н. Илмий-адабий тафаккур ва услуб масаласи (И.Ҳаққулов ижоди мисолида). Фалсафа доктори (PhD) диссертацияси, Бухоро, 2021.
7. Жумаев Н. “Уйқудаги ботирдир – минор”. “Шарқ юлдузи” журнали, 1988 йил, 6-сон, –Б.181.
8. Қўчқоров У. Ҳаяжонга кўмилган дунё. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. 4-б.
9. Раҳмонов Ш. Адабият оралаб. –Тошкент: Movarounnahr нашриёти, 2012. – Б.214.
10. Даврон Х. Қақнус. – Тошкент: Ёш гвардия нашриёти, 1987. – Б.53
10. Мирвалиев С. Шокирова Р. Ўзбек адиблари. Тошкент: Фан нашриёти, 1993 . Б- 152.
11. Қўчқоров У. Оғир қарвон. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – Б.7, 53

ISAJON SULTON HIKOYALARIDA MILLIYLIK IFODASI

Sh.G` .Davronova

BuxDU, Filologiya fanlari doktori, dotsent

Istiqlol davri o‘zbek nasrida milliylik ifodasi, ma’naviy qadriyatlarga e’tibor masalasi alohida o‘rin tutadi. Bu borada zamonaviy o‘zbek yozuvchilaridan biri

Isajon Sulton nasri, xususan, hikoyachiligi ajralib turadi. Ijodkor asarlarida milliy ruh, qahramonlar xarakteri, ruhiyati, ijtimoiy masalalardagi o'zaro munosabatlari, dunyoqarashi, fikrlash tarzida o'zbek xalqiga xos mentalitetning aks etishiga katta ahamiyat qaratilgan. Adib hikoyalarida bayon etilgan voqelikning ishonitirish kuchi, hayotiylik asoslarini ta'minlashda milliy ruh ifodasi muhim vositalardan biri bo'lib xizmat qilgan.

Milliylik badiiy adabiyotda qalamga olingan mavzu taqozosi bilan millatning urf-odatlarini, udumlari, qadriyati talqini bilangina emas, asarda xarakteri ochib berilgan qahramonning ruhiyati, tashqi ko'rinishi tasviri, gap-so'zlari, xatti-harakati, hayotiy tutumlari, xulosa va qarorlarida ham namoyon bo'ladi. Natijada esa badiiy xarakterning mukammalligi, ishonarliligi qatorida talqin etilgan hayotiy voqelikning asoslilikini ham ta'minlashga erishiladi.

Yozuvchi Isajon Sulton nasri, xususan, hikoyalari orqali shunday xulosaga kelish mumkinki, asarlarida ifoda etilgan qarashlar adibning o'z vatani va yurtdoshlariga beqiyos mehr-muhabbatidan dalolat beradi. U ona xalqidagi samimiyat, oddiylik, ishonuvchanlik, oqibat va e'tiqodni ulug'laydi. Yurtdoshlariga bo'lgan ehtiromini asarlarida badiiy yo'sinda ifoda etishga kirishadi. Uning har qaysi hikoyasida jonajon yurt va yurtdoshlar qiyofasi yangi bir qirrasini bilan namoyon bo'ladi. Adib har qaysi hikoyasida ularning yangi bir fazilatini kashf etadi.

Ijodkor asarlarida milliy ruh, eng avvalo Vatan mavzusidagi hikoyalarda namoyon bo'ladi. Bu borada ayniqsa "Men, onam va O'rta Yer dengizi", "Bayroq", "Ona yurt sog'inchi" hikoyalari e'tiborni tortadi. Ushbu hikoyalarda tug'ilib o'sgan yurt qadri, sog'inchi, tarovatining o'zgachaligi haqida so'z boradi. Hikoyalar orqali kitobxon olamdagi ajoyibotlar, go'zal maskanlar ham insonning o'z yashab turgan go'shasidagi halovatni baxsh eta olmasligi ("Men, onam va O'rta Yer dengizi"), Vatanning ozodligi va obodligi uchun fidoyilik muqaddas burch sanalishi ("Bayroq"), ona yurtga bo'lgan sog'inchi hissini tuygan insonning tuyg'ulari naqadar musaffo ekanligi ("Ona yurt sog'inchi")ni teran anglaydi.

“Men, onam va O‘rta Yer dengizi” hikoyasi qahramoni o‘g‘il onasini O‘rta Yer dengiziga sayohatga olib borgan. Albatta, ona bundan behad xursand. Ammo ona o‘sha joylarda ham o‘z yurtining dunyo ajoyibotlaridanda ajoyib, betakror tarovatini ko‘msaydi. Unda o‘zbek xalqi mentalitetiga xos bo‘lgan ahillik, hamjihatlik xususiyatlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Chindan ham o‘zbek millati o‘zining xursandchiligi, xushbaxtligini ko‘pchilikdan ayro tarzda chinakamiga his eta olmaydi, bir-birining g‘am-anduhi, mehnat-mashaqqatlariga sherik bo‘ladi. Hikoya qahramoni ona o‘g‘ilidan keyingi kelishda qishloqdoshlarini ham olib kelishini so‘raydi. “Mana, shuncha kun yurdigu yeganim iching tushmadi. Xudo yaratib qo‘ygan shu mo‘jizalarni bir o‘zim ko‘rayotganimdan iymandim. Singillaring, amma-xolalarining, tog‘ayu amakilarining, tumonat xalq turibdi u yoqda. Qo‘shni to‘y boshlab qo‘yuvdi, tog‘ang qiz chiqarmoqchiydi...” [3.13]. O‘g‘il ham bu holatdan o‘yga toladi va ota-ona, qarindosh-urug‘, el-yurt tushunchalarining mohiyatini yanada chuqurroq anglaydi.

Yozuvchining yana bir qancha hikoyalarida bugungi yangilanib borayotgan zamon, globallashuv jarayonlari va milliy qadriyatlarga e‘tibor masalasi haqida bahs yuritiladi. “Mega-intellekt”, “XXI asrning sakkiz yashar bolasi”, “Atomlar muzeyida” hikoyalari shular jumlasidandir. Yozuvchining talqiniga ko‘ra taraqqiyot, ijtimoiy o‘zgarishlar, yangiliklar insonga ta‘sir etishi mumkin, ammo o‘tmishi, tug‘ilib o‘sgan yurti, qadriyatlari insonning hayotini hamisha nurlantirib turadi, uning qalbida ezgulikka ishonch ruhini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa adibning “Mega-intellekt” hikoyasida ilgari surilgan g‘oyalar ana shunday yo‘sindagi xulosalar chiqarishga qaratilgan. Asar qahramoni zamonaviy inson timsolidir. U qo‘lidagi aloqa vositasi orqali dunyoning turli burchaklari bilan aloqa qila oladi va o‘zi istagan ma‘lumotini ham olish imkoniyatiga ega. “Yer yuzining istalgan joyidagi havo haroratinigina emas, o‘sha yerda sodir bo‘layotgan voqelarni ham bila olaman. Bepoyon ma‘lumot kengliklaridan men istagan narsani topishi uchun bor-yo‘g‘i bir necha soniya kifoya. Katta shaharlardagi yo‘llarning tiqilinchligidan tortib uchoqlarning uchish-qo‘nish vaqtigacha aytib beradi” [3.41],

deydi u. Shuning uchun ham u ushbu texnik vositani “Viki” deb nomlagan. Safardan qaytayotgan bu inson “Viki” bilan erkin muloqotga kirishib borar ekan, beixtiyor qalbi sog‘inch hissiga to‘lib borayotganligini his etadi. Onasi pishirgan mastavani eslaydi. Unga qo‘shiladigan masalliqlardan tashqari ozgina mehrning ham aralashirilganligi, shu boisdan ham taomning o‘zgacha totli bo‘lishini xotirlaydi. “Viki”ga murojaat qilar ekan, shunday tarzda muloqotga kirishadi:

“– Bolalarimning rizqi deb pishirardi, o‘shan-chun ozgina mehrini ham qo‘shvorardi.

“Viki” jim qoladi. Mastavaga qo‘shiladigan narsalar haqidagi ma’lumotlar orasidan mehr degan masalliqni topolmagan bo‘lishi mumkin” [3.43]. Shuningdek, foydalanuvchi “Viki” bilan suhbat jarayonida oqibat, uqubat, sandal, to‘y sho‘rvasi, barakot kabi tushunchalarning mohiyati haqida o‘yga toladi va “Men unga aytayotgan gap-so‘zlar hech qaysi qomusda yo‘qligini o‘zim ham yaxshi bilaman” deydi. Shuningdek, yurtining o‘zgacha tarovatini eslatuvchi tog‘rayhon isi, tandirda yangi yopilgan nonning qaynoq tafti aro yongan g‘o‘zapoya isi, kuygan bug‘doy hidi, shuningdek, darvozalar ochiq, suvlar sepilgan, piyozdog‘ isi anqigan mahalni eslaydi. Bunday tabiiy manzaralar tasviri orqali o‘quvchida ham o‘zgacha tasavvur, iliq xotiralar o‘yg‘onishi kutiladi.

Umuman olganda, Isajon Sulton hikoyalarida milliy ruh ifodasi u yaratgan qahramonlar, badiiy tasvir va ifodada yaqqol sezilib turadi va yozuvchi hikoyalarining hayotiyliigi hamda badiiy asosini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Исажон Султон насри бадийяти. – Тошкент: Turon-zamin-ziyo, 2017. – 384 б.
2. Султон И. Ҳазрати Хизр изидан. – Тошкент: Фафур Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – 384 б.

QO'CHQOR NORQOBILNING “YER HALIYAM YUMALOQ”

HIKOYASIDA INSON MA'NAVIYATI TALQINI

R.Primova,

BuxDU Adabiyotshunoslik mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining taniqli vakillaridan biri Qo'chqor Norqobil asarlarida ilgari surilgan g'oyalar xususida “Yer haliyam yumaloq” hikoyasi misolida so'z yuritilgan. Hikoyada inson va uning ma'naviy olami talqinida ijodkorning badiiy mahorati masalasiga diqqat qaratilgan.

Kalit so'zlar: adabiyot, nasr, hikoya, Qo'chqor Norqobil, “Yer haliyam yumaloq” hikoyasi, inson ma'naviyati, tahliliy yondashuv, mohiyat, obraz, talqin, badiiy mahorat.

Inson ma'naviyati masalasi qadim-qadimdan kishilar diqqatini jalb qilib kelgan muammo hisoblanib, unga e'tibor va yondashuv turli davrlarda turlicha bo'lgan. Ba'zilar ma'naviyatni kishi ruhiyatini boyituvchi omil sifatida qarasa, ba'zilar uning ijtimoiy ahamiyati va mohiyatiga ko'proq diqqat qaratganlar. Bugungi kunda ham inson ma'naviyati muammosi hayotimizning eng dolzarb masalalaridan biriga aylanib, unga yondashuv ham tobora kuchayib bormoqda. Buni ayniqsa, badiiy ijod sohasiga kuzatish mumkin.

Zamonaviy o'zbek adabiyoti namunalarida inson ma'naviyati, ma'naviy qadriyatlar, kishilarning o'zaro munosabatlarida kuzatiladigan murakkab jihatlarni qalamga olish keng kuzatilmoqda. Chindan ham adabiyot – ma'naviyatni shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi asosiy vosita hisoblanadi. Hozirda qalam tebratayotgan qator yozuvchi, shoirlarimiz ham o'zlarining yaratayotgan ijod namunalarida ma'naviyat, uning inson hayotidagi o'rnini birinchi o'ringa qo'ymoqdalar. Xususan, hozirgi o'zbek adabiyotining taniqli vakili Qo'chqor Norqobil o'zining ko'plab asarlarida ma'naviyat masalasini yoritishga harakat qilgan. Uning “Yer hali ham yumaloq” hikoyasida urushning inson ma'naviyatiga ko'rsatajak ta'siri hamda insoniy munosabatlarning ayrim nozik qirralari xususida so'z yuritilgan.

“Yer hali ham yumaloq” asari o‘quvchini fikrlashga, mushohada yuritishga, insonlar taqdiriga yana bir bor teran nazar tashlashga undaydi. Asar boshidanoq falsafiy mushohadalardan boshlanadi: “Men taqdirga ishonmayman, degan odam ayni falon kun, pakun vaqtda shu gapni aytishining o‘zi ham uning taqdiri kitobiga avvaldan yozib qo‘yilganini bilmaydi-da. Qayoqdan bilsin?! Inson o‘z peshonasidagi bitiklarni o‘qiy olmaydi. Agar shunga savodi yetganda edi, bu hayotni o‘zgartirishga urinishi gumrohlikdan boshqa narsa emasligini tushunib olardi. Bu hayotga nega kelding? Javob yo‘q. Nega ketasan? Jimlik...” [1]. Muallif tomonidan qayd etilgan ushbu o‘ylar zamirida mavjud ma’no kishini mulohaza qilishga chorlaydi.

Voqealar tizimida o‘rin olgan har bir qahramon muallif tomonidan mahorat bilan yaratilgan. Sora Aliyeva, Rais buva, Botir g‘urbat, Nik Adams, Barno, Yodgor kabi qahramonlar asarning maqsadini ochib berishga xizmat qilgan. Hamma narsani pul bilan hisoblovchi Botir g‘urbat, yolg‘iz o‘g‘li uchun hech narsadan qaytmaydigan Rais buva, Sora Aliyevaning boshidan kechirgan tashvishlariga yurak-yurakdan kuyingan Barno, afg‘on urushi qatnashchisi Nik Adams kabi obrazlar asar mohiyatidan muhim o‘rin olgan.

Ayniqsa, Rais buva va uning o‘g‘li Botir g‘urbat obrazlari e‘tiborni tortadi. Ushbu obrazlar yozuvchining o‘ziga xos uslubiy mahorati o‘laroq kitobxon ko‘z o‘ngida Sora Alievnaning o‘tmishiga nazar tashlash asnosida gavdalanadi. Biroq ular ma’naviy olamidagi kemtiklik yaqqol ko‘rinadi, ya’ni ular o‘zaro munosabatlarda manfaat, ehtiyoj va shuning kabi tashqi omillarni yuqori darajaga ko‘yadigan kishilar toifasidan ekanligi bilan yodda qoladi.

“Yer hali ham yumaloq” asarida tanlab olingan ikki farishta, ya’ni afsonaviy obrazlar asar boshidan oxiriga qadar ishtirok etadi. Ular asar kompozitsiyasini yaxlit o‘zanga birlashtirishda muhim o‘rin tutadilar. Bo‘lib o‘tayotgan ushbu jarayonlarni boshdan oxir kuzatib borayotgan ushbu ikki farishta ramziy mohiyatga ega bo‘lib, voqealar go‘yoki ularning “sehrli tayog‘i” orqali boshqariladi. “Hikoyada ikki farishta bilan bog‘liq o‘rinlar voqealarni bir-biriga

ulovchi, kesishgan taqdirni bog'lovchi vositaviy obraz sifatida o'z aksini topadi” [2]. Sodir bo‘layotgan hodisalarga zimdan nazar tashlagan bu farishtalar insoniyat tomonidan sodir etilgan va sodir etilajak barcha ishlarga “farishta” qalblari ila razm soladilar.

Asar uchun ramziy timsol sifatida yomg‘ir tanlab olingan. Hikoyaning boshlanmasi va tugallanmasida yomg‘ir yog‘ishi asosida shakllantirilgan peyzaj go‘yoki asar voqealarini bir-biriga bog‘laydi. To‘shakka mixlangan ikki bemorning ham biri yomg‘ir istashi-yu biri yomg‘ir istamasligi ushbu ikki qahramonning ma‘naviyatiga xos jihatlarni namoyon etadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Kasal ayol, ya‘ni Sora Aliyevaning yomg‘irni intiqib kutishi, “Kuzning birinchi yomg‘iri” deya entikishi uning qalbida jo‘sh urgan hislardan dalolat bersa, ikkinchi bemor obrazining yomg‘ir yog‘ishini xohlamasligi uning ehtiyoji o‘laroq, ya‘ni hovlisi bitmagani sababidan yuzaga kelgan edi.

Asarda Sora Aliyevaga shunday deb ta‘rif beriladi: “Ellik yoshdan oshgan, obro‘-e‘tibori yuksak (buni hamxona shifoxonadagi shifokorlardan tortib, hamshiralargacha unga izzat-ikrom ko‘rsatib, muomala qilishidan sezib qoldi)...” [1]. Sora Aliyevaning afg‘on urushi guvohi bo‘lganligi, uning ma‘naviy hayotiga, dunyoqarashiga ushbu urush juda ta‘sir ko‘rsatganligini asar davomida anglashimiz mumkin. Insonning besh kunlik umri bu dunyoda u uchun berilgan barcha ne‘matlardan-da ulug‘, afzalligi, umr kechirish, yashash, quyoshni his etish va unga boqish-u yomg‘irdan zavqlanishning o‘zi-da bashar uchun berilgan eng ulkan baxt ekani, tinchlik, hurlik deb atalmish ne‘matning qadrini anglash Sora Aliyevaning ma‘naviy dunyosining vaqtlar o‘tib yanada shakllanganligidan dalolat beradi.

“Yer hali ham yumaloq” asarining yana bir qahramoni “hayotni o‘rganaman” deb yo‘lga chiqqan amerikalik bir journalist Nik Adamsning ham shaxsiy hayotiga, ma‘naviy dunyosiga afg‘on urushining ta‘sirini ko‘rishimiz mumkin. Shifokor Sora Aliyevaga aytgan so‘zlari uning dunyoqarashiga afg‘on urushi qay darajada ta‘sir ko‘rsatganligining isbotidir. Hayoti davomida sodir

bo'lgan barcha yaxshi-yomon voqealar, g'am-anduhli kunlarni oddiy hayot tarzi, taqdir hazili sifatida qabul qila boshlagan Nik urush fojeasining guvohi bo'lgach, dunyo nayranglariga qo'l siltash kerakligini anglaganini ta'kidlaydi. Urush natijasida kelib chiqadigan sabablar insoniyat sodir etadigan tubanliklardan ham, qilg'iliqlaridan ham yomonroq ekanligini shifokorga ham anglatmoqchi bo'ladi. "Hikoyada Nik Adams obrazi timsolida men sizni ko'rgandek bo'ldim" [2], deb yozadi yozuvchiga maktub yo'llagan olim Marhabo Qo'chqorova. Chindan ham Nik Adams obrazi yozuvchining g'oyaviy qarashlari, ijodiy niyatining jarchisi bo'lib gavdalanadi. Uning urushga bo'lgan isyoni, urushning keltirishi kutilajak oqibatlaridan insoniyatni ogohlantirish maqsadida aslida ijodkorning badiiy maqsadiga hamohanglik mavjud. Umuman olganda, Nik Adams hayoti va uning tafakkurini tubdan o'zgartirgan sovuq urush dahshatlari har birimizni mushohadaga chorlaydi.

"Yer hali ham yumaloq" hikoyasi yuqorida qayd etganimizdek voqealarni bir-biriga bog'lab turuvchi yomg'ir tasviri bilan yakun topadi: "Tashqarida yomg'ir ezib yog'ardi. Bulut qoplagan tubsiz osmonning bir burchida falakning nigohi kabi miltillab turgan ikki hovuch nur asta-sekin olislashib, so'nib borardi" [1]. Asar ziddiyat asosiga qurilgan: o'zaro chambarchas voqealarning hodisalar zanjiri asosida tutashuvi – Sora Aliyeva va Botirning qayta ko'rishuvi – yerning yumaloq ekanligini, tog'-tog' bilan ko'rishmasa-da, inson inson bilan ko'rishishi mumkin ekanligidan dalolat berardi. Sora Aliyeva tomonidan o'g'li Yodgorga aytilgan fikrlar ham aynan shuning tasdig'i o'laroq yangraydi: "Bolam, yer baribir yumaloq ekan. Qismat kitobini Yaratganning o'zi o'qiy oladi, bolam" [1].

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Qo'chqor Norqobil tomonidan yozilgan "Yer hali ham yumaloq" hikoyasida urushning inson hayotiga ko'rsatgan ta'siri haqida so'z borishi qatorida inson ma'naviyati, kishilarning o'zaro munosabatlarida kuzatiladigan adolat, haqqoniylik, mehr-oqibat masalalari bilan ham bog'lanadi. Ushbu jihatlariga ko'ra asar bugungi kun uchun ham ahamiyatlidir.

Adabiyotlar:

1. Norqobil Q. Yer hali ham yumaloq. / Internet sayti: <https://kh-davron.uz/kutubxona>.

2. Qo'chqorova M. Ikki hovuch nur yoxud yozuvchi Qo'chqor Norqobilga adabiy maktub. / Internet sayti: <https://kh-davron.uz/kutubxona>.

TABIAT – IBRAT MANBAI (SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARI ASOSIDA)

G.J.Jaloliddinova,

BuxDU Adabiyotshunoslik

mutaxassisligi magistranti

Yozuvchi Shukur Xolmirzayev hikoyalarida erkinlik, dilga, ko'ngilga yaqinlik, qahramonlaridagi oddiylik, soddalik, samimiylik, tog'liklarga xos milliy xarakter yaqqol seziladi. Shu sababli ham kitobxon undan zavq oladi, voqealar girdobiga o'zi bilmagan holda tushib qoladi, o'zini qahramonlar orasida his qiladi: xursand bo'lsa, xursand bo'ladi, yig'lasa, birga qo'shilib yig'laydi.

Yozuvchining ko'plab hikoyalarining voqealari tog' bilan bog'liq. Ammo ijodkor ularda har gal bir-birini takrorlamaydigan, bir-biriga o'xshamaydigan, hatto, ba'zan bir-biriga umuman teskari bo'lgan voqealar va xarakterlar yaratishga harakat qiladi.

Shukur Xolmirzayevning inson va tabiat mavzusiga bag'ishlangan hikoyalarida bir jihatdan tabiatning maftunkor go'zalligi aks ettirilsa, boshqalarida tabiatga, jonzotlarga munosabat, uni talon-taroj qilish qoralanadi. Fikrimiz dalili sifatida yozuvchining "Jarga uchgan odam" hamda "Omon ovchining o'limi" hikoyalarini keltirishimiz mumkin.

"Jarga uchgan odam" hikoyasining bosh qahramoni Islomjon o'z yurtini, tog'larini sevadigan, undan uzoq yerda yashay olmaydigan tog'larini, hayvonlarini yaxshi ko'radigan chin ma'nodagi tog' odami. Harbiy xizmatga Belorussiya o'rmonlariga jo'natishadi, lekin qahramon o'sha o'rmonda turib ham qishlog'i-yu, shimoldagi tog'larini yanada sevib qolganini tuyadi, ularni juda-juda ko'rgisi

keladi. Hikoyada bir o'rinda shunday fikr uchraydi: “ Islom qishlog'iga keldi, tog'lariga sayrga ham chiqdi. Ana shunda u endi bu yurtidan bir umr judolikda yashay olmasligini, jasadi ham, alabatta, shu yerda dafn etilishi kerakligini chuqur his qildi” [1.148]. Qahramon ruhiy holati , his tuyg`ulari orqali kitobxon Islomjon haqida to'liq tasavvurga ega bo'ladi. Islomjonning tamoman aksi bo'lgan “Omon ovchining o'limi” hikoyasi qahramoni Omon o'ta beshafqat, toshbag'ir, u nafaqat tabiatga, jonzotlargagina emas, balki odamlarga nisbatan ham shafqatsiz, beparvo, befarq odam. Yozuvchi qahramon ruhiy holatini “U yoshlikdan yovvoyi hayvonlar otish va yeyish uchun yaratilgan deb o'ylar edi” [4.20] tarzida tasvirleydi. Omon ham harbiy xizmatga rus o'rmonlariga boradi, Islomjonning tamoman aksi bo'lgan bu qahramon los, ayiq otishni shu yerda o`rganadi, rusak quyonlarini otish u uchun bir ermak edi. Ikkala hikoyada ham tabiatni, uning bag'ridagi noyob o'simliklarni, qirilib ketayotgan hayvonlarni asrash g'oyasi yetakchilik qiladi. Ayni shu mas'uliyatli vazifa har ikkala hikoyadagi qahramonga ham yuklatiladi. Yozuvchi qahramonlari xarakteriga xos bunday jihatlarni ularning ruhiy holati, ichki kechinmalari tasviri bilan dalillab boradi.

Islomjonga tog'dagi o'simliklar , hayvonlar haqida maqola yozish vazifasi topshiriladi. Uning bu ishdan qanchalar mamnunligi uning ruhiy holatlari tasviri orqali mohirona aks ettiriladi. U bu ishni chin dildan bajaradi.

Sovxoz direktori tog'dagi yovvoyi hayvonlarni himoya qilish, ularning qishdan omon chiqishlari uchun ehtiyot choralari hamda ozuqa sharoitlarini yaratish vazifasini Omon ovchiga yuklaydi. Omon bu vazifaning o'zini sinash uchun topshirayotgan bo'lishlari mumkinligidan shubhalanganini anglagan direktor, “Insofingiz bor-ku, uka, agar qo'yni bo'riga topshirib qo'ydi deb o'z bilganingizni qilsangiz ham Xudo bor-ku, oxiri yaxshi bo'lmasa kerak”, deganida u “Nima bo'lardi” [2.26] deb o'ylaydi. Asardagi ushbu ichki monolog orqali kitobxonda uning shafqatsiz inson ekanligi haqidagi xulosalar yuzaga keladi.

“Islomjon miltiq ko'tarib yursa-da, kamdan kam o'q bo'shatadigan bu g'alati ovchini tog' ham, sokin o'rmonlar ham, yovvoyi hayvonlar-u beozor

parrandalar ham bilardi ” [1.148] . Omon ovchi bo‘lsa, ko‘rgan tirik jonga qarab ov uchun emas, o‘ldirish uchun, ko‘ngilxushlik uchun o‘q uzadigan johil kimsa sifatida gavdalanadi.

Ikkala hikoyada ham miltiq detali bor. “Omon ovchining o‘limi” hikoyasida ushbu detal hayvonlarni o‘ldirish uchun vosita vazifasini bajargan bo‘lsa, “Jarga uchgan odam” hikoyasida tabiat xoinidan qasos olish uchun qurol bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu hikoyada Islomjonning ruhiy holati bilan tabiat tasviri parallel tarzda chizilgan. Ayiqqa kinorejissyor o‘q uzgach, “Islom xuddi onasi o‘lgan-u nafasi ichiga tushib ketgandek baqrayib qolgan edi” [1.156]. Islomning ruhiy holati uni tabiatni, hayvonlarni qanchalik sevishini, o‘z yaqinlariday qadrlashini ko‘rsatib turibdi. “O‘q uning manglayini yorib ketgan edi. Islom botayotgan quyosh shu’lasi bir yelkasini qizartirgan holda, sekin yurib, ayiq boshiga keldi. Ayiqchalar odamlardan hayiqishmadi, ular tamshanib o‘lik onalarining sut to‘la emchagini cho‘zib-cho‘zib emishar edi” [1.156]. Hikoyada quyoshning ufqqa bosh qo‘yishi ona ayiqning o‘limi hamda Islomjonning ko‘nglidan kechayotgan kuchli og‘riq, iztirob bilan hamohang tazda ifoda etiladi. Islomjon kinorejissyordan: “nimaga bunday qilib qo‘ydingiz?” deb so‘rsa, u “qiziqmisiz? O‘ldi ... Bolalarini opketamiz”, – deb javob beradi. Nutqdagi to‘xtam , “qiziqmisiz” deyishi uning qanchalar shafqatsiz, jonzotlarga arzimas bir matohga qaragandek muomala qilishi Islomning g‘ashini keltiradi. “Uni o‘z asiriga aylantirib qo‘ygan tabiat uvvos tortib faryod ko‘tarayotgandek tuyuldi” [1.156], tabiat va inson ruhiyatidagi mutanosiblik shu o‘rinda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Chunki ayni shu damda Islomjonning ham qalbidan faryod kelayotgan edi. Islomjonning ruhiy holati go‘yoki o‘quvchiga ham yuqadi.

Islom o‘zini tabiatning himoyachisi deb hisoblar va hamisha shu mas’uliyatni his etar edi. “Islom o‘zini shu tabiatning yagona qo‘riqchisi, sodiq do‘sti, vafodori deb bilardi. Agar unga qilingan bu jabr uchun dushmandan qasos olmasa o‘zini xiyonatchi, xoin bo‘lib qoladigandek his etdi. Va Ismoil

Yusupovichning qo'ldan miltiqni tortib oldi-da, qulochkashlab uning bo'yniga soldi. Rejissyor kesilgan shox kabi jordan quyiga uchdi" [1.157]. Omon ovchi esa hayvonlarni himoya qilish vazifasini bajarish u yoqda tursin, yo'qolib ketayotgan kiyik, arxarni otib jonivorning tepaga bir sakrab, pastga qulab ketishini ko'rib zavqlanadi, otishga shunchalik berilib ketadiki, kiyiklarning qayerga yiqilib tushayotgani haqida ham o'ylamaydi, yana otgisi, jonivorning sakrab tushib ketishini tomosha qilgisi keladi. Uning uchun hayot ovdan iborat edi. O'limi oldidan ham "Olatog'da jonivor zoti qurisa, nima qilaman?" [2.33] deb o'ylaydi. Bu ichki monolog Omon ovchining qanday inson ekanini o'quvchiga anglatganday bo'ladi.

Tabiatga shafqatsiz munosabatda bo'lgan, uni halokatga mahkum etgan Omon ovchi ham, kinorejissyor ham hayvonlar qanday ayanchli o'lim topgan bo'lsa yozuvchi tomonidan ana shunday ayanchli o'limga mahkum etildi. Omon ovchining muzlab qolgan jasadini g'ajirlar "hashar" qilgan bo'lsa, kinorejissyor jarga uchib ketdi. Har qanday jinoyat, har qanday yovuzlik, albatta, o'z jazosini topadi. Biz tahlil qilgan yuqoridagi ikki hikoya ham qahramonlar o'limi bilan yakun topgan bo'lsa-da, bu ayanchli holat kitobxonda achinish, yoxud muallifning asarga bunday yakun yasaganidan norozilik hissi uyg'onmaydi, aksincha, o'quvchida qandaydir yengillik, tabiat dushmanidan olingan qasosdan rozilik hissi uyg'onadi. "Omon ovchining o'limi"da Omonni o'limga uning o'zi, aniqrog'i uning jirkanch nafsi mahkum etgan bo'lsa, "Jarga uchgan odam" hikoyasida esa Ismoilni qilmishi uchun ya'ni Islomjon uchun yaqinlariga aylanib ulgurgan hayvonlar, tabiat uchun Islomjonning o'zi qasos oldi. Hikoyalarning nomlanishiyoq o'quvchida qandaydir qo'rquv, kimningdir o'limi haqida gap borishi, unga achinish hissini paydo qiladi. Yozuvchining mahorati shundaki, bu ichki ruhiy holat hikoya so'ngida o'z o'rnini yengil tortish, nimadandir xalos bo'lish singari hislariga bo'shatib beradi.

Chindan ham adib ijodidagi ko'plab "Hikoyalardan chiqadigan ibratli xulosa, tirik jonzotlarga bepisandlik bilan qaraydigan, ularga rahm-shafqat

qilmaydigan odamlarni oqibatda ham ma'naviy, ham jismoniy halokat kutib olishi muqarrarligi haqidagi yechim tomon yetaklaydi" [4.349] Ijodkorning "Jarga uchgan odam" va "Omon ovchining o'limi" hikoyalari orqali inson va tabiat uyg'unligi, ajralmasligi haqidagi xulosalar kelib chiqadi. Tabiat va inson bir-biriga ta'sir etadi, tabiat insonni tarbiyalaydi, kamolga yetkazadi, inson tabiatni asrab-avaylaydi, himoya qiladi, rivojlantiradi. Shu asosda hayotning davomiyligi ta'minlanadi. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida ana shu haqiqat tabiatga yaqin bo'lgan insonlar obrazi talqini asosida ochib beriladi.

Adabiyotlar:

1. Холмирзаев Ш. Жарга учган одам . / Холмирзаев Ш. Сайланма. Биринчи жилд. – Тошкент: Шарқ, 2003. – Б. 147-157.
2. Холмирзаев Ш. Омон овчининг ўлими. / Холмирзаев Ш. Сайланма. Иккинчи жилд. – Тошкент: Шарқ, 2005. – Б. 19-34.
3. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент: Фан, 1991. – 384 б.
4. Давронова Ш. Шукур Холмирзаев ижодида инсонлар ва жониворлар муносабатининг бадиий талқин этилиши. / Проблемы и перспективы современной гуманитаристики: педагогика, методика преподавания, филология / *Сборник материалов международной научно-практической конференции 7 декабря 2020 года.* – Новосибирск: Академиздат, 2020.– С. 348-351.
5. Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б., Норматов У., Шарафиддинов О. Шукур Холмирзаев. / Каримов Н. ва бошқ. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999. – Б. 497-511.
6. Қўшжонов М. Доим изланишда. / Қўшжонов М. Сайланма. Икки жилдлик. Биринчи жилд. – Т.: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. – Б. 355-363.

BUXORO NIKOH TO‘YI QO‘SHIQLARIDA DIALEKTIZMLAR

G. Y.Sherbekova

BuxDU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada Buxoro nikoh to‘yi qo‘shiqlarida dialektizmlar, ya’ni shevaga xos so‘zlarning qo‘llanishi, ularning talaffuzidagi o‘ziga xosliklar, leksik-semantik va uslubiy xususiyatlar misollar asosida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: nikoh to‘yi, sheva, dialektizmlar, leksik-semantik xususiyatlar, uslubiy xususiyatlar.

Nikoh to‘yi marosimi qo‘shiqlari xalqning jonli tili mahsuli bo‘lgani uchun uchun ularda shevaga xos so‘zlar alohida o‘rin tutadi. Bunday shevaga xos so‘zlarning o‘zaro sinonim sifatida juft ishlatilishi ham ko‘p kuzatiladi:

Qolin-gilam ustida

Bir gul eding, yor-yor.

Enang bilan otangning

Bulbuliding, yor-yor.

Buxoroda “gilam” so‘zi o‘rnida “qolin” so‘zi ham ishlatiladi. Ba’zan “gilam” so‘zi “gilem” shaklida talaffuz qilinadi:

Peshkadagi qalin **gilem**

Bir guliman, hoy o‘lan.

Otam bilan onamni

Bulbuliman, hoy o‘lan.

Ushbu qo‘shiqlarda “gilem”, ya’ni “gilam” so‘zining keltirilgani bejiz emas. Negaki, Buxoroda bu soha ancha taraqqiy topgan va shuhrat qozongan. Umuman aytganda, Buxoro qadimdan kosib va hunarmandlar maskani bo‘lib kelgan. Bu makonda nafaqat do‘ppido‘zlik, balki to‘ndo‘zlik, belbog‘ (chorsi yoki belqars) tikish ham rivoj topgan. Buxoro qilich, pichoqlari, shoyi to‘nu liboslari, ayniqsa, zardo‘zisi, milliy taqinchoqlari mashhurlik qozonganligidan tilga tushib, xalq qo‘shiqlaridan obraz sifatida alohida o‘rin topgan. Jumladan, quyidagi muxammas matni bu jihatdan fikrimiz dalili bo‘la oladi:

Zar **kalapo'sh** kiyganingga

Man tasadduq.

Bozu gardoning

Jonimga ursin.

Qaqarlab kulganingda

Dushmanlar o'lsin.

Sani tuqqan onang

Maqsadga yetsin.

Keltirilgan muxammasda Buxoroda kelinlar kiyadigan zardo'zi do'ppi, ya'ni zar kalapo'sh hamda "bozu gardon" deb nomlanuvchi bo'yinga taqiladigan ayollar taqinchog'i, zebu ziynat nomi tilga olingan. Bunda lirik qahramon o'z ruhiy kechinmalarini ifodalash uchun ularni badiiy vosita qilishdan tashqari ta'rifi keltirilayotgan ayolning dushmanlarini qarg'ash, yaqinlarini alqash orqali unga sihat-salomatlik, uzoq umr tilamoqda.

Kuyovnakarlar repertuariga aloqador quyidagi "Huy bale!" qo'shig'ida esa qo'llanayotgan "jugona" so'zi ham Buxoro shevasiga xos bo'lib, "buzoq" degan ma'noni anglatadi. Bunda jugona zoosemizmi vositasida kelinning hali yosh, nima bo'layotgani va nima qilayotganidan bexabarligi, uquvsizligiga kinoya qilinmoqda:

Kelin keldi loladay,

Har ko'zi piyoladay,

Na salomu na alik,

Qo'shga qo'shgan **jugonaday**.

Huy bale!

Buxoroliklar tili o'ziga xos sheva xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xususan, O'zbekistonda buxorolik va samarqandliklar "-opti" qo'shimchasini qo'shib so'zlashishi bilan boshqa hududlardan farqlanib turadi. Bu holat esa xalq qo'shiqlari tilida yana bir lokal belgi bo'lib ko'rinadi. Masalan:

Ignaginam **yitti** deb

Urding onam, hoy-hoy.

Endi ketib **boropman**

Tinding, onam, hoy-hoy.

Yuqoridagi matnda uch holat e'tiborni tortadi. Birinchisi – “yo‘qoldi” fe’lining shevaga moslab “yitti” tarzida berilayotgani; ikkinchisi – “yor-yor” takrori o‘rnida “hoy-hoy” takrorining keltirilayotgani, uchinchisi – “boryapman” fe’lining “sheva ta’sirida “boropman” shaklida ifoda etilayotgani.

To‘y marosimi jarayonida jonli ijroda ijro qilinadigan qo‘shiqlarda ko‘pincha sheva ta’sirida qaysidir bir so‘zni buzib talaffuz aytish holatlari ko‘z kuzatiladi. Masalan, quyidagi matnlarda “sovchi” – “savchi”, “quda” so‘zi “qudo”, “rovoq” so‘zi “ravog‘”, “mo‘ndi” so‘zi “mundi” ko‘rinishida talaffuz qilingan:

Borib-kelib qudalarni surishtirgan,

Ikki yoshning yulduzini yarashtirgan

Savchilarga ko‘p salom.

Yoki:

Ravog‘dagi qaychilani

Zang bosibti, hoy o‘lan,

Undan kelgan qudolarni

G‘am bosibdi, hoy o‘lan.

Yana:

Madondagi **mundila**

Ahorimikan, hoy o‘lan.

Undan kegan qudola

Nahorimikan, hoy o‘lan.

Buxoro shevasi qarluq lahjasiga mansub ekanligi bois mazkur lahjaning eng ko‘zga tashlanuvchan xususiyatlaridan biri “a” lablanmagan, old qator, keng unlisi o‘rnida “o” lablangan, orqa qator, keng unlining ishlatishidir [4; 19].

Yuqorida keltirilgan matnlarda “qaychilar”, “mo‘ndilar” so‘zi tarkibidan “r” titroq tovushi ham tushirilgan. She’rdagi “madon” so‘zi eski tipdagi hovlilarda

katta uy to'ri tarafiga solinadigan kichkina uycha (bo'xcha va boshqa uy anjomlari saqlanadigan joy" [4; 127] ma'nosini anglatadi.

Ko'rinadiki, bunda so'zlarning yoki so'z tarkibidagi bir unlining boshqa unli bilan almashtirib aytilishi so'z ma'nosiga ta'sir qilmagan. Lekin bu horlat doim ham saqlanavermaydi. Masalan, quyidagi yor-yor matnida "o" tovushining sheva ta'sirida "a"ga almashtirib aytilishidan paronim so'z paydo bo'lgan. Buning natijasida so'z ma'nosi ham o'zgargan:

Aravaning gupchagi

Yorug' ekan, yor-yor.

Qizga bergan qo'yingiz

Ariq ekan, yor-yor.

Bunda "aravaning gupchagi "yoriq" – ikkiga bo'lingan deb ishlatish zarur edi. Chunki uning paronimi bo'lgan "yorug'" so'zi "nurli, yaxti" degan ma'nolarni anglatadi. Aravaning gupchagi esa yorug' emas, yoriq bo'lishi mumkin. Shuningdek, qiz qalini uchun berilgan qo'ylarga nisbatan ham "ariq" so'zini emas, balki unga paronim bo'lgan "oriq" so'zini ishlatish lozim edi. Xullas, talaffuzi, ya'ni aytilishi hamda eshitilishi jihatidan morfem tahlili o'xshash, ammo leksik ma'nolari boshqa-boshqa yoki qisman yaqin bo'lgan so'zlar paronimlar bo'lib, ularni ishlatishda ehtiyot bo'lish lozimligi anglashiladi.

Adabiyotlar

1. Алавия М. Ўзбек халқ маросим кўшиқлари. – Т.: Фан, 1974. – 222 б.
2. Баротова Ш. Ўзбек халқ "Ёр-ёр"ларининг жанр хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1998. – №2. – Б.46-48.
3. Бухор элда гул сайли. Бухоро халқ кўшиқлари ва термалари / Тўплаб, нашрга тайёрловчи ва кириш сўз муаллифлари - Д.С.Ўраева, филология фанлари доктори, профессор ҳамда Д.З.Ражабов, филология фанлари номзоди, доцент. – Бухоро: "Бухоро" нашриёти, 2010. – 145 б.

4. Мирзаев М.М. Ўзбек тилининг Бухоро группа шевалари. – Тошкент: Фан, 1969.

5. Степанова А.С. Метафорические замены термина «жених» в карельских свадебныхпричитаниях // Фольклор и этнография. Обряд и обрядовый фольклор. – Л.: Наука, 1974. – С. 230-235.

TYPES OF PSYCHOLOGISM IN UZBEK AND WORLD LITERATURE

M.Y.Kakharova,

PhD Student at

Bukhara State University

Abstract – The article deals with some problems and types of psychologism in literature. There are a number of scientists who differentiated the concept of psychologism in literature from psychoanalysis.

Keywords: psychologism, psychological research, external, internal, subjective aspect, spirit, creative work, mental and emotional state.

The concept of literary psychologism and the problem of psychological analysis can be found in world scientists', such as, Aristotle, Belinsky, Ginzburg, A.B. Yesin's as well as, in Uzbek scientists' A. Alimukhamedov, N. Shodiyev, H. Umurov, D. Kuronov's works. A famous psychologist and a philosopher S.L. Rubinstein stated that human inner world is a subjective aspect of real life; it seems as if a person is considered to be a subjective aspect of life. He made an extensive psychological research on human activity by describing activity as inextricable from consciousness.³⁴⁴

It is obvious that man is an essential part of literature; it is impossible to imagine creative work as a whole without the spiritual world of a person. Thus, no

³⁴⁴Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2000. – С. 13.

matter how and what genre or method is utilized by an author, the spiritual world of protagonists are reflected by various ways on literary works.³⁴⁵

The term psychologism is derived from the German word “Psychologismus” which was firstly coined by Hegelian Johann Eduard Erdmann in 1870.³⁴⁶ Psychologism³⁴⁷ (“psyche” is a Greek word—spirit and “logos” – science, subject) in literature expresses the inner world, mental state of characters, their thoughts, feelings and emotions. Psychologism has been used for a long time in literature.

Psychologism was formed at the end of the Renaissance, when the human mind began to perceive real world in European literature. During this period, the depiction of the inner world of the characters of literary works appeared in the stories of Boccaccio and in Shakespeare’s dramas, as well as, in lyrical poetry. Later, in the middle of the eighteenth century, psychologism was pervasively used in Western European literature, and it commenced to indicate the extremely complex state of inner world of characters in literary works. Furthermore, prominent European writers such as Russo, Schiller, and W. Stern began to utilize psychologism in their creative works as well.

A.N. Andreev pointed out two main types of psychologism in literature: external psychologism (open psychologism) and internal psychologism (hidden psychologism).³⁴⁸

1. *External psychologism* (open psychologism) – a writer describes the spiritual inner world of characters in his literary works. The psychological state of

³⁴⁵ Умуров Ҳ. Қаҳрамонмаънавийоламираваэпиклик. – Тошкент, Фан, 1995. – Б-4-5.

³⁴⁶ Anderson, L.R. Neo-Kantianism and the Roots of Anti-Psychologism//*British Journal for the History of Philosophy*: 2005. –P.287–323.

³⁴⁷ *Литературный словарь. – Москва: Луч, 2007.*

³⁴⁸ А.Н. Андреев. Целостный анализ литературного произведения. – Минск: Электронная книга БГУ, 2003. – С.88.

characters can be reflected in their inner monologue, dialogue and in their letters, as well as, in their imaginations and dreams.³⁴⁹

The protagonist Pip in “Great Expectations” was an ordinary country boy who could not tolerate the humiliation of people around him. One of the characters by name Estella used to ignore him; Estella used to call Pip a “boy”, and she broke his heart; she would make him feel emotionally distressed: “She came back, with some bread and meat and a little mug of beer. She put the mug down on the stones of the yard, and gave me the bread and meat without looking at me, as insolently as if I were a dog in disgrace. I was so humiliated, hurt, spurned, offended, angry, sorry – I cannot hit upon the right name for the smart – God knows what its name was – that tears started to my eyes. The moment they sprang there, the girl looked at me with a quick delight in having been the cause of them. This gave me power to keep them back and to look at her: so, she gave a contemptuous toss – but with a sense, I thought, of having made too sure that I was so wounded – and left me.”³⁵⁰

The writer delineated the psychology of the protagonist with the words and phrases such as humiliated, hurt, spurned, offended, angry, and so on.

2. *Internal psychologism* (hidden psychologism) – it is feasible to study the psychology of characters in literary works by landscape, portrait, facial expressions and gestures. Especially, it is obvious to describe the natural landscape in order to compare the emotional mood of characters in literary works. For instance, the landscape reflects vividly the main hero's mental and emotional state in the novel “The Death of the Yellow Giant”: “Trucks are plowing the land, men and women are leveling the ground, digging ditches, staring at us and waving their hands. The birds feel happy in spring, and the sky is full of birds ... Suddenly, my heart has filled with joy and happiness, and I haven't even noticed that I'm singing. My grandmother says something by

³⁴⁹Gudonene V. The art of psychological storytelling (from Turgenev to Bunin) / V. Gudonene. - Vilnius: Ed. Vilnius state University, 1998. – P. 8-119.

³⁵⁰Ch. Dickens, – London : The Electric Book Company Ltd 20 Cambridge Drive, UK, –P.85.

rubbing my hair with her rough hands, "Oh, my honey, when have you learnt to sing a song?" she smirked.

The landscape above is delineated the protagonist Hashimjan's return to his village with a happy mood as a result of the successful completion of Operation against Yellow Giant.

A profound artistic interpretation of the inner world of a person is called "artistic psychologism" in literature. To sum up, artistic psychologism is a thorough description of a character's mental and emotional state in literature. Furthermore, it is crucial to define the psychological method, which is the basis of the concept of psychologism in literature. The writer represents the outcome of his analysis in his literary works. This outcome or the image can denote artistic psychologism. Psychologism is a theory that expresses psychological concept through logical contemplation of a writer.

References:

1. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2000. – С. 13.
2. Умуров Х. Қаҳрамонмаънавийола миваэпиклик. – Тошкент, Фан, 1995. – Б-4-5.
3. Anderson, L.R. Neo-Kantianism and the Roots of Anti-Psychologism//*British Journal for the History of Philosophy*: 2005. –P.287–323.
4. *Литературный словарь*. – Москва: Луч, 2007.
5. А.Н.Андреев. Целостный анализ литературного произведения. – Минск: Электронная книга БГУ, 2003. –С.88.
6. Gudonene V. The art of psychological storytelling (from Turgenev to Bunin) / V. Gudonene. - Vilnius: Ed. Vilnius state University, 1998. – P. 8-119.
7. Ch.Dickens, – London : The Electric Book Company Ltd 20 Cambridge Drive,UK, –P.85.
8. K.M.Yusufovna, Comparative interpretation of the characters in English and Uzbek novels//*Journal of Contemporary Issues in Business and Governme*

nt–Western Australia, 2021.Vol.27,No.2.P-ISSN:2204-1990.P.1608-1615.(Web of Science)

9.KakhaovaMohigulYusufovna.Literary Analysis Of Uzbek And English Adventure And Detective Prose//International Journal of Progressive Science sand Technologies. – Spain, 2021.Volume 26, №1, 2021, ISSN: 2509-0119. –P.1-6.

10. M. Kakharova.Psychological circumstances of protagonists in autobiographical works// OzbekistonMilliyUniversitetixabarlari–Тошкент,2021. ISSN 2181 -7324. – P.233-236.

ELBEK IJODIGA SAYOHAT

SH, B.Jo'raqulova

BuxDU, Lingvistika (o'zbek tili)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tolmas ijodkor Mashriq Yunus-Elbek ijodida uchrovchi lingvopoetika tahlili hamda tilshunoslikka oid faoliyatlari yoritib berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar:lingvopoetika, jadid, arxiv, til, tinglovchi, funksiya, ilmiy-publitsistik, pedagogik, konnotativ funksiya, tarjimachilik sohasi.

Mudhish qatag'on davri qurboniga aylangan o'zbek adabiyotining adabiy vakillaridan biri Elbek- Mashriq Yusupovdir. Ijodkor 1898 yilda Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanining Xumson qishlog'ida tavallud topgan.Mashriq Yunusov – Elbek o'z faoliyatini XX asrdan boshlagan, jadid ustozlari kabi ko'pqirrali ijod sohibi: shoir va yozuvchi, folklorshunos, tilshunos olim, yirik pedagog bo'lgan. Uning ism-sharifi Mashriq Yunusov, “Elbek” esa uning adabiy taxallusidir.Uning “Imlo masalasi”, “Boshlang'ich maktablarda ona tili”, “Yozuv yo'llari”, “Go'zal yozg'ichlar” kabi asarlarisiz ona tili va adabiyot o'qitish metodikasi fani tarixini to'la tasavvur etish qiyin. Elbek – o'zbek bolalar adabiyotining yaratuvchilaridan biridir. U qisqa umr ko'rgan bo'lsa-da, o'zidan yigirmadan ziyod badiiy, ilmiy-publitsistik, pedagogik asarlar qolirishga ulgurgan ijodkor hisoblanadi.

Mashriq Yunusov kambag'al, ammo mehnatkash bir dehqon oilasida dunyoga kelgan. Elbek yoshligidan dehqonchilik ishlarida otasi Yunus bilan yonma-yon ishlab chiniqdi, dastlab eski qishloq maktabida savod chiqardi. Bolalik davri og'ir, tirikchilik mashaqqatlari girdobida o'tadi.

Lekin milliy alifbomiz, adabiy tilimiz me'yorlarini ishlab chiqqan jaded bobolarimiz faoliyati, ularning ilmiy merosini to'liq o'rganganimiz yo'q. Munavvar qori, Mahmudxo'ja Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Ashurali Zohiriy, Elbek singari sanoqligina jadidlar faoliyati to'liq bo'lmasa-da, tadqiq qilingani holda, hali Qayum Ramazon, Shokirjon Rahimiy, G'ozi Olim, Shorasul Zunun, Botu, Mannon Ramz, Otajon Hoshim, Abdulla Alaviy, Vadud Mahmud, Sanjar Siddiq, Abdulla Yo'ldosh, Yoqub Omon kabi ko'plab jadidlarning faoliyati davlat arxivida o'z tadqiqotchilarini kutib yotibdi. Shuning uchun ham adabiy til tarixiga oid ilmiy adabiyotlarda ham, oliy ta'lim darsliklarida ham o'tgan asr boshlari o'zbek tilshunosligi xususida gap ketganda, vaqtli matbuotning paydo bo'lishi, chor Rossiyasiga qarshi kurashda mahalliy ishchilar sinfining paydo bo'lishi, oktyabr inqilobidan keyingi o'zbek tilining rivoji kabi umumiy gaplar bilan cheklanilgan. Hatto, o'zbek adabiy tili tarixining bu davri, jadid tilshunoslari faoliyati haqida mustaqillikdan keyin nashr etilgan adabiyotlarda, ayniqsa, o'quv adabiyotlarida haligacha ma'lumotlar yo'q. Vaholanki, hozirgi o'zbek adabiy tili me'yorlashuvida ushbu davr juda katta o'rin tutadi.

Elbekning dastlabki she'rlari "El bayrog'i", "Turon", "Turk so'zi", "Ulug' Turkiston" kabi gazetalarda bosilib chiqqan. 1922 yilga kelib uning "Bir so'roq", "O'ksizning o'limi", "Qarg'a", "Bibixonim madrasasi", "Turkiston" kabi she'rlari "O'zbek yosh shoirlari" (1922) to'plamida jadidchi Fitrat va Cho'lpon she'rlari bilan birga e'lon qilingan.

Til tinglovchiga ta'sir qiladigan qudratli vosita bo'lgani uchun tilshunoslik fani adabiyot bilan uzviy bog'liq va bu lingvopoetika fanini yuzaga keltirgan. Lingvopoetika – badiiy asarlarda qo'llanilgan lingvistik birliklarning badiiy estetik vazifalarini, tilning konnotativ funksiyasini o'rganadi. lingvopoetika fonetik

poetika, leksik poetika, sintaktik poetika kabi turlarga bo'linadi. Matnning lingvopoetik tahlili badiiy matndagi badiiy ma'no va badiiy mazmuni aniqlash asosida lingvopoetik butunlik sifatidagi matnni baholashdan iborat

Elbek ijodida ham lingvopoetikaning go'zal namunalarini uchratishimiz mumkin:

Biroq qorin to'yg'izish

Bundan ham og'ir bo'ldi.

Kimsalarga sarg'ayib

Gulday yuzlarim so'ldi.

Ushbu she'rdagi "sarg'aydi", "so'ldi" so'zlari ko'chma ma'noda qo'llanilgan bo'lib, leksik poetikaning go'zal namunasiga misol bo'la oladi.

Yel kezar, yellar kezar, yellar kezar,

El sezar, ellar sezar, ellar sezar.

Ko'rkli dengiz suvini har yon urar,

Kayflanar, lazzatlanar, davron surar.

Elbekning "Mujdalar" she'ridan keltirilgan yuqoridagi bandda ham lingvopoetikaning namunasi mavjud. Ya'ni jumalarni takrorlash natijasida sintaktik poetikani yuzaga keltirgan. Biz yuqorida ham lingvopoetikaning turlari haqida ma'lumot berib o'tganimizdek, uning uch turi mavjud:

1. Fonetik lingvopetika-Sochining saydosi tushdi boshima boshdin yana... s, va b tovushining takrorlanib kelishi nutqning ifodaviyligini oshirib, kuchli ta'sirchanlikni yuzaga keltirgan.

2. Leksik lingvopoetika-leksemalarning ko'chma ma'nolarda qo'llanishi: Aql-u balog'atning shotilaridan yuksala beringiz sekundlar sayin (G'.G'ulom)

3. Sintaktik lingvopoetika-jumlada so'zlarning takrori:

Qon yig'ladi, hattoki, ko'lida g'ozu.

Qon yig'ladi el, elat, urug' va aymoq,

Qon yig'ladi dala-tuz, sahro, qir va bog'.

Qon yig'ladi beshikda tilsiz norasta (Shuhrat-"Mardlik afsonasi")

Elbek tarjimachilik sohasida ham qalam tebratgan. Ijodkor I.A.Krilov, A.S.Pushkin va N.A. Nekrasovning bir necha she'rlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Elbek bor-yo'g'i qirq yil yashadi. U ham 1937- yilda «xalq dushmani» sifatida qamoqqa olingan va Magadandagi lagerlarning birida 1939-yil 11 -fevralda qattiq o'pka shamollashi oqibatida vafot etgan.

Adabiyotlar

- 1.To'ychiyeva B -"O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. -T :O'qituvchi, 1996.
- 2.Elbek -"Boshlang'ich maktabda ona tili"//Tanlangan asarlar. T.:Sharq, 1996
- 3.Elbek-"Yozuv yo'llari"//Tanlangan asarlar. T. :Sharq
- 4.www.google.com

XX ASRNING IKKINCHI YARMI O`ZBEK SHE`RIYATIDA DARAXT VA MEVALAR OBRAZIDA RAMZIYLIK

M.Bog'irova,

BuxDU adabiyotshunoslik(o`zbek) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: XX asrning ikkinchi yarmi o`zbek she'riyatida daraxt va mevalar obrazida ramziylikning ifodalanishini, o`ziga xos uslub mahorati, ruhiy kechinmalarning so'zlarda akslantirilishi, ijodkor tomonidan badiiy tasvir ko'lamining kengligiga guvohi bo'lishimiz mumkin.O`zbek she'riyatidagi olma, anor, o`rik, shaftoli obrazlarini yaratar ekan, har bir ijodkor o`zining lirik kechinmalarini,so'z qo'llash mahoratini namoyish qiladi. Maqolada shu haqida fikr boradi.

Kalit so'zlar:ramziy obraz,ramziylik, sifatlash, tanosub,daraxt, olma, anor, o`rik, shaftoli, lirik kechinma, so'z qo'llash.

Ijodkor so'z qudrati qay darajada salmoqli ekanini,tubsiz ummondagi durlar kabi serjiloligini ramziylik orqali tasvirlar ekan, tafakkurni bevosita tabiatning sirli

dunyosi bilan bog'laydi. Ramziylikda pardalangan ma'noning mohiyati shoirning so'zamolligi, iste'dodining mahsuliga bog'liqligini ko'rishimiz mumkin. Adabiyotshunos olim Ulug'bek Hamdam: "Shoirlik tinimsiz ravishda tabiatga qaytishlikdir",—degan fikrni ilgari suradi. Asqar Musaqulov esa daraxt va mevalar obrazida ramziylik haqida quyidagi fikrlarni bayon qiladi: "Tarixan hosildorlik kultlarigagi suv, olov, o'simliklar kabi obyektlar xotin-qizlar qalb dunyosini ifodalashga juda qo'l kelgan. Xalq lirikasida O'zbekiston territoriyasida mavjud mevali daraxtlarning deyarli barchasi tilga olinadi, ammo olma, tut, jiyda, o'rik, anor, bodom, olcha kabi sermeva va serurug' daraxtlar juda faol qo'llaniladiki, genezisiga ko'ra bu xususiyat ham hosildorlik va serfarzandlik g'oyasi bilan bog'liq" [5.289].

Yozma she'riyatda meva obrazidagi ramziylik va undagi ma'no-mohiyat to'g'ridan to'g'ri xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi. Olma obrazi folklordagi kabi sevgi-muhahabbat, oila, farzand ma'nolarini o'zida aks ettiradi.

Olmalar yetilar g'amli zirqillab,

Ayolday bo'shalar miltiqlar o'qdan.

Boshlarda g'oyalar pishar bilqillab

Yo rabbim, nahotki... nahot men yo'qman?.. [2.320]

Ijodkor yuqoridagi misralari bilan muhitning og'ir kechmishini ifodalay ekan, yurtidagi notinchlik sabab ko'nglida g'ashlik va ana shu fikrlar lirik qahramonni sevishiga, oila qurib farzadli bo'lishiga xavf solganini ifodalaydi. Chunki erta begona sarsari o'q dastidan omon qolish-qolmasligi noaniq. Buni g'amli zirqillab yetilayotgan olmalar misolida tasvirlaydi.

Oltin shaftolilar chirib uzilar,

Zubarjad boshloqlar darddan to'liqqan...

Dinlar qulab ketar, xalqlar buzilar,

Yo rabbim, nahotki... nahot sen yo'qsan?.. [2.320]

Yuqorida keltirilgan she'riy misralarning davomida ham o'ziga xos poetik obrazlar mahorat bilan berilgan. Bilamizki, shaftoli xalq og'zaki ijodida yolg'on

muhabbat, o'tkinchi sevgi ramziy mazmunida keltiriladi. Ko'pchilik o'rinlarda olma obraziga zid ma'noda qo'llanadi. Demak, bundan ko'rinadiki, ijodkor o'tkinchi muhabbatga ta'rif-u tavsif berar ekan, sifatlash san'ati orqali uni oltinga qiyoslaydi. Oltin naqadar qimmatbaho bo'lmasin, nafs tuzog'ida qo'yilgan xo'rak vazifasini ham bajaradi. Tekin ovqat faqat tuzoqda bo'lgani kabi nafsga qul bo'lmaslik yo'lidagi bir sinov ekani bizga ma'lum. Shundan kelib chiqib, urush davrida soxta muhabbatning chirib uzilishi-yu, xalqlarning yo'qlikka yuz tutishidan ezilgan lirik qahramon Allohga murojaat qilib undan madad, ko'mak kutadi. She'ning so'roq ohanggi bilan yakunlanishi o'quvchini she'rdagi mohiyatni chuqurroq anglashga undaydi.

Shaftoli shoxida sochilar kulgu,
O'riklar oq rangda ochilgan tuyg'u.
Ilohim, kurtaklar ko'rmagay qayg'u
Tegrangda xush yoqar nasim yelganda,
Seni qutlab qo'yay bahor kelganda.

Yuqoridagi misrada keltirilgan "Shaftoli shoxidagi kulgu" o'tkinchi tuyg'ularga bo'lgan munosabat bo'lib, keyinchalik bu munosabatlar jiddiy tus oladi, ya'ni chin muhabbatga oshufta bo'ladi. Bu esa o'rikning gullari orqali badiiy ramziylikka o'ralgan holda tasvirlanmoqda. Bahorning kelishi esa pok tuyg'ular kurtak ochishidan darak bermoqda. Shuningdek, o'rik daraxti bahor kelishining nishonalaridan biri bo'lib, oq rangdagi gullari esa poklik, ezgulik kabi ramziy ma'no tashimoqda.

Ruhimda olmalar gulladi to'lib,
Nogahon gullagan eshik singari.
Taftli qo'llaringdan tutmoqchi bo'lib.
Yulduzlar qitig'in qo'zg'ar qo'llarim.
Mening dunyolarim qancha betartib,
Sening dunyolaring shuncha sarishta.
Bekasiz samoga bergali tartib

Ortingdan kelmoqda qirq ming farishta[2.320].

Lirik qahramonning ruhiy olamida “olmalar gullashi” yigit ko‘nglida nogahoniy bir ishq o‘ti tutashganidan dalolatdir. Xalq og‘zaki ijodidan bizga ma’lumki, eshik chegara, o‘tish joyi, uy-makon ma’nolarini izohlab keladi. Bu misrada “eshikning gullashi” lirik qahramonning qalbdagi chegaralarning ko‘tarilgani, u endi qalb eshiklarini mehmon tuyg‘ularga ochib qo‘yganidan darak.

Olma otsang, bilib ot,

Avval o‘zing ilib ot.

Baxtli bo‘lgan bormi, ayt,

Dunyasida solib dod [3.46].

Folklorda “olma otmoq” sevgi, yor tanlash kabima’nolarini ramziylashtiradi. Bundan ko‘rinadiki, yuqoridagi misralarda keltirilgan poetik obrazda birovga qalb qasridagi muhabbat to‘la tuyg‘ular izhorini qilishdan oldin, muhabbatga yo‘g‘rilgan olmani ilib olishi kerakligi ta’kidlangan. Buni ijodkor xalqona ruhda sodda, ravon til bilan bayon qiladi. Ramziylik nafaqat mavhum tushunchalarni yoritishda, balki to‘g‘ridan to‘g‘ri ochiq aytilishi qiyin bo‘lgan illatlar, shuningdek, ba’zi tuyg‘ularni, muhitdagi qusurlarni pardalab, o‘rab ifodalashga xizmat qiladi. Muhammad Yusufning quyidagi “qizil olma” she’rida ham ramziy obraz o‘ziga xos tarzda qalamga olinadi.

Baland shoxda qizil olma

Pishgan ekan,

Uzib olib qarasam, qurt

Tushgan ekan

Men olmani irg‘itvorsam

U dod soldi:

Tashlab ketar ekan, meni

Nega oldi?! [4.384]

Muhammad Yusufning qalamiga mansub bu she’rda “qizil olma” sevgili yor ma’nosini tashimoqda. Lirik qahramon o‘ziga baland shoxdagi quyoshda qizarib

toblandan qizil olmani tanlaydi. Baland shoxdagi meva qo'l yetmas joydaligi va tepada boshqa mevalardan ko'ra ko'rimliliigi bilan kishini mashaqqat chekib olishga undaydi. Lirik qahramon ana shu olmani qo'lga kiritadi, biroq bu olmaga qurt tushganini ko'rib tashlab yuborishga urinadi. Tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan bu she'rda ifodalanayotgan olmadagi qurt obrazi orqali shoir qizning iffati yoki bo'lmasa uning xarakter-xususiyatlaridagi illatlarni yoritishga urinadi.

Qantak o'rik qand emas,

Choyga solib bo'lmaydi.

Bevafoning nomini

Yodga olib bo'lmaydi.

O'rikning shirinligi qanday bo'lsa-da, lekin qandga o'xshab choyga solib bo'lmasligi tashbeh san'ati bilan yoritilib berilmoqda.

Bog'imning go'zal malikasi –

Anor uyg'onmadi bu bahor.

Bulutday ko'pirdi oppoq na'matak,

Bulbul uya qurdi bag'rida.

Mastona sayradi yoz tuni,

Bulbul bola ochdi xotirjam [3.54].

Anor ramziy obrazi folklorda ayol timsoli, ayol go'zalligi, jozibas, serfarzandlik ramzi sifatida talqin qilinadi. Bunda yuqoridagi misralarni quyidagicha talqin qilishimiz mumkin. Lirik qahramonning ayoli uyg'onmadi. "Uyg'onish" bu – tiriklik, hayotiylik belgisi bo'lib, misrada keltirilgan uyg'onmagan anor lirik qahramonning ayolidan judo bo'lganining ifodasidir. "Yolg'iz yog'och uy bo'lmas", –deganlaridek lirik qahramon o'ziga oppoq na'mataklardan yor tanlaydi. Shoir tashbeh, sifatlash va tanosub san'atlaridan mohirona foydalanadi.

Yo'qsil tongotarda ol karvon o'tsa,

To Mashhar bazmiga yetgunga qadar

Men shotut barglarin aylagum daftar

Har yozgan she'rlarin, oh, gulisafsar,

Senga o'qib bersa biyrona, agar

To mashhar bazmiga yetgunga qadar [1.35].

Tabiatning benazir go'zalligini ba'zan katta hayrat bilan kuzatamiz, ammo uni qanday, qaysi tilda ifodalashni bilmay qolamiz, bunday qobiliyat shoir hamda musavvirlarga berilganini yuqoridagi parchada ko'rishimiz mumkin. Bunda quyoshning chiqishi qizil karvonga qiyoslanadi. Shu karvon to kun botguniga qadar lirik qahramon qalb parchasidek bo'lmish shotut barglariga kechmishini bitmoqchi va ranglar mutanosubligini uyg'unlashtiradi. Shoir tengsiz tabiat tasvirini o'zining so'zlarida, rang va hissiyotlari orqali betokror san'at asari sifatida tasvirlar ekan, har bir kitobxonni shu manzara qo'yniga bevosita oshufta qilmay qolmaydi. Bilamizki, quyoshning ufqdan chiqishi-yu, botish manzarasini har bir inson boshqacha zavq bilan kuzatadi. Undagi qizil, olovrangdagi tovlanishlarning serjiloligidan bahramand bo'ladi. Shoir ana shu oniy lahzalarda sodir bo'ladigan huzurbaxsh daqiqalarni mohirlik bilan satrlarda chiza olgan. Xulosa shuki, ramziylik aytish mushkul, ammo aytilishi lozim bo'lgan fikrlarni ifodalash imkonini beradi. She'riyat aslida ramziylikning poydevorida tiklanadi.

Adabiyotlar:

1. Abduvali Qutbiddin. Xayol kechasi.–T.: Yozuvchi, 1994.–35 b.
2. Eshqobil Shukur. Hamal ayvoni.–T.: Sharq, 2002.–320 b.
3. Mahmud Toir. Ahli muhabbat qaydasiz (she'rlar).–T.: Adabiyot va san'at, 2014.–B.54.
4. Muhammad Yusuf. Saylanma. –T.: Sharq, 2016.–384 b.
5. Musaqlov A. O'zbek xalq lirikasi. –T.: Fan, 2010.– 289 b.

EPOSDAGI MIFOLOGIK OBRAZ (OT)NING ALPLAR HAYOTIDAGI AHAMIYATI (“ALPOMISH” EPOSI MISOLIDA)

S.B.SHamsiddinova,

BuxDU, mustaqil izlanuvchisi

O'zbek xalq og'zaki ijodi asarlari o'ziga xos obrazlar tizimiga ega bo'lib, shunday obrazlar sirasiga mifologik obrazlar kiradi. Mifologik obrazlar insoniyatning ibtidoiy qarashlar tizimi mahsuli bo'lgan miflar zaminida paydo bo'lib, bunday obrazlar xalq ertaklari va dostonlari tizimida muhim poetik vazifa bajarib keladi. Ular epik homiy tarzida qahramonlarga ko'mak beradi, taqdirning yuzaga chiqishida vosita hisoblanib, eposning voqealar rivojini boshqarib turadi. Nodira Sobirova o'zining “Epik homiy obrazining Xorazm dostonlaridagi talqini” nomli maqolasida o'zbek dostonlarida uchrovchi epik homiy obrazini ikki xil ko'rinishga egaligini aytib o'tadi:

1. Jonivor ko'rinishidagi totemistik homiy;
2. Inson ko'rinishidagi totemistik homiy.

Quyida biz jonivor ko'rinishidagi totemistik homiy otning alplar hayotidagi do'stlik va birodarlik jihatlarini tadqiq qildik.

Hayvonlar yaratilibdiki, odamlar bilan birga. Vaqt o'tishi bilan insoniyat hayotidagi roli juda o'zgargan. Avvallari ular ovlangan va omon qolishi uchun oziq-ovqat hisoblangan bo'lsa, keyinchalik asrlar o'tishi bilan odamzodga sodiq do'stlarga aylanganlar. Masalan otlar, qadim zamonlardan kechagi kunlarga qadar inson qayerda bo'lmasin, unga hamrohlik qilgan. Insoniyat tarixida bu hayvon ko'p qirrali foydali xususiyatlari bilan ajralib turgan. 20-asr boshlariga qadar faqat ot bilangina insonlar eng yaxshi yerlarni o'zlashtirish uchun minglab kilometrlarni bosib o'tishlari mumkin edi. Olimlarning aniqlashicha, otlar oilasi evolyutsiyasi taxminan 60 million yil oldin boshlangan, mana shu dalil ham bu jonivorlarning odam hayotiga nechog'lik bog'liq va ahamiyatli ekanligini isbotlaydi.

Bo'y-basti, xususiyati, insoniyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi bilan ot tasviri ko'plab fan tarmoqlari qatori adabiyot, san'at, folklorning tadqiqot manbaiga aylanib ulgurgan. Insonlar dunyoni o'z tasavvurlaricha idrok qilgan davrlarda, o'zlari xayollarida yaratgan ilohlar sharafiga qurbonliklar qilishgan. Qadimgi yunon eposlarida ham, xususan, "Iliada" va "Odisseya" da ilohlar uchun qora buqalar va otlarni so'yib, sonini kuydirib rozi-rizolik so'rashgan. Turli xalqlar "Xudolar"ining tinchlanishi uchun an'anaviy qurbonliklariga ega edilar. Shu jumladan, slavyanlar o'zlarining ilohlari Svyatovidga oq otlarni bag'ishlaganlar. Tushlar talqinida ham otlarning ayriча o'rni bor; oq ot – hayotni, ezgulikni, barhayotlikni, qora ot – o'limni anglatadi.

Insonlarning mifologik qarashlari natijasida otning boshqa olam bilan bog'liq ekanligiga ishonilgan. Bugungi kunga qadar ham bu hayvonga javobgar homiy kuchlar borligiga inonch saqlanib qolgan.

Lug'atlarda ot haqida "otsimonlar oilasiga mansub toq tuyoqli o'txo'r hayvonlar avlodi" deya izohlangan bo'lsa, "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da ot so'ziga "yirik ish-ulov hayvoni" deya ta'rif beriladi. Turkiy so'z ekanligi, uni at tarzida talaffuz etilganligi aytiladi. Mahmud Qoshg'ariy bu so'zni "qattiq talaffuz etiladigan alif bilan" deya ta'kidlaydi.

"Alpomish" eposida otlar tasviriga keng o'rin berilgan. Xususan, Boychiborni Hakimbek hayotidagi o'rni insondan-da muhimligi eposning boshidan yakuniga qadar seziladi. Boychiborning tug'ilishi va ulg'ayishi nazarkarda jonivor ekanligiga ishora qiladi, ilohiylikka bog'lanadi:

"Boybo'ring qultoy degan yilqichi quli bor edi. Alpomishga enchi (atalgan) bir tarlon biyasi bor edi. Bir yarg'oq (juni to'kilib qolgan) qulun tug'di, bu tulpor, deb Boybo'riga olib kelib bergan edi. Necha yildan beri tablada boquvli turgan edi. Choparlar kelib ketgandan so'ng tabladagi ot sag'risi toshib, yoli qulog'idan oshib, yulduzni ko'zlab, taraqqos bog'lab o'ynay berdi." [96]

Boychibor Hakimbekka atalgan, ilohiy ot. Tug'ilishidan e'tiborga loyiq deb topilmagan bo'lsa ham, Qultoy tomonidan tulpor deya munosib baholanadi.

Yozma adabiyotda ham Boychibor haqida asarlar bor. To'lan Nizom ijodida bolajonlar uchun "Boychibor" nomli ertak-dostoni mavjud. Asarda Chiborning uchqurligi, egasining murodga erishishi yo'lidagi jonbozligi ta'riflanadi. "Alpomish" eposi davomida shiddatli va qudratli ot bo'lishiga qaramay, uning kuchiga shubha bilan qarovchilar ko'p bo'ladi. Bunga oid misollarni quyida ko'rib chiqamiz.

Azaldan ot va inson o'rtasida qandaydir yaqinlik bor. Shu bois asrlar osha badiiy adabiyotlarda ot haqida ko'p yozilgan. Hatto, Hadisi sharifda ham "Farzandlaringizni ot minishga o'rgating", deyilgan. Xalq og'zaki ijodi namunalarida baxt oviga chiqqan mardlarning hamishalik yo'ldoshi ot bo'lgan. Masalan, "Uch og'a-ini botirlar" ertagida o'g'illarini "taqdir qushi"ni izlashga yuborayotgan ota Qora toy, Saman toy, Ko'k toyni hozirlaydi. Baxt oviga chiqqan Alpomish ham Qultoydan ot so'rab boradi. Ot berishga ko'nmagan Qultoyning ko'kragiga tizzasini qo'ygan Hakimbekning qistovi bilan yotgan yerida bir qur hayt tortganda to'qson to'qaydagi yilqi yig'ilib qoshiga yetadi. Dobonbiy bobosidan qolgan qo'riqni Hakimbekning qo'liga beradi. "Saman sariga tush, yo olapocha to'riga tush, shapaqning zo'riga tush" deya ixlos bilan uch marotaba qo'riq solganda har safar yollari eshilgan ipakday bir chipor otning bo'yniga tushadi. Ushbu qo'riq (sirtmoqli arqon) – taqdir ramzi, butun epos davomida hamrohlik qilgan Xudoydod ot – Boychiborni Alpomishga biriktirgan vositadir. Taqdiridan norozi noiloj ko'ngan Hakimbek otni Qaldirg'ochning oldiga yetaklab kelar ekan, singlisi Qultoy kabi Boychiborning qudratiga umid bilan qaraydi:

O'zi shunday kelgan ekan chovkar (ola bula, qora xolli) ko'k,

Quyrug'idan berisinda kiri yo`q.

Minganlarga bo`lar ekan ko`ngil to`q,

Buni minsang, aka senga dushman yo`q.

G`animlarning dodin berar jonivor,

Nazarkarda bilgin, aka, Boychibor. [Alpomish. 2019, 111]

Otlarning asosiy xususiyati ularning chidamliligi, baquvvat mushaklari va tezligidir. Eposdagi ot tasviri esa egasi bilan kuch-qudratda ham teng bo'lgan jonivor haqida hikoya qiladi. Hakimbekning yetti yoshida Alpinbiy bobosidan qolgan o'n to'rt botmon birinch(bronza)dan bo'lgan yoyni ko'tara olishi uni alp deb atash uchun kifoyadir. Boychibor esa ustida hech bir tirik jonning kuchi yetmaydigan alp bilan birga uning o'n to'rt botmon yoyini ham mashaqqatsiz ko'tarib, oltoychalik yo'lni bosib o'tadi. Bejizga Boychiborga nisbatan “Haqning yashini” [203] degan ta'rif keltirilmagan. Otning egasidek nazarkarda ekanligining isbotini Ko'sa sinchining ta'rifidan ham anglash mumkin:

Yilqichinda o'zi kelgan sinlidir,
To'bashqon tuyoqli, marol bellidir,
Arosat kuninda ajab hollidir,
Qimmatbaho ekan, o'zbekning oti.

Minganlarning haqdin yetar maqsadi,
Qo'ltig'ida to'rt yarim gaz qanoti,
Asl tulpor ekan o'zbekning oti.[**Alpomish. 2019,170**]

Insonning abadiy orzusi kosmosda va havo orqali yuqori tezlikda harakat qilish edi. Dvigatellarni ixtiro qilishdan oldin, bu orzu sehrli otning tasvirida aks ettirilgan. Xalq fantaziyasi afsonaviy otlarning obrazlarini yaratar ekan, ular aql bovar qilmas qobiliyatlarga ega, birinchi navbatda favqulodda tezlik sohibi bo'lsalar, ayrimlarida hatto qanotlar tasvirlangan. Yuqoridagi Boychibor tasviri ham mana orzu-istaklarning badiiy natijasidir.

Sinchining ta'rfi islom olamida ma'lum va mashhur afsonaviy ot – Buroqqa ham o'xshab ketadi. Buroq arab tilida “yarqiroq”, “barq” degan ma'noni anglatadi. Qur'oni Karimning “Al Isro” surasi birinchi oyatida zikr qilinishicha, Muhammad Mustafu sollallohu alayhi vasallam shu otda me'roj (tungi sayr)ga ko'tariladilar. Rivoyatlarda Buroq oq rangli, bo'yni cho'ziq, quloqlari uzun, oyoqlarida qanoti bor ot sifatida tasvirlangan. Boychiborning yana Buroq otiga

o`xshashlik jihatini tuyoqlariga gulmix urilganiga, pichoq bilan ozor yetkazilganiga qaramay, Alpomishga sadoqati va Qorajonning omonatdorligiga ziyon yetmasligi uchun samoga parvoz qilishida ko`rish mumkin:

Qolmadi-ku Boychiborning toqati,
Yozilgandir to`rt yarim gaz qanoti,
Qamchi tortdi Qorajonday zo`rabor,
Yashinday bo`p ko`tarildi Boychibor.

Ot – jangchilar va qahramonlarning yo`ldoshi. Buning barobarida insoniyatga chin do`st bo`la oladigan pok jonivor. Bahodirlar yo`lga otlar ekan, ortida qolganlar ham birodari – oti yonida ekanligi uchun ham alpdan xotirjam bo`ladilar. Yaqinlarini avval Allohga, so`ng otga ishonib topshiradilar. Hkimbek Qultoy bobosi va singlisi bilan xayr-xo`shlashayotganda Qaldirg`ochoyim akasiga tayinlaydi, har qanday vaziyatda ham otni –hamishalik birodarni xafa qilmaslikka buyuradi:

Quloq solgin menday singling nolishiga,
Egam rahm aylasin ko`zda yoshiga,
Yomonni yo`latma otning qoshiga,
Banda ko`nar tangri qilgan ishiga,
Achchiq qilib urma otning boshiga. [Alpomish. 2019, 117]

Mashaqqat bilan yo`l kechgan do`stlar oqshomlaydigan joy izlab, ko`hna mozorotga borib qoladilar. Qorong`u joydan chiqqan bir kishidan Alpomish otiga va o`ziga joy so`raydi. U yoriqdan chiqqan kishi esa “Otingizga joy bor, o`zingizga joy yo`q”, deb aytadi. Bunday javob bejizga emas. Odamlar qadimdan otda va unga bog`liq barcha atributlarda (qoziq, taqa, yugan) xosiyat borligiga ishonishgan. Eskilarning aytishicha, ot borgan xonadoniga va tuz ichgan joyiga rizq tilar ekan. O`zbeklarda shunday naql bor: “Otingdan ayrilsang ham jakkamik (yakkamix)ingni buzma”. Jakkamik — ot boylanadigan, baquvvat yog`ochdan qilingan qoziq. Uzunligi uch metr atrofida bo`lib, yarmi yer ostiga ko`miladi. Otni shunga bog`lashadi. Odatda yangi ko`chib chiqqan uy egalari oti bo`lmasa-da,

kelajakda bizning hovlida ham ot rizq tilab tursin, degan niyatda jakkamik o'ratadi.

Safar davomida uchragan har odam bahodirning otiga ta'rif beradi. Bu orqali Alpomishning qudratini chamalaydi. Boysarining cho'poni Qayqubod ham jonivorga qarab, alpning kuchini tasmollaydi, yaxshilikka umid qiladi:

Tarzingga qarayman, bir lochin shunqor,

Ostingga minibsan nazari tulpor,

Qo'shxonada tunashni ixtiyor qilgan Hakimbek ham Qayqubodni do'st deb biladi: “Qayqubod, Chibor otim senga omonat, omonatga qilmaysan xiyonat. Men yotib uxlayman, ertagi so'ng topish qilasan sog`-u salomat.”

Xaql orasida “Ot aqlli bo'ladi”, degan gap bor. Rus yozuvchisi A.Kuprin: “Ot odamdan ko'ra ancha saxiyroq, u instinkt va fiziologik hissiyotlarga ega. U mushukdan ko'ra ovozi yaxshi eshitadi, itdan ko'ra hidni tez qabul qiladi, ob-havo o'zgarishiga juda sezgir. Hayotda otga teng keladigan jonivor yo'q,” – deya ta'riflaganda haq edi. Eposda sezgir Boychiborning odamdek mulohaza yuritishi, do'sti, hamrohining taqdiridan bezovtaligi, xavotiri go'zal ifoda etilgan; “Bu kelayotgan otlar tulpor bo'lsa, ustiga mingani dushman bo'lsa, Alpomish meni minib qochsa, keyinimdan quvib yetsa, bir sho'rning yolg'iz o'g'li o'ladigan bo'ldi-da”.

Otlarda she'rning jasorati, burgutning ko'zi va irodasi, kiyikning tezkorligi, tulkinning epchilligi bor, deyishadi. Kelayotgan o'n to'rt qora otga sinchiklab tikilib qaragan Chibor ham o'ziga-o'zi taskin beradi, jonzodlarning yo'rtib kelishidan o'zining kuchini to'g'ri baholaydi: “Quvsam yetaman ekan, qochsam, qutilib ketaman ekan, ustima mingan mardimni, chin ajal qamsab kelmasa, falokatdan ozod qilib ketaman ekan”.

Oti egasiga o'xshaydi. Alpomish ham juda ko'p o'rinlarda o'z kuchiga ishonchsizlik bilan qaraydi. Alpomish va Boychibor mardlik masalasida kamtar va o'ziga haddan ortiq baho berishdan chekinadigan do'stlik timsollaridir.

Bu ikki yo'ldoshga Qorajon havaslanib, quyidagicha ta'rif beradi, Alpomishni Yusuf tal'atli, Rustam sifatli deb baholaydi:

Munday bo'ldi menga haqning farmoni,
Seni tuqqanlarning bormi armoni,
Asling odam desam behisht g'ilmoni,
Qarchig'ay changallim, qaydin bo'lasan? [140]

Alpomishning qudratini, jussasini haqiqiy o'rmon qushi qarchig'ayga mengzaydi. Qirg'iylar turkumiga bu qo'sh ov qushi maqsadigan yetmasdan qo'ymaydigan yirtqich va chayirligi bilan ahamiyatli. Ostidagi bedovi – Boychiborni ham halloslagan kuchli qushlarga o'xshatadi. Tulpor deb ataydi. Tulporlik ma'lum bir sifatlarga qarab baholanadi. Chopqir, uchqur zotli, xushbichim, chiniqqan va uzoq yo'llarda egasiga do'st bo'lgan otlarni ana shunday ataydilar. Aleksandr Makedoniskiyning Butsefali, Amir Temurning Kuno'gloni, Alpomishning Boychibori bunga misol bo'la oladi.

Har qanday vaziyatda ham bir-birini qo'llab-quvvatlash do'stlikning muhim shartidir. Alpomish Barchinoyga Qorajonni sovchi qilib jo'natadi. Yo'lga otlangan birodari Qorajonga elchilik “belgim shul: mening otimni minib borgin”, deydi.

Otlarning aksariyati odam tanlaydi. Yoqtirmagan kishisini yoniga yo'latmaydi. Uloqchi otlarda shunaqa xususiyat bor. Boychibor Qorajonni boshida yoqtirmaydi. Bundan norozi Qorajon:

Qalmoq bilsa bilmaganing bildirar,
Bul otingman ko'rsa seni o'ldirar,
Bunday yomon cho'bir senga ne darkor?
Senda bordir shohlik, davlat, kirdikor,
Minib ko'rdim yomon ekan Boychibor.

Boychiborning qaysarligi Alpomishga vafosi, sadoqatidan darak beradi. Qorajonga Alpomish ishonsa ham Chibor otda unga nisbatan gumon va ehtiyotlik bor. Egasining sihatidan qayg'uradi. Qorajon Allohning birligi va borligiga yana bir bor iymon keltirib, kalimayi shahodatni aytmagunicha shu tariqa yo'rtib

qiynaydi. Qorajon kalimani takrorlagan bo'lsa-da, yuragida g'ayirlik paydo bo'ladi-yu, bir zum o'ylaydi:

“Shuning otini bo'lsa, oldim. Dinidan qaytib, qalmoqlarning ichiga ketsam”... Ammo eposda e'tirof etilgani kabi:

Hayvonzodning esi bordir Boychibor,

Aqli bordir odamzoddan ziyoda. [323]

Insondan-da aqli deya tariflangan, Qorajonning faqat Allohga ayon ko'nglini, qalbidan kechgan qora maqsadini sezgan Boychibor yurishdan to'xtaydi. Hayratlangan Qorajon Allohga hamd aytar ekan deydi: “Mingan oti shunday nazari, albatta, dini barhaq”. [157]

Otning do'stligi, vafosi ko'ngliga shayton oralab, raqibligi, dushmanligi ustun kelayotgan Qorajonning iymonini mustahkamlaydi, o'z navbatida, buyuk uchlik – Alpomish, Qorajon va Boychibor do'stligini yuzaga keltiradi.

Eposda ot tasviriga keng o'rin berilgan. Ko'kaldoshning Ko'kdo'nani, Toychixonning olapocha to'riqi, shapaq oti, saman oti nechog'lik zo'r bo'lmasin, Boychibor ayricha, nazarkarda. Alpomishning maqsadiga erishtirish uchun yuborilgan ilohiy taqdir sababchisi va eng muhimi, Hakimbekka ham do'st ham ini kabidir. Otiga ixlosi baland Alp Qorajon bilan birga uni Barchin uyushtirgan poygaga yuborar ekan, qayg'u chekadi:

Sen ketgan so'ng qolmas mening toqatim,

Boychibor edi-ku mening ulfatim.

Ot ketgach so'ng qolmas mening quvvatim,

Necha kundir sening kelar muhlating?

Qudratini o'zidan emas, Alloh rafiq deya yuborgan otiga bo'lgan ishtiyoqi, muhabbatidan bilgan Alpomish Boychiborni ulfat – do'st, hamdam, mahrami joni ekanligini ta'kidlaydi.

Barchin uyushtirgan poygada 500 ta ot ishtirok etadi. Ularning har biri uloqchilikda tengi yo'q. Boychiborga nisbatan ishonchsiz qaragan raqiblar uni har xil ataydilar. Birovi:

Kunba-kun yursa ochilar,

o`zbekning oti hiylagar” , desa, yana boshqasi:

Hayvon ham bo`lsa jodugar,

Bul otdan hamma bexabar.

O`zarmikin shul ukag`ar,

Farqlamaydi aqli yo`qlar”, [191] deya otni epsizlikda ayblaydi.

Eposning birinchi qismida Alpomishning Boychibor va Qorajon bilan do`stligi berilgan bo`lsa (asarning 96-betidan 220-betiga qadar Boychiborning do`stligi), ikkinchi qismi 90% do`stlik tarannumiga bag`ishlangan. Ikkinchi qismda Boychiborning do`stligi sinovdan o`tadi, Alpomish dushmanlik sabab qancha mashaqqat cheksa, otning ham shuncha joni azobda qoladi. Yetti yillik ayriliqda, asirlikda qolgan Alpomishning ahvoli nechog`lik tang bo`lmasin, Boychibor undan ziyod mashaqqat chekadi.

Egasining ahvolini ko`radi,

Kishnaganda ko`z yoshi sel bo`ladi,

Xudoning irodasi shunday bo`ladi. [**Alpomish. 2019, 324**]

Bandilikda ranj chekkaniga qaramay, Qorajonning qutqarishini qabul qilmagan Alpomish Boychiborning do`stligini ma`qul ko`radi. Quyidagi tasvirda otning qudrati hayot yo`lida insonga uning o`zidan ham ko`proq matonat va jasorat ko`rsatishi ulug`lanadi.

G`ul-u zanjir mayda-mayda bo`ladi,

Bu parchindan o`zin ozod qiladi.

Bu shahardan kishnab ketib boradi,

Murodtepa qarab endi jo`nadi. [**Alpomish. 2019, 410**]

Eposda insoniyat va hayvonotning do`stligidagi farqlar yaqqol seziladi. Odamzod kun kelib do`stlikka barham berishi, qilgan yaxshiligini malomat qilish mumkin. Insonlar o`rtasidagi do`stlikka qachondir putur yetishi ehtimoli yo`q emas. Ammo jonzod va inson o`rtasidagi do`stlik abadiydir. Hayvonlar o`z do`stlarini umrbod unutmaydilar. Hayotlarining so`nggiga qadar vafo ko`rsatadilar.

Havolanib uchgan suqsur shaylandi,
Qalmoqlar ichiga g`amlar joylandi,
Sarosima bo`lib bari o`ylandi,
Ko`ring nazarkarda bekning chibori,
Yetti marta bu zindonni aylandi. [Alpomish. 2019, 410]

Do`stlik singari mehr-muhabbat tuyg`usi ham insonlardan ko`ra hayvonot olamida tabiiy, samimiy va soddaroq. Qo`ng`irotga oti hamrohligida kirib kelgan Alpomishni top`-to`p bo`lib to`qaydagi yilqilar kutib oladi. Chiborning tovushini bilgan, yetti yillik ayriliqning zahmini chekkan Tarlon biyaning yeliniga sut keladi. Bu holdan ta`sirlangan Alpomishning xo`rligi kelib, deydi:

Solma yuragima dog`-u alamni,
Mendan burun sen ko`rgansan enangni,
Men ham borib ko`rsam senday enamni. [Alpomish. 2019, 460]

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, turkiy xalqlar og`zaki ijodida ot totemiga alohida ahamiyat berilgan. Arxeologik qazishmalar davrida yarmi ot va yarmi odam shaklidagi tasviriy asarlarning topilishi otga e`tiqodning qadimiy ramzidir. “Go`ro`g`li” turkumidagi dostonlarda G`irot, “Alpomish”da Boychibor, qirg`iz eposi “Manas”da Oqula, oltoy turkiylarining eposi “Maaday Qora”da Karish Quloq kabi otlar obraziga katta e`tibor berilishi totemistik qarashlar natijasidir.

“Alpomish” eposida otlar tasviriga keng o`rin berilgan. Boychiborni Hakimbek hayotidagi o`rni insondan-da muhimligi eposning boshidan yakuniga qadar seziladi. Boychiborning tug`ilishi va ulg`ayishi nazarkarda jonivor ekanligiga ishora qiladi, ilohiylikka bog`lanadi.

Adabiyotlar:

1. O. Madayev, T. Sobitova. Xalq og`zaki poetik ijodi. – Toshkent: Sharq, 2010. 21-b.
2. Алпомиш. Ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси. Нашрга тайёрловчи Т. Мирзаев. – Тошкент: Фан, 1999, 144-б.

USMON AZIM IJODIDA LINGVOPOETIK VOSITALARNING QO`LLANISHI

R.K. Fayziyeva

BuxDU, magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Usmon Azim she'riyati, uning badiiy mahorati, lingvopoetik vositalarning qo'llanishi, jumladan metafora va takrorlarning ifodalanishi, ijodkorning o'ziga xos uslubi haqida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Usmon Azim, takrorlar, metafora, lingvopoetik vosita, jonlashtirish, antiteza.

Shoir va yozuvchilarning tildagi mavjud leksik va fraziologik birlikdan foydalanish mahorati, uning individualligini ko'rsatib beradi. Shoir she'riyati tilini lingvopoetik jihatdan tadqiq etish jarayonida uning tasvirning usul va vositalarini yaxshi bilish va o'z she'rlarida ulardan mohirona foydalanishig guvoh bo'lamiz. Tahlil jarayonida shoir asarlarida lingvopoetik vositalarning keng qamrovli ekanligi, ularning xalqona ohang ohang hosil qilishda, takrorlanmas badiiy obrazlar yaratishda hamda boshqa shoirlar ijodida uchramaydigan turli xil ma'no nozikliklarini poetik tasvirlashda eng muhim vositalar ekanligi ko'rinib turadi. Tilimizda badiiy asar tilinin emotsional-ekspressivligi, obrazligini ta'minlashga xizmat qiluvchi bunday vositalar "lingvopoetik vositalar", "troplar", "uslubiy vositalar", "stilistik figuralar" singari turli nomlar bilan yuritiladi.

Ana shunday vositalardan biriga o'xshatish etaloni kiradi. O'xshatish deb "ikki narsa yoki voqea-hodisa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini bo'rttirib ifodalash"³⁵¹ Tilimizda kundalik turmushda qo'llanadigan an'anaviy o'xshatishlar ham ko'p. Usmon Azim ijodiga nazar tashlaydigan bo'lsak, turli narsalar, holatlarni tasvirlashda bir-biriga o'xshamas, o'ziga xos, takrorlanmas o'xshatishlarning guvohi bo'lamiz.

³⁵¹ Shomaqsudov A, A.Rasulov, R. Rustamov O'zbek tili stilistikasi.- Toshkent: O'qituvchi, 1983,239-bet

Usmon Azim "Beshavqat ballada" she'rida to'yma-to'y yuruvchi raqqosa tasvirini berar ekan, o'z munosabatini ifodalashda o'xshatishga murojaat etadi. Shu orqali raqqosa obrazini kitobxon ko'z oldiga gavdalantirib beradi.

Ishva bozori bu!

Stollar rasta!

Torning g'ilofida pul dasta-dasta...

Raqqosa! Davrada ildam, ildam suz!..

Nega sozing - olov. ko'zlaring - naqmuz!

Ushbu parcha orqali raqqosaning holatini mohirlik bilan tasvirlab bergan. Bunda sozini olovga, ko'zlarini esa muzga o'xshatgan. Bu yerda faqat raqqosa obrazini tasvirlabgina qolmay uning atrofidagi, unga bog'liq bo'lgan voqea-hodisalarga ham o'z munosabatini bildirib o'tgan. Usmon Azimning "Sog'inch" she'riy to'plamidan olingan ushbu parchada esa dunyodagi eng buyuk zot bo'lmish onani tasvirlab bergan:

Derazaga ho'l bag`rin bosib,

Kuzak tuni surganda xayol -

Men eng go`zal she`rimni yozib,

Sizni eslab yig`lashim ayon.³⁵²

"Onamga maktub" she'ridan olingan ushbu parcha g`oyatda ta'sirchanligi bilan ahamiyatga molikdir. E'tibor qaratsak, shoir "ho'l bag`rin" jumlasini ishlatgan. Aslini olganda qalb hech qachon ho'l bo'lmaydi, lekin shoir onasini eslab ko'ziga yosh olib volidasi eslashi "ho'l bag`ir"ga o'xshatilgan. Xayol surib turgan shoir ijodidagi eng go`zal she'rini onasiga bag`ishlab yozishi aniqligini aytib o'tadi. Shoir xuddi to'plamidan olingan ya'na bir parchaga diqqat qaratsak:

Oftob g`olib keldi- muqarrar-

Kiyimini yechmasin qancha

³⁵² Azim Usmon. Сайланма: Шеърлар. -Тошкент: Шарқ, 1995

Termizdan to Toshkentga qadar

Yoz yiqildi shundoq chalqancha.

Yoz faslining kirib kelishi tasvirlangan ushbu misralarda bolalik chog'laring ham tasvirini ko'rishimiz mumkin. Yoz fasli kirib kelishi bilan haroratning yuqorilab ketishi quyoshning g'olib bo'lishi g'oyat badiiy tarzda ko'rsatigan. Ana shunday mavsumda hech kimga sir emaski, yosh bolalar ustki kiyimlarini yechib yurishadi. Shoirning mahoratiga ya'na bir bor guvoh bo'lamizki, bu yerda ijodkor o'z tug'ilib o'sgan diyoriga ham ishora qilib ketgan. Biz bilamizki, Usmon Azim Boysun Tumanida tavallud topganlar. "Termizdan to Toshkentga qadar" deyilishi ham bejiz emas, ya'niki o'z tug'ilib o'sgan diyoridan to poytaxtgacha yozning hukmronligi boshlanganligi tasvirlab berilgan. Shoirning "Samarqand bo'ylab tungi sayr" she'riga diqqat qaratsak, o'zgacha bir hodisaga duch kelamiz. Bunda ijodkor o'zgacha uslubdagi o'xshatishdan foydalanadi.

-Samarqand, ildizing qayerda

-Kechangni chiroqlar parchalab tashlagan

tun bilan nur o'rtasida

uzun arvoqlar - minoralar ketib borar

kelajak sari

ba'zan oyga boqib

to'xtab qolishar

(azon sasi urildimi quloqlarga)

Ana endi ushbu parchaga diqqat qarataylik. Bu yerda bir emas, bir necha o'xshatishlardan foydalangan shoir. Kechaning chiroqlar parchalab tashlashi ham o'xshatishning bir turi. Yoki "Tun bilan nur" deyilganda nur deganda quyoshning zarrin nurlarini nazarga tutishi ham ko'chim. Misralardagi eng ta'sirchan o'xshatishlardan biri bu - minoralarni arvoqga qiyoslanishidir. Minoraning arvoqga o'xshatish hech kimning xayoliga ham kelmaydi. Bu esa Usmon Azimning ijodiy mahoratidan dalolat.

Usmon Azim o'z she'riyati bilan badiiy adabiyotda munosib o'rniga ega bo'lgan, lingvopoetik vositalardan, jumladan, takrordan o'ziga xos tarzda foydalana olgan shoirlardan hisoblanadi. Uning she'rlarida tabiatning turli fasllariga xos jonli tasvirlar, insonlar o'rtasidagi munosabatlar chigalligi, turmush tashvishlari va ziddiyatlaridan ozor chekuvchi inson obrazi doimo birinchi o'rinda turadi. Quyidagi parchada tabiat hodisasi bo'lgan yomg'ir yog'ishi va inson ruhiy holati takror vositasida yaqqol o'z aksini topgan:

Ohista-ohista yog`adi yomg`ir,
Ohista-ohista qo`zg`alar shamol.
Ohista-ohista to`kar yumshoq nur
Bulutlar bag`ridan ko`ringan hilol.
Ohista-ohista yig`laydi bir qiz,
Kaptar patidan ham mayin dardlari...

Usmon Azim she'rlarida shoir obrazli tafakkurining nihoyatda keng qamrovli ekanligi, kutilmagan holatlar, hamma birday idrok qilavermaydigan, faqat o'tkir aql va mushohada egasigina ko'ra oladigan eng nozik lavhalar o'z badiiy qiyofasiga ega bo'ladi. Shoir boshqalar nazarida oddiy tuyulgan holatlardan badiiy ko'rinishlarni o'z nozik didi bilan ilg'ay oladi va ularni turli lingvopoetik vositalar orqali misralarga soladi. Ma'lumki, alohida olingan shoir yoki yozuvchilar badiiy asarlarini lingvopoetik jihatdan tahlil qilishda poetik nutqning fikr ifodalashdagi imkoniyatlari shu asar misolida o'rganib chiqiladi. Usmon Azim ona tilining keng imkoniyatlaridan foydalanib, xalq tilida qo'llanilib kelayotgan ma'lum darajada milliylik ufurib turgan so'z va iboralarning ma'nosini matnga bog'liq holda kengaytirishga harakat qiladi. Milliy-ma'naviy qadriyatlarni, asrlar davomida shakllangan urf-odatlarni o'zida aks ettirgan ona tilimiz lug'at boyligini shoirona tafakkur bilan ilg'ay olgan shoir o'zining har bir she'rida so'z

tanlashda ana shu mezonlarga tayanadi, tanlangan birliklarni o'z tafakkur chig'irig'idan o'tkazadi. Quyidagi parchada shoir bir so'zni – Ona so'zini takror qo'llash bilan inson turmushi tarzi, farzandning ona oldidagi burchi, unga munosabati kabi jiddiy masalalarga kitobxon e'tiborini qaratadi:

Ona, kelganingizda
Ko`ylak olib bermadim..

Pulim yoq edi, **ona**.

Ona, kelganingizda
Ochilib gaplashmadim...

Vaqtim yo`q edi, **ona**.

Badiiy til adabiy asarning mazmunini ochadi. Badiiy tilning asosiy xususiyati unda tasviriylik va emotsiallikning mavjudligidir. Bu esa lingopoetik vositalar orqali namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. -Toshkent: Ma'naviyat, 2008, -175 bet.
2. Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981, -60 бет.
3. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. – Тошкент: Фан, 1987, – 88 бет.
4. Азим Усмон. Сайланма: Шеърлар. -Тошкент: Шарқ, 1995.
5. Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати. – Тошкент, 1962.
6. Ҳасанов А.А. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари тилининг бадииятини таъминловчи лексик-стилистик воситалар. Филол. фанлари номз... дисс. автореф. -Тошкент, 2010.
7. Каримов С.А. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. Ўқув қўлланма. – Самарқанд: СамДУ, 1994.

8. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. - Самарқанд: Зарафшон, 1992,– 140 бет.

**70230301 - Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik
(tillar bo'yicha)**

**“SADDI ISKANDARIY” DOSTONI NASRIY BAYONLARINING
QIYOSIY TAHLILI**

Z.Sh.Mulloqulova

Buxoro davlat universiteti

Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Maqolada “Saddi Iskandariy” dostonining nashri va nasriy bayoni, ular o‘rtasidagi tafovutlar qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar:“Xamsa”,bob, so‘z, bayt, hikoyat,doston,nasriy bayon,nashr,izoh.

Ulug‘ shoir Alisher Navoiy asarlari nashrlari turli yillarda nashr qilindi. 60-yillarda boshlangan ulug‘ adib, davlat va jamoat arbobining 525-yillik umr to‘yi tantanalari shaxdam ilgarilayotgan navoiyshunoslikni yanada yangi taraqqiyot pillapoyalariga olib chiqdi. Taniqli adabiyotshunos Porsoxon Shamsiyev tomonidan amalga oshirilgan «Xamsa»ning mukammal nashri (Toshkent: «Fan», 1960), 1968 yilda Alisher Navoiy tavalludining 525 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi FA Til va adabiyot instituti tashabbusi bilan nashr qilingan shoir asarlarining XY jildligi nashrdan chiqdi. Shoirning XX jildlik “Mukammal asarlar to‘plami” esa mustaqillik sharofati tufayli dunyo yuzini ko‘rdi. Bundan tashqari, “Xamsa” dostonlari alohida, nazm-u nasrda qisqartirilgan hollarida ham nashr qilindi. Jumladan, “Saddi Iskandariy” dostoni bir necha bora nashr qilindi. Doston 1978-yilda Inoyat Maxsumov va 1991-yilda Mavjuda Hamidova tomonidan (Inoyat Maxsumov nasriy bayoni asosida qayta to‘ldirib nashrga tayyorlovchi) nasriy bayonlari amalga oshirildi.

Inoyat Maxsumov amalga oshirgan nashrda so'zboshi ham, nashr so'ngida sharh va izohlar ham berilmagan. Asar 89 bobdan iborat. Mavjuda Hamidova nashrida esa nazmiy va nasriy bayondan iborat, nashr so'ngida tarixiy va afsonaviy shaxslar, jug'rofiy nomlar izohi ham keltirilgan, asar hajmi 89 bobdan iborat.

Mavjuda Hamidova o'z nasriy bayonini asarning 1-bobidan boshlagan, Inoyat Maxsumov bayonida esa an'anaviy kirish boblar davr siyosati sababli tushirib qoldirilgan, har bir bobga alohida sarlavha qayd etilgan. Nasriy bob sarlavhalari va nomlanishi qiyoslanayotgan Mavjuda Hamidova bayoni bilan bir xil faqatgina Mavjuda Hamidovanning kiritgan yangiligi sifatida ta'kidlash joizki, Inoyat Maxsumov nasriy bayonida keltirilmagan 20-21-22-36-boblarni kiritgan, ya'ni Inoyat Maxsumov nasriy bayonini qayta to'ldirgan.

Mavjuda Hamidova tomondan tayyorlangan nasriy bayonni Alisher Navoiy "Mukammal asarlar to'plami" ning XI jildi bilan qiyoslaganda ularo'rtasida turli jihatlar ko'zga tashlanadi. Masalan, 40-bobning sarlavhasida ham so'z qo'llash bilan bog'liq farqni ko'rishimiz mumkin: "Yoshlik yelining sabohati-go'zalligi (undan o'qtin-o'qtin yorug'lik yuzlanur) va yigitlik gulzorining tozaligi (uning gullari har lahzada ochilib). Yoshlikning shunday go'zal damlarida quyoshdek yosti qdan bosh ko'tarib, ochiq chehrani ko'rsatmoq va bu faslda binafshadek belni bukib, mehnat va toatga bo'yin qo'ymoq zarurligi haqida" [Mavjuda Hamidova, 1991:657]. Mazkur bob Inoyat Maxsumov nasriy bayonida: "Tong yelining sabohati go'zalligi ..." [Inoyat Maxsumov, 1978:122] tarzida keltiriladi. 1993-yilda nashr etilgan Alisher Navoiyning 20jildlik mukammal asarlar to'plamining 11-jildida "Sibo subhining sabohati ta'rifidakim..." [Navoiy, 1993:282] tarzida keltiriladi. Navoiy asarlari tilining izohli lug'atida esa bu so'z quyidagicha izohlangan: **Sibo**-yirtqich, hayvon. Ushbu izohdan ma'lumki, bu so'z badiiy matnda hech qanday ma'noga ega emas. So'z tarkibidagi birgina harfning almashishi matnning "ma'nosiz" bo'lib qolishiga sabab bo'lib qolgan.

Nasriy bayonlarda baytlarning tushib qolish holati ham ko'zga tashlanadi. Jumladan, asarning “Mukammal asarlar to'plami” dan o'rin olgan XXI bobning o'n uchinchi bayti Mavjuda Hamidova tomonidan amalga oshirilgan nasriy bayonida keltirilmagan:

Yana ravzaning sabzasiza'faron,

Isi xastalar jismidin za'fron.[Navoiy,1993:120]

Ayni ushbu bayt mazmunini izohlash uchun baytda keltirilgan “za'faron” va “za'fron” so'zlarining ma'nosiga e'tibor qaratdik.1.**Za'faron**-sariq rangli dorivor,-aylamak,-etmak-sarg'aytirmoq,sariq tusga kiritmoq.2.Za'fron-quvvatsizlikni ketkazuvchi[Botirbek Hasanov,1993:99].Ya'ni, jannatning go'zalligini za'faron orqali tasvirlab,uning ifori xastalarga quvvatsizlikni ketkazuvchi dori kabidir deyilmoqda.Mazkur so'zlar izohidan foydalanib,bayt mazmunini shunday izohlashimiz mumkin,ushbu baytda ishq kuylangan,yagona va buyuk zot Yaratuvchi ishq madh etilgan.

Fikrimizcha, xuddi shunday mulohaza ayni XXII bob bayonida ham ko'zga tashlanadi. “Saddi Iskandariy”dostonida har bir voqeaning tasviridan so'ng uni sharhlovchi,mohiyatini tushunishga yordam beruvchi umumlashma tarzidagi bir ibratli voqea yoki hikoya keltirilgan,ularning ba'zilar tarixiy shaxslar hayoti va tajribasiga oid bo'lsa, ba'zilar sof xayoliy, allegarik mazmunga egadir. Mavjuda Hamidova nasriy bayonini baytma-bayt kuzatgan holda,Alisher Navoiy XXjildlik“Mukammal asarlar to'plami” XI jildidan o'rin olgan XXII bobda keltirilgan hikmatning o'ninchi bayti mazmuni ham yoritilmaganligiga guvoh bo'ldik.

Qachon bir adusini past ayladi,

Aning mulkini zerdast ayladi.[Navoiy,1993:125]

Ushbu baytni izohlash uchun Alisher Navoiy asarlari tilining to'rt jildlik izohli lug'ati birinchi jildiga murojaat qildik.Baytda “adu” va “zerdast” so'zlarining izohi bayt mazmunini yoritishga yordam beradi. Adu / advudushman,yov,raqib.[Navoiy,1983:44].

Zerdast-1.Tobe,mute,mag'lub,zaif;2.karam,taslim bo'lish[Navoiy,1983:633]

Mazkur so'zlar izohidan anglashimiz mumkinki,ayni adolat ta'rifi keltirilgan 22-bobda “Shoh agar qaysidir dushmanni mag'lub etsa,uning mulkini ham taslim etgan bo'ladi” mazmunidagi fikrni tushunish mumkin.Demak,yuqoridagi mulohazalardan xulosa qilinadigan bo'lsa,Navoiy asarlarining har bir bobi,har bir baytini bir-biridan ayri holda to'liq tasavvur eta olmaymiz,ular ayni bir tirik organizmni tashkil etadi.

Adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati.IV jildlik,Ijild.Toshkent:Fan,1983.-656b.
2. A.Navoiy.Saddi Iskandariy.(Inoyat Maxsumov nasriy bayoni).- Toshkent:G'. G'ulom,1978.-285b.
3. A.Navoiy.Saddi Iskandariy.(Mavjuda Xamidova nasriy bayoni).- Toshkent:1991.-829 b.
4. A.Navoiy.Mukammal asarlar to'plami 20 jildlik,XI jild.- Toshkent:Fan.1993.Nashrga tayorlovchi M.Xamidova,T.Axmedov.-640 b.
5. Botirbek Hasanov.Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at.- Toshkent:Fan,1993.-375b.

AHMAD YASSAVIY HIKMATLARINI QIYOSIY O'RGANISH

K.A.Hakimboyeva,

Buxoro davlat universiteti magistranti,

Annotatsiya: Ushbu maqola Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat” asari nashrlari va manbalarining qiyosiy tahliliga bag'ishlanadi. Bunda, asosan, Ibrohim Haqqulov, Rasulmuhammad Abdushukurov, Toji Qorayev va Abul Bozorovlar tayyorlagan nashrlardagi tafovutlar o'rganildi.

Kalit so'zlar: hikmatlar, asliyat, qo'lyozmalar, ishonchli nashr, matniy noqislik, toshbosma nusxalar, yig'ma-qiyosiy matn.

Yassaviyshunoslikda chuqur o'rganilishi va hal etilishi zarur bo'lgan masalalar anchagina. Shulardan biri “Devoni hikmat”ning matni xususidagi turli bahs-u munozaralarga aniqlik kiritish, undagi farqlanish va noqisliklarni qiyosiy usulda tuzatishga erishishdir. Albatta, qadimiy nusxalarning yo'qligi yoki hanuzgacha topilmagani bu ishni to'la-to'kis hal etishga imkon bermasligi shubhasiz. Biroq keyingi asrlarga mansub “Devoni hikmat” qo'yozmalariga tayangan holda nisbatan ishonchli nashrlarni amalga oshirish mumkin.

“Devoni hikmat” nashrlarida yo'l qo'yilgan ayrim nuqson va kamchiliklar uchraydiki, bular hikmatlarning mazmun mohiyatiga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Jumladan, I.Haqqul, R.Abdushukurov va T.Qorayev, A.Bozorov nashrlarida ham ba'zi matniy tafovutlarni uchratishimiz mumkin. Quyida xuddi shunday hikmatlarga e'tiborni qaratamiz:

Xususan, 1991-yilda I.Haqqul tomonidan tayyorlangan hamda 1992-yilda R.Abdushukurov tomonidan tayyorlangan nashrlarda bir misra quyidagicha talqin qilingan: “**Nahi munkar**” qilg'onlarni *hurmat qilg'il*. [2, 52; 3, 25-b]. 2015-yilgi T.Qorayev, A.Bozorovlar tayyorlagan nashrda esa aynan shu misra: “**Nahi munkar**” qilg'onlarni *la'nat qilg'il*, shaklida berilgan. [5, 18].Ko'rib turganimizdek, har ikkala misradagi *hurmat qilg'il* va *la'nat qilg'il* jummalari bir-biriga zid ma'noli bo'lib turibdi. Hikmatning mazmuniga diqqat qilsak, “Amri ma'ruf qilg'anlarni izzat qilg'il, Nahi munkar qilg'onlarni hurmat qilg'il”, deyiladi. “Amri ma'ruf” va “nahiy munkar”—“yaxshilikka buyurish, yomonlikdan qaytarish” degan ma'nolarni bildiradi. Shundan kelib chiqqan holda, “hurmat qilg'il” jumlasini to'g'ri deb olsak mubolaga bo'lmaydi. Nashrlarni qiyosiy o'rganish jarayonida yana shunday zid ma'nolilikka duch keldik.1991-yil va 1992-yilgi nashrlarda: **To'qqizimda to'lg'onmadim to'g'ri yo'lg'a** [2, 52; 3, 25-b]. misrasi, 2015-yilgi nashrda **To'qqizimda to'lg'onmadim egri yo'lg'a**, tarzida ifodalangan. [5, 19]. Bizningcha, “To'qqizimda to'lg'onmadim to'g'ri yo'lg'a” misrasi ma'no jihatdan to'g'ri talqin qilingan. Sababi Ahmad Yassaviy ushbu

hikmatda to'qqiz yoshida hali to'g'ri yo'lga kirmaganini, Xojalikka bino qo'yib, toat-ibodat qilmaganini aytadi. 1991-yilgi nashr:

Qirq to'qqizda ishqing tushdi kuyib yondim,

Mansur sifat xolu xeshdin qochib, tondim. [2, 66].

1992, 2015-yilgi nashrlar:

Qirq to'qquzda ishqing tushdi kuyub yondim,

Majnun sifat xolu xeshdin qochib, tondim. [3, 29; 5, 27].

Bizning fikrimizcha, bu o'rinda Majnun nazarda tutilyapti. Sababi, 2015-yilgi T.Qorayev va A.Bozorovlar nashrida izohlanishicha, asos nusxa va yordamchi nusxalarda ushbu misra "Majnun sifat" tarzida yozilgan.

1991-yilgi nashr:

Tog'u toshga boshin urib *bexob* bo'lub,

Ahlu ayol xonumondin o'tar do'stlar. [2, 60]

1992, 2015-yilgi nashrlar:

Tog'u toshqa boshin urub *bexud* bo'lub,

Ahli ayol xonumondin o'tar do'stlar. [3, 30; 5, 28]

Ushbu hikmatda berilgan "bexob" va "bexud" so'zlari "Alisher Navoiy asarlari lug'ati"da quyidagicha izohlanadi: **Bexob** – "uyqusiz, uyg'oq" degan ma'noni bildiradi. **Bexud** so'zi esa "xushsiz, o'zidan ketgan, aqlu-hushidan ketgan" degan ma'noni bildiradi. [6, 279]. Shundan kelib chiqib, hikmat mazmuniga "bexud" so'z mos keladi, deb o'yladik.

Yoshim yetti yigirmaga, o'tdim maqom,

Bihamdilloh, pir xizmatin qildim tamom,

Dunyodagi qurtu qushlar qildi salom,

Ul sababdin Haqqa yovuq bo'ldim mano. [3, 26]

Ajratib ko'rsatilgan bir misra 1992-yilgi nashrda tushib qolgan va "Asliyatda bir misra tushib qolgan" degan izoh berilgan. 1991-yil va 2015-yilgi nashrlarda esa ushbu misra tushib qolmagan.

1991, 2015-yilgi nashrlar:

Qirq yettimda yetti yoqdin **xabar** yetdi,

Soqiy bo'lib jomi sharob Xojam tutdi. [2, 68;3, 29]

1992-yilgi nashr:

Qirq yettimda yetti yoqdin **ilhom** yetdi,

Soqiy bo'lib jomi sharob Xojam tutdi. [5, 27]

Ushbu hikmat *xabar* va *ilhom* so'zlari bilan farqlanyapti. Bizningcha, hikmat mazmuniga *xabar* so'zi muvofik keladi.

1991- 1992- yilgi nashrlar:

Ul sababdin ko'zim yoshlig', **qomatim dol**,

Ishq xanjari yurak-bag'rim tildi, do'stlar.[2, 61; 3, 32]

2015-yilgi nashr:

Ul sababdin ko'zum yoshliq, **qaddim hilol**,

Ishq xanjari yurak-bag'rim tildi, do'stlar. [5, 24]

Yuqoridagi hikmatda “qomatim dol” va “qaddim hilol” jumalari nashrlar orasidagi tafovutni yuzaga keltirgan. Bu ikkala jumla bir biriga ma'nosh bo'lgani uchun har uchala nashrda ham to'g'ri ifodalangan.

1991-1992-yilgi nashrlar:

Piri mug'on jur'asidin qatra totdim,

Yo'l topay deb boshim birla tunlar qotdim,

Bihamdulloh, lutf ayladi, nurga bottim,

Ko'ngul qushi lomakonga yetdi, do'stlar.

Qiyomatni shiddatidin aqlim hayron,

Ko'nglum qo'rqg'an, jonim hurg'on, xonavayron. [2, 61; 3, 27]

2015-yilgi nashr:

Piri mug'on jur'asidin qatra totdim,

“Hu-hu” teyu boshim bilan tunlar qotdim,

Zohir, botin maqomlardin yelib o'ttim,

O'zga ishni Olloh ma'lum qildi, do'stlar.

Qiyomatni shiddatidin aqlim hayron,

Ko'zum yoshlik, ko'nglum g'ashliq, xonavayron. [5, 25]

Ko'rib turganimizdek, yuqoridagi hikmatlarning jumalari bir-biridan ancha farq qiladi. O'ylashimizcha, buning sababi Ahmad Yassaviyning hikmatlari uning muridlari tomonidan tartib berilganda shunday har xillik yuzaga kelgan.

Xullas, qo'lyozmalarni qiyoslash orqali mavjud nashrlarda yo'l qo'yilgan xatolarni bartaraf etish ham "Devoni hikmat"ning qiyosiy-yig'ma matnini tayyorlash zaruriyatini ko'rsatadi. Albatta, taqdim qilinayotgan hikmatlarda ham xilma-xilliklar, qator matniy noqisliklar, vazniy saktaliklarga duch kelinadi. Ularni to'g'ri o'qish, kotib xatolarini tuzatish, matndan tushib qolgan ba'zi misra, so'z, ibora, qo'shimcha va hatto harflarni tiklash va tuzatish matnshunoslikning asosiy vazifasidir. "Devoni hikmat"ning qadimgi nusxalari bizgacha yetib kelmaganligi ko'pchilikka ayon. Shu sababli "Devoni hikmat"ning tanqidiy matnini tuzish hozircha imkonsiz. Lekin keyingi asrlardagi qo'lyozmalar, toshbosma nusxalar, yurtimizdagi va xorijdagi nashrlar asosida "Devoni hikmat"ning ishonchli bir yig'ma-qiyosiy (solishtirma) matnini tayyorlash zarur. [4,138]

Xulosa qilib aytganda, ma'naviyatimizning qudratli ustunlaridan biri bo'lgan Xoja Ahmad Yassaviy merosini keyingi avlodlarga to'laqonli yetkazish, matnlarni qiyosiy o'rganishda asarning o'ziga xos o'rnini belgilash borasidagi tadqiqotlar matnshunoslik oldidagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. A.Bozorov, T.Qoraev.«Hikmatlar kulliyoti»dan //Sharq yulduzi, 1992, 1-son, 3-19-b.
2. Yassaviy A. Hikmatlar (nashrga tayyorlovchi, so'z boshi va izohlar muallifi I.Haqqulov). – Toshkent, 1991.
3. Yasaviy Xoja Ahmad. Devoni hikmat. [Nashrga tayyorlovchi Rasulmuhammad Ashurvoy o'g'li Abdushukurov; Mas'ul muharrir , muqaddima, izoh va lug'atlar muallifi Mahmud Hasaniy].—T.:G'.G'ulom,1992.

4. Hoja Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat (Yangi topilgan namunalar) (nashrga tayyorlovchi – Nodirxon Hasan, mas'ul muharrir va so'zboshi muallifi – Ibrohim Haqqul). – Toshkent, 2004.
5. Ҳикматлар куллиёти/Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар/Боқирғоний Сулаймон (нашрга тайёрловчилар: Т.Қораев, А.Бозоров). —Т.: «O'zbekiston», Қайта нашр, 2015.
6. Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. I tom. O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti, 1983.

70230101 – Lingvistika: rus tili

СПЕЦИФИКА ОТРАЖЕНИЯ ЛЕКСИКИ ТРАДИЦИОННОЙ И НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЫ В ТЕКСТАХ РЕКЛАМЫ (НА МАТЕРИАЛЕ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)

Б.З. Гафуров

доктор философии PhD,

доцент кафедры узбекского языка и литературы,

русского языка, педагогики и психологии

Бухарского государственного медицинского института

им. Абу Али ибн Сины

Аннотация. В статье исследуются тексты рекламы на русском и узбекском языках, в которых отражены лексические элементы традиционной и народной медицины. Анализируется специфика лексики традиционной и народной медицины в сопоставительном плане.

Ключевые слова: текст рекламы, традиционная и народная медицина, медицинская лексика, русский и узбекский языки.

Тексты рекламы сферы медицины, которые окружают нас везде, создаются на основе лингвистических возможностей каждого языка. Для воздействия на состояние читателя, производителями в подобных рекламных

текстах параллельно используется лексика традиционной и народной медицины. Как в традиционной, так и в народной медицине, лексические элементы языка могут нести в себе отдельные или общие значения³⁵³.

Некоторые лекари (**tabiblar**), на базе своих знаний и трудового опыта производят лицензированные лекарственные препараты в виде эликсиров или бальзамов, и в целях их распространения обращаются к рекламе³⁵⁴. А текст рекламы, например, на узбекском языке оформляется таким образом: «*Toshmuhamedov eliksiri - bavo silni davolash vositasi. Bavo silni davolash uchun taklif qilinayotgan shifo vositasi ko'p unsurli elektrolit tarkibning yallig'lanishga qarshi va antiseptik preparatlar bilan birgalikdagi majmuidan iborat*». В данном тексте рекламы эликсир назван в честь производителя и обладает широким спектром возможностей при лечении геморроя. Синтаксические конструкции этих двух предложений состоят из ПП и ССП.

Как и в традиционной медицине, так и в народной широко распространены методы лечения женских и мужских болезней. Это такие, как бесплодие, простатит, нарушение функций мочеполовой системы и т.д. Для решения этих проблем производятся нижеследующие препараты на основе лечебных трав, которые по средствам медицинской лексики перечисляют их свойства и пользу. Например, **рекламные тексты на узб.яз.**, «*Mador balzami 14 turdagi dorivor o'simlikning 70% li meditsina spirtidagi biologik faol moddalar majmuidan iborat bo'lib: aqliy va jismoniy charchoqni oladi; organizmning umumiy quvvatini oshiradi; jinsiy faoliyatni kuchaytiradi*» (**jinsiy faoliyat** – половая функция) или «*Erkak va ayollar uchun turli xil giyohdan tayyorlangan toza 100% tabiiy Gulasal: immunitetni kutaradi, tanada charchoq holsizlik kamquvvatlikni ketkazadi; asabni tinchlantiradi, bosh og`rig`ini qoldiradi; qon tomirlarini kengaytirib, qonni suyultiradi, qonni tozalab qon*

³⁵³Gafurov B.Z. Medical terminology in advertising text. Scientific reports of Bukhara State University. –Bukhara, 2021. –№3. –P. 30-41.

³⁵⁴Gafurov B.Z. Analysis of medical version in texts of advertising of hygiene products in the fight against COVID-19 (on the material of Russian and Uzbek languages). Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL). –Indonesia. Vol. 3, Issue 1, January 2022. –P. 32-39.

faoliyatini yaxshilaydi, yurak urushini yaxshilaydi; davleniya qon bosimini meyorlashtiradi; **erkaklarda prostatani shamollashlarni davolaydi, peshob tomchilab kelishini davolaydi; erkaklarda jinsiy quvvatni oshiradi va maniy ishlab chiqarishni yaxshilaydi; bepushtlik (farzandsizlik) ni davolaydi; eyakulyasiyani oldini oladi ya`ni aloqa vaqtini uzaytiradi; buyrakga xam da`vo; kamquvvatlikni yo'qotadi; gemaroyni davolaydi; ayollar jinsiy shamollashini davolaydi va boshqa turli kasalliklarga shifo» (prostata – простатит, peshob tomchilab kelishi – подтекание мочи, erkaklarda jinsiy quvvat – мужская половая функция, maniy – сперма, bepushtlik – бесплодие, eyakulyasiya - эякуляция и т.п.).**

Особо отличаются грибы, как растительный организм, которыми широко пользуются в традиционной и народной медицине. Грибы обладая полисахаридами и тритерпенами хорошо помогают при борьбе уменьшения мокроты, помимо этого ими пользуются в качестве болеутоляющего и жаропонижающего лекарства. В наше время микология занимается учением грибов. МИКОЛО́ГИЯ -и; ж. [от греч. μύκης - гриб и logos - учение] Раздел ботаники, изучающий грибы³⁵⁵. В фармацевтических компаниях грибами пользуются при производстве настоек в виде лекарств, предназначенных для лечения онкологических заболеваний. Для создания рекламного текста этого средства на русском языке авторами использованы: существительное - **настойка** для описания формы (вида) и самого названия препарата, прилагательное - **противоопухолевое** (какое?), указывает на качество, при морфемном разборе оно состоит из: приставок **-противо** и **-о**, корня **-пух**, суффиксов – **ол** и **-ев**, окончания **-ое** и основы **противоопухолев-**, а также немаловажную функцию выполняет слово английского происхождения **stop**(стоп), который переводится как **остановка, конец, останавливаться**. Пример: **«Настойка гриба мейтаке мощное противоопухолевое средство. ДиабетСтоп. Женские гормоны в норме. Здоровая печень»** или **«Настойка**

³⁵⁵ Большой толковый словарь русского языка. Под ред. С.А. Кузнецова. -1-е изд.: СПб.: Норинт, 1998. - 1534с.

Мухомора красного СТОП – рак. Жизненный тонус. Здоровые суставы»; В следующем рекламном тексте, особо выделяется, использование отрицательной частицы **нет** и заимствованный с английского языка глагол **block** (блокировать, препятствовать, загораживать, задерживать и т.п.), которые служат как слова усилители значения в составе синтаксической конструкции: *«Настойка гриба веселка онко – нет. Блок вирусам. Холестерин в норме»;*

Народными целителями в целях лечения многих болезней и укрепления общего состояния организма больным рекомендуется «**пчелиная огнёвка**³⁵⁶». «**Пчелиная огнёвка**», с помощью относительного прилагательного в данном словосочетании указывается качество предмета. Так как в составе **пчелиной огнёвки** содержится вещество из личинки восковой моли, она помогает при повышении иммунитета, снижает уровень сахара, повышает уровень гемоглобина в крови, применяется при грибковых заболеваниях, облегчает состояние при диабете, используется при женских и мужских заболеваниях, нормализует сон и т.п. В свою очередь в современной медицине и фармацевтике **пчелиная огнёвка** считается важным компонентом лекарственных препаратов и на ее основе выпускаются экстракты, которые помогают при лечении ряд заболеваний, а этому свидетельствуют нами выбранные рекламные тексты на русском языке. В общем количестве нами были выявлены 11 рекламных текстов, где **пчелиная огнёвка** как экстракт применяется при решении ряд проблемах со здоровьем: 1) «**Огнёвка – Люкс усиленная формула с экстрактами трав для щитовидной железы**» (при решении проблем связанной с щитовидной железой); 2) «**Огнёвка – Люкс усиленная формула с экстрактами трав для печени**» (при решении проблем связанной с печенью); 3) «**Огнёвка – Люкс усиленная формула с экстрактами трав для сердца**» (при решении проблем

³⁵⁶Энциклопедический словарь медицинских терминов. –М.: Советская энциклопедия. –1982–1984 гг.

связанной с сердцем); 4) «**Огнёвка** – Люкс усиленная формула с экстрактами трав для глаз» (при решении проблем связанной со зрением); 5) «**Огнёвка** – Люкс усиленная формула с экстрактами трав для желудочно-кишечного тракта» (при решении проблем связанной с желудочно-кишечным трактом); 6) «**Огнёвка** – Люкс усиленная формула с экстрактами трав от паразитов» (при решении проблем связанной с бактериями и паразитами); 7) «**Огнёвка** – Люкс усиленная формула с экстрактами трав для бронхов» (при решении проблем связанной с воспалением дыхательных путей); 8) «**Огнёвка** – Люкс усиленная формула с экстрактами трав для мужчин» (при решении проблем связанной с половыми функциями среди мужчин); 9) «**Огнёвка** – Люкс усиленная формула с экстрактами трав для женщин» (при решении проблем связанной с половыми функциями среди женщин); 10) «**Огнёвка** – Люкс усиленная формула с экстрактами трав антивирус» (при решении проблем связанной с иммунной системой); 11) «**Огнёвка** – Люкс усиленная формула с экстрактами трав для сосудов головного мозга» (при решении проблем связанной с мозговым кровообращением). Сходство этих рекламных текстов заключается в том, что построение синтаксической конструкции в начале предложений повторяет друг друга, но в конечной части резко отличается, так как используется анатомическая терминология.

Итак, рекламистами в текстах рекламы медицинского назначения широко применяется лексика традиционной и народной медицины в целях передачи полезной информации для пользователей. Анализ текстов рекламы на русском и узбекском языках доказывает нам то, что термины народной медицины активно пополняют лексический состав традиционной медицины и являются актуальной проблемой для исследований в области медицинской терминологии в плане сопоставления разносистемных языков.

Список литературы

1. Большой толковый словарь русского языка. Под ред. С.А. Кузнецова. -1-е изд.: СПб.: Норинт, 1998. -1534с.

2. Gafurov B.Z. Medical terminology in edvertising text. Scientific reports of Bukhara State University. –Bukhara, 2021. –№3. –P. 30-41.

3. Gafurov B.Z. Analysis of medical version in texts of advertising of hygiene products in the fight against COVID-19 (on the material of Russian and Uzbek languages). Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL). –Indonesia. Vol. 3, Issue 1, January 2022. –P. 32-39.

4. Энциклопедический словарь медицинских терминов. –М.: Советская энциклопедия. –1982–1984 гг.

70230502 - Adabiyotshunoslik: rus adabiyoti

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ТВОРЧЕСТВА Л. ПЕТРУШЕВСКОЙ

С.Файзиева,

БухГУ, Магистр

Литературоведение (русский)

Аннотация: Творчество Петрушевской - особый, во многом уникальный художественный мир. Художественный мир Людмилы Петрушевской представляет собой сложный синтез взаимоисключающих эстетических тенденций: постмодернизма и реализма, натурализма и сентиментализма, модернизма и барокко. Жанровое разнообразие её произведений достаточно велико. Это и драматургические, прозаические произведения, а также сказочная проза.

Ключевые слова: своеобразие, художественный мир, жанр, драматургия, сказка

С первого появления на литературной арене - в 1972 г. в журнале «Аврора», где были опубликованы два её рассказа: «История Клариссы» и «Рассказщица», писательница поставила перед критиками и теоретиками литературы ряд загадок, одной из которых стал оригинальный образ

повествователя. Петрушевская обнаружила дар «стенографического воспроизведения» бытовых ситуаций, пугающе точно излагая их «ненавистным, сумасшедшим языком очереди». Язык ее произведений стал выразителем «психопатологии обыденной жизни». Но только этот необыкновенный стиль Петрушевской и смог вызвать «эффект самовыражающейся жизни», сделав ее одной из самых заметных фигур в современной прозе. Но путь к славе и признанию оказался не легким для писательницы.

В "застойные" семидесятые годы произведения молодой писательницы, окончившей в 1961 г. факультет журналистики МГУ им. М.В. Ломоносова, печатали с большим трудом. После публикации в «Авроре» двух её рассказов, лишь спустя семь лет увидела свет её одноактная пьеса «Любовь» ("Театр". 1979. №3). При этом еще не напечатанные пьесы Петрушевской ставились на московской сцене: "Уроки музыки" (1973) были в 70-е годы поставлены Р. Виктюком в Студенческом театре МГУ, одноактная "Любовь" (1974) - Ю. Любимовым в Театре на Таганке в 1980-е гг. Удачным оказался спектакль 1985 года в театре Ленинского комсомола по пьесе "Три девушки в голубом". Ситуация с публикацией произведений Петрушевской изменилась в период перестройки.

В 1988 г., наряду с первым сборником пьес Петрушевской "Песни XX века", вышла ее книга рассказов "Бессмертная любовь". В 1991 г. писательнице присуждена Пушкинская премия в Германии.

Многие российские критики признали ее повесть "Время ночь" лучшим произведением 1992 года. В 1993 г. вышел сборник рассказов "По дороге бога Эроса", в 1997 в Москве опубликована книга "Настоящие сказки", в 1998 там же появился сборник прозы "Дом девушек", где опубликованы, наряду с рассказами, и повести Петрушевской, ранее печатавшиеся лишь в журналах. Признание пришло к уже зрелому автору потому, что Петрушевская талантливо и смело показала страшные реалии жизни "застоя"

и первых лет перестройки. "Серая" будничная жизнь изображена в прозе Петрушевской в ритмах и речи сегодняшнего дня "Сильно. Кратко. Жестко" (Михайлов А. Ars Amatoria, или Наука любви по Петрушевской // Лит. газ. - 1993. - 15 дек. N 37. - С. 4.). Писательница подчеркивала: "...Мое рабочее место на площади, на улице, на пляже. На людях. Они, сами того не зная, диктуют мне темы, иногда и фразы... А я все равно поэт. Я вижу каждого из вас. Ваша боль - моя боль. Ее пьесы, рассказы и повести обычно ужасают, а сказки, напротив, радуют - такой уж дар у этого художника слова.[1,с.37]

Драматургия и проза Петрушевской производят впечатление реалистической, но какой-то сумеречной. С конца 1990-х годов в ее прозе становится все более очевидно преобладание ирреального начала. Синтез реальности и фантазии становится в произведениях этой писательницы основным жанровым, структурно- и сюжетобразующим принципом. Примечательны в этом смысле как общее заглавие ее книги «Где я была. Рассказы из иной реальности» (2002), так и названия новелл, включенных в нее: «Лабиринт», «В доме кто-то есть», «Новая душа», «Два царства», «Призрак оперы», «Тень жизни», «Чудо» и др. В этом сборнике реальность отодвигается далеко в сторону «царства мертвых», таким образом, своеобразно преломляется идея романтического двоемирия, противопоставление «здесь» и «там» бытия. Причем Л. Петрушевская не стремится дать читателю целостное представление ни о реальной действительности, ни о таинственном потустороннем мире. На передний план выходит решение задачи соизмерения человека с неизведанным «царством», их взаимопроницаемости: оказывается, что запредельное и инфернальное не просто проникло в наш реальный мир - соседство с людьми темных мистических сил, ужасающих и одновременно манящих, является вполне органичным, законным и почему-то даже неудивительным.

Петрушевская никогда не делает различия между миром небесным и миром земным, более того, между миром сказочным, архаичным, и миром

цивилизированным. В ее прозе все запредельное прописано на той же улице и даже в той же квартире, в которой живет обыденность. Но не только таинственное и потустороннее проникает в «наш» мир, напротив, еще чаще сам человек проникает из «этого» мира в «тот», inferнальный, необъяснимый, пугающий.

Безусловно то, что человек (в данном случае - герой Петрушевской) тем или иным способом попадает на «тот» свет. Однако в основном читателю трудно понять и определить, куда именно попадает герой, ад перед нами или рай, современный вариант чистилища, греческий мифический Элизиум или Лимб, изображенный Данте - слишком часто причудливо переплетаются «царства» и так сильно они иногда похожи. Эта особенность мистической прозы Петрушевской одновременно является ее «изюминкой» и загадкой и в то же время камнем преткновения при ее прочтении. Таким образом, можно сделать вывод, что в таком направлении творчества Петрушевской как мистическая проза просматривается очевидная антиномия ада ирая.

Современная литературная критика связывает Петрушевскую с "другой литературой", осваивающей прежде "табуированные" для советской литературы жизненные реалии - тюрьму, "дно" общества и т.п., что характерно для новой "натуральной школы". После М. Горького социальное "дно" нашло своего исследователя и художника в лице Петрушевской. Причем, в отличие от М. Горького, в отношении которого к обитателям социального "дна" сочетались элитарность ницшеанского толка ("Человек - это звучит гордо!") и демократизм, позиция писательницы поистине демократична. Верна оценка критика И. Борисовой: в творчестве Петрушевской демократизм - и "чисто художественная категория, ...и этика, и эстетика, и способ мышления, и тип красоты».[2]

Основная тема большей части рассказов, повестей и сказок Петрушевской - изображение женской любви - к мужчине, детям, внукам, родителям. Скромная библиотекарь Пульхерия, героиня рассказа "По дороге

бога Эроса", увидела в своем возлюбленном не седого и немолодого человека, сумасшедшего гения, а мальчика, "ушедшее в высокие миры существо, прикрывшееся для виду седой гривой и красной кожей". Пульхерия отдала всю себя этому чувству. В великолепном рассказе "По дороге бога Эроса" показан и феномен мужской любви. Но за редкими исключениями эта любовь рисуется как родственная - к родителям, обычно к матери (данная тема как нельзя лучше разработана в рассказе "Младший брат").[3, с.85]

